

Замонавий

таълим-тарбия жараёнини
ташкил этишнинг устувор
йўналишлари, ижтимоий
ва педогогик-психологик асослари



**ЁШЛАРГА ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ МАРКАЗИ**

**«ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИНИ
ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ,
ИЖТИМОЙ ВА ПЕДОГОГИК-ПСИХОЛОГИК
АСОСЛАРИ»**

**МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ**

Мақолалар тўплами

Тошкент-2022

Замонавий таълим-тарбия жараёнини ташкил этишнинг устувор йўналишлари, ижтимоий ва педогогик-психологик асослари / Мақолалар тўплами. – Тошкент, 2022. – 422 бет.

Мазкур тўплам “Замонавий таълим-тарбия жараёнини ташкил этишнинг устувор йўналишлари, ижтимоий ва педогогик-психологик асослари” мавзусига бағишлаб ўтказилган Республика илмий-амалий конференцияси материаллари асосида тайёрланган. Ушбу тўпламда психология ва педагогиканинг назарий, методологик ҳамда умумпсихологик масалалари, ижтимоий-маънавий ўзгаришлар, ёшларнинг ижтимоий-психологик, ҳуқуқий муаммолари, унинг сабаб ва ечимлари, ёшларнинг хулқ-атвори ва дунёқарашида кузатилаётган ўзгаришлар, ижтимоий-психологик таъсирлар, ижтимоий-психологик муаммоларнинг ёшлар руҳиятида намоён бўлиш хусусиятларини илмий тадқиқ этиш бўйича олиб борилаётган изланишларнинг долзарб йўналишлари, бу борада йиғилган маълумотлар ва улардан амалиётда фойдаланиш имкониятлари юзасидан амалий билимлар тақдим этилади.

Мақолалар тўплами соҳа мутахассислари, маънавий-маърифий ишларни ташкил этишга масъул ходимлар, педагоглар, амалиётчи психологлар, психология таълим йўналиши талабалари, тадқиқотчилар, психологияга қизиқувчи турдош йўналишлар вакилларига мўлжалланган.

ТАҲРИР КЕНГАШИ А ЁЗОЛАРИ:

МАРҒУБА МИРҚОСИМОВА - педагогика фанлари доктори, профессор

ЗЕБО КАСИМОВА - педагогика фанлари номзоди, профессор

АБДИМУМИН РАСУЛОВ - психология фанлари доктори, доцент

БАҲРОМ ФАРФИЕВ - социология фанлари доктори, доцент

ХЎЖАГЕЛДИ АЛИМОВ - психология фанлари номзоди, доцент в.б.

МИРМУҲСИН АКРАМОВ - психология фанлари бўйича PhD, доцент в.б.

ФЕРУЗА РАСУЛОВА - психология фанлари бўйича PhD, доцент в.б.

НАРГИЗА ҒАЙИБОВА - психология фанлари бўйича PhD, катта ўқитувчи

АЗАМАТ НАЗАРОВ - катта ўқитувчи

САРВАР ҚАХХОРОВ - таянч докторант, психолог

МАЪРУФ КУБАЕВ – стажёр тадқиқотчи, психолог

«Замонавий таълим-тарбия жараёнини ташкил этишнинг устувор йўналишлари, ижтимоий ва педогогик-психологик асослари» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференциясини ўтказиш Ўзбекистон ёшлар иттифоқи муассислигидаги Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази Илмий-психологик Кенгашининг 2022 йил 3 мартдаги 01-04/02 сонли мажлис баёни билан мақулланган.

Тўпламда келтирилган маълумотларнинг холислиги ва ишончлилигига мақола муаллифлари масъулдирлар.

ОИЛА – ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ХИМОЯСИДА ТАРҒИБ ЭТИШ ВА ЖАМИЯТГА СИНДИРИШ ИШЛАРИНИ ОЛИБ БОРИШ

*Лола Кучқорова Рузиевна
Қашқадарё вилояти Қарши шаҳар 17-мактаб психологи*

Ижод. У хоҳ адабиёт, хоҳ санъат, хоҳ театр, хоҳ тасвирий санъат бўлсин – нозик дид, нафис маҳорат билан сайқалланиб боради. Дилбар шеър, гўзал суврат, юксак ижро ўз шаклу-шамойили билан ихлосмандлар нима фтунетади. Дунё яралибдики, сокин таралаётган куй, жозибали оҳанг, дилтортар назм, бебаҳо асарлардур донаси истеъдодли инсонлар томонидан вужудга келаётир. Инсониятни эзгуликка, нафосат оламига етаклаётир. Ижодсиз ҳаёт – суви қуриган дарё кабидир.

Истеъдод эса... Хоҳ катта, хоҳ кичик бўлсин, ҳар бир инсонда баъзан ўзи англаб- англамаган ҳолда намоён бўлади. Кимдир ўз истеъдодини меҳнати, изланиши билан шакллантиради, кимдир уни шунчаки ўткинчи бир ҳолат деб баҳолайди.

Жажжи ўғил-қизларнинг, балоғатга етаётган ўсмирларнинг мўъжаз қалбида ҳамиша орзулар яшайди. Инсон болалигиданок орзулари билан улғая боради. Боғчага илк қадам қўйганида уни тасаввуридаги эртакнамо олам қаршилайди. Мусиқа, кўшиқ, шеър дунёсига шўнғийди. Мактабга қадам қўяр экан, уни китоб, билим, таълим – тарбия қаршилайди. Ўқитувчи ва мураббийлар эса буюк келажакка олтин пойдевор қўядилар.

Истеъдодли ўқувчиларни топпиш, уни шакллантириш ва ҳар томонлама кўмак бериш – бугунги даврнинг зарурияти.

Психолог бўлиб мактабга ишга келган кунимдан ўқитувчилар истеъдодли ўқувчилари ҳақида тўлиб-тошиб гапирдилар. Синфларга кирар эканман, ўқувчилар кўзидаги ёрқиннур, бийронлик, билимга чанқоқлик, адабиётга, санъатга ошуфталик мени бирзумда ром қилди. Уларнинг чизган расмлари, ёзган машқлари билан атрофимга йиғилганларида ва берилган

саволларига жавоб берганимдги ҳолатимни ҳозир эсласам, юрагим ҳаяжонга тўлади.

Табабсум билан уларга хайратимни улашаман. Ўқувчилардаги расм чизишга иштиёқ, ифодали шеър ўқишлари, нотикликдаги маҳорати, санъатга бўлган муҳаббати, ясаган турли хил ўйинчоқлари- ютўқиган, тикка нишлари барчаси – улар истеъдодининг бир қиррасидир. “Республика ўғил болалар ва қиз болалар ўқув-тарбия муассасалари тарбияланувчиларини ижтимоий-психологик қўллаб –қувватлаш ва касбга йўналтириш “. Ҳиссиёт турларини аниқлаш.

Атрофимга иқтидорли ўқувчиларни жамладим. Маҳорат дарсларида, тренинг машғулотлар, суровномалар олиб, дарсларида адабиётнинг, тасвирий санъатнинг сир-асрорларини тушунтираман. Бирга расм чизаман, бирга шеър ва ҳикоялар машқ қиламан.

Ўқувчилар истеъдодини юзага чиқаришда матбуот, телерадио компаниялари, ижод мактаблари катта аҳамият касб этади. Энг аввало ижодкор ўқувчи қобилиятини шакллантириб бориш, юзага чиқариш, ўз устида ишлашига шароит яратишни таъминлаш – биз психологларнинг масъулиятимиз ҳисобланади.

Муҳтарам Президентимиз томонидан йўналтирилган 5-ташаббуснинг айнан биринчи йўналиши бўйича иқтидорли ўқувчиларни саралаб, улар билани шолиб бориш натижасида муваффақиятлар сари қадам ташламоқдамиз. Мен фаолият олиб бораётган Қарши шаҳар 17-сонли умумий ўрта таълим мактабида иқтидорли ўқувчилар бор. Санъат йўналишида Достон Очилтошев ўзининг қўшиқ куйлаш қобилияти билан, Муҳиддинова Малика назм ва насрда, Муҳиддинова Мафтуна тасвирий санъатда, Бобоева Фарангиз журналистика бўйича, Мейлиев Султонбек, Умаров Раҳим, Намозов Шаҳриёр, Орипова Лола нотикликда, китобхонлик бўйича Ҳошимова Зарнигор мактабда ўтказилаётган танловлар, адабий-бадий тадбирларда ўз қирраларини намойиш қилмоқдалар. “Қизларжон”, “Заковат” ва “Билимдонлар” биллашувлари, “Талантшоу” дастурлари ўтказилди. Бундан

ташқари ўқувчиларим “Серқирра юлдузлар” ва бошқа каналларнинг онлайн танловларида қатнашиб, диплом ва сертификатларга сазовор бўлиб келмоқда. “Ранглар жилоси”, “Ўзбекистон – ягона Ватан” мавзуларида расмлар ва иншоолар танловлари, “Менинг иқтидорим” актёрлик маҳорати танлови, “Касбим-келажагим”, “Ижодкор қўллар” мавзусида турли буюмлар яшаш, тўқиш ва тикиш бўйича танлови, “Китоб - офтоб” мавзусида китобхонлик танловларини ўтказиб бориш режалаштирилди.

Бугун биз, ота-оналар фарзандимиз таълим-тарбиясига бефарқ булмасак, келажақда бу ҳолат унинг тақдирига салбий таъсир қилади. Албатта, мактабда жонкуяр устозларимиз ҳар бир болага нафақат илм, балки тарбия бериш учун бор имкониятини ишга солмоқда. Лекин ота-она томонидан кўрсатилган эътиборсизлик оқибатида боладан биз кутаётган буюк авлод етишиб чиқиш даргумон. Ҳар бир ўқитувчи ва ота-она маъсулиятини бирдек ҳис қилиб, ўзаро ҳамкорликда боланинг таълим –тарбияси устида иш олиб борилса таълим соҳасида натижалар ижобий бўлади. Ота-оналаримиз фарзандларига меҳрли, оқибатли бўлишиб тарбиясига яқиндан ёндошиб уларни ҳар бир сўзига эътиборли булиши ҳамда тўғри йул кўрсатиб ҳам нафас булишса фарзандларимиз ҳар бир тусиқдан қийинсиз орзулари сари интилишади.

Муваффақиятга эришиш йўлида биз энг яхши характер хусусиятларни ривожлантираемиз, руҳида кучли бўлаемиз. Исталган нарсага эришганингиздан сўнг, инсон ўзини ҳурмат қила бошлайди. Ҳаётда мақсадга эришиш муҳимлигини англайди.

Маънавиятли, маърифатли халқимиз. Мамлакатимизда маънавият юксак баҳоланади. Адиблар, шоирлар, рассомлар, театр ва санъат дарғалари – улуғ устозлар изидан бориб ижод йўлига қадам қўяётган ёшларимизга мадад ва қўмакчи бўлсак, келажақда улардан моҳир рассомлар, шоиру ёзувчилар, актёрлар, хонандалар етишиб чиқишига кафил бўла олаемиз.

Асрларда вомида бизга ҳақиқат шиори бўлиб келаётган буюк маърифатпарвар Абдулла Авлоний таъкидлаганидек: “Тарбия биз учун ё ҳаёт – ёмамот, ё нажот – ё ҳалокат, ё саодат – ё фалокат масаласидир”.

CONDITIONS THAT CAUSE THE FORMATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN CHILDREN OF ADOLESCENT AGE

Ibrohimjon Ubaydullayev Orif o'g'li

Psychologi of school №6-Sharaf Rashidov District of Jizzakh region Uzbekistan

Annotation: in the article we are talking about aggression, it is understood that any action aimed at causing harm or harm to another person, group of people or animal. Aggressiveness is a personal trait expressed in readiness for aggression. Hence, aggression is a certain set of actions that harm another object; aggressiveness ensures that the aggressor is ready to appropriately perceive and interpret someone else's behavior in the direction of aggression.

Key words: aggressiveness, behavior, activity, development

On the one hand, all the aggressive actions of the subject are not really offensive to the individual. On the other hand, the aggressiveness of a person does not always manifest itself in certain aggressive actions. Demonstration is not the manifestation of aggression as a personal property, but the result of complex interaction of trans-situational and situational factors at all times in certain actions. The situation factor in the aggressive actions of an non-aggressive person is the basis of these actions. Priority in the aggressive actions of an aggressive person belongs to personal qualities. In this way the aggression is situational and shaxsiyat stable and unstable. Aggression about the situation is manifested from time to time, and personal aggressiveness is a feature of stable individual behavior, which serves for this everywhere and always in a place where favorable conditions are created. Aggressiveness as a personal trait helps to measure, learn and, if necessary, psychological correction.

G.V.Burmenskaya believes that aggression as a personal feature can be closely related to cruelty, but does not coincide with it. Although cruelty is always condemned, aggression often takes socially acceptable forms, for example, in sports. Military also requires aggressive action. As a psychological phenomenon, aggression is morally

neutral because it is approved by society and can lead to illegal behavior. An aggressive person can not be cruel, if in his actions there is no reason to bring suffering and suffering for his own benefit. A cruel person is always aggressive. Violent aggressive behavior is not only in the form of action, but also in the form of cruel aggressive behavior, but also in the form of A.I.As Zakharov noted, it can be done only in the form of movements.

Aggression can differ in the form of violence and manifestation: from the manifestation of hostility and bad will to verbal abuse ("verbal aggression") and the use of brute physical force ("physical aggression" - self-directed aggression. Each person has his own characteristics. aggression to a certain degree. Its absence leads to passivity and conformity. Its excessive development begins to determine the whole image of a person who is not capable of dependence, partnership and cooperation.

Socialization of aggression, A.Enikeev believes that "the process and result of mastering the skills of aggressive behavior in the process of mastering the social experience of the individual and the development of aggressive training of the individual".

V.V.according to the words of. According to koklyukhin, the aggressiveness of a person can be a way to protect his attitude to himself at the level of his social activity. A negative attitude to oneself can be compensated for by the fact that he has a low self-esteem, committed by a person asocial aggressive actions. A person who protects his attitude to himself with the help of aggression is not able to interact on an "equal" basis. The explanation for this is that he does not have a stable personal position, he is absorbed into his "I"low.E.V.The formation of aggressive behavior according to Zayk is a complex and multifaceted process, in which many factors are influenced. Aggressive behavior is determined by the influence of the peer family and the media.

A.E.According to lichko, adolescents learn through direct manipulation of aggressive behavior, as well as by observing aggressive actions. When we come to the family, aggressive behavior is influenced by the level of family cohesion, closeness between parents and children, the nature of the relationship between brothers and

sisters, and the style of Family Management. Children with a strong family disorder, whose parents are alienated and cold-blooded, are more prone to aggressive behavior.

The teenager also receives information about the aggression from communication with peers. Children learn to keep themselves aggressive by observing the behavior of other children. Peer games give children the opportunity to learn to be in an aggressive relationship (for example, a fist or an insult). A.I. Zakharov believes that noisy games – in which teenagers push each other, chase each other, mock each other, kick and try to harm each other-can actually be a relatively “safe” way of teaching aggressive behavior. However, those who are extremely aggressive, perhaps, can be rejected by many in their age group. On the other hand, these aggressive adolescents can make friends with other aggressive peers. Of course, this raises additional problems, because in an aggressive company, the aggressiveness of its members is mutual.

One of the main ways to teach aggressive behavior in children is to observe someone else's aggressiveness. Adolescents who have experienced violence at home and themselves have become victims of violence are prone to aggressive behavior. One of the most controversial sources of aggressive education is the mass media. After years of research using a variety of methods and techniques, science has still not been able to determine how the mass media affects aggressive behavior.

E.V. According to zmanovskaya, in adolescence, both boys and girls have young periods, in which aggressive behavior is manifested at a high and low level. Thus, it turned out that the son has two peaks of aggression in children: 12 years old and 14-15 years old. Girls also show two peaks: the highest level of aggressive behavior is observed at 11 years old and at 13 years old. The comparison of the severity of the various components of aggressive behavior in boys and girls showed that in boys the tendency to direct physical and direct verbal aggression, and in girls the tendency to direct verbal and indirect verbal aggression is most clearly manifested.

It is necessary to distinguish aggressiveness and aggression. aggression is a certain set of actions that cause harm to another object; aggression ensures the willingness of the aggressor-oriented person to appropriately perceive and interpret someone else's behavior. Aggression of a person can be a way to protect his attitude to

himself at the level of his social activity. Aggressive behavior of adolescents, A.I.Zakharov believes that peers are determined by the influence of the family and the media.

So, having considered all the basic theoretical concepts of aggression, we take the following generalizing definition of this phenomenon as a case study:

Aggression is any manifestation of behavior aimed at insulting or harming another living being who does not want such an attitude. This definition states that aggression is a model of behavior, and not emotion or motivation. Although aggression is often associated with negative emotions, such as anger; with motivations-as a desire to harm or offend. Of course, these factors have a huge impact on aggressive behavior, but their presence is not the main condition for such behavior. The study was conducted with 6 girls and 9 boys enrolled in secondary school No. 2 of MKOU: 15 teenagers aged 13-15 years. 6 teenagers from 8 full-time families in incomplete families 8 teenagers and 1 disabled families are being trained.

The survey was conducted individually. 75 answers by the Bass-magazine method were asked to answer "yes" or "no". The results were recorded in the form of answers. The answers were evaluated on a scale of eight. By the number of games with the key, the index of various forms of aggression and hostile reactions is calculated. The sum of the indices 1 2 7 Gave Us the general index of aggression, and the sum of the indices 6 and 5 gave us the index of hostility. The norm of aggressiveness is the value of its index 21 plus or minus 4, and hostility - 7 Plus or minus 3. At the same time, attention was paid to the possibility of achieving a certain value, indicating the degree of manifestation of aggression.

As a result of the analysis of the results obtained, we found that in 9 subjects of different groups, the Aggressiveness Index increased by the norm (17-25 points), ie. It exceeds the value equal to 21 plus or minus 4. In the remaining 6 subjects, the index of aggressiveness does not exceed normal values.

Indicators of the unfriendly index on the same 6 subjects did not exceed the norm on 9 subjects - the indicators are higher than the norm and vary from 14 to 20 points, which significantly exceeds the norm.

LITERATURE

1. Mirziyoyev CityM. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the Daily rule of the activities of each leader. - Т.: "Uzbekistan", 2017. - 104 b.
2. Mirziyoyev CityM. We will restore the free and prosperous, democratic state of Uzbekistan together. - Т.: "Uzbekistan", 2017. - 32 b.
3. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psychology. Uchebnik dlya visshix uchebnix zavedeniy / G.M. Andreyeva. – 5-ye izd., ispr. i dop. - М.: Aspect Press, 2003. - 364 P.
4. Gaffarov A.Z., Yugay A.X. Pedagogical practice. Tashkent, 2002.
5. Gaziyeu E.G`. Psychology (psychology of age periods). Т., Teacher, 1994.
6. Davletshin M.G., Dostmukhamedova Sh.A., Toychiyeva S.M., Mevlonov

БОЛАЛАРДА УЧРАЙДИГАН НУТҚ НУҚСОНЛАРИ КАСАЛЛИГИНИ БУТУНЛАЙ ДАВОЛАБ БЎЛАДИМИ?

*Азимова Замира Зариповна
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 17-сонли ДМТТ логопеди*

Нутқ камчилиги ўз-ўзидан барҳам топмайди, балки вақт ўтган сари янада мустаҳкамланиб, зўрайиб боради. Нутқ камчилигига эга кишилар логопедик ёрдамга муҳтож бўладилар. Оғир нутқ камчиликлари боланинг нафақат нутқига, балки унинг умумий ривожланишига ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Нутқ нуқсонларининг келиб чиқиш сабаблари

Мутахассислар нутқнинг ўз вақтида ривожланмаслиги ёки кескин секинлашувининг сабаблари жуда кўп эканлигини аниқлашган.

1. Ҳомиладорлик даври (перинатал даври);
2. Туғруқ даври (натал даври);
3. Туғруқдан кейинги давр (постнатал давр).

1. Ҳомиладорлик даврида турли хил касалликларни бошдан кечириш, турли хил инфекциялар, интоксикация, ҳомила токсикози, гепоксия ёки кислород йўқотиш, қон босимининг ошиши, ҳомиладор аёл ва ҳомила қон гуруҳининг мос келмаслиги. Ҳомиладорлик пайтида сигарет, алкоголь ва гиёҳвандлик моддаларини истеъмол қилиш, ўз-ўзини даволаш, яъни айрим дори-дармонларни қабул қилиш. Ҳомиладорнинг ҳомила учун хавфли бўлган жойларда ишлаши (радиация).

2. Туғруқ даврида акушерлик патологиялари яъни, тос суягининг кичкиналиги, ҳомиланинг киндик ўқиға ўралиши. Туғруқдан олдин сув кетиши, ҳомиланинг нотўғри жойлашиши, туғруқ жараёнида бош миянинг жароҳатланиши, туғруқ жараёнидаги асфикция натижасида боланинг кўкариб туғилиши.

3. Туғруқдан кейинги давр - 1 ёшдан 3 ёшгача бўлган даврда бош миядан турли хил жароҳатларни олиш, бош миядаги инфекциялар, турли хил юқумли касалликлар сабабли юзага келади.

Нутқ нуқсонларини таснифлашда биринчи навбатда боланинг руҳий, ақлий ва эшитиш идроки текшириб олинади. Нутқ нуқсонлари оғир-енгиллигига қараб гуруҳларга ажратилади.

1. Дислалия – бу артикуляцион аппарат аъзолари нормал иннервациясида юзага келган логопатия бўлиб, асосан товушлар талаффузидаги камчиликлар ва баъзан фонематик идрок ривожланмаганлиги билан намоён бўладиган енгил нутқ нуқсони.

2. Дизартрия - бу артикуляцион аппарат аъзолари иннервациясининг органик жароҳатланиши натижасида юзага келадиган оғир нутқ нуқсони бўлиб, жуфт нейронларнинг шикастланиши натижасида юзага келади. Фалажланиш асосан бир тарафдан, чап ёки ўнг тарафдан бўлади. Бола тили асосан паретик фалажланган бўшашган ёки спастик, яъни таранг фалажланишда бўлади.

3. Алалия- бу бош миянинг органик жароҳатланиши натижасида юзага келадиган оғир нутқ нуқсони бўлиб, бу ташхис эшитиши ва заковати меъёрда бўлган шахсларга қўйилади.

Алалия нутқнинг 3та компоненти ривожланмаганлиги билан намоён бўлади.

4. Афазия- бу бош миянинг органик жароҳатланиши натижасида шакланган нутқнинг йўқолиши. Болалар афазияси тажрибада кам учрайди. Афазия асосан инсультдан кейин учрайди. Болаларда эса мия инфекциялари, мия ривожланиши даврида турли хил кучли травмалар натижасида юзага келади.

5. Ринолалия - бу артикуляцион аппарат аъзоларида туғма ёки орттирилган нуқсонларнинг бўлиши ёки артикуляцион аппарат аъзоларида бурун, бурун ҳалқум соҳасида фалажланишларнинг кузатилиши, бурун суягининг қийшайиши, бурун соҳасидаги турли хил ўсимталар, оденоидлар, полиплар бўлиши натижасида юзага келадиган оғир нутқ нуқсонлари ҳисобланади.

6. Дудуқланиш - бу оғзаки нутқ жараёнида артикуляцион аппарат аъзолари мускулларининг тортишиши сабабли оғзаки нутқнинг темпритмик ўзгариши натижасида юзага келади.

Дудуқланиш келиб чиқишига кўра 2 хил бўлади:

1. Невротик дудуқланиш (логоневроз) боланинг кучли руҳий кечинмалари, стресс, депрессия, кўркув, хаддан ташқари қаттиққўллик, чапақайликдан ўнг қўлга ўргатиш, оиладаги икки тиллилик, дудуқланувчига тақлид қилиш натижасида.

2. Неврозсимон дудуқланиш - бу бош миянинг органик жароҳатланиши, бош миядаги турли хил ўсимталар, дизартрия, таянч ҳаракат аъзолари касалликлари, ДЦП натижасида.

Дудуқланиш ўз вақтида бартараф этилмаса боланинг руҳий ривожланишига салбий таъсир этади. Бола ўз фикрини мустақил баён эта олмаслиги натижасида тенгдошлари билан мулоқотга кириша олмайди.

Нутқ нуқсонлари қуйидаги мезонлар асосида текширилади.

1. Гугулаш даври (3 ойликдан)
2. 1 ёш 6 ойликда 10-15 та сўз.
3. 2 ёшда 300 та сўз
3. 3 ёшда 1000 та сўз.
4. 6-7 ёшга келиб 4000 дан 5000 гача сўз луғат бойлигида бўлиши лозим.

Нутқ нуқсонларини бартараф этиш йўллари

1. Артикулция, нафас, майда қўл мускулларини ривожлантирувчи машқлар.

2. Логомассаж (нуктали , бўшаштирувчи, тетиклаштирувчи массаж)
3. Муаммоли товушни нутққа қўйиш (тақлид ва механик усулида)
4. Нутқни ривожлантирувчи дидактик ўйинлар.

Логопед тавсиялари

Боланинг нутқи кечикаётганини ёки товушларни нотўғри талаффуз қилаётганини, дудукланаётганини сезганингиз заҳоти мутахассисларга мурожаат қилишингиз лозим. Қанча эрта мурожаат қилсангиз, нутқ нуқсонлари шунча самарали бартараф этилади.

Болаларда учрайдиган нутқ нуқсонлари туғма ёки орттирилган бўлиши мумкин. Ҳомиладорликнинг дастлабки уч ойлигида онанинг вирусли касалликлар билан қаттиқ шамоллаши, уларни даволамасдан оёқда ўтказиши, ўзбошимчалик билан турли дори-дармонларни қабул қилиши, ота ёки онанинг гиёҳванд моддалар, алкоголь ва тамаки маҳсулотларини истеъмол қилиши, радиация, тос суягининг торлиги натижасида туғуруқда бола миясининг лат ейиши, киндигига ўралиши, бўғилиб қолиши, йўлдош кўчиб қолиши натижасида болага кислород етиб бормаслик ҳолатлари учраганда болада нутқий нуқсонлар келиб чиқиши мумкин. Шунингдек, бола туғилгандан то уч ёшга тўлгунга қадар оғир инфекцион касалликларга чалиниши, турли мия жароҳатларини олиши, боланинг илк ривожланиш пайтидан унга гапирмаслик, сўзларни тўлиқ ва ўз номи билан айтмаслик, тилга кира бошлаганда саволларига жавоб бермаслик, товушларни тўғри талаффуз қилмаслик ҳам нутқдаги камчиликларни келтириб чиқариши мумкин.

Ота-она, бобо-бувилар фарзанди ё неварасининг ҳар бир ҳаракатидан суюниб, унга «бола тилида» гапиришни хуш кўради. Нонни «нана», мушукни «миёв», кучукни «вов-вов» деб айтганда бола уларнинг номини шу ҳолда эслаб қолади. Натижада эса болада нутқнинг кечикиши кузатилади.

Булардан ташқари, ота-она эътибор бериши керак бўлган жиҳатлардан яна бири-боланинг овқатланиш рационали. Тишлари чиқа бошлагандан кейин бўтқа ва пюрелар, осон ютиладиган овқатлар қаторига чайналадиган таомлар-у мева-

сабзавотларни ҳам қўшиш керак. Кўп ҳолларда ота-оналар болам қаттиқ нарсани тишлаб қийналиб қолмасин деб, меваларни ҳам қирғичдан ўтказиб беради.

Аммо доимий равишда бундай йўл тутиш нотўғри. Бола чайнашни ўрганолмайди. Тишнинг вазифаси чайнаш ва чиққандан кейин буни бажариши керак. Чайнаш тишлар қаторининг ва жағларнинг тўғри ривожланишига, тил ҳаракатчанлиги яхшиланиб, бола товушларни ўзининг ёшига мос талаффуз қилишига ёрдам беради.

Эшитиш ва мия фаолияти меъёрида бўлган болалар 1,5-2 ойликдан бошлаб «агу-гугу» лашни бошлайди. Яқинлари у билан гаплашганда, бола «агу-гугу» деб жавоб қайтаради. 5-6 ойликдан то 8-11 ойликкача талаффузи осон бўлган лаб-лаб товушлари, лаб-тил товушларини талаффуз қилади.

Соғлом бола бир ёшида ўнтача сўзни осонлик билан талаффуз қила олиши керак. Умуман олганда, бир ёш руҳий, нутқий ва жисмоний ривожланишлар параллел ҳолда бошланадиган пайт. Бола билан кўп гаплашиш шу даврдан кечикмаслиги керак.

Масалан, машинада бирга кетаётган бўлса, «бу машина, у бизни манзилимизга олиб боради» деб машина ҳақида кам бўлса ҳам тасаввур бериш керак. Ёки болага олма кесиб бераётганда унинг шакли, ранги, таъми, қаердан олиб келингани ва фойдалари ҳақида айтиб едириш лозим. Булар боланинг хотирасида ўрнашиб, лексик луғат бойлигини тобора оширади.

AGAR BOLA INJIQ BO'LSA NIMALAR QILISH KERAK?

Jalilova Nilufar Erkinova
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 6-sonli DMTT uslubchisi

Agar bola norozi, achchiqlangan bo'lib, toqatingiz toq holatga tushgan bo'lsangiz, baqirish va urishish yordam bermaydi. Bor irodangizni mushtga to'plab, sababini aniqlashga urinib ko'ring.

Har bir bola, hattoki eng odoblisi ham vaqti-vaqti bilan farishtadan kichkina mahluqqa aylanadi. U injiqlanadi, asabiylashadi, doim “Istamayman! Qilmayman! Yoqmaydi! Yo’q...” kabi gaplarni qaytaradi. Va, har bir navbatdagi “yo’q” jahlni avjga chiqarib, asab tizimingiz asta-sekin qaynay boshlaydi. Aqlan hissiyotlar portlashi yaxshi emasligini tushunib turgan bo’lsangizda, navbatdagi injiqlik katalizator sifatida ishlaydi. Natijada, ham bolalar, ham kattalar azoblanadi.

Xo’sh, nima qilish kerak? Sabrni qayerdan olish mumkin? Sevimli va qadrli farzandlarimiz bilan nizolarning oldini olsa bo’ladimi? Urushish mumkin emas, tushunish Sabr kosangiz to’layotganini sezgan zaxoti o’zingizga “to’xta” deng. Bir necha marta chuqur nafas oling (yaxshisi nafasni bir necha soniyaga ushlab turing). So’ngra kichkintoyning asabiy holati sababini aniqlashga harakat qiling va uni bartaraf eting. Aksariyat hollarda osongina nizoning oldini olishga erishasiz. Odatda, bola zarar yetkazish uchun emas, balki asosli ravishda o’zini siz kutgandek tutmaydi. Uni urishish kerak emas. Ehtimol, u yuqori harorat tufayli siz istagandek qilishni xohlamagandir.

Yoki uni devordagi soyalar qo’rqitgandir. Bolalar injiqligining sabablari

1. Juda ko’p sarflanmagan energiya to’planib qolgan Agar bola uzoq vaqt faol harakatsiz qolgan bo’lsa, masalan multfilm ko’rgan yoki mashinada qimirlamasdan o’tirgan bo’lsa, u shu vaqt ichida to’plangan kuchini albatta chiqarishi shart. Bola uchun uzoq vaqt statik holatda qolish tabiiy emas. U huddi jo’shqin oqadigan va harakatda bo’ladigan daryoga o’xshaydi. Nima qilish kerak. Unga yugurish, sakrash, emaklash uchun imkon yarating. Har qanday jismoniy mashqlar bu g’ayratni kamaytirishga yordam beradi.

2. Bola hayajonlangan va nohush hissiyotlar girdobida Kichkintoy qo’rqan bo’lishi, siz esa buni hatto sezmagan bo’lishingiz mumkin. Yoki uning nimadandir jahli chiqishi, havotirlanishi mumkin. Albatta, bu hissiyotlarning barchasi yomon kayfiyat ko’rinishida tashqariga chiqa boshlaydi. O’z hissiyotlarini nazorat qilish va atrofdagilarga salbiy munosabatda bo’lishdan hamma kattalar ham o’zini tutolmaydi. Bolalarni-ku aytmasa ham bo’ladi. Kattalar uchun bolalarning hajonlanish uchun sabablari jiddiy ko’rinmasada, ularga e’tibor va hurmat bilan qarash kerak. Bolaga bu ahamiyatsiz narsa deyish kerak emas. Agar sabab shunday munosabatni yuzaga

keltirgan bo'lsa, demak unga e'tibor berish kerak. Nima qilish kerak. Uni tushunayotganingizni ayting. Siz ham qo'rqishingiz (jahlingiz chiqqan bo'lishini) mumkinligini ta'kidlang. So'ngra uning e'tiborini ijobiy narsaga qaratishga harakat qiling.

3. Bola ochiqqan yoki chanqagan va'zan kichkintoyning qorni ochganini tushunish oddiy narsadek tubladi. Biroq, asosiy qiyinchilik shundaki, hamma bolalar ham ovqatlanish yoki suv ichish istagini anglab yetmaydi. Ular noqulaylik sezadi, ammo negaligini tushunmaydi. Nima qilish kerak. Muntazam ravishda so'rang, taklif qiling, ba'zida esa majburlang. Ayniqsa, bu issiq kunda ichimliklarga tegishli.

4. Bola charchagan bolalarda charchoqni chaqiradigan sabablar ko'p. Jismoniy sabablardan tashqari (uzoq vaqt yurish yoki davomiy faol o'yinlar), ruhiy sabablar mavjud. Bola yuz berayotgan holat qiziq bo'lmasa yoki harakat o'ta uzoq davom etsa charchaydi. Shuningdek, bola ijobiy hissiyotlar ortiqchaligidan charchab qolishi mumkin. Ko'pincha ota-onalar attraksionli parkka tashrif, muzqaymoq va ko'plab ko'ngilochar joylardan so'ng farzandlari ming'illab jahli chiqqaniga hayron bo'lishadi. Buning javobi oddiy: yaxshi narsa ham me'yorida bo'lishi kerak. Nima qilish kerak. Bolaga dam olishi yoki bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish imkonini berish kerak.

5. Bola kasal bo'lib qolgan Ba'zida ertalab bola quvnoq, serharakat bo'ladi, so'ngra kimdir birdan tumblarni o'chirib-yoqqandek barchasi o'zgaradi. U injiqlanib, yig'laydi va qarshilk ko'rsatadi. Nima qilish kerak. Bolaga razm soling. Peshonasini ushlab ko'ring, haroratini o'lchang va asos bo'lsa shifokorga murojaat qiling.

6. Bola o'zining fikrini qat'iy ushlab olgan Hamma o'zini muhim deb hisoblashni istaydi, jumladan bolalar ham. Hattoki eng kichik yoshdagilar ham o'z fikri va qarashlariga ega shaxsdir. Bolalar ba'zida bo'lsa ham vaziyatni boshqarishni va qarorlarni mustaqil qabul qilishni istaydi. Qayerga borish, nima kiyish, qanday o'yinchoqlarni olish, qaysi yo'lni tanlash, kafeda nima buyurish. Bu ularning o'ziga baho berishini oshiradi. Nima qilish kerak. Agar siz uchun o'ta ahamiyatli bo'lmasa uning fikriga rozi bo'ling. Agar u talab qilayotgan narsani qabul qila olmasangiz, negaligini tushuntiring.

7. Bola kattalardan nusxa oladi Har bir odam shaxsiy sifatlar to'plamiga ega, noyob va ikkita bir xil odam yo'q. Biroq, atrof-muhit bizga huddi suv toshni yo'nganidek ta'sir ko'rsatadi. Biz o'zimiz anglamagan holda bir-birimizga taqlid qilamiz va o'xshab qolamiz. Amerikalik ruhshunoslar tomonidan o'tkazilgan tajriba mavjud. Izolyatsiyalangan xonaga yaxshi kayfiyatdagi ikki kishi taklif qilingan. Ular tanishib, bir-biri bilan muloqot qila boshlagan. Xonaga yomon kayfiyatdagi uchinchi odam kirgan. U jimgina bo'sh stulga o'tirib, hech narsa demagan, qimirlamagan, so'zlashmagan, suhbatda ishtirok etmagan. Shunga qaramay, qolgan ikki ishtirokchining kayfiyati yomonlashgan. Bolalar uchun oila va yaqin atrofdagilar huddi shu xona kabidir. Agar ota va ona asabiylashsa yoki jahldor bo'lsa, bola tez orada huddi shu holatni qaytaradi. Bolalar bizning kayfiyatimizga juda ta'sirchan va barchasini singdirib oladi. Nima qilish kerak. O'zingizga ehtiyot bo'ling va hissiyotlarni nazorat qiling. Foydali maslahatlar MBa'zida bolalar doim o'ziga e'tibor talab qilib, g'ashga tegadi va bir qadam ham tinch qo'ymaydi. Quyida bunday harakatning eng ko'p kuzatilgan sabablari: Bolaning mashg'ulotini o'zgartiring yoki unga mos o'rtoqlarni toping. Darhol muhim fikrni bo'lishish kerak. Shunchaki tinglang. Maqtov kerak. Nihoyat, bolangiz uzoq vaqt davomida ko'rsatishga yoki aytishga urinayotgan narsaga e'tibor qarating va maqtab qo'ying. Muhimi, asoslangan talabni injiqlikdan farqlay olish va muvofiq ravishda harakat qilish kerak. Agar bola xudbinlarcha olam faqat uning atrofida aylanishini talab qilayotgan bo'lsa, unga nohaqligini tushuntiring. U boshqalar kabi oiladagi barcha a'zolarining manfaatlarini hisobga olishi kerak. Nizoli vaziyatda doim tushuntirishdan boshlang va imkon boricha tanlov yarating. Faqat keyingina bolani majburlash mumkin. Ba'zida urushishga ham to'g'ri keladi, ammo buni oxirgi chora sifatida qo'llash mumkin. Bolalarga nimadir tushuntirayotganda ular sizni to'g'ri anglayotganiga va bir narsa nazarda tutilayotganiga ishonch hosil qilish kerak. «bir kuni dengizga borishga otlandik. Kechqurun qaror qilib, ertalab jo'nab ketdik. Uch yoshli o'g'limizga mashinada ketayotganda qarorni aytdik, chunki nimadir o'xshamay qolsa hafa bo'lishini istamagandik. To'rt kunga dengizga ketayotganimizni eshitgan o'g'limiz yig'lab baqira boshladi: «istamayman! Orqaga qaytaring! Uyga ketamiz!» biz taajjublanib yo'l ustidagi kafe yonida to'xtadik. U shirinlik yedi, yugurdi va bir oz

tinchlandi. So'ngra, dengizgacha borib, faqat uni tomosha qilishga kelishdik. Agar unga yoqmasa darhol ortga qaytishimizni aytdik. Kerakli joyga yetib kelib, xonalarga joylashganimizdan so'ng bolaning kayfiyati keskin o'zgardi. U hursand bo'lib, kuylay boshladi, ryukzakidan o'yinchoqlarini olib, ularni tahlab chiqdi. Aniqlanishicha, o'g'limiz yaqinda o'zi ko'rgan multfilm qahramonlari kabi dengiz atrofidagi qumda yashaymiz deb o'ylagan ekan. Bu uni qattiq qo'rqitgan. Biz esa karavotli uyda joylashdik va bunday hordiq unga hush keldi. Biz uchun bu voqea yaxshi dars bo'ldi: har doim bir-birimizni to'g'ri tushunganligimizni aniqlashtirish zarur». Agar vaziyat keskinlashib, sabr-toqat borgan sari tugayotgan bo'lsa, bolani urushishdan avval tin oling. O'ngacha sanang. O'zingizdan so'rang: «nega? Bundan kimga yaxshi bo'ladi?» Va nihoyat, “yo'q” deyishni o'rganing. Buni ba'zida, ammo qat'iy amalga oshiring. Bolaga uning istagini tushunib turgan bo'lsangizda, qisqa va tushunarli tilda nima uchun bu ishni hozir qila olmasligingizni izohlang. Bola tushunadi. Agar u talab qilishda davom etsa (ko'pincha shunday bo'ladi), uning usullaridan foydalaning. Shunchaki, «yo'q, yo'q-yo'q», deya-qaytaring.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIGA TRATUARDAN XAVFSIZ HARAKATLANISHNI O'RGATISH

Jalilova Zebo Toirovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 3-sonli DMTT tarbiyachisi

Maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab o'quvchilari uchun yo'l harakati qoidalarini eslaylik. Yo'l harakati xavfsizligining dolzarbligi tobora ortib bormoqda va bu yo'llarda avto ulovlar sonining ko'payishi bilan bog'liq. Bunday sharoitda yo'l harakati foydalanuvchilarining eng himoyalangan toifasi bo'lgan bolalar uchun yo'l harakati qoidalariga rioya qilish katta ahamiyatga ega. Yo'llarda bolalar bilan sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalar ko'pincha quyidagilarga bog'liq: Avto ulov, trolleybus yoki boshqa to'siqlar tufayli transport vositasi qismiga noma'lum joyda, yaqin atrofdagi transport oldida chiqish; yo'lda o'ynash; qatnov qismida yurish. Bola bu harakatlarni yo'lda unga tahdid qiladigan haqiqiy xavfni baholay olmaslik sababli amalga oshiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yo'l harakati qoidalari ularning

hayoti va sog'lig'ini saqlab qolish uchun katta ahamiyatga ega va ota-onalar o'z farzandlarini qoidalarga hurmat ko'rsatishga va ularga qat'iy rioya qilish majburiy ekanligini tushunishga o'rgatishlari kerak. Bolalarni yo'lda harakatlanish va vaziyatni baholashga vizual ravishda o'rgatishingiz mumkin bo'lgan yo'lda bo'lgan bolalarning e'tiborini qoidalarga yo'naltirish juda foydalidir. Ota-onalar bolaga yo'lda, bolalar bog'chasida yoki maktabda o'zini qanday tutish kerakligini o'rgatadi deb umid qilmasliklari kerak. Ular atrofdagi yo'l transporti muhitida bolalarning o'zini tutish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga majburdirlar. Shu nuqtayi nazardan, kattalarning ijobiy namunasi juda muhimdir, chunki bolalarning yo'l qonunlarini idrok etishiga asoslanadi. Agar ota-onalarning o'zlari noma'lum joyda yo'lni kesib o'tishsa yoki bolaning huzurida yo'l signallarini e'tiborsiz qoldirsalar, u holda bolaning o'zi ushbu qoidalarga rioya qilishiga umid qilish bema'nilikdir. Shu sababli, siz bolaga yo'lda ehtiyotkorlikni tinimsiz o'rgatishingiz kerak. Yo'l harakati ishtirokchilarining xatolarini ko'rsatish; kitoblar, she'rlar o'qish orqali xavfsiz xulq-atvor to'g'risida olgan bilimlarini mustahkamlash va albatta, yo'lda to'g'ri xatti-harakatlarda bolaning ijobiy odatlarini rag'batlantirish haqida unutmaslik kerak. Shuni esda tutish joizki, bolalar xavfsizligi masalalarida hech qanday mayda-chuyda narsalar mavjud emas va muammolarni oldini olish har doim uni yengishdan ko'ra osonroqdir. Tarbiyalanuvchilarni bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish, ularni qiziqtirish maqsadida har-xil o'yinlar orqali, she'rlar orqali o'rgatsak ham bo'ladi.

Bolaga yo'l harakati qoidalarini qanday tushuntirish mumkin. Siz o'tish joyi bo'ylab yurishingiz va ikki g'ildirakli do'stingizni yoningizda ko'tarishingiz kerak. skuterda uch nafar bolani mashinalar bosib ketgan, uchalasi ham jarohatlar bilan kasalxonaga yotqizilgan. Ikkala holatda, bolalar yo'lni noto'g'ri joydan kesib o'tishdi, uchinchisida besh yoshli bola onasi hamrohligida tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyiga chiqib ketdi, garchi o'tish joylari velosipedda harakatlanmasligi kerak. yoki skuterlar. Nega bunday baxtsiz hodisalar qo'rqinchli muntazamlik bilan ro'y beradi? Bolaga yo'l harakati qoidalarini tushunishi uchun uni qanday tushuntirish kerak? . Biz avtoullov haydovchilariga tanbeh berishga odatlangan bo'lsak-da, ko'pincha ular baxtsiz hodisalarning aybdorlari emas. Avtoullovchilar hech bo'lmaganda Yo'l harakati qoidalarini bilishadi, lekin velosipedchilar va skuter egalari - na yosh, na kattalar - hech kim ularning Yo'l harakati qoidalari haqidagi bilimlarini tekshirmaydi. Shu bilan birga, haydovchi uchun turgan mashinaning orqasidan chiqayotgan odam odatda umuman ajablanib bo'ladi - u so'nggi daqiqada mashinaning oldida paydo bo'ladi, uning ko'rinishini oldindan aytib bo'lmaydi. Qo'shnilar bilan o'zinga va bolalarga nisbatan beparvo munosabat haqida gaplashishga urinishlarim natija bermadi - biz hovlida, bu yerda piyoda birinchi o'ringa ega! bu to'g'ri, ammo bu oddiy ehtiyot chorasini bekor qiladimi? Mutaxassislarining ta'kidlashicha, Yo'l harakati qoidalari rioya qilmasik o'zi

ko'pincha mamlakatimizda baxtsiz hodisalarni keltirib chiqaradi - yo'llarda ko'plab tuzoqlar mavjud. Shunday qilib, bolaga tushuntirish kerak bo'lgan birinchi narsa - bu hovlida yo'lning yo'lidan kam bo'lmagan holda ehtiyot bo'lish kerak. Siz mashinaning orqasidan yoki boshqa to'siqlardan haydab chiqmasligingiz kerak.

Siz hatto tashqariga chiqmasligingiz kerak - avval bir ko'z tashlang va avtomobil yo'qligiga yoki uning pastroq ekanligiga ishonch hosil qiling. Aniqlik uchun siz Internetda to'liq bo'lgan videolarni namoyish qilishingiz mumkin. Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasida bolalar skuterda qatnashgan uchta baxtsiz hodisa haqida xabar berib, ular alohida-alohida ota-onalaridan bolalarga eslatishlarini so'rashdi: siz faqat piyodalar o'tish joyidan o'tishingiz mumkin va yurishingizga ishonch hosil qilingva agar hamma birinchi narsani allaqachon bilsa, ikkinchisi ko'pincha unutiladi. Bir tomondan, skuterdan o'tish joyidan tezda o'tish mumkin bo'lsa, sakrab tushish noqulay. Boshqa tomondan, ko'pchilik haqli ravishda yo'l xavfli deb hisoblaydi. Shu sababli, yo'l bo'ylab yugurish yoki haydash yaxshiroqdir. Shunday qilib, umuman noto'g'ri xulosa umumiy hukmdan kelib chiqadi. Turli xil piyodalar va haydovchilar yo'lni qanday ko'rishini tushunib yetdim, siz o'zingiz mashinani boshqarguningizcha, siz tushunmaysiz tunda, ayniqsa yomon ob-havo sharoitida, piyodalar odam kabinadan deyarli ko'rinmas, buni siz so'nggi daqiqada sezasiz va bolani umuman ko'rmaslik oson,. Endi bolalarga nafaqat "yashil - boring, qizil - to'xtang" singari oddiy haqiqatlarni tushuntirish, balki nima uchun bunday qilish kerakligini ham tushuntirish va ba'zida u buni mashinaning kabinasidan to'g'ri bajarish, bolalar bilan bir joyga borganda - ularga boshqa tomondan transport holatini ko'rsatishga harakat qiladi.

Velosipedda yurgan bolalar alohida e'tiborga loyiqdir. Hali ham, ayniqsa u elektr bo'lmasa, yaxshi tezlikni rivojlantirish qiyin. Ammo velosipedda bu juda yaxshi. Bundan tashqari, agar yaqin atrofda velosiped yo'llari bo'lmasa, u holda velosipedchi o'zi uchun ham, boshqalar uchun ham xavfli manba bo'lib qoladi. Piyodalarda piyodalar uchun xavf tug'dirishi mumkin, yo'lda esa avtomobil g'ildiraklari ostiga tushishingiz mumkin. Shuning uchun, agar sizning farzandingiz ikki g'ildirakli do'stining muxlisi bo'lsa, unda u bog'larda yoki velosiped yo'llari bo'lgan joyda sayr qilsin. shuningdek , unga asbob-uskunalar sotib oling: hech bo'lmaganda dubulg'a, tizza va tirsak yostiqlari. Ular nafaqat baxtsiz hodisa sodir bo'lgan taqdirda, balki oddiy tushganda ham yordam berishlari mumkin.

Piyoda Ya'ni, har uchinchi avtohalokatdan ko'proq, hatto mashinada bo'lmagan odamlar ham qatnashgan. Bundan tashqari, poytaxt transport inspektorlari piyodalar o'tish joylaridan o'tish qoidalarini buzilishini og'ir oqibatlariga olib keladigan baxtsiz hodisalarga olib keladigan qoidabuzarliklarga qarshi reytingda ikkinchi o'ringa qo'yishdi. Shunday qilib, agar siz haydayotgan bo'lsangiz, esingizda bo'lsin - odamlar boshqa mashinalardan kam xavfli emas.

Yo'llarda haydash paytida velosiped haydash uchun odam kamida 14 yoshda, moped esa kamida 16 yoshda bo'lishi kerak. Velosipedlar, mopedlar iloji boricha iloji boricha bi rqtorda faqat eng o'ng chiziq bo'ylab harakatlanishi kerak. Piyodalarga xalaqit bermasa, yo'l chetida haydashga ruxsat beriladi. Velosipedchilar ustunlarini 10 kishilik velosipedchilar guruhiga bo'lish kerak. Ketishni yengillashtirish uchun guruhlar orasidagi masofa 80 - 100 m bo'lishi kerak. Velosiped va moped haydovchilariga quyidagilar taqiqlanadi:

Kamida bitta qo'li bilan rulni ushlab turmasdan;

7yoshga to'lmagan boladan tashqari, yo'lovchilarni ishonchli oyoq ustunlari bilan jihozlangan qo'shimcha o'rindiqa olib borish;

Uzunligi yoki kengligi 0,5 m dan kattaroq o'lchamlardan kattaroq chiqadigan yuklarni yoki boshqaruvga xalaqit beradigan yuklarni tashish; yaqin atrofda velosiped yo'li bo'lsa, yo'l bo'ylab harakatlaning;

tramvay harakati bo'lgan yo'llarda va ma'lum bir yo'nalishda harakatlanish uchun bir nechta chizikli yo'llarda chapga buriling yoki buriling. Velosiped yoki moped bilan ishlatish uchun mo'ljallangan velosiped treylerini tortib olish taqiqlanadi. Velosiped yo'lining chorrahadan tashqarida joylashgan yo'l bilan tartibga solinmagan chorrahasida velosiped va moped haydovchilari ushbu yo'l bo'ylab harakatlanadigan transport vositalariga yo'l berishlari kerak.

Kattalar, biz har uchinchi bolaning, avtoulodda yo'lovchi sifatida yo'l-transport hodisasi qurboni bo'lishi mumkin. Bu quyidagi qoidalarga rioya qilish qanchalik muhimligini isbotlaydi:

1. O'zingizni xavfsizlik kamaringizni va har doim bolangizni xavfsizlik kamarlaridan taqing! Shu jumladan, birovning mashinasida va qisqa masofani bosib o'tishda. Agar ushbu qoida avtomatik ravishda kattalar tomonidan bajarilsa, u holda bu osonlikcha bolada doimiy odat bo'lib qoladi.

2. Iloji bo'lsa, bolalar avtouloddagi eng xavfsiz o'rindiqa, orqa o'rindiqlarning o'rtasi yoki o'ng tomonida o'tirishlari kerak, chunki ular piyodalar yo'lagidan xavfsiz chiqib ketishlari mumkin.

3. Haydovchi yoki yo'lovchi sifatida siz ham doimiy namuna bo'lasiz. Boshqa yo'l foydalanuvchilariga nisbatan tajovuzkor bo'lmang, ularni tanbeh qilmang. Buning o'rniga bolangizga boshqa yo'l foydalanuvchilarining xatosi nima ekanligini tushuntiring. Xatolaringizni ham tinchgina tan oling.

4. Uzoq safarlarda tez-tez to'xtab turing. Bolalar harakat qilishlari kerak.

Zotan xalqimiz aytganidek –“Qush inida ko'rganini qiladi” deganidek bola ham uyida ko'rganini

qiladi. Biz tarbiyalanuvchilar uchun har doim o'rnak ekanimizni unitmasligimiz kerak

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.

2. Respublika bolalar kutubxonasi: www.kitob.uz.
3. «Maktabgachata‘lim» jurnali: www.jlmt.uz.
4. Maktabgacha ta‘lim vazirligi: www.mtv.uz.

BOLA O‘YIN FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKASI- O‘YIN MTT YOSHIDAGI BOLALARDA YETAKCHI FAOLIYATIDIR

*Hoshimova Zilola Hikmatovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 16-sonli DMTT direktori*

«Bolalar o‘yini ko‘p asrlik tarixga ega– deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, insonning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».

Rolli o‘yin - bog‘cha yoshidagi bolalaming yetakchi faoliyatidir. Rolli o‘yin mazkur yosh davridagi bolalaming eng muhim faoliyati bo‘lib, ular bunday o‘yinda go‘yo katta yoshdagi odamlaming MTT vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. Shu boisdan o‘yin faoljyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealari, oilaviy turmush hodisalari, shaxslararo munosabatlami umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar.

Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg‘u, o‘zaro muomala va muloqotlarining xususiyatlarini, o‘ziga va o‘zgalaiga, atrof-muhitga munosabatlarini yaqqol voqelik tarzida ijro etishi uchun turli o‘yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o‘tovchi narsalardan ham foydalaniladi. Ammo shuni ham alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o‘yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvr obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi, mohiyati va mazmuni jihatidan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

Rolli o‘yin faoliyatini vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri bolada o‘z xatti-harakatlarini kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish, aynan unga o‘xshatish tuyg‘usining mavjudligidir.

Xuddi shu sababli kattalar va ulaming xatti-harakatlari bolaning ham tashqi, ham ichki ibrat namunasi bo'ladi va kattalar uning xulq-atvori, yurish-turishining ham ob'ekti, ham sub'ekti hisoblanadi.

O'yin faoliyati nazariyasi

Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to'g'risidagi xilma-xil o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan.

N.M.Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bo'lishi lozim:

- a) taasurotlar tarkib topishi;
- b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining mihiyologiyasi;
- v) bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'satish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

D.B. Elkonin o'z tadqiqotida rolli o'yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi. Uning fikricha, yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o'yinning mazmunini tashkil qiladi.

A.P. Usovaning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, rolli o'yin ishtirokchilarining safi yosh ulg'ayishiga qarab, jinsiy tofovutlarga binoan kengayib boradi:

- a) uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruhga birlashib, 3-5 daqiqa birga o'ynay oladilar;
- b) 4-5 yoshlilar guruhi 2-3 tadan ishtirokchidan iborat bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi, o'yin davomida qatnashchilar soni ham ortib boradi;
- v) 6-7 yoshli bolalarda rolli o'yinni guruh yoki jamoa bo'lib birga o'ynash istagi vujudga keladi, natijada avval rollar taqsimlanadi, o'yinning qoidalari va shartlari tushuntiriladi (o'yin davomida bolalar bir-birlarining harakatini qattiq nazorat qiladilar). Eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynaydi.

MTT yosh davrida harakatning o'sishida o'yinning ta'siri haqida gap borganda, avvalo, shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'zi yoq mazkur

yoshdagi bolaning harakatini o‘stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Ikkinchidan, o‘yin bola harakatiga ta’sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko‘nikmalarini sub’ekt aynan o‘yin payti emas, balki bevosita mashg‘ulot orqali o‘zlashtiradi.

Uchinchidan, o‘yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o‘yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta’minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi.

Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o‘yinlarda ko‘proq so‘zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi:

- a) o‘yinda bola tomonidan ma’lum rol tanlash va ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi;
- b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti -harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada oldinroq paydo bo‘ladi va oson amalga oshadi.

Bola ruhiy rivojlanishida o‘yinning ahamiyati

O‘yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman aytganda, o‘yin va o‘yin faoliyati bolada o‘z hujumini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi, deyish mumkin.

Bolaning aqliy o‘sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o‘tish kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub’ekt o‘yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o‘tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga ularning xayoliy ko‘rinishiga o‘tishida uning uchun tayanch nuqtasi bo‘lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o‘tovchi narsalarning u aksariyatidan o‘yinda bevosita ob’ekt sifatida foydalanadi.

O'yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'g'risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog'liq o'yin harakatlarining takomillashuvi harakat shakli xususiyati, bosqichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. O'yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ko'rinishidagi mantiqan izchil, yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi. Psixolog J. Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to'g'ri yo'li ekanligini bildirmaydi. Shuning uchun narsaning nomini o'zgartirish bilan bolada tarakkur va aql-zakovat o'sishini kutish ham mantiqqa mutlaqo ziddir.

Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarining xususiyatini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. Darhaqiqat, o'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko'rinishi, ya'ni uning fikriy, aqliy jihati namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topadi.

Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Roli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, balki bolada shaxs xususiyat va fazilatlarini shakllantirishda ham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg'ularini qo'zg'atuvchilar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Chunki o'yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o'ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tug'iladi.

Adabiyotlar:

1. "Bolalar Psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" Z.Nishanova, G.Alimova

XALQ OG`ZAKI IJODI NAMUNALARI VOSITASIDA MAKTABGACHAYOSHDAGI BOLALARNI MA`NAVYIY-AXLOQIY TARBIYALASH

Muxammadiyeva Munira Mansurovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 6-sonli DMTT
tarbiyachisi

Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o`z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go`daklardan fikr va tafakkurni to`g`ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma`naviyatga ega bo`lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo`g`ini bo`lgan maktabgacha ta`lim tizimini rivojlantirishga alohida e`tibor qaratish lozimligini ta`kidlaganlar.

Zamonaviy maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyachilari ushbu vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham maktabgacha ta`limning integrativ xarakterini, o`zining bo`lajak kasbiy faoliyatining integrativ yo`nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo`lajak maktabgacha ta`lim tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, integrativ yondashuv nuqtai nazaridan ko`rib chiqilgandagina bo`lajak maktabgacha ta`lim tarbiyachilarining metodik tayyorgarligi samarali bo`ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda allaqo`shiqklarining ijtimoiyg`oyaviy mazmuni va tarbiyaviy ta`siri, xalq ertaklaridan maktabgacha yoshdagi bolalarni ma`naviyaxloqiy tarbiyalashda foydalanish mazmuni va xalq maqollari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda muhim ahmiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma`naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy, psixik rivojlanishlariga mos keladigan, o`zida ma`naviy-axloqiy sifatlarni jam qilgan ertaklar klassifikatsiyalangan. Bu ertaklarda o`rtoqlik va do`stlikning olijanoblighi, kamtarinlik, saxiylik, to`g`riso`zlik, vatanpravarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlarini targ`ib qiluvchi jarayonlarni aynan maktabgacha yosh davridan boshlash va unga amal

qilish zarurligi targ`ib qilinadi va bolalarni ham shu ertakdagi ijobiy obrazlardan namuna olishga undaladi.

Maqol xalq og`zaki badiiy ijodining keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maqollar asosan hayotiy tajribalar asosida maydonga keladi. Asrlar bo`yi og`izdan-og`izga o`tib kelayotgan maqollarda keng mehnatkash xalq ommasining dunyoqarashi, jamiyat va mehnatga munosabati, ota-onaga hurmat va Vatanga cheksiz sadoqat motivlari mujassamlashgan. Shuningdek, maqollarda xalq orzu-umidlari, insonparvarlik hislari ufurib turadi.

Maqollar mavzu jihatidan boy, xilma-xil va rang-barangdir. Ularda ona - Vatanni sevish, do`stlik, birodarlik, dushmanga nafrat, ahillik va birdamlik g`oyalari, yaxshilik, halollik, to`g`rilik hamda rostgo`ylik ulug`lanadi, yomonlik, yolg`onchilik va qalloblik esa qoralanadi:

Maktabgacha ta`lim muassasalarida mashg`ulotlarda maqollardan foydalanish bolalarning nutq malakasini shakllantirishi, ularda hayotiy tushunchalarning boyitishi, eng asosiysi, har bir maqol mazmunidagi insoniy fazilatlar; vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, kichiklarga izzat, do`stlik va uni qadriga yetish, kamtarinlik, rostgo`ylik, halollikka o`rgatish va aksincha, yomon illatlardan holi bo`lishga da`vat etilishi masalalari o`z aksini topgan.

Jumladan, maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida nutqiy vazifalarni hal etish uchun u yerda turli shart-sharoit yaratish muhim zamin hisoblanadi. Bunday sharoit bolalarda gapirish, atrofdagilarni nomlash, nutqiy muomalaga kirishish istagini tug`dirishi kerak.

Bola nutqini to`g`ri shakllantirishning umumiy vazifalarini aniqlashtirar ekanmiz, uning tarkibiy qismlariga to`xtalishga to`g`ri keladi. O`zaro aloqadorlikdagi bunday vazifalarni shartli ravishda yettitaga ajratish mumkin. Ular til va nutqning asosiy komponentlariga muvofiq keladi.

Maktabgacha ta`lim muassasida lug`at ustida ishlash dasturi mavjud. U tarbiyachiga bolalarni so`z tanlashga o`rgatish uchun mo`ljal olishga yordam beradi. Tarbiyachi, avvalo, bolaning atrofdagilar bilan normal muomalada bo`lishi uchun muvofiq so`zlarni tanlaydi. Bunday so`zlarni bolaning o`z holicha tanlashi qiyin. To`g`ri, bola ularni

o`zlashtiradi, ammo kattalarning yordami bilan o`zlashtiradi. Tarbiyachi maxsus usullarda yo`nalish beradi. Natijada u bola zarur so`zlarning ma`nosini bilib va tushunibgina qolmasdan, balki ularni o`z nutqida faol qo`llay olishiga, bolalarda so`zga qiziqish va e`tibor oshishiga ham erishadi. —Nega shunday deyiladi?»,

—Shunday deyish mumkinmi?»,

—Shunday qilib yaxshiroq, aniqroq aytish kerak? kabi usullar shular jumlasidandir.

Og`zaki nutq madaniyatiga o`rgatib, tarbiyalab borib, bolalarni qo`pol iboralar va oddiy so`zlashuvdagi so`zlardan qochish, ularni adabiy tildagi muqobillari bilan almashtirishga o`rgatadi. Lug`at ishi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirishga bog`liq ravishda amalga oshiriladi. Qaysi bir narsa va hodisani bildiruvchi so`zlar to`g`risidagi xabar o`sha ob`ektlar bilan tanishtiruvchi umumiy o`quv tarbiyaviy jarayonda beriladi.

Bola atrofdegilardan grammatik shakllangan nutq eshitadi. Eshitganlarini fikr qilib, grammatik qurilishni o`zlashtiradi, til modelini anglaydi. Tarbiyachi bolalar bilan xilma-xil nutqiy amaliyotlar tashkil etadi. Til o`rgatish tizimiga turli mashqlar kiritadi. Bu mashqlar bolalar e`tiborini ancha murakkab, shu bilan birga, ular uchun zarur jumla yoki birikma, ibora tuzilishlariga tortadi.

Nutqning eng muhim xususiyati uning ifodaliligidir. Bolalarda bu fazilatni tarbiyalash ularning ertangi kuni uchun zarurdir. Chunki bunday bolalar ulg`ayib, ko`pchilik oldida so`zlashda chechan bo`ladilar, notiqlikda o`zini ko`rsata oladilar. Shuning uchun bolalarda tabiiy ifodali nutqni tarbiyalash lozim.

Maktabgacha yosh ana shunday odat va ko`nikmalarni hosil qilishga eng qulay davrdir.

Hikoya qilishga (monologik nutqqa) o`rgatish. Monologik nutqni egallash bolalarni maktabga tayyorlash uchun muhimdir. Maktabda esa bu fazilat mustahkamlanadi. Bog`lanishli nutq tafakkurning, uning turli xususiyatlarining shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, hikoya bolaning so`z boyligini hosil qilishiga, jumla tuza olishiga, mazmunni kompozitsiyaga sola olishiga yordam beradi. Bunda bolada ko`rgazmali bo`lmagan har qanday og`zaki hikoyani tinglay olish, ularni tushunish, so`ng esa tinglaganlariga taqlid qilish, ya`ni o`ziga ham qayta hikoya qilish ko`nikmalari hosil bo`ladi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga o`zlari ham

oddiy hikoyalar tuzish o`rgatiladi. Ularning mazmunida ham, shaklida ham bolaning mustaqilligi va ijodiy faolligi ifoda topishi kerak.

Maktabgacha ta`lim muassasida shoshilmasdan, o`z fikrini o`ylab, tinglovchilarga murojaat qilib hikoya qilish ko`nikmalari tarbiyalanadi. Shuningdek, notanish davrada, masalan, bayramlarda, kattalar ishtirokida, boshqa guruhlarda so`zlashga ham odatlantiriladi. Bu esa nutkning takomillashuviga yordam beradi, topqirlikni, jamoada o`zini tuta bilish ko`nikmalarini rivojlantiradi.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Maktabgacha ta`lim muassasidagi tarbiyalanuvchilar bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari bilan tanishtiriladi. Tarbiyachi bolalarda ayrim oddiy ko`nikmalarni tarbiyalaydi. Bular badiiy asarni tinglash va tushunish, uning qahramonlari to`g`risida mulohaza bildirish kabilardan iboratdir.

Bolalar ayrim mazmunan sodda va oson she`rlarni eslab qolishlari, ifodali o`qishlari, yod aytishlari lozim. Bu vazifalarning barchasi bolada axloqiy qiyofa va estetik tuyg`ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog`liq. Tarbiyachi har bir bolada suratlarni tomosha qilish va o`qishga qiziqish uyg`otishi, kitob bilan to`g`ri muomala qilishga, o`z bilimlarini o`rtoqlari bilan baham ko`rishga o`rgatishi kerak. Shunga erishish kerakki, bog`chada badiiy so`z bolalarning doimiy hamrohiga aylansin. U kundalik sozlashuv nutqida yangrab tursin, tantanali, bayramona kayfiyat baxsh etsin, insseniroykalar, dramalashtirilgan o`yinlar, kinofilmlar orqali jonlanib, bolalar bo`sh vaqtini to`ldirib tursin.

Bolalarni savodxonlik ta`limig tayyorlash. Maktabgacha ta`lim muassasida bolalar nutqini o`stirish bo`yicha butun pedagogik ish ularni maktabda o`qishga tayyorlashga xizmat qiladi. Maktabda esa bolaning to`g`ri og`zaki nutqi, boshqalarni tinglash, ularning suhbatiga aralashib, fikr va munosabat bildirish, zarur bo`lganda, o`rtog`ining javobini to`lg`azish yoki tuzatish ko`nikmalari darkordir. Nutq bolalarga tahlil predmet bo`lib qoladi. Bu esa ularga katta qiyinchilik bo`lib tuyuladi. Maktabda muvaffaqiyatli o`qish uchun quyidagi sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi: pedagog tomonidai aytilganlarni tinglay olish, o`z fikrini yoyiq sodda gaplarda, uncha katta bo`lmagan bog`lanishli hikoyalarda, aniq, ochiq-oydin, grammatik jihatdan turli ifodalay olish.

Bu ko`nikmalar bolalarda, asosan, yuqori va tayyorlov guruhlarida maqsadli-mo`ljalli yo`nalishda hosil qilinadi. Shu bilan birga, olti yoshli bolalarga savod o`rgatish ishlari ham olib boriladi. Bolalar nutqning tovush tahlili bilan shug`ullanadilar, uch so`zdan gap tuzadilar va boshqalar.

Shunday qilib, biz bolalar nutqini o`stirishning asosiy vazifasini ajratamiz. Bu vazifalarning ko`pchiligi maktabgacha ta`lim muassasining barcha yosh guruhlarida hal etiladi. Faqat ularning aniq mazmuni hap xil bo`ladi. Chunki u bolalarning yosh imkoniyatlariga bog`liqdir. Ko`rsatilgan vazifalarning har biri ham ta`limiy, ham tarbiyaviy jihatga ega. Nutq o`stirish jarayonida shaxsning aqliy sifatlari shakllanadi, axloqiy, estetik tarbiyaning muhim vazifalari hal etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Maxmudova O.A."Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish metodikasi".O'quv qo'llanma."NISO POLIGRAF" Toshkent, 2019y.-152 b.
2. Sodiqova Sh.A - Maktabgacha pedagogika. Darslik - T.: Tafakkur bo'stoni. 470.
3. Sodiqova. Sh.A, Rasulxo`jayeva M. A. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish .2013

MTT YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Gadoyeva Maqsuda Mansurovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 6-sonli
DMTT logopedi*

Har bir o`yin – bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti, hamkorlik maktabidir. Samimiylik, o`zaro qo`llab – quvvatlash, quvnoqlik, kayfiyatlarini yaratish bilan o`yin orqali bola taraqqiyotiga erishiladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta`lim berishga yo`naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo`lsa, bugungi kunga kelib ta`lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o`ta qat`iy hamda murakkab talablar qo`yilmoqda. Mazkur vazifalarning muvoffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya`ni uzluksiz ta`lim tizimi xodimlari, murabbiy-

o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini mohiyatidan xabardorliklari hamda ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash nafaqat psixologik, balki pedagogikpsixologik, tibbiy-fiziologik va ijtimoiy jihatdan tayyorlansagina ish samarali tomonga siljiydi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarni to'g'ri, samarali tashkil etish esa bog'chada, oilada mahallada tashkil etilgan ishlarning ilmiy asoslangan turlariga bog'liq bo'lib buning asosini esa didaktik noan'anaviy o'yinlar tashkil etadi. Bunday o'yinlar bolalarning yoshiga, o'tkazuvchilarning pedagogik mahoratiga, maqsadni to'g'ri qo'ya bilish va uni qanday, qayerda, qachon tashkil etilishiga bog'liq bo'lib quyidagilar talab etiladi:

1. Bolalarda o'yinga nisbatan qiziqishni oshirish.
2. O'z qobiliyatlarini namoyish etishga imkon yaratish.
3. Boshqa bolalar va odamlar bilan musobaqaga kirishish.
4. Bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishda mustaqillikni o'rgatish.
5. O'yinda bola bilmagan bilim, ko'nikma va malakaning bo'lishi.
6. Taqdirlash, baholash, ijodkorligini alohida ta'kidlash va h.k.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o'yindir. O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi. O'yin bola uchun ermak,quvonch manbai bo'libgina qolmay, bola diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o'stirishga ham xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bundan keying hayotida muhim o'rin tutadi. O'yin jarayonida bolalar yangi bilim, malakalarni egallaydilar, qobiliyatlarini o'stiradilar.

Noan'anaviy o'yinlarni qiyosan bir necha mustaqil guruhlarga ajratish mumkin:

Idrokni o'stirishga qaratilgan o'yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko'ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi.

Maktabgacha yosh oxiriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7 xil rangni bemalol farqlay olishlari, ular asosiy geometrik shakllar (doira, oval, to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak, uchburchakni) bilishlari lozim. Bolalar narsalarning kattaligini farqlashda ularning

o'lchami bo'yicha terib chiqishni biladilar, 8-10 ta tayoqcha, doiracha yoki boshqa bir xil turdagi kattaligi har xil predmetlarni kattalashib va kichiklashib boruvchi tartibda qo'yib chiqadilar. Narsalar kattaligini 3 xil o'lchamda nomini ayta oladilar (uzunlik, kenglik, balandlik).

Diqqatni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar turkumi orqali maktabgacha yoshda bola diqqatining turg'unligi, qo'chuvchanligi, bo'linuvchanligi kabi xususiyatlari shakllantiriladi.

Diqqatning bo'linuvchanligi bir vaqtning o'zida kishining ikki yoki undan ko'proq narsa bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar 6-7 ta o'rtasida diqqatni taqsimlay oladilar.

Maktabgacha yoshda ixtiyorsiz diqqatdan asta-sekin ixtiyoriy diqqatga o'tiladi. Ixtiyorsiz diqqat jarayoni ayni paytda bola uchun qiziqarli narsaga diqqatni qaratishda yuzaga keladi. Ixtiyoriy diqqat bolaning o'zi uchun qiziq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullana olishini nazarda tutadi.

Xotirani o'stirishga qaratilgan o'yinlarga katta maktabgacha yoshdagi bola o'z oldiga maqsad qo'ya oladi, biror narsani eslab qolish, anashu maqsadni amalga oshirish vositalarini izlab topish shular jumlasidandir.

Tafakkurni o'stirishga qaratilgan o'yinlardan maqsad bolalarda obrazli, harakatli, ko'rgazmaliobrazli, mantiqiy tafakkur turlarini rivojlantirishdan iborat. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalarda mantiqiy tafakkur elementlari shakllana boshlaydi, ya'ni ular xulosalar qila oladilar, mantiq qoidalariga ko'ra fikrlaydilar. Bola ijodiy qobiliyatining o'sishi deganda tasavvur-xayolning taraqqiyoti va noan'anaviy tafakkur qila olish tushuniladi.

Maktabga tayyorlashda yordam beradigan o'yinlar orqali kichkintoylarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish, nutqning tahlili bilan tanishtirish, bola qo'lini yozuv malakasini egallashga tayyorlash ishlari olib boriladi.

Noan'anaviy o'yinlarni maktabgacha ta'lim muassasasida tashkil etishda, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga mos o'yinlarni taklif etish kerak. Shu maqsadda noan'anaviy o'yinlarni uch yoshli bolalar uchun o'yinlar; to'rt-besh yoshli

bolalar uchun o‘yinlar; olti yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yinlarni ajratish mumkin.

O‘yinlardan tashqari amaliy ishlar (o‘yinchoqlar bilan o‘ynash, yasash, yig‘ish va h.k.) ham o‘quv bilim jarayonini mustahkamlab bolalarni maktabga tayyorlashda asosiy omillardan hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, biz bolalar bilan olib boriladigan noan‘anaviy o‘yinlardan misollar keltirmoqchimiz. Bu o‘yinlardan uyda, bog‘chada foydalanish mumkin, faqat qoidalariga e‘tibor qaratish lozim. Avvalambor, o‘yinlarning bolani maktabga tayyorlashdagi psixologik jihatlarini ko‘rib chiqaylik. O‘yin bola uchun ermak, quvonch manbai bo‘libgina qolmay, bola diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o‘stirishga ham xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bundan buyong hayotida muhim o‘rin tutadi. O‘yin jarayonida bolalar yangi bilim, malakalarni egallaydilar, qobiliyatlarini o‘stiradilar. Ota-onalar o‘zlari ham bolalarga o‘yin mazmuni va yo‘nalishini taklif etishlari mumkin.

Bu o‘yinlarni qiyosan bir necha mustaqil guruhlariga ajratish mumkin. O‘yinlarning shunday alohida turkumi borki, ular bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashga yordam beradi.

Har bir yosh guruhi uchun (3yoshdan 6yoshgacha) bu o‘yinlarning barcha turlari tavsiya etiladi.

Idrokni o‘stirishga qaratilgan o‘yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko‘ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi. Maktabgacha yosh oxiriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7xil rangni bemalol farqlay oladilar. Ular asosiy geometrik shakllar (doira, oval, to‘rtburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak)ni bilishlari lozim. Namunaga ko‘ra yoki nomi aytilgan ma‘lum bir shakldagi narsalarni ajrata olishlari kerak. Bolalar narsalarning kattaligini farqlashda ularning o‘lchami bo‘yicha terib chiqishni biladilar, 8-10 ta tayoqcha, doiracha yoki boshqa bir xil turdagi kattaligi har xil predmetlarni kattalashib va kichiklashib boruvchi tartibda qo‘yib chiqadilar. Narsalar kattaligini 3xil o‘lchamda nomini ayta oladilar (uzunlik, kenglik, balandlik).

Navbatdagi o‘yinlar guruhi diqqatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular voqelikning ma‘lum jihatlariga qarata diqqatni to‘plashga o‘rgatadi. (Diqqatni

to'plamasdan hech bir ishni bajarish mumkin emas). Bu o'yinlar turkumi orqali maktabgacha yoshda bola diqqatini turg'unligi biror narsa ustida uzoq vaqt diqqatni to'plab tura olish, demakdir. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib bolalar 1-1,5 soatgacha uzluksiz shug'ullana oladilar.

Diqqatni ko'chirish – uni bir faoliyatdan ikkinchisiga o'tkaza olishdir. Diqqatning bo'linuvchanligi bir vaqtning o'zida kishining ikki yoki undan ko'proq narsa bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. Kata maktabgacha yoshdagi bolalar 6-7ta narsa o'rtasida diqqatni taqsimlay oladilar. maktabgacha yoshda ixtiyorsiz diqqatdan asta-sekin ixtiyoriy diqqatga o'tiladi. Ixtiyorsiz diqqat jarayoni ayni paytda bola uchun qiziqarli narsaga diqqatini qaratishda yuzaga keladi. Ixtiyoriy diqqat bolaning o'zi uchun qiziq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullana olishini nazarda tutadi.

O'yinlarning yana bir turi xotirani o'stirishga qaratilgan o'yinlardir. Katta maktabgacha yoshdagi bola o'z oldiga maqsad qo'ya oladi – biror narsani eslab qolish, ana shu maqsadni amalga oshirish vositalarini izlab topish shular jumlasidandir. Deyarli har bir o'yin uchun uni o'tkazishning soddaroq yoki murakkabroq ko'rinishlari keltiriladi. Shu sababli bola bilan o'yin tashkil etishda uning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Agar bola topshiriqlarni bajarishga qiynalmasa, unga birmuncha murakkabroq topshiriq beriladi, agar qiynalsa, soddaroq topshiriq berish lozim. Topshiriqni bajara olmagan uchun uni koyish kerak emas.

Bolalarga u yoki bu narsalarni o'rgatibgina qolmay, ularda o'ziga ishonch, dadillik, fikrni himoya qila olish, qarorida qat'iy tura olish kabi hislatlarni ham tarbiyalash zarur. Bu ayniqsa, ijodiy topshiriqlarni bajarishga tegishli. Bola tanqidni to'g'ri tushunishi, o'zining yangi g'oyalarini dadillik bilan ilgari sura olishi kerak. Bu holda ham bolaning individual xususiyatlari, albatta, hisobga olinishi muhimdir. Agar u dadil, o'ziga ishongan bo'lsa, o'z javoblarini tanqidiy baholashga o'rgata boshlash mumkin. Agar tortinchoq, uyatchan bo'lsa, uni qo'llab – quvvatlash, har qanday tashabbusini ma'qullash lozim. Agar kichkintoy topshiriqni tez almashtirmoqchi bo'lsa, pala – partish bajarsa, uni topshiriq bilan qiziqtirib, topshiriqning yangi jihat, tomonlarni topishga rag'batlantiriladi. Aksincha bola topshiriqni bajarishda o'ralashib qolsa, uni bir g'oyadan boshqasiga o'tishga undash lozim.

Tavsiya etilayotgan o'yinlarning har birini bitta bola bilan ham, bir necha bola bilan ham tashkil etish mumkin.

Agar butun oila birgalikda o'ynasa, nur ustiga a'lo nur. Siz bolaga hadya etgan quvonch sizning ham quvonchingizga aylanadi, u bilan o'tkazilgan har bir shodlik daqiqasi birgalikdagi hayotingizni yanada quvonchliroq, baxtliroq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.:Sharq||
2. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi.-T.:|O'qituvchil||
3. M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent.
3. Munavvarov A. Q. Oila pedagogikasi. - Toshkent :

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING PSIXIK O'SISHIDA O'YINNING AHAMIYATI. O'YIN TURLARI VA ULARNI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Ro`ziyeva Nafisa Ubaydullayevna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 6-sonli
DMTT tarbiyachisi*

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yini xilma-xildir. Ularni o'yin turlarini asosan quyidagi klassifikatsiya qilish mumkin.

- 1) syujetli va rollarga bulib uynaladigan o'yinlar;
- 2) Dilaktik o'yinlar;
- 3) Xarakatli yoki koidali o'yinlar;
- 4) Aralashtirilgan o'yinlar;
- 5) Kurish va yasash o'yinlari.

Syujetli va rollarga bulib uynaladigan bogcha yoshi bolalarni eng asosiy o'yin formasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kuprok «bogcha-bogcha», «poezd-poezd» kabi kizikarli bulgan o'yinlar uynaydi. Lekin turli yoshdagi bolalarning o'yinlari bir xil bulsa xam syujeti xar xil buladi. Masalan: kichik gurux bolalari «bogcha-bogcha»

o‘yinini uynar ekan ular peshinga ovkat pishiradilar, nonni kesadilar, idishni yuvadilar. Ammo kesilgan non kugirchoklarga berilmaydi, pishirilgan ovkat tarelkaga suzilmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga sensor tarbiya berishda didaktik o‘yinlarni roli katta. Didaktik o‘yinlar maktabgacha ta’lim muassasasida maxsus dastur asosida olib boriladigan mashgulotlarni muvaffakiyatli utkazishga, katta gurux bolalarini maktabdagi ukish faoliyatiga tayyorlashga katta yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlari ichida xarakatli yoki koidali o‘yinlar xam muximdir. Chunki xarakli o‘yinlar bolalarni jismoniy jixatdan chiniktiradi, dadil, kurkmas, epchil bulishga undaydi.

Bolalarga tashabbuskorlik, jamoaizm, burch xislarini ustiradi. Bunga «Kim birinchi», «koptok», «ok kuyonchautiribdi», «etib ol» o‘yinlari kiradi.

Xarakatli o‘yinlar asosan sayr va jismoniy tarbiya mashgulotlarida utkaziladi. Drammalashtirilgan o‘yinlarni xam bolalar sevib uynaydilar. Bu o‘yinlar turli xil ertak va xikoyalar saxnaga kuyiladi, rollarni esa bevosita bolalarni uzlari ijro etadilar. Masalan: «Kizil shapkacha», «Tormok», «SHolgom» drammati o‘yinlar bolalarni nutki xayol va kobiliyatlarini tarkib toptiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlari orasida qurish-yasash o‘yinlari hammaga ma’lum bir maksadga qaratilgan bo’ladi.

Ijodiy va syujetli o‘yinlarda bolalarning barcha psixik proseslari bilan birlikda individual (shaxsiy) xislatlari ham shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o‘yin maktabgacha ta’lim muassasadagi ta’lim – tarbiya ishlari orasida eng asosiy, markaziy o‘rinda turadi. Demak, maktabgacha ta’lim muassasadagi ta’lim – tarbiya ishlarini muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalarning o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog‘liqdir.

Bola psixikasining taraqqiy etishda o‘yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o‘yinsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Chunki, o‘yin orqali bola faqat jismoniy tomondan emas, balki psixologik tomondan ham rivojlanadi. O‘yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o‘rganibgina qolmay, balki nutq so‘zlashga, mustaqil fikrlashga xayol qilishga, ijod qilishga, muomala

madaniyatiga o'rganadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o'sishiga o'yinning ta'siri haqida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'ziyoz mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini sub'ekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. SHu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mutaql maqsadga aylanadi. Negaki, u (o'yin) sub'ekt (jonzot) ongining dastlabki ob'ekti darajasiga o'sib o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo'lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi.

Bolaning o'yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongil maqsadi harakatlarni bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi esda olib qolish va esga tushirish jarayonlariga aylanadi.

Bolaning laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi: a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rolni tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi; b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada olinroq paydo bo'ladi va oson amalga oshadi.

Bolaning aqliy o'sishi to'g'risida fikr yuritilganda, oldingi bobda qayd qilinganidek, shuni aytish ham kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub'ekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi.

Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Lekin o'yin faoliyatida

bolaning aqliy o‘shini chuqurroq izohlab berish hali etarli tajriba ma’lumotlari mavjud emas.

Rolli o‘yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, bolada shaxsiy xususiyat va fazilatlarni shakllantirishda sham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg‘usini qo‘zg‘atuvchilar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Chunki o‘yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug‘ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o‘ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta’siri ostida tug‘iladi.

Ma’lumki bolaning yoshi ulg‘ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofdagi narsa va hodisalar dunyosi ham kengayib boradi. Bolaning maktabgacha yoshdagi davrida, uning faoliyat doirasiga atrofidagi kuchi etadigan, qo‘lidan keladigan narsalardan tashqari, kattalarning faoliyatlariga doir, yani ularning hali mutlaqo aqlari etmaydigan, jismoniy jihatdan kuchlari etmaydigan narsalar ham kiradi. Chunki ular turmush tajribalarining ozligi va binobarin, haddan tashqari qiziquvchanliklari tufayli atrofdagi hamma narsa va hodisalarni bilishga intilaveradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mavxum nazariy faoliyatning, ya’ni nazariy yo‘l bilan bilish faoliyatining bo‘linishi mumkin emas. Bu yoshdagi bolalarning atrofdagi narsalarni bilish faoliyatlari faqat bevosita harakat shaklida bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning haddan tashqari faol (betinim, harakatchan) ekanliklarining sababi ham shundadir.

Maktabgacha yoshdagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevoisita amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa e’tiborliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining kuchi, aqli etadigan narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo‘lgan, o‘zini kuchi ham, aqli ham etmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga, ya’ni bilib olishga intilaveradi. Buning natijasida bolaning xaddan tashqari tez ortib borayotgan turlari ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasida keskin qarama – qarshilik yuz beradi. Masalan bola avtomashinani, tramvayni o‘zi xaydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo‘lib samolyotda uchkisi, rostakam militsioner bo‘lgisi keladi. Biroq,

bola o'zidagi bunday ehtiyojlarni birortasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Chunki bu yoshdagi bolada bunday kasblarga mansub bo'lgan murakkab ko'nikma va malaka yo'k, bo'lishi ham mumkin emas.

O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi. Shuning uchun psixologiya nuqtai nazardan oqilona ya'ni to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida –sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi.

O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti –harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlar shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga etishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (xavas) lari bevosita o'yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning xayolparastligi tufaydi narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga “o'zgartirish” imkoniyatini beradigan faoliyatdir.

Bolaning aqliy o'sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o'tish kerakki narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash xolatidan kelib chiqib, sub'ekt yin paytida faol qapakat kilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga

asoslangan xarakter rejasidan tasavvur qilinayotgan. fikr yuritilayotgan jismlar moxiyatini aks ettiruvchi xarakter rejasiga utadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga xayoliy kyirinishga utishida unga tayanch nuqtasi bulishi kerak, voxolanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini utovchi narsalarning aksariyatidan yyinda bevosita, ob'ekt sifatida foydalaniladi. O'yin faoliyatida mazkur jismlar kandaydir alomatlarini aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar tugrisida fikrlash uchun xizmat kiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi xarakterning yakkol narsa bilan boglik jixatini aks ettiradi. YUkorida aytilganidek, narsa bilan yyin xarakterlarining takomilla-shuvi xarakter shakli xususiyati, boskichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish xisobida amalra oshiriladi. O'yin xarakterlarining kisqarishi va umumlashuvi ularning akliy kurinishidagi mantikan izchil yigiq shaklga utishning asosini tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof hayotdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashlikka o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilishi materiallar bilan ishlash, muzika va boshqa mazmundagi mashg'ulotlar bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

Keyinchalik bolaning hayotiga alohida faoliyat turi kirib keladi. Bu faoliyatni shunday turiki uning bevosita maqsadi yangi-yangi informatsiyalar, harakatlar va ish-harakatlari shakllarini o'zgartirishdan iboratdir. Sub'ektning o'z maqsadi o'rganishdan iborat bo'lgan mana shunday maxsus faoliyat ta'lim jarayonidir.

Adabiyotlar:

1. Maktabgacha yoshidagi bolalarda o'yinning roli. ULASHEVA ELNORA metodika

МТТ БОЛАЛАРДА ЭЛЕМЕНТАР МАТЕМАТИК ТУШУНЧАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАР ВА ЎЙИНЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ

*Тошова Насиба Чимпўлатовна
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 7-сонли
ДМТТ директори*

**“Математика ҳамма аниқ фанларнинг асосидир. Бу фанни яхши билган бола
ақлли, кенг тафаккурли бўлиб ўсади, исталган соҳада муваффақиятли
ишлаб кетади”.** **Ш.М.Мирзиёев**

Мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотларнинг асосий мақсадларидан бири ёшларни билимли, салоҳиятли қилиб тарбиялаш ва бу орқали юртимиз фаровонлигини ошириш саналади.

Сўнгги йилларда математика илм-фани ва таълимини янги сифат босқичига олиб чиқишга қаратилган қатор тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Таълимнинг барча босқичларида математика фанини ўқитиш тизимини янада такомиллаштириш сари дадил қадамлар ташланмоқда.

Бизга маълумки, педагог ва психологларнинг фикрича, бола 5 ёшгача барча билимларнинг 70 фоизини ўзлаштиради. Мана шу ёшгача болага энг керакли билимларни ёшига мос равишда бериш боланинг келажакда қандай инсон бўлишига катта туртки бўлади.

Мактабгача ёшдаги болаларда математик билимларнинг етарли бўлишига катта аҳамият бериш муҳимдир. Чунки инсон ҳаёти давомида математик ҳисоб-китобларга тез-тез дуч келади, яъни математик билимлар ҳар қадамда керак бўлади. Агар биз мактабгача ёшдан болаларни математика оламига турли қизиқарли интерфаол усуллардан, ўйинлар фойдаланган ҳолда олиб кира олсак, математик билимлар билан етарли даражада қуроллантурсак, улар мактабда аъло баҳоларга ўқиб юқори натижаларга эришадилар. Ҳаётини давомида халқимиз учун фойдали касбни танлаш ва чуқур эгаллашда қийналмайдилар. Чунки қайси касбни олмайлик уни маҳорат билан бажаришга албатта математик билимлар керак бўлади.

Шу сабабли мактабгача ёшдан болаларга турли интерфаол усуллар, масалан, қисқа ҳикоя, кичик гуруҳларда ишлаш, муаммоли топшириқлар, амалий иш, жуфтликда ишлаш, арифметик масалалар бўйича ўйинлар ва бошқалар орқали болаларнинг ёшига мос математик билимлар бериб боришга катта аҳамият бериш муҳимдир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев раҳбарлигида 2020 йил 31 январь куни —Бой тарихимизга муносиб буюк келажагимизни барпо этадиган замон келди! мавзусидаги илм-фанни ривожлантиришга бағишлаб ўтказилган йиғилишда —Жорий йилда математика, кимёбиология, геология каби йўналишларда фундаментал ва амалий тадқиқотлар фаоллаштирилиб, олимларга барча шарт-шароитлар яратиб берилади. Шунингдек, илм-фан соҳасида фундаментал ва инновацион тадқиқотлар учун мақсадли грант маблағларини ажратиш механизмини тубдан қайта кўриб чиқиш кераклиги таъкидланган. Буни эса, айнан мактабгача даврдан бошлаш ўринли деб биламиз.

Элементар математика асосларини ўрганган бола қурилиш материалларини фарқлайди ва номларини тўғри айтишга ўрганади, лего, ғишт, кубларнинг ўзига хос хусусиятларини (мустаҳкамлиги, шакли, ранги, катталиги) билиб олади. Катта ва мактабга тайёрлов гуруҳларида қуриш яшаш, конструкция жараёнида болалар иншоотнинг ҳар бир қисмини таҳлил қиладилар, вазифаларини белгилашга, ишларни мустақил режалаштиришга ўрганадилар, қурилмаконструкциялар ҳақида маълумот эга бўладилар, қурилмаларни яшаш йўллари тушуниб оладилар, пазл, мозаика ва лего каби ўйинчоқлар ёрдамида камида 16 та бўлақдан иборат шакл йиғишга ўрганадилар.

Мактабгача ёшдаги болаларни давлат талабларига мос, педагоглар учун методик жиҳатдан ёрдам берадиган, мактабгача ёшдаги болалар фаоллигини ошириш, мустақил фикрлаш, компьютер технологиялардан илк қадамларини босиш, математик тасаввурларини шакллантиришга йўналтирилган манба мавжуд эмаслиги мактабгача таълим соҳаси олдидаги долзарб муаммолардан биридир.

Шу кунга қадар мактабгача ёшдаги болаларда математик тасаввурларни, сон-санок, миқдор, шакл, вақт ва фазода мўлжалга олиш билим, кўникма ва

малакаларини шакллантиришда кўргазмали, дидактик тарқатма материаллар, мультимедиа дастурлари, методик қўлланмалар, машғулот ишланмалари, интерактив дастурий таъминот етарли эмаслиги ачинарли ҳолат саналади. Бироқ, МТТ педагог-тарбиячилари турли интерфаол метод ва ўйинлар орқали болаларнинг математикага бўлган қизиқишини ошириши, уларда элементар математик тасаввурларни ривожлантириш мумкин.

Болаларда элементар математик тасаввурларни шакллантиришда тарбиячи ўқитишнинг ҳар хил усуллари - амалий, кўрсатмали, оғзаки, ўйин усулларидан фойдаланади. Усулни танлашда бир қатор омиллар - мазкур босқичда ечиладиган дастур масалалари, болаларнинг ёш ва индивидуал хусусиятлари, зарур дидактик воситаларнинг мавжудлиги ва бошқалар ҳисобга олинади.

Тарбиячи томонидан метод ва усулларнинг асосли танланишига, ҳар бир аниқ ҳолда улардан рационал фойдаланишга доимо эътибор бериб туриши қуйидагиларни таъминлайди:

- элементар математик тасаввурларнинг муваффақиятли шаклланиши ва уларнинг нутқда акс эттирилиши;
- тенглик ва тенгсизлик муносабатларини (буюмни сони, ўлчами, шакли бўйича) идрок қилиш ва ажратиш, натижавий муносабатлар (ўлчами ёки сони бўйича орттириш ёки камайтириш)ни, анализ қилинаётган объектларнинг миқдори, шакли, катталигини умумий белги сифатида ажратиш, алоқа ва боғланишларини аниқлаш малакаси;
- болалар ўзлаштирган амалий иш усуллари (мас. қарши қўйиш, санаш, ўлчаш билан таққослаш)ни янги шароитларда қўллашга йўналтириш ва мазкур вазиятда аҳамиятга эга бўлган белгилар, хоссалар, боғланишларни аниқлаш, топишнинг амалий усулларини мустақил излашга йўналтириш.

Интерфаол методлар ва ўйинлар асосида ташкил этилган машғулотларда болалар билиш жараёнларининг ривожланиши кичик соҳаси бўйича қуйидаги малакалари шаклланади:

- болаларда билим олишга фаол қизиқишни намоён бўлади.

ўқув ва ҳаётий фаолият учун ахборотни мустақил равишда топади ва ундан фойдаланади;

- предметлар, воқеалар ва кўринишлар ўртасидаги оддий алоқаларни тушунади ва уларни яхлит бир бутунлик сифатида идрок қилади;

- рақамлар, ҳисоб-китобни билади ва уларни ҳаётда қўллайди;

- макон, шакл ва вақтга мос равишда иш тутади;

- элементар математик ҳисоблашларни амалга оширади;

- атроф-муҳитдаги воқеа-ҳодисалар ва кўринишларни кузатади ҳамда тадқиқ қилади;

- атроф-муҳитга нисбатан эҳтиёткорона ва ғамхўр муносабатни намоён этади.

Қуйида мактабгача ёшдаги болаларнинг математик тасаввурларини ривожлантиришда фойдаланиладиган интерфаол метод ва ўйинлардан намуналарни тавсия этамиз:

Геометрик шакллар. Тарбиячи болаларни гилам устида иккита командага бўлади (учтўртта команда қилиш ҳам мумкин). Гуруҳларда болалар сони тенг бўлинади. Гуруҳдаги болалар гилам устида айлана бўлиб ўтириб олишади. Болалар орасига турли хил геометрик шакллар йиғиб қўйилади. Тарбиячи томонидан гуруҳларга геометрик шаклларнинг бирон номи айтилади ва ўша шаклни гуруҳ болалари томонидан айтилган жойга ким тезроқ олиб келиш шarti топшириқ қилиб берилади. Масалан, квадрат, айлана, учбурчак... Болалар жамоасидаги болалар билан бирга айтилган шаклни топиб, манзилга тезроқ олиб боришлари лозим бўлади.

Тарбиячи болаларда ким тез топса ғолиб бўлиши, хато қилмасликни айтиб ўтади. Тўғри ва тез топган жамоа ҳар сафар белгилаб борилади ёки юлдузча билан тақдирланиб борилади. Мусобақа охирида юлдузчалар сони саналади ва ғолиб жамоа аниқланади.

Матн. Исталган газета ёки журнални олиб, берилган матндан бирор ҳарфни, масалан Ж ёки Рни ўчиришни топширинг. Бунда у қаторма-қатор ҳаракат қилсин ва вақтни белгилаб қўйсангиз ҳам яхши бўлади. Мисол ёки масалалар ҳам ечиш мумкин (мактаб дастуридан бўлиши шарт эмас) - агар математик жараёнда бутун

жамоа қатнашса жуда қизиқарли бўлади. Асосийси - бу машғулотга мусобақа руҳини бағишлаш. Бола оғзаки математик ечимлар ечиш жарёнида аста секин диққатини жамлашни ўрганиб боради. Аввалига энг осон вазифалардан бошлаб, кейинчалик уларни мураккаблаштириб боринг.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, мактабгача ёш – болалар билимни элементар ўрганишининг даври ҳамда бошланғич синф ўқув дастурини ўзлаштиришининг асоси саналади. Шу даврда тарбияланувчиларнинг элементар математик тушунчаларни осон ўрганиши ва бунда тарбиячилар томонидан таълим-тарбия жараёнига ўйинлар ва интерфаол методлар орқали ёндашуви жуда муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. <http://portal.spcenter.uz/project/952>
2. <https://znanio.ru/media/maktabgacha-yoshdagi-bolalarda-matematik-tushunchalarnishakllantirishning-zamonavij-tehnologiyalari-2647305>

ПСИХОГИМНАСТИКА МАШҒУЛОТЛАРИ ЁРДАМИДА БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДАГИ РУХИЙ ЗЎРИҚИШЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ

*Рамазонова Моҳинур Комил қизи
Навоий вилояти Кармана тумани 11-мактаб психологи*

Бугунги кунда мамлакатимизда таълим тизимига давлат сиёсати даражасида эътибор берилмоқда. Бугунги кунда бола тарбиясига педагогик-психологик ёндашувнинг ўзига хос афзалликлари мавжуд. Жумладан, бола билан ишлаш, унга таълим-тарбия беришда самарали натижаларни кафолатлайди. Сўнгги вақтларда боланинг таълими ва тарбиясига дифференциал, индивидуал ёндашган тарзда муносабатда бўлинишига кўп дуч келмоқдамиз. Албатта, шундай болалар бўладикки, улар билан муносабатга киришиш, гаплашиш – инсонга фақатгина завқ бағишлайди. Улар барча нарсага қизиқадилар, ҳаммаси “қўлларидан келади”, хушмуомала, қобилиятли ва жуда ёқимтойдирлар. Лекин ҳар қандай болани ҳам

бу каби болалар тоифаси қаторига киритиб бўлмайди. Шунда педагог ҳар бир қиз ва ўғил кўнглига йўл топа олиш учун ўзида мавжуд барча тажрибани, ижодкорлик қобилиятини, ички ҳис-туйғуларини ишга солишига тўғри келади. Демак, бола шахсини шакллантиришда ўқитувчининг ўрни алоҳида аҳамият касб этади. Айниқса, унинг ҳар бир боланинг шахс сифатида шаклланишида жавобгарлигини тақозо этади. Шунга кўра ўқитувчи ўқувчи-лар билан бўладиган муомалада, мулоқотда ибрат, намуна бўлиши, ўқувчини ҳар томонлама диққат билан ўрганиши, унинг шахсий хусусиятлари, қобилиятларини билиши, педагогик назокатини намоён қилиши, болаларнинг хулқ-атвори, иш натижаларини ҳаққоний баҳолаш ва уларга ўз вақтида ёрдам кўрсата олиш ҳамда оилавий аҳволи билан қизиқиши зарур ҳисобланади.

Бола ижтимоийлашуви унинг жисмоний ва руҳий ривожланишининг салбий хусусиятлари билан қийинлаштирилиши мумкин. Боланинг ижтимоий меъёр ва кадриятларни ўзлаштириши муҳитнинг салбий таъсири оқибатида нотўғри йўналишда кетиб қолиши мумкин. Натижада болада турли руҳий зўриқишлар ҳолатлари юзага келади. Бунинг натижасида бола меъёрий ижтимоий муносабатлардан четда қолиб кетиб, махсус ёрдамга муҳтож бўлиб қолади. Бугунги кунда асаб ва руҳият билан боғлиқ муаммолар бошланғич синф ўқувчиларида ҳам маълум кўринишларда ўзини намоён этмоқда. Демак, болаларнинг индивидуал ва жисмоний имкониятларидан ўринли фойдалантирган ҳолда таълим фаолият жараёнига турли психологик усулларни қўллаш ижобий самара беради. Жумладан, психогимнастик машғулотлар бола руҳиятига сезиларли таъсир этади. Ҳозирги кунда мактабларда турли хил психотренинг турлари кенг қўлланилади, аммо амалий психотузатиш усули сифатида психогимнастика камдан-кам учрайди. Бошланғич синф ўқувчилари орасида турли хил руҳий зўриқишларни олдини олишда ҳам психогимнастик машқлар ижобий самара беради.

Психогимнастика 1979 йилда чех олими Ган Юнов томонидан аниқланган, яъни ишлаб чиқилган. Асосан унинг методикасида психогимнастик машқларга

пантомимика, гуруҳ ўйинлари ва рақс киритилган. Психогимнастик машқлар гуруҳ ёки якка тартибда ўтказилади.

Психогимнастика 3 йўналишда амалга оширилади:

1. Релаксация – инсондаги руҳий зўриқишни енгиллатиш, қайта тиклаш.
2. Ишчанликни ошириш – фаолиятга киришишда руҳан қўллаб-қувватлаш, жисмоний фаолликни ошириш, энергиядаги мувозанатни сақлаш учун қўлланади.
3. Ҳиссиётни бошқариш – инсонни эмоционал ҳолатларини яхшилаш, ўзгаларни тўғри қабул қилиш, эмоционал ҳолатни тўғри намоён этиш кўзда тутилади.

Психогимнастика - бу ҳаракат активлигини ривожлантирувчи, идрок этиш процессини ўстирувчи (идрок, хотира, диққат, фикрлаш ва нутқ) дидактик ва ҳаракат уйинлари ва нафас гимнастикасидир.

Психогимнастика этюдлар, машқлар ва ўйинларни ўз ичига олади. Психогимнастиканинг мақсади бола психикасини ўстириш ҳамда бола психикасини коррекция қилишдан иборатдир. Боланинг ақлини ва ҳиссиётларини ривожлантириш билан бирга психогимнастика машғулотларида тана нуқсонларини (масалан, ҳаракат камчиликлари, нутқ камчиликлари) ҳам коррекция қилинади.

Психогимнастика 60-йилларнинг бошларида таърифланган атама амалиётга жорий қилинди. Чехия мутахассиси Ганя Жунова психогимнастикани психодраманинг махсус элементларига асосланган бутун тизимини яратди. Унинг ривожланиши дастлаб онгни тузатишга муҳтож болалар билан ишлашда ишлатилган. Аммо, кейинчалик катта авлод бу усулга қизиқиб, уни катталардаги ҳиссий муаммоларни ечишга ўргатиш учун мослаштирилди.

Психогимнастика - бу сўзлашувсиз мулоқотда боланинг онгини амалий тузатиш, унинг мулоқот қобилиятини ва жамиятда ўз ўрнини топиш қобилиятини ривожлантиришга қаратилган.

1.2. Психогимнастикани амалга ошириш босқичлари

Психогимнастика саккиз босқичдан иборатдир:

1. Психорелаксация.

2. Психоритмика.
3. Пантомимика.
4. Муסיқа терапияси.
5. Уйин ва машқлар.
6. Ҳиссиётлар ҳосил қилиш босқичи.
7. Муסיқа ва рақс терапияси.
8. Яқун ясаб, хулосалаш ҳамда ўз ўзини тинчлантириш босқичи.

Бола психолог томонидан кузатилади. Ишланиши лозим бўлган ҳолат аниқлангач, психолог ҳар бир бола билан индивидуал шуғулланади. Боланинг эмоционал ҳолати диогностика қилинади индивидуал ёки гуруҳий психогимнастика машқи ҳамда муסיқа ва рақс танланади.

Бола психогимнастика машғулоти жараёнида қуйидагиларни ўрганади:

- Бола ҳаракат машқларини ўрганади.
- Ташқи таассуротларга ҳис-туйғу билан жавоб беришни ўрганади.
- Болада тарбия меъёрлари шаклланади.
- Ролли уйинлар ёрдамида хулқ-атвори коррекция қилинади.
- Ҳиссиётларини мувозанатга келтиришни ўрганади.
- Психомотор функциялар билан ишлаш ва шуғулланиш.
- Ауторелаксация.

Ҳар хил уйин ва машқлар тарбиявий ва психотерапевтик мақсадни кўзлаган ҳолда бажарилади.

Психогимнастик машғулотларни ўтказиш бўйича кўрсатмалар:

- Сезгиларни тарбиялаш.
- Атроф муҳит билан мулоқот эркинлигига эришиш.
- Ижодкорлигини ривожлантириш.
- Ақлий ва эмоционал ривожланиш бузилишлари.
- Ҳаракат нуқсонларида.
- Нутқий нуқсонларда.
- Мактаб кўркуви.
- Бошқа турдаги кўркувлар.

- Уялиш. (нормал ҳолат чегарасидан чиқиш)
- Айбдорлик ҳисси.
- Ғазаб.
- Хурсандлик. (нормадан ортиқ ёки пастлиги)
- Қизиқиш. (Унинг йўқлиги ёки нормадан кўплиги)
- Стресс.
- Депрессия.
- Жирканиш ҳисси.
- Болалар семизлиги (психосоматик ҳолатлар)
- Ноорганик энурез ва энкопрез.
- Кизганчиқлик, бахиллик, рашк.

Психогимнастика курсини олиб боровчи мутахассис кенг қиррали билимга эга бўлиши лозим. Психогимнастика курсини олиб боровчилар:

- Психолог психотерапевт.
- Психолог дефектолог.
- Психолог муסיқашунос.
- Психолог логопед .

Бу тўрт мутахассис биргаликда ишлагандагина яхши натижаларга эришса бўлади.

Психогимнастик машғулотлар кўп вақт талаб қилмайди: ярим соатдан 60 дақиқагача. Аммо, агар хоҳласангиз, муддатини бироз узайтириш мумкин. Идеал ҳолда, гуруҳда 6 нафардан ортиқ бола бўлмаслиги керак ва психо-гимнастика курси 20 та машғулот билан чекланиши керак.

Болага тавсия этилган машқлар ва ўйинларга қизиқишини йўқотмаслик учун уларни ҳафтасига икки марта ташкил қилиш тавсия этилади.

Бошланғич синф ўқувчилари психогимнастика туфайли ўзи ва бошқа одамларнинг ҳис-туйғуларини тушунишга, уларни ифода этишга, ўз-ўзидан дам олишга ва ҳаётдаги қийинчиликларни енгишга ўрганади. Болалар турли хил ҳиссиётларни ўрганадилар ва уларни бошқаришни ўрганадилар. Бу мулоқотдаги тўсиқларни енгиб ўтишга, ўзингизни ва бошқаларни яхшироқ тушунишга, суратга

олишга ёрдам беради рухий стресс, ўз-ўзини ифода етиш имкониятини беради. Қуйида сизга болалар учун мўлжалланган машқлар тақдим этилади.

Ушбу машқларни бажаришда ўғил болалар оёқларини елка кенглигида очган ҳолда, қизлар эса оёқларини елка кенглигида очмаган ҳолда бажарадилар.

Танадаги қон айланиш тизимини фаоллаштирувчи ва иммунитетни кўтарувчи машқлар.

1 машқ. “Харакатни бажар” Ушбу машқ болаларда қон айланишини яхшилайд.

Психолог кўрсатмасига биноан болалар оёқ учида туриб сўнгра аввалги ҳолатга қайтадилар бунда оёқлар елка кенглигида очилади ва 10 марта бажарилади. Тана силкиниши керак.

2 машқ .

Дастлабки ҳолатда туриб тиззаларни букмасдан икки қўлни тепага кўтариб оёқлар юзасига кафтлар тўғри йўналтирилади, гавда эгилади, қўллар оёққа тегиши шарт эмас.

3 машқ. Қўллар икки ёнга очилиб , кўрсаткич ва бош бармоқ очилади ва мувозанат сақлаб айланилади. Бу машқ иммунитетни кўтариб беради.

4 машқ. Қўллар икки ёнга эркин қўйилади ва тўлқинсимон ҳаракат илинади. Қўллар орқа томонга бирлаштирилиб муртқа енгил уқаланади.

5 машқ . Бармоқларни енгил уқалаш. Ҳар бир бармоқни олдин тепа қисмини кейин ён томонини, сўнгра маҳкам қисиб қўйиб юборилади.

Хулоса қилиб айтганда, мактаб даври болаларнинг камолотида ва ривожланишида муҳим давр ҳисобланади. Ҳар бир ёш даврларида ўзига хос турли муаммоли вазиятлар бўлади. Шунингдек, мактаб ёши даврида ҳам турли муаммоли вазиятлар учрайди. Масалан, мактабга боришни истамаслик, ёшига мос бўлмаган иш юкламаларининг кўплиги, мияни зўриқиши, гуруҳда ўрнини топа олмаслик ва ҳоказолар. Болалар бундай вазиятда ўзларининг “Қобик”ларига ўралиб олиб тенгдошлари билан алоқа ва муносабатларни кескин тарда ўзишни истайдилар. Уларда учрайдиган турли хил рўхий сиқилишлар, асаб бўзилишлари уларни кундалик турмуш тарзини издан

чиқишига олиб келади. Ушбу ҳолатда психологик маслаҳат ва тренинглардан ташқари психогимнастика усулларида фойдаланиш ҳам ижобий самара беради. Жумладан, бошланғич синф ўқувчилари учун мўлжалланган психогимнастик машғулотлар уларнинг руҳиятига сезиларли таъсир этади. Ҳозирги кунда мактабда турли хил психотренинг турлари кенг қўлланилади, аммо амалий психотузатиш усули сифатида психогимнастика камдан-кам учрайди. Гарчи у ўқитувчилар, психологлар ва ота-оналар учун энг қулайдир.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

1. Чистякова М.И. Психогимнастика. - М.: 2000. - 150 с.
2. Макшанов С.И, Хряжева Н. Ю. “Психогимнастика в тренинге” Ч.1, Ч.3 СПб., 1996. –29 с.
3. Ушатиков А.И , Ганишина И.С. “Аудиовизуальная психология как средство подготовки курсантов-психологов к диагностике индивидуально-личностных особенностей осужденных”. Рязан 2011.4.К.

QADRIYATLAR VA ULARNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

*Ruzmatova Nigina Shotillo qizi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Din psixologiyasi” yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Maqolada shaxs qadriyatlar tizimining shakllanishi va uning shaxs xususiyatlariga ta'siri hamda qadriyatlar tizimi haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: В статье представлена информация о формировании системы личностных ценностей и ее влиянии на черты личности, а также система ценностей.

Abstract: The article provides information about the formation of the value system of the individual and its impact on personality traits, as well as the value system.

20-asrning oxiri inson mavjudligi qadriyatlarini tushunish muammosini ilmiy bilimlarning birinchi o'ringa qo'ydi va shu bilan fan rivojlanishining zamonaviy, aksiologik bosqichini belgilab berdi. Biroq, insoniy qadriyatlar va qadriyat yo'nalishlari

har doim bo'lgan falsafa, etika, sotsiologiya va psixologiyaning alohida bilim sohalari sifatida shakllanishi va rivojlanishining barcha bosqichlarida eng muhim tadqiqot ob'ektlaridan biri bo'lib kelgan.[1, 63-b]

Qadriyatlar - bu imtiyozlar va ularni olishning maqbul usullari haqidagi umumlashtirilgan g'oyalar, ular asosida sub'ekt maqsad va faoliyat vositalarini ongli ravishda tanlaydi.[2, 21-b]

"Qadriyat" tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan shaxsning subyektivligining ifodasi sifatida tushuniladi, bu uning ehtiyojlariga asoslanadi, uning qiymat obyektiga nisbatan tanlangan munosabatini bildiradi va motivatsiya va faoliyat funksiyasini bajaradi (E.V.Bondarevskaya, V.A. Slastenin, M.S. Kagan). Qadriyat yo'nalishlari - bu insonning atrofdagi voqelik haqidagi g'oyalar tizimini aks ettiruvchi va faoliyat va xatti-harakatlarning strategik yo'nalishini belgilaydigan ierarxik qadriyatlar to'plami hisoblanadi.

Barcha oldingi avlodlar tomonidan to'plangan qadriyatlar madaniy tajriba, an'analarga aylanadi. Muayyan shaxs uchun bu qadriyatlar dastlab tashqi narsa bo'lib, ular begonalashtirilgan madaniy "ma'nolar" sifatida ishlaydi. Biror kishi madaniy yutuqlar boshqa biron uchun muhim ekanligini tushunishi mumkin, ammo ularning qadriyatlarini o'zi qabul qilish uchun bu yetarli emas. Shaxsning ma'naviy kamoloti haqiqat, ezgulik, go'zallik kabi oliy qadriyatlar bilan aloqa o'rnatish orqali amalga oshiriladi [4, 11-b.].

Individual qadriyat yo'nalishlari tizimi ijtimoiy, madaniy qadriyatlar tizimi asosida yaratiladi (A.N.Leontiev) [8, 11-b.].

Qadriyat yo'nalishlari – shaxs faoliyatining yo'nalishi va mazmunini tavsiflovchi, shaxsning dunyoga, o'ziga umumiy munosabatini belgilovchi, shaxsiy pozitsiyalari, xatti-harakatlari va harakatlariga mazmun va yo'nalish beradigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir [2, 21-b.]

Qadriyat yo'nalishlari yuqori ijtimoiy ehtiyojlar asosida shakllanadi, ularning amalga oshirilishi umumiy ijtimoiy, ijtimoiy sinfiy faoliyat sharoitida amalga oshiriladi. Ular tarkibiy elementlardir ma'lum ijtimoiy-psixologik sharoitlarda, o'ziga xos vaziyatlarda shakllangan ong, inson xatti-harakatlarini belgilaydi. Shunday qilib, qadriyat yo'nalishlari inson shaxsiyati xususiyatlarining eng muhim tarkibiy qismidir, chunki ular uning atrofidagi odamlar bilan munosabatlarini va o'zaro munosabat xususiyatlarini belgilaydi, uning xatti-harakatlarini belgilaydi va tartibga soladi.

O'zining qadriyat yo'nalishlarini anglagan holda, inson dunyoda o'zining alohida o'rnini egallaydi, hayotning mazmuni va maqsadi haqida fikr yuritadi. qadriyat inson uchun dunyodagi biror narsaning ahamiyatini bildiradi, xulq-atvor yo'rinqomasi vazifasini bajaradi, S.L. Rubinshteyn. qadriyat yo'nalishi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar va harakatlarda namoyon bo'ladigan ong va xatti-harakatlarning ma'lum bir yo'nalishida o'zini namoyon qiladi. Qadriyat yo'nalishlarining rivojlanishi shaxs

yo'nalishining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. S.L.Rubinshteynning fikricha, qadriyatlarning ijtimoiy miqyosi insonning bevosita ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy foydali faoliyat orqali shaxsiy va individual ehtiyojlarni qondirishda shaxsning jamiyatga munosabati, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan nisbati amalga oshiriladi [2,12-b.].

Yosh bilan qadriyat yo'nalishlari tizimining shaxsning xulq-atvoriga ta'siri kuchayadi, o'smirlik davrining boshlanishiga kelib, qadriyat yo'nalishlari nihoyat shaxsning boshqa xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yaxlit tizimga aylanishi L.I.Bojovich, T.V.Dragunova, L.S.Slavina, D.A.Leontiev va boshqalarning asarlarida yoritilgan.

Shaxsning ehtiyojlari va manfaatlari ana shu ehtiyoj va manfaatlarni qondirishga qaratilgan faoliyat motivlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Qadriyat yo'nalishlari shaxs tuzilishining barcha tarkibiy qismlari bilan o'zaro ta'sir qiladi, kognitiv va irodaviy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir [8, 12-b.].

Yuqorida aytilganlar rivojlanish jarayonida olingan qiymat yo'nalishlari shaxs ishtirok etadigan faoliyatga bog'liq deb hisoblashga asos beradi. Bunday holda, psixologik rivojlanishni ob'ektiv faoliyat va muloqot faoliyatini o'zlashtirish bosqichlarining o'zgarishi deb tushunadigan D.B.Elkoninning yosh davriyligiga e'tibor qaratish lozim. O'smirlik davrida, boshqalar bilan muloqot qilish jarayonida inson doimo u yoki bu qaror qabul qilishni talab qiladigan vaziyatlarga tushib qoladi. Soddalashtirilgan shaklda qaror qabul qilish ma'lum bir ierarxik bog'liqlikda bo'lgan mumkin bo'lganlar orasidan muqobilni tanlashni anglatadi.

O'smirlik davrida asosiy neoplazma, deyarli barcha mahalliy mualliflarning fikriga ko'ra, L.S.Vygotskiydan boshlab, kattalar qadriyatlariga yo'naltirilganlik bilan namoyon bo'ladigan kattalar tuyg'usidir.

Bunday yo'nalish, I.S.Konning adolatli ta'kidlashicha, qarama-qarshilik xususiyati bilan ajralib turadi. Bir tomondan, o'smirlar uchun tengdoshlar guruhida qabul qilingan qadriyatlar alohida ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu davrda birinchi marta o'zlarining izchil va izchil qadriyatlar tizimini shakllantirish mumkin bo'ladi. Tashqi, "kattalar" axloqi tamoyillarini tanqidiy qayta baholash qobiliyatini rivojlantiradi. O'smirlikdan oldingi davrda bolalarda tegishli kognitiv qobiliyatlar yo'qligi sababli, o'zlari xohlasalar ham, o'zlarining qadriyatlar tizimini yarata olmaydilar [2, 13-b.]

O'ziga xos qadriyatlar tizimini yaratish o'smirlarni abadiy falsafiy muammolarga, axloqning ideal g'oyalariga murojaat qilish bilan birga keladi. E.F.Rybalkoning fikricha, o'smirning shaxsiy xususiyatlari majmuasining murakkablashuvi uning qadriyat yo'nalishlari tizimiga turli xil axloqiy fazilatlarining kiritilishi tufayli yuzaga keladi [9].

Qadriyat yo'nalishlari tizimining barcha tartibga solish funktsiyalarini haqiqatda bajarishi uchun dastlabki shartlar, nihoyat, faqat o'smirlik davrida shakllanadi. Sifatida

L.I. Bojovichning so'zlariga ko'ra, "faqat o'smirlik davrida axloqiy dunyoqarash shunday barqaror axloqiy g'oyalar va tamoyillar tizimini ifodalay boshlaydi, bu ularning barcha xatti-harakatlari, faoliyati, atrofdagi voqelikka va o'ziga bo'lgan munosabatida vositachilik qiluvchi doimiy harakatlantiruvchi stimulg aylanadi" [3, 321-b.]. Haqiqiy aktyorlik xarakteriga ega bo'lgan qadriyatlar tizimini egallash asosida insonning hayotning shaxsiy ma'nosini anglashi yotadi. O'smirlik davrida hayotning ma'nosi haqidagi savollar eng tez-tez va ayniqsa dolzarbdir. Tashqi ko'rinish o'z hayotiy maqsadlarini aniqlash, hayotda o'z o'rnini topish zarurati shu davrning o'ziga xos xususiyatiga aylanadi. I.S.Kon ta'kidlaganidek, o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyati shaxsiy maqsadlarni umumlashtirish, motivlar ierarxiyasi, qadriyat yo'nalishlarining barqaror o'zagini shakllantirish natijasida vujudga keladigan hayotiy rejalarining shakllanishi hisoblanadi. Uning fikricha, ijtimoiy va axloqiy tartibning hodisalari sifatida harakat qiluvchi hayot rejalarining paydo bo'lishi "Kim bo'lish kerak?" Degan savollar o'rtasidagi farq bilan tavsiflanadi. va "Nima bo'lish kerak?", ya'ni kasbiy va axloqiy o'zini o'zi belgilash jarayonlarini ajratish bilan belgilanadi [5, 136]. Shunday qilib, o'smirlik davrida insonning o'z dunyoqarashi rivojlanib, ichki, avtonom qadriyatlar tizimini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Demak, o'smirlik davri shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirish nuqtai nazaridan hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shunday qilib, qadriyat yo'nalishlari shaxsning ijtimoiy xulq-atvorining tartibga soluvchisi bo'lib, asosan faoliyat turini tanlash va shaxsning motivatsion sohasi tuzilishini belgilaydi. Ular shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida, ya'ni ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayonida shakllanadi va shaxsning maqsadlari, ideallari, e'tiqodlari, manfaatlari va boshqa ko'rinishlarida topiladi [2, 22-b.]

Shaxsning qadriyat yo'nalishlari tizimi insonning butun umri davomida, shu jumladan, balog'at yoshida ham o'zgarishsiz qolmaydi. Katta yoshdagi qadriyatlar tizimining dinamikasiga kelsak, bu ma'lum bir yakuniy natijani anglatuvchi "shakllanish" atamasi emas, balki bizning fikrimizcha, kengroq ma'noga ega bo'lgan "rivojlanish" atamasi ko'proq mos keladi. Bizning fikrimizcha, qadriyatlar tizimi allaqachon shakllangan kattalarga nisbatan, ehtimol shakllanishning aniq belgilangan bosqichlari haqida emas, balki uning rivojlanishining individual darajasiga bog'liq deb hisoblash mumkin. [10]

Qadriyat yo'nalishlariga kelsak, ular shaxsning qadriyatlaridan kelib chiqqanligini aniqlashtirish kerak (B.G. Ananiev, D.A. Leontiev). Shu bilan birga, qadriyat yo'nalishlari faqat ma'lum ijtimoiy normalarni ixtiyoriy ravishda qabul qilish emas, balki butun hayotning ma'nosini his qilish shaklida harakat qiladigan ichki motivatsiyadir.

Qadriyat yo'nalishlari - bu shaxs dunyoqarashining yoki guruh mafkurasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ma'lum umumlashtirilgan insoniy qadriyatlardir. (farovonlik, sog'liq, qulaylik, bilim, ijodkorlik, ish, va boshqalar) [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adler A. Individual psixologiya amaliyoti va nazariyasi: ingliz tilidan tarjima / "Iqtisodiy savodxonlik uchun" jamg'armasi. —M., 1995. - 296s.
2. Batarshev A.V. Yoshlarning ta'lim va kasbiy motivatsiyasi: darslik / A.V. Batarshev. - M.: "Akademiya", 2009. - 185-yillar.
3. Bojovich L.I. Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi. - M.: Proseshchenie, 1968. - 464 p.
4. Kokovina L.N. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'rta maktab o'quvchilarining qiymat-semantik yo'nalishlarini shakllantirish.// Avtoref. dis....cand.psych.sci. Kostroma, 2009. - 23 p.
5. Kon I.S. O'rta maktab o'quvchisining psixologiyasi. - M.: Ta'lim, 1980. - 192s.
6. Psixologik lug'at / Ed. V.P.Zinchenko, B.G.Meshcheryakova. - 2-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. va qo'shing.M.: PedagogikaPress, 1996. - 440s.
7. Ramazonov I.R. Qariyalarning ta'lim motivatsiyasini rivojlantirish omili sifatida qadriyat yo'nalishi funktsiyalarini faollashtirish maktab o'quvchilari.// Annotatsiya. dissertatsiyapsixologiya fanlari nomzodi. Samara, 2006. - 23 b.
8. Rybalko E.A. Shaxsning shakllanishi// Shaxsning ijtimoiy psixologiyasi. - L., 1974 yil. - B.20-31.
9. Yanitskiy M.S. dinamik tizim sifatida shaxsning qiymat yo'nalishlari. - Kemerovo: Kuzbassvuzizdat, 2000. - 204 b.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA RAHBAR BOSHQARUVIDA
YANGICHA YONDASHUV**

*Abdufattayeva Shaxnoza Anvarjonovna
Namangan viloyati Mingbuloq tumani
54-DMTT direktori*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining boshqaruv jarayonini sifatli amalga oshirayotgan rahbarlar ya'ni direktorlari va tashkilot uslubchilarining tashkilotdagi ustuvor vazifalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyachi, rahbar, uslubchi, pedagogik faoliyat, sifatli ta'lim, boshqaruv.

Key words: Preschool education organization, educator, leader, methodist, pedagogical activity, quality, education, management.

Ключевые слова: Организация дошкольного образования, воспитатель, руководитель, методист, педагогическая деятельность, качество, образования менеджменту.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ta`lim-tarbiya jarayonini tog`ri va samarali tashkil etish har bir tarbiyalanayotgan bolani jismonan hamda ruhan barkamol shaxs sifatida shakllanishida o`z ijobiy ta`sirini ko`rsatadi. Bu jarayonga maktabgacha ta`lim tashkilotining barcha pedagog xodimlari mas`ul hisoblanadi.

Ta`lim tashkilotida ta`lim-tarbiya jarayoni davlat talablariga muvofiq holatda amalga oshiriladi. Bundan tashqari ta`lim beruvchi shaxslar ya`ni tarbiyachilar bolani har tamonlama komil shaxs sifatida shakllanishlari uchun ilg`or pedagogik tajribalardan, innovatsion texnologiyalardan, zamonaviy fan tajribalariga suyangan holda ish olib boradilar. Maktabgacha ta`lim tashkilotida to`g`ri tashkil etilgan ta`lim-tarbiya jarayoni bolani shaxs sifatida shakllantirib qolmay o`z navbatida bolalarni maktab ta`limiga tayyorlab beradi. Chunki har birtashkilot direktori tashkilotdagi ta`lim-tarbiya sifatini nazorat qilish, boshqarish, tarbiyachi xodimlarga ta`limning ilg`or ish uslublarini o`rgatibgina qolmay tashkilotning jamoatchilik ishlarida faol va eng yuksak cho`qqilarga chiqarishda birinchilardan bo`lib turadi.

Avvalo rahbar qanday bo`lish kerak rahbarning vazifalari, rahbar tashkil etadigan jamoani shakllantirishdagi yo`l-yo`riqlarni batafsil bilmog`imiz kerak. Quyida biz rahbar faoliyati bilan tanishmiz.

Ta`lim tashkilotining pedagogik faoliyatini boshqarish ta`lim tashkilotining faoliyat xususiyatiga ko`ra pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, rag`batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir.

Rahbar kompetensiyasining shakllanishi besh bosqichdan iborat bo`lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

Rahbar kompetensiyasining shakllanish bosqichlari:

- Qobiliyatni aniqlash;
- Tarbiyalash va shakllantirish;

- Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish);
- Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish);
- Rahbarlik cho'qqisi.

Sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etish asoslaridan biri boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi va ularning professionalizmi hisoblanadi. O'tgan davr mobaynida ushbu yo'nalishda keng ko'lamlı ishlar bajarilib kelinmoqda. Chunonchi, birinchi qadamlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligi tashkil etildi; «Maktabgacha ta'lim» bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilish kvotalari oshirildi; mazkur yo'nalishda o'qish muddati uch yilgacha qisqartirildi; maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, tizimni tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasini tashkil etish choralari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojatnomasida ham aynan maktabgacha ta'lim tizimi sohasiga oid muhim vazifalar belgilandi. *“Biz oldimizga mamlakatimizda Uchinchi renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak”*-deya ta'kidladilar davlatimiz rahbari. Bola dunyoga kelgandan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakillanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz-bog'cha yoshidagi har bir Bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Kelgusi yil yakuni bilan maktabgacha ta'lim qamrovini 65 foizga, 2023-yil oxirida esa 75 foizga yetkazishimiz kerak. Bu ishlarga budjetdan 600 milliard so'm subsidiya berish hisobidan qo'shimcha ravishda 2 mingta nodavlat bog'cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkaziladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tashkilot faoliyatini olib borish sifatli ta'lim-tarbiya jarayonlarini maqsadga muvofiq ravishda tarbiyachilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar bilan shajllantirish bu uslubchining bosh

vazifalaridan biridir. Rahbar faoliyati qanchalik to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayoni shuncha maqsadga to'g'ri erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori.
- Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston", 2020 yil 29 dekabr.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OILA BILAN HAMKORLIK

Inomova Zulfiya
Namangan viloyati Mingbuloq tumani 54-DMTT metodisti,
NamDu 3-bosqich talabasi

.....

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila va ota-ona bilan hamkorlikni tashkil etishning eng samarali usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ta'lim-tarbiya, shaxs, ma'naviy-axloqiy, tashkilot.

Keywords: Education, shaxs, spiritual and moral, organization.

Ключевые слова: Образования, человек, духовный-морал, организасия.

Oila - Vatan ichra bir mo'jaz Vatan. *Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bu – oiladir".* Bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz barkamol avlodni tarbiyalashdir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug` kelajagini ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Zero, oila sog'lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Bolalar tarbiyasiga nafaqat oila, ta'lim-tarbiya muassasalari balki mahalla ham ma'suldir. Chunki, farzand tarbiyasi ko'p omillarga, avvalo, axloqiy-ma'naviy muhitga ham bog'liq. Ta'lim-tarbiya muassasalari bilan oila hamkorligi bunda muhim ahamiyatga ega. Ona yurtiga

muhabbatni shakllantirish, ma'rifatli va ma'naviyatli shaxs sifatida voyaga yetishlarini ta'minlash, bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish har birimizning muqaddas burchimizdir

Shunisi quvonarliki, hozirda oilalarda ota-onalarning farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibori kundan-kunga kuchaymoqda. Bunga sabab muhtaram yurtboshimiz tomonidan xalq manfaatlari uchun barcha sohalarga bo'lgan e'tibor, olib borilayotgan islohotlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlardir. Bunday imkoniyatlardan to'laqonli foydalanib kelayotgan ota-onalar farzandlari tarbiyasiga o'ta ma'suliyat bilan qaramoqdalar. Chunki, Farzand Oллоh tomonidan ato etilgan ulug` ne'mat bo'lishi bilan birga, u ota-onaga topshirilgan ma'suliyat hamda omonatdir. Bolalar - kelajagimiz ekan, ularni ham jismonan, ham ruhan, ham ma'nan sog'lom bo'lib kamolga etkazish barchamizning asosiy vazifamiz bo'lib qolishi kerak.

Oiladagi ta'lim-tarbiya jarayoni maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilsa bolaning har tamonlama rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga borgan ilk kunidan boshlab, oila va MTT hamkorligini tashkil etish kerak. Birinchi navbatda tashkilotga yangi qabul qilingan bolani ota-onasi va oilasi bilan yaqindan tanishish ular bilan uzviy muloqotni yo'lga qo'yish kerak. Ikkinchidan doimiy ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, bolaning uydagi faoliyati, qiziqishlari haqida so'rash uni ta'lim-tarbiya jarayonida inobatga olishi vaqti-vaqti bilan bolani rag'batlantirib turish, uning kichkina mehnatini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Taniqli pedagog A.S. Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga etadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi".

Zero, tarbiya - shaxsning ma'naviy va aqliy qiyofasini, hattoki butun taqdirini belgilovchi omildir. Ulug` mutafakkir *Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq"* kitobida *"Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomoni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan.*

Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga etkazish – tarbiya bilan bo'lar” - deyilgan. Farzandga to'g'ri tarbiya berish esa oiladan boshlanadi. Oilada farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun ma'naviy- axloqiy sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatlarga erishiladi. Ayniqsa bola tarbiyasini mukammal darajaga yetkazish va barkamol avlod qilib tarbiyalash uchun avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-ona hamkorliklari yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim.

Shunay qilib ota-ona farzand tarbiyasida o'zlarining burch va ma'suliyatlarini chuqur anglashlari lozim.

Oilaning ustuni ota-ona hisoblansa, uning davomchisi esa farzand hisoblanadi. Ota-ona farzandni dunyoga keltirgandan so'ng ularning zimmasiga bir qancha huquq va majburiyatlar yuklanadi. Oilada olg'a etaklovchi bosh tarbiyachi ota bo'lib, unga xos bo'lgan barcha insoniy fazilatlar farzand jismiga jo bo'lib boraveradi. Shu sababli ham oila boshlig'i ota – ona bola tarbiyasi haqida etarlicha amaliy va nazariy bilimlarga ega bulishi kerak. Agar ularda etarlicha bilim ko'nikma va malaka bo'lmasa u oila a'zosiga ya'ni farzandlariga yaxshi tarbiya bera olmaydi. Shunay qilib ota-ona farzand tarbiyasida o'zlarining burch va ma'suliyatlarini chuqur anglashlari lozim.

Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, farzand tarbiyasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ota-ona va oilaning hamkorlikdagi mas'uliyatli olib borgan samarali ishlari albatta kelajagimiz vorislari bo'lmish bolajonlarimizda albatta o'z ifodasni topadi. Xuddi shu o'rinda Davlatimiz rahbari *Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari buning isboti bo'la oladi. “Avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bu – oiladir”*. Bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz barkamol avlodni tarbiyalashdir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug' kelajagini ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Zero, oila sog'lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir.

FOYDALANILGAMN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O`zbekiston”, 2017.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u-bilik. -T.: «Fan», 1990
3. Zunnunov A. Oilada bola shaxsini shakllantirish. T.: O`zbekiston, 2006 yil

BOLALARGA EKOLOGIK TA’LIM VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINIG O’RNI

*Ro‘zmetova Farangiz Azamat qizi
Urganch Davlat Universiteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi,
Sabirova Raya Baxadirovna
Urganch Davlat Universiteti magistranti*

Annontatsiya: *ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash va ekologik madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.,*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha ta’lim, nazariya, ekologik, tabiat, munosabat.*

Insoniyat tug‘ilibdiki tashqi muhit bilan aloqaga kirisha boshlaydi. Tashqi muhit esa bizni o‘rab turgan atrof-olam, jonli va jonsiz tabiat va undagi hodisalardir. Bularning barchasini bir so‘z bilan ekologiya deb ataymiz. Ekologiya - har birimizni o‘rab turgan tabiatdir.. Ekologiyamizni har doim asrab-avaylashimiz, undan oqilona foydalanishimiz kerak. Ahir azal-azaldan yashayotgan makonimizni toza saqlab, ona tabiatdan samarali foydalanib kelmoqdamiz. Shunday ekan nima uchun bugungi kunda tabiatga nisbatan ayovsiz munosabatda bo‘lyapmiz? Sayyoramizda noyob hayvon va o‘simliklarning turli xil turlari qo‘rqinchli tezlik bilan yo‘qolyapdi. Har kuni atrof muhit tobora ko‘proq ifloslanib borayapdi. Tabiatga nisbatan qo‘pol munosabatda bo‘lishni oldini olish uchun, dastlabki yillardan boshlab ekologik madaniyatni rivojlantirishga

kirishish kerak. Shu bois, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim dolzarbligi ortib bormoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning Ona zaminga nisbatan dastlabki tushunchalari ilk yoshlikdanoq shakllanib boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar juda hissiy, samimiy va rahm-shafqatli bo'lib, tabiatni tirik organizm deb his qilishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'lim , birinchi navbatda, bolaning atrof muhitga - yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosiga ijobiy munosabatini shakllantirishga qaratilgan. Bolalarni tabiatni sevishga va himoya qilishga o'rgatish, tabiat resurslaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish- ekologik ta'limning asosiy vazifasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ta'limning ahamiyatlarini o'rganamiz. Bular quyidagilar:

bolalar tabiatni muhofaza qilish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
go'zallik hissi, tabiiy go'zallikni ko'rish qobiliyatlari shakllanadi;
sayyoradagi barcha jonzotlarning yaqin aloqalarini tushunadilar;
tabiatga nisbatan tajovuzkor, vayronkor harakatlarning oldini olishga intilishadi;
bolalarni ijobiy tomonga yo'naltiradi va ufqlarini kengaytiradi.

Bolaning ekologik madaniyatini quyidagicha tarbiyalash mumkin?

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini tarbiyalash bolaning oilasida boshlanadi. Bolalar o'z ota-onalarining xatti-harakatlariga taqlid qilishadi. Shuning uchun ota-onalar farzandiga ekologik madaniyatning asoslarini tushuntirishlari va ularning so'zlarini harakatlar bilan mustahkamlashlari juda muhimdir. Ota-onalarning o'zlari kuzatmayotgan narsalarni bolaga o'rgata bo'lmaydi. Bolaga suv va quruqlikdagi hayotning ajoyib turlari haqida gapirib berish, hayvonot va o'simliklar haqidagi tasvirlangan ensiklopediyalar va filmlar tomosha qildirish orqali tabiatga nisbatan mehr-muhabbatlarini uyg'otish lozim. Bu esa bolalarda ekologik madaniyatning dastlabki ko'rinishini shakllantirishga yordam beradi.

Tabiat qonunlarining buzilishiga insonlarda ekologik bilim - ning yetishmasligi, tabiatning kelajakdagi ahvoli qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilmasligi sabab bo'lmoqda. Ekologik bilim tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi yer yuzidagi tirik jonzotlarning holatini o'rganish, tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish

yo‘llarini o‘zlashtirishdan iborat. Azon qatlamining yemirilishi, Orol dengizining qurishi natijasida ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Zavod-fabrikalardan chiqayotgan zaharli gazlarning havoga ko‘tarilishi, avtomobillardan zaharli gazlarning havoga chiqishi, turli xildagi portlashlar oqibatida xlorli gazlar havoga ko‘tarilib, ozon qatlamining yemirilishiga olib kelmoqda. Havoning bunday ifloslanishi, uning tarkibidagi karbonat angidridning ko‘payishi inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi.

Odamlar daryolarni bo‘g‘ib, yo‘lini to‘sib, sun‘iy dengizlar yaratish, yerlarni o‘zlashtirish bilan shug‘ullanganlar. Bu “yutuqlar” tufayli tabiat qonunlari hamda uning murakkab va nozik muvozanati buzildi. Biroq odamlar bu ishlar turli-tuman ofatlar keltirib chiqarishi mumkinligi haqida o‘ylamadilar. Natijada o‘t-o‘lanli yaylovlar buzilib, yangi yerlar o‘zlashtirildi. Osmondan va yerdan sepiladigan zaharli kimyoviy moddalar tufayli hasharotlarni yeb o‘simliklar dunyosiga foyda keltiradigan qushlarning bir qismi qirilib ketdi. Ekologik tarbiya shaxsiy muammo deb qaralishi lozim. Otabobolarimiz daraxt ekishni, bog‘-rog‘ yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekkan kishining ikki dunyosi obod bo‘ladi deb bejiz aytishmagan. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida bu ishning savobi xususida quyidagilar aytilgan: “Ekmoq niyatida qo‘lingizda ko‘chat turgan paytda, bexosdan qiyomat qoyim bo‘lib qolishi aniq bo‘lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo‘ying”. Atrof-muhitning tozaligi, sofliğini ta‘minlash har birimizga bog‘liq. Ekologik tarbiyani oiladan, maktabgacha yosh davridan yosh avlodga singdirish kerak. Maktabgacha ta‘lim tashkilotining ta‘lim-tarbiya dasturida bolalarga ona-tabiatga muhabbatni, o‘simliklar, hayvonlar haqida g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmasini tarbiyalash, tabiat qo‘ynida o‘zini odobli tutish, o‘simliklarni o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilish, muhofaza qilishga qiziqish uyg‘otish, daraxtlarni sindirmaslik, hayvonlarni qiynamaslik ko‘nikmalarini tarbiyalash kichik guruhdan boshlab amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarga ekologik tarbiya berish quyidagi usullarda olib boriladi:

1. Ko‘rgazmali (kuzatish, rasmlar ko‘rish, diafilmlar namoyish etish).
2. Amaliy (o‘yin tarzida).
3. Og‘zaki (hikoya, tushuntirib berish, badiiy asarlarni o‘qib berish).

Ko'rgazmali metod. Kuzatishlar tarbiyachi tomonidan bolalarni o'simlik, hayvonlar, ob-havo bilan, kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish asosida tashkil etiladi. Kuzatishlar mashg'ulotda, sayrda, ekskursiyada, ilm-fan va tabiat markazlarida olib boriladi. Uni bolalar amaliy faoliyat bilan qo'shib olib borsalar yaxshi natijaga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalaniladigan diafilmlar MTTning "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan. Videofilmlar tarbiyachiga dastur mazmunini ma'lum sistema asosida bolalarga qiziqarli qilib yetkazishga yordam beradi.

Maktabgacha Ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning markazdagi faoliyatlari. Mashg'ulot va ekskursiyalar, sayrlarni tashkil qilishi ekologik ta'limda muhim o'rin egallaydi. Markazlardan ayniqsa ilm-fan va tabiat markazidagi tajribalar bolalarga ekologik olamni anglashga undagi tabiatni his qilishga yordam beradi. Rolli-syujetli o'yinlar va dramalashtirish markazida esa markazni kichik o'yinchoqlar - qo'g'irchoqlar bilan kichik teatrni tashkil qilish kerak. Bolalarga biron –bir ertak yoki tabiat haqidagi o'yinni sahnalashtirish orqali shu o'yin yoki ertak qahramonlariga tabiatga qanday munosabatda bo'lish haqida gapirib berish kerak. Tarbiyachi qahramonlari bilan bahslashish, hazil qilish va kulib bolalar bilan rolga kirishishi kerak. Demak maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatning xilma-xilligi va shakllari ko'p. Bu tarbiyachining ijodkorligi va kreativligi o'z xohishi va tasavvuriga bog'liq. Demak ekologik ta'lim va madaniyatni bolalarga yoshlikdanoq shakllantirish ayniqsa Maktabgacha ta'lim Tashkilotida tarbiyalab borish zarurligini har biro ta-ona va tarbiyachi-pedagoglar bilishi, amal qilishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qaroriga ilova
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ozbekistonga tegishli ikkinchi atrof-muxit holati sharxining 29-seriyasi 2010.'

TARBIYASI QIYIN BOLALAR BILAN ISHLASHNING IJTIMOIIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Xolmirzayev Sardor

*SamDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabasi*

Tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, inson dunyoga kelishidan boshlab, to umrining oxirigacha davom etib boradi. Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqea-hodisalarning shaxsga salbiy yoki ijobiy aks ta'sir etishi uning insoniy fazilatlari qay darajada shakllanganlagini belgilaydi.

O'zbekistonda Yoshlarga Oid Davlat Siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarorining 3-bobida Yoshlar siyosatining joriy holati va mavjud muammolar to'g'risida quyidagi fikrlar bayon etilgan.

Mamlakat aholisining 18,9 mln. nafari yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. Yoshlarning 9,5 millioni erkak, 9,4 millioni esa ayol jinsiga mansub.

Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 — 2020-yillarda 50 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi, 30-iyun — “Yoshlar kuni” deb e'lon qilindi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Oliy Majlis Senati qoshida 100 nafar va Qonunchilik palatasi qoshida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlardan iborat “Yoshlar parlament”lari, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tashkil qilindi.

“Mahallabay” o’rganishlar orqali yoshlarning bandligini ta’minlash, kasb-hunarga o’qitish, tadbirkorlikka jalb etish, shuningdek, ular o’rtasida madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari va kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida yangicha tizim asosida barcha tuman (shahar)larda “Yoshlar dasturlari”ni amalga oshirish yo’lga qo’yildi.

Har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo’llab-quvvatlashga, bilim va kasb o’rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo’lgan ishsiz yoshlar kiritiladigan “Yoshlar daftari” tizimi joriy etildi.

O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzildi. Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi.

Shuningdek, yoshlarni qo’llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yilga mamlakatimizda “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, deb nom berildi.

Bugungi kunda ta’lim sohasi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri ham aynan, shu maqsadga qaratilgan bo’lib, kelajak avlodni komil shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashdan iboratdir.

Afsuski, barcha mamlakatlarda bo’lgani singari bizning o’sib kelayotgan yoshlarimiz orasida ham tarbiyasi og’ir va noqobil farzandlar mavjud bo’lib, ularning tarbiyasi alohida e’tibor va yondashuvni talab etadi. Tarbiyasi og’ir bolalar muommosi azaldan eng dolzarb muammolardan biri bo’lib kelgan.

Bu muammoning yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, tug’ilgan bolaning uni dunyoga keltirgan shaxslarning kimligi, ikkinchidan, u qanday ijtimoiy muhitda tug’ilib voyaga etib, ulg’ayotganligiga e’tiborni qaratishimiz lozimdir. Sobiq Ittifoq davrida shaxs xulq-atvoriga irsiy omillar va uning tabiiy xususiyatlarini ta’sir qilishi haqidagi qarashlar inkor etilar edi. Biroq N.P.Dubrinin, N.S.Kanstonistov, B.F.Sergeev va boshqa genetiklarning bildirishicha, shaxsning genetik xususiyatlari, undagi ba’zi tug’ma kasalliklar va xususiyatlar ham shaxs xulq-atvorining shakllanishiga bevosita va bilvosita ta’sir etilishini e’tirof etganlar.

Ko’pchilikning fikriga qaraganda oxirgi paytlarda tarbiyasi og’ir bolalar bilan bog’liq muammolarning tez-tez uchrab turishi va ular sonining keskin oshganligi

takidlanadi. Shuningdek, bu muammoni bir qancha tashqi sabablarga bog'lash mumkin, ya'ni, hozirgi vaqtda axborot oqimining yuqoriligi (uzluksiz televizor ko'rish, kompyuterdagi har xil o'yinlar epizotlariga taqlid qilish, Internet tizmidagi norasmiy saytlar orqali har xil nomaqbul axborotlarni o'zlashtirishi) yoki kattalarning e'tiboridan chetda bo'lishi, oiladagi krizis va hokazolar. Bu omillarni inkor etmagan holda, mazkur muammoning tub sabablarini bolaning psixik taraqqiyotidan qidirish lozim.

Hech kimga sir emaski, bugungi kun bolalari o'zlarining yigirma yil oldingi tengdoshlaridan farq qilishadi. Hozirgi yoshlar tez ta'sirlanuvchan, mustaqillikka moyilligi yuqoriligi va shu bilan birga nisbatan befarq, o'z vaqtlarini mazmunli ijtimoiy foydali faoliyatga sarflagilari kelmaydi. Vaholanki, inson tabiatan o'ziga xos oson va ko'ngilochar mashg'ulotlarga moyil bo'ladi. Inson xulq-atvori tarkibining aksariyati tabiiy instinktlari tazyiqi ostida bo'lishini inobatga olinishi kerak. Ushbu tazyiqlarga qarshi tura olish insondan irodaviylikni talab qiladi.

Bu holatni zamonaviy texnikaning rivojlanganligi ta'siri deb ham izohlash mumkindir. Ko'pchilik hollarda bolalardagi bu o'zgarishlarga e'tiborsizlik va befarqlik ularning xulq-atvorida salbiy og'ishlarining boshlang'ich sababi va asosi bo'lishi mumkin.

Shaxsda xulq-atvor o'zgarishining yoshga bog'liqligi. Amerikalik amaliyotchi psixologlar tomonidan psixologik xizmat doirasida bolani tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlarni oldini olishda eng avvalo bolaga ta'sir ko'rsatish zarurligi ta'kidlanadi. Buning uchun bolani o'zini o'zgartirishga tayyorlash, ya'ni:

- tashqi muhit ta'siridan sarosimaga tushmaslikka;
- turli xil qiyinchiliklarni engib o'tishga o'rgatish lozim.

Bolada mavjud noto'g'ri salbiy o'zgarishlarni ruhiy rivojlanishning me'yor darajasiga yetqazish orqali bola tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yo'qotishga erishish mumkin.

Shunday qilib, boladagi salbiy illatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

-birinchi o'rinda, har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim.

- ikkinchi o'rinda, bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak.

- uchinchi o'rinda, tarbiyasi og'ir bolalarning psixologik rivojlanishini me'yorlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozimdir.

Shaxs faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar		
Irsiy biologik omillar:	Psixologik omillar:	Ijtimoiy omillar:
tug'ma xususiyatlar; tug'ma nuqsonlar; orttirilgan nuqsonlar.	fikrlash tarzi; emotsional ta'sirlanish darajasi irodasi; temperamenti; xarakteri; qobiliyati.	jamiyat tuzilmasi; ijtimoiy institutlar; ijtimoiy me'yorlar; turmush tarzi.

Biz tarbiyasi qiyin bolalarni tahlil qilar ekanmiz, XX asrning oxirlari bu toifadagi bolalarni ijtimoiy va psixofiziologik o'zgarishlarga qarab V.Klayn (1991) yosh qonun buzarlarni olti tipga ajratadi.

1. **“Esi past”**. Ularning xulq-atvorida sho'xlik, yoqimsiz hatti-harakatlar etakchilik qiladi. Uyga kech kelish, aldash, ta'lim muassasasidagi har xil nizoli vaziyatni kelib chiqishiga sabab bo'lishlari, kinoga biletsiz kirishlari, doim janjallashish, atrofdagilarni ko'nglini qoldirish, narkotikni tatib ko'rishga moyil bo'ladilar.

2. **“Ota-onaning dushmani”**. Bu toifadagi o'smirlar o'z hatti-harakatlari bilan ota-onalarini qiyin holatga qoldiradilar, ularga norozilik hissini ochiq-oydin bildiradilar. Ular ota-onasini munosabatini tushunmaydilar. Bu davrda salbiy hislarni orttirib yuboradilar.

3. **“Axloqsiz bola”**. Bunday o'smirlar asotsial yo'nalishga ega. Ularning hissiy va intellektual taraqqiyotida o'zgarishlar yo'q, xulq-atvorlarida ham yaqqol og'ish kuzatilmaydi. Ularda qonunbuzarlar bilan aloqada bo'lishga moyillik bor. Bu holat bolaga nisbatan oiladagi e'tiborsizlik yoki nomaqbul oilada tarbiya topganligi zamirida vujudga kelishi mumkin. SHuning uchun bunday bolalar jinoiy olam me'yorlarini qabul qiladilar va ularga bo'ysinadilar.

4. **“Organik”**. Bu toifadagi bolalarda miyadagi lat eyish yoki aqliy taraqqiyotda ortda qolish xos. Natijada bolaning intellektual rivojlanishi ortda qoladi, bu esa tartib-

intizomni hamda xulq- atvorning buzilishiga olib keladi. Bunday bolalar ko'pincha o'z tengdoshlari bilan asabiylashadilar va janjallashadilar.

5. “Psixotiklar”. Aqliy etilmagan, kasalmand bolalar bo'lib, ular uchun gallyusinatsiya, jinoiy harakatlardan xursand bo'lish, buzg'unchi fikrlar hukmronlik qiladi. Hattoki, 14 yoshli bu toifadagi bola ota-onasini otib tashlagan.

6. “Nasliy buzuqlik”. Bu toifadagilar birlamchi psixopatlar hisoblanadilar. Ular uchun jinoiy hatta-harakat qilish odatiy holga aylanadi. Nasliy buzuqlarda hatti-harakatlar ilk yoshligidayoq namoyon bo'ladiki, asotsiallanishga moyil. Ularda ma'suliyat hissi yo'q va ishonib bo'lmaydi. Ularni tuzatish va yordam ko'rsatish ancha mushkuldir.

Agressiv xulq-atvor. Turli chet ellik olimlar o'z tadqiqotlarida «agressiya» va agressivlik» ka turlicha ta'rif berishadi.

Lozend va Andri insonning tug'ma o'zini himoya qilishi vositasi sifatida, Morrison hukmronlikka intilish vositasi sifatida, Xorni va Fromlar esa shaxsning atrofdagi odamlar dushmanligiga qarshi reaksiyasi sifatida ta'riflashadi. Agressivlik deganda shaxsning buzg'unchilikka intilishi bilan xarakterlanuvchi xususiyat bo'lib, asosan sub'ektlararo munosabatlar sohasida namoyon bo'ladi. Ehtimol inson aktivligining buzg'unchilik komponenti yaratuvchilik faoliyatida zarur hisoblanar, chunki individual rivojlanish talabi beixtiyor kishilarda bu jarayonga to'sqinlik qiluvchi to'siqlarni bartaraf etish, parchalab tashlash qobiliyatini shakllantiradi.

Aslida g'azab qo'rquv va boshqa emotsiyalar insonni o'rab turgan muhitga adaptatsiya funksiyasini bajaradi. G'azab tasodifiy reaksiya, u insonga o'zi uchun xavfli vaziyat davom etayotganida paydo bo'ladi va inson uchun kerakli holat. Ammo u yig'ilib boraversa va doimiy siqilish bilan kuzatilsa buni normadan tashqari holat hisoblash mumkin. Stressning uzoq davom etuvchi harakati adaptatsiyani boshqarishga qaratiladi. Qachonki bu holatda agressivlik paydo bo'lsa, yuqori xavotirlanish va boshqa nerv simptomlari o'z-o'zini boshqarish sistemasining buzilishidan darak beradi.

Quyidagilarni normadagi hodisa deyishimiz mumkin bir yoshli bolaning onasi unga qandaydir yoqimsiz narsani qilgani uchun qo'l ko'tarishi, ikki yoshli bolaning

boshqa bolani urishga harakat qilishi, bolalarning o'yinchog'ini tortib olishga urinishi. Bu reaksiyalarning barchasida jahl tasodifiy va adekvat hodisa, biroq buzilishning o'sib borishiga sabab ham bo'lishi mumkin. Har qanday buzilish o'z boshlanishida konkret vaziyatni oladi. Jahldorlik reaksiyasining o'sib borishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin

1. Ota – onaning doimiy agressiv xulqi. Bola ularga taqlid qiladi va ularning agressivligini «yuqtirib» oladi. Bu shundan dalolat beradiki bolaning emotsional o'z-o'zini boshqarishi ota-onasining emotsional o'z-o'zini boshqarishi tipida quriladi.

2. Bolaga mehirsizlik ko'rsatilishi, unda himoyasizlik tuyg'usining shakllanishi, atrofni o'rab turgan olamga xavf va dushmanlik tuyg'usi.

3. Ota-ona yoki biror bir hodisa sababli tez-tez bo'ladigan va uzoq davom etuvchi frustratsiya.

4. Bolaga ota-onasi tomonidan bo'ladigan kamsitish, tahqirlash. Bu tez-tez bo'lib turadigan frustratsiya hodisasi, ammo u bola shaxsining shakllanishida muhim, shu sababli korreksiyaga muhtoj.

Tarbiyasi og'ir o'smirlar ish olib borishda pedagog quyidagi parametrlarni inobatga olishi lozim: guruh hajmi, ularning yosh va ijtimoiy tarkibi, muomala qilish joylari va vaqti, guruh faoliyatining mazmuni va yo'nalishi. Muomalaning bu parametrlarini bilish tarbiyachiga tuman, shaharda o'smir guruhlarini bilan ishlashning eng to'g'ri va samarali shakl-vositalarini qo'llashga yordam beradi.

Ijtimoiy pedagog o'smirlar guruhining ijtimoiy tarkibini bilish ham muhim. Ijtimoiy tarkibi turli bo'lgan o'smirlar guruhlarida o'zaro axborot almashuv va muomala qilish qiziqarli bo'ladi. Biroq bu guruhlarda hayot haqida yolg'on tasavvurlarga ega ma'lumotlar ham tarqatilishi mumkin.

Tarbiyachining vazifasi:

1. Guruhdagi muomalaning mazmunini bilish;
2. Tarbiyaviylar ta'sirni to'g'ri tashkil qilib, ma'lumotni to'g'ri tomonga yo'naltirish.

Guruhlarning o'rnatilishi va tahlil qilinishi lozim bo'lgan mashg'ulotlarini ikki turga ajratsak bo'ladi – vaqt bo'yicha – doimiy va nodoimiy, yo'nalishi bo'yicha –

ijobiy (mehnat, sport, san'at bilan mashg'ul bo'lish) va salbiy (chekish, alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish, qimor o'ynash).

Tarbiyasi og'ir o'smir guruhlari bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning uslublari va texnologiyalari quyidag muvaffaqiyatli amal oshib, uning asosida:

Maktab yordamida:

- Maktab va maktabdan tashqari o'smirlar jamoasi yordamida tarbiyaviy ta'sir(seksiya, klub, to'garaklar);
- Intizomli a'lochi o'quvchilarning pedagogik qarovsiz sinfdoshlariga ta'sir. Bu yo'nalish bir-biri bilan do'stlashish xohishi, o'zaro muomalaga talab bo'lganda juda muvaffaqiyatli amalga oshib, uning asosida qiziqishlari umumiyliigi yotadi. Bu yo'nalishning amalga oshirishning muvaffaqiyati ko'p borada o'qituvchi, sinf rahbarining mohir rahbarligiga bog'liq.
- Sinf jamoasining pedagogik qarovsiz o'smirlarga ta'siri. Bunaqa birgalikdagi faoliyatni talab qiladi. Sinfda jamoaviy ishlarga jalb qilingan pedagogik qarovsiz bolalar nafaqat o'zlari uchun balki jamoa uchun ham mehnat qilayotganlarini va ularning ishtirokiga ko'p narsa bog'liqligini anglab yetishadi. Bunaqa faoliyatlarda og'aynichilik aloqalari vujudga keladi, boshqalarga nisbatan to'g'ri munosabat shakllanadi, yuklatilgan vazifa uchun ma'suliyat hissi ortadi;
- Pedagogik qarovsiz bolalarga tarbiyaviy ta'sirning ko'rib chiqilgan yo'nalishlari mikro tuman tarbiyaviy ishida maktab jamoasi bilan birgalikda va bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi;

Maktabdan tashqari o'smirlar jamoasi yordamida tarbiyaviy ta'sirning tashkil qilishda quyidagi holatlar inobatga olish lozim:

Birinchiidan to'garak, seksiya, klubda o'smirlarda aniqlangan bitta qiziqish bilan cheklanmaslik lozim balki mehnat, turli o'yinlar, ijodiy faoliyat orqali pedagogik o'smirlarni atrofdagilar bilan normal munosabatlarga tayyorlashga intilish lozim

Ikkinchiidan, norasmiy guruhga yoki uning aksariyat a'zolariga ta'sir ko'rsata turib ularni rasmiy guruhga o'tishlariga erishsa bo'ladi. Bu jarayonni shartli ravishda "rasmiylashtirish" deyishadi. Bu jarayon o'smirlar uchun sezilmaydigan holda tarbiyachi tomonidan norasmiy guruhning rasmiy guruhga aylanishidir.

Pedagogik qarovsiz bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishning yana bir xususiyati o'smirlarni o'z tanlashgan, uning bajarilishidan qoniqish sezishadigan faoliyatni tanlashdir. Asta-sekin faoliyatdagi bunday ehtiyojni qondirish va rivojlanish, keyinchalik uni o'smirlarda bajarayotgan ishlari uchun ma'suliyat xissini oshiruvchi faoliyat turlari bilan to'ldirib boradi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar yoki o'smirlar bilan ish olib boorish pedagogik qayta tarbiyalash jarayonini ko'zda tutadi.

Qayta tarbiyalash bola yoki o'smir yurish-turishidagi turli cheklanishlarni yengib o'tish yoki bartaraf etishdir. Qayta tarbiya ham tarbiyachi ham tarbiyalanuvchilar uchun ham og'ir jarayondir. Tarbiyalanuvchining yangi yo'lning istiqboli bilan qiziqishi kerak. Tarbiyachi esa tarbiyalanuvchining o'tmishi bugungi kunini tahlil qilib uning kelajagini tasavvur etishi lozim.

O'smirni qayta tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni bir nech bosqichdan iborat:

- Tarbiyalanuvchini o'rganib chiqish;
- O'smirning yurish-turishini o'zgartirish uchun uni ruhiy tayyorlash kerak;
- Ijobiy axloqiy xislatlarni to'plash;
- Inqirozdan chiqish, o'z-o'zini tarbiyalashga o'tish.

Shuni inobatga olish kerakki, bu jarayonga tarbiyachidan tashqari o'smir mansub bo'lgan tarbiyalanuvchilar jamoasi ham qo'shiladi. Bunda tarbiyachi kordinator vazifasini bajarib, jamoani o'z o'rtoqlarini qayta tarbiyalashga yo'naltiriladi. O'smirlar bilan reabilitasion markazda ishliytotgan ijtimoiy pedagog metodlardan biridan foydalanib tarbiyalanuvchi oldida idealga o'xshash naqsadini qo'yadi. Bu axloqiy komil inson o'smirning ijobiy yurish-turishning shakllanishiga yordam beradi. Insoniyat mavjudligining muhim shartlaridan biri - bola tarbiyasi hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdanoq tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi. Shunday bo'lsa-da, jamiyatda xulq-atvorida salbiy illatlarga moyil, ijtimoiy me'yorlarni qabul qilolmaslik xohishi, xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydigan bolalarni uchratamiz. Ularni tabiatan shunday xulq-atvorga ega deb, e'tibordan chetda qoldirish yoki chora-tadbirlar ishlab chiqmaslik jamiyat uchun kattadan-katta yo'qotishlarga olib keladi.

Shu bois, tarbiyasi va xulq-atvorida o'zgarishi bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatuvchi kishilar psixologlar, pedagoglar hisoblanadi. Chunki, "tarbiyasi og'ir" bolalarda bir qator o'ziga xos tipik illatlar kuzatiladiki, ular:

- Ota-onalar, pedagoglar va boshqa katta yoshdagilar bilan munosabatda
- O'rtoqlari, sinfdoshlari va boshqa tengdoshlari bilan munosabatda
- O'ziga munosabatda va o'zini o'zi tushunishda
- Ichki yagonalik, boshqalar bilan do'stlasha olmasligi
- O'qishdagi qiyinchiliklarini boshdan kechiruvi kabi.

Bugungi kun psixologik-pedagogik tajribalar "tarbiyasi og'ir" bolalarga yordam ko'rsatish uchun quyidagi tartibda ish tutishni taqazo etmoqda:

Yosh jihatlariga qarab profilaktika va psixokorreksiya ishlarini boshlash talabi.

Chunki, "tarbiyasi og'ir" bolalarga o'smirlik yoshiga xulqidagi buzilishi qat'iy shakllangan bir davrda profilaktik va korreksion tadbirlarga qo'l uriladi. Aslida xulq-atvorida o'zgarish yaqqol namoyon bo'lgan davrida unga chora ko'rishni kutib o'tirmaslik lozim. Shu bois boshlang'ich maktab yoshidayoq maqsadli profilaktika va psixokorreksiya ishlarini boshlash maqsadga muvofiq. Balki undan oldin.

1. Ishni differensial va individual tashkil etish:

Bunda bolalarning tarbiyaviy-profilaktik jarayonda yosh va jinsiga qarab differensial hamda ularni har birini insividual xususiyatlariga qarab ishni rejalashtirish. Yordam faoliyatida xilma-xillikni ta'minlash, ya'ni vaziyat, shart-sharoitga qarab usullar, munosabat o'rnatish.

Mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish:

"Tarbiyasi og'ir" bolalar bilam tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarni o'tkazish jarayonida ularni ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy vaziyatlarga tayanib, u tashkil etilayotgan mintaqaning xususiyatlarini hisobga olish lozim. Albatta, yuqorida sanab o'tilgan talablar umumiydir, ammo "tarbiyasi og'ir" bolalar bilan ishlayotgan vaqtda ularga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish uchun bir qator uslub va amallardan foydalanishni bilish lozim.

Tarbiyada ta'sir ko'rsatish usullariga ya'ni taqdirlash va jazolash yo'llariga alohida e'tibor beriladi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar bilan ishlash jarayonida ham pedagog-

tarbiyachilar ulardan samarali foydalanishlariga to'g'ri keladi. Taqdirlash bola xatti-harakatlarida ijobiy sifatlarni tarkib topishi va mustahkamlanishi uchun, jazolash esa ixtiyor etilmaydigan salbiy xususiyatlarni oldini olish va ulardan ogoh etish maqsadida foydalaniladi. Jazolash adolatli va bolaning shaxsini kamsitmagan holda samarali tashkil etilishi zarur. Tarbiyaviy vositalar orasida tarbiya amallari borki, ularni samarali qo'llash ijobiy natijalarga olib keladi. Tarbiya amallari tarbiya uslublarining tarkibiy elementlari bo'lib, ular bolaga ta'sir samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar bilan ishlash jarayonida mutaxassislar bir qator tarbiya amallaridan foydalanishlari o'rinlidir.

Ijtimoiy pedagog – tarbiyaviy ishlar metodlarini keng tizimidan foydalanishga o'z e'tiborlarini qaratishlari lozim. Ijtimoiy pedagog ishlarini o'ziga xosligi bir qator yangi faoliyat usullarini yuzaga chiqaradi. Har bir ijtimoiy pedagog ishining muhim o'ziga xosligi, bolalar xulqining axloqiy asosini buzilishiga olib keladigan aniq faktlarni aniqlash, bartaraf etishga yo'naltirilishi kerak.

Ijtimoiy pedagog har bir kichik muhitda, o'smirda o'z tengdoshlari, o'quvchilar va o'qituvchilar, bolalar va ota-onalar o'rtasida insonparvarlik etikasiga rioya qilishni, bu esa o'z navbatida ular ma'naviy dunyosini shakllanishiga yordam bermog'i lozim. Eng muhimi kelajak jamiyati a'zosida zarur bo'lgan; o'z xatti-harakati uchun javob beradigan; g'amxo'rlik beminnat ish qilishlik, murakkab sharoitlarda irodaviy kuch topa oladigan, qiyinchiliklar yenga oladigan, mehnatsevar, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, kamtarlik, minaddorchilik va boshqa sifatlarni shakllantirishlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al-hosil tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo falokat, yo saodat- yo halokat masalasidir" degan gaplari qariyb bir asrki o'zining zalvorini yo'qotgani yo'q, fikrimizcha yo'qotmaydi ham. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. Chunki o'smirlik yoshiga kelib shaxs shakllanayotgan bir davrda xulqdagi og'ishlarning asosiy sabablaridan biri bu tarbiyadagi xatolar va noto'g'ri tarbiya bo'lib qolmoqda. Albatta,

xulqi og'ishiga yana bir qator sabablar ham pedagogik tarbiyada jiddiy e'tibor berish kerak.

Tarbiyada mukammal formula yo'qki, jamiyatda hamma bola bir xil darajada tarbiyalansa. Har bir bola o'ziga xos ijtimoiy muhitda o'sadi, tabiiyki unga ijobiy hamda salbiy ta'sirlar turlicha bo'ladi. Shuning uchun o'smir yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash ko'proq bilim olishga, ilm o'rganishga undashimiz lozim. Abdulla Avloniy bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg'u beradi: "Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur".

Bolani voyaga yetgunicha oq choyshabga o'rab katta qilishning iloji yo'q va doim ham bolaga yetarlicha e'tibor qila olmaymiz. Qaysidur vaziyatda kimningdir e'tiborsizligi, kimningdir aybi bilan bola "yomon bola" ga aylanishi mumkin. Shunday bolalar haqida eshitsak, ko'zimiz tushganda "guruch kurmaksiz bo'lmaydi-da" deb qo'yamiz. Lekin bola qanchalik yomon bo'lmasin uni kurmakka chiqarish noto'g'ri. Bizning har qanday bola bu nihol. Lekin ayrim nihollar shamol ta'sirida yo boshqa biror tabiiy ta'sir natijasida qiyshayishi, sinishi mumkin. Juda ham yomon hollarda esa tanasiga zararkunanda o'simlik va hashoratlar yopishib olishi yoki kasallanish kuzatiladi. Lekin oqil, tajribali dehqon bunday vaziyatda qiyshaygan daraxtga tirgak qo'yadi, zararkunandalar va kasalliklardan tozalash uchun niholni dorilaydi, singan shoxlariga shakl berib kesadi. Hozirgi zamon ota-onalari, tarbiyachi va pedagoglar shunday "oqil dehqon" kabi bo'lishlari kerak-ki, o'smirga "tarbiyasi og'ir" deyila tamg'a bosilmasin.

O'tkazilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, bugungi kun yosh avlodini har tomonlama rivojlangan komil inson qilib tarbiyalashda pedagogik-psixologik bilimlarning o'рни oshgandan oshib boradi. Har bir o'smirga alohida individual ravishda yondashib, ulardagi muammolarni korreksiya qilishni ayni vaqtda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Hozirgi paytda internetdagi turli ijtimoiy tarmoqlarda kelayotgan buzg'unchi g'oyalardan yoshlar ongini himoya qilish

kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biri hisoblanadi, shuning uchun ham oila-mahalla-ta'lim muassasalari hamkorligida ish olib borishni taqazo qiladi. Ana shundagina biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarimizni amalga oshirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008.
2. B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent – 2017.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O'zbekiston”, 2011. – 440 b.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. T. O'qituvchi. 2010 y.
5. Turg'unov Q. Psixologiya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – 195 b.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛГИК АСОСЛАРИНИ ЯРАТИШ

*Мансурова Чарос Насруллаевна
Қашқадарё вилояти Китоб тумани 45-мактаб амалиётчи психологи*

Давлат тараққиёти ва жамият равнақи кўп жиҳатдан унинг интеллектуал потенциали билан белгиланади. Чунки, илмий потенциали юқори даражада ривожланган мамлакат барча соҳаларда доимо илғор бўлади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Фарзандларимизни мустақил фикрлайдиган, замонавий билим ва касб-ҳунарларни эгаллаган, соғлом ҳаётий позицияга эга, чинакам ватанпарвар инсонлар сифатида тарбиялаш биз учун ҳеч қачон долзарблигини йўқотмайдиган масала ҳисобланади”

Кадрлар тайёрлаш соҳасидаги давлат сиёсати инсонни интеллектуал ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш билан узвий боғлиқ бўлган узлуксиз

таълим тизими орқали ҳар томонлама баркамол шахс- фуқарони шакллантиришни назарда тутди. Шу тарзда фуқаронинг энг асосий конституциявий ҳуқуқларидан бири билим олиш, ижодий қобилиятни намоён этиш, интеллектуал жиҳатдан ривожланиш, касби бўйича меҳнат қилиш ҳуқуқи руёбга чиқарилади.

Интеллектуал – сўзининг луғавий маъноси ақлий жиҳатдан етуклик, фаҳм-фаросат, ақл-идрок, заковат, зукко яъни заковатли инсон, зукко бўлиш демакдир.


Механизм - сўзи муайян бир мақсадни амалга оширувчи омиллар, факторлар , тизимга, бир тартибли қолипга солиш, кетма-кетликни тўғри танлай билиш демакдир.

Маълумки, таълимни ислоҳ қилишда, миллий мустақиллик принциплари ва халқнинг бой интеллектуал мероси, умумбашарий кадриятларнинг устиворлиги асосида таълимнинг барча даражалари ва бўғинларида таълим олувчиларнинг маънавий ва ахлоқий фазилатларини ривожлантириш; таълим олишда, шунингдек болалар ва ёшларни маънавий ахлоқий интеллектуал ва жисмоний жиҳатдан тарбиялашда жамоат ташкилотлари маҳаллалар, хайрия ва халқаро фондларнинг родини кучайтириш юзасидан чора тадбирлар ишлаб чиқиш ҳамда уларни амалга ошириш ишлари жадал суратлар билан олиб борилди.

Ҳар бир фан ўқитувчиси таълим бериш жараёнида ўқувчиларнинг фанни ўзлаштириш жараёни билан қизиқишлари табиий ҳол албатта. Ёшларнинг фанни мукамал ўзлаштириши, кўшимча саволлар билан мурожаат қилиши, янада чуқурроқ билим олишга ҳаракат қилиши ҳар қандай устозни қувонтириши ҳам табиий ҳолдир. Лекин бу ҳол ҳар бир гуруҳдан икки ёки уч ўқувчи бўлиши мумкинлиги ҳеч кимга сир эмас. Чунки тўлақонли ўз онги, ақл-заковати, зукколиги билан билим олишга ва ижод қилишга қизиқувчи ўқувчи-ёшларнинг интеллектуал ижодий салоҳиятини ривожлантирувчи мақсад ва вазифаларни ишлаб чиқиш ва дарс жараёнида унга амал қилиш бугунги куннинг муҳим вазифаларидан биридир. Бугунги кунда иқтидорли, истеъдодли ёшларимиз ҳам кам эмас. Фақатгина биз уларни дарс жараёнида аниқлаб олишимиз ва уларни

қизиқишларини инобатга олишимиз, ижодий салоҳиятга эришиши учун тўғри йўл-йўриқларни кўрсата олишимиз керак.


Бунинг учун ҳар бир ўқувчининг кундалик иш фаолиятини кузатишимиз ва ундан психологик-педагогик хулосаларни чиқариб ҳар бир ўқувчи билан индивидуал иш олиб бориш учун уларнинг иш фаолиятининг турларини ўрганиб чиқиш ва ҳар бир ўқувчининг психологик дунёкараши бўйича маълум хулосаларга эга бўлишни мақсад қилиб қўймоғимиз лозим:



Ўқувчиларнинг умумий фаолият турларини бирма-бир ўрганмасдан туриб уларнинг ижодий салоҳиятига баҳо бера олмаймиз. Чунки, ўқувчилар ўрганилаётган фанни “аъло” ва “яхши” ўзлаштиришига қараб унинг истеъдодини баҳолашимиз ҳам нотўғри услубдир. Маълумки, бир йўналишни чуқур ўзлаштириб тор мутахассислик доирасида “аъло” бўлиб ихтисослиги бўйича ўқитилаётган фанларни яхши ўзлаштира олмаслиги мумкин.

Бунинг учун барча таълим масканларида таҳсил бераётган устозларимиз ўз шогирдларининг ижодий салоҳияти ва маҳоратини ривожлантириш учун ўқувчининг интеллектуал сифатларини ўрганиши зарур бўлади:

Ёшларнинг интеллектуал сифатларини ўрганиш



Ёшларнинг интеллектуал сифатларини ўрганган ҳолда улар билан мунтазам иш олиб бориш учун таълим жараёнида куйидаги усуллардан фойдаланишни назарда тутиш муҳим аҳамият касб этади. Бундан ташқари ҳар бир таълим масканида ўтказиладиган таълимий тадбирлар, танлов ва мусобақалар ҳам ёшларнинг илмий ва ижодий интеллектуал салоҳиятини оширишга жуда катта ёрдам беради. Бунинг учун ҳар бир устоз ўзи танлаган шогирдининг маҳоратини ошириб бориш учун барча усулларни қўллай олиши, ўқув маскани маъмурияти томонидан ташкил этилаётган тадбирларни ўз вақтида мунтазам ўтказилишини ўрганиб бориши лозим. Кўрик-танлов, мусобақа, олимпиадалар ўтказишдаги демократик эркинлик, одилона ва оқилона боҳолаш, ёшларнинг ижодий интеллектуал салоҳиятини ривожлантирувчи омилларни илгари суриш барчамизнинг муҳим вазифаларимиздан бири эканлигини унутмаслигимиз керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.. “Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан қураимиз” Т. Ўзбекистон, 2017. 296-бет.

2. Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Қобилият ва унинг диагностикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1997. -134 б.
3. З.Т. Нишонова. Мустақил ижодий фикрлаш. – Т.: Фан.- 2003.-114 б.

YOSHLARDA STRESSOGEN VAZIYATLARDA PSIXOLOGIK CHIDAMLILIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Jurayeva Xayrinso Dilmurodovna
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 46-maktab amaliyotchi psixologi

Jahon miqiyosidagi mutaxassislar stress bugungi kunda “asr kasalligi” bo’lib qolayotganligini ta’kidlashmoqdalar. Zero, shaxsning stress holatiga tushishi nafaqat uning yuritayotgan faoliyatiga, uning ruhiy jismoniy salomatligiga ham jiddiy salbiy ta’sir etadi. So’ngi yillarda hayot tarzining tezlashuvi, axborotlar oqimining ortib borishi, iqtisodiy o’zgarishlar, emotsional zo’riqishlar, bularning barchasi bugungi kun shaxsiga o’zining salbiy ta’sirini o’tkazayotgani ma’lum. Shunga bog’liq holda bugungi kun kishisida stresslarning kuzatilayotgani keng ilmiy-jamoatchilik diqqat markazida bo’lgan asosiy muammolardan biri bo’lib qolmoqda. Butun Jahon Sog’liqni Saqlash Tashkilotining ma’lumotlariga ko’ra (2020-2021-yillar) mavjud kasalliklarning 65%i stress bilan bog’liq ekanligi ta’kidlandi. Demak, kelajakning asosiy kuchi bo’lgan yoshlarda stressga tushishlari tufayli turli somatik va psixosomatik kasalliklarni orttirib olish ehtimoli keng jamoatchilik uchun ham jiddiy e’tibor ob’ekti bo’lishiga asos bo’lmoqda.

Stress jismoniy, ruhiy va ijtimoiy bo’lishi mumkin bo’lgan zo’riqish holatlarini o’z ichiga oladi. Chidamlilik so’zining ma’nosi “bardoshlilik”.

Stressga chidamlilik –stressga qarshi turish qobiliyatini anglatadi. Bu his-tuyg’ular va stressli voqealarni yengish qobiliyatining o’lchovidir. Bugungi kunda yoshlarimiz orasida stress holatlari ortganini ko’rishimiz mumkin. Stress ortida har doim sabab bor. Stressni sababini tushunganingizdan so’ng, shunga mos ravishda qarshi choralar haqida o’ylashingiz mumkin.

Yoshlardagi stress sabablari:

1. Hammaga birdek yoqaman degan fikr.

Odamlar turli xil qarashlarga ega. Ba'zi bir narsalarni yoqtirishsa, ayrimlarini yoqtirishmaydi. Misol uchun ko'pchilikka yoqadigan taom ma'lum miqdordagi odamlarga yoqmasligi mumkin. Har bir inson ham hammaga birdek yoqavermaydi. Agar hamma sizni yoqtirishi mumkin emasligini tushunmasangiz, siz hammaga birdek yoqaman deb o'ylaysiz va harakatlanasiz. Bu esa stress manbayi hisoblanadi. Chunki hammaga birdek yoqish mumkin emas.

2. O'qish faoliyatida yoki o'qishni tugatgandan so'ng maqsadsiz holat.

Maqsadsiz barcha qiyinchiliklar stressga aylanadi.

3. Vaziyatni o'zgartira olmaslik hissi.

Hayotda yoshlarimizga mos kelmaydigan qoidalar, ularning haqiqatlaridan farq qiladigan haqiqatlar va atrofdagilar bilan o'zlarini solishtirishlari. Bu vaziyatlarni o'zgartira olmasliklariga ishonish ham stressni keltirib chiqaradi. Hamma narsa ularning ideallariga to'g'ri kelmaydi.. Ammo bu ular vaziyatni umuman o'zgartira olmaydilar degani emas. Biroq, "vaziyatni o'zgartirish mumkin emas" deb o'ylashlari stressni yaratib beradi.

4. Kechalari yaxshi uxlamaslik.

Kechasi yaxshi uxlamaslik chidamlilikni pasaytiradi. Miya uxlash orqali his-tuyg'ularni tetiklashtiradigan funksiyaga ega. Tartibsiz va stress tufayli uxlay olmaslik funksiyaning to'g'ri ishlamasligiga sabab bo'ladi. Yaxshi uxlamaslik stressni kuchaytirishi tabiiydir. Bundan tashqari uyqu yetishmasligi kognitiv funksiyani pasaytiradi.

5. Stressga qarshi garmonlarning pasayishi.

Stressga qarshi garmonlarning pasayishi stressga moyillikni oshiradi. Stressga qarshi garmonlar jismoniy mashqlar yetishmasligi, uyqu yetishmasligi va tartibsiz hayot tufayli yetishmaydi. Bugungi kunda zamonaviy odamlar kamroq jismoniy mashqlar va uyquga ega bo'lganligi sababli, bu stressga qarshi garmonlarning kamayadigan muhitini yaratadi.

Stressga chidamlilikka ta'sir qiluvchi omillar:

Sezish qobiliyati- Sezgi qobiliyati qanchalik past bo'lsa, stressga chidamlilik shunchalik yuqori bo'ladi.

Qochish qobiliyati-bu stress omillarini qabul qilmasdan oldini olish qobiliyatidir. Stressli vaziyatlarga moslashuvchan javob bera oladigan odamlarning stresslardan qochish qobiliyati yuqori bo'ladi. Tanangiz va ongingiz qanchalik sog'lom bo'lsa, undan qochish qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi.

Stress omillari bilan kurasha olish kuchi- stress bilan samarali kurasha oladigan odamlar stressga nisbatan ancha chidamli bo'lishadi. Masalan: sizda muammo ko'p bo'lsa, bu muammoni bartaraf etishni o'ylash, muammolarni hal qilishingiz mumkin.

Stressni ijobiy narsaga almashtirish qobiliyati-bu stressli vaziyatlarni ijobiyga almashtirish qobiliyatidir. Misol uchun: biror narsa noto'g'ri bo'lsa, "bu juda qimmatli o'rganish imkoniyati edi" deyish yaxshi fikrdir.

Tajriba – bu insonning o'tmish tajribasi. Agar siz o'tmishdagi stresslarga o'rganib qolgan bo'lsangiz, siz kamroq stressga duch kelasiz.

Imkoniyatlar- sizdagi imkoniyatlar qancha stressni saqlashingiz mumkinligidir. Agar stressga tushganingizda, imkoniyatlaringiz ko'p bo'lsa, stressga chidashingiz mumkin bo'ladi. Agar sizda imkoniyatlar kam bo'lsa, stressga chidamligingiz kam bo'ladi. Agar siz jismoniy va ruhiy jihatdan yomon bo'lsangiz, siz juda ko'p stress holatlariga moyil bo'lasiz.

Psixologik chidamlilik uchun, hayotning go'zal tomonlariga e'tibor qaratib, biz istamagan vaziyatlarga tayyor yashash muhim nuqtai nazardir. Agar biz stressga to'g'ri munosabatda bo'lsak, bu stress bizda asta sekin kamayadi. Insonlar stress haqida gap ketganda salbiy fikrda bo'lishadi, ammo stressing o'zi yomon emas. Stress shunchaki kuchlanish va dam olishdir. Inson qiyin vaziyatlarda stressni his qiladimi yoki u buni shaxsiy qiyinchilik uchun imkoniyat sifatida ko'radimi bu odamning o'ziga bog'liqdir. Stress o'sishga, muvaffaqiyat tuyg'usiga va ishonchga olib keladi.

Stressga chidamlilikni oshirish imkoniyatlari:

-Yaxshi uyqu va to'g'ri ovqatlanish.

-Sevimli mashg'ulot va qadrlaydigan narsalar.

-Boshqalar bilan maslahatlashish- oilangiz, do'stlaringiz va yaqinlaringiz bilan tashvishlaringiz va muammolaringizni o'rtoqlashing.

-Mashg'ulotlardan so'ng dam olish, kichik tanaffus qilish, kofe ichish.

- Siz chora ko'rishingiz kerak. Mashq qilish, musiqa yoqish va raqsga tushish, yurish kabi rag'batlantiruvchi harakatlar bilan stressni engish osonroq.

- Nafas olish mashqlari va meditatsiya ham stressni boshqarishda juda samarali usullardir.

- Sog'lom turmush tarzini qabul qilish: sog'lom oziq-ovqatlarni iste'mol qilish, spirtli ichimliklar va chekishdan voz kechish, muntazam uyqu.

Stressni boshqarish texnikasi:

1-qadam: Stress belgilarini sezganingizda, avvalo, qilayotgan ishni to'xtating. Tanangiz sizga nima demoqchi ekanligini tinglang. Bir muncha vaqt tinchlik va osoyishtalikka vaqt ajrating. Siz tinchlantiruvchi tushni tasavvur qilishingiz yoki tinchlantiruvchi so'zlarni yoki iboralarni takrorlashingiz mumkin. Agar siz ma'lum bir tinchlantirish texnikasini muntazam ravishda mashq qilsangiz, o'zingizni osongina tinchlantirishingiz mumkinligini tushunasiz. Dam olish va stress darajasini pasaytirgandan so'ng, siz aniqroq fikrlashni boshlashingiz mumkin.

2-qadam: Ishning qaysi bosqichida xafa va g'azablanganingizni aniqlang. Keyin o'zingizdan nima o'tganini va o'zingizga nima deganingizni so'rang.

3-qadam: Boshingizdan qanday mantiqsiz fikrlar o'tayotganini aniqlashga harakat qiling. Nima va qaysi fikrlar sizni bezovta qilayotganini aniqlaganingizdan so'ng, bu fikrlarni ko'rib chiqing va o'zingiz bilan biroz suhbatlashing. Haqiqiy bo'lmagan va mantiqsiz g'oyalaringizni ko'rib chiqing.

4-qadam: Ko'proq mantiqiy va oqilona g'oyalarni ishlab chiqish uchun o'zingiz bilan bahslashing. Endi siz aniqroq va mantiqiy fikr yuritishingiz mumkin, qanday xatti-harakatlar stressni keltirib chiqarayotganini bilib olishingiz mumkin.

5-qadam: Eski, muvaffaqiyatsiz odatlardan voz kechish va yanada samarali xulq-atvor namunalarni qabul qilish uchun yangi narsa qilishga tayyor bo'ling. Muxtasar qilib aytganda, sizni yanada muvaffaqiyatli qiladigan yangi xatti-harakatlarga ega bo'lish xavfini oling.

6-qadam: Stressga bo'lgan nuqtai nazarinigizni o'zgartirish stressni boshqarishga yordam beradi. Vaziyatni qabul qiling va uni qayta ko'rib chiqing.

Har birimiz hayotning turli sohalarida va bosqichlarida son-sanoqsiz stress omillari va kutilmagan oqibatlariga duch kelamiz, va shunga qaramay biz yashashni davom ettirish ma'suliyatining og'irligini his qilamiz. Hayotda uchragan muvaffaqiyatli odamlar umumiy nuqtasi bo'lgan konsepsiyada chidamlilik qobiliyati yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova V.M salomatlik psixologiyasi.-T.: Yangi asr avlodi. 2005.-71 b.
2. Samarov .R.S. Shaxs va stress. O'quv uslubiy qo'llanma.-Toshkent,2004-40b
3. Ziyonet.uz

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР, КАК СРЕДСТВО ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ»

*Ахророва Розагул Асроровна
Воспитатель Г ДОО №15 «Улыбка» города
Зарафшан Навоийской области*

Аннотация. Ахророва Розагул Асроровна в своей методической рекомендации на тему «Использование дидактических игр, как средство экологического воспитания» широко раскрывает задачи дидактических игр, которые можно проводить с детьми как коллективно, так и индивидуально, усложняя их с учетом возраста детей. Усложнение должно идти за счет расширения знаний и развития мыслительных операций и действий. Дидактические игры, применяемые на занятиях, помогают детям усвоить качества предметов и уточнить представления, полученные в процессе наблюдения в природе.

РЕЦЕНЗИЯ

Экологическое воспитание - новая категория, которая непосредственно связана с наукой экологией, различными ее ответвлениями. В классической экологии основными понятиями являются: взаимодействие отдельно взятого организма со средой его обитания: функционирование экосистемы - сообщества живых организмов, проживающих на одной территории и взаимодействующих между собой. В данной методической рекомендации раскрыты классификации типы игр для обучения и воспитания детей по экологическому воспитанию в разных возрастных группах. Автор предлагает новую дидактическую игру «Природа – наш общий дом», которая несет в себе экологические задачи по воспитанию детей к окружающему миру природы.

Экологическое воспитание и образование предусматривает:

- формирование у детей знаний и представлений об окружающем мире, включающем природу и общество;
 - понимание взаимосвязи между этими составляющими мира и взаимозависимости;
 - выработку правильных форм взаимодействия с окружающей средой;
- развитие эмоционально-положительного отношения к природе

Особое внимание при работе с детьми следует уделить воспитанию бережного отношения к природе, формированию умения соблюдать элементарные правила поведения при взаимодействии с природой.

Систематическое и последовательное знакомство с окружающим миром развивает речь, память, мышление, воображение и способствует всестороннему развитию ребенка.

Объектом исследования является - экологическое воспитание детей дошкольного возраста с помощью дидактических игр и экскурсий.

Для осуществления данной цели ставятся следующие **задачи**:

- сформулировать и проанализировать суть понятий «экологическое воспитание дошкольника», «игровая деятельность детей дошкольного возраста»;

- рассмотреть основные методы и изучить структуру проведения занятий с дошкольниками по их экологическому воспитанию;
- выявление уровня экологической культуры - реальных достижений в интеллектуальной, эмоциональной, поведенческой сферах детской личности при ее взаимодействии с природой, предметами, людьми и оценках себя;
- составить методический материал, а именно разработать конспект дидактической игры по экологическому воспитанию дошкольников.
 - Игру рекомендуется использовать на занятиях по экологии с детьми старшего дошкольного возраста, в процессе ознакомления детей с семенами-крылатками.
 - 1. Игры необходимо подбирать с учётом закономерностей развития детей и тех задач экологического образования, которые решаются на данном возрастном этапе;
 - 2. Игра должна давать ребенку возможность применять на практике уже полученные экологические знания и стимулировать к усвоению новых;
 - 3. Содержание игры не должно противоречить экологическим знаниям , формируемым в процессе других видов деятельности;
 - 4. Игровые действия должны производиться в соответствии с правилами и нормами поведения в природе;
 - 5. Предпочтение отдается тем играм, которые позволяют решать не только задачи экологического образования, но и обеспечивают решение общих задач формирования личности ребенка-дошкольника;
 - 6. Для того, чтобы игра выступала эффективным средством экологического образования дошкольников, необходимо проследить внутреннюю связь каждой игры с предыдущей и последующими играми. Это позволит прогнозировать, на какой имеющийся опыт ребенок будет опираться, какой новый шаг произойдет в его развитии.

Часто игры соотносятся с содержанием обучения и воспитания.

В этой классификации можно представить следующие типы игр:

- игры по сенсорному воспитанию;

- словесные игры;
- игры по ознакомлению с природой, и окружающим миром;
- по формированию математических представлений и др;
- иногда игры соотносятся с материалом;
- игры с дидактическими игрушками;
- - настольно-печатные игры;
- словесные игры.

С помощью дидактических игр воспитатель осуществляет сенсорное воспитание детей, развивает познавательные процессы: любознательность, понимание взаимосвязи простейших явлений. Он использует игру как средство развития мышления, речи, воображения, памяти, расширения и закрепления представлений об окружающей жизни.

В младших группах игра обычно занимает все занятие, в средней, старшей и подготовительной к школе группах она чаще всего является частью занятия и продолжается от 5 до 20 минут. В младших группах проводят игры, в которых ребенок должен научиться различать предметы по внешнему виду. Организуя такую игру, воспитатель поручает детям принести лист, цветок, морковь, свеклу и т.д.

Можно использовать в работе с детьми младшего возраста такие игры, как например: «Назови овощи и фрукты», «Домашние и дикие животные».

На первом этапе воспитатель проигрывает игру вместе с детьми. По ходу игры он сообщает одно правило и тут же его реализует, при повторных действиях сообщает дополнительные правила. На втором этапе воспитатель выключается из активного участия в игре – он руководит со стороны: помогает детям, направляет игру. На третьем этапе дети играют самостоятельно. Воспитатель лишь наблюдает за действиями дошкольников.

Начиная со средней группы

Путь обучения игре иной. Воспитатель рассказывает содержание игры, предварительно вычлняя 1-2 правила. По ходу игры еще раз подчеркивает эти правила, показывает игровые действия, дает дополнительные правила. Таким

образом, обучение игре на первом этапе – рассказ о содержании, ознакомление с правилами в ходе игры. Можно провести такие игры, как «Разложи овощи и фрукты в корзины», «Кто где живет?»

На следующем этапе дети играют самостоятельно. Воспитатель наблюдает за игрой, помогает, исправляет ошибки, разрешает конфликты. Когда интерес к игре пропадает, педагог дает новый ее вариант.

В средней группе, играя, дети узнают предметы (овощи, фрукты) на ощупь. К таким играм относятся "Угадай, что в мешочке?", "Узнай, что в руках?".

Для первой из этих игр воспитатель заранее prepares мешочек и кладет его овощи или фрукты (картофель, луковицу, свеклу, морковь, огурец, яблоко, грушу, лимон). Дети по очереди опускают руку в мешочек, берут предмет, ощупывают его, называют, а затем вынимают и показывают его всей группе.

После того как у детей накопятся конкретные представления о растениях (полевых, лесных, комнатных), **в старшей** группе можно дать дидактические игры на сравнение предметов и узнавание их по частям (цветкам, листьям). Например, «С какого дерева листок», «Назови перелетных и зимующих птиц».

В подготовительной к школе группе

проводят игры, требующие выявления некоторых признаков растений или животных, умения их описать, сделать обобщение.

Словесные дидактические игры организуют на знакомом детям материале; с их помощью активизируется мышление детей, развивается речь.

Дидактические игры можно постепенно усложнять. Так, например, узнавание предметов следует давать сначала по внешнему виду, потом на ощупь, затем по описанию и наконец по ответам на поставленные вопросы к загадке. Во время дидактической игры с растениями нужно воспитывать бережное отношение к ним. Большое значение для развития детей имеют творческие игры, связанные с природой. Основная особенность творческих игр: они организуются и проводятся по инициативе самих детей, которые действуют самостоятельно. Воспитатель должен приглядываться к творческим играм, чтобы в дальнейшем учесть, какие знания достаточно усвоены детьми, какие следует уточнить, расширить.

Одним из видов творческих игр, являются **строительные игры** с природным материалом. Воспитатель, руководя такой игрой, дает знания детям не в готовом виде, а с помощью поисковых действий.

В ходе игры с природным материалом (снегом, водой, песком) воспитатель, беседуя с детьми, помогает им усвоить некоторые свойства материала, помогает в его отборе и использовании. «Построй фигуру из снега», «Вылепи из песка домики для животных» и т.п.

Предлагаю разработку новой дидактической игры **«Природа – наш общий дом»**.

Цель: Уточнять знания и представления детей о животном мире, развивать речь детей через рассказывание, стихотворения, загадывание загадок, ответы на вопросы педагога. Развивать внимание, память, сообразительность. Воспитывать бережное отношение к окружающему миру природы, соблюдать правила поведения в природе, формировать экологические знания детей.

Материал: подвисные конверты с заданиями о живой и неживой природе, в которых находятся картинки - карточки о природе животного мира, загадки, вопросы, стихи, фишки.

Ход игры: 1 вариант игры:

Воспитатель предлагает поиграть в игру «Природа – наш общий дом». Воспитатель проводит перед началом игры краткую беседу с детьми о бережном отношении к природе. Объясняет правила игры. В игре участвуют 12 детей. Игра висит на стене. Дети поочередно подходят к конвертам, выбирают любой конверт. Воспитатель достает из конверта задание с карточками, читает его, ребенок выполняет. После правильного выполнения задания, ребенок получает фишку.

2 вариант: У воспитателя на столе перевернутые карточки с изображением животных, птиц, насекомых и т.п. Ребенок подходит, выбирает карточку, называет кто изображен и подходит к соответствующему конверту и выполняет задание.

Используемая литература:

1. Государственная программа «Илк кадам».

2. Н.А.Рыжова «Я и природа», «Наш дом природа».
3. Н.В. Коломина «Воспитание основ экологической культуры в ДОО».
4. Государственные требования по программе «Илк кадам».

IJTIMOIY XULQ – ATVOR VA ODATLARNI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

*Nozimxon Inamov
Namangan davlat universiteti
Psixologiya faoliyati turlari yo'nalishi magistranti*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xulq-atvor va odatlarni shakllantirish shaxsni tarbiyalashdagi psixologik xususiyatlarini namoyon etishdagi rolini nazariy va amaliy tadqiq etish orqali umumlashtirilgan xulosalar olish va shu asosda psixologlarga amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy psixologiya, ta'lim-tarbiya, metodika, oila, mahalla, xulq-atvor, muomila madaniyati, shaxs, fikr, mafkura.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье даны обобщенные выводы о роли поведения и привычек в формировании психологических особенностей в воспитании личности на основе теоретических и практических исследований, а также даны практические рекомендации психологам.

Ключевые слова: *социальная психология, воспитание, методика, семья, добрососедство, поведение, культура общения, личность, мнение, мировоззрение.*

ANNOTATION

This article provides generalized conclusions through theoretical and practical research on the role of behavior and habits in the formation of psychological characteristics in the upbringing of the individual, and on this basis provides practical recommendations for psychologists.

Keywords: *social psychology, education, methodology, family, community, behavior, culture of communication, personality, opinion, ideology.*

Shaxsga taalluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishligidir. Shaxsga taalluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib, so'ngra shu ta'sirlarning subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir.

Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qushiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'kidlanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi subyekt bo'lsa, jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta'sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshqa.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida kutarilsa, va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, elu - yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi. Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga kuyishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hakozo. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muxrlandi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mehanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta muysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblovi ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbex berishi, juda kam xollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning kulidan to'tib, nima qilish kerakligini o'rgatib, «ko'zini moshday qilib ochib qo'yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy

vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli - tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir «tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli» deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi. Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi - bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyaliq qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish. Hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniksa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezrok moslashish uchun ba'zan bir - biriga zid hislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshligi, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon,

tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. V.M.Karimova . Ijtimoiy psixologiya–Toshkent.2010 yil
2. G'oziyev E.G. “ Muomala psixologiyasi” 2001yil

ОТА-ОНАЛАРНИНГ ЎЗ БОЛАЛАРИГА ЭЪТИБОРИНИ КУЧАЙТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АҲАМИЯТИ

*Рахимова Хуршида Тўраевна
Сурхондарё тумани Шеробод тумани
56-мактаб амалиётчи психологи*

Жамиятда оиланинг роли ўзининг кучи бўйича бошқа ҳеч бир ижтимоий институтлар билан тенглаштириб бўлмайди. Айнан оилада инсоннинг шахси шаклланади ва ривожланади Оилада инсоннинг маънавийлигига асос солинади, ҳулҳийҳ оидалари юзага келтирилади, шахснинг ички дунёси ва индивидуал сифтлари очиб берилади.

Бугунги кундаги энг долзарб масала сифатида жамиятда ёшларнинг хулқ-атворидаги салбий ўзгаришлар намоён бўлмоқда. Ўсмирлардаги бу ўзгаришлар агриссив хатти-ҳаракатларда ўз ифодасини топмоқда.

Хўш, бундай агриссив хулқ атвори юзага келтирувчи асосий омил нима? Буни қандай йўл билан олдини олиш мумкин?

Аввало, оиладаги тарбия жараёни, ўсмир шахсида хулқ-атвори юзага келишининг бирламчи омили ҳисобланади. Оиладаги муҳит ота-она ўз маъсулиятларини ҳис қилиши билан барқарор бўлади. Болаларнинг одобли бўлиб улғайиши учун ота-она билан бир қаторда маҳалла-куй ҳам катта ибрат мактабидир. “Қуш уясида кўрганини қилади”, деб бежиз айтмаган халқимиз.

Фарзанд тарбиялаётган ота-она ҳар бир ҳаракати, юриш туриши, муомаласи, бошқалар билан ўзаро муносабатида олижаноб фазилатларни намоён эта билиши керак. Чунки бола табиатан ниҳоятда тақлидчан ва кузатувчан бўлади. Шунинг учун унинг атрофдагилари ўз одатлари билан баъзан ўзлари сезмаган ҳолда уларга таъсир қиладилар. Оиладаги кўпол муносабатлар, кўп ёлфон гапириш, ёқимсиз хатти-ҳаракат бола тарбиясига салбий таъсир қиладиган носоғлом муҳитни келтириб чиқаради. Фарзанд тарбиясида ота-онанинг муомаласи муҳим ўрин тутаяди. Бола ота-она томонидан кўпол, дағал сўзлар эшитиб, калтак еб катта бўлса, бу унинг табиатига салбий таъсир қилады. Бу эса ўз навбатида оиладаги носоғлом муҳитда тарбияланаётган боладан “маънавий касал” инсонлар шаклланади. Улар эса жамият маънавиятига ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Болаларга етарли даражада эътибор берилмаслиги, уларда меҳр етмаслик ҳолатини юзага келтирмоқда. Психолог олимларни таъкидлашича, шахсда меҳрга бўлган эҳтиёжни қондирилмаслиги, ундаги жиддий камчиликлар пайдо бўлишига олиб келиши мумкин экан. Ҳар бир инсонга ўз эҳтиёжларини қондириш, шахсий ва умумий мақсадларга эришиш учун бошқа одамлар билан бирлашишга интилиш хосдир.

Бола шахсидаги меҳрга бўлган эҳтижни қондирилишда меъёрга амал қилиш муҳим. Зеро, эътиборнинг ҳаддан ортиқ даражаси ҳам салбий ҳолатлар сабабчиси бўлиши мумкин. Оиладаги ҳаддан зиёд ўсмир эркинликларини чеклаш ёки аксинча ота она томонидан сурункали бефарқлик ҳам шунингдек агрессив хулқ кўринишларини шаклланишга олиб келади. Агрессив хулқ оилада ўсмирнинг эркинликлари ҳаддан зиёд чегараланганда ёки унга ҳаддан зиёд эркинликлар берилганда ҳам шаклланиши мумкин.

Агар ўсмир оилада барча эҳтиёжларини тезлик билан қондирилдишига ўрганиб қолган бўлса, тенгдошлари жамоасида унинг эҳтиёжларига тўқинлик қилганга нисбатан агрессив муносабат билдиради

Оилада эмоционла инкор этилганлик ҳолатларида ҳам ўсмирлар ўзларининг агрессив хулқа кўринишлари билан ўзларига оила аъзоларининг эътиборини

қаратишга ҳаракат қиладилар Ота -оан ўсмир хулқидаги ўзгаришлар сабабини излаш ўзаро муносабатларни ўзгартиришга ҳаракат қиладилавр

Агар ўсмир оила аъзолари мунтазам тарзда ўзаро низолар , бақириқлар орқали таъсир ўтказиш асосида муаммоларини хал этишга ўрганган бўлсалар, бошқа ижтимоий вазиятда айнан ўзни шундай тўтишга интилади.

-шахсий муаммолар (физиологик ва психологик характердаги муаммоларни келиб чичишига сабаб бўлувчи пубертат даври хусусиятларининг намоён бўлиши) Ўзининг ташқи кўринишидан норози бўлиш (Терзит комплекси)катталар томонидан ноадекват идрок қилиниши Ўсмир ўзини каттадек хис этади, унга болалар каби муносабат бўлишлари ёкмайди. Ўсмирдаги таффакурнинг танқидийлиги катталар хатти ҳаракатига нисбатан шубха билан қараш,улардаги ахлоқий меъёрларга нисбатан эътироз хисларини шаклланишга олиб келади.

Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, шахснинг агрессив хатти - ҳаракатига таъсир этувчи хусусиятларидан бири - бу фрустрацияни кўтара олмаслик қобилиятидир. Маълумки, фрустрация эҳтиёжларни қондиришда ёки мақсадга эришиш йўлида пайдо бўлган тўсиқлар туфайли келиб чиққан ҳолатдир. Худди шу пайтда ўсмир шахсида ҳам ота - она ва яқинлари уни тушунмаслиги ва аксинча унга нисбатан қаттиққўллиги натижасида агрессив хатти - ҳаракатлар, ўсмир хулқида оғишлар намоён бўишини кўзатишимиз мумкин.

Демак, ўсмирнинг агрессив хулқи шаклланишида асосан ота - она таъсири кўзатилади ва оила тарбиясидаги қуйидаги омиллар катта рол ўйнайди:

- ўсмир ҳаракатидан қониқмаган ота - она реакцияси;
- ўсмирлар ва ота - оналар ўртасида муносабатнинг характери;
- ака - ука, опа - сингиллар ўртасидаги муносабатлар характери;
- ота ёки она ёки икковлари билан бўлган ёмон муносабат.

Шунингдек, ўсмир ота - оналарнинг қўллаб - қувватламаслиги ва уларнинг қизиқишларига бепарволигини сезса, қуйидаги вазиятлар юзага келиши мумкин:

- жинойтчилик фаолиятига кириб кетиш;
- бошқа ўсмирларга қарши чиқиш;
- ўз ота - онасига нисбатан ўзларини агрессив ҳолда тўтиши мумкин.

Ўсмир хулқидаги оғишлар асосини аввало оила муҳити ташкил қилиши ва оиладаги ўзаро бир - бирини психологик томондан тушунмаслиги натижасидир. Ўсмирлик кескин ўзгаришлар даврилигини ҳисобга олган ҳолда, уларга алоҳида эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқдир. Акс ҳолда эса, юқоридаги салбий хусусиятлар ўсмир характерини, унинг хатти - ҳаракатини тубдан ўзгартириб юборади.

Хулоса қилиб айтганда, тарбияда энг муҳим восита бу меҳр ва ширинсўзлик билан тарбиялашдир. Бу икки восита бир бўлиб, болани шакллантиради. Шу жумладан, таълимни ҳам ғазаб ва жазолаш билан амалга оширмаган маъқул. Зеро, зўрлаб берилган таълим бола хотирасидан тезда ўчиб кетади. Оқибатда унинг шу соҳага нисбатан қизиқиши сўниши мумкин. Бундан кўринадики, таълимнинг аввали ҳам яхши тарбиядан бошланади.

Яна шу нарсани таъкидлаб ўтиш жоизки, ота-она, яқинлари томонидан меҳр-эътиборни етарли даражада, ўз вақтида берилиш бола шахсдаги барча ижобий ҳислатларни шакллантиради. Ҳар хил тобелик ҳолатларини (интернетга, видео ўйинларга, қарама-қарши жинс вакиллларига тобелик) олдини олади.

TARBIYASI OG‘IR BOLALAR BILAN ISHLASHDA PSIXOLOG FAOLIYATINING AHAMIYATI

*Nishonova Shahnoza Alisherovna
Namangan viloyati Davlatobod tumani
58-sonli IDUM amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Hozirgi kunga kelib, mahalliy va xorijiy psixologlar va tarbiyasi og‘ir bolalar sonining ko‘payishini qayd etishdi. Bolalar ijtimoiylashuv, tarbiya va ta'lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishadi, o‘zlarini shaxs sifatida rivojlantirishga intilmaydilar. Maqola maktab davridagi bolalarni tabiyasi og‘ir bolalarni tarbiyalash

sabablarini o'rganish va o'qituvchilar bilan psixologlar birgalikda ota-onalarga o'quvchilarning ta'im jarayonini tashkil etishda o'z vaqtida tuzatish yordamini ko'rsatish masalalariga bag'ishlangan.

KIRISH

Tarbiyasi og'ir bolalar va ular bilan ishlash har doim psixologlarning diqqat markazida bo'lgan. Nima qilish kerak, ta'limga mos kelmaydigan, tajovuzkorlik, hissiy beqarorlik, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik, o'rganishni istamaslik, o'rganishga qiziqish yo'qligi, maktab motivatsiyasi past bo'lgan bolalar bilan qanday ishlash kerak? Psixologning qiyinchiliklarni, ularning sabablarini aniqlash va ushbu guruh bolalariga psixologik yordam ko'rsatishdagi roli zamonaviy dunyoda juda dolzarb va muhimdir. Maktab psixologlari oldida turgan vazifalar maktabda o'quv jarayonini optimallashtirishga yordam beradigan qulay psixologik muhitni yaratishdir.

Maktab psixologi ko'pincha boshqa bolalardan sezilarli darajada farq qiladigan (minus belgisi bilan) bolalar bilan shug'ullanishi kerak. Psixologga u yoki bu tarbiyasi og'ir bolaga "qandaydir tarzda ta'sir qilish" haqidagi so'rov o'qituvchilar va ota-onalarning tez-tez so'rovlaridan biridir. Shu bilan birga, turli xil maktab o'quvchilari tarbiyasi og'ir toifasiga kiradi: o'qimagan, intizomsiz, turli xil asab va ruhiy kasalliklarga chalingan bolalar, voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyada ro'yxatga olingan o'spirinlar, disfunktsiyali va yolg'iz bolalar deb ataladigan bolalar.

ASOSIY QISM

Psixologiyada tarbiya atamasidan tur va inson faolligi darajasini uning faoliyati, mushohadasi, tafakkuri, muloqoti kabi ko'rinishlari bilan bir qatorda belgilash uchun keng foydalaniladi. Inson axloqi tog'risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida uni psixologik fanning predmeti [2] deb e'lon qilgan vaqtdan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi.

Tarbiyaning zamonaviy tushunchasi tashqi rag'batga reaksiyalar to'plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug'atda tarbiya "tirik mavjudotga xos bolgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan ozaro ta'sirdir" [3]. Odamning tashqi faolligi ostida har qanday tashqi ko'rinish: harakat, faoliyat, muomala, mulohaza, vegetativ reaksiyalar tushuniladi. [1]

Bolaning tarbiyasi tug'ilishdan boshlanadi. Uning birinchi o'qituvchilari ota-onalar, keyin bolalar bog'chasi tarbiyachilari va shundan keyingina - maktab o'qituvchilari. Afsuski, ular ham alohida, ham jamoaviy ravishda ko'p xatolarga yo'l qo'yishadi. Uning rivojlanishida bola bir joyda turmaydi, u oldinga siljiydi. Ota-onasidan bola oddiy taqlid orqali buni qanday qilishni organadi, nima mumkin va nima mumkin emas. Bolaligida o'z farzandiga yomon o'rnak bo'lgan ota-onalar voyaga yetganda ularning tarbiyasida yuzaga keladigan muammolardan xoli emaslar [4].

Tarbiyasi og'ir bolalar - bu rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan, xususan, axloqiy va deviant xulq-atvori, qat'iy salbiy xatti-harakatlari bo'lgan bolalar. Tarbiyasi og'ir - bu bola, maktab o'quvchisi bo'lib, u alohida davolashni, o'qituvchi va tengdoshlar guruhining diqqatini talab qiladi, bu individual yondashuvni talab qiladi.

Tarbiyasi og'ir bolalarning mumkin bo'lgan tasniflari:

1. Pedagogik jihatdan qarovsiz qolgan bolalar.
2. Tibbiy yordamga muhtoj bolalar.
3. O'zlashtirmaydigan bolalar.[6]

Ko'pgina taniqli o'qituvchilar va psixologlarning xulosalari, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, noto'g'ri xatti-harakatlar va huquqbuzarliklarning kelib chiqishi maktab yoshdagi bolalarda kuzatiladigan xatti-harakatlar, o'yinlar, organish yoki boshqa faoliyatdagi normadan chetga chiqishdir. Deviant xulq-atvorning rivojlanishining boshlanishi odatda bolaning o'zini shaxs sifatida anglashi, ijtimoiy me'yorlar va qoidalarni qabul qilish yoki rad etish boshlanishiga to'g'ri keladi. Bunday xulq-atvor ko'nikmalari, tegishli faoliyat talablariga bo'ysunish qobiliyati singdirilmagan bola, oxir-oqibat, har xil xatti-harakatlarning buzilishiga moyil bo'lgan intizomsiz shaxsga aylanadi. Bolaning ulg'ayishi va shaxs bolib shakllanishining asosiy davrida uning hamroh bo'lgan o'qituvchilar ham o'zlarining kasbiy faoliyatida ko'plab xatolarga yo'l qo'yadilar, bu esa bolaning pedagogik e'tiborsizligiga, deviant xulq-atvoriga, turli xil ijtimoiy og'ishlarga olib keladi [5].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Bir guruh tarbiyasi og'ir bolalarni ajratib ko'rsatib, biz ular bilan ishlashni tashkil etishga harakat qilishimiz, jumladan: ota-onalar

uchun seminarlar o'tkazish, ularning sabablari tahlil qilinadi, tarbiyasi og'ir bolalarni tuzatish yo'llari, ota-onalardagi tanglikni bartaraf etishga qaratilgan maslahat ishlari, ota-onalar bilan individual ishlash. Shuningdek, psixalog va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot jarayonining samaradorligini oshirishga hissa qo'shgan o'yin mashqlaridan foydalanish, nizosiz muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, o'rganishga qiziqishning namoyon bo'lishiga, maktab motivatsiyasini kuchaytirishga yordam berishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To'laganova G.K. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya kursi bo'yicha tarbiyasi «qiyin» o'smirlar psixologiyasiga metodik kursyamatar»-
2. Fayziyev Ya. M. «Umumiy va tibbiy psixologiya». Toshkent Abu Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2000.
3. G'oziyev E. G. «Tarbiyasi «Kiyin» o'smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.
4. Ратгер М. Помощь трудным детям. - М., 2004.
5. Рожков М. И. Воспитание трудного ребенка. Дети с девиантным поведением. Учебно-методическое пособие. М., ВЛАДОС, 2003.
6. <https://poisk--ru-ru.turbopages.org/turbo/poisk-ru.ru/s/s42664t3.html>

SHAXSNING O'Z-O'ZIGA MUNOSABATI “MEN” KANSEPSIYASINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

*Jumamurodova Umida Murodboyevna
O'zMU ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishining I-kurs magistranti*

Shaxs shakllanishida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni har tomonlama yetuk, go'zal axloqli, xush odobli inson qilib kamol toptirish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir. Chunki bu narsa milliy qadriyat va ruhiyatni tiklash jarayonida ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish masalasidan kelib chiqadi. Mazkur muammoni o'rganishda psixologlar oldida turgan vazifani muvaffaqiyatli amalga

oshirishda boshlang'ich ta'limni ilmiy asosda to'g'ri yo'lga qo'yish uchun o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishi uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan ham tashqari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyalar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati o'quvchilarda o'qishda muvaffaqiyatga erishish ehtiyojini qondirsa, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lish imkoniyatini ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga harakat qilish mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zi erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlarining muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Bu yoshdagi bolalarda musobaqaga kirishish motivi doimiy ehtiyoj sanalib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davrida boshlanib, kichik maktab hamda o'smirlik davrida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bolalar kattalarning u haqidagi bergan baxo va fikrlariga qarab, o'z-o'ziga beradigan bahosi, asosan, to'g'ridan to'g'ri o'qituvchining beradigan baxosiga va turli faoliyatidagi muvaffaqiyatiga bog'liq. Kichik maktab yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi tasirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalashga yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab davri bolaning turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarini yuzaga kelish va mustahkamlanish davri hisoblanadi. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan birgalikda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlari mustahkamlanib boradi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan ishidan zavq olsagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola xaddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq bo'lsa unda asta sekinlik bilan boysunuvchanlik, tobelik xususiyatlari mustahkamlanib boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda ba'zi salbiy hislatlarini rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin. Chunki hayotiy tajribalarni kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Shaxsda 3-4 sinflarga borib

bola uchun uning o'ртоqlari bilan munosabatning ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz qolgan holda sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi. Shaxs shakllanishi nazaryalari va bosqichlariga nazar soladigan bo'lsak, Erikson: "Maktab yoshi: mehnatsevarlik o'z-o'zidan qoniqmaslik. To'rtinchi ijtimoiy – psixologik davr Z.Freyd nazariyasida yashirin latent davrga mos keladi. O'z jinsidan ota- ona bilan raqiblikdan bartaraf etilgan bo'ladi. 6 yoshdan 12 yoshgacha bolani oila chegarasidan chiqishi sodir bo'ladi va tizimli talim xususan madaniyatning texnologik tomonlariga qo'shilishi boshlanadi. E.Eriksonning kontseptsiyasida ushbu madaniyat doirasida ahamiyati bo'lgan qurol – aslahalar, hosiblik faxriy va ilmiy unvonlar bilan munosabatda bo'lishini bilish nimanidir o'rganishga aynan intilish va tez o'zlashtirishi universal deb tan olingan. Mehnatsevarlik, ishdan zavqlanish atamalari bu davrning asosiy mavzularni ifodalaydi bu davrda bolalar nimadan nima hosil bo'lishini va u qanday ishlashini bilishga intilishi bilan band bo'ladilar. Bolaning "Ego" muvofiqligi endi bunday ifodalanadi: "Men" – men nimaga o'rgangan bo'lsam. Bolalar maktabda o'qib, faol ishtirok anglangan tartib – intizom qoidalariga qo'shiladi. Maktab tartib-qoidalari bilan bogliq bo'lgan odam mukammal ijrochidir. Bu davrning qaltisligi shundaki, o'z-o'zidan qoniqmaslik hissini, o'z qobiliyatlari yoki tengdoshlari orasidagi mavqeidan shubhalanish tajribasizlikni namoyon qilishdan iborat." Z. Freyd boyicha bu yosh davri: Latent bosqich –jinsiy sokinlik 6-7 yoshdan 12 yoshgacha o'smirlik yoshi boshlangungacha davom etadi. Asosiy energiya kuchi o'qish, sport, bilishga intilish asosan o'zini jinsidagi tengdoshlari bilan do'stlashishga yo'naltiriladi. O'quvchining ushbu yosh davrida o'qtuvchining har bir aytgan so'zi, xar bir xatti- harakati, ta'sir o'tkazish uslubi uning uchun haqiqat mezoni bo'lib qoladi. Chunki o'quvchilar o'z o'qtuvchilariga juda qattiq ishonadilar, ularning fikr va mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik taktdan o'ta ta'sirlanadilar, qo'ygan talablariga qat'iy amal qiladilar. Ana shu tomondan pedagog bergan barcha vazifalarni, yaratilgan muammoli vaziyatlarni hal qilishga intiladilar, ularni o'z vaqtida ado etishga intikladilar. Bolalar maktabga birinchi bor kelganda, yangi munosabatlar tizimi va muloqot doirasi shakllanadi. Maktab

davrining ilk kunlaridanoq o'quvchilar bir – birlariga e'tibor bermaydilar, hamda tengdoshlarining yutuqlari bilan qiziqmaydilar, muloqotga kam kirishadilar. Lekin vaqt o'tishi bilan o'quvchilar asta- sekinlik bilan bir birlarini kuzatishni boshlaydilar, muloqotga nisbatan ehtiyoj sezadilar va tengdoshlari bilan do'stlasha boshlaydilar. boshlang'ich ta'lim oxiriga kelib esa o'quvchilarda tengdoshlari orasida alohida o'ziga hos o'rinni egallashga ehtiyoj shakllana boshlaydi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil ishlarni ko'proq buyurish va ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shunindek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biror bir ishni mustaqil, ijtimoiy vazifa bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. Maktab yoshidagi bola o'zining individual xususiyatlarini anglaydi. Bolani o'z-o'zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boradi. Kichik maktab davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bola o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzulishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida kata ahamiyatga ega. Ana shu nazardan bolaning o'z-o'ziga munosabati undagi "Men" konsepsiyasining shakllanishi muhim ahamiyatga ega.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga bo'lgan munosabat va "Men" konsepsiyasining shakllanishiga tasir qiluvchi tashqi va ichki omillarni o'rganish juda muhim sanaladi. Sababi inson shaxsiga ta'sir qiladigan har qanday tashqi omillar uning ruhiyatining shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ayniqsa kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'rtasida bu masalla juda dolzarb hisoblanadi. Bilamizki bolada shaxs bo'lib shakllanish uch yoshidan yani o'z menligini anglash vaqtdan paydo bo'ladi va hayoti davomida shakllanib boradi. Manashu sababdan bolaning so'g'lom shaxs bo'lib shakllanishida uni o'rab turgan muhit avvalo sog'lom bo'lishi lozim. Bola ozi haqida atrofdagilarning unga bo'lgan munosabati va o'zlarini qanday tutayotganliklaridan o'zi uchun xulosalar chiqaradi va shunga bog'liq ravishda uning ongida ham manashunday shaxsiy sifatlar shakllana boshlaydi. Yuqorida keltirilgan misollardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki biz sog'lom va har tomonlama yetuk

shaxs shakillantirishimizda eng avvalo sog'lom oila muhitini shakillantirishga katta etibor qaratishimiz lozim.

МАКТАБГАЧА КИЧИК ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ОҒЗАКИ НУТҚИНИ ЎСТИРИШ

*Бобоева Камола Облоқуловна
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 20-сонли ДМТТ логопеди*

Инсон ички дунёси, маънавий қиёфаси, хулқ-атвори, муомаласи, одоб-ахлоқи, маданияти унинг тили орқали намоён бўлади. Чунки ҳар қандай кишининг маданиятлилиги, одоби, билим даражаси, фахм-фаросати, фикрлаш доирасининг кенглиги ёки торлиги, катта ҳаётга тайёр ёки тайёр эмаслигининг нутқида ўз аксини топади. Кимнинг тили бой бўлса, ким сўзларни адабий тил асосида тўғри, аниқ, равон, ифодали ва тушунарли талаффуз қилса, ўз она тилига чуқур ҳурмат ва эҳтиром билан қараса, у билимли саналиб, кишилар орасида обрў-эътибор қозонади.

Мактабгача кичик ёшдаги болалар кўнгил очишни, эрмакни хохлайдилар. Чунки бу нарсалар улар ҳаёти давомида табиий восита бўлиб хизмат қилади. Мактабгача кичик ёшдаги болалар ҳамма нарсани ўйин ва сўзлар орқали ўзлаштирадилар.

Чунки сўз орқали бола ҳаёти борасида мулоқот қилади, фикрлаш доираси кенгаяди ва тили равон, аниқ сўзлашга мослашиб боради. Мактабгача кичик ёшдаги болалар сўз, ибора ва гапларни қизиқиб ўрганадилар ҳамда осонгина эслаб қоладилар. Бу ёшдаги болаларнинг хотираси энди шаклланиб бораётган пайтда бундай машғулотлар уларнинг ҳаётига йўл очиб беради. Кичик ёшдаги болаларга тарбиячи сўзларни ўргатаётганида ўйинлар орқали мурожаат қилиш айти муддао ҳисобланади. Ўйин орқали бола ўзининг луғат бойлигини кенгайтириб тўплайди. Лекин кичик ёшдаги ҳамма болалар ҳам ўрганаётган

сўзларнинг маъносини тўғри тушунмайдилар. Уларни тушунтириш ота-оналар билан тарбиячининг вазифасига киради.

Мактабгача кичик ёшдаги болалар учун содда ва қизиқарли ўйинлар, тез айтишлар, эртаклар айтиб бериш ёки суратларга қараб эртак ўйлаб топиш, шеър ва ашулаларни ёд олиш ҳам катта самара беради. Тарбиячи ўз машғулотларини шундай ўтиш керак-ки, боланинг ўз тасаввур оламларида бу нарсаларни хаёлан ҳосил қилишлари керак. Кичик ёшдаги болалар учун чиқарилган эртак китоблар турли-туман рангли ва қизиқарли суратларга бой бўлиши даркор. Бундай китобларни кўрган ҳар қандай боланинг адабиётга қизиқиши ортади ҳамда талаб ҳам кучаяди. Болалар учун яратилган китобларда атрофимиздаги бизни ўраб турган яшил ва жумбоқли табиатни асраб-авайлашга, ҳаёвонот дунёсини билишга ва севишга, мурғак қалбларини меҳрга тўлдиради, онгларини ривожлантиради. Шулар асосида боланинг луғат бойлиги ортади ва нутқини ўстиради.

Қизиқарли эртак ва ҳикоялар болага яхши таъсир қилади ва яхши-ёмонни фарқлашга ўргатади. Ёд олинган кичик хажмдаги шеър ва қўшиқлар боланинг нутқини равон, аниқ ва содда қилиб ифода этишни шакллантиради. Тарбияи болаларда табиатга меҳр уйғотишда дарахтлар қушлар ёки бошқа нарсалар ҳақидаги кичик хажмдаги шеърларни ёд олдириши ва уларнинг мазмунини тушунтиришлари мақсадга мувофиқдир.

Шеърни ёки қўшиқни айтишдан олдин улар ҳақидаги рангли расмларни кўрсатиб ўтиш ва суҳбатлашиш шарт. Шундагина боланинг тасаввури, ҳаёлот олами кенгайиб боради.

Мактабгача кичик ёшдаги болаларнинг оғзаки нутқини ривожлантириш ёки ўстиришда эртак, афсона, дostonларнинг роли катта. Бундай асарларда сўзлар аниқ, сермазмун, тўғри, жумласи содда ва бола хотирасига қабу қила олишига мўлжалланган қилиб ёзилади. Тарбиячи нутқ ўстириш машғулотларида шундай адабиётлардан фойдаланишлари даркор. Ҳозирги чоп этилаётган деярли барча китоблар боланинг қандай ёшда эканлигини ҳисобга олган ҳолда тузилган ҳамда эртакнинг мазмунини тушунишга ёрдам бериш билан бирга нутқ маданиятининг таркиб топишида ҳам ўз таъсирини кўрсатади.

Мактабгача кичик ёшдаги болаларнинг нутқини ўстириш юзасидан халқ томонидан яратилган мақоллар, топишмоқлар, тез айтишларни тарбиячи ўз машғулоти орқали болага етказди.

Тарбиячининг ўзи ҳам қандай машғулот ўтишидан қатъий назар аниқ, равон, ифодали, содда ва бола тушунадиган оҳангда сўзлаши даркор.

Ўйинлар орқали боланинг хотирасида яхши таъсирот қолдириш мумкин. Бундай машғулотларни ўтишда тарбиячининг билим ва маҳоратига ҳам боғлиқ. Ўйинни ҳам бошидан охиригача тарбиячи сўзларини тўғри ва равон қилиб сўзлайди. Бола ўзининг тилида эмас балки катталарга тақлид қилган ҳолда мулоқот қилишга ҳаракат қилади. Оғзаки нутқи ривожланган болакай ўз фикрини ҳам тўғри ифодалай олади. Нутқининг бой, сермазмун бўлишидаги асосий шартларидан бири айtilган сўзнинг тўғри талаффуз қилишидир. Агар болакай сўзлардаги баъзи харфларни айта олмаса бундай бола билан махсус мутахассис (логопед, дефектолог) шуғулланиши зарур. Масалан ш, р, ж, ё, ч, з, ғ, с, қ харфларни тўғри талаффуз эта олмаслик. Тарбияи бундай ҳолларга бефарқ қарамаслиги керак.

Аксинча тарбиячи логопед машғулот давомида оғзаки нутқида камчилиги учрайдиган болаларнинг хатосини бартараф этиш ва ота-онаси билан бирга яқиндан ёндашиб ишлаши зарур. Тарбиячи машғулотдан ташқари муомала қилганида ҳам ўз сўзларига катта эътибор қаратган ҳолда гаплашиши керак. Машғулотлардан ташқари сайр вақтида, дидактик ўйинлар ўйнаётган пайтда бола билан яқка тартибда ишлашга тўғри келади. Сўзларни бўғинларга бўлиб ёки товушнинг баланд-пастигига, агар парранда ёки ҳайвонларнинг номларини айтишга қийналса уларнинг овозларига тақлид қилиш, такрор-такрор машқ бажартиришга эътибор қаратиб иш олиб боради ва яхши самара беради. Тарбиячи эртак ёки ҳикоя ўқиётганида асарнинг бадиийлигини ҳам инобатга олиш даркор. Чунки Ўзбекистон халқи кўп миллатли халқ ҳисобланади ва турли халқ вакилларининг болалари мактабгача таълим ташкилотларида (мактаб, коллеж, лицей ва олийгоҳларда) тарбияланадилар, билим оладилар.

Нутқни ривожлантириш учун тарбиячи тез айтишларни турли хил овоз баландликларида, турли суръатларда талаффузқилишни талаб этилади, сўроқ гапларни сўроқ оҳангида, жарангдор сўзларини (ундов) жарангли оҳангда айтиши керак. Тарбиячи машғулотида жарангли ва жарангсиз сўзларнинг фарқини тушутириши, қайси, қаерда, қандай ишлатилиши ҳақида ҳам айтади. Болалар ҳам ўз овозларини ўзгартириб ёки ўхшатиб талаффуз қиладилар. Ўйин ва машғулотда болалар товушларини қандай чиқараётганига эътибор қаратиши зарур. Ўйин (миллий ўйинларга аҳамият бериш) жараёнида болаларнинг шахси такомиллашиб кишилар билан муомала, ўқув ва меҳнат жараёнида тайёрланиш каби турли хил руҳий ҳолатларни шакллантиради.

Мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланаётганлар орасидаги кўпгина болалар оддий ўйинлар майл бўладилар. Бунинг сабаби: биринчидан, ўйин ўтказиш усул ва методларининг яхши ишланмаганлиги бўлса, иккинчидан, ўйин болалар ҳаёти билан етарлича боғланмаган. Асосан ўйин жараёнининг биринчи босқичида ўйин билан таништирилади, иккинчи босқичида эса танлаб, саралаб, ажаратиб олувчи ўйин бўлади. Тарбиячи ўйинни бу хилда олиб бориши болаларнинг ҳар томонлама етук ривожланишига ёрдам беради.

Ҳар бир ўйин бола ҳаётига яқин бўлса, уларнинг ҳаётдан лавҳалар ифодалашга қаратилган бўлса, ўйинчоқлар эса улар ҳаётида учраб турадиган нарса, бйюмларни кўрсатса ва ўйинчоқлар билан ўйнаш натижасида болала қизиқиши ортадаи. Акс ҳолда ўйиндан кузатилган мақсадга эришиш қийин.

Бунда тарбиячи болага янги предметнинг номи ва моҳиятини тушунтириши лозим. Шу ўйин ёки ўйинчоқни ўйнаш усуллари билан болани таништириш зарур ҳисобланади. Тарбиячи ўйин машғулотларини ўтказишда дастурда берилганидек ўргатиб, мустақкамлаб бориши шарт. Ўйинни ролларга бўлиб бажариш, бир-бирлари билан диалог асосида суҳбатлашиб, ўйинчоқлари билан мулоқотда бўлиб, ўзларига яқин бўлган одамларнинг исмларини айтиб, буюмларнинг қандай ишлатилиши ҳақида гапириб бажаришса, оғзаки нутқлари ривожланиб луғат бойликларини кўпайтирадилар. Бунда фикрлаш ҳис қилиш идрок ҳам бирга ривожланиб боради.

Тарбияи болаларни сураталарга қараб сўз бирикмалари ва гап тузишга ўргатиши муҳим аҳамиятга эга. Тарбиячи бунга ҳам маъсулдир ҳамда олдимизга қўйилган мақсадга шундагина эришишимиз мумкин. Тарбиячи олдинги нутқ ўстириш машғулотлари бўйича берилган материалларни янги ўтиладиган машғулотлар бошида такрорлаб олиши керак. Болаларда шундагина олган билимларини мустаҳкамлаб олиб, кўникма ҳосил қиладилар.

Мактабгача кичик ёшдаги болалар нутқини ўқтиришда сўзларни тўғри талаффуз этиш, янги сўзлар билан боланинг луғатини бойитиб, кенгайтиришга алоҳида эътибор берадилар. Бу болаларни сўз бирикмалари ва гап тузишда муҳим аҳамиятга эга. Чунки болалар у ёки бу нарса, воқеа-ҳодисалар ҳақидаги ўз фикрларини гап орқали билдирадилар.

Тарбиячи машғулот давомида болаларда ўтилганлар юзасидан ҳосил бўлган саволларга жавоб берадилар, фикр алмашадилар, тушунмаган жойларига тушунтириш киритиб изоҳ берадилар, боланинг нутқидаги камчиликларнинг олди олинади.

Болалар ҳар куни ўз ҳаётларида турли ҳодиса ва воқеа, нарсаларга дуч келадилар. Тарбиячи ёки ота-она бу ҳақида фарзандларига тўғри тушунча ва маслаҳатлар бериши, уларнинг номларини, нима учун кераклиги ёки нмага ишлатилиши ҳақида албатта тўлиқ тушунча бериши шарт. Бу боланинг оғзаки нутқидаги камчиликларни чиқармасликка, хатоларини тузатишга имкон беради, болалар янги билим ва тасаввурларга эга бўладилар, ҳодисалар ва буюмларнинг номлари, сифат ва хусусиятларни ўрганадилар.

Мактабгача кичик ёшдаги болалар луғатини бойитиш, нутқининг равон, силлиқ ва таъсирчанлигини таъминлашда болалар адабиёти устида ишлаш жуда яхши натижа беради. Тарбиячи бирор бир ҳикоя ёки эртакни ўқишда унинг мазмунини, боланинг ёшига мослигини, сўзларнинг соддалигига ва боланинг онгига қандай таъсир қилишини инобатга олмоғи шарт. Бунда ўқитилаётган эртақдаги айрим сўз ва иборалар билан ишлаш, бола, эртақнинг мазмунини осон ҳамда тўлиқ ўзлаштиришга ёрдам берса, иккинчи томондан болалар луғатини

бойитиш, ундаги ҳодисаларни англаш кўникмаларини тарбиялайди, сўз ва гапларни ўзида ўзлаштиришга имкон яратади.

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ОТА-ОНАЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИКДАГИ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

*Эгамқулова Кунсулу Муртазаевна
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 20-сонли ДМТТ тарбиячиси*

МТТда тарбиячилар ва ота-оналарнинг вазифалари- болалар бахтли, соғлом, фаол, қувноқ, хушмузола бўлиб ўсиши учун ҳамма нарсани қилиш ҳамда баркамол авлод бўлишларига замин яратиш лозимдир.

Мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиларининг оила билан олиб борадиган иши мазмунига қуйидагилар киради:

□ ота-оналарга ўз фарзандларининг тарбияси учун давлат ва жамият олдида жавобгар эканликларини тушунтириб бориш;

ота-оналарни бола тарбияси учун зарур бўлган билим, малакалардан хабардор қилиш (болаларнинг ёш, анатомик-физиологик ва руҳий хусусиятлари, уларни оилада тарбиялашнинг мазмуни, методи, шарт-шароитлари билан таништириш);

□ бола тарбиясида оила билан ҳамжиҳатлик, болани тўғри тарбиялашни назорат қилиб бориш, оила тарбиясининг энг яхши намуналарини ўрганиш ва оммалаштириш.

Бола мактабгача таълим ташкилотида эгаллаган энг яхши фазилатларни оила шароитида давом эттириб, оилада эгаллаган энг яхши фазилатларни ташкилотда намоён қилса исталган ижобий натижаларга эришиш мумкин. Тарбиячилар оила тарбиясига доир ижобий ишларни кўрибгина қолмай, балки уни қўллаб-қувватлаш ва шу асосида ота-оналар эътиборини бола тарбиясида ҳали ҳал этилмаган вазифаларга қаратишлари лозим. Юқоридаги

ишларни режалаштириш, ташкил этиш ва уларга раҳбарлик қилишда раҳбар жавобгар шахс ҳисобланади.

Мактабгача таълим ташкилоти директори ота-оналар билан ҳамкорликда олиб бориладиган барча иш шакллари таъминлаши, педагогик тарғибот мазмунини, унинг усуллари яхшилаши, ишни маълум мақсадга йўналтириши, уни оилаларнинг хусусиятларини ҳисобга олиб янада тушунарли қилиши керак. Мактабгача таълим ташкилоти директори ўз эътиборини ота-оналарда уйда, давлат олдида, жамият олдида ўз болалари тарбияси учун жавобгарлик ҳиссини тарбиялашга қаратиши керак. Педагогик тарғиботга раҳбарлик мактабгача таълим ташкилотининг бутун методик ишига раҳбарлик қилишнинг таркибий қисми сифатида қаралади. Шу муносабат билан мактабгача таълим ташкилоти директори тарбиячиларнинг ғоявий, маданий, таълимий даражасини ва педагогик маҳоратини орттиришнинг турли шаклларида фойдаланиб, педагогик жамоа билан мунтазам иш олиб боради.

Мактабгача таълим ташкилотидиректорининг педагогик жамоани ташкил эта олиши, уни ота-оналарнинг турли гуруҳлари билан ишлаш каби қийин ишга рағбатлантириши, ўзи ҳам шунга кириша олиши, тарбиячилар билан, атрофдагилар билан мулоқот қилиш маданияти- педагогик тарғибот асосидир.

Ота-оналарнинг педагогик фаолиятини кучайтиришда раҳбар фақат тарбиячилар жамоасига эмас, балки ота-оналар фаолларига ҳам таянади.

Ота-оналар билан ишлашни бола мактабгача таълим ташкилоти келган кундан бошлаш керак. Ота-оналар фарзандларини мактабгача таълим ташкилотига олиб келиб, даставвал раҳбар билан учрашадилар. Бу учрашувга раҳбар доим тайёр туриши керак. Бунда баъзи қоидаларни ёдда тутиш зарур: ота-оналар билан йўл-йўлакай гаплашиш ярамайди. Агар шу пайтда раҳбарнинг вақти бўлмаса, ота-оналарга (суҳбатлашиш учун) бошқа сафар келишни айтиб, учрашув кунини ва соатини аниқ айтиш керак;

ота-оналар билан биринчи суҳбат вақтида болани нима билан машғул қилиш ҳақида ўйлаб кўриш керак: хонада болалар столи ва стули бўлиши, стол устида китоблар, ҳар хил ўйинлар, қурилиш материални қўйиб қўйиш мақсадга

мувофиқдир. Ота-она билан суҳбатлашгунча, болага ўйнаб туришни таклиф қилиш мумкин;

ота-оналарга мактабгача таълим ташкилоти ҳақида, болаларни қабул қилиш қоидалари, тартиби ҳақида гапирганда насихатгўйликдан қочиш керак;

ота-оналар билан биринчи суҳбатда, катта ака-укалари, бувиси, буваси бор-йўқлигини билиш, боланинг одатлари ва ҳоказолар ҳақида гаплашиб олиш керак;

ота-оналар ва кичкинтой билан гуруҳга кириш, тарбиячи билан, болалар ва гуруҳ хоналари билан таништириш лозим;

хайрлашаётганда боланинг келишини ҳамма кутишини эслатиб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

Шундай дўстона учрашувдан сўнг ота-оналар билан раҳбар ўртасида ўзаро ижобий муносабатлар ўрнатилади.

Ота-оналар билан ишлашни режалаштиришда, раҳбар олдинги йили тарбиячилар ва ота-оналар фаоллари ёрдамида ўтказган ишларини таҳлил қилиб чиқиши муҳимдир.

Йиллик режага умумий таълим бўйича ҳамма машғулотларни киритиш зарур: улар мажлислар, маслаҳатлар, оғзаки журналлар, индивидуал суҳбатлар, педагогик тарғиботнинг яққол шакллари ва ҳоказо шаклда бўлиши мумкин.

Ота-оналар билан ишлашнинг турли шаклларида мактабгача таълимташкilotининг йиллик иш режасида педагогик тарғиботнинг мазмунини очиб, раҳбар ўз олдига ва бутун педагогик жамоа олдига вазифа қўяди. Мактабгача таълим ташкилоти директори болаларни тарбиялашнинг мазмуни ва усуллари хусусида ота-оналар билан иложи борича келишиб ҳаракат қилишга интилиши зарур. Шундай қилиб, қўйилган масала йиллик режанинг асосий йўналишларида ўз аксини топиши керак. Йиллик режада раҳбар меъёрий ҳужжатларга, йиллик режаларнинг асосий масалаларига асосланади, масалаларнинг бажарилишини таҳлил қилади, ота-оналарнинг умумий мажлисларини режалаштиради. Ота-оналарнинг таклифлари албатта инобатга олинади. Умумий мажлислар, одатда, мактабгача таълим ташкилоти ходимларини ҳам, ота-оналарни ҳам қизиқтирувчи масалаларни ҳал қилади.

Йиллик режанинг «Услубий иш» бўлимини режалашда раҳбар методист билан бирга йил давомида тарбиячилар ва ота-оналарга бағишланган қандай тавсиялар ишлаб чиқилишини, тарбиячилар ва ота-оналарга ёрдам тариқасида услубий хона қандай адабиётлар билан тўлдирилишини, айнан қайси оилаларнинг тажрибаси умумлаштирилиши, уни қандай йўллар билан тарқатилишини ўйлаб кўришади.

Белгиланган режани аниқ бажариш учун раҳбар фақат тарбиячилар ва ота-оналар фаолларининг ишини ташкил этибгина қолмай, балки ўзи ҳам оталар, оналар билан ишлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 22 декабрдаги “Мақтабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-802-сон қарори.

2. “Илк қадам” мактабгача таълим ташкилотининг давлат ўқув дастури.– Т.:2018.

3. Шин А.В., Мирзиёева Ш.Ш., Грошева И.В., Назарова В.А., Микаилова У.Т., Абдуназарова Н.Ф., Закиров А. А., Исхакова М.Р., Умирзакова Н.Р. “Оилалар ва маҳаллий жамоатчилик билан ҳамкорлик” – Тошкент. 2020 йил

BUGUNGI TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIGA PSIXOLOGIK MUHITNING TA'SIRI

*Mirsidiqova Aziza Mirvoxiqovna
Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani 38-maktab psixologi*

Ma'lumki, pedagogik faoliyatning tuzilishi o'qituvchining o'z iga xosligi faqatgina uning har tomonlama pedagogik faoliyatidagi fazilatlari bilan bog'liqdir. O'qituvchi faoliyati o'z aro komponentlardan iborat. Pedagogik faoliyatning 3 komponenti farqlanadi: konstruktiv, kommunikativ va tashqilotchilik. Konstruktiv komponenti. O'qituvchining ishida konstruktiv dars katta o'rin egallaydi, ya'ni sinfdan

tashqari ishlar maktab dasturlari bilan bog'liq o'quv materiallarni ta'lim oluvchilar uchun turli metodik ishlanmasi va uni ta'lim oluvchilarga ifodasini qamrab olgan. Ushbu barcha ishlar dars konspekti tarkibida o'z ifodasini topadi, ya'ni: o'z faoliyatining tartibi va tizimi ta'lim oluvchilarning faoliyat tartibi va tizimi. Ayni vaqtda pedagogik faoliyatning ushbu komponenti maktab oldida turgan asosiy vazifasi o'sib kelayotgan avlodning faol fuqarolik holatida tarbiyalash o'qituvchi shaxsiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga intilishi kerak, buning uchun esa u eng qiyin nazariy savollarni oson o'zlashtirilishi uchun o'quv materialni tanlash va qayta ishlashi lozim. Birinchi navbatda ta'lim oluvchilarning faoliyati faol bo'lmasa, chuqur bilim va o'zlashtirish jarayoni amalga oshirilmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi. Bu jarayonda ta'lim qanday mavqega ega? Ta'lim rivojlanishga nisbatan yetakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qillinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv darajalari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi. Bu borada nemis psixologi V.Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab, beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga, xalaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak. Shveytsariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g'oyalar bilan yug'rilgandir. J.Piajening fikricha, bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim - bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yetilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlari bolaning

tegishli psixologik imkoniyatlari pishib yetiladigan muayyan yoshidan qat'iy nazar bogliqligi ana shundan kelib chiqadi. Ta'kidlash joizki, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug'ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin, ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtda o'z i rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsada, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U olg'a surgan psixik funktsiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi. E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: «Bola taraqqiyotini hech mahal maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas», - deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lmagan jarayonlardir, degan yunalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.P.Blonskiy ta'limning bola taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri maktab dasturi mazmuniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Yosh va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatlari ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi. Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi, uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rni) orqali ifodalanadi. Status negizida doimiy o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funktsiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo'nalganlik shaxsni

faollashtiradi. Status,rol, qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning ta'rifi xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l-atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl- uning jamiyatdagi hayot yo'li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi. Individ, shaxs va sub`ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e'tibor qilishi zarur: - inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari); -insoning o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyutsiya; -inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar, Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki, faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallash interiorizatsiya va eksteriorizatsiya amalga oshadi. Odamning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati protsessida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatining funktsional sistemasi protsesslari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, kishining sotsial tajribalarini o'zlashtiribgina qolmay balki o'zining idroki, tafakkuri, xayoli, hissiyotlari va irodasini bir so'z bilan aytganda, voqelikka bo'lgan ongli munosabatini hamda o'z harakatlari va xulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi. Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xattiharakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma'lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo'lgan hamda shartli ravishda to'rtta o'zaro mustahkam bog'langan funktsional bosqichlarga birlashtiriladi: Birinchisi - boshqaruv tizimi; Ikkinchisi - stimullashtirish tizimi; Uchinchisi - stabilizasiyalash tizimi; To'rtinchisi - indikatsiyalash tizimi. Shaxsning ana shu sotsial ahamiyatga ega bo'lgan barcha sifatleri ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi Birinchi tizimi hosil bilishida analizatorlar shaxsning hulq-atvori va xattiharakatlarini belgilaydi. O'rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar

katta rol o'ynaydi. Biroq, bu ilgari yuqorida ta'kidlab, o'tganimizdek ontogenez protsessida filogenetik analizatorlar o'rtasidagi aloqa vaqtli aloqalar bilan organik jihatdan qishilib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida pertseptiv tizimiga o'tib ketadigan yuksak darajada integratsiyalangan ma'lum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko'rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot-faoliyati jarayonida o'zaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensorpertseptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratadi. Insonning sensor-pertseptiv jihatlari doimo takomillashib boshlagan ilmlarining dastlabki yillaridayoq shakllana boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik.- M.:Aspekt Press, 2009.- 376 s.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2019.1-2 kitob.
3. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2012

GIPERAKTIV O'QUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN DIAGNOSTIK ISHLAR VA PSIXOLOGIK TAVSIYALAR

*Hayitboyeva Shohista Komiljon qizi
Namangan Shahar Davlatobod tumani 64-maktab psixologi,
Nishanova Shahnoza Alisherovna
Namangan Shahar Davlatobod tumani 58-sonli IDIUM psixologi*

Annotatsiya: Bugungi kunda bolalarda giperaktivlik (diqqat etishmasligi buzilishi) muhim muammolardan biridir. Har yili bunday ruhiy kasallikka chalingan bolalarning umumiy soni ortib bormoqda va ilmiy sohada yaxshi rivojlangan tomonga

qaramay, tuzatish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Mazkur maqolada gippeaktiv o'quvchilarni davolash va psixalogik tavsiyalar haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: *Giper, giperaktivlik belgilari, o'smirlik davri, kognitiv tuzatish, xulq-atvor, neyropsikologik xususiyatlari, g'ayri-ijtimoiy harakatlar.*

KIRISH

Namangan Shahar Davlatobod tumani 64-maktab psixologi. Nishanova Shahnoza Alisherovna 58-sonli IDIUM psixologi "Giper" (yunonchadan. hyper – ortiq) qo'shma so'zlarning yuqorida turish, shuningdek, me'yordan oshib ketishni bildiruvchi tarkibiy qismidir. Faoliyat - 1) shunday faoliyat; 2) shaxsning tashabbuskorligi, jonliligi, g'ayrati, ijodiy intiluvchanligi. "Hiperaktiv" atamasi uyda va maktabda faollik darajasi o'rtacha darajadaga hamda sezilarli darajada yuqori bo'lgan bolaga nisbatan qo'llaniladi.

Ijtimoiy sohadagi muammoning ahamiyati maktabda giperaktivlik belgilari bo'lgan bolaning yo'li muvaffaqiyatsizliklardan boshlanishi bilan belgilanadi. Muvaffaqiyat tuyg'usining yetishmasligi ikkinchi darajali hissiy tanglikni keltirib chiqaradi va o'z-o'zini hurmat qilishni kamaytiradi. O'smirlik davrida ko'plab bolalarda xatti-harakatlarning buzilishi ko'payishi mumkin. Giperaktivlik belgilari bo'lgan bilan og'rigan o'smirlar g'ayri-ijtimoiy harakatlar va huquqbuzarliklarni sodir etish, alkogolizm va giyohvandlikni rivojlantirish xavfi ostida.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yillar davomida giperaktivlikni tuzatishning pedagogik usullarining nochorligi tobora aniq bo'ldi. Axir, aniq yoki bilvosita, bu usullar ushbu muammoning manbai sifatida ta'limdagi kamchiliklar haqidagi eski g'oyaga tayangan, ayni paytda uning psixopatologik tabiati boshqacha yondashuvni talab qilgan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, giperaktiv bolalarning maktabdagi muvaffaqiyatsizligi nohaq ularning aqliy zaifligi bilan bog'liq va ularning intizomini sof intizomiy usullar bilan tuzatib bo'lmaydi. Asab tizimidagi buzilishlarda giperaktivlik manbalarini izlash va shunga mos ravishda tuzatish choralarini rejalashtirish kerak.

Ushbu sohadagi tadqiqotlar olimlarni bu holatda xatti-harakatlarning buzilishining sababi asab tizimidagi qo'zg'alish va inhibitsion jarayonlardagi nomutanosiblik degan xulosaga keldi. Ushbu muammo uchun "mas'uliyat joyi" ham

mahalliyashtirilgan - retikulyar shakllanish. Markaziy asab tizimining ushbu bo'limi inson energiyasi, vosita faoliyati va hissiyotlarni ifodalash, miya yarim korteksiga va boshqa ustki tuzilmalarga ta'sir qilish uchun "mas'uldir". Turli xil organik kasalliklar tufayli retikulyar shakllanish haddan tashqari qo'zg'aluvchan holatda bo'lishi mumkin.

Giperaktiv o'quvchilar haqida gapirganda, ko'pchilik tadqiqotchilar (Z. Trzhesoglava, V.M. Troshin, A.M. Radaev, Yu.S. Shevchenko, L.A. Yasyukova) diqqat etishmasligi giperaktivligi buzilgan bolalarni nazarda tutadi. Nemis nevropsixiatri Geynrix Xoffman birinchi marta stulda bir soniya jim o'tira olmaydigan o'ta harakatchan bolani tasvirlab berdi.

NATIJALAR

Hozirgi vaqtda xulq-atvori buzilgan va ular bilan bog'liq o'rganish qiyinchiliklari bo'lgan bolalarning muammolari ayniqsa dolzarbdir. Bunday bolalar o'zlarining bezovtaligi, e'tiborsizligi, baland ovozi, doimiy harakati bilan psixaloglarning e'tiborini tortadi. Doimiy hayajonlangan, bezovta bo'lib, sinfdoshlariga o'qituvchining topshirig'ini bajarishga, dars mavzusi ustida ishlashga diqqatni jamlashga to'sqinlik qiladi, doimiy ravishda o'z ishlari bilan band bo'ladi, ularni joyida ushlab turish, topshiriqni tinglashga majbur qilish qiyin va undan ham ko'proq uni oxirigacha to'ldiring. Ular haddan tashqari faollik va dürtüsellik tufayli o'qituvchilar uchun noqulaydir. Va zamonaviy ta'lim tizimi giperaktiv bolalar bilan ishlashga moslashtirilmagan.

Giperaktiv bolalar sonining ko'payishi bilan ularning ta'lim samaradorligi muammosi dolzarb bo'lib, muhokama qilinadi. Agar bir necha yil avval boshlang'ich sinflarda bir sinfdan 1-2 nafar giperaktiv bola bo'lgan bo'lsa, hozirda o'quvchilarning taxminan 20-30 foizi shu guruhga to'g'ri keladi. Ko'pincha, barcha mavjud xulq-atvor muammolari bilan, bunday bolalarning aql-zakovati saqlanib qoladi, ular maktab o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari mumkin, ammo buning uchun maktab muhitining talablari bolaning imkoniyatlariga mos kelishi kerak.

MUHOKAMA

Bolaning aqliy va shaxsiy rivojlanishining asoratlari, qoida tariqasida, ikkita omilga bog'liq:

- ta'limdagi xatolar yoki ma'lum bir etuklik;
- asab tizimiga minimal zarar.

Ko'pincha, bu ikkala omil bir vaqtning o'zida harakat qiladi, chunki. kattalar ko'pincha bolaning asab tizimining xatti-harakatlaridagi qiyinchiliklarga asos bo'lgan xususiyatlarini kam baholaydilar yoki e'tiborsiz qoldiradilar va bolani turli xil noto'g'ri tarbiyaviy ta'sirlar bilan "to'g'rilash" ga harakat qiladilar. Shuning uchun ota-onalar o'qituvchilarni bezovta qiladigan bolaning xatti-harakatlarining haqiqiy sabablarini aniqlay olish va u bilan ishlash usullarini belgilash juda muhimdir. Buni amalga oshirish uchun bolalarning aqliy rivojlanishidagi ushbu buzuqlik belgilarini aniq tasavvur qilish kerak, ularning bilimlari bola bilan ishlashni to'g'ri qurishga va muayyan asoratlarning og'riqli shakllarga aylanishini aniqlashga imkon beradi. Ma'lum bo'lishicha, giperaktiv bolalar o'zlarining buday hatti-xarakatlarini namoyon bo'ishi uchun yetarli darajada sharoit bo'lishi kerak. Agar uyda doimiy tortishish yoki boshqa tarbiyaviy choralar orqali o'zini bunday tutishi qat'iyman etilgan bo'lsa, maktabda ular ancha giperaktiv bo'ladi. Aksincha, agar maktab ularga qattiqqo'l bo'lsa ular uyda juda faol bo'lishadi. Shu sababli ota-onalar va o'qituvchilar hamkorlikda faoliyat olib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Giperaktiv bolaning o'qituvchilari va psixaloglari uchun amaliy tavsiyalar.

Giperaktiv bolalarni tuzatish bo'yicha maktab dasturi bolalarga o'rganishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradigan kognitiv tuzatishga tayanishi kerak.

- 1) Diqqat yetishmasligi giperaktivligi buzilgan bolalarning neyropsikologik xususiyatlarini o'rganish.
- 2) Giperaktiv o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash. Giperaktiv bola doimo psixalogning ko'z o'ngida, sinfnining markazida, doska oldida bo'lishi kerak. Giperaktiv bola uchun sinfdagi eng yaxshi joy o'qituvchi stoli qarshisidagi yoki o'rta qatordagi birinchi stoldir.
- 3) Jismoniy tarbiya va dam olishni kiritish bilan dars rejimini o'zgartirish.
- 4) Giperaktiv o'quvchilarning energiyasini foydali yo'nalishga yo'naltirish: doskani yuvish, daftarlarni tarqatish va hokazo.
- 5) O'quvchi bilan kechki payt emas, kunning boshida ishlash maqsadga muvofiqdir.

- 6) O'qituvchilar giperaktiv o'quvchilari bilan ko'proq muloqatda bo'lishi kerak.
 - 7) Taktil aloqadan foydalaning (massaj, teginish, silash elementlari).
 - 8) Sinfda chalg'ituvchi obyektlarning minimal soniga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.
- D) Ichki xotirjamlikni saqlang.

XULOSA

Giperaktiv o'quvchilarni tashxisi nevropatolog tomonidan qo'yiladi, ba'zi o'quvchilarda bu tibbiy yozuvda qayd etilgan. Tajribali psixologlar bunday o'quvchilar bilan ishlashda boshida ota-onasiga tavsiyalar beradi. Agar tashxis bo'lmasa va o'quvchida kundand-kunga giperaktivlik belgilari paydo bo'lsa, psixolog yoki o'qituvchi bolaning ota-onasiga bolalar nevrologiga murojaat qilishni xushmuomalalik bilan tavsiya qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ерофеева М.В. «Психологическое консультирование родителей по проблеме гиперактивности ребенка» Санкт-Петербург 2020 г.
2. Sirotiyuk A.L. Diqqat etishmasligi giperaktivlik buzilishi. - M.: TC Sphere, 2002 yil.
3. Романчук О.И. Синдром дефицита внимания и гиперактивности у детей / Пер. с украинского. — М.: Генезис, 2010.
4. Бурлачук Л.Ф., Морозов С.М. Словарь-справочник по психодиагностике. - СПб.: Издательство "Питер", 2000. - 528 с.
5. Osipova A.A., Malashinskaya L.I. Diqqatni tashxislash va tuzatish: 5-9 yoshli bolalar uchun dastur. - M.: TC Sphere, 2001 yil.
6. <https://www.maam.ru/detskijasad/psihologo-pedagogicheskaja-rabota-s-giperaktivnymi-detmi-v-usloviyah-dou.html>
7. <https://multiurok.ru/files/psikhologho-piedaghoghichieskaia-rabota-po-korriek.html>

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАРБИЯЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Нуралиева Ширингул Мансурована
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 8-сонли
ДМТТ услубчиси*

Мамлакатимизда мактабгача таълим мазмуни ва кадрлар тайёрлаш жараёнларини илғор хорижий тажрибалар асосида такомиллаштириш ва тарбиячиларда касбий компетенцияларни ривожлантиришга таълим-тарбия жараёнининг муҳим йўналиши сифатида алоҳида эътибор қаратилмоқда. Сўнги йилларда амалга оширилаётган ислохотлар, соҳага доир қабул қилиниётган қатор ҳуқуқий ҳужжатлар, жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-4312-сон Қарори, Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги “Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 391-сон Қарори соҳа тараққиётининг янги даврини бошлаб берди.

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш” каби муҳим устувор вазифалар белгилаб берилган. Ушбу устувор вазифаларни амалга оширишда тарбиячиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятларини аниқлаштириш, касбий компетенцияларни ривожлантиришнинг методик шарт-шароитларини такомиллаштиришни тақозо қилади.

Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларининг касбий компетенциясини ривожлантириш ва такомиллаштириш масалалари олимларнинг доимий диққат марказида бўлган. Бир қатор адабиётларда касбий компетентликка оид қарашлар ва таърифлар берилган. Масалан: Н.В.Тарасова компетенция тушунчасини

муаммони ҳал этиш учун билим ва вазият, билим ва ҳаракат ўртасида алоқадорликни таъминлаш имконини берадиган билим, кадриятлар, лаёқатларга асосланган умумий қобилият сифатида талқин этади.

В.И.Андреевнинг таъкидлашича, компетенция - бу маълум ўқув, касбий ва бошқа комплекс масалаларни ечишда намоён бўлувчи, ривожланиб боровчи интеграл кўрсаткич бўлиб, шахснинг (ижобий мотивация, билим,маҳорат, иқтидор ва ижодий фаолият тажрибасини ўз ичига олувчи) тайёргарлик даражасидир.

М.А.Умаралиеванинг фикрича, компетенция - бу ўзининг касбий маҳоратини мукамал ривожлантирган, дарс жараёнини нафақат лойиҳалаштирадиган, балки уни бошқара оладиган, таълим ислоҳотларини, замон талабларини, инновацияларни тез илғаб, уни дарс жараёнида самарали қўллаш олишдир.

Юқоридагиларни умумлаштирган ҳолда компетентлик – инсоннинг мавжуд билим ва ҳаётий тажрибаларига таянган ҳолда маълум бир муаммони ҳал этишга доир қобилиятидир деган хулосага келиш мумкин. Шунини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, компетентлик тушунчасига берилган аксарият таърифлар, илғор қарашлар касбий таълим, касбий фаолият билан боғлиқликда баён этилган.

Бироқ, мактабгача таълим билан боғлиқликда мазкур тушунча инновация тавсифига эга бўлганлиги сабабли, унинг моҳиятини аниқлаштиришга алоҳида эҳтиёж мавжуд. Шундан келиб чиқиб тарбиячининг касбий компетенциясини - ўзининг касбий маҳоратини ривожлантиришга интиладиган, “Илк қадам” давлат ўқув дастури асосида ўқув-тарбиявий фаолиятни самарали ташкил этадиган ва давлат дастури асосида ўзининг вариатив дастурларини ярата оладиган, тарбияланувчиларни мактабга сифатли тайёрлайдиган, таълим тизимидаги ислоҳотларга масъулият билан ёндашиб ўрганадиган ва уни амалиётда қўллаш олидиган, мустақил фикрини баён эта оладиган шахс сифатида изоҳлаш мумкин.

Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларининг касбий компетенциясини такомиллаштириш мураккаб жараён бўлиб, унда тарбиячиларнинг илмий-назарий, психологик-педагогик, илмий-методик тайёргарлиги, ғоявий-сиёсий ва

маънавий-ахлоқий етуклиги, мазкур соҳага тўла-тўқис тайёргарлигини белгилаши тушунилади.

Замонавий мактабгача таълимнинг асосий мақсади қуйидагиларда намоён бўлади: мактабгача таълим ташкилотлари таълим-тарбия жараёни тизимини янада такомиллаштириш, уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш; мактабгача таълим ташкилотлари тармоғини кенгайтириш; мактабгача таълим ташкилотларини малакали ва маҳоратли педагог-тарбиячилар билан таъминлаш; илғор хорижий тажрибани ҳисобга олган ҳолда болаларни ҳар томонлама интеллектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний ривожлантириш шароитларини яратиш; мактабгача таълим сифатини ошириш, мактабгача таълим ташкилотларида болаларни мактабга сифатли тайёрлашни тубдан яхшилаш, таълим-тарбия жараёнига жаҳон амалиётида кенг қўлланиладиган замонавий таълим дастурлари ва технологияларини жорий этиш кабилардан иборат.

Мактабгача таълим сифати ва самарадорлигини таъминлашга эришиш учун юқори малакали педагог-тарбиячилар ва бошқарув кадрлар, раҳбар ходимлар тайёрлашга ҳам алоҳида эътибор қаратилиши лозим. Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячисининг касбий-педагогик тайёргарлиги дейилганда, унинг илмий-назарий, психологик-педагогик, илмий-методик тайёргарлиги, ғоявий-сиёсий ва маънавий-ахлоқий етуклиги тушунилади. Мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиларининг касбий-педагогик тайёргарлиги муайян таркибий қисмларга эга бўлиб, улар бир-бирини тўлдиради ва мактабгача таълим ташкилотлари таълим-тарбия жараёнида мунтазам ривожланади. Мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиларининг олий таълим муассасаларида эгаллаган билим, кўникма, малака ҳамда касбий компетенциялари уларнинг амалий педагогик фаолиятларида такомиллашади. Шунинг учун ҳам мактабгача таълим ташкилоти тарбиячисининг касбий-педагогик тайёргарлигини таъминлашда олий таълим муассасалари таълим-тарбия жараёнларини самарадорлигини ошириш муҳим ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиларининг таълим-тарбия жараёнини самарали ташкил эта олиш маҳорати қуйидагиларда ўз ифодасини топади:

тарбияланувчиларнинг ёш хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда уларни маънавий-ахлоқий шакллантириш имкониятларини билиши; тарбияланувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш бўйича тадбирлар режасини ишлаб чиқиши ва уларнинг сценарийсини туза олиши; тарбияланувчиларни марказлар бўйича билимини ривожлантиришга йўналтирилган педагогик жараёнларни ташкиллаштириш усул ва воситаларидан фойдаланиши; тарбияланувчиларни табиат билан яқиндан таништириш шакл ва методларини билиши; машғулотлар ўтадиган хонани жиҳозлай олиши; гуруҳдаги болаларнинг гигиеник ҳолати ва саломатлигини назорат қила олиши; тарбияланувчилар билан саёҳатлар уюштириши; республика миқёсида нишонланадиган байрамлар арафасида гуруҳда ва мактабгача таълим ташкилотида тантанали байрам кечаларини ташкил этиши олишида.

МТТ тарбиячиси фаолият мезонларини ўзлаштирган бўлиши ва педагогик амалиётда ва касбий-педагогик фаолиятида улардан самарали фойдалана билиши муҳим саналади. МТТ тарбиячиларининг касбий компетенциясини такомиллаштиришнинг инновацион модели - бу қўшимча таълим тизимида тарбиячиларнинг касбий аҳамиятга эга бўлган шахсий сифатларини ривожлантириш, яъни нафақат педагогик фаолиятни амалга ошириш учун тарбиячиларнинг касбий тайёргарлигини такомиллаштириш, балки уларнинг ўзини-ўзи ривожлантириш ва касбий компетентлилик йўналишидаги эҳтиёжларини қондириш жараёнини ташкил этиш андозаси бўлиши зарур. Олиб борилган тадқиқотлар натижаларига асосланиб, педагог-тарбиячиларнинг касбий компетенциясини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари сифатида қуйидагиларни ажратиш кўрсатиш мумкин: мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларининг психологик ва педагогик тайёргарлиги даражасини кўтариш; мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларининг касбий компетенциясини такомиллаштиришнинг мақсади ва методлари ҳамда таълим мазмунида психологиянинг ролини кучайтириш;

касбий компетентликни такомиллаштиришда ўқитишнинг оддий ахборотлар билан таъминлаш шаклидан фаол шаклига, яъни муаммоли суҳбат услублари ёрдамида тушунча ва кўникмаларни шакллантиришга ўтиш;
тарбиячининг касбий маҳорати ривожланишининг натижасини уларда ижодий, касбий ва шахсий салоҳиятининг яхлит такомиллашиши сифатида кўриб чиқиш;
компетентли тарбиячининг шахсий позициясини таълим-тарбия жараёнининг субъекти сифатида шакллантириш.

Хулоса қилиб айтганда, тарбиячиларнинг касбий компетенциясини такомиллаштиришнинг инновацион моделини амалиётга татбиқ этиш жараёнлари касбий компетенциянинг асосий компонентларини ўзаро алоқаси ва уларнинг мантиқий изчиллигини таъминлаш мактабгача таълим соҳаси кадрларини тайёрлашнинг энг зарур ва устувор масалаларидан бири ҳисобланади. Мазкур йўналишдаги илмий тадқиқотлар сонини ошириш ва уларни амалиётга жорий қилиш мазкур масаланинг амалий ечими бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами.–Т., 2017.
2. Тарасова Н.В. Стратегия реализации компетентного подхода в образовании: историко-педагогический аспект [Текст] // Содержание, формы и методы обучения в высшей школе: анализ. обзоры по основным направлениям развития высшего образования. - М., 2007. - Вып. 1.
3. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс. Книга 1.-Казань: Изд.-во Казанского ун-та,1996.-570 с.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги “2017–2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2707-сонли қарори. /Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 1-сон.

KISHI MEKTEP JASÍNDAGÍ BALALARDA AGRESSIVLIKTIŃ PAYDA BOLÍW ÓZGESHELIKLERI

*Konratbayeva Ayjamal Bazarbaevna
Ájiniyaz atındaǵı NMPI tayanış doktorantı*

Házirgi waqıtta agressiv balalardıń zamonagóy dúnyada kóp ushırasıwı sır emes. Kópshilik ata-analar ushın bul jaǵday mashqalaǵa aylanıp atır.

Insandaǵı agressivlik jaǵdayları hár qıylı sebeplerge baylanıslı bolıp, bul jaǵdaydıń psixodiagnostikası, psixoprofilaktikası boyınsha bir qansha izertlew jumısları alıp barılǵan hám búgingi kúnde islep shıǵarıwda ámeliyatshı psixologlar paydalanıp kelmekte. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tálim-tárbiya máselelerine úlken itibar qaratıp, “aldımızda jaslarǵa tárbiya beriw, psixologiya hám basqa túrli tarawlarda kadrlardı tayarlaw boyınsha quramalı wazıypalar turıptı”, dep aytadı.¹ Solay eken, balalardıń tálim-tárbiyasına psixologiyalıq jaqtan kóbirek itibar awdarıwımız kerek.

Kishi mektep jasındaǵı balalarda agressiv minez qulıqtıń payda bolıwında oǵan hár qıylı faktorlar hám social ortalıq óz tásirin kórsetedi. Agressiv minez qulıq shańaraq ortalıǵında, óz teńlesleri toparında yaǵnıy mektep, qosımsha tayarlaw oqıw orınlarında hám ǵalaba xabar quralları tásirinde payda boladı.

Agressiv háreketi bar bolǵan balalar qopal bolıp, teńlesine yaki ata-anasına hújim qıladı, uradı, sógedi, baqıradı, oyınshıqların ya buyımların ılaqtırıp shashadı. Ata-analardıń itibarsızlıǵı hám qattı-qollılıǵı bala menen ata-ana múnasibetine mashqala tuwdırıwı múmkin, nátiyjede balanıń onı jaqtırmaydı dep buǵan isenedi. Bunday jaǵdaydı ózgeriw hám ata-anasınıń mehrine erisiw ushın balalar olardıń itibarın hár qanday jol menen, sonday-aq, agressiv háreketler menen qaratiwǵa háreket qıladı.

Eger bala ózin ázzi dep esaplasa, ózine isenbese, basqa balalarǵa qosılmasa, bunday baladaǵı agressiya uzaq dawam etpeydi.

¹ Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қойдаси бўлиши керак – Т., 2017.-Б-45.

Ata-analar hám oqıtıwshılar "agressiya" hám "agressivlik" ortasındaǵı pariqtı biliwi júdá áhmiyetli: yaǵnıy, agressiya-bul ádeplik normalardı buzatuǵın hám basqalarǵa ruwhıy yaki fizikalıq zıyan jetkeriwi múmkin bolǵan balanıń "bir mártelik" háreketi. Al agressivlilik- waqıt ótiwi menen agressiv bolǵan is-háreketlerdiń tákiraralanıp turıwı.

Ílimde ata-ananıń minez-qulqı agressiya modeli bolıp xızmet qılıwı hám ádette agressiv ata-analardan agressiv perzentler dúnyaǵa keliwi múmkin ekenligi dáliyllengen.

Agressiv minez-qulıqtıń «ósip barıw» sharayatları tómendegilerden ibarat:

– Ata-analardıń barqulla agressiv is-háreketleri, balaǵa jaman tásir qıladı, bulardı qaytarıp olardıń agressivligine úyrenip qaladı. Bul degeni balanıń ózin emocional basqarıw sisteması onıń ata-anasınıń emocional basqarıw tipinde kóriledi;

– Balanı jaqsı kórmewshilik kórinisi, qorgawshınıń joqlıǵı, qáwip hám átiraptaǵı álemnıń dushpanlıǵı sıyaqlı sezimler;

– uzaq múddetli hám tez-tez bolıp turatuǵın frustraciyalar, bunda olardıń tiykarı ata-analar hám ortalıq sebep boladı: ata-analar tárepinen balanıń kemsitiliwi, qorlanıwı. Bul frustratsiyanıń óz aldına bir kórinisi, bul bala shaxsın qalıplestiriwde júdá áhmiyetli esaplanadı. Hátteki diagnostika hám korrekciya waqtında óz aldına kórilip shıǵılıwı zárúr.

Balanı erte oqıw, jazıw, sanawǵa úyretip onıń biliw processleri zorıqtırılsa balanıń emocional rawajlanıwı ushın zárúr bolǵan miy energiyasınıń jetispewshiligine sebep boladı. Nátiyjede balalardıń emocional processlerdiń rawajlanıwında yaki fizikalıq rawajlanıwında kemshilikler júz beredi. Bunday jaǵdayda energiya bólistiriliwiniń májbúriy buzılıwı bolıp, ol 7-8 jaslı balalardı qorqıw, agressivlik yaki giperaktivlik jaǵdaylarına alıp keledi.²

Balanıń ózine ózi baha beriwi pás, adekvat hám joqarı bolıwı múmkin. Adekvat ózine baha beriwdi ózi qarım-qatnastaǵı jetiskenliktiń girewi emes, biraq óz-ózine baha beriwi deformatsiyalanǵan bolsa, onda bul social dezadaptaciya ushın zárúr sharayat

² Z.T.Nıshanova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullaeva, M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya", Toshkent-2019, 208-b.

esaplanadi. Ózine tómen baha bergen bala kóbinese isenimsizlik, autistlik yaki is-háreketiniń agressiv tendenciylari menen joqari qáwipsirewge iye.

Aqırǵı jaǵdayda agressiv balanıń ózine baha beriwin tómenletetuǵın kemsitiw, tergew ornın toltıradı. Sonlıqtan eger bala agressiv bolsa, bul onı óz-ózine baha beriwin «tegislemeydi», tek ǵana balanı átiraptaǵılar ózin jaqsı kóriwshi, ózinen kewli tolatuǵın, ózine isengen dep baha beredi. Bunda ata-anaların olardıń balalarda joqari emes, tómen bahalaw dep isendiriw qıyın hám onı kemsitiw múmkin emes.

Kóbinese balada, agressiv is-háreket balanıń ótiw dáwirinde baqlanadı. Bul sonnan dáliyl beredi, balanıń jasawı qıyınlasadı. Hár qanday qıyın jaǵdayda balanıń jas krizisi waqtında qıyınraq ótedi, sonıń ushın onnan is-háreketinen agressiv elementlerdiń kóbeyiwini kútiw múmkin. Bul ápiwayı balaǵa da, emocional buzılıwdaǵı balaǵa da tiyisli.

Bala qulqındaǵı buzılıwlarǵı determinaciyalawshı faktorlardan biri xarakter akcentuaciyası bolıp esaplanadı. Anıqlanıwınsha, akcentuaciyasın ayırıqsha tipleri hám deviaciya túrleri ortasında korreliaciyalıq baylanıslar bar. Anıqlanǵan akcentuaciya tipiniń kúshsiz orınların kórsetedi. Sonıń menen dezadaptaciyaǵa alıp keletuǵın psixogen reakciyaların keltirip shıǵarıwına baylanıslı faktorlardı aldınnan kóriw imkaniyatın beredi.

R. Beron, D. Richardson shańaraqtaǵı tárbiya ámeliyatı hám balanıń agressiv minez-qulqı arasında baylanıs bar ekenligi haqqında aytıp ótedi, ol jazalawdıń xarakteri hám qatańlıǵında, sonday-aq balalardıń ózin uslap tutıwın qadaǵalawda kórinedi. Ulıwma alǵanda qatań jazalawlar balalardaǵı agressivliktiń joqari dárejesi menen baylanıslı ekenligi, al balaǵa jeterli dárejede kútip qaraw hám qadaǵalaw bolmasa, bala kópshilik jaǵdayda ózin agressiv uslap tutıw menen keshetuǵın, jámiyetten uzaqta bolıw joqari dárejege ósetuǵınlıǵı anıqlanǵan.³

Social múnásibetlerdiń hár qanday buzılıwı shańaraq múnásibetleri buzılıwlarınan aladı, mısalı: shańaraqtaǵı tárbiya yaǵnıy shańaraq múnásibetleri, shaxstı deformaciyalaytuǵın, balanıń baqshada bolǵan múnásibetleriniń buzılıwına alıp keledi.

³Бэрон.Р, Ричардсон.Д. Агрессия. – Спб.: Питер, 2004. – 240-с.

Rus psixologi E.L.Golenisheva kishi mektep jasındađı oqıwshılardıń agressivligine mikro-social faktorlar (ata-analar, oqıtıwshılar, teńlesler) tásir etiwın úyrenen. Ol óz izertlewi dawamında kishi mektep jası balalarınıń individual psixologiyalıq ózgesheliklerin úyrenen hám nátiyjede agressiv oqıwshılardıń tiykarǵı jeke ózgeshelikleri: pás social normativlik, qarım-qatnastıń az bolıwı, itibarsızlıq, qorqaqlıq, ózin-ózi bahalawdıń joqarılıǵın anıqlaǵan.⁴

Demek, kishi mektep jası dáwirinde agressivlik payda bolıwına balanı erte oqıwǵa úyretiw, ata-ananıń itibarsızlıǵı hám social ortalıq tásir etedi eken. Bunday balalar menen jeke hám toparlıq treningler ótkerilip barılsa, ata-ana menen ámeliyatshı psixologlar sáwbetlesip, balaǵa ata-ananıń itibarın qaratsa agressivlik jaǵdaylarınıń aldın alıwǵa boladı eken.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1.Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қойдаси бўлиши керак – Т., 2017.-Б-45.

2.Бэрон.Р, Ричардсон.Д. Агрессия. – Спб.: Питер, 2004. – 240-с.

3.Голенищева Е.Л. Социально - психологические факторы агрессивности младших школьников. Автореф. дисс.. кандидата психологических наук: 19.00.13/ Санкт- Петербург-2005. С-5

4.Z.T.Nıshanova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullaeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya”, Toshkent-2019, 208-b.

⁴ Голенищева Е.Л. Социально - психологические факторы агрессивности младших школьников. Автореф. дисс.. кандидата психологических наук: 19.00.13/ Санкт- Петербург-2005. С-5

O'QITUVCHINING DARS O'TISH MAHORATI VA VIZUAL INTELEKTI XUSUSIYATLARI

*Ismailova Shaxlo Valijonovna
O'zMU ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishi I-kurs magistranti*

Bilimli, salohiyatli har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab, to maktabgacha tarbiya yoshigacha bo'lgan davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov asariarida O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida, Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillarida tarbiyachilar, pedagoglar oldiga ulkan vazifalarni yuklamoqda. Ana shu vazifalarni amaliyotda o'z ifodasini toptirishda bolalar psixologiyasi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy ishtirokchilaridan biridir. O'qituvchi — yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odam. Bolalarga ta'lim berayotgan o'qituvchi bo'lajak murabbiylarga, tarbiyachilarga kasbiy jihatdan o'ta ahamiyatli bo'lgan bilimlar — bolalar psixik taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi bilimlarni beruvchi, ularda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun kerak bo'ladigan ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi mutaxassis.

Fani o'qituvchilariga barcha pedagoglarga qo'yiladigan umumiy talablardan tashqari yana quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Umumiy va bolalar psixologiyasidan tashqari psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahat, maxsus psixologiya bo'yicha bilimga ega bo'lish;
2. Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisining ish faoliyatiga xos xususiyatlarni yaxshi bilish;
3. Bolalar psixik taraqqiyoti muammolari yuzasidan mustaqil tadqiqotlar o'tkaza olishi va bu jarayonga talabalarni jalb eta bilishi;

4. Muntazam ravishda ilg‘ortarbiyachi-murabbiylarning pedagogik tajribasini o‘rganib borish va targ‘ib qilish;

Bolalar psixologiyasidan ma‘lumki fan o‘qituvchisining metodik mahorati yuqori saviyada bo‘lishi shart. Pedagogik faoliyatga tayyorlanishda talabalarning uzoq yillar davomida ushbu faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan o‘qituvchilarning tajribasini o‘zlashtirishi juda muhim. Shuning uchun talabalar har bir o‘qituvchisi ish tajribasidan o‘ziga, bo‘lajak pedagogik faoliyatiga imkon qadar ko‘proq narsa olishga harakat qilishi lozim. Bunda talabalar har bir o‘qituvchining metodik mahoratiga e‘tibor berishlari kerak bo‘ladi. Pedagogik amaliyotning ko‘rsatishicha, metodik mahorati past bo‘lgan o‘qituvchi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi: ta‘lim metodlarini auditoriya xususiyatlarini hisobga olmay tanlaydi; tanlangan ta‘lim usuli natijasini oldindan ko‘ra bilmaydi; faoliyatida ta‘siming to‘g‘ridan-to‘g‘ri usullari ustun bo‘ladi; o‘z ko‘rsatmalarini aniq bajarishnigina yuqori baholaydi; pedagogik ta‘sirini tor doiradagi turlaridan foydalanadi; muloqotning avtoritar uslubidan foydalanadi; kutubxonasi talabalarda itoatkorlik, bajaruvchanlik xususiyatlarini rivojlantirishga urg‘u beradi; bilimlarni talabalarga uzatishgagina e‘tibor beradi. Metodik mahorati yuqori bo‘lgan o‘qituvchi quyidagi xususiyatlaiga ega bo‘ladi: pedagogik metodlarni talabalar saviyasiga muvofiq tanlaydi; tanlangan metod va usullar orqali erishiladigan natijani oldindan ko‘ra biladi; faoliyatida ta‘sirining aylanma usullari ustunlik qiladi; talabalar o‘quv dasturini o‘zlashtirishida ularda mustaqillikni rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi; pedagogik ta‘sir etishning xilma-xil turlaridan foydalanadi; muloqotning demokratik uslubidan foydalanadi; talabalar emotsional-intellektual sohalarining rivojlanishiga urg‘u beradi; talabalarni faollikka undaydi, ular bilimlarni o‘zlari o‘zlashtirishlarini ta‘minlashga e‘tibor beradi. O‘qituvchi pedagogik tajribasi ortgan sayin uning metodik mahorati ham takomillashib boradi. Nazariy bilim amaliy tajriba poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Yuksak metodik bilim va amaliy tajriba birgalikdagi yuqori mahorat o‘qituvchini shakllantiradi. O‘qituvchining intellektual salohiyati bu borada juda muhimdir.

Intellekt ([lotincha](#): *intellects* — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish, fikrlash,

o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqeahodi-salarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellect tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi. Intellectning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellect saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi .

O'qituvchi vizual intellekti , bu o'quvchilarga bilim berishdagi ko'rsatish orqali ko'ruv orqali amalga oshiriladigan intellekti tushuniladi , bunda o'qituvchi o'quvchilarni o'z idroki orqali , intellekti bilan dars o'tish sa'nati sanaladi . Vizual intellekt orqali o'qituvchi o'quvchini dars jarayonida o'zini tutishini , bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuzatib unga nisbatan diqqatga chorlashi mumkin. **Vizual – fazoviy intellektli** odam ko'rinadigan obrazlar bilan fikr yuritadi, xaritalarni, chizmalarni, diagrammalarni matnga nisbatan osonroq o'qiydi, fantaziyalarga berilishni va san'at bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radi, yaxshi rasm chizadi, qiziqarli uch o'lchovli modellarning konstruksiyasini ishlaydi, o'qish paytida so'zlardan emas, balki illustrat siyadan ko'proq axborot oladi.

Intellectning bu turi ko'z bilan ko'rish tasavvuri, o'zlashtirishi his-tuyg'usi bilan bog'liq bo'lgan va predmetlarni ko'rish orqali eslab qolish qobiliyat ichk i aqliy obrazlarni yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

O'qitish usullari nafaqat tabiiy fan darslarida yangi bilimlarni sotib olishni, balki ularni to'g'ri idrok etishga, zaruriy belgilarni ko'rish, o'rganilgan hodisalar tuzishini ta'minlashi kerak. O'quv usullarini tanlash o'qitiladigan materiallarning mazmuniga, talabani o'rganish va ularning hayotiy tajribalariga bog'liq. Bu yoki usul talabalarni, birinchi navbatda o'qituvchini, ikkinchidan, ustozni nazorat qilishda mustaqil ravishda ishlash, uchinchidan, hech qanday yordamisiz amalga oshirish uchun tayyorlangan bilimlarni o'zlashtiradi. Boshqa tomondan, usul shuningdek, maktab o'quvchilarining bilim qobiliyatini rivojlantirish jarayonini boshqarish va maktab o'quvchilarining rivojlanish jarayonini boshqarishga qaratilgan faoliyatini ham aks ettiradi. Bu ish paytida bolalar

bilim olishni o'rganishni, ya'ni bilimlarni bilishlarini o'rganadilar. Xuddi shu usul, darsning maqsadiga qarab, o'quv materiallari va kognitiv faoliyatning mohiyati turli yo'nalish va taqdimot darajasini oladi. O'qituvchi o'zi foydalanadigan turli xil usullarga intilib, asta-sekin talabalarni amaliyotda erishgan bilimlarni o'rganishda va amalda bo'lgan bilimlarni qo'llashda mustaqillik ostiga qo'yishi shart. Vizual usullar o'qituvchilarning qo'lida tabiiy fan tomonidan olib borilayotgan o'qishni olib borish uchun muhim vositadir. Ular moddalar yoki organlarning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini aniqlash, shunda yoki tabiatda joylashgan boshqa hodisalarning ochilishi va tushuntirishlarini aniqlash kerak. Ular sizga talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etishga imkon beradi. Ular talabalarning aniq bilimlar bo'yicha muhim bo'lgan, muhim bo'lgan dastlabki tushunchalarni kuzatish qobiliyatidan yaratishga hissa qo'shadilar. Bu bizning ishimizning dolzarbligi. Vizual usullardan ham yangi materialni o'rganishda ham, garovga olinganida ham foydalanish mumkin. Yangi materialni o'rganayotganda, ular yangi bilimlarni shakllantirish uchun, va u ta'minlanganda - bilim amaliyoti. Tabiiy ob'ektlarning namoyishi orqali tabiatni o'rganish sizga o'rganilgan ob'ekt haqida etarlicha to'liq va ishonchli g'oyalarni shakllantirishga imkon beradi. Tabiiy vizual imtiyozlarni o'rganish vizual ko'rinishi bilan birlashtirish uchun foydalidir. B. P. Esipovning fikricha, usullar o'qituvchilar va talabalar sifatida ishlash usullari bo'lib, u er xo'jaligi, ko'nikma va ko'nikmalarga erishadigan o'qituvchi va talabalar sifatida ishlash usullari, talabalar haqidagi dunyo miqyosida ularning imkoniyatlari rivojlanmoqda. K. Babanskiy, usul ta'lim, ta'lim, ta'lim, o'quv jarayonida ta'lim muammolarini hal qilishga qaratilgan o'qituvchi va tinglovchilarning o'zaro bog'liq faoliyati. Rayakov ikki belgi tasniflashning asosini qo'ygan usullarning ikkilik nomenklaturasini yaratdi: o'quv materiallarini idrok etish va mantiqiy jarayon yo'nalishi. Shunga asoslanib, u uchta usulni ajratdi: og'zaki, vizual, motor. O'qitishda vizual usullardan foydalanish ko'rinishi ko'rinishi tamoyilini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq, bu tushunchalar bir xil emas. O'qish printsipi har qanday usulda amalga oshiriladi. U usulning funktsiyasi bu bilimning asosiy manbai, amaliy harakatlarning texnik vositasi bo'lib, talabaga ta'sirini rivojlantiradi va o'qiganida ko'rinadi. Vizual qo'llanmalar og'zaki usullarda keng qo'llaniladi. Vizual usullarda vizual qo'llanmalar mustaqil

mulohaza yuritish, umumlashtirish, xulosalar. Ushbu usullardan foydalanish talabalar faoliyatini ko'paytirish, ularning mustaqil kognitiv faoliyati uchun etarli ekanligini juda qadrli. Vizuallik atrof-muhitga ta'lim berishda og'zaki ma'lumotni chiqarib tashlash imkonini beradi.

ПСИХОЛОГИК УРУШЛАР (АХБОРОТ ХУРУЖЛАРИ) НИ АМАЛГА ОШИРИШДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ РОЛИ

Артиков Жуманиёз Отабоевич

Хоразм вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази «Педагогика ва психология, таълим технологиялари» кафедраси ўқитувчиси, психолог, ҳуқуқшунос

Милоддан аввалги VI асрда яшаган Хитой файласуфи ва ҳарбий арбоби Сунь Цзи психологик уруш (ахборот хуружи) қандай амалга оширилишини қуйидагича баён қилган: “Душман мамлакатадаги ҳамма яхши нарсаларни пароканда қилинг, барча воситалар орқали ҳукумат ишига халал беринг, раҳбарларнинг обрўсини тўкинг ва уларни жамоатчилик олдида шарманда қилинг, кўзга кўринган арбобларини жиноий ишларга жалб қилинг, фуқаролари орасида низо ва тўқнашувлар келтириб чиқаринг, ёшларни кексаларга қарши гиж-гижланг, ахборот ва шерикларни сотиб олиш учун маблағни аяманг. Умуман, пулни ҳам, ваъдаларни ҳам аяманг, чунки улар ажойиб натижалар беради. Шу мақсадда энг қабиҳ ва разил одамлар билан ҳамкорлик қилинг”.

Буни қарангки, инсон онги ва қалби учун кураш қадим замонлардан буён давом этиб келаётган экан. Негаки, моҳият деярли ўша-ўша. Хоҳ интернет, хоҳ оммавий ахборот воситалари орқали бўлсин, бугун ҳам ахборотдан ғаразли мақсадларда фойдаланаётганлар, турли манфаат, мақсадлари йўлида бошқа давлат, миллатга психологик таъсир ўтказишга уринаётганлар усул-услугларида Хитой олими айтиб ўтган усулларни кўриш мумкин.

Хўш бугунги кунда ахборот хуружи деганда нимани тушунамиз. Ахборот хуружи бу - рақиб устидан ахборот ҳукмронлигига эришиш ва шу йўл билан унга

моддий, сиёсий, мафкуравий ёки бошқача зарар етказиш учун давлатнинг ҳарбий кучлари, ҳукумати ҳамда хусусий ташкилотлари томонидан амалга ошириладиган тадбирлар ва операциялар мажмуасидир. Ахборот хуружидан мақсад – аҳолини давлатга бўлган ишончини йўқотиб, фуқаролар орасида парокандалик, тартибсизлик ва оммавий норозиликни келтириб чиқаришдир. Бугунги кунда ахборот уруши асосан халқаро Интернет тармоқлари, хусусан ютуб, фейсбук, инстаграмм, тик-ток, телеграмм ва бошқа мессенжерлар орқали жуда кенг миқёсда олиб борилмоқда.

Адольф Гитлернинг пропаганда вазири, 3-рейх Йозеф Геббельснинг асарларида қуйидаги каби ибораларни ўқиш мумкин: “Ёлғонни кўркмасдан ишлатинг, ҳеч бўлмаганда чандиқ қолади”, “Минг марта такрорланган ёлғон, ҳақиқатга айланади”, “Менга оммавий ахборот воситаларини беринг ва мен халқдан чўчкалар галасини яратаман”, “Ташвиқот ақлдан кўра кўпроқ ҳиссиётга таъсир қилиши керак”. Геббельс бундай ибораларни ўз асарларида ёзибгина қолмай, уни амалда ҳам кенг қўллаган. Немис фашистлари худди шундай усуллардан ўзларининг ғаразли мақсадларига эришиш йўлида фойдаланишган. Бугунги кунда айрим давлатлар ва махсус хизматлар томонидан яратилган ва молиялаштириладиган ОАВлари ҳам худди шу усулдан фойдаланиб келмоқда.

Хусусан, АҚШ ва собиқ СССР давлатлари ўртасидаги “совуқ уруш” даврида психологик уруш (ахборот хуружи) олиб бориш учун “BBC”, “CNN”, “Fox News”, “Америка овози”, “Озодлик”, “Немис тўлқини” каби теле ва радиостанциялар ташкил этилган.

Масалан, «Озодлик Радиоси» (*тўлиқ номи - «Озод Европа Радиоси/Озодлик Радиоси», РСЕ/РС*) дастлаб социалистик давлатларга қарши кураш учун АҚШ Давлат департаменти ва Марказий разведка бошқармаси (МРБ - ЦРУ) томонидан ташкил этилган. 1951 йилда ташкилот сиёсий маслаҳатчиси О.Джексон радиостанция ходимларига қарата “Бу радио - психологик уруш хизмати. Бизнинг ташкилот биз эшиттириш олиб бораётган мамлакатларда ички тартибсизликларни келтириб чиқариш учун ташкил қилинган” деган эди. Радиостанция дастлабки йилларда МРБ, 1972 йилдан эса АҚШ Конгресси томонидан молиялаштирилади.

2018 йил октябрь ойи ҳолатига кўра, эфирга узатиш Шарқий Европа, Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг 23 мамлакатида 26 тилда амалга оширилмоқда. Марказий Осиё мамлакатларида «Радио Азаттик» қозоқ хизмати, «Озоди Радиоси» тожик хизмати, «Радио Азаттик» қирғиз хизмати, «Азатлик Радиоси» туркман хизмати ва «Озодлик Радиоси» ўзбек хизмати мавжуд. 1953 йилда радио ўзбек тилида, 1960 йилдан қорақалпоқ тилида ҳам эшиттириш бериб келмоқда. Юқоридагилар радионинг узок йиллик ахборот уруши олиб бориш тажрибасига эга эканлигини кўрсатади.

Эфирга узатишдан ташқари, «Озодлик Радиоси» Интернет орқали ҳам ўз эшиттиришларини беради ва телевизион дастурлар яратади. Ҳозирги пайтда ташкилотнинг бош қароргоҳи Вашингтонда, дастурий маркази - Прагада (1995 йилигача Мюнхенда эди) жойлашган, шунингдек, 17 та минтақавий бюроси мавжуд. «Озодлик Радиоси»нинг расмий сайтидаги маълумотларга кўра, РСЕ/РС'да тахминан 400 нафар журналист ва 750 нафарга яқин фрилансер ишлайди. «Озодлик Радиоси»нинг биргина Марказий Осиё (*Козогистон, Ўзбекистон, Қирғизистон, Тожикистон ва Туркменистон*) хизматлари учун АҚШ бюджетидан 2017-2018 йилларда мос равишда 7 млн 975 минг ва 9 млн 314 минг доллар ажратилган ва бу кўрсаткич йилдан йилга ошиб бормоқда. АҚШ Давлат департаменти ва Марказий разведка бошқармаси «Озодлик Радиоси»ни нафақат молиявий жиҳатдан, балки ёритилиши лозим бўлган ахборотлар билан ҳам таъминлайди ҳамда шу йўналишда кўрсатмалар бериб боради.

Бугунга келиб совуқ уруш тугаган бўлсада, юқоридаги ОАВлар фаолияти тугатилмади, балки уларни молиялаштириб турган давлатлар ва махсус хизматлар томонидан бошқа геосиёсий мақсадларига йўналтирилди. Улар ҳозиргача маълум бир давлатга (давлат раҳбарига, юқори элита вакилларига ёки аҳолига) таъсир ўтказиш учун бир тарафлама, ноҳолис ахборот тарқатишда, ўз усулларини такомиллаштиришда давом этишяпти.

МДҲ ва яқин шарқ давлатларида содир этилган давлат тўнтаришлари - “рангли инқилоблар” (“цветная революция”) ташқи кучлар томонидан мақсадли равишда аҳолига нисбатан амалга оширилган ахборот хуружининг натижасидир.

Бунда хорижий давлатлар ва уларнинг махсус кучлари томонидан молиялаштирилаётган ОАВларининг роли жуда катта ҳисобланади.

Шу билан бирга, улар амалдаги тузумни обрўсизлантириш ёки уни ағдариш мақсадида “бешинчи колонна” (“пятая колонна”) вакилларидан ҳам кенг фойдаланишмоқда.

“Бешинчи колонна” бу - Испания республикасида 1936-1939 йиллардаги фукаролик уруши даврида генерал Франко агентурасининг номи. Фашист исёнчиларининг 4-колоннаси Мадридга ҳужум қилаётган вақтида улар шаҳар ичкарасида 5-колонна бўлиб жангга киришган. “Бешинчи колонна” атамаси шундан келиб чиққан. Бугунги кунга келиб “Бешинчи колонна” атамаси давлатлар ичидаги турли кўринишдаги душманларга нисбатан ишлатилади. Улар чет эл махсус хизматлари ва ғоявий марказлари томонидан ёлланган террористик ташкилотлар аъзолари, сиёсий гуруҳлар, бизнес эгалари, кўпорувчи кучлар, қасд олиш илинжида юрган “аламзадалар” ва бошқалар бўлиши мумкин.

Одамларни манипуляция қилиш ҳам ўзига хос қуролдир. Манипуляция бу онг устидан ҳукмронлик ўрнатиш бўлиб, унда инсон руҳияти, ҳатти-ҳаракатлари ва дунёқарашига таъсир кўрсатилади. ОАВлари фаолиятида қўлланилиши нуқтаи назаридан, манипуляцияни инсон тафаккури устидан назорат ўрнатиш дея баҳолаш мумкин.

Бугунги дунё воқеликлари – манипуляциянинг яққол кўринишидир, бироқ бу алоҳида шахслар онгига таъсир кўрсатиш эмас, бутун бир миллатлар, жамиятлар онгига таъсир кўрсатишдир. Одамларга уларнинг қадриятлари ва қарашларига моҳиятан зид бўлган сохта мақсадлар осонликча сингдирилмоқда. Муаммо шундаки, аудиториянинг аксар қисми ўзи қабул қилаётган ахборот оқимини таҳлил қилиш, жуда бўлмаганда, ўша маълумотларнинг тўғри ё нотўғрилигини текшириб кўришни истамайди. Ахир ахборотни шунчаки қабул қилиш унга баҳо бериш, танқидий назар солишдан анча осонроқдир. Бу – маълумотларнинг муваффақият қозонишини таъминлаб турадиган асосий жиҳатдир.

Аксарият рус олимлари, Сергей Георгиевич Кара - Мурзанинг манипуляция ҳақидаги қарашларини қўллаб-қувватлаган ҳолда Ғарб, хусусан Америка ОАВларини “онгни захарловчи машина”, “руҳий террор воситаси” каби таърифлар билан ёнма-ён қўяди, аудиторияни эса ахборотни пассив қабул қилувчи кишилар уюшмасидан иборат, деб ҳисоблайди: “Муваффақиятли манипуляциянинг биринчи (эҳтимол асосий) шарти шундаки, кўп ҳолларда фуқароларнинг аксарияти хабарларнинг тўғрилигидан шунчаки шубҳаланиш учун на руҳий, на ақлий қувватини, балки вақтини ҳам сарфлагиси келмайди. Чунки, пассив равишда ахборот “оқими” билан бирга “сузиш”, ҳар бир сигнални танқидий нуқтаи назардан қабул қилишга қараганда анча осон”.

Муштарак айтганда, ОАВлари ёрдамида жамоатчилик фикри устидан доимий равишда назорат ўрнатиб бориш мумкин. Бу жараёнлар аввалдан мавжуд бўлиб келган. Бироқ бугунги глобаллашув даврида ОАВнинг манипулятор сифатидаги имкониятлари янада кенгайди. Манипулятив механизмлар ахборот урушларининг ажралмас қисмига айланиб улгургани ҳар бир ривожланган мамлакатда бу мавзуга оид илмий тадқиқот ишларининг олиб борилишини тақозо қилмоқда.

Бугунги кунда Ғарб ОАВларида эълон қилинаётган маълумотлар таҳлилидан келиб чиқиб, Россия Федерацияси ва Ғарб давлатлари ўртасида “совуқ уруш” давридагидан қолишмайдиган даражада гибрид урушнинг таркибий қисми сифатида ахборот уруши бўлаётганлигини гувоҳи бўлаяпмиз.

Энг ёмони, ахборот хуружлари таъсирига кўпинча ёшлар тушиб қолмоқда. Хориждаги махсус кучлар ва уларнинг раҳнамолигидаги халқаро ташкилотлар сиёсий онги етарлича шаклланмаган ёшларни онгини турли ёт унсурлар билан захарлашга уринишмоқда.

Давлатимизнинг биринчи президенти И.Каримов “...бугунги замонда мафкура полигонлари ядро полигонларидан ҳам кўпроқ кучга эга”, деб бежизга таъкидламагандилар. Чунки, бугунги кунда ижтимоий тармоқлар орқали жуда катта ҳажмдаги маълумотлар оқими кириб келаётган бўлса, улар орасида диний фундаментализм, экстремизм, терроризм, наркомафия, одам савдоси,

фохишабозлик, бесақолбозлик ва бошқа менталитетимизга ёт бўлган ғояларни илгари сурувчи маълумотлар ҳам кўпчилиكنи ташкил этади.

Шу боисдан ахборот хуружларига қарши кураш учун энг аввало аҳолида, айниқса ёшларда ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш маданиятини шакллантиришга қаратилган ҳуқуқий чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва уни амалда жорий этиш зарур. Халқаро интернет тармоғида эълон қилиб борилаётган ахборот хуружларини аниқлаш, таҳлил қилиш ва мониторингини юритиш ҳамда уларга қарши аксилтарғибот тадбирларини амалга оширувчи давлат институтларини (ОАВларини) ташкил этиш керак. Ижтимоий тармоқларда нотўғри, асосланмаган, ёлғон маълумотларни тарқатувчиларга қарши қонунда назарда тутиладиган қаттиқ жазо чораларини қўллашни жорий этиш лозим. Давлатимиз ичидаги “бешинчи колонна” ни аниқлаш ва уларга нисбатан тегишли чораларни кўриш тизимли тарзда давом эттирилиши талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Экспериментал психология”. Баротов Ш.Р., Олимов Л.Я.
2. “Психоанализ асослари”. Отажонов М.
3. “Ҳарбий санъат тарихи”. Ўқув-қўлланма. 2010 йил
4. “Манипуляция сознанием” С.Г. Кара-Мурза
5. Интернет материаллари.

O'SPIRINLIK DAVRIDA STRESS HOLATI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Saburova Ma'rufa Mirzayevna
Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani 46-maktab psixologi

Kundalik hayotning tobora shiddatli tus olayotgani insonga bo'layotgan axborot xurujining ko'pligi, ijtimoiy muammolarning haddan ziyod zidlashuvi natijasida asablarning taranglashishi juda ko'p insonlarni stress holatiga duchor etmoqda. O'z navatiga ko'ra o'spirinlik davri ham undan mustasno emas. Bu kabi muammolar insonlarning yosh davrlar psixologiyasiga ko'ra har xil namoyon bo'ladi. Olimning

talqiniga binoan, go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarsa, bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oraliqida o'sish davri o'smir oldi yoshidan iborat bo'lib, toki 12-13 yoshga qadar davom etadi. Bu davr olimlar tili bilan aytganda yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho'qqisiga hamohangdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilishidan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib boradi.

Psixologik zo'riqishlar organizmning turli funksional tizimlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib, oshqozon yarasi yoki yurak infarktigacha olib kelishi mumkin. Hissiy zo'riqishlarning namoyon bo'lishi har bir shaxs uchun turlicha bo'ladi. Kimdadir kayfiyat yoki hayajon bo'lsa, kimdadir stres va tushkunlik ko'rinishida o'tadi. Kun tartibining buzilishi, uyquning qisqarishi, ish vaqtining tungi davrga o'tib qolishi, foydali odatlardan voz kechish, hissiy zo'riqishlarni bartaraf etishning mos keluvchi usullarini topa olmaslikda ko'rinadi. Ijtimoiy rollarga xos vazifalardagi buzilishlar, yaqinlar va do'stlar bilan munosabatga yetarlicha vaqt yetishmasligi, nizolarning kuchayishi, muloqot davomida sezgirlikning pasayishi, ijtimoiy qoidalarga zid xulq-atvor belgilarining ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, uzoq muddat hissiy zo'riqishda bo'lgan o'spirin ijtimoiy me'yor va standartlarga e'tiborsiz bo'lib qoladi. Hatto o'zining tashqi ko'rinishiga ham e'tibor bermasligi mumkin. Bunda muhim ob'ektlar ustida diqqatning to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'ish kuzatiladi.

Ongning doimo hissiy zo'riqishni vujudga keltirgan sabablarini tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo'llarini axtarish xotira ko'lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushirishni qiyinlashtiradi. Aqliy faoliyatning susayishi stressni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan vaziyatdan chiqish yo'llarini topishni cheklaydi.

Bu salbiy ko'rsatkichlarni bartaraf etish eng katta vazifalardan biridir. Psixologiya fanining markaziy kategoriyasi hisoblanmish shaxs ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan funksiyalarni bajarish orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'spirinlik davrida psixologik muammolarni bartaraf etish hamda tarbiyalash masalalari hozirgi davrning eng dolzarb muammosiga aylangan.

Bugungi kunda kelajak avlodga taʼsir qilayotgan hamda uning kechinmalarini oʻzgartiradigan ichki va tashqi omillarni koʻz oldimizga keltirish juda qiyin. Shunday qilib stress oʻzi nima?

Stress – inglizcha (stress) soʻzidan olingan boʻlib, asabiylik, keskinlik degan maʼnolarni anglatadi. Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlar xaddan oshib ketishi, xavfli vaziyat tugʻilgan paytlarda, zarur choralarni zudlik bilan topishga majbur boʻlganda vujudga keladigan ruhiy holatdir. Stressning psixologik taʼrifiga kora affektiv holatga yaqin turadi. Stress kishining oʻta faol yoki oʻta sust harakatida ifodalanadi. Hissiy zoʻriqish holatida individning hatti-harakati kishi nerv tizimining tipiga, nerv jarayonlarining kuchliligi yoki oʻzligiga jiddiy ravishda bogʻliqdir. (Masalan, imtihon oldidagi holat). His-tuygʻularning hissiyot (emotsiyalar), kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chogʻida maʼlum darajada seziladigan tashqi belgilariga ham ega boʻladi. Yuzning ifodali harakatlari (mimika), qoʻl va gavdaning maʼnoli harakatlari, kabilar shular jumlasiga kiradi. Kishi oʻzining qahr-gʻazabini tevarak atrofdagilarga qoʻllarini musht qilishi, koʻzlarini chimirib qarash, doʻq – poʻpisali ohang bilan namoyish qiladi.

Stressning sodir boʻlishiga asosan ikki yoʻnalishdagi omillar sabab boʻladi:

Ish faoliyatidan qoniqmaslik stressga sabab boʻluvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. Oʻspirin undan nima kutilayotganligini, bu ishni qanday qilish kerakligi va bu ish qanday baholanishini bilsagina xotirjam ishlaydi. Ish qobiliyati va omadsizlik inson salomatligiga qattiq taʼsir koʻrsatadi. Haddan tashqari koʻp ish yoki, aksincha, ishsizlik xam stressga olib keladi. Bunday sabablar tufayli sodir boʻlgan asabiylashish eng koʻp tarqalgandir. Tekshirishlar shuni koʻrsatadiki, ish qancha qiziqarli boʻlsa, inson shuncha kam bezovtalanadi, kam betob boʻladi. Yana bu sabablarga qoʻshimcha yomon ish sharoitlari, ish jarayonida odamlarning bir-biriga asossiz talablarni qoʻyishi, oʻquvsiz ota-onaningning oʻquvsiz muomalasi, demotivlashtirishning ustuvor ekanligi va boshqalar ham stressni vujudga keltiradi. Xullas oʻspirinlik davrida stressni bartaraf etish, uning tasir doirasini kamaytirish eng muhim choradir. Eng avvalo nazorat koʻproq natija beradi. Stressni bartarafetishda asosan inson sabr-qanoatli boʻlish, har qanday mushkul vaziyatga tayyor boʻlish, oʻzini chalgʻitish lozim. Mashakqatli mehnatni

yaxshi dam bilan birga olib borish, hech bo'lmasa bir oz orom olish, tinchlanish kerak. Ishda xush fe'l, tavozelik bo'lish, o'zaro hurmat va xushmuomalali inson bo'lish lozim.

Stressni bartaraf etish uchun birinchi navbatda shaxs psixologik jihatdan tashqi ta'sirlarga nisbatan ongli munosabat (psixologik immunitet)ni shakllantira olishi zarur.

1. Har qanday stress holatini yengish uchun uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va xolisona baholash darkor.

2. Yuz bergan stress holatini bartaraf etish uchun aniq yo'l-yo'riq izlab topish kerak.

3. Biror muammo va tashvishga duchor bo'lsangiz, bu haqda kamroq o'ylashga va doimo nima bilandir band bo'lishga harakat qiling. Mehnat sizning qalbingizdan behalovatlik tuyg'usini siqib chiqaradi.

4. Arzimagan narsalarni deb asabingizni yeb tugatmang. Hayotda nima muhim va nomuhimligini anglab oling. Arzimas narsalarning aksariyati umringizni qisqartiradi.

Stress holatiga tushgan shaxs xuddi shu stressga qarshi quyidagi usul va vositalarni qo'llash yaxshi natija beradi:

a) stress holatiga nisbatan antistress kayfiyatini shakllantirish (ro'y bergan vaziyat, holat, emotsiyalarga nisbatan o'z ruhiyatidagi munosabatni o'zgartirish);

b) ko'proq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish (badantarbiya, sport turi, jismoniy mehnat);

v) o'z-o'zini bo'shashtirish (rasslabneniya) tananing oyoq uchi qismidan to qo'l barmoqlarigacha bo'shashishga erishish ;

g) autotrening (O'z-o'zini ishontirish)

d) relaksatsiya (o'z-o'zini yengillashtirish) orqali stress holatiga barham berish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Stress,nafaqat o'spirinlik,balki barcha yosh davrlarida xam shaxs taraqqiyotiga muxim to'siq bo'luvchi omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008 y.
2. Y.Jumanazarov"Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013 y.

3. Т.Содиқова “Sevib qolgan qizning onasiga maslaxat” qo’llanma. Toshkent 2018.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ИЛМИЙ ИЖОДИЙ МЕРОСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

*Норқобил Қулматов
Самарқадд ветеринария медицинаси
институтини Тошкент филиали катта ўқитувчиси*

“Бобур Мирзо халқимизнинг буюк фарзанди. Адабиёт, илм, маърифат нуқтаи назаридан у ҳамон яшаяпти. Ўзлигимизни англаб, буюк тарихимизни ёшларга тушинтирсак, илм-маърифатни ривожлантирсак, ҳеч қачон кам бўлмайди”.

Ш.М.Мирзиёев

Истиқлол шароитида Янги Ўзбекистон ёшларини иймон-этиқодли, миллий ғояга садоқат, бир-бирларига меҳрли оқибатли, ўз Ватанига, миллати, дини, тили, тарихи, маданияти урф-одатларига ҳурмат руҳида тарбиялаш бугунги куннинг энг долзаб вазифаларидан биридир. Зеро, янги Ўзбекистон ёшларини янгича тафаккур асосида тарбиялаш орқали миллий ғоянинг ҳаётбахш инсонпарварлик томоийилларига, умумбашарий қадриятларга мос келадиган хулқ-атвори шакллантириш ва камолга етказиш, яъни жамиятда меҳр-мурувват маданиятини қарор топтириш мумкин. Шу нуқтаи назардан бугунги янги Ўзбекистон ёшларини ватанпарварлик руҳида тарбиялашда Заҳириддин Муҳаммад Бобур илмий ижодий меросида илгари сурилган ғоялар муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти И.А.Каримов таъкидлаганидек, “Бобомиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур номи билан ҳар қанча фахрлансак арзийди. Ўзбек халқининг доврўғини дунёга таратган улуғ аждодларимиздан бири ўлароқ, ул зот бизни тарихимизни қадрлашга, келажакка буюк ишонч билан қарашга ўргатади. Бобур ўзбек халқининг буюк фарзанди, миллий ғуруридир”[1.158]. Ҳар бир инсон ўзлигини англашга, аждодлари ҳақида кўпроқ билишга, улар ҳаётини ўрганишга интилади. Бу борада эса ўтмиш аждодларимиз улуғ бобоколонларимизнинг

тарихий асарлари беқиёс аҳамиятга эга. 2018 йил 23 февралда “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепсияси”нинг қабул қилинганлиги янги Ўзбекистон ёшларини миллий ғоя ва Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг қалби ва онгига Ватан ҳимояси шарафли ва муқаддас бурч эканини чуқур сингдириш, қадимий тарихимиз ва маданиятимиз, жонажон Ватанимизнинг мустақиллиги ва равнақи йўлида фидокорона курашган миллий қаҳрамонларимиз билан фахрланиш, уларга муносиб бўлиш туйғусини шакллантириш кабилар асосий вазифалар этиб белгиланган. Ўзбек тилининг изохли луғатида: Ватан — кишининг туғилиб ўсган ўлкаси, шаҳри, она юрти, диёри, ҳар бир фуқаро учун мамлакат, турар жой, бошпана, маскан, уй маъноларини ифодалаши кўрсатилган. Инсон улғайган сари унинг Ватан ҳақидаги тушунчалари ҳам кенгая боради. Юртимизда туғилиб-ўсган ҳар бир инсон “Ватаним” деганида аввалам бор ўз уйини, қишлоғини ёки шаҳрини эмас, балки Ўзбекистон Республикасини назарда тутди. Бу эса, Ватан туйғусининг, ватанпарварликнинг халқимиз қалбидаги ифодасидир.

Кўплаб улуғ ўтмиш аждодларимиз бобокалонларимизнинг илмий асарлари ва бой маънавий мероси сингари Заҳириддин Муҳаммад Бобур илмий ижоди ва маънавий мероси ҳам ёшларимиз учун бебаҳо ибрат ва намуна сифатида Ватанни севиш, ватанга садоқат, ватанпарварлик, ота-онага ҳурмат, дўстга садоқат кўрсатиш хусусидаги фикрлари бугунги янги Ўзбекистон ёшларига таълим-тарбия беришда ва уларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда юксак маънавий сабоқ беради. Истеъдодли олим ва ўта зиёли инсон, машҳур давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобур мураккаб ижтимоий-тарихий даврда яшаб ижод қилган. Ҳар бир халқнинг тарихий, маданий-миллий қиёфасини аниқ белгиловчи улуғ шоҳлари, буюк олимлари, йирик адиб ва шоирлари бўлади. Инсониятнинг абадиятга мансуб ана шундай буюк фарзандлари сафида бобомиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам ўзбек миллий давлатчилик тарихимизда ўз ўрни ва мавқеига эга. Инсоният тарихида Бобур бобомизчалик шахсий имкон, иқтидор ва фазилатлари беқиёс инсонлар жуда кам учрайди. Бобурмирзо – улуғ ва мартабали подшоҳ, мумтоз шоир, назарийётчи адабиётшунос, фақих, тилшунос, санъатшунос,

этнограф, ҳайвонот ва наботот оламининг билимдони сифатида ўз даврининг кўп қиррали фаолият ва ижодкор соҳиби эди. Барчамизга яхши маълумки, ватанпарварлик ҳар бир давлат ҳаётининг маънавий асоси ҳисобланади ва жамиятни ҳар томонлама ривожлантириш борасида энг муҳим сафарбар этувчи куч сифатида намоён бўлади. Ватанпарварлик - бу инсоннинг ўз Ватанига муҳаббатини, уни асраб- авайлашга бўлган иштиёқини, Ватан олдидаги масъулият ва бурчини англатувчи ахлоқий тушунча. Жамият тараққиёти ҳар бир шахсдаги ватанпарварлик туйғуси билан боғлиқ. Бу ҳақда фикр юритганда Муҳтарам Юртбошимиз Шавкат Мирзиёев 2018 йил 28 декабрда Олий Мажлисга қилган Мурожаатномасида: “Буюк аллома ва адибларимиз, азиз-авлиёларимизнинг бебаҳо мероси, енгилмас саркарда ва арбобларимизнинг жасоратини ёшлар онгига сингдириш, уларда миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини кучайтиришга алоҳида эътибор қаратишимиз керак”[2.] Халқимизнинг буюк тарихий мероси ватанпарвар инсонларни тарбиялашда муҳим аҳамиятга эга. 2018 йилнинг 23 феврилида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепсиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги концепсиясида “Қадимий тарихимиз ва маданиятимиз, жонажон Ватанимизнинг мустақиллиги ва равнақи йўлида фидокорона курашган миллий қаҳрамонларимиз билан фахрланиш, уларга муносиб бўлиш туйғусини шакллантириш, миллий армиямизнинг қудрати ва салоҳиятига бўлган ишончни кучайтириш”[3] масаласи ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг асосий мақсади ва вазифаларидан бири сифатида келтирилади. Ватанни англаш, унга муҳаббатни ҳис қилиш учун тарихга назар ташламоқ керак.

Ёшларни Ватанга садоқат руҳида тарбиялашда, миллий қадриятларимизга эҳтиром, юрт тараққиётига даҳлдорлик ҳисси ва мустаҳкам фуқаролик позициясини шакллантиришда Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижоди ўзига хос ўрин тутди. Олий Мажлис Сенатининг янги таркибдаги илк мажлисида сўзга чиққан Президентимиз Шавкат Мирзиёев миллий тарихни англашнинг аҳамияти ҳақида тўхталиб, куйидаги фикрларни илгари суради. “Яқинда Хавфсизлик кенгаши йиғилишида Заҳириддин Муҳаммад Бобур бобомиз ҳақида гапирдим.

Бобур 12 минг аскар билан 100 минг аскарни енгган. Ўша пайтда шундай қилиш мумкинмиди? йўқ. Бобомизга нима ёрдам берди? Ватанпарварлик, ғурур, ифтихор, ақл-заковат”. Ўз даврида Бобур жуда мураккаб ҳаёт, кураш ва ижодий фаолият йўлини кечиб ўтди. У инқирозга юз тутган темурийлар давлатини сақлаб қолиш ва мустақкамлаш, Ўрта Осиёда марказлашган йирик давлат вужудга келтириш учун узоқ ва қаттиқ кураш олиб борди. Барчамизга яхши аёнки, тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам бу - илм-фан, таълим ва тарбиядир. Эртанги кунимиз, Ватанимизнинг ёруғ истиқболи, биринчи навбатда, таълим тизими ва фарзандларимизга бераётган тарбиямиз билан чамбарчас боғлиқ. Бугунги глобаллашув жараёнлари шиддат билан ривожланиб бораётган замонда янги Ўзбекистонимизнинг ёшлари ўз дунёқарашларида миллий-маънавий қадриятга таянмаса уларнинг онги ва тафаккурида мутлақо бегона қадриятлар жой олади. Ўзининг миллий-маънавий қадриятларига нисбатан беписандлик билан қараш шаклланади. Ана шу беписандлик шаклланишининг олдини олиш учун энг аввало ёшларимиз онгига Оллох назари тушган бу табаррук заминда не-не буюк зотлар, олиму-уламолар, сиёсатчи ва саркардалар етишиб чиққани, Она юртимиз нафақат Шарқ, балки жаҳон цивилизацияси бешикларидан бири бўлгани ҳақида, қолаверса, аждодларимиз тафаккури ва даҳоси билан яратилган энг қадимги тош ёзув битиклар, халқ оғзаки ижоди намуналаридан тортиб, бугунги кунда кутубхоналаримиз хазинасида сақланаётган минг-минглаб қўлёзмалар уларда мужассамлашган тарих, адабиёт, санъат ва бошқа соҳаларга оид қимматбаҳо асарлар бизнинг буюк маънавий бойлигимиз эканлигини сингдириш шарт ва лозимдир. Янги Ўзбекистон ёшларини ватанпарвар инсонлар бўлиб тарбияланишида халқимизнинг тарихий мероси катта аҳамиятга эга. Шу сабабли тарихий меросни асраб-авайлаш, ўрганиш ва келажак авлодларга қолдириш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Буюк саркарда, улуғ мутафаккир ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодий мероси миллий-маънавий меросимизнинг дурдоналаридан ҳисобланади.

Буюк аждодимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур битган асарлар ёш авлод вакиллари ватанпарварликка, комилликка ундаб, меҳр-оқибатли, яхши хулқ-атвор эгаси бўлиб вояга етишига даъват этиб туради. Шу боис, бу бебаҳо меросни асраб-авайлаш, кенг тарғиб қилиш, аллома асарлари мазмун-моҳиятини теран англаш бугунги глобаллашув даврида муҳим вазифаларимиздан бирига айланиши лозим. Унинг ижоди ўзликимизни англаш, тарихимиз ва миллий кадриятларимизни чуқур ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Бобур ижодида ватанпарварлик туйғуси етакчи ўринни эгаллайди. У уламоларнинг жоҳиллиги, амалдор текинхўрларнинг шафқатсизлигидан ғоят афсусланади, У Ватанга муҳаббат ва садоқат шахснинг ватанпарварлиги, етуклиги, миллий ифтихори каби фазилатларида акс этишини таъкидлайди. Юксак бадиий дид, чин инсоний ахлоқ соҳиби бўлган Бобур қайси шаҳарда, қайси давлатда бўлмасин, халқлар ўртасида ватанпарварликни кенг тарғиб этади. Ўз даврининг етук саркардаси Заҳириддин Муҳаммад Бобур мамлакат бир бутунлиги ва мустақиллигини сақлаш, уни ташқи душмандан ҳимоя қилиш, мамлакат ҳарбий салоҳиятини кучайтиришни миллий давлатчилик фаолиятининг энг муҳим мақсадларидан бири, деб билган. Унинг эътирофича, мамлакат бирлиги ва мустақиллиги учун энг катта хавф-бу ташқи душмандан кўра мамлакат ичидаги ўзаро низолар. Ота-бола, ака укалар ва айирмачи кучлар ўртасидаги тожу тахтни эгаллаш учун бўлган урушлар ҳисобланади. Шунингдек, миллатлар ўртасидаги тинчлик, дўстлик, ҳамжиҳатликни улуғлайди. Миллатлараро тотувлик ғояси бобурийлар сулоласи томонидан ҳам қўллаб-қувватланиб, давлат сиёсати даражасига кўтарилган. Бу ҳақида Жавоҳарлал Нерунинг “Дунё тарихига назар” асарида ҳам эътироф этилган: “Бобур беқиёс даражада маданий, дилбар шахслардан бири эди, – дейди Неру. У мазҳабпарастликка хос маҳдудлик ва диний мутаассибликдан йироқ эди”.

[4] Ушбу жумлаларга ҳамоҳанг сифатида муҳтарам Президентимиз таъкидлаганидек: “Зеъро, бугун инсоният ғоявий урушлар, маънавий зиддиятлар, зўравон ғояларнинг дунёни қайта тақсимлашга қаратилган ўйинлари авж олган шиддатли замонда яшаяпти. Ҳозир бузғунчилик, ахлоқсизлик ва маънавий инқирозлар ҳар қачонгидан ҳам хатарли тус олмоқда. Ёшларимиз бундай

шароитларда ҳамиша хушёр ва огоҳ бўлиши, фитнес ва ғаразли мақсадлар, манфаатдор кучлар турганини бир лаҳза ҳам унутмасдан, ёшлигиданоқ соғлом тафаккурни шакллантириш лозим”. [5.Б-488.] Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки улуғ бобомиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижоди ва фаолияти ҳар бир ўқувчи ва талаба ёшнинг ватанпарвар бўлиб шаклланишида муносиб ўринга эга бўлиб, катта тарбия мактаби ҳисобланади. Заҳириддин Муҳаммад Бобур сингари ўзбек халқининг улуғ фарзанди ижодини ўрганиш янги Ўзбекистон ёшлари учун ўзликни англаш тимсолидир. Аждодларимиз томонидан халқимизга қолдирилган ушбу мерос қалбимизда уларга нисбатан фахр ва ғурур туйғуси жўш уришига сабаб бўлади. Ҳар бир ватанимиз фуқароси бой тарихимизни, улкан маънавий-маданий меросимизни, қадриятларимизни, анъана ва урф-одатларимизни тўғри англаб етса, уларни кўз қорачиғидай асраб-авайласа, аждодларимиз ва улар қолдирган шонли тарих, маънавий-маданий меросга нисбатан тўғри муносабатда бўлса ва албатта “Учинчи ренессансга” муносиб ҳисса қўша олса, ота-боболаримизга муносиб фарзанд бўлган бўламиз.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг мероси, ҳаёт йўли, ватанпарварлик фазилати эзгулик, одамийлик ва инсонпарварликнинг қимматли намунаси. Зеро, Президентимиз таъкидлаганидек, “Ёшлар – Хоразмийлар, Фарғонийлар, Беруний ва Ибн Синолар, Улуғбек Навоий ва Бобурлар авлодидир. Мен ёшларимизга мурожаат қилар эканман, уларга доимо: “Биз буюк аждодларимиз билан фахрланишимиз, ғурурланишимиз керак”, деб айтаман. Айни вақтда “Фақат ғурурланишнинг ўзи етарли эмас, келинлар, ўзимиз ҳам, худди улар каби, мана шу бебаҳо меросга ўз ҳиссамизни қўшайлик!” деб такрорлайман”. [6]

Адабиётлар рўйхати

- 1.И.А.Каримов. Маънавий юксалиш йўлида. Тошкент. 1996.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.28-12- 2018.
3. “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” Вазирлар Маҳкамасининг 23.02.2018 йил 140-сон қарори.
4. Неру Ж. Дунё тарихига назар. // Жаҳон адабиёти, 1997, 4-сон, 181-б.

5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. -Б.488.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 25 декабрдаги Ўзбекистон Ёшлари Форумида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи.газетаси 2020 йил 26 декабр

ТАЛАБАНИНГ ЎЗ-ЎЗИГА БЕРГАН БАҲОСИНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИРИ

Бобур Авлақулов
ЎзМУ “Ижтимоий фанлар факултети”
Психология кафедраси магистранти

Университетда ўқиш даври ва талабанинг бу жараёнда юзага келадиган муаммоларни қандай енгизиши унинг келажакдаги ҳаёти учун жуда муҳим. А. Маслоу ўрганишни бутун умр давом етадиган ва синф деворлари билан чекланмаган жараён деб ҳисоблайди.

Шахснинг бу ҳаётда ўзини қандай кўриши, ўз олдига қандай мақсадлар қўйиши, уларга қандай еришиши, қийинчиликларни енгизиши кўп жиҳатдан Университетда ўқиш даври билан белгиланади. Муваффақиятликнинг бир неча ўзаро боғлиқ сабаблари бўлиши мумкин. Психологлар (Менчинская, Степанов) ёмон тараққиётнинг асосий сабаблари, биринчи навбатда, когнитив фаолиятдаги турли хил камчиликлардир; иккинчидан, талабаларнинг мотивацион соҳасини ривожлантиришдаги камчиликлар.

Ўз-ўзини ҳурмат қилиш, яъни шахснинг ўзини, унинг имкониятларини, фазилатларини ва бошқа одамлар орасидаги ўрнини баҳолаши, инсон хатти-ҳаракатларининг тартибга солувчиси бўлиб, унинг фаолияти самарадорлигига таъсир қилади. Потенциал ўз-ўзини ҳурмат қилиш кўпинча интилиш даражаси деб аталади. Даъволар даражаси фаолиятдаги муваффақият ёки муваффақиятликнинг субъектив тажрибалари таъсири остида шаклланади.

Шундай қилиб, ўз-ўзини баҳолаш ва у билан боғлиқ даъволар даражаси ўқитиш самарадорлигига таъсир қилувчи энг муҳим мотивацион омиллардир.

Аммо ўз-ўзини баҳолашнинг машғулот муваффақиятига таъсири аспекти кам ёритилган, натижада биз ўз тадқиқотимизда ушбу муаммога мурожаат қилишга қарор қилдик, чунки бу бизга энг қизиқарли бўлиб туюлади ва унинг моҳиятини очиб беради. Ушбу масала бўйича кураторлар ва ўқитувчилар натижани амалиётда қўллашлари мумкин бўлади.

Тадқиқот мақсади:

Талабаларнинг ўз-ўзини баҳолашнинг Университетда ўқув фаолиятига таъсирини очиб бериш.

Тадқиқот объекти:

Талаба ва таълим масканидаги ўқув фаолияти.

Тадқиқот мавзуси:

Талабаларнинг ўзини ўзи баҳолашнинг ўқув фаолиятига таъсири.

Тадқиқот мақсади, объекти, предмети ва гипотезасига мувофиқ қуйидаги вазифалар белгиланади:

-Ўрганилаётган муаммонинг назарий таҳлилини ўтказиш;

-Ўз-ўзини ҳурмат қилишнинг Университетда ўқитиш муваффақиятига таъсирини эмпирик тадқиқ қилиш тартибини ишлаб чиқиш ва усулларини аниқлаш.

-Ўз-ўзини ҳурмат қилиш даражаси ва университетда ўқиш муваффақияти ўртасидаги боғлиқликни ўрганиш.

Тадқиқотни ташкил этиш усуллари:

Эмпирик тадқиқот

Тадқиқотнинг асоси:

Тадқиқотда бир гуруҳ талабалар иштирок этди. Респондентларнинг умумий сони 42 кишини ташкил этди.

Ўз-ўзини ҳурмат қилиш инсон шахсиятининг омили ва унинг келиб чиқиши.

Ўз-ўзини баҳолаш тушунчаси ва унинг мазмуни

Мен-концепция доирасида, ўз-ўзини англашнинг мазмуни сифатида, тадқиқотчилар ўз-ўзини ҳурмат қилишни инсоннинг ўзини, унинг

имкониятларини, фазилатларини ва бошқа одамлар орасидаги ўрнини баҳолаши сифатида белгилайдилар. Петровский А.В. "Ўз-ўзини ҳурмат қилиш - бу ҳақиқий "мен" нинг "мен" идеалига ўзига хос проекциясининг натижасидир".

“Ўз-ўзини ҳурмат қилиш - бу шахснинг ўзига бир бутун сифатида берадиган қадрияти, аҳамияти ва унинг шахсияти, фаолияти, хулқ-атворининг маълум жиҳатлари . Ўз-ўзини ҳурмат қилиш нисбатан барқарор таркибий шаклланиш, И-концепциясининг таркибий қисми, ўзини ўзи билиш ва ўзини ўзи баҳолаш жараёни сифатида ишлайди. Ўз-ўзини ҳурмат қилишнинг асоси - бу шахснинг шахсий маънолари тизими, у томонидан қабул қилинган қадриятлар тизими. У шахсиятнинг марказий шаклланиши ва И-концепциясининг марказий таркибий қисми сифатида қаралади.”

Ўз-ўзини ҳурмат қилиш инсоннинг хатти-ҳаракати ва фаолиятини тартибга солишда бевосита иштирок этадиган шахсий шаклланиш, шахснинг ўзига хос хусусияти, унинг марказий таркибий қисми сифатида талқин этилади, у шахснинг ўзи фаол иштирокида шаклланади ва ўзига хослигини акс эттиради.

Унинг ички дунёси.

Т.Шибутани ўз-ўзини ҳурмат қилиш ҳақида қуйидагича гапиради: “Агар инсон қадриятлар ташкилоти бўлса, унда бундай функционал бирликнинг ўзаги ўз-ўзини ҳурмат қилишдан иборатдир”.

Ўз-ўзини англаш муаммоларини ўрганиш доирасида ўз-ўзини ҳурмат қилиш етакчи рол ўйнайди:

У ушбу жараённинг ядроси, унинг ривожланишининг индивидуал даражасининг кўрсаткичи, жараёнга органик равишда киритилган шахсий жиҳати сифатида тавсифланади.

Ўз-ўзини билиш, ўз-ўзини баҳолаш ўз-ўзини билишнинг баҳолаш функциялари билан боғлиқ бўлиб, у шахснинг ўзига нисбатан ҳиссий ва қадриятли муносабатини, ўзини ўзи тушунишининг ўзига хослигини ўз ичига олади.

Б.Г. Ананиев ўз-ўзини ҳурмат қилиш - бу ўз-ўзини англашнинг энг мураккаб ва кўп қиррали таркибий қисми деган фикрни билдирди (бир вақтнинг ўзида юзага келадиган, ўз-ўзини билвосита билишнинг мураккаб жараёни, бундай интеграция

орқали ягона, вазиятли тасвирлардан ҳаракат қилиш билан боғлиқ. Ситуацион тасвирлар яхлит шаклланишга - шахснинг ривожланишида иштирок этган бошқаларни баҳолашнинг бевосита ифодаси бўлган ўз “**Мен**”и тушунчаси).

Ўз-ўзини ҳурмат қилиш, ўз-ўзини ҳурмат қилиш, хушёқиш, ўзини ўзи қабул қилиш ва бошқалар билан бир қаторда ўзига муносабат элементи сифатида ҳам кўриб чиқилади. Демак, И.С. Кохн ўз-ўзини ҳурмат қилиш ҳақида гапириб, уни “**мен**” нинг якуний ўлчови сифатида белгилайди, шахс томонидан ўзини қабул қилиш ёки рад етиш даражасини ифодалайди.

А.Н.Леонтиев ўз-ўзини ҳурмат қилишни “ҳиссиёт” деб баҳолайди.

Ўз-ўзини баҳолашнинг тузилиши ва унинг вазифалари.

Ўз-ўзини ҳурмат қилишнинг тузилиши иккита компонент билан ифодаланади - когнитив ва ҳиссий. Биринчиси, инсоннинг ўзи ҳақидаги билимини, иккинчиси - ўзига бўлган муносабатини ўз-ўзини қондириш мезони сифатида акс эттиради.

Ўз-ўзини баҳолаш фаолиятида бу компонентлар ажралмас бирликда ишлайди: на бири, на иккинчиси соф шаклда ифодаланиши мумкин эмас. Ижтимоий контекстда субъект томонидан олинган ўзи тўғрисидаги билим муқаррар равишда ҳиссиётлар билан тўлиб-тошган бўлиб, уларнинг кучи ва интенсивлиги шахс учун баҳоланаётган мазмуннинг аҳамияти билан белгиланади.

Ўз-ўзини ҳурмат қилишнинг когнитив компонентининг асоси - ўзини бошқа одамлар билан таққослаш, ўз фазилатларини ишлаб чиқилган стандартлар билан таққослаш, ушбу кадриятларнинг мумкин бўлган номувофиқлигини аниқлаш.

Ўз-ўзини ҳурмат қилиш қуйидаги параметрлар билан тавсифланади:

- 1) даража - юқори, ўрта, паст
- 2) ҳақиқий муваффақият билан ўзаро боғлиқлик - адекват ва етарли эмас
- 3) структуравий хусусиятлар - конфликт ва конфликтсиз

Вақтинчалик мос ёзувлар табиатига кўра, прогностик, ҳақиқий ва ретроспектив ўз-ўзини баҳолаш фарқланади.

Психологик луғатда шундай дейилган: “Ривожланган шахснинг ўзини ўзи қадрлаши шахснинг ўзига бўлган муносабатининг характерини белгиловчи

мураккаб тизимни ташкил қилади ва ўз-ўзини ҳурмат қилиш даражасини, яхлит қабул қилиш ёки қабул қилмаслик даражасини акс еттирувчи умумий ўзини ўзи қадрлашни ўз ичига олади. ўз-ўзини ва қисман, шахсий ўзини-ўзи ҳурмат қилиш, ўз шахсиятининг айрим жиҳатларига, ҳаракатларига, индивидуал фаолиятининг муваффақиятига муносабатни тавсифлайди. Ўз-ўзини ҳурмат қилиш турли даражадаги онгга эга бўлиши мумкин”.

Ўз-ўзини баҳолашни фаолиятни ўз-ўзини баҳолаш сифатида таҳлил қилиш унинг бир нечта функцияларини аниқлашга имкон берди: прогностик (фаолиятнинг дастлабки босқичида шахс фаолиятини тартибга солишдан иборат); тузатувчи (керакли тузатишларни кузатиш ва амалга оширишга қаратилган); ретроспектив (субъект томонидан фаолиятнинг якуний босқичида фаолиятни амалга оширишнинг мақсадлари, усуллари ва воситаларини унинг натижалари билан умумлаштириш, боғлаш учун фойдаланилади).

Ўз-ўзини баҳолаш натижасида тадқиқотчилар қуйидаги хусусиятларни ажратиб кўрсатишади: ўз-ўзини баҳолаш натижасида шахс кўрсаткичнинг меъёрдан ошиб кетишини, унга тенглаштирилганлигини ёки унга етиб бормаслигини аниқлайди; шахс ўзини стандартга мувофиқ текширади ва текшириш натижаларига кўра ўзидан қониқади ёки норози бўлади; шахс томонидан ўз шахсининг, жисмоний кучининг, ақлий қобилиятларининг, ҳаракатларининг, бошқаларга ва ўзига бўлган муносабатининг сифатли, мазмунли хусусиятларининг баёни; ўз-ўзини ҳурмат қилиш икки хил: ўз-ўзидан қониқиш ва ўзидан норозилик; ўз-ўзини ҳурмат қилиш саволга жавоб беради: "мен"да нима бор эмас, балки у нимага арзийди, нимани англатади".

Шундай қилиб, ўз-ўзини баҳолаш натижаси ёки маълум фазилатларнинг баёни ёки бу фазилатларни қандайдир меъёр билан солиштириш натижаси ёки қандайдир ҳиссий-сезги муносабати натижасидир.

Ўз-ўзини ҳурмат қилиш муаммоларини ўрганиш учун ўз-ўзини баҳолаш воситалари бўйича тадқиқотлар ҳам катта аҳамиятга ега.

Ўз-ўзини баҳолаш воситалари ёки стандартлари сифатида қуйидаги параметрлар қўлланилади: шахнинг кадриятлари ва идеаллари; дунёқараш; даъволар даражаси; **"Мен"** - тушунча; жамоа талаблари.

Шундай қилиб, ўз-ўзини баҳолаш воситаларининг икки тури ишлаши мумкин: когнитив (мен концепция ёки унинг индивидуал томонлари) ва аффектив (кадриятлар, идеаллар, даъволар даражаси, талаблар). Бу фикрни умумлаштириб, хулоса қилишимиз мумкинки, инсон мавжудлигининг деярли ҳар қандай ҳодисаси (шу жумладан ўзини ўзи кадрлашнинг ўзи) у томонидан ўз-ўзини баҳолаши мумкин, яъни ўз-ўзини ҳурмат қилишнинг мазмунли майдони чексиздир.

Ўз-ўзини баҳолашда қуйидаги операциялар ажралиб туради: **"Мен ҳақиқийман"** тасвирини қуриш сифатида ўз-ўзини билиш, баҳоланган сифатни стандарт билан таққослаш, таққослаш натижасининг сабабий атрибути; эришилган натижага муносабат (муносабат, ўзини ўзи қабул қилиш). Натижанинг сабабий нисбати, агар улар ўз-ўзини баҳоловчини қайсидир маънода қониқтирмаса, таққослаш натижасига ҳам, ўзига муносабат натижасига ҳам қўлланилиши мумкин бўлган қўшимча процедура сифатида қаралади. Кейин маълум бўладики, ўз-ўзини ҳурмат қилишда фақат иккита асосий операциялар мавжуд:

Турли хил контекстларда жойлаштирилган турли хил товушга ега бўлган ўзаро боғлиқлик ва ўз-ўзига муносабат (масалан, **"мен ҳақиқийман"** нинг **"мен"** га проекцияси **"мен идеал"** қўшиғи ёнма-ён жойлаштиришга асосланган.)

Даъволар даражаси ва ўзини ўзи кадрлаш ўртасидаги боғлиқлик.

Ўз-ўзини ҳурмат қилиш устунлик қилади ва унинг ифодаси даъволар даражасидир, деб хулоса қилади Л.В. Бороздин. Яъни, даъволар даражаси шахнинг ҳаракатларида ўзини ўзи кадрлашнинг намоён бўлиши ҳисобланади. Худди шундай муаммо ўз-ўзини ҳурмат қилиш ва муваффақият мотивацияси тушунчаларини фарқлашда пайдо бўлади.

Масалан, Х.Хекхаузен "ютуқ мотиви ўз-ўзини баҳолаш тизими вазифасини бажаради", деб таъкидлайди. Ўз имкониятлари ҳақидаги ғоялар субъектни

мақсадларни танлашда беқарор қилади: унинг даъволари муваффақиятдан кейин кескин кўтарилади ва муваффақиятсизликдан кейин ҳам худди шундай кескин пасаяди.

Даъволар даражаси - характерлайди:

- 1) Қийинчилик даражаси, унга эришиш келажакдаги ҳаракатлар сериясининг умумий мақсади (идеал мақсад);
- 2) Бир қатор ўтмишдаги ҳаракатларнинг муваффақиятли ёки муваффақиятсизлигини бошдан кечириш натижасида шаклландиган навбатдаги ҳаракат мақсадини субъект томонидан танлаш (ҳозирги даъволар даражаси);
- 3) Шахснинг ўзини ўзи кадрлашнинг исталган даражаси (**И** даража).

Инсон кейинги ҳаракатнинг қийинчилик даражасини танлашда эркин бўлган шароитда ўз-ўзини ҳурмат қилишни ошириш истаги иккита тенденциянинг қарама-қаршилигига олиб келади - максимал муваффақиятга эришиш учун даъволарни кўпайтириш тенденцияси ва уларни камайтириш тенденцияси. муваффақиятсизликка йўл қўймаслик учун. Даъволар даражасига эришиш (ёки еришмаслик) натижасида юзага келадиган муваффақият (ёки муваффақиятсизлик) тажрибаси даъволар даражасини янада қийинроқ (ёки осонроқ) вазифалар соҳасига ўтказишга олиб келади. Муваффақиятдан кейин танланган мақсаднинг қийинлигининг пасайиши ёки муваффақиятсизликка учраганидан кейин ошиши (даъволар даражасининг атипик ўзгариши) даъволарнинг ҳақиқий бўлмаган даражасини ёки ўзини-ўзи ҳурмат қилишнинг етарли эмаслигини кўрсатади.

В. Жеймс ўз-ўзини ҳурмат қилиш ҳақидаги постулатини илгари сурди.

"Ўз-ўзини ҳурмат қилиш муваффақиятга тўғридан-тўғри пропорционалдир ва даъволарга, яъни шахс эришмоқчи бўлган потенциал муваффақиятларга тесқари пропорционалдир" формула шаклида буни қуйидагича ифодалаш мумкин:

Ўз-ўзини ҳурмат қилиш = даъволар / имкониятлар.

Ўз-ўзини баҳолаш қобилиятининг келиб чиқиши эрта болаликдан бошланади ва унинг ривожланиши ва такомиллашиши инсон ҳаёти давомида содир бўлади.

Одатда ўзимиз ҳақидаги фикр бошқа одамларнинг бизга бўлган муносабатига асосланади. Шахсни ривожлантиришнинг турли босқичларида аҳамиятлилик

вазнини ўзгартирадиган ўз-ўзини ҳурмат қилишнинг бир нечта манбалари мавжуд:

Бошқа одамларни баҳолаш; муҳим бошқалар доираси ёки маълумот гуруҳи; бошқалар билан ҳақиқий таққослаш; - реал ва идеал **И** ни солиштириш.

Ўз-ўзини ҳурмат қилиш ҳам ўз фаолияти натижаларини баҳолаш асосида, шунингдек, ўзи ҳақидаги реал ва идеал ғоялар нисбати асосида шаклланади.

Ўз-ўзини ҳурмат қилишнинг пастлиги кўп сабабларга кўра бўлиши мумкин: у болалигида шахсий муаммолари билан шуғулланмаган ота-онангиздан қабул қилиниши мумкин; у заиф академик кўрсаткичлар туфайли болада ривожланиши мумкин; тенгдошларнинг масхара қилиши ёки катталарнинг ҳаддан ташқари танқиди туфайли; шахсий муаммолари, муайян вазиятларда ўзини тута олмаслик ҳам инсоннинг ўзи ҳақидаги номақбул фикрини шакллантиради.

Бу ҳақда Р.Бёрнс шундай дейди:

“Агар ота-она бола учун ижтимоий кўзгу бўлиб ишлаётган бўлса, уларга муносабатда меҳр, ҳурмат ва ишонч кўрсатса, бола ўзини бу туйғуларга муносиб шахс сифатида кўришга одатланиб қолади” .

Скотт биринчи бўлиб болада ижобий ўзини-ўзи тушунчасини шакллантирадиган оилавий вазият турини ажратиб кўрсатди. 1800 нафар ўсмирни ўрганиб чиқиб, у уйда ота-она ва фарзандлар ўртасида ўзаро ҳурмат ва ишонч муҳити мавжуд бўлган, бир-бирини қабул қилишга тайёр бўлганлар ҳаётга кўпроқ мослаша олишини, мустақил бўлишини, ўзини ўзи қадрлаши юқори еканлигини аниқлади. Аксинча, келишмовчилик ҳукм сурган оилалардаги ўсмирлар камроқ мослашган.

Ўзига бўлган ишонч ўз кадр-қимматини ҳис қилиш билан бирга ўз-ўзини оқлаш ва эътиқодни ифода етишда жасоратни келтириб чиқаради. Бундай муносабат ва мос келадиган умидлар уларга нафақат ижтимоий муносабатларда мустақил мақом, балки катта ижодий салоҳият, бақувват ва ижобий ижтимоий ҳаракатлар қобилиятини ҳам беради. Гуруҳ муҳокамаларида улар одатда фаол позицияни эгаллайдилар. Ўзларининг еътирофларига кўра, улар янги одамларга яқинлашишда унчалик қийинчилик туғдирмайдилар, улар душманлик билан кутиб олиншини билиб, ўз фикрларини билдиришга тайёр.

“Ўз-ўзини юксак кадрлаш”, дейди Р. Бернс, ижтимоий алоқалар техникасини яхши билишни таъминлайди, шахсга ҳеч қандай махсус ҳаракатларсиз ўз кадр-қимматини кўрсатишга имкон беради.

Чак Т. Фолкан дейдики, агар инсон ўзи севган иш билан шуғулланса, вақт ўтиши билан у фахрланишга ҳақли бўлган тажриба ва маҳоратга эга бўлади. Бу оддий ўз-ўзини ҳурмат қилишни ташкил этувчи шартлардан биридир. Ҳар бир инсон ўзи учун идеал **"мен"** образини яратади. У ота-оналар, тенгдошлар ва ҳокимият егалари олдида қимматли фазилатларга эга. Атроф-муҳитга қараб фарқ қилиши мумкин. Ҳақиқий фазилатлар идеалга мос келса ёки унга яқинлашса, одам ўзини юқори баҳолайди.

Ўзига нисбатан ҳушёр ва объектив муносабат ўзини ўзи кадрлашнинг асосини ташкил қилади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ўз-ўзини ҳурмат қилиш ўз-ўзини англашнинг таркибий қисми бўлиб, рефлексив хусусиятга эга бўлиб, қуйидаги элементларни ўз ичига олади:

"Мен ҳақиқийман", **"Мен идеалман"**, бу тасвирларни таққослаш ва таққослаш натижасига ўз-ўзини муносабати. Ўз-ўзини ҳурмат қилиш - тартибга солиш функциясини бажарадиган ўз-ўзини англашнинг рефлексив компоненти; бу шахснинг реал ва идеал **"мен"** образларини солиштириш натижаларига муносабатидир.

Университет талабаларининг таълим муваффақияти концепцияси.

Педагогиканинг энг долзарб муаммоларидан бири бу ўқув самарадорлиги бўлиб, бу мутахассисларга қўйиладиган талабларнинг ортиши билан боғлиқ бўлиб, технология ривожланишининг юқори суръатлари, катта маълумотлар оқими ва шунинг учун махсус билимларнинг сифатини ошириш чораларини кўриш зарурати билан боғлиқ.

Ўқитиш ва шунга мос равишда ўқувчиларнинг таълим муваффақиятини ошириш, замон билан ҳамнафас одимлаш, замонавий педагогик технологиялардан кенг фойдаланиш тезкор даврнинг ўта муҳим талабларидан бири ҳисобланади. Ушбу муаммо ўрганилган, аммо ҳали ҳам таълимнинг қизғин

баҳс-мунозаралар мавзуси бўлиб қолмоқда ва ўқув ютуқларини таъминлаш ва академик муваффақиятсизликнинг олдини олишда етакчи омилларни аниқлаш жиҳати бўйича мутлақо қарама-қарши нуқтаи назарларнинг қарама-қаршилиқ соҳаларини назардан четда қолдирмаслик лозим. Ҳозирги вақтда таълим соҳаси ушбу муаммони ўрганишга бўлган эҳтиёжни сезмоқда ва Давлатимизнинг мувоффақиятга элтувчи тезкор дастурларга талаби ҳам айнан шу каби илмий тадқиқот дастурларидан иборат.

ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЛОЙИҲАЛАШ ФАОЛИЯТИ ДАВРИДА ТАЯНЧ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Абидова Зарнигор Камилджановна

Бухоро муҳандислик-технология институти

Ҳозирги вақтда жамиятнинг ижтимоий соҳалари ўзгарувчан дунёда тезкор равишда ҳаракат қилишни, янги касблар ва билим соҳаларини тезда ўзлаштиришни, турли касб эгалари билан умумий тил топиш қобилияти каби шахсий фазилатларни шакллантирилишини тақозо этади. Бундай сифатлар “таянч компетенциялар” деб аталади.

Таянч компетентлик – бу таълим натижаси бўлиб, у предмет соҳага нисбатан универсал фаолият усулларини эгаллашни назарарда тутади. Компетентликнинг билим, кўникма ва малакадан принципиал фарқи шундаки, у таълим натижаси сифатида фаолият асосида шаклланади ва намоён бўлади.

Ҳозирги кунда касб-ҳунар таълим муассасаларининг педагогик жамоаси олдида ўқув-тарбиявий ишларни такомиллаштириш, ахборот технологияларини, ўқувчиларнинг илмий-тадқиқот ва лойиҳа фаолиятини таълим жараёнига жорий этиш, шунингдек, ўз-ўзини ривожлантириш, ички ҳаракатлантирувчи кучлар, қобилиятларни ўз-ўзини намоён қилиш учун зарур шарт-шароитларни яратиш вазифалари қўйилган бўлиб, ҳар бир ўқувчининг индивидуал истеъдоди ва

қобилиятини ҳисобга олишни тақозо этади. Касб-ҳунар коллежлари (мактаблари) умуминсоний билимлар, малакалар, кўникмалар, шунингдек, ўқувчиларнинг мустақил фаолият тажрибаси ва шахсий масъулиятининг янги тизимини, яъни замонавий асосий компетенцияларни шакллантириши керак.

Таянч компетенциялар замонавий таълим натижалари парадигмаси ҳисобланади: қиймат-семантик, умумий маданий, маърифий ва когнитив, ахборот, коммуникатив, ижтимоий-меҳнат ва шахснинг ўзини-ўзи такомиллаштиришни назарда тутди [1].

Амалиёт тажрибалар шуни кўрсатадики, ўқув жараёнида лойиҳа методологиясидан фойдаланиш таянч компетенцияларни (тадқиқот, алоқа, ахборот, технологиялари) шакллантиришни таъминлайди.

Компетенцияга асосланган ёндашув, амалиётда шахсан аҳамиятли ва талаб қилинадиган таълим натижаларига эътиборни кучайтириш учун объектив эҳтиёжларни ақс эттиради. Бундан келиб чиққан ҳолда, ўқувчининг лойиҳа ва тадқиқот фаолияти даврида кўникмаларни шакллантиришда педагогик тажрибанинг мақсадлари қуйидагилар, деб ҳисоблаймиз:

- оммавий ахборот воситалари ва нашрларда, шу жумладан Интернет-ресурсларда мавжуд бўлган маълумотларни топиш ва мустақил равишда қўллаш, илмий таҳлил усулларида фойдаланган ҳолда асосли хулосалар чиқариш қобилиятини эгаллаш;

- фикрлашни ривожлантириш, маълумотни танқидий идрок этиш ва ўзининг асосли фикрини ишлаб чиқиш, олинган билимларни аниқ вазиятларда оқилона хулқ-атворни аниқлаш учун қўллаш қобилияти;

- когнитив ва амалий фаолият тажрибасини кенгайтириш.

Фикримизча, ушбу вазифаларни лойиҳа усули ёрдамида энг самарали ҳал қилиш мумкин. Дарҳақиқат, лойиҳа фаолиятининг асоси замонавий жамиятнинг долзарб муаммоларини ҳал қилиш учун ёшлар - катталар жамоаси томонидан олиб бориладиган мақсадли тадқиқот ишларидир.

Лойиҳа методи технологиясидан фойдаланган ҳолда, биринчи навбатда, ўқувчининг компетентлигини ривожлантириш, коммуникатив шахсий

фазилатларни шакллантириш ва кейинги ҳаётида ўз касбини танлашда ёрдам бериш учун ўқувчилар томонидан тадқиқот фаолияти зарур –деб ҳисоблаймиз. Лойиҳа устида ишлашда когнитив, коммуникатив ва ахборот қобилиятларини самарали ривожлантириш учун зарур шарт-шароитлар яратилади. Лойиҳа фаолияти давомида ўқувчилар таълим стандартларида назарда тутилган билим ва кўникмаларни ривожлантирадилар.

Ўқувчининг ижодий фаолияти даврида ўқув муаммоларни ҳал қилишда этакчи ўринни қуйидаги усуллар эгаллайди:

- ўқувчиларнинг фаол, мустақил ва ташаббускор позициясини шакллантириш;
- умумий таълим кўникмаларини ривожлантириш (тадқиқот, фикрлаш, ўз-ўзини баҳолаш);
- нафақат кўникмаларни, балки малакаларни шакллантириш, яъни амалий фаолиятда уларни қўллаш тажрибаси билан бевосита боғлиқ бўлган кўникмалар;
- ўрганишни ҳаёт билан боғлаш принципини амалга ошириш [1,2].

Ўқувчиларнинг лойиҳа-тадқиқотли фаолиятида шаклланадиган умумий таълим малака ва кўникмаларига қуйидагилар киради:

- Рефлексив кўникмалар (билим етарли бўлмаган муаммони идрок этиш қобилияти; саволга жавоб бериш қобилияти: масалани ҳал қилиш учун нимани ўрганиш керак).
- Қидирув (тадқиқот) кўникмалари (мустақил равишда ғояларни яратиш, яъни турли соҳалардаги билимларга таянган ҳолда ҳаракат қилиш усулини ихтиро қилиш; ахборот соҳасида эгалламаган маълумотларни мустақил равишда топиш; фаразларни илгари суриш ва сабабни аниқлаш қобилияти).
- Бошқарув малакалари ва қобилиятлари (жараённи лойиҳалаш қобилияти; фаолиятни режалаштириш, вақт, ресурслар; қарорлар қабул қилиш ва уларнинг оқибатларини башорат қилиш; ўз фаолиятини таҳлил қилиш кўникмалари: унинг тараққиёти ва оралиқ натижалари).
- Мулоқот кўникмалари (катталар билан таълим соҳасидаги ўзаро муносабатларни боғлаш қобилияти – мулоқотга кириш, саволлар бериш ва ҳ.к.; мунозара ўтказиш ва ўз нуқтаи назарини ҳимоя қилиш қобилияти; муроСага

келиш қобилияти; суҳбат, оғзаки нутқ сўроқ қилиш ва бошқ.).

- Такдимот кўникмалари (монологик нутқ кўникмалари; нутқ давомида ўзини ишончли тута билиш ва режадан ташқари саволларга жавоб бера олиш; нутқ давомида турли кўргазмали куруллардан фойдалана олиш; бадий маҳорат) [2].

Лойиҳа-тадқиқот усулидан фойдаланганда ўқувчида қуйидаги фазилатлар ривожланади:

- Ҳосилдорлик: муаммога турли ечимларни таклиф қилиш ва оригинал ечим топиш қобилияти.

- Ижодий фикрлаш қобилияти: стереотипларни енгил, ноаниқлик шароитида ечим излаш, муаммоларни аниқлаш қобилияти.

- Ҳамкорлик қилиш қобилияти: ўз фикрини шакллантириш, ўртоғининг таклифининг моҳиятини тушуниш, ўзининг ва бошқаларнинг ғояларини асосли танқид қилиш.

- Ижодкорлик учун мотивация [3].

Шуни таъкидлаш жоизки, ўқувчиларнинг тадқиқот фаолияти ижодий, фаол шахсни ривожлантириш учун катта имкониятларга эга. Чунки бу фаолият билим фаоллигини, билимдан идрок этишни рағбатлантириш, ўз ютуқлари муҳимлигини ҳис қилиш имконини беради, бу эса ўқувчиларни ўз назарида юксакликка кўтаради, билим нуфузини оширади.

Хулоса қилиб таъкидлаш жоизки, касб-хунар таълимида фанлар бўйича лойиҳавий фаолиятни ташкил этиш, ўқувчиларда мотивацияни оширишни таъминлайди, интеллектуал ривожланиш даражасини интенсифлашга имкон беради ва назарий билимларини амалиётда мустаҳкамлаш ҳамда ўз-ўзини назорат қилиш имкониятларини яратади.

Адабиётлар

1. Букреева И. А. Учебно-исследовательская деятельность школьников как один из методов формирования ключевых компетенций [Текст] / И. А. Букреева, Н. А. Евченко // Молодой ученый. — 2012. — №8. — С. 309-312.

2. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. - М.: Академия, 2003. 324 с.

3. Johnson K., Magusin E. Exploring the digital library. A guide for online teaching and learning// Jossey – Bass, 2005.–162 pp.

UMUMTA`LIM MAKTABLARIDA O`QUVCHILARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA OILA PSIXOLOGIYASI FANINING O`QITILISHI

Mahmudova Sevara

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani 15-STM internat psixologi

Mamlakatimizda keying yillarda amalga oshirilayotgan barcha isloxotlar inson qadr qimmatini yuksaltirish, ayniqsa yoshlarimizning yuksak ma`naviyatli shaxs sifatida ulg`ayishi, har tomonlama kamol topishi uchun qulay shart sharoitlar yaratishga qaratilmoqda. Shuningdek, jamiyatimizning asosi - oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa yosh oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish, jismonan sog`lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog`lom oilani shakllantirish borasida mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Har bir yigit-qiz qanday kasbni egallashi, xarakteridan qat'iy nazar kelgusida oila qurishga, baxtli bo`lib yashashga intiladi. Mustaqil O`zbekistonimiz yoshlarining har tomonlama uyg'un rivojlanishi, kelgusida baxtli oila qurishi, er va xotinning tinch-totuv yashashi ko`p jihatdan bolalarni yoshlikdan oilaviy hayotga tayyorlashga, ularda ijobiy odat va ko`nikmalarni qaror toptirib borishga bog`liq. Shu sababdan umumta`lim maktablarida o`quvchi yoshlarda psixologik munosabatlarni bilishi, insonni o`ylashga, mushohada yuritishga, o`zligini anglashga yordam beribgina qolmay, bir insonning boshqasi tomonidan xolisona idrok etilishini ham o`rgatib borish dolzarb muammolardan biridir.

Sababi hozirgi kunda umumtalim maktablarini tamomlagan o`quvchilar oiladagi munosabatlarga u darajada yetarli ko`nikmaga ega bo`lmay, o`z oilasidagi muhitga moslashib, kelajagiga ham to`laqonli anglab yeta olmaydilar.

Umumta`lim maktablarida “Oila psixologiyasi” fanini o`qitish tizimi joriy etilsa, o`quvchi yoshlarda oila tushunchasi, oiladagi shaxslararo munosabatlarni ta`minlashga va shu bilan birga oilada tinchlik, xotirjamlik, baxt va saodat barqaror bo`lishi mumkinligini, bir-biriga to`g`ri psixologik yondashuv shaxsni hurmat qilishni ta'minlab, er-xotinni, xotin-erni, qaynona kelinni, kelin o`z navbatida oilaning barcha a'zolarini, kattalar kichiklarni e'zozlashni o`rganib boradilar. Bir necha shaxsning bir vaqt va makonda birga yashashini ta'minlovchi sog`lom falsafani shakllantiradi.

O`quvchi yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashdan maqsad o`quvchilarga oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli ko`nikma va malakalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni muhim masala sifatida qo`yishni taqozo etadi.

Oila psixologiyasi fanini umumta`lim maktabi o`quvchilariga o`qitishda quyidagi vazifalarni ta`minlash maqsadga muvofiqdir:

- oila psixologiyasi fani, uning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berish, oilaning ijtimoiy kelib chiqish tarixi, uning turlari bilan tanishtirish;
- o`quvchi yoshlarni oilani muqaddas bilishga o`rgatish orqali ularni ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- oilaning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari bo`yicha tushunchalar hosil qilish;
- o`quvchilarda shaxsning shakllanishida oilaning roli haqida tasavvur hosil qilish;
- yoshlarning oila mustahkamligini ta'minlovchi bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirish;
- yoshlarni oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berishga, destruktiv yo`nalishlardan saqlanishga o`rgatish;
- yoshlarda muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona chiqish malakalarini shakllantirish;
- yoshlarni jinsiy hayotga ilmiy asosda tayyorlash;
- yoshlarni oilani rejalashtirishga o`rgatish.

Bu o'rinda haqli ravishda: «Bu fan bizga nima beradi? Nega endi aynan hozirga kelib, bizni oilaviy hayotga tayyorlash zarur bo'lib qoldi? Axir ota-bobolarimiz bunday kurslarni o'qimay ham tinch-totuv, ahil-inoq, baxtli hayot kechirishgan-ku? Aksincha so'nggi yillarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida qanchalik ko'p gapirib, yozib, maxsus tadbirlar tashkil qilinsa ham nizoli oilalar, ajralishlar miqdori ortsa ortayaptiki, kamaymayapti-ku?» - kabi savollar ro'yxatini cheksiz davom ettiraverish mumkin. Ularning har birining yuzaga kelishiga asos bor.

Xo'sh, qanday zarurat hozirgi vaqtda yoshlarimizni oilaviy hayotga tayyorlash va ularga «Oila psixologiyasi» fanining o'qitilishi zarurligini taqozo qiladi?

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdodlarimizda kuzatilgan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va unda-gi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Yoshlarimizda bu masala bo'yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun, bundan 90-100 yillar oldingi ularning tendoshlari va bugungi kunlarimizdagi 15-16 yoshli yigit-qizlar o'rtasidagi tafovutlarni solishtirib o'tamiz.

Maxsus adabiyotlarda yozilishi va o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko'ra ularning jinsiy, fiziologik balog'atga yetishi 2-3 yilga ilgarilab ketgan. Bundan 100

yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog'atga yetish davri 15-16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12-13 yoshlarga to'g'ri keladi. Endi shu yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlik jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ilgarigi tengdoshlaringiz 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo'lmish jinsiy yetuklikka, balog'atga yetar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bo-lalarni odatda, 13-14 yoshidan shogirdlikka berishgan), o'sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayon-lar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilmagan, 3-4 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshida o'zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o'z ishini uddalay oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigandek bo'lsa, o'z hunari orqali mehnat qilib, o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigit mahalla-ko'yda, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy yetuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbir va marosimlarda uning haqli ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga yetganligi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Bu jarayon shaxsning oldiga oila va jamiyat ol-dida o'ziga xos mas'uliyat yuklagan, mas'uliyatni his qilish esa uning psixologik yetukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Endi shu xususiyatlarni bugungi kun yoshlarida ko'rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarda jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar (bu haqda keyinroq to'xtalib o'tamiz), biroq ular biror-bir kasb-hunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab, o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun, awalo maktabni bitirishi, so'ng u yoki bu kasb-hunar kolleji yoki litseyda o'qib, biror-bir kasbni egallashi kerak. Buning uchun 9 yil maktabda, 3 yil kollej yoki litseyda o'qishi zarur bo'ladi.

KICHIK MAKTAB YOSHI INQIROZI VA UNI OLDINI OLISH HAMDA BARTARAF ETISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARNING AHAMIYATI

Polvonova Sadoqat Ulug'bek qizi
Mirishkor tuman 33-maktab psixologi

Maktab hayotining birinchi bosqichi uchun shu narsa xarakterliki, bola sinfdagi va uydagi xulqini nazorat qiluvchi o'qituvchining yangi talablariga bo'ysunadi, shuningdek, o'quv fanlarining mazmuniga qiziqqa boshlaydi.

Birinchi sinf o'quvchilari boshdan kechiradigan uch asosiy qiyinchilik bor:

1. Boladan erta uyg'onish, maktabga o'z vaqtida kelish, barcha darslarda bir joyda qimirlamasdan o'tirish, uy vazifalarini vaqtida bajarish kabi irodaviy vazifalar talab etiladi. Bungacha doimiy harakatda bo'lgan va hech qanday mas'uliyat yuklanmagan bola uchun bu o'ziga xos jarayon bo'lib, bu unda ba'zida stresslarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

2. Ikkinchi tur qiyinchilik o'qituvchi, sinfdoshlar va oiladagi o'zaro munosabatlar xususiyatidan kelib chiqadi. Maktabgacha ta'lim muassasasidan farqli ravishda bu munosabatlarda ham bola ba'zi qiyinchiliklarga duch keladi (masalan, uy vazifasini bajarmaganligi yoki darsda tinch o'tira olmagan uchun jazo olishi mumkin).

3. Qiyinchiliklarning uchinchi turi – o'quv yili o'rtalaridan o'quv materialini oshib boradi. Hali maktab sharoitiga to'liq moslashib ulgurmagani uchun o'quv yuklamasining ortib borishi ham unda moslashish jarayonining qiyin kechishiga sabab bo'lishi mumkin.

4. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, bola duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar: moslashuvchanlikdagi qiyinchiliklar, bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda irodaviy jarayondagi qiyinchiliklardir.

Maktabga qadam qo'yish bilan bola hayotida muhim psixologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. U yangi rejimning ayrim muhim odatlarini o'zlashtiradi, o'qituvchi va o'rtoqlari bilan ishonchli munosabatlar o'rnatadi. O'quv materialini mazmuniga nisbatan paydo bo'lgan qiziqish asosida unda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat mustahkamlanadi. Bunda yuqorida sanab o'tilgan qiyinchiliklar bolada maktabga va

bilim olishga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Fan tilida kichik maktab yoshi inqirozi nomi bilan ma'lum bu kabi holatlar kelgusida yanada kattaroq va kengroq muammolarni yuzaga keltiradi. Fanlarni o'zlashtira olmaslik, muntazam dars qoldirish, dars jarayonida o'qituvchining dars o'tishiga va sinfdoshlariga xalal berish- bu muammolarning boshlanishi, xolos.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning maktab sharoitiga moslashuvi hamda o'quv materiallarini oson o'zlashtirishlarida korreksion-psixologik treninglarning ahamiyati katta. Muntazam va izchillik bilan olib borilgan korreksion-psixologik treninglar yuqorida aytib o'tilgan kichik maktab yoshidagi bola duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etibgina qolmay, balki normal darajada moslashgan bolalarni ham aqliy va hissiy jihatdan rivojlanishlariga ko'maklashdadi. Bunda trener bola duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchililarning har uch turi yuzasidan bir nechta korreksion o'yinlarni tanlab olib , bitta yaxlit trening sifatida tashkil etadi hamda ana shu bitta mashg'ulot orqali bir nechta muammolarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Masalan:

Kirish qismi.

Treningning borishi.

-Treningning qoidalari, maqsad va vazifalari bilan tanishtirish:

Qoidalar:

-faollik

-ko'ngilli ishtirok

-belgilangan vaqtga rioya qilish:

-boshqalar fikrini hurmat qilish:

-qo'l ko'tarish qoidasi.

1-mashq Tanishuv.

“Mening yoqtirgan narsam” mashqi.

Maqsad :Guruh a'zolari o'rtasida ijobiy psixalogik muhitni yaratish,diqqat va xotirani rivojlantirish.

Mashqni borishi:Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar.

Boshlovchi har bir ishtirokchiga koptok otadi.

Koptokni ilib olgan o'quvchi o'z ismi va yoqtirgan narsasini nomini aytib bo'lishgach, o'quvchilarining bir-birlaridan boshqalarining yoqtirgan narsalari yoki biron bir sanab o'tilgan narsani kim yoqtirilishi so'raladi.

Muhokama.

Xulosa.

2-mashq .

“Suv, havo, yer” mashqi.

Maqsad :Guruh a'zolari o'rtasida eshitish va harakat sezgilarini, diqqatini rivojlantirish.

Mashqni borishi: Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar.

Boshlovchi o'yin sharoiti bilan tanishtiradi:

agar u “yer” desa , hamma qo'lini pastga tushirishi kerak, “suv” desa, qo'llarini o'ngachapga harkatlantiradilar. Havo” deganda ,qo'llarini osmonga ko'taradilar. O'yin bir necha marotaba takrorlanadi.

Muhokama.

Xulosa.

Refleksiya .

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mashqlarning har ikkalasi ham bir vaqtning ham guruhda ijobiy muhitning yuzaga kelishiga ham bilish jarayonlarining rivojlanishiga ham bolaning hissiy jarayonlariga ijobiy ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega. Albatta bir – ikki marta o'tkazilib, so'ng to'xtab qolgan mashg'ulotlar natijaviylikka ega emas. Bu mashg'ulotlar muntazam ravishda va izchillikka rioya etilgan holda o'tkazilsagina, natijalar ko'zga tashlanadi. Sodda til bilan aytganda, ma'lum bir dastur asosida tuzilgan, yil davomida haftada bir yoki ikki marta tashkil etiladigan mashg'ulotlargina ko'zlangan natijani berishi mumkin. Bunda maktab amaliyotchi psixologlarining o'rni katta. Chunki bunday mashg'ulotlarni faqat ular tashkil etish imkoniyatiga ega. Buning uchun maktab amaliyotchi psixologida boshlang'ich sinflarning har biri uchun taxminan quyidagi mazmunda ish reja mavjud bo'lishi lozim:

1-sinf o'quvchilari bilan yil davomida olib boriladigan pedagogik –psixologik ishlar

№	O'tkaziladigan tadbir nomi	Tadbir o'tkaziladigan vaqt	Tanlangan metodika, tadbir va treninglar manbasi	Tadbir o'tkazilishidan maqsad	Tadbir o'tkazilgan vaqt	Kutiladigan natijalar
1	1-sinf o'quvchilarining maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligini o'rganish uchun Kern Yerasikning "Test suhbat" metodikasini o'tkazish.	sentyabr	K.Yerasikning "Test suhbat" metodikasi	psixodiagnostika		O'quvchining maktab ta'limiga tayyorgarligi haqida ma'lumot to'planadi
2	6-6,5 yoshli o'quvchilarning rivojlanishini aniqlash: A.Vengerning "Grafik diktant" metodikasini o'tkazish.	sentyabr	A.Vengerning "Grafik diktant" metodikasi	psixodiagnostika		
3	1-sinf o'quvchisini maktabga moslashtirishga qaratilgan trening mashg'ulotini o'tkazish "Baliq, qush, eshik..."	oktyabr	72 soatga mo'ljallangan Psixologik salomatlik dasturi.	Psixokorreksiya		
4	O'quv faoliyati kommunikativligi darajasini aniqlash: "Qo'lqopchalar" metodikasi (hamkorlikni tashkil etish jarayonida faoliyatni shakllantirish)	oktyabr	Maktab psixologi rasmiy telegram kanali	Psixokorreksiya		

Keltirilgan taxminiy ish rejada psixolog 2 haftada bir marta mashg'ulot o'tkazilishi nazarda tutilgan. Bunda mashg'ulotlarni boshlashdan oldin muammolarni diagnostika qilish uchun hamda bir nechta mashg'ulotlardan keyin natijaviylikni ko'rish uchun psixodiagnostik metodikalarni olish ham ko'zda tutilgan. Albatta, bu mashg'ulotlar 1-sinf o'quvchilari uchun haftada bir martaga oshirilsa, yanada yaxshi bo'ladi. Biroq maktabda psixolog o'z mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun alohida soat ajratilmaganligi sababli bu imkonsiz. Chunki 1-sinf o'qituvchilari o'z dars soatlarini har hafta bera olmaydilar. Bu kabi mashg'ulotlarni 2-3-4-sinf o'quvchilari uchun ham oyda

2 marta tashkil etilsa, o'ylaymanki, biz yuqori sinflarda duch kelishimiz mumkin bo'lgan ko'pgina muammolarning oldi olingan bo'lar edi.

TANGLIK VAZIYATIDA QOLGAN BOLALARGA PSIXOLOGIK YORDAM

*Islomova Sayyora Hakimdjonovna
Toshkent shaxar Olmazor tumani 249 maktab psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarda yuzaga kelayotgan tanglik vaziyati, taglik vaziyatida qolgan bolalarga psixologik yordam ko'rsatish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik, tanglik vaziyati, psixika, bilish jarayonlari, referent guruhlar, o'tish davri, kompensatsiya, giperkompensatsiya, agressivlik.

Bugungi kunda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash eng ustivor vaifalardan biridir. Ruhiy sog'lom, ma'naviyati yuksak, jismoniy va aqliy yetuk farzandlar yurt kelajagidir. Hozirgi kunda fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi nafaqat jamiyat hayotiga balki o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Buning natijasida o'quvchi yoshlarimizda psixologik tanglik, qiyin vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Albatta bunday tanglik holatlari o'quvchining jismoniy, psixik va aqliy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Tanglik vaziyati-shaxsning psixikasida ro'y beradigan hissiy zo'riqlarni kuchli darajada namoyon bo'lishidir. Bunday holat shaxsning bilish jarayonlariga, aqliy faoliyatiga, shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o'rniga bog'liqdir. Shuningdek, bu holat shaxsdagi xulq-atvor me'yorlarida ham o'ziga xos o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

O'smirlarni tengdoshlari o'rtasida uni qoniqtiradigan o'ziga xos o'rinni egallashga intilish xulq-atvor me'yorlariga va referent guruhlar qadriyatlariga yuqori darajada qiziqish bilan qo'shilishi kuzatiladi. O'smir psixikasidagi o'tish davri unda bolalik va kattalik xususiyatlarini birgalikda bir vaqtda mavjud bo'lishi bilan izohlanadi.

O`smirlik yoshida odatda kichikroq yoshdagilar uchun xarakterli bo`lgan xulq-atvor reaksiyalariga moyillik ko`pincha saqlanib qoladi. Ularga quyidagilar taalluqli:

1.Voz kechish reaksiyasi. U xulq-atvorning oddiy shakllaridan munosabatlar, uydagi majburiyatlar, o`qish va boshqalardan voz kechishida ifodalanadi. Aksariyat hollarda odatiy hayot sharoitlaridan keskin uzilishlar (oiladan uzilish, maktabni o`zgartirish) sabab bo`ladi.

2.Qarshilik, qat'iy norozilik, e'tiroz reaksiyasi. U o`z xulq-atvorini talab qilinayotganlarga qarama-qarshi qo`yishida namoyon bo`ladi: namoyishkorona mardlik, sababsiz darsga kelmaslik, qochish, o`g`rilik qilish va hatto norozilik sifatida amalga oshiriladigan bir qarashda be'mani bo`lgan xatti-harakatlar.

3.Taqlid qilish reaksiyasi. U odatda bolalik yoshiga xos bo`lib, tug`ilgan va yaqin insonlarga taqlid qilishda namoyon bo`ladi. Taqlid reaksiyasi asotsial muhitdagi shaxs sifatida kamolotga yetgan o`smirlar guruhi uchun xosdir.

4.Kompensatsiya reaksiyasi. U o`zining bir sohadagi muvaffaqiyatsizligini boshqasidagi muvaffaqiyatlari bilan to`ldirishga intilishida ifodalanadi. Masalan, o`zlashtira olmayotgan o`smir sinfdoshlari hurmatiga, qo`pol, nojo`ya xatti-harakatlari orqali erishishga harakat qilishi mumkin.

5.Giperkompensatsiya reaksiyasi. Bola yoki o`smir ko`proq muvaffaqiyatsizlikka duch keladigan sohalardagina aynan muvaffaqiyat qozonishga intilishi bilan asoslanadi.

O`smir uchun xos bo`lgan psixologik reaksiya ijtimoiy muhit bilan o`zaro ta'sir asosida yuzaga keladi. Masalan, o`smirning ozodlikka intilishi. Bu holatda o`smirning mustaqillikka, kattalar vasiyligidan xalos bo`lishga intilishini aks etadi. Buning natijasida o`smirning uy yoki maktabdan qochishi, ota-onalar, o`qituvchilarga qaratilgan salbiy munosabatlari vujudga kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan vaziyatlar davolash ya'ni korreksiyasini talab qiladi. Xulq-atvor buzilishlarining patologik va patologik bo`lmagan shakllarini o`z vaqtida farqlash juda muhim, chunki ular turli shakldagi pedagogik va ijtimoiy yordamga muhtoj ayrim vaziyatlarda doir-darmon bilan davolashni talab qilinadi. O`smirlik davridagi psixik rivojlanishning muhim yo`nalishi muammo va qiyinchliklarni bartaraf qilish usullarini

shakllanish bilan bog`liq. Ulardan ayrimlari bolalikdanoq murakkab bo`lmagan vaziyatlarni hal qilish uchun shakllanadi va odatga aylanadi.

Bolalar agressiv xatti-harakat namunalari quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to`playdi:

1.Nosog`lom oila muhiti. Bu kabi oilalarda ota-ona bilan farzand o`rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o`rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikni mavjud emasligi bolalarda agressiv hulq-atvorni shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo`lishi oilaviy muhitning ta`sir darajasiga bog`liq hisoblanadi.

2.Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o`z tengqurlari bilan bo`lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o`zlariga singdiradilar. Ko`pgina hollarda bolalar tengdosh do`stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda, o`zlarini agressiv boshqarishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar o`z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladilar. Bunday bolalar o`zlarini ho`rlangandek his qilib, o`zlari kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammoning ustiga yana muammo tug`dirmasdan qolmaydi.

3.Ommaviy axborot vositasi. Bugungi kunda bolalarga ta`sir etayotgan eng kuchli quroldir. Bu borada internetning ta`siri kuchayib bormoqda. Bolalar internet aloqalari orqali o`zlarining xususiyatlariga to`g`ri kelmaydigan ma`lumotlar bilan ham tanishmoqdalar. Shu o`rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari fil`mlar, ko`rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarni tarkib topishga ta`sir qilmoqda. Psixologik kuzatuvlarga ko`ra, oiladagi iqlim, ota-ona o`rtasidagi o`zaro munosabat, ota-ona bilan bola o`rtasidagi munosabat, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillari, aka-ukalari bilan yaqinlik darajasi, farzandi tomonidan qilingan noto`g`ri, yanglish xatti-harakatlarga nisbatan ota-onaning ta`sirlanishi – oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti-harakatlarini belgilab beruvchi omillar bo`lib hisoblanmoqda.

Yuqoridagilarga asoslangan holda o`smirlar guruhidagi tanglik holatini bartaraf etish uchun quyidagi psixologik trening mashg`ulotlaridan foydalanishni tavsiya qilaman.

O`smir shaxsida tanglik holatini bartaraf etishga qaratilgan trening mashg`ulotlari

“Niqobni uzat” mashqi

Maqsad: o`smirlarni tetiklashtirish va ularni guruh bo`lib ishlash uchun tayyorlash, ishtirokchilarning o`zlariga ma`qul bo`lmagan kayfiyatdan qutulishlari va to`liq ishga jalb bo`lishlari hamda mashqning guruhda ko`tarinki kayfiyatni uyg`otishiga erishish.

Ko`rsatma: nima qilayotganimni ko`rish uchun menga qaranglar. Men yuzimda biror bir emotsiyani aks ettirishga harakat qilyapman. Mana, masalan, (bunda trener biror qandaydir emotsiyani aks ettirib zudlik bilan guruhning barcha a`zolari ko`rishi uchun aylanadi). Keyin esa men o`zimning chap tomondagi qo`shnimga o`girilaman va u mening yuz ifodamni yaxshilab ko`rib olishi kerak. So`ngra u mening yuz ifodamdagi holatni hech qanday o`zgarishsiz o`zi aks ettirishi lozim. U buning uddasidan chiqishi bilan bir marta aylanib so`ng yangi yuz ifodasi bilan chap tomoniga qarashi zarur. Shunday qilib barcha navbati bilan shu holatni takrorlab boradi.

“Mening kayfiyatim nimaga o`xshaydi?” mashqi

Maqsad: shaxsda emotsional holatlarni anglash, ularni boshqarish va nazorat qilish ko`nikmalarini tarkib toptirishdan iborat.

Ushbu mashq shu turdagi mashg`ulotlar uchun faollashtiruvchi o`yin vazifasini o`tashi mumkin. U ishtirokchilarga o`zlarining emotsional holatlarini anglash va ularni “shu yerda va hozir” tamoyili asosida obrazli tarzda ifodalash imkonini beradi.

Ko`rsatma: o`zingizga quloq soling. Sizning hozirgi kayfiyatingiz qanday rangga o`xshaydi?

“Hissiyotlarni sanaymiz” mashqi

Maqsad: ishtirokchilarning emotsiya borasidagi so`z boyligini oshirish

Ko`rsatma: keling, kim turli hislarni anglatuvchi so`zlarni ko`proq bilishini aniqlab olamiz. Navbat bilan so`zlarni ayting va ularni vatmanga yozib boring.

Trener uchun ma`lumot. Ushbu mashqni guruhning tayyorgarlik darajasiga qarab musobaqa yoki “aqliy hujum” shaklida tashkil etish mumkin.

Ishtirokchilarning vatmanini butun mashg'ulot davomida yordamchi vosita sifatida qo'llash mumkin. Qolaversa, mashg'ulotlar davomida ushbu "lug'at" yangi so'zlar bilan boyitib borilishi mumkin. Shunga alohida e'tibor qaratinglarki, ro'yxatda u yerda asosiy emotsiyalar (g'azab, g'am, quvonch, qo'rquv, xafagarchilik) qolib ketmasligi kerak. Agar ishtirokchilardan biri yozilganlarning emotsiyalarga tegishliligiga shubha qilsa, qolganlardan buni izohlab berish so'raladi.

Mashg'ulot yakunida ishtirokchilarga quyidagi savollarni berish mumkin: "Oxirgi marta nazorat ishi yozganingizda o'zingizni qanday his qildingiz?", "Nojo'ya ish qilib qo'yganingizda o'zingizni qanday his etasiz?".

Muhokamada "Sizningcha, eng yoqimsiz his qaysi?", "Qaysi biri eng yoqimlisi?", "Quyida sanab o'tilgan hislardan qay biri sizga yaxshi tanish?" kabi savollarga javob berish taklif qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
2. L.Beknazarova, M.Maxmudova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
3. E.G'.G'oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.
4. R.Y.Toshtemirov, E.G'.G'oziyev Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Toshkent 2004.

ТАРБИЯСИ ҚИЙИН ГУРУХГА МАНСУБ АГРЕССИВ ХУЛҚЛИ БОЛАЛАР ВА УЛАРНИНГ ОТА-ОНАСИ БИЛАН ИШЛАШ МУАММОЛАРИ

*Каримбекова Азиза Абдугани қизи
Тошкент шаҳар Олмазор тумани 249 мактаб психологи*

Тарбия узлуксиз жараён бўлиб, инсон дунёга келишидан бошлаб, то умрининг охиригача давом этиб боради. Бу жараён давомида атроф-муҳитдаги воқеа-ҳодисаларнинг шахсга салбий ёки ижобий акс таъсир этиши унинг инсоний фазилятлари қай даражада шаклланганлагини белгилайди. Бугунги кунда таълим

соҳаси олдида турган энг долзарб муаммолардан бири ҳам айнан, шу мақсадга қаратилган бўлиб, келажак авлодни комил шахс сифатида шаклланишини таъминлашдан иборатдир.

Афсуски, барча мамлакатларда бўлгани сингари бизнинг ўсиб келаётган ёшларимиз орасида ҳам тарбияси оғир ва ноқобил фарзандлар мавжуд бўлиб, уларнинг тарбиясига алоҳида эътибор ва ёндашувни талаб этади.

Маълумки, ёшларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси билан оила, маҳалла, таълим муассасалари, оммавий ахборот воситалари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ташкилотлар, илмий-педагогик кадрлар шуғулланадилар. Тарбия жараёнида барча иштирокчиларнинг баҳамжихатлиги таъминлансагина, у ўзининг ижобий натижаларини бериши мумкин.

Тарбияси оғир болалар билан ишлаш азалдан энг долзарб муаммолардан бири бўлиб келган.

Бу муаммонинг юзага келиш сабабларини чуқур таҳлил қилар эканмиз, энг аввало, туғилган боланинг уни дунёга келтирган шахсларнинг кимлиги, иккинчидан, у қандай ижтимоий муҳитда туғилиб вояга етиб, улғайганлигига эътиборни қаратишимиз лозимдир.

Агар биз фарзандларимизни ҳар томонлама етук қилиб тарбияламоқчи бўлсак, яъни комил инсонни вояга етказишимиз учун уни, аввало ҳар томонлама ўрганишимиз лозим. Тарбияси қийин болаларнинг ҳатти-ҳаракатларини психологик таҳлил этиш ва уларга амалий жиҳатдан кўмак бериш, мазкур йўналишда ҳеч бўлмаганда содда ва бажарилиши осон бўлган амалий машғулотлар ўтказиш кўникма ва малакаларига эга бўлишимизни талаб этади.

Бу жуда мураккаб ишлардан бири ҳисобланади. Агрессив хулқли болаларнинг ота-оналари тез-тез болага нисбатан ёқимсиз ҳиссиётни бошдан кечирадилар ва болага ёрдам бериш учун эмас, балки болани «юввошлантириш» учун психологик консультацияга мурожаат қиладилар. Улар боланинг тинчлантирилишини ва бола уларни хафа қилувчи ишларини тугатишини истайдилар.

Кўп ҳолларда агрессив хулқли боланинг ота-онаси тушкунликка тушган ва ҳаётдан норози одамлар бўлишади. Кўпинча собиқ агрессив хулқли болалар ўзларининг психологик қийинчиликларини ўз болаларига ўтказадилар. Шу сабабли психолог биринчи навбатда боланинг ота-онаси билан психотерапевтик иш олиб бориши лозим. Психолог қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратиши лозим.

Биринчидан, ота-онанинг кадр – қимматига негатив таъсир этишдан қочиш лозим (Сиз ўз болангизнинг шахси бузилиши ҳақида ҳеч нима билмайсиз, ҳозир мен сизга тушинтириб бераман). Ота-онанинг шахсиятига тегмаган ҳолда вазиятни аниқлаб олиш лозим. Ота-оналар баъзан ўзлари ҳаётида эришолмаган нарсаларига фарзандлари эришишини ҳохлайдилар ва ундан талаб қиладилар (Масалан, мен таниқли рассом, врач ёки бирор бошқа касб эгаси бўла олмадим, болам бўлиши керак).

Иккинчидан, ота-она болага бўлган установакисини ўзгаритириши лозим. Улар агрессив хулқли болани ношукур деб ҳисоблашади. Ўзларининг жаҳли ва таъна маломатларига жавобан боланинг айбдорлик туйғусини ҳис қилишини, афсусланишини, кечирим сўраши ва уларни тинчлантиришини кутадилар. Бу юз бермаганидан улар аччиқланади ва болани «беъмани, бузилаган, ёмон» ҳисоблашади. Ота-онани болага ачинишга чақириш лозим ва кўрсатиб ўтиш керакки, ҳар доим агрессив бола биринчи навбатда бахтсиз бола. Ота-онага психолог ғзабнинг намоён бўлиш механизмларини ва яна агрессивликни эмоционал бузилиш сифатида кўрсатиб ўтиши лозим.

Учинчидан, ота-онага ўзларининг болалик хотираларини, ўша даврдаги агрессив қилмишларининг сабабларини эслатиш керак. Балки бу кўпгина шахсий комплексларни очиши мумкин. Бу ҳолатда уларга психик ёрдам кўрсатиш ва шахсиятини барқарорлаштириш керак бўлади. Болалар муаммоси ҳар доим оилавий муоммоларни кўтаради. Болани ўраб турган одамлар ёрдамсиз унинг ўзига алоҳида ёрдам кўрсатиш деярли мумкин эмас. Боланинг ўзини алоҳида ажратиб олиб ёрдам кўрсатилганда ҳам бу яхши самара бермайди, чунки оиладаги муаммолар агрессиянинг яна қайтарилишига сабаб бўлиши мумкин.

Тўртинчидан, бола туғулгунча ва чақалоқлигининг биринчи ойларида ота-онанинг унга бўлган муносабатини аниқлаб олиш лозим. Баъзан бола онанинг «мажбурий» ёки «тасодифий» хомиладорлиги асосида дунёга келган бўлиши мумкин. Бу ҳолатда ота-она қаттиқ бир қарорга келиши лозим. Агар бола уларнинг хохишисиз туғилган бўлса ҳам барибир ота-она унга ғамхўрлик қилишга бурчли. Мабодо ота-она унинг дунёга келишини хоҳлаган бўлсалар ҳам, аммо у «жаҳлдор, қулоқсиз, чидаб бўлмайдиган бўлиб қолганидан кейин унга бўлган муносабатини ўзгартирган бўлсалар, уларнинг шахсиятини ерга урмаган ҳолда шуни кўрсатиш керакки, бола ўзининг хулқи билан уларнинг ҳаракатларига жавоб беряпти холос.

Агрессив хулқни «ёмон» билан бир хил ҳисоблаш мумкин эмас. Оғир, хавфли вазият пайдо бўлганида агрессивлик ҳимоя, баъзида эса вазиятни бартараф этувчи функцияни бажаради. Агрессив хулқ айниқса болада ёшга хос бўлган ўтиш даврида кузатилади. Бу шундан далолат берадики, ёш даврлари кризиси пайтида боланинг яшаши қийинлашади, ҳар қандай мураккаб вазиятда бола қийинчиликни ҳис қилади ва шу сабабли агрессив хулқнинг элементларини кузатиш мумкин. Бу нормадаги болага ҳам, агрессив хулқли болага ҳам бирдек тегишли. Аффектив бузилиш бўлганида агрессия одатий ҳодисага айланади, ҳатто хулқ-атворнинг бирдан бир шакли бўлиб қолади. Бироқ бунга қарамасдан, бола хулқида агрессивликнинг бор бўлиши улар билан ўзоро муносабатда қийинчилик туғдиради. Агрессив тенденцияларни тасодифий салбий ҳолат деб баҳолаб бўлмайди.

Шуни эсда тутиш керакки, аффектив тараққиёт жараёнида бола активлиги қонуний равишда ошиши мумкин. Одатда, катталар ёрдамида ўтказилган психокоррекциянинг бу зарурий босқичида бола ўзини қуршаган реаллик билан нисбатан адекват турдаги мулоқотни ўзлаштириши мумкин.

Бола агрессиясини коррекция қилишни унинг сабабини аниқлашдан бошлаш лозим. Агар агрессия эмоционал мотивацион сферанинг бузилиш сабабли бўлмаса коррекцион фаолиятни уни йўқотишга эмас, балки салбий оқибатларга олиб келувчи агрессив хулқни юмшатиш ва унинг намоён бўлишига йўл

кўймасликка қаратиш лозим. Шу билан бирга катталарни унинг агрессив реакциясига адекват идрок қилишга тайёрлаш лозим.

Бошқа ҳолатда, яъни агрессия эмоционал мотивацион сферанинг бузилишини намоён бўлиши бўлса, психолог ёки тарбиячи ҳаракати боланинг мустаҳкамланмаган агрессив ҳаракатига йўналтирилиши лозим.

Коррекцион методиканинг қўлланиши тўлиқлигича агрессив хулқнинг сабабига боғлиқ бўлади. Коррекция методи конкрет ҳодиса ва конкрет болани ҳисобга олган ҳолда танланади. Бу қуйида шарҳланган коррекция методларини диққат билан кўриб чиқишни тақозо этади.

1. Агрессияга мойилликни эътиборга олмай қўйиш, унга атрофдагиларнинг диққат қаратмаслиги.

2. Агрессив ҳаракатларни ўйин мазмунига киритиш ва унга янги эмоционал мазмун бериш. Бу орқали боланинг атрофдагиларга зарар етказмаган ҳолда агрессив мойиллигини чиқариб юбориш (масалан, қароқчи ва казаклар ўйинида агрессив хулқли болага қароқчи ролини бериш).

KASB TANLASHDA NIMALARGA AHAMIYAT BERISH KERAK?

*Jo'rayeva Lola Olimovna
Zarafshon shahar 1-XTCHO'IM psixologi*

Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb-nafaqat daromad topish manbayi, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat hamdir. Kasb tanlash inson hayotida muhim qadam bo'lib, yosh avlodning butun umridagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Kasb to'g'ri tanlanganda ular o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko'proq naf keltirishlari mumkin. Kasbni to'g'ri tanlashda har bir maktab o'quvchisining qobiliyati, qiziqishi, mayiliga va imkoniyatlariga, uning sog'lig'i, o'zlashtirishi va hissiyotlariga mos bo'lishi lozim.

Ushbu sifatlar o'quvchining faoliyati davomida qaror topadi va namoyon bo'ladi. "Kim bo'lsam ekan?" degan savol har bir o'quvchi uchun eng asosiy muammolardan biridir. Kasbni to'g'ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko'rsatgichlariga erishishga yordam beradi. O'quvchining kasbni noto'g'ri tanlashi esa katta moddiy, moliyaviy zarar yetkazdi.

Psixologlar bunday ma'suliyatli qaror qabul qilishda faqatgina atrofdagilarning tavsiyasiga tayanish emas, taxlilning boshqa muqobil variantlarini ham qo'llashni taklif qilishadi.

Psixologik testlar:

Inson o'zida qaysi kasbda moyillik va qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali birlamchi bosqichda aniqlab olishi mumkin. Faqatgina bunda onlayn platformada duch keladigan testlar emas, soha mutaxassislari ishlab chiqqan professional testlarga tayanish kerak. Shuni yodda tutish kerakki, test natijalariga "hukm" deb qarash kerak emas. Ular faqatgina moyillik yo'nalishini aniqlab beradi.

Bilimlarni kengaytirish:

Turli kasbiy yo'nalishlar, istiqbolli soha va mutaxassisliklar to'g'risida bilimlarni mustahkamlash kerak.

Har yili o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha kitoblar nashr qilib boriladi. Ularda hattoki maktab o'quvchilariga tanish bo'lmagan kasblar bilan ham tanishish mumkin. Ehtimol, ulardan biri sizning tanlovingiz bo'lishi mumkin.

Kasblar bilan yaxshiroq tanishib chiqish:

Maktabni bitirish arafasida o'spirin ko'pincha kasblar haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'ladi. Ular tanlagan kasblarning faqat ijobiy yoki aksincha salbiy jihatlarini ko'rishadi. Bunda ota-onalar farzandlariga ko'p narsalarni aniqlashtirishda yordam berishlari kerak. 9-sinfdan boshlab asta-sekin o'zingiz tanlagan yo'nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlardagi "Ochiq eshiklar" kunlarida ishtirok etish maqsadga muvofiq.

Istaklarni tizimlashtirish:

O'quvchi o'zini qiziqtirayotgan kasblarni vertikal ravishda va tanlajak kasbdan nimani istashini gorizontal ravishda joylashtirib chiqib, jadval iloji boricha batafsil

to'ldirilishi kerak. Tanlangan kasb sohasi va kishi undan nimalarni kutayotgani bir-biriga mos kelsa, "+", mos kelmasa "-"ishoralarini qo'yish lozim. Bu shaxsda o'z istaklarini aniqlashtirishga va shu istakka mos kasb haqidagi tasavvurni aniqlashtiradi.

Amaliyot:

Qaysi kasbni tanlash haqida bir qarorga keldi deylik. Endi o'zini shu yo'nalishda sinab ko'rish kerak. Buning uchun turli o'quv-guruhlariga bo'lgan o'quv kurslari mavjud bo'lib, ular transport vositalari mehanikasidan tortib, tadbirkorlikkacha o'quvchini sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

Zaxira ayradromi:

Asosiy tanlovdan tashqari, qo'shimcha ravishda e'tiborga olinuvchi "zaxira" tanlov ham bo'lishi kerak. Chunki hayotni oldindan prognozlashtirib bo'lmaydi, unda har qanday holat bo'lishi mumkin. Tanlangan yo'nalish bo'yicha o'qishga kira olmay qolgan taqdirda tushkunlikka tushmaslik lozim, boshqa optimal variantlarni ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Qaror mustaqil qabul qilinadi:

Ota-ona tomonidan beriladigan maslahatlar foydali, lekin ular yakuniy qaror bo'lmasligi, yordamchi ta'sirga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Yoki ota-ona o'zi yoshligida egallay olmagan, armon bo'lib qolgan kasbga farzandini yo'naltirishi ham noto'g'ri. Farzand – alohida shaxs va uning o'z istaklari bor. Bu istaklar avvalroq armon bo'lgan xohishlar uchun qurbon bo'lmasligi kerak.

Oilaviy an'analarini davom ettirish majburiy emash:

Farzand onasi yoki otasining kasbini davom ettirmoqchi bo'lsa, bu juda yaxshi. Lekin bunga uni majburlash noto'g'ri. Otaning shu kasbda o'z baxti va muvaffaqiyatini topgani o'g'ilda ham xuddi shu ssenariy takrorlanadi degani emas. Inson yoqtirmagan ishi bilan butun hayot davomida shug'ullansa, o'zini baxtsiz his qiladi.

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak:

- O'quvchini yaqindan biluvchi insonlar - oila a'zolari, do'stlari bilan maslahatlashgan holda, o'ziga qaysi kasb ko'proq mos kelishi haqida so'rab olishi mumkin;

- Ommaviy axborot vositalari yangi kasb sohalari haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi. Maxsus manbalar (adabiyatlar, onlayn platformalar) talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar haqida ma'lumotlar beradi.

- Istaklar va hayotdagi maqsadlardan kelib chiqish kerak.

- To'plangan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish zarur. "Hayotda menga nima kerak?" degan savolga javob berishga harakat qilish kerak.

- Imkoniyat bo'lsa, kasb tanlash bo'yicha malakali mutahassis bilan maslahatlashish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov "Inson baxti uchun yaratiladi" Toshkent 1999 yil.

2. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi.

3. www.ziyonet.uz

YOSHLARNI IJTIMOIIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OILANING SALOHIYATI

*Mamajonova Madina Mahammadjonovna
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Andijon viloyat
bo'limining targ'ibotchilar kengashi a'zosi, amaloyotchi psixolog,
Andijon davlat tibbiyot instituti tyutori*

Oila – insoniyat tarixining hamma davrlarida jamiyatning negizi bo'lib kelayotgan muqaddas dargohdir. Bu dargoh millatning urf – odatlarini saqlashga ko'maklashadi. Shu bilan birga oila, kelajakda farzandlar qanday inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. Har bir millat o'z istiqbolini kamolga yetayotgan yoshlari timsolida ko'radi.

Inson avvalo oila bag'rida unib-o'sadi, shaxs sifatida shakllanadi. Oiladagi ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar keyinchalik odamlar orasida –mahalla-ko'yda, ta'lim muassasalarida sayqal topadi. Shunday ekan, vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini, jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini belgilovchi barkamol avlodni voyaga yetkazishdek ulug' vazifani oila – mahalla hamkorligisiz hal etib bo'lmaydi.

Yoshlarimiz ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Inson ongi uchun ketayotgan bugungi kurashli zamonda, hamisha ogoh, hushyor bo'lish, hali oq-qorani ajrata olmagan go'r yoshlarni bunday oqimlar domiga tushib qolishdan asrash ta'lim-tarbiya ishiga mas'ul bo'lgan ota-onalarga alohida mas'uliyat yuklaydi.

Ulug' ma'rifatparvar A.Avloniy aytganlaridek, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir. "Agar farzandga avval boshidan yaxshi tarbiya berilsa, yaxshi voyaga yetadi, ota-onanai ham baxtiyor etadi. O'z holiga tashlab qo'yilsa, baxtsiz bo'ladi. Donishmandlarimiz farzand tarbiyasi haqida ruhiy, ahloqiy, jismoniy, aqliy, nafsiy, ijtimoiy va jinsiy tarbiya berish lozimligini ta'kidlaydilar.

Darhaqiqat, oilaviy muhit, ota-ona timsoli munosib farzand tarbiyalashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki farzandlar ilk tarbiyani oilada oladilar. Oiladagi tarbiya oilaviy hayotni kuzatish, o'rnatish va yaxshi o'g'itlar eshitish orqali shakllanadi.

Bir so'z bilan aytganda farzand oilada jismonan, fikran va ahloqan tarbiyalanishi, kuchli badan, sog'lom fikr va yaxshi ahloq bilan qurollantirilishi lozim. Biz ham ajdodlarimiz qadriyatlariga tayangan holda oila muqaddasligini, butunligini saqlashimiz, farzandlarimizni vatanparvar, insonparvar, yuksak e'tiqodli, odob-ahloqli va albatta barkamol etib tarbiyalashimiz lozim.

Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma'lum bir vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy vazifalarini hisobga olish lozim.

Lekin shuni alohida qayd etish lozimki, oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy vazifasi tarbiyadir. Bolalarning aqliy, jismoniy, ahloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'ngi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-ona san'atkor, bola – san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Mustaqillikka

erishganimizdan so'ng, milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oilaning tarbiyaviy vazifasining va targ'ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning paydo bo'lishi tashvishlanarli holdir. Jamiyatning barkamol fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur vazifasi darajasiga kiradi.

Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarimizni o'zlashtiriradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

Odam bolasi faqat o'z oilasidagina va faqat o'z yaqinlari qurshovidagina o'zini tom ma'noda xotirjam, erkin his qila olishi mumkin, xolos. Bu borada oilaning o'rnini hech bir ijtimoiy muassasa bosa olmaydi. Ayniqsa, qizlar tarbiyasi ularni komillikka yetkazish, nafaqat ularni oilaga tayyorlashda balki, bilimli, ilimli bo'lib, jamiyatimiz ravnaqiga o'z hissalarini qo'shishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'g'il bolalarni oilada mustaqil hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor beriladi. Ayniqsa ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash o'g'il bolalarni tafakkurini boy, irodasini mustahkam, hayot tashvishlari va qiyinchiliklarni yenga oladigan, mard, matonatli bo'lishiga va barkamol shaxs sifatlarini ko'rsatadigan barcha insoniy fazilat va xislatlarni shakllantirishga bevosita yordam beradi.

Oila osoyishtaligini va mustahkamligini saqlash oila a'zolarining burchi va vazifasi hisoblanadi. Farzandga to'g'ri tarbiya berish, ularni ahil-inoqligi, bir-biriga ishonch, o'zaro hurmat, e'ttibor yoki kelajakda daho bo'lishida ota-onalarning o'rne beqiyosdir, chunki har bir farzandning xarakteri, qobiliyat va temperamenti o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular alohida yondashuv talab etadi. Bolaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ota-ona oilada shunday tartib-intizom o'rnatishi kerakki, kun davomida bolaning bo'sh vaqti bekorchi narsalarga sarflaydi. Buning uchun bola kun tartibini mazmunli tashkil etish yuzasidan maslahatlar berish, nazoratga olish,

rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash lozim, chunki har bir rag'bat bolada o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda bolalar tarbiyasi, oiladagi emotsional muhit, oilani moddiy jihatdan ta'minlanganligi, sayr-tomoshalarni tashkillashtirish, "xo'ayin", "uy bekasi" rollari, oilaviy submadaniyatni tashkillashtirish kabi nozik va e'tiborli jihatlarga mas'uliyat bilan yondoshish kerakki, bular kelajagimiz uchun foydadan xoli emas.

Shuning bilan bir qatorda ba'zi oilarda bolalarga bo'lgan e'tiborsiz va loqaydlik nosog'lom muhitning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda va bu bola ruhiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi. Jumladan, ota-onaning bolalar oldida tez-tez janjallashuvi, o'zaro hurmatsizlik, qo'pol muomalada bo'lish bolani kamgap, qo'rqq, jizzaki, odamovi bo'lishiga sabab bo'ladi, natijada ko'pchilik oldida fikrini bayon etishga qiynaladi. To'g'ri hech bir ota-ona farzandiga hech qachon yomonlikni ravo ko'rmaydi, aksincha, kelajakda yaxshi inson, yaxshi kasb egasi bo'lsin deb yaxshi niyatlar qilishadi. Ammo yuqoridagi kabi holatlar o'z vaqtida oldi olinmasa bola tarbiyasini izidan chiqarishi mumkin.

"Bola boshidan" - deydi dono xalqimiz. Farzand tarbiyasi ota-ona bergan tarbiyaga qarab baholanadi. Farzandning odobli yoki odobsiz bo'lishida ota-onaning o'rni kattadir.

Bola tarbiyasi bilan astoydil shug'ullangan oilalarning bolalari hayotda o'z imkoniyatlarini qiynalmasdan namoyis eta oladilar. Bola tarbiyasida ota-onaning roli muhim hisoblanadi. Tarbiya ishi qanchalik erta boshlansa, hosil ham shuncha erta ko'zga tashlanadi. Oilada farzand tarbiyasida qo'yilgan har bir xato va kamchilik insonning kelajagiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, to'g'ri tarbiya kelajak poydevori. Bola tarbiyasi yengillik bilan emas, balki sabr-toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, sezgirlik bilan bo'lishi kerak.

To'g'ri tarbiya, oilaviy muhit, to'g'ri tanlangan do'st, vaqtdan unumli foydalanish bu insonni ulug'likka chorlaydi va hayotida hech ham adashmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oila qadim zamonlardan buyon hayot davomiyligini ta'minlab kelayotgan manbadir. Oilasiz jamiyatni tasavvur etib

bo'lmaydi. Oilaning mustahkamligi, barqarorligi esa balog'at ostonasida turgan yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq.

Barchamizga aqlan yetuk, ma'nau barkamol, jismonan sog'lom farzandlar kamolini ko'rish nasib qilsin.

MTTLARDA BARKAMOL AVLODNI SOG'LOMLASHTIRISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINING O'RNI

Imomqulova Dilrabo Jabborovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 5-sonli DMTT
jismoniy tarbiya yo`riqchisi

“Maktabgacha ta`lim tizimiga alohida e`tibor qaratayotganimiz bejiz emas,-Yoshlar tarbiyasiga bugundan e`tibor bermasak,ertaga kech bo`lishi mumkin.”
O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Insonning taraqqiy etishida, shakllanishida faol harakat, ayniqsa jismoniy harakat eng muhim omillardan biridir. Bir qator olimlarning tajriba va kuzatuvlaridan ma'lumki, optimal harakatlanish bolalarning jismoniy rivojlanishi va qobiliyatining oshishi uchun imkoni yaratadi. Agar harakatchanlik xaddan tashqari oshirilsa, jismoniy mashqlarning foydasi pasayadi va organizmga salbiy ta'sir etadi, harakatchanlikning haddan tashqari oshishi yosh shug'ullanuvchilarga qattiq ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi davr 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Aynan shu davrda organizmning muhim tizimlari va ularning funksiyalarini intensiv o'sishi va rivojlanishi, har tomonlama jismoniy, ruhiy, ma'naviy qobiliyatlari belgilangan elementlarining rivojlanishi uchun zaruriy baza yaratadi. Bola umrining bu davri uning organizmini chiniqtirish, eng sodda (elementar) hayotiy-zaruriy harakat malakalari, gigienik ko'nikmalarni shakllantirish uchun nisbatan qulay davrdir.

Bo'lajak avlod – davlat boyligi. Insoniyat ko'p yillar davomid yosh avlodni sog'lom tarbiyalash masalasiga ham ijodiy, ham amaliy yondashib kelgan.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'illanish, sog'likni mustahkamlash, shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodini uyg'un rivojlantirish jarayonining ajralmas bir qismi hisoblanishini ta'kidlab, barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning o'rnini ko'rsatib berdilar. Sog'lom avlodni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola organizmining shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ta'siri beqiyos hisoblanadi. Inson organizmi muntazam ravishda harakatlarga biologik ehtiyojni sezadi. Bu harakatlar jismoniy kamolotga erishishda va intellektual rivojlanishda faol biologik stimul vazifasini bajaradi.

Ma'lumki, jismoniy sifatlar insonda tug'ilganidan boshlab shakllana boradi. Lekin bolada shu sifatning qay darajada shakllanishi, oddiy yoki murakkab harakatlarni o'zlashtirib olishi faqatgina u yashab kelayotgan muhitga emas, balki bolada muayyan jismoniy ko'nikmalarni qanday vositalar yordamida rivojlantirishga ham bog'liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy madaniyatini shakllantirishdagi umumiy vazifalar – sog'lomlashtirish, bilim berish va tarbiyalash vazifalari deb turli xil ko'rinishda hal qilinadi. Sog'lomlashtirish jismoniy madaniyati individning yoki jamiyat a'zosining harakat sifatlarini rivojlantirish, tarbiyalashni maqsad qilib qo'ymaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lomlashtirish vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-bolani chiniqtirish bilan tashqi muhitning ta'sirlariga organizmini qarshiligini oshirish. Tabiatning sog'lomlashtiruvchi omillari (quyosh nuri, suv, havo vannasi)ni me'yorli dozasi vositasida bolalarning hali quvvati past organizmining himoyalaniish kuchini orttirish nazarda tutiladi. Bu vazifani ijobiy hal qilish bilan shamollash (nafas yo'llari, tumov, yo'tal va boshqalar) va yuqumli kasalliklar (angina, grip va boshqalar)ga organizmining qarshiligi ortadi.

-harakat tayanch apparati mustahkamlanadi va qaddi-qomati to'g'ri shakllantiriladi (ya'ni har qanday faoliyati davomida tanani ratsional dozada ushlab o'rganish amalga oshiriladi).

Oyoqlari kafti, tovonni muskullarini mustahkamlashga e'tiborni qaratilishi orqali yassi tovonlikni oldi olinadi, aslida qayd qilingan jismoniy rivojlanishdagi anatomic nuqson

keyinchalik bu bolaning harakat faolligini aytarli darajada chegaralanishiga sabab bo'lishi mumkin. Asosiy muskullarini barchasini garmonik shakllanishi uchun bolaning tanasini barcha tomonlarini ayniqsa, kundalik hayotda kam faoliyat ko'rsatadigan muskullarini, kuchsiz muskullarni mashqlantirish va ularni trenirovkasi uchun mashqlarni tanlashni bilish soha mutaxassisining kasbiy tayyorgarligi vazifalaridan hisoblanadi.

Kichik yoshdaligidanoq to'g'ri qaddi-qomat haqida bolada tasavvurni shakllantirishning ahamiyati katta. Ularni ishontirishning amaliyvositasi sifatida yelkasi chiqqan, bukraygan, kuragini simmetriyasi buzilganlarni, ayniqsa orqaning katta muskullarini yetarli darajada rivojlanmaganligi, tanasini fiziologik nuqtai nazaridan ko'p vaqt davomida noqulay holatda ushlab orqali umurtqa pog'onasini qiyshayib qolishidek holatlarni sodir bo'lishidagi sabablar bolalar ongiga singdiriladi.

-vegetativ organlarining funksional imkoniyatlarini oshirishga ta'sir etish. Bolaning aktiv harakat faoliyati uning organizmini yurak - tomir va nafas apparati tizimi, modda almashinuvi, hazm qilish va issiqlik almashinuvini optimallashtirishiga sabab bo'ladi, organizmdagi chiqindilarni saqlanib qolishini sodir bo'lmasligini oldini oladi. Jismoniy madaniyat organizmni tabiiy o'sishi va shakllanishi jarayoniga optimal harakter berish bilan unga qulay sharoit yaratadi va bu bilan bola organizmining barcha tizimlarini me'yorida faoliyat ko'rsatishiga yordam beradi.

-jismoniy qobiliyatlari (koordinastiyaviy, tezkorligi va chidamliligi)ni tarbiyalash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash ularning qaysi birinidir alohida ajratib olib tarbiyalashga yo'naltirilmasligi, aslida uning teskarisi har tomonlama garmonik rivojlantirish prinsipiga rioya qilib vositalarni shunday tanlash kerakki, faoliyat aktivligi mazmuniga va harakteriga ko'ra barcha harakat qobiliyatlari va sifatlarini rivojlantirishga sabab bo'ladi.

Bolalik davri jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlariga turg'un qiziqishni shakllantirish uchun o'ta qulay davr hisoblanadi. Lekin uni amalga oshirishda qator shartlarga rioya qilishga to'g'ri keladi. Ular:

-eng avvalo belgilangan harakat vazifasini bolaning kuchiga loyiqligi, munosibligini ta'minlash orqali harakatlarni bajarishda muvaffaqiyatlarga erishilgandan so'ng yanada kattaroq vazifalarni bajarishda yanada faolroq bo'lish;

-qo'yilgan vazifalarni bajarilishini doimiy baholash, rag'batlantirish, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga ijobiy motivlarni shakllanishiga erishish;

-mashg'ulotlar jarayonida bolalarga eng sodda va oddiy jismoniy bilimlarni berish bilan bolani intellektual qobiliyatlarini rivojlanishiga erishish. O'z navbatida bu ularni anglash imkoniyatlarini kuchaytiradi va iqtidori, salohiyatini kengaytiradi.

Jismoniy madaniyat va sport sohasini yirik olimlarining fikricha, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiyalashdan maqsad shaxsning jismoniy va ma'naviy madaniyati asoslarini shakllantirish, salomatligi zaxiralarini boyitish bilan sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati sohibiga aylantirish orqali faol harakatlanish bilan uzoq umr ko'rish qadriyatlar tizimi sifatida yuksaltirilishi g'oyasi zaruriyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Maxkamjonov K.M., Nasriddinov F.N. "O'zing bajarishga o'rgan". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. 1996 y.
2. Abdullayev A. va boshqalar. "Jismonan barkamol avlod orzusi". Farg'ona, 2003 y.
3. Usmonxo'jaev T.S., Islomova S.T. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya", "Ilm-Ziyo" 2006 y.

PSIXOLOGIK KORREKSIYA

Sanayeva Munira
Navoiy viloyati Xatirchi tumani 18-maktab psixologi

Annatsiya: Psixologik xizmatning psixokorreksiya yo'nalishi inson shaxsi va individualligini tarkib toptirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritildi.

Обсуждено значение психокоррекционной психологической службы в формировании личности и индивидуальности человека.

The importance of psycho-correctional psychological services in the formation of human personality and individuality is discussed.

Kalit so'zi: "Korreksiya qilish atamasi, korreksiya samaradorligi rivojlantiruvchi ishlar dasturi"

Psixologik xizmatning psixokorreksiya yo'nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir o'tkazishni taqozo qiladi. Xalq ta'limi tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan qoida, mezonga asoslanib tashkil qilishdan iborat bo'lib, yosh davr xususiyatlariga binoan (bolalar, o'quvchilar) psixikaning rivojlanishi, shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini amaliyotda hisobga olgan holda faoliyat olib borish, o'qituvchilar jamoasiga bolalar, o'quvchilar ta'lim-tarbiyasini individuallashtirishda yordamlashish, ularning qobiliyati, maylining darajasiga qarab o'qituvchilarga korreksion (tuzatish) ishlarni amalga oshirishda ko'rsatmalar berishdan iborat. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa - bu bolalar, o'quvchilar, talabalar o'sishida (rivojlanishida) kechikish (orqada qolish), ularda xulqning buzilishi, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi hisoblanadi.

Korreksiyaning umumiy modeli – bu har bir shaxs taraqqiyoti bir butun olingan shartlar tarmog'idir, deydi. U insonning tevarak-atrof, uni o'rab turuvchi dunyo haqidagi farazlarini chuqurroq, haqqoniy, kengroq bo'lishiga, insonlar haqida, ular orasidagi munosabat, jamiyatdagi o'zgarishlar, ularning faoliyatlarini analiz qila olish, kuzata olishiga sharoit yaratadi.

Psixik taraqqiyotni tuzatishlar "korreksiya qilish" atamasi dastlab deffektologiyada kasal bolalarga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, amaliy yosh psixologiyasining rivojlanishi bilan "tuzatish" tushunchasi normal psixik taraqqiyot uchun ham qo'llanila boshladi. D.B. Elkonin tuzatishning yo'nalganligi korreksiya xarakteriga bog'liq ravishda tuzatishning ikki usulini ajratishni taklif qiladi:

1. Taraqqiyotdan chetlashish belgilariga qaratilgan simptomatik tuzatish.
2. Taraqqiyotdan chetlashish sabablari va manbalariga qaratilgan tuzatish hisoblanadi. Psixokorreksion tadbirlar rivojlanishdagi og'ishlarni to'g'rilashga yo'naltirilgan.

Bolani har tomonlama psixologik tekshirib, keyin u bilan olib boriladigan tuzatish ishlarini ko'rsatish mumkin. Psixolog tuzatish metodlarini rejalashtirayotganda bolani maktabga moslashishga ijobiy ta'sir etadigan omillarni, ya'ni o'quvichini o'zini to'g'ri baholashi, oilada to'g'ri tarbiyalanishi, oiladagi kelishmovchiliklarning bartaraf etilishi, tengdoshlarorasida bolani hurmat qozonishini hisobga olish lozim. Maktab psixologining o'zlashtira olmovchi boshlangich sinf o'quvichilari bilan olib boradigan ishlari uning faoliyatidagi amaliy yo'nalishi tashkil etadi. Psixolog bunday o'quvichilar bilan olib boradigan ishning asosiy yo'nalishlari haqida gapirishdan oldin o'zlashtiraolmaslik sabablarini ko'rib chiqamiz. Maktabgacha yosh davridan maktab yoshi davriga o'tish ancha qiyin kechadigan davrdir. Odatda maktabga borish bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar va muammolar quyidagilardan iborat:

1. Yangi o'quv tartibi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar. Bunday qiyinchilik ko'proq maktabgacha tarbiya muassasalariga bormagan bolalar uchun xosdir.

2. Bolaning sinf jamoasiga moslashuvidagi qiyinchilik. Bu holat bolalar jamoalariga yetarli darajada ishtirok etmaganlarda ko'proq uchraydi.

3. O'qituvchi bilan o'quvichi munosabatlarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar.

4. Bolaning oilaviy sharoiti o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar.

Bu qiyinchiliklar bola rivojlanishining yangi ijtimoiy sharoitlarida asta - sekin o'z ifodasini topadi. Psixologlar maktabdagi psixogen buzilish bolalarning sinfda o'qishidagi qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlaridan biri deb ko'rsatadilar.

- Korreksiya samaradorligini kim va nimaga asoslanib baholaydi?

Psixokorreksion faoliyatni amalga oshirish quyidagi jarayonlardan iborat:

1. Psixolog bolalar, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi, ular psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur ishlab chiqarishga butun faoliyatini yo'naltiradi, ijtimoiy o'sish talabiga javob beruvchi, umuminsoniy, etnopsixologik qonuniyatlar muhitida kamolotga intiluvchi shaxsni tarkib toptirishni bosh maqsad deb tanlaydi.

2. Amaliyotchi psixolog bolalar, o'quvchilarning psixik taraqqiyotidagi, xulqi va muomalasidagi nuqsonlar hamda kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqadi va amaliyotga uni tatbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus

mashg`ulotlar, buzilishni kamaytirish mashqlarini o`tkazadi, ijodiy (kreativ) qobiliyatlarni o`stirish maqsadida treninglar olib boradi.

3. Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar dasturi o`z ichiga psixologik va pedagogik muammolarni qamrab oladi. Korreksion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihati esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida o`tkaziladi va butun mas'uliyat uning zimmasiga tushadi.

4. Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda va holatlarda tashkil qilinadi:

a) amaliy psixologning maxsus ishi, mashg`uloti ayrim bolalar, o`quvchilar bilan alohida o`tkazilishi rejalashtiriladi;

b) psixologlarning boshqa bir faoliyati maxsus ravishda amalga oshirilib, bolalar, o`quvchilar guruhlariga tarbiyaviy ta'sir o`tkazishga yo`naltirilgan bo`ladi;

v) ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg`ulotlar olib borish nazarda tutiladi.

5. Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korreksion ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo`nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari o`z aksini topsin: dasturni xalq, etnos, millat, elat tarixi, an'analari, rasm-rusumlari, udumi, odati, stereotipi kabilarni hisobga olgan holda tuzish maqsadga muvofiq.

6. Maktab o`quvchilari bilan murabbiylar o`rtasidagi nomutanosiblikni yo`qotish maqsadida maxsus mashg`ulotla ro`tkazish: ulardagi o`qishdan, ijtimoiy muhitdan, egallagan o`rnidan, mavqeidan qoniqmaslik hissini kamaytirish uchun trening, ishchanlik o`yinlari, psixodramadan foydalanish.

7. Emotsional zo`riqishning oldini olish va uni kamaytirish niyatida maxsus xonalar jihozlash (xona jahon standartlariga javob berishi, boshqaruv pulti, ekranvositalari, auto trening, sotsial trening, texnik vositalariga, ilmiy-amaliy metodikalarga ega bo`lishi lozim).

8. Korreksion ishlar ma'lum tartibda, ilmiymtanlov asosida, muayyan seans bo`yicha o`tkazilishi shart. Bunda emotsional zo`riqishga uchragan shaxs millati, yoshi,

jinsi, individual-tipologikxususiyati, ta'sirlanishdarajasihisobgaolinishi kerak; tuzatishishlarimashg`ulot, faoliyat, kasb xususiyatiga mos, mutanosib bo`lishi ta'sir o`tkazish samaradorligini oshiradi; unda yapon uslublarini qo`llash ham zarur ma'lumotlar to`plash va tanglikni yo`qotish imkonini yaratadi.

Korreksion mashg`ulot davomida psixologik treningning quyidagi ko`rinishlaridan foydalaniladi:

1. Guruhiy ko`nikmalar treningi – bunda qatnashuvchilar o`zini odamlar orasida yaxshiroq tushunishlari va xulq-atvorini baholay olishlari shakllantiriladi. Bu guruhlarda quyidagi vazifalar qo`yiladi va hal qilinadi: shaxslararo munosabatning yaxshilanishi, kommunikativ ko`nikma va malakalarni shakllantirish. Bunda qatnashchilar o`zaro faoliyatning 3 ta bosqichini bosib o`tadilar:

2. Uchrashuv guruhleri. Insonlarning o`z ijtimoiy tajribalari bilan mustaqil shug`ullana olishlariga yordam beradi. Bunday guruhlarda maxsus usullar yordamida shaxslararo ishonch, fikrlar va hissiyotlarni erkin ifodalash muhiti keltirib chiqariladi. 3. Geshtalt guruh treningi. Bunda ishtirokchilar, avvalo, o`z hissiyotlarini anglab va tahlil qilishni o`rganadilar.

4. Psixodrama guruhi. Bunda mijozga ta'sir ko`rsatadigan hayotiy haqiqiy spektakllar yoki ba'zi bir vaziyatlar ifodalanadi

PROBLEMATIC TEENAGERS AND PSYCHOLOGICAL INTERACTION

*K.Naurizbaeva
NukusSPI, MA student*

Key words: teenager, behavior, problem, psychology, selfishness

Таянч сўзлар: ўспирин, хулқ-атвор, муаммо, психология, эгоизм

Ключевые слова: подросток, поведение, проблема, психология, эгоизм

Resume: The given article deals with some problems of upbringing and education process of teenagers. According to the analyzed materials and some

recommendations of the experts we try to find solution to the problematic cases in teaching teenagers.

Резюме: Ушбу мақолада ўсмирларнинг таълим жараёнининг баъзи муаммолари кўриб чиқилади. Таҳлил қилинган материаллар ва мутахассисларнинг баъзи тавсияларига асосланиб, биз ўсмирларни тарбиялашда муаммоли ҳолатларга ечим топишга ҳаракат қилмоқдамиз.

Резюме: В данной статье рассматриваются некоторые проблемы воспитательно-образовательного процесса подростков. По проанализированным материалам и некоторым рекомендациям специалистов мы пытаемся найти решение проблемных случаев в обучении подростков.

In modern society, due to the insufficient influence on children of all social institutions (families, educational institutions, cultural institutions, the media), the progressive alienation, cynicism, cruelty and aggressiveness of children cause anxiety in adult society. Selfishness, deceit, rudeness, laziness, secrecy, hypocrisy formed in childhood can lead to various mental anomalies that are directly related to various types of deviant behavior. The greatest increase in deviations in behaviour is observed in adolescence during the transition from childhood to adulthood, entering a new social position, forming a conscious attitude towards oneself as a member of society [<http://idum.uz/uz/archives/10122#comments>].

The sources of deviant behavior are the deformation of deep psychological structures or resource limitations - external (the situation is not able to provide the necessary funds) and internal (the teenager does not know that the goal pursued can be achieved in a socially acceptable way) [5]. The beginning of many problems of adults comes from their childhood from the imperfect educational influences of their parents. According to K. Leonhard's view the personality of adolescents potentially contains not only a socially negative charge, but also the possibility of socially positive achieving [3]. Defects in family education are difficult to correct, but can be prevented by the timely intervention of specialists: a psychologist, a social worker.

The activities of a practicing psychologist dealing with the problems of adolescence and youth are quite diverse. This is a help in adaptation, mastering new social roles, choosing a future path in life, these are the problems of an existential nature, prevention and psycho-correction of deviant behaviour, etc. Psychological prevention and psycho-correction of maladaptation of a teenager includes a comprehensive psychological and pedagogical study of the personality of a teenager (personality diagnostics), identification and study of adverse factors in the social environment (environment diagnostics), correction of the environment (including inadequate methods of education) and psycho-correction of disharmonious personality traits of a teenager.

V.N. Myasishchev told that any changes in one of the personality subsystems cause changes in other subsystems. From the standpoint of a systematic approach, deviations in behavior do not act as individual symptoms, but have a multifactorial structure. According to researchers, there are such factors as: individual (acts at the level of psychobiological prerequisites for antisocial behavior), psychological and pedagogical (manifested in defects in school and family education), socio-psychological (determines unfavorable features of interaction with peers in different environments), personal (manifested in an active-selective attitude to the environment of communication, to educational influences, in personal values), a social factor (determined by the social and economic conditions of society) [6].

When dealing with the psychological correction of children with deviant behavior, it is necessary to focus on its diversity and multilevelness. At present, this area of practical psychology is mainly represented by empirical practice; practical psychologists pay little attention to the scientific understanding of their professional activities. Work programs are characterized by the use of various correctional and psychotherapeutic methods, which do not always have a proper theoretical and methodological basis. The chosen methods are rarely tested for compatibility and the possibility of their use in children and adolescents, the issues of the effectiveness of correctional work are not sufficiently developed, at best, the results are evaluated using one or two tests.

The theory related to socio-psychological work should be practice-oriented, so the issues of transforming theory and experimental data into practice-oriented tools are very relevant. Just understanding or explaining the problems of children at risk is not enough to change their situation. The theory should serve as a working tool for the activity of a psychologist and contain a set of methods and methods of work. The psychologist's responsibility includes not only the choice of an approach when drawing up a program of corrective and developmental work (integrative or eclectic), but also the beginning of the process of changing the child, as well as the actual result of psychological influence - a change in a favorable direction that develops this child or a group of adolescents.

The effectiveness of corrective work depends on various factors. A special place belongs to the interaction of a psychologist and adolescents, since it is known that the success of any type of activity depends on the establishment of interaction between the participants. In the process of interaction, an adult can influence motives, goals, decision-making, execution and control of actions, i.e. on all components of the child's activity, including stabilization and behavior correction.

The process of interaction consists of joint actions, spiritual verbal contact and non-verbal informational contact.

The contact between the psychologist and the client in the process of psycho-correctional interaction can be considered from two points of view. On the one hand, the main help that the client seeks is for the psychologist to "share" his situation or problem, that is, contact is a central part of the psychological interaction itself. On the other hand, contact is the medium for change, that which defines it. Therefore, if the client does not understand that the psychologist wishes him well, no help can be provided. At the same time, speaking about the peculiarities of the interaction between a teenager and an adult in the process of correctional work, it should be noted that the relationship between them is asymmetric: an adult treats a child differently than a child treats an adult.

Inequality in relationships is determined, firstly, by the fact that a teenager most often did not independently turn to a psychologist for help, and secondly, presumably, by the fact that this particular adult can provide it. If the relations of the participants in

the interaction are asymmetric, normal interpersonal communication will not occur, one of the partners will strive for this, and the other will communicate at a formal level or try to avoid communication itself. A psychologist is aware of what is still closed to the awareness of a teenager, and can help him change his understanding of his life situation. But only a teenager can make a choice.

The personality of a psychologist includes both purely professional and universal components of the professional self. Communication between a child and a psychologist is not only professional psychological communication, but also communication between a person and a person, or rather, communication between an adult and a child. And it depends on the psychologist that the child understands that this adult is his Adult. Honesty, fairness, and the adult's lack of intention to mislead a teenager will help earn the teenager's trust. In this case, we will be able to say that instead of communication between an adult and a child, which is customary for a teenager, there is communication between a “full” adult and a child. In psychoanalytic terminology, this means: to give children the opportunity to adopt a working position, identifying themselves with a psychologist, and not fulfilling the abstract requirements of the super-ego [7].

The professionalism of a psychologist is to overcome the “scissors effect”, when an adult at work, usually full of understanding of the child's problems, turns only into a carrier of a function potentially directed against a teenager [7]. The professional interaction of a psychologist and a teenager presupposes the empathic position of the psychologist in relation to the child - the position from which the psychologist proceeds in his attempt to understand the child. It is empathic understanding that makes it easier to gain knowledge about the child, about the conditions of his life, only then the psychologist will be able to look at the world through the eyes of a child and see that this world is very different from his own.

In case of revealing a pathological balance in the development of the child's personality, the psychologist tries to establish a new balance, not forgetting that when positive changes are achieved, the child must have such a settlement of the system in which these changes would not violate its integrity. In systems theory, equilibrium is usually understood as a stable state regulated through a feedback mechanism that

provides information about imbalances [1]. Negative feedback is mainly related to maintaining dynamic balance and survival, while positive feedback is necessary to change the target orientation of the system. The concretization of this problem is to provide children with adequate to their age satisfaction of basic needs in development and safety.

When establishing contact with a difficult child, it must be taken into account that these needs are often so unsatisfied that the child is already afraid to trust an adult, and the psychologist must constantly confirm that he will not interrupt this contact. The psychologist, as it were, works in the “zone of proximal development” of the adolescent's emotional experience. A child can provoke an adult with his behavior, but often behind this at an implicit level are such questions as: “Men barman’ba?”, “Sen barsan’ba?”, “Sen kimsen’?”, “Men kimmen’?” [1]. The psychologist's confirmation of the child's "existence" also includes a target setting for behavior change, the existence of which the child himself usually understands. A teenager realizes that the person with whom he communicates is not just an adult (like a father or mother), but is also a psychologist. Support is that the psychologist accepts the child, but does not accept what he does. A psychologist cannot be completely freed from the social appraisal of a teenager's behavior, and in some cases certain aspects of his inner world. But for a teenager (in contrast to the usual assessment), the broadcasting of social assessments by a psychologist includes a component of emotional support and faith in the teenager's own strengths and is not aimed at imposing generally accepted standards, but at stimulating self-exploration.

Understanding this attitude towards oneself leads the child to the realization that the psychologist himself carries human feelings and shortcomings. If such an understanding comes, then the child "lets in" into his inner world an adult who is not (as he used to think and as he was inspired at school and at home) a complete opposite for him. Thus, already at the initial stage of interaction, the process of non-confirmation of stereotypes about the world of adults as another social group can begin, similarities with adults increase and, consequently, the resistance of a teenager decreases, and it becomes easier to accept other opinions. A teenager may feel that not all of his/her comrades are

“beautiful”, and that all “others” are bad. The psychologist gives children the opportunity to acquire a working position - the position of conscious “obedience” to the rules through personal identification (and not least with the object they like), and not through abstract (sometimes determined by fear) assimilation of norms [7]. “Children of the street”, in essence, is evidence of the defeat of the family and the school (exceptionally positive, without flaws) in the fight against the “reference” groups of streets (having both, and therefore more attractive and accessible).

The interaction is not static; it is directed forward and develops in the direction of greater symmetry in contacts, greater similarity, and equality. And a situation is possible when a relationship with a psychologist begins to replace the child's relationship with other people. In any psychotherapeutic school, they talk about the inadmissibility of a client's over-attachment and an excessive decrease in interpersonal, especially emotional distance [3]. The psychologist in this situation should point out to the child that he understands himself better, and that he can solve his/her problems without outside help, and, perhaps, that the change has already come.

The more the child understands the meaning of the relationship with the psychologist, the more symmetrical the contact will become. Close personal contact causes positive changes in the adolescent's perception of an adult, develops the child's relationship with the psychologist and strengthens trust between them. Thanks to such contact, the child develops an internal idea of himself, the personalities of his world, and he begins to understand that although the psychologist requires a certain behavior from him at the moment, this does not mean that he is always required to “be like that.” If the contact is superficial and lasts long enough, it can only reinforce the adolescent's existing negative attitudes.

One of the important conditions for successful contact between a psychologist and a child is a change in the positions of interaction. Depending on the problem being solved, there are: direct interaction - exchange of actions, sympathetic listening, almost friendly relations (comrade position).

Top-down interaction - the psychologist gives advice, often from generalized experience and knowledge, that is, without getting used to the situation (the position of the adviser).

Interaction “from the bottom up” - the psychologist comments on what he sees, instead of giving advice (the position of the psychotherapist) [1].

In the latter case, it is possible to use a metaphor. The metaphor is often used in the context of psycho-correctional interaction. It contains a summary of the situation or a demonstration of it, not advice or instructive messages about how to solve the problem. The essence of the work to which metaphors are disposed lies in the ability to enter the proposed conditional world, and endure the “spark of real comprehension” that will forever remain in a person. A special effect is achieved when working with adolescents and their parents, when the usual verbal methods of education are already, as a rule, ineffective. Metaphor helps where the power of logic, rational thinking ends [3].

The main feature of the interaction is the admissibility of variation, flexibility and the ability to change the position of the psychologist, not only in connection with the goals and objectives of the work, but also in connection with the situation. There are several factors which this position varies:

- greater or lesser appraisal of the psychologist;
- openness, “personality” or facelessness, secularity. The psychologist's reactions, including judgmental ones, should be as neutral as possible in terms of their emotional richness;
- acceptable, level of emotional saturation of a teenager in relation to a psychologist;
- “specialty”, uniqueness or, conversely, “accident” of everything that happens between a teenager and an adult [2].

The implementation of the parameters largely depends on how congruently the psychologist can express the personal experience that is perceived and experienced by him at the moments of direct contact with the teenager - contact that is carried out at the level of the “inner self” of the psychologist and the teenager.

The solution of these problems of interaction between a psychologist and a teenager in the process of psycho-correction can help teenagers to reconsider, critically comprehend their behavior, attitude towards other people and towards themselves, and create the prerequisites for the normal course of personal development. At the same time, it should be noted that it is not so easy to find conditions conducive to establishing a strong interaction between a psychologist and a teenager; success cannot be automatically guaranteed. At the same time, if professional interaction is created accurately and according to previously known principles, there is a real chance to achieve the desired goals.

Reference

1. Bernler G., Yunsson L. Teoriya sotsial'no-psikhologicheskoy raboty. M.: RU VNIIM, 1992. 342 s.
2. Kostin I.A. Osobennosti terapevticheskoy pozitsii pri rabote s autichnymi podrostkami // Moskovskiy psikhoterapevticheskiy zhurnal. 1994. S. 97-112.
3. Krotov V.G. Massazh mysli. Pritchi, skazki, sny, paradoksy, aforizmy. M.: Sovershenstvo, 1997. 176 s.
4. Leongard K. Aktsentuirovannyye lichnosti. Rostov n/D.: Feniks, 1997. 544 s.
5. Prakticheskaya psikhologiya obrazovaniya/Pod red. I.V. Dubrovinoy. M.: Sfera, 1997. 528 s.
6. Sotsial'no-psikhologicheskiy diagnostiko-korreksionnyy instrumentariy / Pod red. S.A. Belichevoy. M.: Sotsial'noye zdorov'ye Rossii, 1993. 116 s.
7. Figdor G. "Ya tebya ponimayu, no ya tebe etogo ne skazhu" (O vozmozhnostyakh psikhoanaliticheskoy pedagogiki v rabote s trudnymi det'mi) // Psikhologicheskaya nauka i obrazovaniye 1998. S. 59-74.

АХБОРОТНИНГ ХАВФ ТУҒДИРИШ ХУСУСИЯТИ ВА УНДАН ҲИМОЯЛАНИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Отабек Зарипов

Самарқанд вилояти Пастдарғом тумани 107-мактаб психологи

Бугунги кундаги “ахборотнинг хавф туғдириши” глобал моҳият касб этмоқда. Ахборотлар инсон онги ва шахс тафаккурига турлича йўллар билан таъсир ўтказувчи асосий восита ҳисобланади. Ахборотдан фойдаланувчи ёшларнинг фаолиятида кузатиладиган ҳолатлар, салбий ахборотлардан ҳимояланишнинг ижтимоий-психологик хусусиятларини ўрганиш асосий вазифа ҳисобланади. Ахборотлардан фойдаланаётган ўқувчи ёшларнинг индивидуал-психологик хусусиятларидаги ўзгаришларни психологик сўровнома орқали таҳлил қилдик.

Тадқиқотимизда ўқувчиларнинг ахборот хуружлари таъсирига маъқуллаш мотивациялари билан уларнинг характер акцентуацияси бўйича типлари билан муносабатини ҳам амалий ўрганишга эришилди. Айрим ўринларда шахснинг баъзи ноодатий қарорлар қабул қилишда шарт- шароитлар ва ташқи таъсирлар билан хислатлардаги айрим ўзгаришлар таъсир ўтказмасдан қолмайди. Бу ҳолатнинг эмпирик изланишлари ўқувчилар характер акцентуацияси билан маъқуллаш мотивациялари муносабатини ўрганишга сабаб бўлди (3-жадвал).

Ўқувчи ўғил болаларда хужжатларни билан ишлашларидаги эътиборлилик гинахонлар учун хос бўлмаган ($r=-0,604$), кўзгалувчан тип учун эса ($r=0,620$) хос эканлигини, циклотим типдагилар учун ҳам аҳамиятли ҳол бўлмас экан ($r=-0,306$). Экстравертлар хужжатлар борасида кам эътиборлик ($r=-0,401$), интровертлар эса анча синков бўлиб қолишларини кўрсатмоқда ($r=0,472$).

Интроверт типлилар эса бошқаларнинг кўнгилга тегадиган фикрларига ҳам салбий муносабат билдирмасликларини кўрсатмоқда ($r=0,462$). Ўқувчи ўғил болаларда пессимистик ($r=0,580$) ва интровертликка ($r=0,462$) хос акцентуациянинг устуворлиги ўзларида ишончсизлик пайдо бўлиши билан ишларини ташлаб кетишларига тўғри келади.

Эмпирик кўрсаткичлар ўсмир ва илк ўспиринлар вакилларига алоқадор бўлганлиги кўнгилчанг ($r=0,401$) ва интровертлар ($r=0,415$) ҳар доим суҳбатдошимни у ким бўлишидан қатъий назар диққат билан тинглашларини эътибордан четда қолдирмаслик муҳимдир. Агар уларда суҳбатдош томонидан тақдим этилаётган маълумотларнинг қандай мазмунли эканлигини инобатга олмасликлари ва унинг таъсирига берилишлари сўзсиз суҳбатдошга тобе бўлишларини таъминлайди.

Циклотим ($r=0,482$) ва пессимистлар ($r=0,310$) ўзларига ишонч бўлмаслиги оқибатида ўзларини хатоларини тез тан олишларига сабаб бўлади. Бу ҳолат эса уларнинг бошқаларнинг таъсирига тушиб қолишга мойилликларини кўрсатади. Агар уларнинг ўзларига тобе ёки ўз йўриқларига туширмоқчи бўлган инсонлар энгил боғлаб олишлари мумкин бўлади.

Оптимист типдагиларга нисбатан билдирилган фикрларга салбий муносабат билдирган тақдирда ҳам ўзларининг ижобий фикрларига эга бўлиб қолар эканлар ($r=0,548$). Бу уларнинг ўзига ишончи ва ҳар қандай вазиятда ҳам ўзларининг имкониятларини намоён этишларида кузатилади.

Оптимистлар “мен ҳеч қачон ёқимсиз нарсалар ҳақида кулиб гапирган эмасман” ($r=0,452$) тарзда билдирилган фикрларини ижобий баҳолаш мумкин. Улар ҳар қандай воқеликдаги ҳолатлар, жараёнлар ва муносабатларга жиддий ёндашишларидан далолат бермоқда. Демак ўқувчи ўғил болалар фаолиятларида тўғрисидаги маълумотлар билан боғлиқ ҳолларда сўзсиз ўзларининг ҳам ижобий, ҳам салбий жиҳатлари билан боғланиб қолар эканлар. Бундай ҳолларда уларнинг атрофидаги катта ёшдагилар салбий муҳитга боғланиб қолишларидан огоҳ бўлишлари муҳимдир.

Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги 14.09.2016 йил ЎРҚ-406-сон Қонуни мамлакатимизда ёшларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоялаш давлат сиёсати даражасига кўтарилганлигини гувоҳи бўламиз. Ахборотнинг хавф туғдириш хусусияти асосан ижтимоий шароитида кузатилади. Ахборот хуружлари тарқатишнинг асосий воситаси бўлган ижтимоий тармоқларнинг ёшларнинг характер хусусиятига таъсир кўрсатиши аксарият

ҳолатларда уларнинг яшаш ва ўқиш тарзига ҳамда ўзаро муносабатларига таъсир кўрсатади.

Шахс мураккаб мавжудот баъзида қандай тўғри йўл тутиши унинг ўзига ҳам аён бўлавермайди. Ёшларнинг кўпчилигига хос бўлган хулқ-атвор хусусиятларидан бири уларнинг онгига зарарли одатлар айнан ахборотлар орқали сингдирилади. Бу ҳақда Ўзбекистон Республикасининг президенти Ш.М.Мирзиёев:”Мана шундай мураккаб шароитда ёшларимиз сезгир ва огоҳ бўлиши,ҳар бир масалада аввало Ватан манфаатларини ўйлаб иш тутиши зарур.Қанчалик қийин бўлмасин,биз ёшлар тарбияси бўйича ўзимизга хос ва таъсирчан,бугунги кунга ҳамоҳанг усулларни излаб топишимиз керак. Жондан азиз фарзандларимизни бузғунчи ва зарарли ғоялар,жиноятчилик,гиёҳвандлик,лоқайдлик,маънавий қашшоқлик кайфиятидан асрашимиз зарур¹. Шунинг учун айниқса ўтиш даврида ёшларнинг характер хусусиятларига алоҳида эътибор бериш зарур ҳисобланади. Айнан ахборотлар орқали кўп иллатлар фазилатлардан кўра ёшлар онгига тез сингдирилишини унутмаслигимиз зарур. Ўқувчи ёшларни бундай хатарли вазиятлардан интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш ва ижтимоий ҳаётда ахборотлардан фаол тўғри фойдаланишини тушунтириш орқали ижобий натижаларга эришиш мумкин. Ўқувчи ёшларнинг ижтимоий тармоқлар ва салбий ахборотларнинг “қули”га айланиши сабаблари, оила аъзолари ва ўқув муассасалари томонидан унинг хулқ-атвори, ижтимоий тармоқлар ва ахборотлардан фойдаланишда вақтини қай тарзда ўтказиш устидан назоратнинг йўқлиги, кўпчилик ота-оналарнинг ўз фарзандларига нисбатан мажбуриятларини тўғри бажара олмаслиги, бажаришни истамаслиги ёки бундай имкониятга эга эмаслиги асосида вужудга келади. Салбий ахборот хуружларига тобе ёшларнинг келиб чиқиши ижтимоий-психологик сабабларидан бири уларнинг ривожланишдаги биологик нуқсонлари, сезги органларининг камчиликлари, ўқишларига салбий таъсир этувчи олий нерв фаолияти ва темпераментидаги нуқсонлар ҳам ҳисобланади.

Психология фанлари номзоди доцент К.Фарфиеванинг таъкидлашича “...телекўрсатувлардан сўнг болаларда,ўсмирларда кўпинча кўркув ҳисси пайдо

бўлади. Даҳшатли фантастик фильмлардан сўнг 40 фоиз болаларда нохуш ҳоҳланмаган таъсирлар пайдо бўлади”².

Ижтимоий жамоалар ва оилалардаги носоғлом психологик муҳит мунтазам ва давомли оилавий низолар ажралишлар таъсирида ёшлар руҳий инқироз ҳолатларини ўз бошидан кечиради. Балоғатга етмаган тенгқурларининг психологик таъсир кўрсатишлари, ажралишлар, ота-онанинг ичкиликка берилиши, жамоатчилик назоратининг тўғри ташкил қилинмаганлиги ўқувчиларнинг эгоцентризм даражасига таъсир кўрсатади. Таълим муассаларида ёшларнинг эгоцентрик даражасининг ривожлантирилиши кўп жиҳатдан педагогларнинг моҳирлигига уларнинг ўз ишларига психологик-педагогик ёндоша олишларига, ёшлар билан ўзаро ижтимоий-психологик муносабатларда мулоқотга кириша олишларида, ёшлар жамоалари билан ишлашда уларнинг ижтимоий характери ёши ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олишлари зарур ҳисобланади. Бунинг учун ёшлар билан мунтазам психологик, профилактик, психодиагностик коррекцион ишларни кўпроқ амалга ошириш талаб этилади.

Ахборот - психологик таъсир воситаси сифатида жуда қудратли кучга эга. Шунинг учун ижтимоий тарғибот самарадорлиги кучли мамлакатларнинг аҳолиси айниқса ёшларини тўғри йўлларида оғдириш қийин кечади. Ахборот-психологик таъсирнинг биринчи манбаси-бу инсоннинг ўзи. Инсонда онгнинг мавжудлиги таҳдид манбасини ифодалайди. Ижтимоий тармоқлардан фойдаланиб салбий ахборотларни тарқатувчилар ўсмирлар ва катта мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг интернет маълумотларидан мунтазам ва давомли фойдаланиб, кўплаб ахборотларни ўзлари қидириб топишлари, мустақил ўрганиб турли ахборотларга доимий қизиқишлари ва кўпинча хулосаларни ҳам ўзлари чиқаришларини, салбий ва ёлғон ахборотларни ҳам рост деб қабул қилишини онгли равишда биладилар, шу усуллар орқали таъсир кўрсатилса ғаразли мақсадлари тезроқ амалга ошишига ишонадилар. Ёшлар онгини манипуляция қилиш уларнинг бош мақсадлари ҳисобланади. Чунки ахборот универсал жамиятнинг барча соҳаларига жиддий салбий таъсир кўрсатиш имкониятига эга. Бу соҳаларнинг кўпчилигини айнан ёшлар ривожлантиради. Шахс онгига салбий

таъсир кўрсатувчи ахборотларнинг кириб келиш жараёни унчалик ҳам билинмайди. Аммо вақт ўтган сайин давомли ва такрор кўрсатилаётган ва тарқатилаётган салбий ахборотлар ёшларимизга физиологик ва психологик таъсир кўрсатишини мутахассислар таъкидлашади. Индивиднинг тегишли салбий ахборотлар таъсирида ўзининг қарашларини ўзгартириши асосан ўсмир ёшлар орасида учрайди. Бу ҳақда Ўзбекистон Республикасининг президенти Ш.М.Мирзиёев БМТ бош ассамблеясининг 72-сессиясида: "сайёрамизнинг эртанги куни, фаровонлиги, фарзандларимиз қандай инсон бўлиб камолга етиши билан боғлиқ. Бизнинг асосий вазифамиз - ёшларнинг ўз салоҳиятини намоён қилиши учун зарур шарт-шароитлар яратишдан иборат"³-деб алоҳида таъкидладилар. Уларга ижтимоий тармоқлардан фойдаланишнинг тўғри усулларини ўргатиш, маълумотлар ва ўзига керакли ахборотларни қидириш ижтимоий тармоқларда шахслараро муносабатларни қандай амалга ошириш зарурлиги тўғрисида маълумотлар беришимиз зарур. Мана шу усуллар орқали ижтимоий тармоқлар ахборотларидан хабардор бўлиб турадилар.

Ёшларни ахборот хуружларидан психологик ҳимоялашнинг ижтимоий-психологик муаммоларини ўрганиш бўйича ўрганишнинг аҳволи, ижтимоий тармоқлар орқали тарқатилаётган салбий ахборотлар таъсиридан ҳимояланиши зарур бўлган ўқувчи ёшларнинг ёш ва индивидуал-психологик хусусиятлари, уларнинг шахси ҳамда ўқувчи ёшларни салбий ахборот хуружларидан психологик ҳимоялашнинг ижтимоий-психологик омилларини ўрганиш натижаларига асосланиб, қуйидаги хулосаларга келинди.

1. Ўқувчи ёшларни салбий ахборот хуружларидан психологик ҳимоялашда шахс давлат ва жамиятнинг манфаатларини ҳимоя қилишда таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг таъсирини кучайтириш зарур.

2. Ҳозирги вақтда таълим тизимидаги ва АКТ мутахассислари билан ҳамкорликда ўқувчи ёшларга ижтимоий тармоқлар орқали кўрсатиладиган салбий ахборот хуружларининг таъсирларини олдини олишга қаратилган ижтимоий-психологик дастурлар бўйича самарали фаолият олиб бориш ишларини такомиллаштириш.

3. Ёшларда ижтимоий тармоқлардаги салбий ахборотлар таъсирига берилмасдан, маълумотлар ва ахборотларни қабул қилиш ва ўрганишда психологик таҳлил қила олиш хусусиятларини шакллантириш.

4. Бугунги кунда ёшларга салбий психологик таъсир кўрсатаётган ахборот таҳдидларининг нафақат янгилик тарзида турли компьютер ўйинлари ва сериаллар ахборий хуружларнинг яширин ғоявий кўриниши эканлиги тушунтириб бориш зарур.

5. Ўқувчи ёшларнинг ўқиш фаолиятида ўқитувчи-ўқувчи муносабатлари доирасида ёшларга салбий ахборот хуружлари, уларнинг турлари, оқибатлари масаласига доир маълумотларни ёш ва жинс хусусиятларини инобатга олиб тушунтириш ишларини олиб бориш зарурлиги тушунтирилди.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги 14.09.2016 йил ЎРҚ-406-сон Қонуни

2. <https://yuz.uz/news>.

3. Мактаб ва ҳаёт. №3 (143) / 2019.

4. strategu.uz

ЁШЛАРНИ «ОММАВИЙ МАДАНИЯТ» ТАЪСИРИДАН АСРАЙЛИК

*Саттарова Маишхура Зухритдиновна
Хонобод шаҳар касб-хунар мактаби физика фани о'қитувчиси*

Бугунги кунда биз халқимизнинг дунёда ҳеч кимдан кам бўлмаслиги, фарзандларимизнинг биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлиб яшаши учун бор куч ва имкониятларимизни сафарбар этаётган эканмиз, бу борада маънавий тарбия масаласи, ҳеч шубҳасиз, беқиёс аҳамият касб этади. Агар биз бу масалада ҳушёрлик ва сезгирлигимизни, қатъият ва масъулиятимизни йўқотсак, бу ўта муҳим ишни ўз ҳолига, ўзибўларчиликка ташлаб қўядиган бўлсак, муқаддас қадриятларимизга йўғрилган ва улардан озикланган маънавиятимиздан,

тарихий хотирамиздан айрилиб, охир-оқибатда ўзимиз интилган умумбашарий тараққиёт йўлидан четга чиқиб қолишимиз мумкин. Ўз тарихини билмайдиган, кечаги кунини унутган миллатнинг келажаги йўқ. Ўсиб келаётган авлод бугунги эзгулик йўлидаги бунёдкорлик ишларининг давомчисидир. Миллий маънавиятимиз қирраларини келажак авлодимиз шуурида мукаммал шакллантириш ва юксалтириш учун барчамиз масъулмиз.

Мустақиллик туфайли жамиятимизда, айниқса, унинг маданий-маънавий, маърифий соҳаларида содир бўлаётган сифат ўзгаришлари ёшлар онги, дунёқарашига сезиларли даражада таъсир кўрсатмоқда. Шундай экан мамлакат тараққиётида ўсиб келаётган ёш авлоднинг маънавий ва ахлоқий тарбияси ўта муҳим ўрин эгаллайди. Ёшларимиз маънавиятини юксалтириш, уларда юриш-туриш одоби, мулоқот ва кийиниш маданиятида меъёрни сақлай билиш кўникмасини ҳосил қилиш учун миллийлик билан замонавийлик уйғунлигини таъминлаш бугунги куннинг долзарб муаммосидир.

Бугун турли йўллар билан, ҳар хил “эзгу” ниқоблар остида “оммавий маданият” мамлакатимизга ҳам таҳдид солаётгани сир эмас. Айниқса, ёшларни соатлаб ўтиришга “мажбур” қилаётган компьютер ўйинлари бетўхтов ёвузликни тарғиб этса, боласининг отаси кимлигини билмасдан боши қотиб ДНК текширувини ўтказмоқчи бўлган ҳонимлар ҳақидаги сериаллар, интернет оламида аёл ва эркекларга лаззатланиш ҳақида берилаётган “энг яхши маслаҳатлар” фаҳш ҳамда бузуқлик кўчаси сари чорлайди.

“Оммавий маданият”ни тарғиб қилаётган ғаразли кучларга аслида ҳеч қандай маданият ва инсон маънавияти, ахлоқий қоидаю қадриятларнинг асло кераги йўқ. Уларнинг стратегик режа ва сиёсий мақсадларига эришиш, айрим мамлакатларнинг ер ости, ер усти бойликларига эга бўлиш, ўз измига солиш учун бу бир восита, холос. Бир сўз билан айтганда ҳамма нарсага эркинлик нуқтаи назаридан қарайдиган “оммавий маданият”нинг асосий мақсади – ёшларнинг иродасини сусайтириш, ўзининг ҳаётига, атрофидаги одамларга қарши қўйиш ва охир-оқибатда эркинлигидан жудо қилишдир.

Бугунги кунимизга қайтадиган бўлсак, ҳозирги глобаллашув жараёнида алоқа ва ахборот алмашинуви ўзининг юксак чўққисига кўтарилгани, интернет ва ОАВнинг инсон онгига таъсир қилувчи, нафақат таъсир қилувчи, ҳатто уни маълум йўналишга буриб юборувчи кучга айлангани “оммавий маданият” деб аталувчи иллатнинг дунё ёшлари орасида яшин тезлигида тарқалишига сабаб бўлмоқда. Бундан 10-15 йил аввал баданига расм чизилган, йиртиқ-ямоқ, очиқ-сочиқ кийим кийиб олган ҳолатда жинсига ярашмайдиган қилиқларни қилиб юрган йигит-қизларни кўчаларимизда учратмас эдик. Минг афсуски, ҳозирда бундайларни учратиш унчалик мушкул бўлмай қолди. Афсуски, кўчани бошига кўтариб қаҳқаҳа ураётган қизлар тўдаси, сочини турли кўйларга солиб бўйнига занжир таққан қизил пояфзалли “йигитлар” бугунги кун манзараларининг бир қисмини ташкил этмоқда. Бизга нима бўлдики, йигитларининг орияти тоғлардан баланд, қизлари ҳаёда барчага ибрат бўлган, уятдан ўлимни афзал кўрган халқимиз орасидан мана шундайлар чиқмоқда.

“Оммавий маданият” турли хил кўринишларининг ёшлар орасида тобора кенг тарқалиши булар асосан кийинишда, қизиқишларда, бўш вақтни ўтказишда, дидларнинг саёзлашувида, миллий қадриятларга муносабатда намоён бўлмоқда. Булар эса беҳаёлик ва зўравонлик, миллий қадриятларга ва ижтимоий манфаатларга беписандлик билан муносабатда бўлиш каби иллатларни келтириб чиқармоқда. Бугунги кунда ёшлар орасида тақлидчилик ҳолатларининг кучаяётганлиги ва янада тоборо авж олётганлиги кузатилмоқда. Бунда, хорижда кенг тарқалган ахлоқий ва маънавий юриш-туриш андозаларининг кинофильмлар, мода ва турли хил рекламалар орқали ёшларимизнинг онгини маълум маънода заҳарлаётганини сезиш қийин эмас. Натижада, ёшлар ўртасида китоб ўқишдан кўра компьютер ўйинларининг олдида вақтини ўтказиш, мазмунан саёз бўлган турли хил жанрдаги фильмларни томоша қилиш одат тусига кириб бормоқда.

Бадиий адабиётимизда ҳам маънавиятимизга ёт бўлган “оммавий маданият”га хос бўлган характердаги асарлар ҳам минг афсуски, сотувга чиқарилган бўлиб, ёшларимиз томонидан “севиб” ўқилмоқда. Улардан бу асарларни нима сабабдан ўқишини сўраганимизда айнан жангарилиги, беҳаё

сюжетлари борлиги учунлигини ҳеч истиҳола қилмасдан айтадилар. Жумладан, “Дайди қизнинг дафтари”, “Миллиардерга қўйилган тузоқ”, “Тириклайин кўмилган йигит” каби асарлардаги туб мазмун балки, тубанлик гирдобига кириб қолган ёшларни эзгулик сари етаклар, лекин ундаги берилган сюжетлар бизнинг миллатимизга хос бўлмаган беҳаёлик, уятсизлик, жангарилик каби ёшларимиз маънавиятига салбий таъсир қиладиган унсурлар орқали ифодаланганлигини ҳеч оқлаб бўлмайди.

Баркамол авлодни вояга етказиш, бунда уларни мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилиш, уларда ёт ғояларга қарши иммунитетни шакллантириш бўйича олиб борилаётган ислохотлар, мактабгача таълим муассасаларида, умумтаълим, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими, олий таълим муассасаларида изчил олиб борилмоқда. Шунингдек, вояга етиб келаётган ўсмирлар, ёшлар ўртасида тушунтириш ишлари олиб борилиб, оддий қилиб айтганда, уларнинг қадам босиши ва юриш-туриши оила, маҳалла ҳамда кенг жамоатчилик томонидан доимий назоратга олинган. Шунинг учун ҳам мамлакатимизда тинчликни таъминловчи мезонлар сифатида аҳолини, айниқса, ёшларни дунёда юз бераётган воқеалардан хабардор этиш, бунинг натижасида уларда бирдамлик, ҳамжиҳатлик, бағрикенглик, ватанпарварлик туйғуларини такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда.

Келинг, баданга расм чизиш (татуировка), улама сочу-киприклар ва бошқа сохта гўзаллик воситалари ёки қизларнинг ўзларини эркакча тутиши, айрим йигитларнинг эса аксинча, эркакликдан чекиниб, аёлсифатликка интилиши каби иллатларни олиб кўрайлик. Соф инсоний фитрат қабул қилмайдиган бу ишлар миллий қадриятларимизга зид эмасми?! Динимиз бундай маънавий тубанликлардан қайтармаганмиди?! Нима, бизнинг ўз миллий қадриятларимиз, маънавиятимиз ва муқаддас динимиз йўқмидики эркак билан эркакни, аёлга аёлни “никоҳ”лаётган, мазкур ножинсларнинг “фарзанд тарбиялаш”га “тўла ҳаққи бор”лиги ҳақида бонг уриб ахлоқсизликни “эркинлик”, анъанавий оилаларни “тутқунлик”, қадриятларни эса “қолоқлик” деб таъриф этаётган жамиятларни

ўзимизга ўрناк қилиб оласак. Ахир бу буюк иснод, уят, қолаверса улуг аждодларимизнинг эзгу орзуларига хиёнат эмасми?!

Биз юқоридаги фикрлар билан “бизнинг жамиятимиз тубанликларга юз тутиб, ёшларимиз иллатларга ботиб қолдилар” дейишдан йироқмиз. Аллоҳга беадад шукрлар бўлсинки, юртимизда ор-номусли, маънавиятли, билимли ҳамда ўз миллий ва диний қадриятларига садоқатли ёшлар кўпчиликини ташкил этади. Бироқ, “гуруч кўрмаксиз бўлмайди” деганларидек, жамиятимиздаги айримлар биз ҳозирда умумий қилиб “оммавий маданият” деб атаётган зарарли иллатлар таъсирига тушиб қолмоқдалар. Бу эса, шу азиз юртнинг тақдирига бефарқ бўлмаган ҳар бир инсонни ўйга солади ва бу иллатларга қарши курашга чоғлайди. Шундай экан, ҳар биримиз ўз имкониятимиз даражасида, фаолият олиб бораётган соҳамиздан келиб чиққан ҳолда шу азиз Ватан равнақи, унинг тинчлиги ва фаровонлиги учун ҳаракат қилмоғимиз керак. Зеро, Ватан, халқ манфаати йўлида хизмат қилиш олий саодатдир.

TALABALARDA TOLERANTLIK XUSUSIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

*Sharipova Umidaxon Qo'chqorboy qizi
Namangan Davlat Universiteti 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: maqolada talaba yoshlarning psixologik xususiyatlari , milliy qadriyatlari , tolerantlik xususiyatlarini shakllantirishning psixologik omillari bayon etilgan .

Kalit so'zlar: maqola , tolerantlik , bag'rikenglik , umid , ishonch , qadriyat , ong , omillar , xususiyat.

Millatning ertagi kuni , kelajagi yosh avlodning qo'lida ekanligi , shu boisdan ham yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan etibor kun sayin ortib borayotganligi bizni quvontiradi albatta . Bu borada talaba yoshlarga qaratilgan etibor eng samaralisidir deya aytaolamiz ,chunki katta xayot ostonasida turgan yosh avlodni tolerantlik ruhida

tarniyalash , ularda bu xususiyatni shakllantirish juda muhim masalalardan biri bo'lib , yurtimizning ertangi istiqbolini belgilab beradi. Har bir millat va elatning o'ziga xos anana va qadriyatlari mavjud , xususan o'zbek xalqida xalqimizda ham , Biz ko'pmillatli va elatli xalqlar bilan tolerantlik ruhida yashab kelmoqdamiz. Ma'lumki, har bir millat o'ziga xosligi, milliy madaniyati, qadriyatlari va shu millatning ruhiy (ma'naviy) tarzining majmuasida, ya'ni millat ruhiyatida o'z ifodasini topadi. O'zbek xalqining o'z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, milliy xarakteri, his – tuyg'usi, mijozi (tempramenti), xulq – atvori, didi, ta'bi alohida ajralib turadi. O'zbek milatining bilim jarayonlari (sezgisi, idroki, tasavvuri, xotirasi, tafakkuri, hayoloti), qobiliyatining aniq yo'nalishga qaratilganligi, ehtiyoji va qiziqishi, milliy ongi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim va tarbiya jarayonida respublikamizning tarixi, madaniyati, uzoq ajdodlarimizdan yetishib chiqqan jahongashta kishilar, ilm fan arboblari, mutafakkirlar, ma'rifatparvarlar to'g'risida bilim urug'ini sochish o'quvchilarda va talabalarda g'urur va iftixor tuyg'usini vujudga keltiradi. O'zbekistonning fan texnikasi, unumdor ona tuprog'i, sahiy va zahmatkash xalqi, foydali qazilmalari, jahon va umumxalq bozoridagi paxtasi, ipagi, qorako'li, oltini salmog'i ochib berilishi talabalarda milliy ongni o'stiradi, ma'naviy o'zini – o'zi anglashni takomillashtiradi. Va har doim o'zbek xalqi bag'rikengligi , mehmondo'stligi boshqalardan ajralib turgan . Ijtimoiy faollikni jadallashtiradi, ularni ijodiy izlanishlar sari yetaklaydi, fan asoslarini egallashga qiziqishni oshiradi. O'tmishda o'zbek milliy ta'lim usullaridan, topishmoqlaridan, muammolaridan, topqirlik qilish mashqlaridan ijodga undovchi vositalardan unumli foydalanish talabalar aqliy faoliyatini rivojlantiradi, aqlni peshlash mashqlari vazifasini bajaradi, axloqiy qobiliyatlarini o'stiradi. Oliy maktab tarbiyaviy ishlarida milliy an'analar, marosimlar, rasm – rusumlar, bayramlar (Navro'z, o'zbek tili kuni, Mustaqillik kuni, oltin kuz, ko'chat o'tkazish mavsumi, qovun sayli, uzum sayli, hosil bayrami, paxta bayrami, sumalak va o'zbek taomlarining ko'riklari) ma'lum darajada o'z o'rnini topsa, talabalarga eng samarali ta'sir o'tkazadi, va bu udumlar orqali ularda tolerantlikni shakllantirish mumkin, chunki umumiy xarakterlar talabchanlik faoliyati bilan uyg'unlashadi, mustaxkam jamoa bo'lib yashashga undaydi. Mazkur ishlarda talabalarining ijtimoiy qatnashuvi ularda faollikni ortiradi, har bir shaxs

o'z qobiliyati va uquvini sinab ko'radi, shu bilan birga qardosh xalqlarga va do'st birodarlarga bag'rikeng bo'lish xususiyatini o'zida mujassam etadi. Talabalarning bunday faoliyatlarida ishtirok etishlari ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, tolerantlik, tashkilotchilik singari xislatlarni tarkib toptiradi. Ta'lim – tarbiya jarayonida talabalar ongida xalq durdonalarini shakllantirish, milliy qadriyatlarning oqilona tadbirlariga e'tiborni qaratish ular ma'naviy dunyosini shakllantiradi. Ma'naviy nafaqat inson, balki davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy negizi hisoblanadi. Ma'naviy yangilanish xalqning boy milliy – ma'naviy merosini, o'ziga xos miliy yashash va tafakkur tarzini har tomnlama chuqur o'rganish, yosh avlodni ana shu fadriyatlar, urf – odatlar, ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash kerak.

Talabalik davri o'spirinlik davrining o'ziga xos murakkab bosqichlaridan biri hisoblanadi, chunki aynan mana shu davrda shaxsda kasbiy bilim, ko'nikmalar bilan bir qatorda muhim kasbiy sifatlar ham tarkib topib boradi. Talabalik davrida kasbiy sifatning shakllanishi muammosi qator tadqiqotlar doirasida o'rganilgan. Ko'pgina jahon va xorij olimlarining ta'kidlashicha, bugungi kunda kasbiy sifatning shakllanishi o'zining ahamiyatlilik darajasiga ko'ra inson ehtiyojlari orasida birinchi o'ringa ko'tarilmoqda. Bu muammo ijtimoiy nazariya va amaliyotning muammolari majmuasi bilan bog'liq bo'lib, psixologiyaning markaziy qismidan joy olgan. Talabalardagi kasbiy sifatning iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta'sirida o'zgaruvchi alohida turlari tadqiq qilingan. Zamonaviy tadqiqotlarda talabalardagi kasbiy sifatning bilan bir qatorda ularda tolerantlik sifatning ham shaxs kasbiy taraqqiyotining asosiy mezonini va mehnat subyekting yetakchi xarakteri sifatida ajratib ko'rsatilmoqda. Ushbu nuqtai nazar jahon psixologiyasidagi mavjud kasbiy taraqqiyot mezonlarini hodimning samarali faoliyati darajasidan mutaxassisning xarakteristikasi darajasigacha rivojlanishini mantiqiy yoritilishi deb hisoblanadi. Mutaxassis mehnat subyekti sifatida xodimdan farqli ravishda uning o'zi faoliyat maqsadini qo'yadi, unga erishish yo'li va vositalarini aniqlaydi, faoliyat natijasiga nisbatan ma'suliyatni o'z zimmasiga oladi. U faoliyatni to'liq boshqaradi, turli amaliy vaziyatlardan chiqish yo'llarini biladi, faoliyatni tashkil qilish, uning o'zgarishi va taraqqiyotini oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga egadir. Talabalarning kasbiy shakllanishida kasbiy sifatlar va taraqqiyot

bir-biri bilan chambarchas bog'likdir: kasbiy sifatlar bir tomondan kasbiy taraqqiyot jarayonida shakllansa, boshqa tomondan shaxsning mutaxassis sifatida namoyon bo'lishining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Amaliy jihatdan bu quyidagini anglatadi: yangi ijtimoiy-iqtisodiy dinamik sharoitda o'z sha'niga ega bo'lish uchun, raqobatda sinmaslik uchun, farovon kelajakni ta'minlash uchun bo'lajak mutaxassis, ya'ni talaba doimiy rivojlanishda bo'lishi, qolaversa, ijtimoiy va mehnat sharoitida o'zining mavqeini tahlil qilib borishi lozim. Shuning uchun kasbiy sifatlarni tadqiq qilishning zamonaviy yo'nalishi shaxsning ijtimoiy va kasbiy taraqqiyoti jarayoni bilan bog'liq jihatlarni o'rganish hisoblanadi. Kasbiy shakllanish talabani mutaxassisga aylanishi sifatida insonning o'zi haqidagi, kasbiy va shaxsiy, ijtimoiy muhitdagi mavqei haqidagi tasavvurlarining o'zgarishi, qolaversa, yangi kasbiy sifatlarni o'zida tarkib toptirishi, keng ma'noda aytadigan bo'lsak - shaxsning kasbiy o'z-o'zini anglashi bilan hamohanglikda kechadigan jarayondir. Kasbiy shakllanish inqirozlari davrida kasbiy sifatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Talabalarni ma'naviy shakllantirishida ma'naviy – axloqiy tarbiya muhim o'rin tutadi. Ma'naviy – axloqiy tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarga ijtimoiy hayotda o'z o'rnini o'zi topishi, o'zini kamol toptirishi, o'z taqdirini o'zi belgilashi, yaratishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Ma'naviy – axloqiy tarbiyada umuminsoniy, milliy qadriyatlar asosida talabalarni ma'naviy – axloqiy shakllantirishi yotadi. Bu esa ta'lim – tarbiya jarayoni vazifasini ado etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar yaxshilik va ezgulik, oljanoblik, or – nomus, andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topadi. Oila bolani kichik ijtimoiy guruhdan katta ijtimoiy (guruhga) hayotga olib chiqishga qodir muqaddas dargohdir. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Bolaning aqliy va jismoniy jihatdan o'sishi, uning ma'naviy jihatdan taraqqiyoti tarbiya jarayonida sodir bo'ladi. Bolaning jismoniy va aqliy jihatdan o'sib kamolga yetishi oiladagi tarbiyaning qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilishiga bog'liq. Oilaviy tarbiya bolaning taraqqiyot qonunlariga amal qilgandagina va ma'lum

maqsadga yo'naltirilgandagina yaxshi natija berishi mumkin. Har bir ota – ona o'z bolasining ijtimoiy – psixologik portretini yaqqol tasavvur qiladi. Oila tarbiyasi ijtimoiy madaniy muhit tarbiyasi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi shaxs rivojlanishining muhim qonuni hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ta'lim – tarbiya tizimida ma'naviy yetuk insonni shakllantirish bilan jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotiga erishish mumkin. Shu maqsadda, Oliy ta'lim va xalq ta'limlari talaba – yoshlarning ma'naviyatini shakllantirishning pedagogik vosita va shakllari ishlab chiqildi. Talabalarning ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy asoslaridan biri oila, maktab (kollej, universitet) va mahallaning o'zaro birligi, xalqning boy milliy madaniy, tarixiy an'analariga, urf – odatlari, umumbashariy qadriyatlariga asoslangan o'qitish ham o'z natijasini beradi. Va shu asnoda ularda bag'rikenglik sifatini shakllantirish ularni kelgusi faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etishini unitmaslik zarur .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Ананьев Б.Г.О проблемах современного человекознания.-М.Наука. 1977
- 2..G'oziyev E.F.Umumiy psixologiya. –Т., 2010
- 3.G'oziyev E.F.Ontogenez psixologiyasi. –Т.,2010
- 4.G'oziyev E.F.Pedagogik psixologiya. –Т., 2014.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA MASAL USTIDA ISHLASHDA MUAMMOLI VAZIYAT VA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH

*Sulaymonova Sevara Adaxamovna
Andijon davlat universiteti magistri*

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida masal ustida ishlashda muammoli vaziyat usulidan foydalanish haqidagi fikrlar bayon qilingan va nostandart testlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: masal, muammoli vaziyat, nostandart test.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'limda muammoli vaziyatning har xil turlari bo'lib, o'qituvchi bolalarda qiziqish va qiziquvchanlikni tarkib toptiradigan topishmoqlar, zehnni o'tkirlashtiradigan masallar ustida ishlashda qo'llaydilar. Bunday hollarda muammoli vaziyat masallarning mazmunini oson o'zlashtirishda yordam beradi. Bunda bola to'g'ri javob uchun topish istagini vujudga keltiradigan bilimlar yetarli. Zehn va topqirlikni o'stiradigan masallar bolalarni mantiqan to'g'ri fikrlashga, o'zlari uchun tushunarli faktli material yuzasidan fikr yuritishning qiziqarli tizimini topishga o'rgatadi.

Muammoli vaziyat o'quvchining ma'lum psixik holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash o'quvchilarda predmet to'g'risidagi, ishni bajarishning usuli yoki shartlari to'g'risidagi yangi bilimni izlash ehtiyojini uyg'otadi. Masalan, *“Sayyod va durroj”*⁵ masali matni ustida ishlashda dastlab do'stlik va o'rtoqlik haqida qisqa suhbat uyushtiriladi. Do'stiga xiyonat qilishning nihoyatda yomonligi, u kishiga falokat yetkazishi mumkinligi tushuntirilib, o'quvchilardan do'stlik haqida she'r va maqollar so'raladi. Masalan, o'quvchilar quyidagicha maqollarni aytishlari mumkin: “Yaxshi ko'rgan do'stingdan joningni ham ayama”, “Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim” va hokazo. Shundan so'ng o'qituvchi *“Sayyod va durroj”*⁶ masali matnini ifodali qilib, masal qahramonlari qiyofasiga kirib o'qib berilishi mumkin bo'ladi. Masal Durroj va Sayyod haqida. Durroj Sayyodga o'zini qo'yib yuborsa, barcha do'stlarimni aldab kelib, tuzoqqa tushirib berishni va'da beradi. Sayyod esa shunday javob beradi: “Yo'q, ovvora bo'lmay qo'yaqol, men seni qo'yib yubormayman, sen o'z joningni qutqarmoq uchun o'z do'stlaringga hiyonat qilmoqchisan. Sofdil do'stlardan ko'ra xiyonatchining o'lgani afzalroqdir”.

⁵ S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariev, Z.Dolimova. O'qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. – Toshkent, 2019. 192-bet.

⁶ S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariev, Z.Dolimova. O'qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. – Toshkent, 2019. 192-bet.

Masal o‘qib berilgach, dastlab uning mazmuni haqida savol-javob o‘tkaziladi. So‘ngra *muammoli vaziyat* hosil qiluvchi quyidagi savol-topshiriqlar beriladi:

- Durrojning tuzoqdan qutulishning boshqa chorasi bormidi?
- Siz nima deb o‘ylaysiz, sayyod nima uchun durrojni qo‘yib yuborib, uning bir qancha do‘stlarini qo‘lga tushirishga ko‘nmadi?

Javoblar umumlashtirilib, xulosa chiqariladi. Do‘stlarga xiyonat qilish hech qachon kechirilmasligi keng tushuntirib beriladi. Shundan so‘ng lug‘at ishi o‘tkaziladi: sayyod – ovchi; durroj – qirg‘iyga o‘xshash qush; dom – tuzoq.

Demak, masalni o‘tishdan asosiy maqsad – *muammoli vaziyat yaratish* orqali o‘quvchilarda do‘stlik va o‘rtoqlik, do‘stga sadoqat haqidagi *estetik qarashlarni* shakllantirishdan iborat.

“*Chumoli bilan chigirtka*”⁷ masalining asosiy qahramonlari Chumoli va Chigirtka hisoblanadi. Ularning do‘stligi, chumolining mehnatkashligi tasvirlanadi. Chumoli kunlardan bir kuni Chigirtkadan boshoqni iniga olib berishga yordam so‘raydi. Chigirtka rozi bo‘lmaydi. Vaqti kelib, Chumolidan o‘zi yordam so‘raydi. Chumolining rahmi unga in va yemish beradi. Shunday qilib, ikki do‘st Chumolining inida sovqotmay qishdan chiqibdilar.

Masal o‘qilganidan so‘ng, *muammoli vaziyatli* savollarni o‘quvchilarga berish mumkin:

1. Chigirtkaning qilgan ishi to‘g‘rimi?
2. Chumolining chigirtkaga bo‘lgan munosabati to‘g‘rimi?
3. Sizga qaysi qahramon ma‘qul, nima uchun?
4. Siz kimga o‘xshashni xohlaysiz?

Savollar asosida suhbat o‘tkazilgach, o‘qituvchi javoblarni qisqacha tahlil qilib beradi: chumoli mehnatkash, birovga ozor bermaydigan hashorot, mehnat qilib tinmaydigan odamlarni biz chumoliga o‘xshab tinmaydi deymiz. Chigirtka esa bir oz

⁷ T. Fafforova, Sh. Nurullaeva, Z. Mirzahakimova. O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2- sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2018. 143-bet

sho‘xroq, u umrini bog`da o‘ynab-kulib, daraxtlar va gullarning tagida chirillaydi, odamlarga foydasi yo‘q.

Masalni o‘qishda intonatsiyaga e’tibor berib, chumolining so‘zlarini pastroq, kamtarroq ovozda o‘qish, chigirtkaning birinchi obrazda kelgan gaplarini bir oz kinoya bilan o‘qib berish lozim. Chunki chigirtka chumolining ustidan kulayapti, masalning oxiridagi so‘zlar esa yalinchoq ovozda o‘qiladi. chumolining oxirgi so‘zlarini esa nasihat ohangida o‘qish lozim bo‘ladi.

O‘quvchilarga masaldagi qiyin tushunilgan so‘zlar tushuntirilib beriladi. “Qish g`amini yeyish” iborasi yozda qishda yeyish uchun tashilgan don-dun yig`ish ma'nosida ishlatiladi. Ko‘pgina hayvonlar qishda yeyish uchun o‘ziga ozuqa to‘playdilar.

Masalning mazmunini 2-3 o‘quvchidan so‘ralganidan so‘ng, masaldagi obrazlar haqida suhbatlashiladi. Xulosa o‘quvchilar bilan birga chiqariladi. Chumoli bilan chigirtkaning o‘rtalarida do‘stlik bor, chunki chigirtka chumoliga yordam berishni xohlamasa ham, Chumoli Chigirtkaga yordam beradi. Do‘st boshinga tashvish tushganda bilinadi. Chumoli masalning ijobiy qahramoni, chigirtka salbiy qahramoni hisoblanadi.

Chumoli bilan chigirtkaning bir-biridan farqi ularni do‘stligini qanday qadrlashlarida. Chigirtka o‘z do‘stiga yordam bermay ketdi. Chumoli esa chigirtka yordam bermagan bo‘lsa ham, undan gina qilmadi.

Chumoli haqiqiy do‘st, do‘st esa boshinga ish tushganda bilinadi. Do‘stni yomon kuningda sina, kabi maqollar bejiz aytilmagan. Chumoli bilan chigirtka o‘rtasida bo‘lib o‘tgan voqeadan ko‘rinib turibdiki mehnatsevarlik, do‘stga sadoqat insonni bezab turuvchi eng yaxshi fazilatdir. Darsda “Chumoli va chigitka” masalini o‘qib o‘rganib bo‘linganidan so‘ng sinfdan tashqari o‘qish yoki sinfdan o‘qish darslarida rus masali “Ninachi” masalini o‘qib berib, ikkala masal obrazlarini solishtirib berish o‘quvchilarda mehnatga muhabbat, do‘stga sadoqat kabi fazilatlarni yanada yaxshiroq tarbiyalashda, Chumoli va Chigirtka masali g`oyasini ochib berishga yordam beradi.

Bu masalni o‘qib bo‘lgandan so‘ng, to‘garak mashg‘ulotlarida uni sahnalashtirish mumkin. Tarbiyaviy darslarda masalni chuqurroq o‘rganish lozim, bu narsa masalni






yana ham yaxshiroq o'rganishga va uzoq vaqt yodda saqlashga va ta'limiy, tarbiyaviy tomonlardan yaxshi xulosa chiqarishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida masal matni ustida ishlashda nostandart testlardan foydalanish mumkin. Bunday testlar o'quvchilarni o'ylashga, fikrlashga, topqirlikka, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Quyida masal ustida ishlashda qo'llaniladigan nostandart testlardan na'munalar keltirmoqchimiz:

1. Quyidagi ijodkorlardan masal janrida ijod qilganlarni aniqlang

1) Ezop 2) Alisher Navoiy 3) Gulxaniy 4) Abdulla Qodiriy 5) Lafonten

				
1	2	3	4	5

J: 1,2,3,5

2. Masal janrida yozilgan asarlarni aniqlang.

Asarlar					
N_	1	2	3	4	5
Javob (belgi qo'ying)					

Javoblar:1,3,4,5

3. Asar nomlarini muallif ismi bilan to'g'ri tutashtiring.

1. “Sher bilan Durroj”		Gulxaniy
2. “Toshbaqa bilan Chayon”		O. Qo‘chqorbekov
3. “Qaysar buzoqcha”		Aziz Abdurazzoq
4. “Baqa bilan Taqa”		Alisher Navoiy

Javob:

1. “Sher bilan Durroj”		Gulxaniy
2. “Toshbaqa bilan Chayon”		O. Qo‘chqorbekov
3. “Qaysar buzoqcha”		Aziz Abdurazzoq
4. “Baqa bilan Taqa”		Alisher Navoiy

4. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida berilgan masallarni nomlarini to‘g‘ri keltiring.

1	Maymun bilan	A	Chayon
2	Tuya bilan	B	Najjor
3	Toshbaqa bilan	C	Boyo`g`li
4	Yapaloqqush va	D	Bo‘taloq
Javob	1-B	2-D	3-A 4-C

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Mavlonova, N.Xakimova. Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent, 2019.

2. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G’ulomova, Sh.Sariev, Z.Dolimova. O’qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2019.

3. T. Fafforova, Sh. Nurullaeva, Z. Mirzahakimova. O’qish kitobi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 2- sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2018.

4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2019.

ЎСМИРЛАРДА ОИЛА ТЎҒРИСИДАГИ ТАСАВВУРЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Азамова Гулҳаё Рустамовна
Яшнобод тумани 244-мактаб психологи

Аннотация. Бугунги кунда оила масалалари энг долзарб масалалардан бири десак адашмаган бўламиз. Бунга сабаб ходимнинг ишдаги масъулияти, ўқувчининг мактабдаги фаоллиги, инсонларнинг шахслараро муносабатларнинг барчаси оила аталмиш энг кичик ижтимоий қатламга боғлиқ. Шундай экан ўсиб келаётган ёш авлоднинг оила ҳақидаги тушунчаси, қарашлари, муносабати ва қадриятларининг шаклланишига алоҳида эътибор қаратиш зарур.

Калит сўзлар: оила, ота-она, коллеж ўқувчилари, ўспиринлар, оила институти, оила типлари, соғлом психологик муҳит.

Мустаҳкам ва бахтли оила қуришга йигит-қизларни илк ёшлиқдан тайёрлаш, оила муҳитида ҳамда барча таълим бўғинларида бу ишларни босқичма-босқич изчил давом эттириш олиб бораётган сиёсатимизнинг нақадар истиқболга қаратилганлигини кўрсатади. Мақсадимиз пок ниятли, жисмонан бақувват, соғлом, интеллектуал салоҳияти юксак, ҳар томонлама етук миллатпарвар, оилапарвар, ватанпарвар ёшларни вояга етказиш экан, бу борада оила институтининг барча имкониятларидан тўла ва ўринли фойдаланишни билишимиз, бу йўлдаги самарали механизмларни илмий жиҳатдан тадқиқ этишимиз лозим бўлади.

Ижтимоий психология Ўзбекистонда жадал ривожланиб бораётган фан тармоғи сифатида ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш, уларда оила тўғрисида аниқ тасаввурларни шакллантириш йўлларини ўрганар экан, энг аввало, оиланинг қайси модели ёки типи ҳозирги замон ёшларига маъқул эканлиги, бу типларнинг замонавийлик ҳамда анъанавийлик тамойилларига қанчалик мос келишига ва йигит ва қизларнинг бу борадаги ижтимоий тасаввурларига алоҳида эътибор қаратади. Зеро, никоҳга икки шахс - йигит ва қиз киради. Улардаги жинсга оид психологик хусусиятларнинг қандай эканлиги, оила муҳитида рўй берувчи психологик ҳодисаларнинг ёшлар онгига таъсири кўламини билган ҳолда, шахслараро муносабатларни мустаҳкамлаш йўлларини белгилаш фан учун ҳам, амалиёт учун

ҳам фойдалидир. Ушбу ҳолатларга оид тасаввурларни билиш шахс ижтимоий хулқини олдиндан башорат қилиш, оила мустаҳкамлигини таъминловчи шахсий ва гуруҳий омилларнинг таъсирини мақсадли бошқариш имкониятини беради. Зеро, ёшларда ижтимоий психологик тасаввурлар ва улар асосида шаклланадиган установакаларнинг ўзгариб бораётганлиги ҳаёт тарзи ёки ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларнинг ўзгариб бораётганлиги билангина изоҳланмайди, балки бунда инсон омили ва унинг психологиясида рўй бераётган ўзгаришларнинг ўрни ва роли ҳам сезиларлидир.

Ёшларнинг оила ва оилавий муносабатлар тўғрисидаги тасаввурлари кўплаб ижтимоий психологик тадқиқотларнинг предмети сифатида ўрганилган. Умуман психологлар йигит ва қизларнинг бўлғуси оиласи ва унинг қандай бўлиши тўғрисидаги тасаввурларини ўрганишни умуман улардаги оила ва никоҳ тўғрисидаги тасаввурларини ўрганишдан бошлайдилар. Чунки А.Б.Шнейдернинг фикрича, ўз оиласида кўрган-кечирганлари, тажрибасини умумлаштирмай туриб, ёшларда истиқболдаги оила образи бўлиши мумкин эмас. Калининградлик психолог С.В.Овчинникова ҳам Л.Шнейдер лабораторияси аъзолари билан замонавий ўсмир ёшларнинг идеал, низоли, анъанавий ва типик оила тўғрисидаги тасаввурларини ўрганган ва унда асосий методик қурол сифатида оиланинг проектив расми методикасидан фойдаланган. Бунда ёшлардан оилага ким бошчилик қилиши, ҳар бир оила аъзоси нима билан шуғулланиши, шу оилада айнан ким бўлишни исташлари, ким бўлишни аниқ хоҳламасликлари, бу оилада ким бола тарбияси билан шуғулланиши, оиладагилардан кимга бола кўпроқ яқинлиги: отагами, онагами, бобо ёки бувигами, ўзаро бир-биригами каби саволларга жавоб бериб, қандай муаммоларни билиши ҳақида сўралган. Олинган натижаларда турлича фикрлар орасида айнан идеал оила деб аталмиш категорияда “ҳамма бирга”, яъни, ота-она ва боладан ташқари, бувилар ва боболар ҳам акс этган расмлар тавсифланди. Бундай расмлар 55%ни ташкил этган. 20% дан ортиқ расмларда идеал оила “Эр – болалар - хотин” тизимида ифодаланган ва бундай тасаввурни тадқиқотчилар россияликлар учун анъанавий, деб ҳисоблайдилар.

Олиб борилган кузатишлар мақсади нуқтаи назаридан ушбу тадқиқотлардан олинган яна бир жиҳат муҳимки, у ҳам бўлса, ёшларнинг идеал оила тўғрисидаги тасаввурларида ўзларининг тутган ўрнини аниқлашдир. Масалан, “Айни шу идеал оилада сен ким бўлишни хоҳлардинг?” деб берилган саволга кўпчилик болалар ўзларининг психологик жинсига мос келадиган ролларни ифодалаганлар, яъни, ўғил болалар – эр ролини, қизлар – рафиқа ролини. Фақатгина сўралганларнинг учдан бири бола ролини қайд этиш билан чекланган. Бу ўринда ўғил болалар берган жавоблар барибир бизнинг эътиборимизни тортди. Чунки 10 % ўғил бола оилада етакчи, оила бошлиғи бўлишни истамаганлигини билдирди, яъни, улар ўз бўйнига масъулият олишни хоҳламайди, 35 % ўғил болалар бола позициясини бошқа ҳар қандай ролдан афзал билади. Низоли оила тўғрисидаги тасаввурлари ўрганилган болаларнинг 40 %и оила бошлиғи сифатида аёлни, 35 %и отани тасаввур қилади. Бошқалар эса “Ҳеч ким” ёки “Ким хоҳласа” деган жавоблар билан чекланганлар. Фақат анъанавий оила тўғрисидаги тасаввурларда бирорта жавобда она оила бошлиғи сифатида эътироф этилмаган, 15% ҳолатда оила бошлиғи – бобо, қолган 85% ҳолатда бу ролни ота-эркак киши ўйнайди. Она бундай оилада ҳамиша уй-рўзғор ишлари билан банд бўлган бека ролида тасаввур этилади. Шундай бўлсада, ўғил болаларнинг 30 %и бундай оила моделини хоҳламаслигини, 20 % қизлар умуман уй бекаси бўлиш фикридан йироқ эканлигини, 25 % болалар бола ролини рад этишларини баён этганлар. Ёшларнинг бундай муносабатига сабаб бўлган омиллардан бири – бу оилада бола тарбиялаш усулларининг қаттиқлиги ва улар учун маъқул эмаслигидир. Чунки уларнинг эътирофича, асосий тарбия методларига қатъий тартиб-интизом, қаттиққўллик ва жазолаш усуллари киритилган. Буни замонавий ёшлар мутлақо қабул қила олмайдилар.

ХУЛОСА

1. Илмий психологик манбаларда келтирилган оила ва оилавий муносабатларнинг бошқа турлари шу икки тоифа асосида намоён бўладиган ўзаро муносабатлардир. Оила типини танлаш ва унга йўналтирилган шахс сифатларининг шаклланиши ушбу оиладаги узоқ муддат давомида мулоқот

қилиш вазиятининг оқибати ёки ҳосиласи бўлиб, у аслида шахсдаги мавжуд оилавий мулоқот эҳтиёжидан келиб чиқади. Шунга қарамай, оилада тарбиялаётган ёшларнинг оила типини танлаши оилавий муносабатлар чегарасидан ҳам биров чиқадиган, унинг кенг ижтимоий муносабатлар тизимида олган ижтимоий тажрибасининг ҳам маҳсулидир. Шу боис ҳам, ота-онанинг оила типига нисбатан ижтимоий установа ва ижтимоий тасаввурлари фарзандларникидай бўлмаслиги мумкин ва, аксинча.

2. Оила типини танлашга таъсир этувчи ва шахсдаги ижтимоий тасаввур мазмунини ташкил этувчи ижтимоий институтларга қуйидагилар киради: а) оила – дастлабки ижтимоийлашувнинг маскани сифатида ва у ердаги норасмий мулоқотларнинг ижтимоий тажрибага асос бўлиши сифатида; б) ота ва онанинг жамиятда қабул қилинган, ижтимоий стереотипларда муҳрланган маскулинлик ва фемининлик роллари таъсирида шаклландиган ижтимоий тасаввурлар; в) ижтимоийлашувнинг бошқа масканлари, масалан, таълим масканларида ўзаро муносабатлар таъсирида шаклландиган эркаклик ва аёллик роллари ҳамда бошқа ижтимоий ролларнинг таъсири; г) оиладаги барча аъзолар, жумладан, боболар ва момолар, ота-оналар тажрибасида оиладиги етакчилик мақомларининг қай тарзда тақсимланганлиги; д) болалар жамоасида шахснинг тутган ижтимоий психологик мақоми (фаоллик - пассивлик).

YOSHLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI SABAB VA YECHIMLARI

*Jumaboyeva Gulhayo O'tkirovna
Buxoro viloyati Peshku tuman 9-son Ixtisoslashtirilgan
Davlat umumta'lim maktabi psixologi*

Annotatsiya: Maqolada yoshlar va ularning muammolari, muammolarning kelib chiqish sabablari va yechimlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: uyushmagan yoshlar, inson shaxsi, televideniya, internet tarmoqlari.

Yoshlar orasida ijtimoiy muammolardan biri bu, yoshlar orasida uyushmagan yoshlar qatlamining mavjudligidir. XX asr oxirida kelib xalqimiz taqdirida butunlay yangi davr boshlandi. Tarix tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davrda, qaysi davlatda, qanday tuzumda bo'lishidan qat'iy nazar barkamol avlodni yetuk insonlar qilib tarbiyalash, birinchi navbatdagi ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi.

Inson shaxsini, uni yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy ma'daniy merosimiz hamda ta'rixiy qadriyatlarimizga hurmat, mustaqil vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash barchamizni oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Uyushmagan yoshlar bilan ishlash, bu qatlamni o'rganish, ularni birlashtirish bugungi kunning dolzard ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Uyushmagan yoshlar kim? Uyushmagan yoshlar qatlami qanday qilib vujudga keldi? Ular jamiyatning qanday qatlami? Hozirgi kunda yoshlarning 10 millionini uyushmagan yoshlar tashkil etadi, ular ayni vaqtda biror bir kasb-hunar yoki ta'limning ma'lum bir qismida faoliyat olib bormayotgan, oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ham ega bo'lmagan, tayinli ish bilan mashg'ul bo'lmagan yoshlar tushuniladi.

Bizning jamiyatimizda bu qatnamning yosh guruhlari o'rtacha 19-24 hamda 26-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etyapti. Birinchi guruh asosan o'rta maxsus ta'limi bitiruvchilari bo'lib, ular kollej va akademik litseylarni tugatib, yo oliy ta'lim yurtlariga hujjat topshirishadi yoki o'z sohasi bo'yicha ish berayotgan idora va tashkilotlar bilan shartnoma tuzib ishga qabul qilinadilar, lekin ularning barchasi ham ishda qolib, uni davom ettirishmaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning faqat 10 foizigina birinchi yil oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kiriyapti xolos. Qolgan yoshlar o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rishyapti, qolgan qismi esa haligacha tayinli ish topa olmay sarsonlikda yuribdi. Yoshlarning ayrimlari esa o'qishga kira olmay, ish topa olmay xorijiy davlatlarga ishlashga ketyapti. Xorijiy davlatd ham tayyor ish yo'qligi sababli u yerda ham sarsonlikda yurgan yoshlarimiz afsuski yo'q emas.

Endi esa yoshlar orasida bu ijtimoiy-psixologik muammolarning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritsak. Bunday holatga asosiy sabab, birinchi navbatda hali saviyasi past bo'lgan ota-onalarning hamda ularning farzandlariga berayotgan tarbiyasini ko'rishimiz mumkin. Bazi odamlarimizda hali-hanuz saqlanib qolayotgan eskicha fikrlash va qoloq dunyoqarash bu muammoning asosiy omilidir. Ota-onalarning yoshligidan bolalarga berib kelayotgan “o'qib nima qilasan undan ko'ra ishni qil, qorning shundan to'yadi o'qib dunyoni olib berasanmi” qabilidagi fikrlari yoki bo'lmasa, bolalarni yoshligidan o'qib, ilm olishga yo'naltirmay psixologik dalda bermay, “qora mehnat”ga jalb qilib, shu bhonada o'qishdan bolani chalg'itib, buning ustiga durustroq kasb-hunar ham o'rgatolmay, lo'nda qilib aytganda “sixni ham kabobni ham kuydirishlari” masalaning og'riqli nuqtalaridan biridir.

Oldimizda turgan muammolarni yechishda har bir iker-chikir sabablarga nazar tashlash o'rinlidir. Bolaning yosh paytidagi o'tkir zehnli, barcha narsani qabul qilishga qodir bo'lgan paytda, ularni durust kasb-hunar yoki o'qishga yo'naltirish o'rniga bolalarni ko'chada vaqtini bekor o'tkazishiga ruxsat bergan, har safar maktabga yo o'qishga ketayotganida kissasini pul bilan to'ldirib jo'natayotgan, hali endi shakllanish bosqichida turgan bolalarga mobil telefon, kompyuterlar olib berib, ularni nazoratsiz, o'z xoxishiga tashlab qo'ygan ota-onalar oramizda yo'q emas. Hech qaysi bola yoshligidan kitob o'qishni xohlab, ota-onasidan iltimos qilmaydi, ular bu paytda qiziqqon, o'yin kulguga o'ch bo'lishadi, lekin unga yoshligidan ota-onasi zarur tarbiyani berib, o'qishga hamda kasb-hunarga yo'naltirsa albatta undan kelajakda jamiyatga va oilasiga nafi tegadigan shaxs bo'lib ulg'ayadi. Lekin buning o'rniga bolaning yoshlikdan o'yin kulgu va o'tkinchi narsalar bilan band bo'lib, mobil telefon va kompyuterlar og'ishida o'sgan boladan nimani kutish mumkin? Zeroki, yoshlikda berilgan tarbiya insonning kelajakda qanday shaxs bo'lib ulg'ayishida katta o'rin tutadi. Bu o'rinda Abdulla Avloniyning quyidagi fikrini aytib o'tishni lozim topdim: “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”. Shubhasiz oila haqiqiy hayot maktabi va tarbiya o'chog'idir.

Biz yosh avlodga ilm-fan hamda kasb-hunarni yoshligidan ongiga singdirib borishimiz kerakki, zero u ulg'ayganda buning foydasi hamda berilgan tarbiyaning

to'g'riligini ongli ravishta tushunib yetsin. Agar shunday qila olsak u o'qishni o'zi anglab yetadi, boshini kitobdan ko'tarmaydi, unga hech qanday kompyuter o'yinlari-yu mobil telefonlarning keragi bo'lmaydi. Uni o'qishga majburlab, nasihat qilish kerak bo'lmaydi.

Bir qancha rivojlangan mamlakatlarda misol uchun Yaponiyada na shunday uzviy ta'lim va tarbiya birga olib boriladi. Yapon yoshlari o'qishni barcha narsadan ustun qo'yishadi. Yaponiyada barcha joylarda metrolarda, xiyobonlarda, ko'chalarda, xoh yirik shahar bo'lsin, xoh chekka qishloq hamma yerda bukshop va bukkafelar bor, yapon yoshlari barcha yerlarda o'tirib tinimsiz ilm olish payida bo'lishadi, ularni boshqa hech narsa qiziqitirmaydi.

Yapon maktablarida davomat 99,9% ni tashkil etadi, hech qaysi o'quvchi maktabda o'quv formasisiz kelmaydi. Fan imtihonlarida tartib shunchalik yuqoriki, yapon o'quvchi talabalari bir-biridan ko'chirish bir-biriga yordam berish yoki har xil ko'z bo'yamachiliklarni xayollariga ham keltirishmaydi, barchalari, hammalari o'zlari uchun o'z kelajaklari uchun harakat qilishadi. Yaponiyada ta'limda milliy an'analar hamda yaponcha tarbiya ruhi ta'lim bilan omuxtalashib ketgan va hozirgi kunda dunyoning yetakchi mutaxassislari yaponiyadan yetishib chiqayotganligi, davlat yalpi ichki mahsulotining oshishi, eng muhimi jamiyatdagi ishsizlar sonining kamligi yapon ta'lim tizimining naqadar samarali ekanligini isbotlaydi. Men bu fikrlarim bilan kimnidir maqtash, kimnidir yerga urish maqsadidan yiroqman, lekin ibrat olsa bo'ladiganlardan ibrat olish kerakligini aytmoqchiman.

Barcha narsa hatto, jamiyatdagi ko'plab yechimini kutib turgan muammolarning asl sababi to'g'ri tarbiyaga borib taqalar ekan, shu o'rinda ota-onalar hamda jamiyatning uzviy bog'liqligini ta'minlash kerakligini aytmoqchiman, buning uchun biz ota-onalar bilan uchrashuvlar o'tkazishimiz lozim, ularning ma'naviyatini, psixologik madaniyatini oshirishimiz kerak, bunda albatta ta'lim muassasalarining o'rni katta.

Shu o'rinda yana bir fikrga e'tiboringizni qaratmoqchiman, xalqimizda "Qars ikki qo'ldan chiqar" degan pur ma'no naql borki, ko'p o'rinlarda biz bu fikrni naqadar to'ri ekanligini tan olmay ilojimiz yo'q. Masalaning bir jihati borki, shu o'rinda shuni aytishni lozim topdim. Biz yuqorida aytilgan muammolarning vujudga kelishida nafaqat

ota-onalar, balki ta'lim tizimimizdagi ayrim yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabab bo'lyapti.

Bu kamchiliklarni bartaraf etsak, albatta ijobiy natijalarga erishamiz. Yoshlar bizning kelajagimiz ularning ta'lim olishi kasb egallashlariga ko'mak berish bizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent. "O'zbekiston". 2001-yil.
2. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri". Toshkent. Xalq merosi. 1993-yil.
3. Maktab va hayot jurnali. 2-son 2009-yil.
4. E. G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi". 2010-yil.
5. Nishonova Z, Alimova G, "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". Toshkent. 2013-yil.

SHAXS MUVAFFAQQIYATIDA INTELEKTNING O'ZIGA XOSLIGI

*Turg'unov Baxromjon Raximjonovich
Andijon davlat universiteti,
Umumiy psixologiya kafedراسi doktoranti*

Intellektual qobiliyatning psixologik mexanizmlarini o'rganish shunchaki akademik muammo emas, chunki bu noyob insoniy sifatning tabiati to'g'risidagi ma'lumotlar intellektual qobiliyatning namoyon bo'lishi uchun haqiqiy diagnostika vositalarini ishlab chiqish, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar, talabalar va kattalardagi iqtidor potentsialni rivojlantirishga yordam berish uchun zarurdir. Intellektual qobiliyatning mohiyatini tushunishga an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi, chunki insonlar bilan psixologik ish olib borishda va undan ham ko'proq iqtidorli odamlar bilan ishlashda xatolarga yo'l qoymaslik kerak. Intellektual qobiliyat - bu individual psixologik resurslarning (birinchi navbatda, aqliy resurslar) shunday holatiki ijodiy intellektual faoliyat imkoniyati, ya'ni sub'ektiv va ob'ektiv yangi

g'oyalarni yaratish bilan bog'liq faoliyat, muammolarni ishlab chiqishda nostandart yondashuvlardan foydalanish, asosiy, eng istiqbolli izlanish yo'nalishlariga sezgirlik muayyan mavzu sohasidagi yechimlar, har qanday innovatsiyalarga ochiqlik va boshqalardan iborat.

Intellektual qobiliyatning psixologik tadqiqotlariga kelsak, ushbu atamaning noaniqligi va shunga mos ravishda ma'lum bir shaxsni intellektual qobiliyatli deb aniqlashning turli mezonlarining mavjudligiga bog'liq. Hozirgi vaqtda turli xil tushunchalar doirasida intellektual xulq-atvorning olti turini ajratib ko'rsatish mumkin. Tadqiqot yondashuvlari intellektual qobiliyatning namoyon bo'lishi bilan bog'liq:

1) IQ > 135-140 birlik bo'lgan "umumiy intellekt" yuqori darajada rivojlangan shaxslar (tezkor intellekt egalari), aqlning psixometrik testlari yordamida aniqlanadi;

2) ta'lim yutuqlari ko'rsatkichlari shaklida yuqori darajadagi akademik muvaffaqiyatga ega bo'lgan shaxslar (yorqin intellekt egalari), mezonlarga asoslangan testlar yordamida aniqlanadi;

3) yaratilgan g'oyalarning ravonligi va o'ziga xosligi bo'yicha turli xil qobiliyatlarning yuqori darajadagi rivojlanishiga ega bo'lgan shaxslar (kreativ intellekt egalari), kreativ testlar orqali aniqlanadi;

4) muayyan faoliyatni amalga oshirishda yuqori muvaffaqiyatga erishgan, fan bo'yicha katta hajmdagi bilimlarga, tegishli fan sohasida sezilarli amaliy tajribaga ega bo'lgan shaxslar (intellektual kompotentga egalari);

5) g'ayrioddiy intellektual yutuqlarga ega bo'lgan, real, ob'ektiv ravishda yangi, umume'tirof etilgan shakllarda o'z timsolini topgan shaxslar (talant egalari);

6) odamlarning kundalik hayotidagi voqealarni tahlil qilish, baholash va bashorat qilish bilan bog'liq yuqori darajadagi intellektual qobiliyatlarga ega bo'lgan shaxslar (yuqori intellekt egalari).

Shunday qilib, intellektual qobiliyat, bir qarashda, doimo intellektual faoliyatning o'ta yuqori sur'atlarida namoyon bo'ladi. Biroq, bizda tadqiqot davomida tabiiy ravishda intellektual muvaffaqiyatning har qanday ko'rsatkichi intellektual qobiliyatning ko'rsatkichimi degan savol paydo bo'ladi. G'arb psixologiyasida intellektual qobiliyatni standart psixometrik testlar asosida baholash tendentsiyasi

ustunlik qiladi, bunda sub'ektlarning taxminan 2 foizi eng yuqori ball oladi - ular "intellektual qobiliyatli" deb tasniflanadi. Bunday identifikatsiyaning muammoli tabiati allaqachon standart intellekt testlari individual intellektning faqat bitta jihatini aniqlaganligi bilan belgilanadi.

Intellektual qobiliyatni yuqori IQ bilan aniqlashning sabablaridan biri L. Termen tomonidan XX asrning 20-yillarida boshlangan va XX asrning 70-yillarida yakunlangan tadqiqotining natijalari edi. Termenning tashabbusi bilan 1922 yilda Stenford-Binet intellektual shkalasi bo'yicha 140 yoki undan ko'p ball olgan 1500 ga yaqin talaba tanlab olindi. Bolalikdan iqtidorli deb tan olingan ushbu test sub'ektlari 40 yildan so'ng ularning hayoti va kasbiy yutuqlari nuqtai nazaridan yana o'rganildi. Ma'lum bo'lishicha, ularning 60 foizi universitetni tamomlagan, erkaklarning 14 foizi va ayollarning 4 foizi oliy ilmiy unvonga ega bo'lgan, erkaklar jami 2000 ta ilmiy maqola, 60 monografiya, 3 ta romanga mualliflari bo'lgan, bu kishilarning ko'pchiligining maoshi o'rtachadan yuqori bo'lgan. Muxtasar qilib aytganda, yuqori IQ ga ega bolalarning hayotda muvaffaqiyatga erishishning muhim qismi bo'lgan (Sears, 1979). Shu bilan birga, quyidagi faktlar e'tiborni tortdi: birinchidan, bolalik davridagi "intellektual" sub'ektlarning hech biri o'z sohasida ajoyib ijodkor bo'lib qolmadi, ikkinchidan, bu aholining 15 foizi Amerika jamiyati standartlari bo'yicha muvaffaqiyatga erisha olmadi. Shunday qilib, bolalik davridagi o'ta yuqori IQ hayotga va kasbiy muvaffaqiyatga ma'lum darajada bog'liq bo'lsa-da, ammo ularning mavjudligi keyinchalik, etuk yoshdagi intellektual qobiliyatning namoyon bo'lishi bilan bevosita bog'liq emas edi. Lekin IQ darajasi o'rta va past bo'lgan bolalarning intellektual va kasbiy taqdiri qanchalik muvaffaqiyatli rivojlanganligi haqidagi savol hali ham o'rganilmagan edi. Boshqa tadqiqotlarda IQ darajasi yuqori bo'lgan shaxslar mustaqil kichik guruh sifatida batafsil o'rganila boshlaganida, muammo yanada chigallashdi.

Birinchidan, ushbu kichik guruhda konvergent va divergent qobiliyat ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik amalda nolga teng bo'lib chiqdi. Bu shuni anglatadiki, eng yuqori IQga ega bo'lgan sub'ektlarda kreativlik ko'rsatkichlarida qiymatlar - ham yuqori, ham past bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, yuqori intellektual kichik guruhi, past intellektual guruhiga nisbatan turli xil intellektuallar o'rtasida sezilarli darajada past korrelyatsiyani ko'rsatdi (Detterman, 1993). Ushbu turdagi sub'ektlarning namunasidagi korrelyatsiya bog'liqligini kamaytirish ta'siri universal ko'rinadi va har qanday psixologik ko'rsatkichlarga tegishli bo'ladi. Shunday qilib, maksimal IQga ega bo'lgan guruhda aqlning xususiyatlari va temperament xususiyatlari o'rtasidagi muhim korrelyatsiyalar sonining keskin kamayishi qayd etildi (Rusalov, Dudin, 1995).

Uchinchidan, ushbu sub'ektlar guruhida ogohlantirish signali va test natijalarining muvaffaqiyati o'rtasidagi nisbat g'alati tarzda o'zgaradi. Agar oddiy namunalarda ogohlantirish darajasi va IQ qiymati o'rtasidagi munosabat salbiy bo'lsa (ogohlantirish signali qanchalik baland bo'lsa, test topshiriqlari shunchalik muvaffaqiyatli bajarilmaydi), u holda "tezkor intellekt egalari" (maksimal IQ) guruhida bu qaramlik ijobiy bilan almashtiriladi (tashvish qanchalik baland bo'lsa, test topshiriqlari shunchalik muvaffaqiyatli bajariladi) (Ley, Spelman, Davies, Riby, 1966).

"Yorqin intellekt egalari", ya'ni o'quv faoliyatida yuqori muvaffaqiyatlarga erishgan va maktab testlarida yuqori ball olgan shaxslarni tadqiq qilish sohasini ko'rib chiqamiz. Adabiy biografik manbalar guvohlik beradiki, buyuk odamlarning katta qismi (eng yirik olimlar, faylasuflar, yozuvchilar) maktabda jiddiy muammolarni boshdan kechirganlar. Tabiiyki, bu holda biz intellektual muvaffaqiyatni baholashning o'ziga xos talablari va mezonlari bilan an'anaviy, rasmiy maktab ta'limi tizimi haqida fikr yuritamiz. An'anaviy maktabda iqtidorli bolalar ko'pincha nazardan chetda qoladilar, chunki ularning intellektual xatti-harakatlari kutilmagan tarzda namoyon bo'ladi. Ular maktab qoidalari va o'qituvchining "yaxshi o'quvchi" haqidagi g'oyalariga to'g'ri kelmaydi. E.Torrensning ma'lumotlariga ko'ra, yomon o'zlashtirganligi uchun maktabdan haydalganlarning 30% ga yaqini iqtidorli va haddan tashqari iqtidorli bolalardir (iqtibos: Gilbux, 1991). Shunday qilib, ta'limning ma'lum bosqichlarida (birinchi navbatda maktab ta'limi) ta'lim yutuqlarining pastligi bolani "intellektual qobiliyatsiz" deb aniqlash uchun asos bo'la olmaydi. Intellektual qobiliyatni diagnostika qilishning an'anaviy yondashuvlari shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori darajadagi akademik

yutuqlar, yuqori darajadagi kreativlik intellektning alohida ko'rsatkichi bo'lib, intellektual qobiliyat ko'rsatkichi ham bo'lishi mumkin.

Talabalar, ularning mumkin bo'lgan iqtidorlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishi uchun ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan qanday shart-sharoitlar yaratilishi kerakligi va intellektual muvaffaqiyati sabablarini o'rganish davr talabidan kelib chiqqan holda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXSNING SHAKLLANISHI

*Sultanova Svetlana Allambergenovna
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Nukus shahar 29-sonli maktab psixologi*

Jamiyatimizdagi yoshlarni tarbiyalashda optimal uslub va vositalardan foydalanishimiz lozim. Tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiya yosh avlodda jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqodni, axloqiy malaka va ko'nikmalarni, ehtiyoj va intilishlarni tarkib toptirishdan iborat. Tarbiya bilan shug'ullanadigan har bir tarbiyachi birinchi navbatda o'z faoliyatini va unda ko'zda tutilgan maqsadni aniq tasavvur eta olishi, bu maqsadning muhimligini tushunishi lozim. Demak, qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur. Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy maqsadi bolalarni yuksak ahloqiy, ma'naviy boy, erkin, shu bilan birga, javobgarlikni, ma'suliyatni chuqur xis qiluvchi shaxs qilib shakllantirishdir. Aynan mana shu xususiyatlar shaxsda yuksak darajada namoyon bo'lsagina, ularni kelajagimizning poydevori bo'lgan barkamol avlod, deb tariflash mumkin bo'ladi. SHaxsning shakllanishi o'smirlik davrida bo'ladigan bir qancha o'zgarishlardan iborat bo'ladi.

O'smirlik davri 10-11, 14-15 yoshni tashkil etadi. Ko'pchilik o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish asosan 5-sinfdan boshlanadi. «Endi u bola emas, u hali katta

ham emas»-bu formula o'smirlik davri xarakterini bildiradi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik, hamda psixologik o'zgarishlardir. Fiziologik o'zgarish jinsiy etilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilarga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin.

O'smirlik yoshiga hos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi. O'smirlik davri «O'tish davri», »Krizis davr», »Qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o'smirlar xatti-harakatida noadekvatlik, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. Shuningdek ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning shuningdek, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar.

O'smirlik davrida etakchi faoliyat – bu, o'qish hamda muloqot faoliyatidir. O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysinadi. Shu sotsial sharoit ijtimoiy va ulardagi psixologik iqlimni o'zgartirish bilan o'smirdagi yomon xulq atvor o'jarlik kamchiliklarini tan olmaslik kabi tabiiy xislatlarni oldini olish mumkin.

Ba'zi o'qituvchilar kichik o'smirdagi bu o'zgarishlar urushqoqlik va salbiy alomatlar o'jarliklarining ildizlari qaerdan kelib chiqadigan va nimaning ta'siri

ekanligini bilmay turib noto'g'ri tashxis va xulosalar chiqaradilar va bu aksariyat xolda fojiaga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bu yoshda kattalar o'smirlarni bilib bilmay qo'yayotgan kamchilik va xatolarini ko'pchilik ichida uyaltirib kamsitib qoralab emas, balki psixologik yo'l bilan yondashgan holda yordam berish uni "katta bo'lib qolganlik" tuyg'usini so'ndirib emas balki katta odam qanday bo'lishi va qanday talablarga javob berishi kerakligini anglatish zarur. Demak, bu o'smirni to'laqonli psixik rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy bir xislat ekanligini bilgan holda shu bilan bog'lik salbiy ishlarni psixologik tabiatini to'g'ri tushunmog'i va aksincha ularning bunday hatti harakatlarini ijobiy yo'lga solish uchun intilishi kerak. O'smirlarni o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga egadir. Sababi, o'z tengdoshlari bilan tenglik asosida qilingan muammolar munosabat asosida o'smir alohida bir ijtimoiy munosabatlar maktabini o'taydi.

O'zaro qiziqishlar atrof dunyoni bir birlarini birgalikda anglashlari va tushunishlari ular uchun juda qimmatlidir. O'smirlar uchun uy vazifalari, uy ishlari bo'yicha majburiyatlarni bajarishga qaraganda tengdoshlari bilan muloqot qilish muhimroqdir. O'z ishlari sirlarini bola endi ota-onasiga emas, balki tengdoshiga ko'proq ishonadi. U endi salbiy va ijobiy tomonlariga alohida bir urg'u bermagan holda o'zi xoxlagan kishisi bilan do'st bo'lish huquqini talab etadi.

Adabiyotlar:

1. Z.T.Nishonova, Sh.T. Olimboeva, M.V.Sulaymonov « Psixologik xizmat» Toshkent-2014
2. T.M.Adizova O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari. Toshkent., 1997.

O'SMIRLARDA TANGLIK VAZIYATDAN CHIQRISHNING MAKTAB TARG'IBOTCHISI XAMKORLIGIDA MUSIQA TERAPIYA USULIDA TUZATISH

Malikova Zuhraxon

Andijon viloyati Marhamat tumani 2-maktab targ'ibotchisi

Barkamol avlod kamoloti g'oyasini turmushga tadbiq etish uchun istiqloqlarning dastlabki kunlaridanoq milliy ma'naviyat, milliy ta'lim va tarbiya muammolarini hal etishga jiddiy e'tibor qaratilish kelinmoqda. Ma'lumki, ta'lim – tarbiya ongning mahsuli va uning darajasi bo'lishi bilan birga, rivojini ham belgilaydigan omildir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz fuqorolariga qarata “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” degan fikrlari zamirida yoshlarni keng intellektual salohiyatga ega qilishda ta'limning barcha sohalarida tub burilishlarni taqozo etadi. Zamonaviy jamiyat o'zining tez va chuqur o'zgaruvchan tavsifiga ega bolib, bunday o'zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, ta'lim – tarbiya jarayonlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shunday ekan kishilarni muloqot jarayonida teran fikrlash, hozirjavoblik, ta'sirchanlik, samimiylik, empatiya, kirishuvchanlik, muzokaralar tashkil qiluvchanlik, raqobatbardoshlik kabilarni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar qalbida musiqaga bolgan muhabbat hissini oshirishda musiqiy ta'limiy o'yinlarning roli beqiyosdir. Bu orqli tarbiyachi bolalardagi xulq atvorni shakllanishiga bevosita o'z tasirini o'tkazadi. Musiqa orqli bolalardagi turli xil stresslarni bartaraf qilish mumkun. Bu bolarda turli xil musiqa asboblarni ko'rsatib, chalib berish orqali, cholg'u asboblarning ovozi va tuzilishi va turlari bilan tanishtirib boradi. “Ovozidan top”, “Nimada chalyapman”, “Qo'ng'iroq qanday jaranglayapti” kabi o'yinlar orqali tarbiyachi bolalarga ovoz va cholg'u asboblarning tovush xususiyatlarini farqlashga o'rgatadi. “Tapur-tupur qayrag'och”, “Tomga tosh otdim”, “O'ynab ber”, “Sanamalar”, “Mushtum va kaftchalar”, “Yomg'ir” kabi milliy o'yinlar orqali bolalarni musiqa

ritmiga mos harakat, o'yinli ashulani ijro etish, qarsaklar va mimik harakatlarni to'g'ri bajarishga o'rgatib boriladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda tabiiylik sifati bo'lib, bu narsa, ayniqsa, bolalar o'yinida yaqqol seziladi, zero, ular unda o'zidagi ko'plab tabiiy ehtiyojlarni qondirishga harakat qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak ma'lum taraqqiyot bosqichida bolalar tinimsiz o'ynaydilar, undan charchamaydilar va bunda hech qachon ular o'z sherigiga ma'naviy ziyon etkazmaydi. Bu narsalar o'yinning shunday qirradi bilan bog'liqki, unda xayol, xissiyot jarayonlari yaqqol tafakkurdan ustun keladi. Ijtimoiy psixologik ahamiyatga ega bo'lgan kattalar o'yini esa asosan ikkita vazifani bajaradi: - ma'lum ijtimoiy bilimlarni egallash; - zarur ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish. Lekin bunday o'yinlarning tabiiy bolalar o'yinidan farqli jihatlari ham bor: Bolalar o'yinlarida ijtimoiy rol o'zlashtirilsa, kattalarnikida bu rol yanada mustahkamlanadi, takomillashadi; masalan, bolalarning "mehmon-mehmon" o'yinlarida mehmon va mezbon harakatlariga xos bo'lgan asosiy qirralar o'zlashtirilib, taqlid asosida ko'nikmalar hosil qilinsa, kattalar shunga o'xshash "o'yinlarda" muomalaning eng mukammal va chiroyli jihatlarini mustahkamlab, davr madaniyatiga xos xulq-atvor shakllariga o'rganadilar; b) bolalar o'yinlaridagi rollar hayotiy vaziyatlarni umumlashtirgan holda, umumiy tasavvurlar vositasida qaytarilsa, kattalarda bu narsa aniq vaziyatlar va yaqqol rollar vositasida amalga oshiriladi; v) bolalar o'yinlari ma'lum ma'noda stixiyali jarayon bo'lsa, kattalar o'yinida xayotiy qoidalar, normalar, me'yorlar ataylab tashkil qilinadi va unga maxsus nazoratchilar - murabbiylar rahbarlik qiladilar; g) bolalar tabiiy ravishda o'zlari kirishayotgan rolni xissiy boshdan kechirib, o'yinga kirishsalar, kattalar ko'proq u yoki bu rolga o'zini identifikatsiya qilib, sun'iy ravishda kiradi; d) kattalar o'yinining sifati va samaradorligi o'ynovchining hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi, bu o'rinda onglilik tashabbuskorlik va eruditsiya, yaqqol omillarni umumlashtirish kabi sifatlar muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy psixologik bilimdonlikni oshirishga xizmat qiluvchi o'yinlar asosan ikki turga bo'linadi: operatsional o'yinlar va rolli o'yinlar. Operatsional o'yinlar o'z mohiyati jihatidan, ya'ni ushbu faoliyat motivi, unda aqliy operatsiyalarning ishtiroki va hissiy ko'rinishi jihatdan muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga o'xshaydi. Lekin ayni tizimga tushirilmagan, spontan munozaradan farqli, unda o'yinning umumiy ssenariysi

bo'lib, oqibatda qabul qilinadigan qarorlar ijtimoiy normalarga mone kelishi, "to'g'ri" yoki "noto'g'ri"ligi algoritmik belgilab qo'yiladi. Shuning uchun ham bunday o'yinlarda hayot sinovlaridan o'tkazilgan, ijtimoiy tajribaga asoslangan vaziyatlar ishlatiladi. Masalan, hozirda keng tarqalgan ishbilarmonlik o'yinlar yoki boshqaruv o'yinlari shular jumlasiga kiradi.

Maktab psixologi va maktab targ'ibotchilari xamkorligi asosida ish olib borilsa o'quvchilardagi turli xil psixologik og'ish xolatlarni oldi olinadi.

Targ'ibotchining asosiy ish faoliyati darslarni bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilar bilan ishlash, iqdidorli o'quvchilar bilan ishlash va tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashdan iboratdir.

Shu bois targ'ibotchi maktab psixologi bilan doimiy birga maslaxatlashib ish tashkil qilinsa o'quvchilarni ruhan jismonan va manaviy yetuk qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ishtimoiy ko'makka tushgan o'quvchilarda vatanga bo'lgan muhabbat, maktabga, oilaga, atrof muhitga bo'lgan muxabbat so'nib boradi shu sabab bolalarda turli salbiy xulq atvor rivojlanib boradi. Bunday xulq atvorli o'quvchilarni musiqa va turli xil tadbirlar orqali ularni qalbida muxabbat uyg'otish orqali salbiy xulq atvorni tuzatish mumkun.

ЎСМИРЛАРДА ОИЛА ТЎҒРИСИДАГИ ТАСАВВУРЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Абдулхасанова Хилола Холматовна
Фаргона вилояти Олтиариқ тумани 2-ИДУМ психологи*

Аннотация. Бугунги кунда оила масалалари энг долзарб масалалардан бири десак адашмаган бўламиз. Бунга сабаб ходимнинг ишдаги масъулияти, ўқувчининг мактабдаги фаоллиги, инсонларнинг шахслараро муносабатларнинг барчаси оила аталмиш энг кичик ижтимоий қатламга боғлиқ. Шундай экан ўсиб

келаётган ёш авлоднинг оила ҳақидаги тушунчаси, қарашлари, муносабати ва қадриятларининг шаклланишига алоҳида эътибор қаратиш зарур.

Калит сўзлар: оила, ота-она, коллеж ўқувчилари, ўспиринлар, оила институти, оила типлари, соғлом психологик муҳит.

Мустаҳкам ва бахтли оила қуришга йигит-қизларни илк ёшлиқдан тайёрлаш, оила муҳитида ҳамда барча таълим бўғинларида бу ишларни босқичма-босқич изчил давом эттириш олиб бораётган сиёсатимизнинг нақадар истиқболга қаратилганлигини кўрсатади. Мақсадимиз пок ниятли, жисмонан бақувват, соғлом, интеллектуал салоҳияти юксак, ҳар томонлама етук миллатпарвар, оилапарвар, ватанпарвар ёшларни вояга етказиш экан, бу борада оила институтининг барча имкониятларидан тўла ва ўринли фойдаланишни билишимиз, бу йўлдаги самарали механизмларни илмий жиҳатдан тадқиқ этишимиз лозим бўлади.

Ижтимоий психология Ўзбекистонда жадал ривожланиб бораётган фан тармоғи сифатида ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш, уларда оила тўғрисида аниқ тасаввурларни шакллантириш йўллари урганар экан, энг аввало, оиланинг қайси модели ёки типи ҳозирги замон ёшларига маъқул эканлиги, бу типларнинг замонавийлик ҳамда анъанавийлик тамойилларига қанчалик мос келишига ва йигит ва қизларнинг бу борадаги ижтимоий тасаввурларига алоҳида эътибор қаратади. Зеро, никоҳга икки шахс - йигит ва қиз киради. Улардаги жинсга оид психологик хусусиятларнинг қандай эканлиги, оила муҳитида рўй берувчи психологик ҳодисаларнинг ёшлар онгига таъсири кўламини билган ҳолда, шахслараро муносабатларни мустаҳкамлаш йўллари белгилаш фан учун ҳам, амалиёт учун ҳам фойдалидир. Ушбу ҳолатларга оид тасаввурларни билиш шахс ижтимоий хулқини олдиндан башорат қилиш, оила мустаҳкамлигини таъминловчи шахсий ва гуруҳий омилларнинг таъсирини мақсадли бошқариш имкониятини беради. Зеро, ёшларда ижтимоий психологик тасаввурлар ва улар асосида шаклланадиган установкаларнинг ўзгариб бораётганлиги ҳаёт тарзи ёки ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларнинг ўзгариб бораётганлиги билангина изоҳланмайди, балки бунда инсон омили ва унинг психологиясида рўй бераётган ўзгаришларнинг ўрни ва роли ҳам сезиларлидир.

Ёшларнинг оила ва оилавий муносабатлар тўғрисидаги тасаввурлари кўплаб ижтимоий психологик тадқиқотларнинг предмети сифатида ўрганилган. Умуман психологлар йигит ва қизларнинг бўлғуси оиласи ва унинг қандай бўлиши тўғрисидаги тасаввурларини ўрганишни умуман улардаги оила ва никоҳ тўғрисидаги тасаввурларини ўрганишдан бошлайдилар. Чунки А.Б.Шнейдернинг фикрича, ўз оиласида кўрган-кечирганлари, тажрибасини умумлаштирмай туриб, ёшларда истиқболдаги оила образи бўлиши мумкин эмас. Калининградлик психолог С.В.Овчинникова ҳам Л.Шнейдер лабораторияси аъзолари билан замонавий ўсмир ёшларнинг идеал, низоли, анъанавий ва типик оила тўғрисидаги тасаввурларини ўрганган ва унда асосий методик қурол сифатида оиланинг проектив расми методикасидан фойдаланган. Бунда ёшлардан оилага ким бошчилик қилиши, ҳар бир оила аъзоси нима билан шуғулланиши, шу оилада айнан ким бўлишни исташлари, ким бўлишни аниқ хоҳламасликлари, бу оилада ким бола тарбияси билан шуғулланиши, оиладагилардан кимга бола кўпроқ яқинлиги: отагами, онагами, бобо ёки бувигами, ўзаро бир-биригами каби саволларга жавоб бериб, қандай муаммоларни билиши ҳақида сўралган. Олинган натижаларда турлича фикрлар орасида айнан идеал оила деб аталмиш категорияда “ҳамма бирга”, яъни, ота-она ва боладан ташқари, бувилар ва боболар ҳам акс этган расмлар тавсифланди. Бундай расмлар 55%ни ташкил этган. 20% дан ортиқ расмларда идеал оила “Эр – болалар - хотин” тизимида ифодаланган ва бундай тасаввурни тадқиқотчилар россияликлар учун анъанавий, деб ҳисоблайдилар.

Олиб борилган кузатишлар мақсади нуқтаи назаридан ушбу тадқиқотлардан олинган яна бир жиҳат муҳимки, у ҳам бўлса, ёшларнинг идеал оила тўғрисидаги тасаввурларида ўзларининг тутган ўрнини аниқлашдир. Масалан, “Айни шу идеал оилада сен ким бўлишни хоҳлардинг?” деб берилган саволга кўпчилик болалар ўзларининг психологик жинсига мос келадиган ролларни ифодалаганлар, яъни, ўғил болалар – эр ролини, қизлар – рафиқа ролини. Фақатгина сўралганларнинг учдан бири бола ролини қайд этиш билан чекланган. Бу ўринда ўғил болалар берган жавоблар барибир бизнинг эътиборимизни тортди. Чунки 10 % ўғил бола оилада етакчи, оила бошлиғи бўлишни истамаганлигини билдирди, яъни, улар ўз

бўйнига масъулият олишни хоҳламайди, 35 % ўғил болалар бола позициясини бошқа ҳар қандай ролдан афзал билади. Низоли оила тўғрисидаги тасаввурлари ўрганилган болаларнинг 40 %и оила бошлиғи сифатида аёлни, 35 %и отани тасаввур қилади. Бошқалар эса “Ҳеч ким” ёки “Ким хоҳласа” деган жавоблар билан чекланганлар. Фақат анъанавий оила тўғрисидаги тасаввурларда бирорта жавобда она оила бошлиғи сифатида эътироф этилмаган, 15% ҳолатда оила бошлиғи – бобо, қолган 85% ҳолатда бу ролни ота-эркак киши ўйнайди. Она бундай оилада ҳамиша уй-рўзғор ишлари билан банд бўлган бека ролида тасаввур этилади. Шундай бўлсада, ўғил болаларнинг 30 %и бундай оила моделини хоҳламаслигини, 20 % кизлар умуман уй бекаси бўлиш фикридан йироқ эканлигини, 25 % болалар бола ролини рад этишларини баён этганлар. Ёшларнинг бундай муносабатига сабаб бўлган омиллардан бири – бу оилада бола тарбиялаш усулларининг қаттиқлиги ва улар учун маъқул эмаслигидир. Чунки уларнинг эътирофича, асосий тарбия методларига қатъий тартиб-интизом, қаттиққўллик ва жазолаш усуллари киритилган. Буни замонавий ёшлар мутлақо қабул қила олмайдилар.

ХУЛОСА

1. Илмий психологик манбаларда келтирилган оила ва оилавий муносабатларнинг бошқа турлари шу икки тоифа асосида намоён бўладиган ўзаро муносабатлардир. Оила типини танлаш ва унга йўналтирилган шахс сифатларининг шаклланиши ушбу оиладаги узоқ муддат давомида мулоқот қилиш вазиятининг оқибати ёки ҳосиласи бўлиб, у аслида шахсдаги мавжуд оилавий мулоқот эҳтиёжидан келиб чиқади. Шунга қарамай, оилада тарбиялаётган ёшларнинг оила типини танлаши оилавий муносабатлар чегарасидан ҳам биров чиқадиган, унинг кенг ижтимоий муносабатлар тизимида олган ижтимоий тажрибасининг ҳам маъсулидир. Шу боис ҳам, ота-онанинг оила типига нисбатан ижтимоий установа ва ижтимоий тасаввурлари фарзандларникидай бўлмаслиги мумкин ва, аксинча.

2. Оила типини танлашга таъсир этувчи ва шахсдаги ижтимоий тасаввур мазмунини ташкил этувчи ижтимоий институтларга қуйидагилар киради: а) оила

– дастлабки ижтимоийлашувнинг маскани сифатида ва у ердаги норасмий мулоқотларнинг ижтимоий тажрибага асос бўлиши сифатида; б) ота ва онанинг жамиятда қабул қилинган, ижтимоий стереотипларда муҳрланган маскулинлик ва фемининлик роллари таъсирида шаклланидиган ижтимоий тасаввурлар; в) ижтимоийлашувнинг бошқа масканлари, масалан, таълим масканларида ўзаро муносабатлар таъсирида шаклланидиган эркаклик ва аёллик роллари ҳамда бошқа ижтимоий ролларнинг таъсири; г) оиладаги барча аъзолар, жумладан, боболар ва момолар, ота-оналар тажрибасида оиладиги етакчилик мақомларининг қай тарзда тақсимланганлиги; д) болалар жамоасида шахснинг тутган ижтимоий психологик мақоми (фаоллик - пассивлик).

OILAVIY MUNOSABATLARNING BOLA SHAXSIDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

*Muradova Visola Sobirovna
Samarqand viloyati, Paxtachi tumani 15-maktab psixologi*

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsigam ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmokda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda xam o'z ifodasini topadi. Oilaviy munosabatlar o'zining ko'p qirraliligi bilan alohida

xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma'nan barkamol, ruhan sog'lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga egadir. Agar har bir oilani tashkil etuvchilar o'z muammolarini bahamjihatlik bilan, o'zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik kafolatlanib, uning ma'naviy asoslari mustahkam bo'ladi. Alohida ta'kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o'zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo'lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma'naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to'g'risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu bois ham mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari qadriyat sifatida yuksaklarga ko'tariladi.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A. Karimov, oilada hukmron bo'lishi lozim bo'lgan ma'naviy muhit va noyob udumlarimizning hosiyatlari haqida fikr bildirib: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amho'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir"⁸ - deb ta'kidlaganlar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilaviy munosabatlar har doim ham bir tekisda silliq, risoladagidey kechavermaydi. Uy-ro'zg'or yumushlarini ado etish, er-xotinlik burchlari, ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyatlari, farzandlarning kattalar oldidagi huquq va burchlarini ado etish jarayonida murakkab rollararo muomala va muloqot jarayonlari kechadiki, ularning deyarli barchasida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to'qnashadi, ayrim xolatlarda fikr va qarashlardagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar shaxslararo nizolar tarzida namoyon bo'ladi. Bu xolatlar albatta farzandlar tarbiyasiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Bu esa tarbiya jarayonida ijtimoiy normalarni amal qilishi yoki buzilishida nomoyon bo'ladi. Ayni shu masalalar mavzuimizning dolzarbligini belgilaydi.

Agressiya va agressiya muammosi uzoq vaqt davomida ijtimoiy psixologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lgan.

O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab o'smirlardagi tajovuzkor xatti-harakatlarning faol tadqiqotlari o'tkazildi. Ayniqsa, bu muammo hozir juda muhim. O'smirlar o'rtasida tajovuzkor tendensiyalarni o'sishi so'nggi yillarda keskin tarzda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik oshdi. Ayniqsa, o'smirlar o'rtasidagi jinoyat ishlari sezilarli darajada oshdi. Bu esa jamiyatimizning bugungi kundagi eng o'tkir ijtimoiy muammolaridan birini

⁸ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol vatarqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992. -72

ifodalaydi. Jiddiy jarohatlash, bir kishiga qarshi jinoyatlarning ortib soni kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda shafqatsiz yosh guruhlardagi janglarning hollari tez-tez uchraydi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, bu kabi holatlarning ortib borishi esa yoshlarning ruhiyatida oilaviy muhitning keskin buzulishi va oilaviy munosabatlarning keskinlashuvi sabab bo'lmoqda. Oila a'zolarining o'zaro muomalalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, maktab o'quvchilarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhitidagi holatlar va omillar alohida o'rin tutadi:

Birinchidan: ota-onalarning jamoatchilik faoliyati ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari bola tarbiyasiga ta'siri kuchli bolar ekan.

Ikkinchidan: oila ichidagi munosabatlari ota va ona munosabati, ota-onalarning buva va buvisiga munosabatlari, aka-ukalar va opa-singillarning o'zaro munosabatlari.

Uchinchidan: ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati.

To'rtinchidan: oilada bolalalarning ta'limga munosabatlari va ijtimoiy normalarni bajarishlari va boshqalar.

Demak oila muhitini uch toifaga: ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy toifalarga ajratish imkoniyati tug'ildi. Bu esa, oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganishda "baxtli bolalik - bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir", degan xulosaga kelindi. Shu asosda oilada farzand tarbiyasiga yondashishning oilalarni yo'nalishiga qarab, uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib berish mumkin.

1. Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilaga xos bo'lgan oilalar bizdagi oilalarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlar axloq prinsiplari va qoidalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, shuningdek har tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali nazarda tutiladi. Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilalarning voyaga yetgan a'zolari ishlab chiqarishda, korxonada, jamoat ishlarida faol qatnashadilar, ilg'or madaniyatga nisbatan, qiziqishlarini namoyish qiladilar, shuning bilan birga bu narsaga o'z farzandlarida ham havas uyg'otadilar. Oilada goho namoyon bo'ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda hamjihatlik bilan bartaraf qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo'jalik ashyolari, asboblari, qimmatbaho materiallarni har xil ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqboli bilan mutlaqo bog'lanmaydi.

2. Ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oilada barqaror yo'nalish bo'lmaydi. Oilaviy turmush munosabatlari uzluksiz ravishda biron-bir g'oyaning boshqa g'oya bilan o'zaro niqoblangan kurashi bosqichida bo'ladi, u yoki bu qarashlarning ustunligi, istiqboli hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Bunday holatning ko'zga tashlanishi eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashni anglatmaydi. Er-xotinning yoki boshqa voyaga yetgan oila a'zolarining murosasiz pozitsiyalari ko'pincha ularning fe'l-atvor xususiyatlaridagi tafovut negizi bilan bog'liq bo'lib, mutlaqo eskilik sarqiti mohiyatidan kelib chiqmaydi. Oilada so'z bilan ish birligi masalasi bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi. Faqat burch hissigena, muayyan majburiyatni bajarishgina oila a'zolari o'zaro birlashtirib turadi. Mana bunday oilalarda er-xotinning bolalarga ta'sir o'tkazish uchun kurashi, raqobati yaqqol namoyon bo'ladi.

3. Past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalarda ko'pincha ishchanlik udumi va ideallari hokimlik qiladi. Mazkur oilalarda barcha narsa yagona narsaga bo'ysundirilgan, ya'ni mol-dunyo to'plashga, moddiy-maishiy jihatdan ustunlikka erishishiga qaratilgan boladi. Voyaga yetgan oila a'zolarining, ota-onalarining korxonada, muassasada, tashkilotda mehnat qilishi ana shu ko'zlangan maqsadga yetish vositasi sifatida, har qanday mehnat esa, ish haqi miqdori bilan o'lchanadi. Oila boshlig'ining zo'ravonligi, zolimligi, unga ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishlik, sajda qilishlik, zaif va nimjon oila a'zolari farovonligini poymol qilishga intilishi va hokazolar ustun bo'ladi. Meshchanlik ideali va diniy e'tiqod doirasidan tashqari chiqish hollari (kitob o'qish ijtimoiy turmush faoliyatida ishtirok etish) kamsitilib, bekorga vaqt sarflash deb baholanadi.

Shu boisdan past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalardan xudbin, qo'rqqoq, jamiyat uchun kam nafi tegadigan o'g'il-qizlar yetishib chiqishi mumkin. Jumladan, har bir oila a'zolarining yashayotgan mikromuhitda tutgan o'rni va erishgan obro'li, oilalarda er-xotin munosabatlari, ota-onalarning farzandlarga nisbatan muomalalari, turli yoshdagi farzandlarning o'zaro muloqoti, ularning ota-onalarga munosabatlari, oila a'zolarining begona kishilar bilan muloqotga kirishishi xususiyatlari, ular o'rtasida o'zaro yordam va birdamlilik xususiyatlari, uy-ro'zg'or yumushlari taqsimoti, xordiq chiqarish, oila a'zolarida muloqot ko'laminin kengayishi kabi shaxslararo munosabatlarning rang-barang jihatlarini oilada bola ongiga sngdirish maqsadga muvofiqdir.

Oilaviy hayot, mehnat, kattalar va kichiklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, axloqiy-ma'naviy qiyofalari, ota-onalarning siyosiy va ma'naviy saviyalari, ularning iqtisodiy ta'minlanganligi, turli ko'rinishdagi faoliyatlari, vaqtini to'g'ri rejalashtirish, yashash sharoitlari va boshqalar oilada farzand tarbiyasini samaradorligini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Biz mavzu yuzasidan quyidagi ilmiy-nazariy, tahliliy natijalarni qo'lga kiritdik:

- Farzandlar tarbiyasini barqarorligini ta'minlashda ota-ona ibrati katta ahamiyatga ega boladi;

- Oiladagi axloqiy tarbiya bilan ta'lim muassalari tarbiyasi mushtarakligini ta'minlash farzandlarning tarbiyalanganlik darajalarini oshiradi;

- Farzandlar tarbiyasida oilaviy an'analarni, milliy urf odatlar mohiyatini ular ongiga singdirib borish tarbiyaning milliy xarakterini oshirish imkoniyatini beradi.

- oilaviy hayotda urf - odat, an'ana, milliy ong va milliy til kabi ijtimoiy tushunchalar va o'rta Osiyo mutafakkirlarining axloq, odob va oilaviy hayot xususidagi didaktik qarashlaridan foydalanish yaxshi samara beradi;

- oilaviy tarbiyaning o'ziga xos qoidalaridan xabardor bo'lish va kamchiliklarini psixologik - pedagogik bilimlarga tayanib bartaraf etish darkor;

- oilada shaxslararo munosabatlarning ko'rinishini va rollar taqsimoti bola faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega;

- oilada ma'naviy, axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirish bolaning har tomonlama ma'nan pok, iymonli, vatani va xalqiga sodiq farzand bo'lib yetishishida yetakchi rol o'ynaydi.

Sog'lom bola oilada shakllanadi va kamol topadi. Bu o'rinda ota-onaning psixologik-pedagogik bilimi, dunyoqarashi hamda madaniyati yetakchi omil hisoblanadi.

Har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasi bilan asosli ravishda shug'ullanishi, buning uchun esa ta'lim-tarbiya ishining o'ziga xos tomonlarini, qonuniyatlarini, bolaning pedagogik-psixologik va yosh xususiyatlarini, jismoniy va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishlari, yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi muvoffaqiyatlariga erishishning asosiy omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- Adizova T.M. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari. - Toshkent, TDPU, 1997.
- Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. - Toshkent, O'qituvchi, 1995.
- Nishonova Z.T. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. Toshkent. Nizomiy nomli TDPU, 2004 y.

YOSH DAVRLARIDA 3 YOSH KRIZISI

Urolova Madina Muxtor qizi
Samarqand davlat universiteti
Psixologiya va ijtimoiy munosabatlar fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 3 yosh krizisi, krizis bilan bog'liq jarayonlar, bu vaziyatdagi muammolar va ularga yechimlar, krizis oqibati va asoratlarning oldini olish haqida so'z boradi. Bundan tashqari onalarning farzandiga munosabati, ulardagi xató va kamchiliklar, bolaning voyaga yetishida ota onaning o'rnini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Fiziologiya, psixologiya, yosh davrlari, yosh krizisi, negativizm, agressiya, emotsional holat, nutq, tafakkur, shaxslararo munosabatlar.

Har bir inson o'zining farzandini komil va jamiyatda o'z o'rnini topadiga shaxs bo'lishini istaydi. Buning uchun biz har doim ham to'g'ri harakat qila olayapmiz deb ayta olmaymiz. Har bir ota-ona farzandida kechayotgan ham fiziologik ham psixologik holati haqida habardor bo'lishi joiz.

Bola 3 yoshdan boshlab o'z „men“ ini anglang boshlaydi va „Men buni qila olaman“, „Mening o'yinchogim“, „Mening xonam“ shu kabi uzining haq huquqlarini talab qila boshlaydi. Chunki, bola bu yoshda mustaqillika intiladi. Lekin kattalar bu borada ularni tushunmaydi va qarshilik kelib chiqdi, oqibatda esaq bola krizis ya'ni inqiroz kelib chiqdi.

3 yoshli bolada nutq va taffakur jadal tarzda rivojlanayotgan bo'ladi. Shu sababli bola: bu nima? u kim? kabi savollarni beradi. Afsuski, ota onalar har doim ham ularga javob berishmaydi yoki urushib berishdi. Bundan tashqari bolakay mehnat faolyati bilan shug'ullanishni juda istaydi, lekin kattalar qulingdan kelmaydi deb ishtiyoqini sundiradi. Siz uchun juda muhim maslahat, bolangiz savol berganda iloji boricha tuliq javob bering, agar bilmasangiz o'rganing va savoliga javob bering. Zero, farzanding katta bo'lgacha o'z fikrini bayon qila olsin . Siz hozir bolani jim qilaversangiz, bola katta bo'lgach gapirshga tortinadi va biron bir mavzuni ham qisqacha yorib berolmaydi yoki tushunadi, lekin aytib berolmaydi. Buning sababi vaqtida biz unga e'tibor qaratmaganmiz

Bolangiz dangasa bo'lib qolmasligi va mehnatsevar bo'lishi uchun bolani yoshlikdan mehnat faolyatiga o'rgatish lozim.

Masalan: Idishini olib quyish, o'z tugmasini qadash, xonasini yig'ishtirish va shunga uxshash holatlarni bajartirish. Keyin esa uning har bir bajargan ishi uchun rag'batlantirib turish zarur.

3 yosh krizisi belgilarini aytib o'tadigan bo'lsak: Negativizm, o'jarlik, o'zboshimchalik, agressivlik. Bundan tashqari bola juda injiq va qaysar bo'lib qoladi. Bu vaziyatda siz juda ehtiyotkor bo'lishing zarur. Chunki, bola bu vaziyatda nima desangiz aksini bajaradi, shuning uchun uni koyishni foydasi yuq. Bolaga baqirish, so'kish, urish, orqali harakat qilmang. Bolaga yaxshi gapiriing, aks holda bolajon sizni gapingizni eshitmay qo'yishiga yoki o'ziga ishonchi sinishiga olib kelishi mumkin. Yaxshi gap bilan tushuntiring, u bolaku tushunmaydi deb o'ylaman, bola 3 yoshda shunchalik sezgir bo'ladiki, har bir emotsional holatni payqaydi. Bu o'tkinchi davrni farzandingizning alohida shaxs sifatida rivojlanishining birinchi bosqishi. Ota-onalar bu davrda o'zlarini qo'lga olib har qanday holatda ham ularni yaxshi ko'rishini amalda ko'rsatishi lozim. Bilasizmi, ko'pchilik farzandlar ota-onasiga ularni yaxshi ko'rishi haqida aytisha olmaydi, bunga sabab bu ular uchun odatiy holat emas, agar, ota-ona bolaga hech bo'lmaganda bir marta yaxshi ko'rishini, uning borligi eng katta baxtlardan biri ekanligini aytsa, o'sha bolakay katta bo'lganda ota- onasidan olgan mehrni ziyodi bilan qaytarib beradi.

Bolaga gapirayotga so'zingizga ham e'tiborli bo'ling, agar eshak desangiz bola shu havondagi hislatlarni, mol desangiz bundagi hislatlarni, biron yaqiniga o'shatsangiz shu insonning hislatlarini o'zlashtiradi. Bolangizni aqlli bolam, bilimli, iymonli bolam, qori bolam, deb erkalating. Bu ham qaysidir ma'noda bolaga motivatsiyadir.

Rus psixologlari N. A. Menchinskaya va V.S.Muxinalarning kuzatishlariga qaraganda, ikki-uch yoshga yetgan bolalardagi injiqliklar, kattalarning bola shaxsiga adolatsiz hamda, noto'g'ri munosabatda bo'lishi tufayli yuzaga keladi. 3 yoshdagi bolaning mustaqilligini cheklab qo'yish, erkinlik tuyg'usi va uning tashabbusini so'ndirish o'jarlikka sabab bo'ladi.

3 yosh bola haqida ko'proq ma'lumot beradigan bo'lsak, bu davr mustqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuygu'usi shakllanadigan yoki aksincha, ularning teskarisi uyat va shubha xissi hosil bo'ladi. Bolada mustaqillikning o'sishi unga o'z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat yaratib, bo'lg'usi shaxs xususiyatlaridan tartib - intizom, ma'suliyat, javobgarlik, hurmat tuyg'ularini tarkib topishiga zamin yaratadi.

Ko'pchilik bolalarda 3 yosh krizisi davrida bolaning opa yoki aka bo'lgan davriga to'g'ri kelib qoladi bu esa ancha qiyin vaziyat, sababi bola shusiz ham injiq edi, endi o'zidan kichik chaqaloqni ko'rib injiqlikni ortig'i bilan bajaradi. Tadqiqot natijalariga 3 yosh nazarida undan keyingi ya'ni, birinchi erkatoiy ismi juda chiroyli va urg'u berib aytilar ekan, shunda bolakay mening ham ismim shunaqa bo'lsa edi, deb o'ylar ekan. Shu sababli har ikkala ismni ham bir xil tovushda aytishga harakat qilish lozim. Bundan tashqari bolaga tanlash imkoni bering. Bu davrda farzandingiz o'zi xohlaganini qilishiga harakat qiladi uni opasi yoki akasiga ham bajartirishga harakat qiladi. Unga siz tanlov imkoni bermoqchi bo'lsangiz tanlovni oldidan tayyorlab qo'yishingiz mumkin. Masalan, qizingiz sovuq kunlarda bog'chaga yupka kiyaman demasligi uchun unga qalin ikkita kiyim ko'rsating va qaysi birini tanlaysan deb so'rang. Bu davrda uning fikri bilan hisoblashingiz krizis davrini osonroq o'tishiga yordam beradi. Farzandingizni tinchlantirish yo'lini toping. Masalan:bog'chaga borishni xohlamagan farzandingizga-mehmonga qanday kim kiyimda bormoqchiligi haqida tanlov bering. Bu davr tabiiy holat va juda ko'p muddat davom etmaydi, shu boisdan, o'zingizni xotirjam tutishga harakat qiling. Asabiylashsangiz ham bolaga bildirmang. Bolaga haddan ortiq erkinlik ham berib yubormang.

Meni yana bir muhim masala qiynab keladi. Hozirgi bolajonlar nega mobil telefonga mukkasidan ketgan. Biz bolani savoliga albatta javob bering, deb aytayotgan bir vaqtda bolaning savol berish vaqtida barcha vaqti telefon o'ynash bilan o'tib ketamayaptimikan? Bola jim o'tirsa bo'ldi deb telefoni kuni bilan bolaga berib qo'ysak, birinchi navbatda, bola telefon yoki televizorni ko'p ko'rishi, bolaning psixologik jihatdan fiziologik holat deb qarab bo'lmaydi. Bola televizor yoki telefoni ko'p tomosha qilayaptimi demak siz bolangizga yetarlicha vaqt ajratmayapsiz!

Hozir hamma narsa zamonaviylashgan zamon deb qaraymiz, lekin tafakkuri rivojlanayotgan bir vaqtda bolani bu holatga berilishi bola uchun zararlidir. Bu vaziyatda bola chet tillarini o'rganishi mumkin, lekin shuni yodda tutingki, bola o'yin orqali odamni o'ldirilishi, mashina poygalarida tezlikni oshirishi va avtohalokat uchrashi fojia demakdir. Bu tabiiy holat emasligini aytib o'tdik, bolaning ko'p telefon yoki televizor ko'rishi, idrok etish, jizzaki bo'lib qolishi, ko'z nuriga nojo'ya ta'sir etadi. Siz bu vaziyatda bolani mashg'ulot bilan chalg'itishingiz kerak. Asosiysi esa siz o'zingiz har ishda bolangizga o'rnak bo'ling

Biz uchun juda muhim ma'lumotlardan: Bola nega tirnog'ini tishlaydi? Bola nega tagini ho'llab qo'yadi? Bular ham shu inqiroz natijasida sodir bo'lgan. Bolada agrissiya holatlari ko'p bularversa, shu holatlar kuzatiladi yana bular psixikaning patologiyasi hisoblanadi. Nemis psixologi V.Shterining fikricha: Chaqaloq hali odam hisoblanmaydi, balki, faqat sut emizuvchi hayvondir, olti oylikdan oshgach psixik rivoji jixatdan faqat maymun darajasiga tenglashadi, ikki yoshida oddiy odam holiga keladi, besh yoshida esa ibtidoi davrini boshdan kechiradi, kichik maktab yoshida uning ongi o'rta asr kishilari darajasiga, nihoyat yetuklik (16-18yosh) dagina hozirgi zamon kishilarning ma'naviy darajasiga yetadi.

Shunday ekan biz kattalarning har bir hatti harakatimiz farzandlarimizning hayotida juda muhim o'rin tutadi. Bola siz uxlasangiz qo'shilib uxlaydi. Onalar bolam uyquga to'ysin deb bolani ko'p uxlatadi, bu esa bolada dangasalikka sabab bo'ladi. Bola siz kitob o'qisangiz, kitob o'qiydi, ish qilsangiz sizga qo'shilib ish qilishga harakat qiladi. Demak siz farzandingizga har jihatdan o'rnak bo'lishingiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Qarshi Davlat Universiteti o'quv uslubiy majmua 2020
- 2.E.G'. G'oziyev „Psixologiya" Toshkent 2008
- 3.Pedagogik psixologiya fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent 2005

НОСОҒЛОМ ОИЛАЛАРДА ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ЎРТАСИДА ИЖТИМОЙ МАЪНАВИЙ МУХИТНИ СОҒЛОМЛАШТИРИШ

*Каримова Фазолат Юсупбаевна
Элликқалъа тумани ХТБга қарашли 42-мактаб психологи*

Ҳозирги кунда носоғлом оилаларда вояга етмаган ўқувчилар ўртасида соғлом психологик муҳитни яратиш ҳозирги куннинг энг долзарб масаласига айланмоқда.

Бундай оилаларнинг келиб чиқиш сабаблари: ота-оналарнинг маълум бир ишга эга эмаслиги, ичкиликка берилган, маълум бир иш ҳақи ҳисобига ишламайдиган, гиёҳванд моддаларни истеъмол қиладиган ота-оналар фарзандлари ижтимоий ва маънавий томондан носоғлом болаларнинг пайдо бўлишига сабабчи бўлмоқда.

Шу боисдан ҳам “Ҳар қайси миллатнинг ўзига хос маънавиятини шакллантириш ва юксалтиришда, ҳеч шубҳасиз, оиланинг ўрни ва таъсири беқиёсдир. Чунки инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк ҳаётий тушунча ва тасавурлари биринчи галда оила бағрида шаклланади. Боланинг характерини, табиати ва дунёқарашини белгилайдиган маънавий мезон ва қарашлар-яхшилик ва эзгулик, олижаноблик ва меҳр-оқибат, ор-номус ва андиша каби муқаддас тушунчаларнинг пойдевори оила шароитида қарор топиши табиийдир.

Мактаб оиладан кейинги энг муҳим ижтимоий муҳит ҳисобланиб, педагогик жамоанинг асосий вазифаларидан бири—ўқувчилар ўртасидаги салбий ҳолатлар ва ноижтимоий хулқнинг олдини олишдан иборат.

Мактабда ота-оналарга хизмат кўрсатиш бўйича уларни қизиқтирган масалалар юзасидан маслаҳатлар бериш мақсадга мувофиқдир. Жумладан, оиладаги тарбияси қийин ўсмирларни тузатишда низоли вазиятларга оид ва бошқа кўпгина масалалар бўлиши мумкин. Бугунги кунда ота-она ва болалар ўртасидаги зиддият ва муаммоларни олдини олиш, бир-бирин тушиниш, оилада илиқлик яратиш энг долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Ёш даврининг ҳар бир

босқичида ҳам ўтиш даври кечади. Айниқса, кўпчилик ўсмирларда бу даврдаги ўтиш жараёни жуда сезиларли даражада кўзга ташланади. Оддий одамларнинг қарашида ўтиш даври фақат ўсмирлик ёшидагина кузатилади, деган фикр илгари суриб келинган. Аслида эса, ҳар бир даврнинг ўтиш жараёни бўлади. Лекин бу жараён ҳар кимда ва ҳар ўтиш даври турлича кўринишда бўлади. Шунингдек, ўсмирлик даврида бу кўриниш юқори даражада бўлади. Бу ёшдаги болаларга турлича босим ўтказмасдан, уларнинг фикрлари, қарашлари инобатга олинган ҳолда ёндошишни талаб этади.

Шунинг учун ўсмирларда кузатиладиган оғир ўтиш даври муаммоларининг олдини олиш ва уни бартараф этиш мақсадида ота-оналар йиғилишларида маърузалар, тренинг машғулоти ва коррекцион машғулоти билан иштирок этиш зарур. Тренинглар орқали ота-оналарнинг бола тарбиясида йўл қўяётган хато ва камчиликларини кўрсатишлари лозим. Шунингдек, ижтимоий психологик ҳимояга муҳтож ўқувчиларнинг ота-оналарига психологик маслаҳат ишларини ташкиллаштиришлари керак.

Ушбу нуқтаи-назардан мактаб педагогик жамоасининг ҳамкорликдаги ишларни ташкиллаштиришлари юзасидан қуйидагиларни тавсия этамиз:

1. Ўқувчиларнинг ижтимоий малакаси, ижобий қизиқишларини ривожлантириш ва бўш вақтларини ташкиллаштиришга ёрдамлашувчи тадбирларни ўтказиш.
2. Ҳуқуқбузарлик, дарс қолдириш, ўзлаштирмаслик муаммолари бўйича сўровномалар ўтказиш (ташхис қўйиш ва б.).
3. Мутахассисларни жалб қилган ҳолда ижтимоий, тиббий, психолого-педагогик ёрдамга муҳтож болалар ва оилаларни аниқлаш
4. Ота-оналар ва ўқувчилар ўртасида ҳуқуқий тартиб масалалари бўйича тушунтириш ишларини кучайтириш.
5. Мактабда оила ва маҳалла ҳамкорлигида ўсмирлар билан олиб бориладиган тарбиявий профилактика ишларини такомиллаштириш.
6. Фарзандининг ўқиши ва тарбиясида муаммолар бўлган оилаларга ёрдам бериш.
7. Боланинг давомати ва ўзлаштиришига салбий таъсир кўрсатаётган сабабларни бартараф этишга кўмаклашиш.

Болаларнинг ижтимоий-маънавий психологик муҳофаза қилиш учун қуйидаги психологик маслахатлар орқали ота-оналар йиғилишларида, мактаб-педагог жамоаларида мактаб амалиётчи психологлари томонидан ота-оналарга ва мактаб педагогик жамоасида ёритилиб бориши мақсадга мувофиқ бўлар эди улар:

- ✓ Болаларнинг бўш вақтларини тўғри ташкил қилиш;
- ✓ Болаларнинг дарс тайёрлаши учун шароитлар яратиш;
- ✓ Бола билан дўстона муносабатда бўлиш;
- ✓ Биргаликда сайр қилиш;
- ✓ Муаммоларни биргаликда ечиш;
- ✓ Соғлом кун тартибини тузиш;
- ✓ Ўз ҳатти-ҳаракатлари орқали болаларга ўрнак бўлиш;
- ✓ Болани қўллаш-қувватлаш;
- ✓ Спорт билан биргаликда шуғулланиш;
- ✓ Оилада бир-бирига меҳрли муносабатда бўлиш.

Кўплаб педагог олимлар томонидан ўтказилган тадқиқот натижаларига ва илмий хулосалари шуни кўрсатадики, болалар ўзлари яшаётган ҳаёти давомида ундаги муҳит ва шароит унинг шахсий характер хусусиятларини намоён бўлишига сабаб бўлар экан. Педагог Дороти Доу Нолтнинг қарашлари ёхуд болалар ўзлари яшаётган ҳаётдан нимани ўрганишлари ҳақида қуйидагиларни хулоса қилади

- * Агар бола танқид билан яшаса, у айблашни ўрганади.
- * Агар бола адоват билан яшаса, у уришишни ўрганади.
- * Агар бола қўрқувда яшаса, у қўрқоқликни ўрганади.
- * Агар бола афсусда яшаса, у афсусланишни ўрганади.
- * Агар болани устидан кўп қулишса, уятчан бўлишни ўрганади.
- * Агар бола қизиқиш билан яшаса, у ҳавас қилишни ўрганади.
- * Агар бола уят билан яшаса, у ҳадик ва айбдорлик ҳиссини ўрганади.
- * Агар бола қўллаб қувватлаш билан яшаса, у ўзига ишонишни ўрганади.
- * Агар бола бағрикенгликда яшаса, у сабрли бўлишни ўрганади.
- * Агар бола мақтов билан яшаса, у қадрлашни ўрганади.
- * Агар бола тан олиш билан яшаса, севишни ўрганади.

* Агар бола дўстлик билан яшаса, у ер юзи яшаш учун ажойиб жой эканлигини тан олади

* Агар сиз осойишталик билан яшасангиз, сизнинг фарзандингиз ҳам осойишталикда яшайди.

Мактаб психологи, маънавий-маърифий ишлар бўйича директор ўринбосарлари, синф раҳбарлари ҳамкорликда ижтимоий психологик муаммолари мавжуд бўлган болаларнинг оилавий аҳволини ўрганиши, мактаб билан ота-она ўртасида узвий алоқани ўрнатиши, ўқув фанлари ўқитувчилари билан алоқани мустаҳкамлаши, ўқувчининг дарсга қатнашини кузатиши, дарсдан ташқари фаолиятини назорат қилиши, турли сўровномалар, савол-жавоблар ўтказишлари орқали тарбияси оғир болалар билан ишлаш дастури ва режаларини белгилаб олишлари лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абрамова Г.С. Возрастная психология. Тошкент 2005.
2. Л.Бекназарова, М.Махмудова. Ижтимоий-психологик тренинг. Тошкент 2016.
3. Э.Ф.Ғозиев. Психология муаммолари. Тошкент 1999.
4. Р.Й.Тоштемиров, Э.Ф.Ғозиев Психодиагностика ва амалий психология. Тошкент 2004.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР НУТҚИНИ ГРАММАТИК ЖИХАТДАН ШАКЛЛАНТИРИШ

*Турсунова Латофат Фармоновна
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар
10-сонли давлат мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиси*

Сўзлашув нутқини (диалог) шакллантириш болаларга билим ва тарбия беришда сўзлашув нутқига (диалог) ўргатиш катта аҳамиятга эгадир. Мактабгача тарбия ёшидаги болалар билан сўзлашиш кундалик фаолиятлари ва турли воқеа

ва ҳодисаларни кузатиш натижасида ҳосил бўлган тушунчаларни аниқлаш ва унитизимга солишга энг зарурий иш вазифаси ҳисобланади.

Болалар нутқини грамматик жиҳатдан шакллантириш

Таянч тушунчалар: нутқ, оғзаки нутқ, мулоқот, фикр, тил, тил воситалари, муомила маданияти, психологик жараён.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “Ёшларни эзгу ғоялар руҳида камол топтириш мураббийларнинг асосий вазифасидир” дея таъкидлайди.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги тасарруфидаги мактабгача таълим ташкилотларида 5 та муҳим ташаббус, “Давлат талаблари”, “Илк қадам” ўқув дастури асосида болаларга билим, кўникма ва малакалар бериб келинмоқда. Ўсиб келаётган ёш авлодни ҳар томонлама комил инсон қилиб шакллантиришда мактабгача таълим ташкилоти бошланғич таълимнинг пойдевори саналади. Шу жиҳатдан МТТда болалардаги истеъдод ва қобилиятларни аниқлаш билан бир қаторда бадий адабиётга бўлган қизиқишларини ошириш, китобхонликни кенг тарғиб қилиш орқали болаларда нутқ маданиятини шакллантириш имкони анча кенг саналади.

Мактабгача кичик ёшдаги болалар нутқини грамматик томондан шакллантириш қўйидагича амалга оширилади.

Болани ҳар томонлама ривожлантириш унинг инсоният тажрибаси, билимлари, қобилияти ва маданиятининг сақловчиси бўлган катталар, мулоқоти туфайли инсониятнинг кўп асрлик тажрибаларини ўзлаштириш асосидагина амалга оширилади. Мазкур жараённинг амалда тадбиқини эса инсоний мулоқотнинг энг муҳим воситаси – тил орқалигина етказиш мумкиндир. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларга таълим-тарбия беришда энг асосий вазифалардан бири болаларга она тилида сўзлашни ўргатиш, уларнинг нутқини ривожлантириш ва уларни нутқий муносабатга, муомалага ўргатишдир.

Мактабгача таълим ташкилотида болалар нутқини ривожлантириш юзасидан қуйидаги махсус хусусий вазифалар амалга оширилади:

1. Болаларни теварак-атроф билан таништириш, уларнинг нутқини ўстириш ва бойитиш

2. Нутқнинг грамматик томонини шакллантириш

3. Нутқнинг товуш маданиятини тарбиялаш

4. Сўзлашув нутқини (диалог) ни шакллантириш

5. Ҳикоя қилишга ўргатиш (монологик нутқни шакллантириш).

6. Болаларни бадий адабиёт билан таништириш

7. Болаларни бошланғич саводга тайёрлаш

Ушбу вазифалар ҳар бир гуруҳдаги болаларнинг ёши ва индивидуал хусусиятларига кўра қуйидагича тақсимланган.

Кичик гуруҳларда:

1. Теварак-атроф билан таништириш, нутқ ўстириш, боланинг луғатини бойитиш

2. Нутқнинг грамматик томонини шакллантириш

3. Нутқнинг товуш маданиятини тарбиялаш

4. Сўзлашув нутқини (диалог)ни шакллантириш

5. Бадий адабиёт билан таништириш

Ушбу гуруҳда ҳикоя қилишга ўргатиш (монологик нутқда) бўйича бошланғич маълумот бериш белгиланган. Кичик гуруҳ болалари тарбиячининг ҳикоясини эшитиб, унинг саволларига жавоб бера олиши, мавзулардаги расмлар юзасидан суҳбатларда иштирок этиши билан бирга, аввал эшитган эртак ва ҳикояларини хотирасида тиклаб унинг мазмунини бузмасдан айтиб бера олишлари лозим.

Болаларни теварак-атроф билан таништириш, уларнинг нутқини ўстириш, сўз бойлигини ошириш мазкур босқичларнинг навбатдаги энг муҳим жиҳатларидан биридир. Чунки луғат устида ишлаш болаларни теварак-атроф билан таништириш орқали амалга оширилади. Уларни теварак-атрофдаги буюмлар, ҳодисалар, ўсимликлар, ҳайвонот дунёси, катталар меҳнати ва шу кабилар билан таништириш жараёнида буюмларнинг номларини, уларнинг сифатлари, хусусиятлари, характерларини сўзлар билан баён этамиз. Масалан,

буюмларни номини англатадиган кўзгу, тароқ, совун, тиш ва кийим чўткалари, палас гилам, жавон, кроват, хонтахта кабилар. Сабзавотларнинг номини англатадиган сабзи, карам, шолғом, бодринг, баклажон, ўсимликлар, дарахтлар, гул, ўт ва бошқалар, мевалар олма, нок, олча, гилос, олхўри ва ҳакозолар .

Уй хайвонларидан хўроз, товуқ, от, сигир, ит, мушук, қўй, эшак ва уларнинг болаларининг номини билдирувчи катта, кичик, қизил, сарик, кўк, зангори, оқ, қора, иссиқ, совуқ, ширин, аччиқ ва ҳақозо сўзлар болаларни теварак-атроф билан таништириш жараёнида уларнинг луғатига киритилади. Бунинг натижасида уларнинг сўз захираси ортади ва нутқи ривожланади.

Нутқнинг грамматик томонини шакллантириш луғат, тилнинг қурилиш материали ҳисобланади. Грамматика эса гапда сўзларнинг ўзгариши ва уларнинг ўзаро боғланиш усуллари билан белгилайди. Бундан ташқари грамматика тилнинг қурилиш моделини (сўз, сўз ясовчи ва сўз ўзгартирувчи) белгилайди. Бола атрофдагилардан грамматик томондан шаклланган нутқни эшитади, эшитган сўзнинг маъносини тушуниш билан бирга тилнинг грамматик томонини эгаллайди, унинг моделини билиб олади. Нутқнинг товуш маданиятини тарбиялаш учун бола энг аввало, тилнинг товуш томонини эгаллаши керак, яъни товушларни тўғри талаффуз қилиши лозим.

Нутқнинг товуш томони устида ишлаши ўзбек тилининг фонетикаси ва орфоэпиясига асосланади. Бола катталарга тақлид қилиб сўзларда урғуни тўғри ишлатишга ўрганиб олади. Она тилининг интонатцион томонини ўзлаштиради ҳамда сўзларни тўғри талаффуз қилишга одатланади. Агарда тарбиячи бола нутқидаги, товуш талаффузида нуқсонлар, оҳанг ва темпга, диксиясига (аниқ, бурро гапириш) нутқнинг мазмундорлиги ва ифодалилигига эътибор бермаса, бундай нуқсонлар билан мактабга борган бола берилган билимларни ўзлаштира олмайди. Бу унинг келажакдаги мустақил ҳаёт тарзида ҳам ўзининг салбий таъсирини кўрсатади. Нутқида нуқсонли бўлган боланинг нутқи бошқаларга тушунарсиз бўлади. Ўз фикрини ифодалашга қийналади, уялади, натижада эса гапирмасликка ҳаракат қилиб индамас жиззаки бўлиб қолади. Буларнинг ҳаммаси унинг руҳий ривожланишига ҳам таъсир этади.

Сўзлашув нутқини (диалог) шакллантириш болаларга билим ва тарбия беришда сўзлашув нутқига (диалог) ўргатиш катта аҳамиятга эгадир. Мактабгача тарбия ёшидаги болалар билан сўзлашиш кундалик фаолиятлари ва турли воқеа ва ҳодисаларни кузатиш натижасида ҳосил бўлган тушунчаларни аниқлаш ва уни тизимга солишга энг зарурий иш вазифаси ҳисобланади. Болада сўзлашув нутқини шакллантириш бу бошқаларнинг нутқини тинглаш ва тушунтириш, сўзлашишни қувватлаш, саволларга жавоб бериш ва сўрашдир (саволлар бериш). Бола сўзлашуви нутқининг ривожланганлик даражаси, унинг луғат бойлигига шу ўринда тилнинг грамматик томонини эгаллаганлигига боғлиқдир.

Болаларни бадий адабиёт билан таништириш уларнинг ўртасида кенг тарбиявий вазифаларини амалга оширишга ва бола шахсини ҳар жиҳатдан камол топтиришга ёрдам беради. У боланинг кишилар ҳаёти ҳақидаги билимларини имотционал таассуротларини бойитади. Тарбиячи болаларни бадий асарлар билан таништиради экан, у болаларда қуйидаги малакаларни шакллантиради.

1. Бадий асарни тинглаш ва тушуниш;
2. Асар қаҳрамонларини ҳатти-харакатини баҳолайди;
3. Инсонлардаги ахлоқий сифатлар ва нуқсонларни таърифлаб беради.

Адабий асарнинг мазмунига доир саволларга жавоб қайтариш кичик ҳажмдаги шеърларни интонацияга риоя қилиб ёдлаб олиш ва таъсирчан қилиб айтиб бериш ва ҳоказо. Бола ҳикоя, шеър, эртак тинглаётганида қувонади, хузурланади. Бу эмотционал таъсирланиш болада бадий адабиётни эстетик идрок этиш, яъни уни санъат асари сифатида ҳис қилиш қобилиятини пайдо бўлишига, унда ахлоқий сифатларнинг шаклланишига ёрдам беради. Тарбиячи болаларни бадий асар билан таништиради экан ҳар бир болада китобга нисбатан қизиқиш ва муҳаббат туйғуларини шакллантиради.

Тарбиячининг нутқига қўйиладиган педагогик талаблар.

Тарбиячи ҳар доим ўз нутқига танқидий нуқтаи назардан қараши, агар нутқида бирор камчиликни сезса, уни дарҳол бартараф этишга ҳаракат қилиши лозим. Бироқ у ҳар доим ҳам ўз нутқидаги камчиликни аниқлашга муваффақ бўлмайди. Чунки унинг диққати нутқининг шаклига эмас, балки мазмунига

қаратилган бўлади. Бундан ташқари узоқ вақтгача ўз нутқига эҳтиётсизлик билан қараганлиги туфайли айрим камчиликлар нутқда мустаҳкам ўрнашиб қолиши ва бу нуқсон ўзига мутлақо сезилмаслиги мумкин. Бунинг учун тарбиячи ҳамкасбларининг кўрсатмаларига амал қилиши ва ўз камчилигини бартараф этишга ҳаракат қилиши лозим.

Тарбиячи нутқининг самимий бўлишида қуйидаги жиҳатларга эътибор қаратиши лозим:

- она тилидаги барча товушларни тўғри талаффуз этиши, нутқдаги камчиликларни бартараф этиши;

- Соф, аниқ, равон нутққа эга бўлиши, яъни дикцияси талабга жавоб бериши;

- болалар билан нутқий мулоқотда бўлганда енгил, секин темпдаги ўртача баланд овоздаги нутқдан фойдаланиш;

- болалар билан сўзлашганда баланд тонда гапирмаслик, кўпол сўзлардан, адабий тил нормаларига тўғри келмайдиган мантиқсиз бирикмалардан фойдаланмаслик.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, мактабгача тарбия ёшидаги болаларни биргина машғулот орқали барча ривожлантирувчи марказларда нутқий вазифаларни амалга ошириб бўлмайди. Масалан, маиший фаолиятга табиат ҳодисаларига, қўл меҳнати ва табиатдаги меҳнатга тааллуқли сўзлар фақат табиий ҳолда болаларнинг шахсан иштироклари жараёнидагина (овқатланиш, ювиниш, кийиниш, ўсимликларни парвариш қилиш, табиатда меҳнат қилиш ва ҳоказолар) улар луғатига киритилади.

Меҳнат ва унинг турлари (маиший-хўжалик, қўл меҳнати ва табиатдаги меҳнат) болалар луғатини бойитишда ва нутқий муносабат малакаларини шакллантиришда асосий восита ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ф.Р.Қодирова «Болалар нутқини ривожлантириш назарияси ва методикаси руҳий омиллари» Тошкент. «Истиқлол» 2016й.
2. Д.Р.Бабаева «Нутқ ўстириш методикаси» Тошкент. 2009й.
3. «Илк қадам» Давлат ўқув дастури Тошкент. 2008й.

4. Мактабгача ёшдаги болалар илк ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари.

5. Ш.М.Мирзиёев. Ёшларнинг маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича 5 та муҳим ташаббус. 2019й. 20 март.

ПСИХОЛОГИК КОНСУЛЬТАЦИЯГА МУРОЖААТ ҚИЛУВЧИ ШАХСЛАР ТИПОЛОГИЯСИ

*Каримова Дилноза Мансуровна
Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз шаҳар 20-мактаб психологи*

Аннотация. Жаҳонда глобаллашув жараёнининг кучайиб бориши жамиятда шахсларнинг психологик адаптацияси, руҳий ҳолати, психологик саломатлигига ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди. Ҳозирги кунда психология соҳаларининг ривожланиши ва психологик хизмат турлари кўпайиб бормоқда, психологик консультацияга мурожаат этувчи шахсларнинг ҳам сони кундан кунга ортиб бормоқда. Турли шахс типларига индивидуал хусусиятлар хос бўлганлиги сабабли уларда ҳар хил когнитив хусусиятлар, турли кутилмалар, ҳар хил қадрият ва дунёқараш хос.

Калит сўзлар: шахс, шахс типлари, психологик хизмат, психологик консультация, психолог консультант, индивидуал психологик хусусиятлар.

Психологик консультацияга мурожаат этувчи шахсларнинг индивидуал-психологик ва типологик хусусиятларини инобатга олиш ёш психолог-консультантлар учун услубий йўриқнома сифатида хизмат қилиши мумкин. Шунингдек, шахсларнинг типологик хусусиятларини эътиборга олиш консультатив хатоларнинг камайишига, нотўғри таъсирларни бартараф этиш, тавсиялар тайёрлашда конкретликни тақозо этади.

“Аҳолига, айниқса ёшларга сифатли психологик хизмат кўрсатиш, психологик хизмат фаолиятини бошқаришни мувофиқлаштириш, таълим муассасалари билан профилактика инспекторлари ва жамоат вакиллари

ўртасидаги ҳамкорликни янги сифат даражасига кўтариш, психологик мактабни ривожлантириш ҳамда олий таълимда тор ихтисосликлар бўйича кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш, давлат-хусусий шериклик асосида психологик марказлар ташкил этишни йўлга қўйиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши, Мактабгача таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқиқот марказининг Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши қошидаги Ёшларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш маркази негизида таълимнинг барча босқичларида психологик хизмат кўрсатувчи тузилмалар учун мулоқот майдонига айланадиган, тегишли давлат идоралари билан ҳамкорликда иш олиб борувчи “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази қошида Ёшларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш республика маркази (кейинги ўринларда Марказ деб аталади) этиб қайта ташкил этиш тўғрисидаги таклифлари маъқуллансин.”

Хилма-хил психологик муаммолар манбалари ичида мактаб ҳам муҳим ўрин эгаллайди. Масалан: тиббиёт мезонларига қараганда, мактаб ёшидаги болаларнинг 18-20% қисқа муддатли ёки доимий психотерапияга мухтождирлар. Мактаб, коллежда кенг тарқалган муаммолар жуда кўп: Ўқув мотивацияси, йўқлиги паст ўзлашиши ўқитувчи тенгдошлари билан низоми муносабатлар, ўз-ўзини паст баҳолаш, жамиятга қарши гуруҳларда иштирок этишга лаёқатлилиқ ва бошқалар. Юқори санаб ўтилган муаммоларнинг кўпайиши ҳозирги мактаб, коллежларда шахс ривожланиши босқичларини етарлича ҳисобга олмаслик, барчага бир-хилда талаб қўйиш натижасида уларнинг индивидуал психологик ва психофизиологик хусусиятларни эътиборга олмаслик сабаб бўлмоқда. Боланинг кўпгина нисбий хусусиятлари, масалан, меҳнатга, математикага, мусиқага, ва бошқаларга нисбатан эрта кўринган муваффақият ёки психологик тараққиётни, жуда олдинда бўлиши кўпгина психологик ва педагогик вазифаларнинг муаммоси келтириб чиқаради.. Шунга қараб психологик маслаҳат беришнинг умумий

вазифаси бола психик тараққиётининг боришини, бу жараёндаги даврларга бўлиш ва белгиланган нормага мувофиқ тасаввурлар асосида назорат қилишдан иборат.

Психологик маслаҳат вазифалари чет элларда яхши ривожланган ота-оналар боласи тақдири билан ёшлигидан қизиқиб эътибори кучлидир. Улар ўсиши ривожланиши даврларида фарзандидаги ҳар бир ўзгаришга аҳамият бериб, ўз вақтида психологик кўриқдан ўтиб туришади, ўз вақтида маслаҳатни олиб муаммоли вазиятни тез хал қиладилар. Бизда психологик хизматлар эндигина йўлга тушмоқда, агар ота-оналар, психолог, шифокор ва тарбиячи ва педогоглар, психологик ишларни, яъни ўз вақтида бажарилса психологик муаммолар кам учраган қанча боладаги камчиликлар, касалликлар вақтида олдини олиб, ёш авлодларимиз соғлом ақлли ва жисмонан бақувват, бўлар эди.

Мижознинг бир эмас, балки бир неча муаммолари мавжуд, уларнинг ҳар бирини хал этиш алоҳида консультацияни талаб этади.

Психолог - консультантда миждоз унинг индивидуал хусусиятлари сабабли ўз муаммосини дарҳол ва қўшимча ёрдамсиз хал эта олишига тўла ишонмайди. Агарда миждоз ўзига етарлича ишонмаса, ўз ҳаяжонлари ва хулқини бошқара олмаса, агарда унинг интеллектуал ривожланиш даражаси қийин вазиятларда оқилона, тўғри ечимни мустақил қабул қилиш учун етарли бўлмаганда бундай ҳоллар учраб туради. Психологик хизматнинг психокоррекция йўналиши психологдан инсон шахси ва индивидуаллигини таркиб топтириш жараёнига фаол таъсир ўтказишни тақозо қилади. Халқ таълими тизимидаги психологнинг вазифаси психологик хизматни муайян қоида, мезонга асосланиб ташкил қилишдан иборат бўлиб, ёш давр хусусиятларига биноан (болалар, ўқувчилар, талабалар) психиканинг ривожланиши, шахснинг шаклланиши қонуниятларини амалиётда ҳисобга олган ҳолда фаолият олиб бориш, ишчи жамоасига болалар, ўқувчилар ва талабалар таълим-тарбиясини индивидуаллаштиришда ёрдамлашиш, уларнинг қобилияти, майлининг даражасига қараб ўқитувчиларга коррекцион ишларни амалга оширишда кўрсатмалар беришдан иборат. Психологик хизматнинг ушбу йўналишида алоҳида аҳамият касб этадиган нарса - бу болалар, ўқувчилар, талабалар ўсишида (ривожланишида) кечикиш (орқада

қолиш), уларда хулқнинг бузилиши, таълимда ўзлаштиришнинг ёмонлашуви ҳисобланади.

Психик тараққиётни тузатишлар «коррекция қилиш» атамаси дастлаб деффектологияда касал болаларга нисбатан ишлатилган бўлса, амалий ёш психологиясининг ривожланиши билан «тузатиш» тушунчаси нормал психик тараққиёт учун ҳам қўлланила бошлади.

ХУЛОСА

Ҳар доим ҳам мижоз психолог-консультантдан олган тавсияларини амалга оширишга кириша олмайди. Кўпинча ўзининг тажрибасизлиги ёки билмаслиги сабабли хатога йўл қўяди ва психолог-маслаҳатчи томонидан кундалик ёрдамга муҳтож бўлади. Психолог-маслаҳатчи эса мижозни тинглаб, ўзи ва у учун муаммони аниқлаштириб, уни тўғри ҳал этиш бўйича тавсиялар таклиф этиб, ўзининг профессионал бурчини тўла бажарди деб ўйлаши керак эмас. Мижознинг олган маслаҳат ва тавсияларини хатосиз амалга оширишни таъминлаш ҳам психолог-маслаҳатчининг вазифаси ҳисобланади. Тўғри, мижоз психолог-маслаҳатчидан олган тавсияларни бажаришни хоҳламаслиги ҳам мумкин. Одамлар ҳаётларида дуч келадиган муаммолар шундай бўлади-ки, улар такроран юзага келади, уларни бир маротаба ҳал қилиниши улар келажакда яна бир бор юзага келмаслигига тўла кафолат бўла олмайди. Шунинг учун мижоз билан маслаҳат бериш ишларини олиб борганда келажакда бундай муаммолар юзага келмаслигига ҳаракат қилиш керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Полина, Л.В. Особенности консультирования клиентов находящихся в кризисе семейных отношений Л.В Полина Вестник Костромского государственного университета им. А.Н. Некрасова. Н.В. Кузьмина, Н.П. Фетискин. 2011.

2. Бондаренко А. Ф. Психологическая помощь: теория и практика. М., 2010.

PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA PEDAGOG XODIMLARING MA'SULIYATI VA MAHORATI

Qasimbayeva Husnora Zafarbek qizi
Nukus Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika va
psixologiya ta'lim ta'lim-yo'nalishi talabasi

Kalit so'zlar: O'qituvchi faoliyati, tarbiyasi, ota-onalar ma'suliyati, shaxs rivojlanishi, ko'nikmalar

Annotatsiya: Pedagogika fanlarini o'qitishda pedagog xodimlarning ma'suliyati va mahorati, ularga qo'yiladigan zaruriyatlar, majburiyatlar haqida o'z fikrimni shu maqolam orqali bayon qildim.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati pedagog kadrlarning kasb mahorati va savodxonligiga bevosita bog'liq. O'qituvchi-pedagogik-psixologik jihatdan o'z sohasi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Dars- ta'lim jarayonining asosiy tashkiliy usuli bo'lib, unda dars tuzilishining barcha xususiyatlari aks etadi. Darsda pedagog rahbarligida har bir talabanning bilim olish imkoniyatlari hisobga olinadi. Bugungi kunda biz ajoyib bir davrda yashayapmiz. Atrofimizdagi olam juda tez sur'atlarda o'zgarib boryapti. Shuning uchun o'sib kelayotgan pedagog yoshlar juda ko'p narsalardan xabardor bo'lishi kerak. Pedagog kadr - har bitta talabanning o'quv va tarbiyaviy faoliyatini muvofiqlashtirishga, o'quvchilar jamoasini shakllantirishga va tashkil etishga chaqirish, turli xil jamoaning faoliyatini rejalashtirishi lozim. Pedagoglar o'qitish bilan bir vaqtning o'zida talabalarning ideali. Pedagogning faoliyati unga tegishli bo'lgan maxsus nizom bilan belgilanadi va uning asosiy funktsiyalari: kognitiv-diyagnostik, tashkiliy-rag'batlantiruvchi, birlashtiruvchi-birlashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi va shaxsni rivojlantiruvchilardan iborat. O'quvchining bilimni rivojlantirishda pedagogik refleksiyaning ahamiyati beqiyosdir. Shunday ekan Y.N.Kulyutkina, Y.S.Turbovskiy, P.V.Xudominskiy kabi tadqiqotchi olimlarning fikricha, o'quvchining doimiy pedagogik faoliyati, mazmunan reflektiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha reflektiv

jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha pedagogik refleksiya tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas. K.D.Ushinskiy chet el maktablarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyani o'rganib, o'zining **“Boshlangich ta'lim metodikasi”** asarini yozadi. Unda boshlangich maktabdagi ta'lim mazmunini asoslab berish bilan birga uning qoida, qonun, tartib, metod va vositalarini ishlab chiqarish va shu bilan birga didaktika faniga katta hissa qo'shdi. U eng avval o'qitishni bolalar mehnati bilan bog'lashni tavsiya etadi. Uning fikricha, har bir fanni o'qitishda tarbiyalanuvchining mehnati uning yoshi va kuchiga loyiq bo'lib, aqliy mehnatdan dam olish uchun - jismoniy mehnat bilan shug'ullanish zarurligini ta'kidlaydi. Ushinskiy o'qitish jarayonida ta'limning ko'rgazmalilik, onglilik, puxtalilik, bolalar kuchiga mosligi va izchilligi prinsiplaridan foydalandi. O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida islohotlar amalga oshirila boshladi. Totolitar boshqaruv usuli asosida ish yuritilayotgan xalq ta'limi tizimida ham so'ngi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa'y-harakatlarimizning samarasi sifatida 1992-yil iyul oyida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun mazmunida Respublika ta'lim tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad, vazifalar, ta'lim boshqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi istiqlolini ta'lim muassasalari xalq xo'jaligini ham, turli sohalari uchun tayyorlayotgan kadrlarining kasbiy tayyorgarlik, aqliy salohiyati hamda ijodiy qobiliyati belgilaydi degan g'oya «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning yaratilishi uchun asos bo'ldi. Mazkur hujjat Respublika ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini ochib beruvchi muhim hujjatdir. Unda ta'limiy islohotlarning asosiy maqsadi :«inson uchun har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitini va ta'sirchan mexanizmini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq -atvorning andozalarni o'zgartirish» dan iborat ekanligi qayd etib o'tildi. Dastur- kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik

puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy- siyosiy, huquqiy, psixologik- pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni nazarda tutadi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning maqsadida ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la holos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir. O'quvchilarning kelajakda yetuk shaxs bo'lib rivojlanishiga o'qituvchilar bilan birga, ota-onalarning ham ma'suliyati va o'zni birdek muhim. Chunki bola o'zi yashayotgan muhitni shu insonlar orqali anglab yetadi, tushunadi, o'rganadi. Menimcha yakuniy xulosa o'rnida shuni aytishim kerakki, ota-onalar o'z farzandlari bilan ko'proq suhbatlashishi, hayot davomida insonning o'zini-o'zi qadrlashi, o'z ustida doim ishlab takomillashib borishini aytishi va ular bilan birga o'yinlar o'ynashi kerak. Bolalarning ijtimoiy-madaniy muhitini, xarakterining ba'zi-bir ko'rinishlaridagi o'zgarishlarga befarq bo'lmasliklarini tavsiya etaman. Bu o'z navbatid, a o'smirlik davridagi turli xil emotsiyalarini to'g'ri tushunishlariga yordam beradi. Yoshlarga o'z tajribalari natijalaridan misollar keltirishlarini ham maslahat bergan bo'lar edim. Chunki, har bir yosh, har bir navqiron avlod bizning buyuk kelajagimizning poydevori hisoblanadi. Insonning qanday kishi bo'lib yetishishi ko'p jihatdan oiladagi tarbiyaga, ota-onaning ma'suliyatiga, bola tarbiyasining umumiy qonuniyatlarini yaxshi bilishga va hayotda ularga qanchalik amal qilishga ham bog'liq. Insonning hozirgi kundagi intilishlari birgina oilaviy manfaatlar bilan cheklanmaydi. Tarbiya — ko'p qirrali uzoq davom etadigan jarayondir. Bizni o'rab olgan muhitning hammasi odamlar, narsalar, hodisalar bizning ongimizda, xulq-atvorimizda ma'lum iz qoldiradi, ular bizni bevosita o'zgartiradi va o'stiradi. Pedagogning burchi, mana shu o'qishni ziyalik bilan boshqarib borishidir. Oilada va jamiyatta inson tarbiyasining o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, ota-onalar bilan birgalikda bo'lajak pedagog kadrlar ulardan o'rinli foydalanishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Dots. Nurjanova R. «Pedagogika Tariyxi» fani bo'yicha o'quv uslubiy majmuasi (bakalavriat bosqichi talabalari uchun) Nukus – 2012

2. В.М. UMAROV: PSIXOLOGIYA O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi Talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan «Voris-Nashriyot» Toshkent - 2012

3. Assistent-oqituvchi Temirbekova A.O. PEDAGOGIKA Nazariyasi fani bo'yicha o'quv-metodik majmuasi (bakalavriat bosqichi talabalari uchun) Nukus-2012

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ КВЕСТЫ КАК КРЕАТИВНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ

*Танишева Розалия
учитель истории специализированная школа № 103*

Современное общество претерпевает заметные преобразованиями во всех сферах жизни. В условиях развития политического и социально - экономического направлений, актуальной становится проблема формирования потенциальных лидеров в различных сферах жизни общества. По мнению психологов, таких как Е.М.Дубровская, Я.Л.Коломинский, Л.И.Уманский, решением проблемы создания фонда способных лидеров нации, будет являться создание условий, способствующих созданию эффективных лидеров.

В настоящее время перед образованием стоят задачи не только насыщения рынка труда компетентными специалистами, но и создание возможностей для профессионального роста и развития личности. В том числе и развития личностей с выраженными лидерскими качествами. Однако, образовательные организации большее внимание уделяют освоению знаний, умений и навыков по конкретным дисциплинам, нежели профессиональному и личностному росту студентов. Развитие лидерских качеств является важным процессом на пути личностного развития, будучи процессом упорядоченным, не стихийным, позволяет комплексно подходить к решению вопроса.

Изменения, происходящие в современном обществе, требуют развития современных способов образования, современных педагогических технологий, способствующих развитию потенциала личности, творческой инициативы, выработке у обучающихся навыков самостоятельной навигации в информационных полях, расширения сферы интересов, формирование универсального умения разрешать проблемы, возникающие в жизни: как в профессиональной деятельности, так и в самоопределении, и в повседневной жизни.

Современному миру «нужны граждане, готовые нести личную ответственность как за себя, так и за мир вокруг, способные переучиваться на протяжении всей жизни, способные и готовые применить свое знание лучшего из того, что было придумано, сказано и сделано человечеством для решения проблем настоящего и будущего» [3]. Соответственно, для подготовки таких выпускников, современным учебным заведениям необходимы новые методы и технологии, способствующие интеграции междисциплинарных знаний, умений, навыков и компетенций, ориентированных на решение актуальных задач сегодняшней практики и возможных проблем будущего. Среди современных технологий, обладающих подобным потенциалом, можно выделить квест - технологии.

Целью статьи является обоснование возможности влияния на развитие лидерских качеств учащихся при применении квест-технологий в обучении.

Понятием квест (от английского «quest» - поиск, игра-загадка) обозначают различные виды on-line и off-line игр, которые разворачиваются в виртуальном или реальном пространстве. Это специфическая форма игровой деятельности, которая требует от участников поиска решения поставленных задач. В современных условиях квест становится новой практикой социальной коммуникации, новым видом активного отдыха для продвинутой интеллектуальной молодежи. Компьютерные игры в стиле квест достаточно широко распространены, однако в последнее время из виртуального мира квесты стремительно проникают в реальный мир. [1]

Квест можно определить, как интеллектуальный вид игры, процесс которой разворачивается в специально подготовленном помещении, из которого участники квеста должны выбраться, решив поставленные задачи. Отличительными особенностями таких игровых практик является то, что участники должны быстро адаптироваться в новых условиях, принимать решения в самых неожиданных ситуациях. Поэтому квесты особенно интересны для школьников, студентов, молодежи.

Вопросам использования квест-технологий посвящено множество теоретических и эмпирических исследований. Предметом исследования которых являются как уроки в начальных школах [2], [3], учреждениях среднего профессионального и высшего профессионального образования [4].

Квест-проектная деятельность в рамках образовательного учреждения имеет особую воспитательную ценность: воспитывает личную ответственность; уважение к культурным традициям, истории, краеведению; формирует культуру межличностных отношений и толерантность; стремление к самореализации и самосовершенствованию; здоровьесбережение и здоровьесозидание.

И.Н. Сокол предлагает подробную классификацию квестов, приведём её здесь в сокращении [5]. Образовательные квесты различаются:

- по форме проведения (компьютерные игры-квесты, веб-квесты, QR-квесты, медиа-квесты, квесты на природе, комбинированные);
- по режиму проведения (в реальном режиме; в виртуальном режиме; в комбинированном режиме);
- по сроку реализации (краткосрочные; долгосрочные);
- по форме работы (групповые; индивидуальные);
- по предметному содержанию (моноквест; межпредметный квест);
- по структуре сюжетов (линейные; нелинейные; кольцевые);
- по информационной образовательной среде (традиционная образовательная среда; виртуальная образовательная среда).

А.Ф. Левицкая и Н.В. Николаева рассматривали психологические и социально - педагогические аспекты применения квестов в образовательной деятельности для школьников [6], [8].

В зарубежных исследованиях, в частности в работе Kaivola T., Salomaki T., Taina J. [10] анализируется применение квестов, их возможности для студентов вузов. Т.А. Наумова, А.А. Баранов, Я.Л. Тараканов считают, что использование web-квестов в процессе обучения развивает у учащихся лидерские качества личности. Н.Г. Муравьева предлагает использовать модель мини-проектов и web-квестов, реализуя идею педагогического содействия становления обучающегося как осмысленного субъекта социокультурного образовательного пространства [3].

Для осмысления игровой сущности квестов мы опирались на работы Й. Хейзинги, Э. Финка, Х-Г. Гадамера. Игра как «свободное действие» (Й. Хейзинга), обладающее собственным временем и пространством, стоящее вне обычной жизни, но полностью овладевающее участниками, позволяет рассматривать потенциал квестов, возможности применения в педагогических целях.

Образовательные квесты могут быть организованы как в замкнутом пространстве, так и вне его: квесты в парках; квесты на местности (городское ориентирование - «бегущий город»); квесты на местности с поиском тайников (геокэшинг) и элементами ориентирования (в т.ч. GPS) и краеведения; смешанные варианты, в которых сочетается и перемещение участников, и поиск, и использование информационных технологий, и сюжет, и опережающее задание - легенда.

Тенденция к применению квеста в образовательном процессе обусловлена тем, что он развивает критическое мышление, умение сравнивать, анализировать, классифицировать информацию. У учащихся повышается мотивация, поскольку они воспринимают задание как нечто «реальное» и «полезное», что ведет к эффективности познавательного процесса. Более того, именно квест создает основу развития ценностного отношения к познанию.

Квестовые задания могут выполняться индивидуально, однако, групповая работа является более предпочтительной, поскольку совместная деятельность обучающихся позволяет не только получать новые знания, но и развивать свои коммуникативные умения, выслушивать мнение другого, взвешивать и оценивать различные точки зрения, участвовать в дискуссии, вырабатывать совместные решения.

Особую привлекательность для молодых людей квест приобретает при наличии спонтанности, нелинейности сюжета. Свобода выбора или её иллюзия имеют большое значение для студенческого возраста. Кроме того, за счёт гибкости сюжета квест приобретает неповторимость, уникальность. Основными критериями качества квеста выступают его безопасность для участников, оригинальность, логичность, целостность, подчинённость определённому сюжету, а не только теме, создание атмосферы игрового пространства [9].

Квестовая форма обучения актуальна как в учебной работе, так и при организации внеаудиторной деятельности учащихся.

Лидер — это авторитетная личность, обладающая познавательным, ценностным, творческим, коммуникативным и художественным потенциалами; реализующая в процессе деятельности свое мотивационное стремление быть лидером и действовать как лидер; личность, ведущая за собой других, способная обеспечить свободу каждому отдельному индивиду для осуществления его собственных целей и потребностей с тем, чтобы внести вклад в осуществление целей организации.

Квест позволяет развивать лидерские качества; тренировать важные личностные качества: активность, инициативность, сила воли, решительность и спокойствие в форс-мажорных обстоятельствах, стремление к успеху; умение находить несколько способов решений проблемной ситуации; способствует развитию навыков – внимательность, логика, память, воображение; способствует развитию ряд ключевых компетенций: способность использовать основы философских и социогуманитарных знаний для формирования научного мировоззрения; способность анализировать основные этапы и закономерности

исторического развития для формирования патриотизма и гражданской позиции; способность работать в коллективе, толерантно воспринимая социальные, этнические, конфессиональные и культурные различия; способность к самоорганизации и самообразованию и др.

Квесты требуют навыков конструирования социальной реальности, создания сюжетов, проектирование заданий и условий их выполнения. Это творческая, креативная работа, которая позволяет раскрывать интересы учащихся, их представления о прошлом, настоящем и будущем, включать в проектную деятельность свои компетенции, работать с категориями социального пространства и времени. Данная форма работы позволяет сочетать научное, аналитическое, креативное, творческое и проектное мышление.

За счет выполнения заданий квестов у учащихся формируются ряд лидерских качеств, такие как умение формировать команду и делегировать полномочия, способность налаживать взаимоотношения как внутри коллектива, так и с внешними сторонами, способность к ведению переговоров и убеждению в правоте своей позиции, а также важные качества личности, необходимые будущим профессионалам: способность быстро принимать решения, действовать в условиях неопределенности, навыки командной работы, креативность мышления и другие. Развитие лидерских качеств происходило в данном случае на практических занятиях, во время проведения ролевых игр, самоанализа. Так же при разработке самими учащимися заданий для квестов развивается творчество, ориентированность на результат, мотивация, самодисциплинированность и организованность, инициативность. Квест, как форма проведения занятия, позволяет учащимся быть активными участниками действия, творчески взаимодействовать друг с другом, развивать общекультурные и профессиональные компетенции.

Квесты обладают высоким потенциалом в развитии лидерских качеств учащихся и являются одной из наиболее перспективных технологий в подготовке к профессиям будущего.

Таким образом, лидерские качества личности у учащихся успешно развиваются, если на занятиях будут применяться квест-технологии как один из методов активного обучения.

Список литературы:

1. Чудакова А. О., Щелина С. О. Перспектива интерактивного метода «квест» в профессиональной подготовке студентов психолого-педагогического факультета // Молодой ученый. — 2014. — №21. — С. 709-712.
2. Каравка А.А. Урок-квест как педагогическая информационная технология и дидактическая игра, направленная на овладение определёнными компетенциями // Мир науки. - 2015. - №3. - С. 20.
3. Муравьева Н.Г. Модель формирования социокультурных компетенций студентов вуза в проектной деятельности (на примере иностранного языка) // Образование и наука. – 2013. – №3 (102). - С. 121-131.
4. Лечкина Т.О. Технология «квест-проект» как инновационная форма воспитания // Наука и образование: новое время. 2015. – 1 (6). – С. 12-14.
5. Сокол И.Н. Классификация квестов // Молодой ученый. – 2014. – №6 (09). – С. 138-140. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://molodyvcheny.in.ua/files/journal/2014/6/89.pdf>.
6. Левицкая А.Ф., Федоров А.В. Роль и значение веб-квестов в современном образовании // Школьные технологии 2010, №4. с. 73.
7. Наумова Т.А., Баранов А.А., Тараканов Я.Л. Развитие лидерских качеств личности у студентов вуза // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» Том 7, №4 (2015) <http://naukovedenie.ru/PDF/108PVN415.pdf> (доступ свободный). Загл. с экрана. Яз. рус., англ. DOI: 10.15862/108PVN415.
8. Николаева Н.В. Образовательные квест-проекты как метод и средство развития навыков информационной деятельности у учащихся // Вопросы Интернет-образования. - 2002. - №7.
9. Матвеева Н.В. Ролевая игра и веб-квест: новый взгляд на традиционный метод // Среднее профессиональное образование. - 2014. - №4. - С. 45-47.

10. Kaivola T., Salomaki T., Taina J. In quest for better understanding of student learning experiences // Procedia - Social and Behavioral Sciences 2012. №46, p. 8-12

ОИЛА- МУЪТАБАР ВА МУКАДДАС МАКОН

Утегенова Севара Зайнидиновна
педагог

АННОТАЦИЯ


Ушбу мақолада тадқиқотчи бугунги куннинг энг муҳим масласи бўлган жамиятнинг асосий бугини ҳисобланган оиланинг энг муҳим манбаси таълим-тарбиянинг назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил қилиб унинг моҳияти ва аҳамияти тўғрисида қисқача мулоҳазалар билдирилган.


Калит сўзлар: оила, маърифат, ватан, жамият, таълим-тарбия, педагогика, маданият, мафкура , мерос, манера, ижтимоий муҳит, позитив ва негатив фикрлар.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримов “Юксак маънавият-енгилмас куч” асарида таъкидлашича: “Хар кайси миллатнинг узига хос маънавиятини шакллантириш ва юксалтиришда ҳеч шубҳасиз, оиланинг урни ва таъсири бекиёсдир. Чунки инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк хаётий тушунча ва тасаввурлари биринчи галда оила бағрида шаклланади. Боланинг характерини, табиати ва дунёкарашини белгилайдиган маънавий мезон ва қарашлар –яхшилик ва эзгулик, олийжаноблик ва меҳр-окибат, ор-номус ва андиша каби мукаддас тушунчаларнинг пойдевори оила шароитида қарор топиши табиийдир”.(52-б) Оила мустаҳкамлиги йулида уз орзу-мақсадларимизга етишиш борасида, биз 1-навбатда фарзандларимиз тарбиясига эътибор қаратадиган бўлсак , жуда хам катта ютуқларга эришган булар эдик, чунки ахир соғлом ва баркамол жажжи неъмат деб берилган пиллапояларимизни куз қорачигимиздек асраб-авайлашимиз ва уларга

келажагимизнинг ёркин пойдеворини заминини яратиб беришимиз керак. Энди шу ерда олдимизга куйган мақсадларимиз учун бир келажакка назар ташласак, “ОИЛА” нима узи? У қандай маънони англатади? Тарихимизга яъни Чулпон айтганидек: “Мозийга қайтиб иш қурмоқлик-хайрли ишдир”. Оила қадим-қадим замонлардан эъзозланиб келинаётган муқаддас макон ва гуша ҳисобланади. “ОИЛА” ҳар қандай томондан олиб қарайдиган бўлсак муқаддас ва эъзозлигича қолиши керак. Соғлом оилада таълим-тарбия олган болада ҳар қандай қуринишида оладиган бўлсак дунёқараши кенг бир шундай маънавиятли фикрлайдиган қомил шахс бўлиб етишади. Яна шу уринда бир масалага тухтайдиган бўлсак, нима учун маънавияти йук эрта олдиндан мақсадсиз икки ёш турмуш қуриб келажагимизни барбод этишмоқда. Қанчадан-қанча давлатимиз томонидан имқон ва шароитлар яратиб берилишига қарамай, шундай бир замон талаби асосида қурилатган шароитлар менсимаслик қурнамақлик бўлади. Нечун биз уз олдимизга турган орзу-мақсадларимизни тарихга уланадиган келажак ёшларимизни уз мақсадларимиз ёлгон ва яшиқ гап сузларга бекорчи вақтларга сарфламасдан узимизнинг фикр, мулоҳаза, гоё ва тақлифларимизни янгича усулда қиритсак бекордан-бекорга зое кетмайди. Оилани уз фикрим билан таърифлайдиган бўлсам, мен учун у 1-галда ҳар бир нарсадан юқори турадиган эъзоз ва эътиборга молик ҳар бир сузда олий мақомга эгадир. У шундай даргоҳки, ҳар бир инсон уз қамол ва юқсалишини шу ерда топади, ахир тарбия оиладан бошланади. Масалан бир ниҳол экдик, эрта баҳорда бу дарахтга айланиб натижада мева беришни бошлади, лекин бу мевалар бир текисда бўлмаслиги мумкин ҳар-хил қурнишда бўлиши мумкин. Энди бамисоли “Оила”ни олиб қарайдиган бўлсак, қургон-дарахт, унинг ҳосили мевалари-биз фарзандлар агар уни қанчалик меҳр бериб парвариш қилсак, шунга яраша улкан натижаларга эришамиз. Ҳосили-тарбия у хоҳ аччиқ, хоҳ ширин бўлади, бу биз бажарган ишларимиз унумдорлигидир. Гар ширин бўлса майлига унисини ҳам бунисини ҳам, ҳамма бирварақайига таътиб тановвул қилади. Аччиқ мева – тарбия бутун жамиятга уз таъсирини утқазмай қолмайди. Буни яхлит бир бутун бир варақайига ҳамма уз хоҳиш истаги билан татиб қуради, шунинг учун биз уз келажак

фарзандларимизга тарбияни оиладан тугри уз урнида фойдалана олмасак, бунинг охири жуда хам таъсирли булади деб уйлайман. Тажрибаларимиздан куриниб турибдики, оила носоглом мухитда булиб колишида энг асосий камчиликни мен ота ёки оналарда куриб, шу тухтамга келдимки, болада яъни хар биримизга Аллох томонидан берилган тана аъзоларимизда бир парча гушт куринишда чиройли ва гузал килиб яратилган , биз инсонлар хис килишни била оладиган КАЛБ мафтункорлиги бор ахир. Калбимизни хис этаётганини билар эканмиз, демак онгимиз ва тил забонимиз билан биргаликда уз урнида ишлатсак мақсадга мувофик булар эди. Ахир биз энг биринчи уринда муаммони хал этиш йулини кидирадиган булсак. ота-она фарзандини тарбиялашдан олдин узи тарбияланган ва уртак булиши керак. Хар бир бола ёки у успирин булсин, сухбат чогида уз дилидаги гапларини калбшуносга ёрар экан, у оиланинг мустахкамлиги бу меҳр этишмаслигидадир-деб айтишмоқда. Нега, айнан меҳр, нима учун? Энди бу муаммоли масалани ёритадиган булсак, меҳрни азал-азалдан куёшга ва унинг чексиз заррин нурларига киёслаб келишган. Меҳр канчалик дарёдек тошкин булса, эртага фарзандингиздан хам шу даражада ортиги билан кайтади. Шу уринда ёш турмуш куришаётган оилалар ва турмуш куриб анча йул босиб утган оилалар бу масалага жиддий караб, калта уйламасликлари зарур ва мухим хисобланади –деб уйлайман.





ОИЛА- барча нарса жуфт-жуфт булиб яратилган экан, жуфт булиб яшаш табиат тақозосидир. Маълумки, оила жамиятнинг биринчи ва бирламчи заррасидир. Жамият ана шу кичик зарралардан ташкил топади. Лекин у шунчаки зарра эмас, тирик вужудлар иттифоқидир. Хар бир тирик вужуднинг узи алохида бир олам. Одамларки бетакор эканлар, оиланинг бир-бирига ухшамаслиги уз-узидан аёндир. Агар оила ҳақиқатдан тинч-тотув, ахил булса, олам гулистон. Акс холда турмуш дузахга айланади, оила эса зиндоннинг узи булади-куяди, эр ва хотин эса бир-бирига рақиб ва рақиб бўлиб қоладилар, бунинг жабрини эса улардан кура болалари, яқин қариндошлари тортадилар. Жамиятга моддий ва маънавий зиён етади. Оила одамларининг табиий, иқтисодий, ҳуқуқий, маънавий муносабатларига асосланган ижтимоий бирилигидир. Оила аъзолари бир-бирлари билан умумий турмуш, узаро иқтисодий мулкӣ, ҳуқуқӣ, ахлоқӣ, руҳӣ алоқалар билан боғланади. Оиланинг биринчи вазифаси уз насл-насабини давом эттиришган, солих ва солиха фарзандларни тарбиялашдан, оила аъзоларининг тирикчилигини, буш вақтини қунгилли утқазишни таъминлашдан иборатдир.

Оилавий муносабатлар нисбатан мустикал ходиса булиб, оиланинг ички ишларига ҳеч ким ҳуда-беҳуда аралашшига ҳақли эмас. Шу сабабли оила мукаддас ва дахлсиз ҳисобланади. Рамзий килиб айтсак, оила узига ҳос кичик бир мухтор давлатдир. Лекин оила осмондан тушмайди, оила жамият ташқарисида эмас, унинг таркибидадир. Оилавий муносабатлар жамиятдаги мавжуд ижтимоий, иқтисодий, мафкуравий ва маънавий муносабатлар билан белгиланади ва улар таъсирида узгариб бораверади. Оилавий муносабатлар жонли, узгарувчан жараёндир. Шунга кура ҳар бир жамият узига ҳос ва мос оила турини танлайди ва шакллантиради.

Ўзбек оиласининг дунёдаги бошқа оилаларга ухшаш томонлари қуп. Шу билан бирга унинг узига ҳос жиҳатлари ҳам йук эмас. Халқимизда, никоҳ- энг аввало Арши Аълода уқилур, кейин эса ерда, деган нақл беҳудага айтилмаган. Ота-боболаримизнинг азалий тушунчалари буйича, никоҳ- илохий аҳд, Оила-мукаддасдир. Маълумки, Ҳадиси шарифларнинг муайян қисмида ахлоқ-одоб, маънавият, оиланинг поклиги ва мустаҳкам булишига оид қимматли фикрлар мавжуд.

Оила поклик – софликка, садокатга асосланиши керак. Оилани мустаҳкамлашда ҳуқуқий, диний билимлар тарғиб-ташвиқотининг аҳамияти ҳам катта. Шариатга доир, оила ва никоҳ масалаларига бағишланган, ёшларни жисмонан ва руҳан оила қуришга тайёрлашга қумаклашадиган дунёвий ва диний адабиётларни нашр этишга жиддий қиришиш лозим. (81-85-б)

Ҳар бир миллатнинг саодати ва иззати, албатта, шу халқнинг ички интизоми ва тотувлигига боғлиқ. Тинчик ва тотувлик эса шу миллат оилаларининг интизомига таянади. Қаерда оила муносабати қучли интизом ва тартибга таянса, мамлакат ва миллат ҳам шунча қучли ва тартибли булади. Агарда бир мамлакатнинг аҳолиси ахлоқсизлик ва жохиллик билан оилавий муносабатларини заифлаштириб юборса ва интизомсизликка йул қуйса, шунда бу миллатнинг саодати ва ҳаёти шубҳа остида қолади.

Оила саодати ва бахти учун қабул қилинган энг мақбул қонун- исломий қонунлар булади. Лекин оламда энг бадбахт оилалар ҳам биз мусулмонларнинг

уртасида булади, чунки биз илохий конунларнинг биронтасига риоя қилмаймиз. Бахтсизлигимизнинг сабаби оиладорлик хусусидаги ҳар бир ҳаракатимиз, сароб орзуларимиз ва хато фикрларимизнинг натижаси бўлиб, аксарияти Куръони Карим ҳукмларига зиддир. Шунинг учун зулм ва тажовуз қурмаган оилалар бизда ниҳоятда кам қуринади. Одамнинг қамоли фақат соғлиқ ва қучдан иборат бўлмай, балки жисмонан, ақлан ва ахлоқан юксалишдан иборат. Саодат ва бахтсизлик, ранж ва роҳатни бир-биридан фарқ қилиш, бирига эришиб, иккинчисидан қочиш қулларидан қелмайди. Шундай беақлик ва ахлоқсизлик даражасига тушганларга гапириш, уларнинг эътирозига аҳамият бериш беҳуда азоб тортиш демакдир. (6-78-б)

Хулоса урнида шуни айтишимиз мумкинки, Оиламиз-бизнинг энг катта бойлигимиз. Мактабларда ва ёшлар уртасида олиб борилаётган маънавий-маданий тадбирлар амалий ҳамда назарий тарзда жуда ҳам қўп мартаба, сон-саноксиз улар онгига етказиб берилмоқда, турли қуринишда профилактик ишлар утқазилмоқда, бу хусусда, уларга бу берилаётган барча билимлар билан биргаликда маънавий юксалишига, барқамол инсон бўлиб қамол топишига анча қўмақ ва ёрдам булади. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримов юртбошимизнинг назарий ва амалий фаолиятида Шарқ ва Ғарб фалсафий тафаккури туташиди. Бунда Президентимиз феноменидаги яна бир қирра-файласуфлик заковати зухур этди. (437-б). Бунда жамият-оила-махалла-мактаб бежизга бир-бирига қетма-қетликда занжир мисоли боғланмаган, чунки бу сузлар замирида боғланиш жуда ҳам муҳим ҳаётий масалаларга бориб тақалади. Агар шу муаммо бошма-бош ҳал этилмаса ухшашида фарқ қилмас атом бомбасига бориб тақалади. Нима учун бизни мамлакатимизда шундай бир шукрона қўнлар қўн сайин янги бир гоҳлар асосида яна бир талқин этишимиз мумкин бўлган ҳеч бир нарсага тенглашмаган ОИЛА деган номга шундай улугвор ном берилганки, у шундай муқаддас номга азал-азалдан мос равишлигича қолади. Мамлакатимизда қўнун устуворлиги устун экан, демак, шунга яраша сиёсат олиб борилади. Барқамол, етук ва тараккий этиб бораётган оилада биринчи навбатда биз тарбиянинг яққол ёрқин учоғини қўришимиз мумкин. Яна шу уринда уз-

уздан савол тугилади. Нима учун? Нега? Гарчи оилада мухитни соғлом қилиб олмасак, у бора-бора суниб бораётган шамга ухшайди, ахир у ҳам бир куни сунади. Келажагимизни албатта юксак марраларга эришишини ва улкан чуққиларни забт эта олишини била туриб юртбошимиз буюқлигини олдиндан этган эдиларку. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримов: “Ўзбекистон келажаги – буюқ давлат” . Йилларга ҳам ном берилиши бежизга эмас 1998 йил – “ОИЛА”, 2012 йил эса” Мустахам оила” йили деб белгиланиши ахамиятга моликдир ва шу уринда муҳим вазифаларга, муаммоларга тухталиб утилмоқда. Мана бу йилги 2022 йил “Инсон кадрини улуглаш ва фаол маҳалла йили” деб ном берилган экан, ҳар бир инсоннинг Ўзбекистон Республикаси Бош Комусимизда узининг асосий ҳуқуқлари, эркинликлари ва бурчлари белгилаб, курсатиб утилган. Унда XIV-боб 63-моддан 66-моддагача Оила-жамият муҳофазасида эканлиги айтиб утилган. Ҳар бир оиланинг узига яраша ва муносиб равишда тартиб-қоидалари бор, лекин айрим бефаҳм, бефаросат онги паст ва жамият учун наф эмас, балки зарар келтирувчи инсонлар ҳам бизни жамиятни четлаб утишаётгани йук. Инсон булиб тугилдими, шунга яраша номга сазовор булмоқ керак ва уз оиласини номини ҳам юксак поғона даражаларга кутаришга олға интилоқ даркор. Богбон бог яратишдан олдин узига ва олдига шундай мақсад қуядики, шу гулларни курганда жамики бутун олам, инсоният дунёси қалбан ҳис этиб, чин дилдан баҳра олишликни. Уни парваришлагунча қанча меҳнат ва машаққат чекади, умр утади, зеро, орқасидан яхши бог ила ном қолади. Буни акси қилиб оладиган булсак, бу ухшатишликни мен, яъни богбонни оила курғони деб оладиган булсам, бебаҳоларимиз-фарзандларимизни гулга қиёсладим, парвариш қилиш билан бирга уларга таълим-тарбия беришда ҳатоликларга йул қуймаслигимиз ва тугри йуналтира олишимиз, маънавий озуқа беришда адашмаслигимиз керак ва зарур. Чунончи олдинда қуйилган мақсадлар олдида берган таълим-тарбиямизнинг бизга ундан қайтадиган юксак ва олий муқофотга сазовор қомил ва фозил фарзандларимизнинг юрт келажаги учун ота-оналарга булган олқишларидир. Бу барчаси келажагимиз тақдири ва берилажак имкониятларга тула эканлиги яққол қузга ташланиб турибди. Бизнинг оилалар

бунданда метиндек мустахкам, оқил, билимли, маънавий бой, ҳар томонлама урناк була оладиган мустакил келажак ёшлардир. Бу борада оилада тарбияни эрталабдан-кечгача эмас, балки фарзандингиз онгига етказа оладиган ва шу йусинда бир маромда давом этадиган килиб тарбияласак ва уз вақтида узини эркин хис кила оладиган , мустакил фикрлашига ҳам катта эътибор каратишимиз керак. Унинг калби меҳрга тула булсин, зеро хаётга нисбатан калби бутун умрга синиб зарар этадиган даражада булиб қолиб кетмасин, оилада олиб бориладиган тарбиямиз тугри ва бир текис маромида булса, барчага уз фойда ва яхшиликларни олиб келишига аниқ ишончим комил. Бахт-саодат уз уйингда, уни бировларнинг боғидан кидириб юрма!.... Энг яхши меҳрос- бу оилада олинган ТАРБИЯ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Оила ёки оила бошқариш тартиблари Тошкент-2019
2. Хаёт ва турмуш одоби Тошкент-1996
3. И.А.Каримов “Юксак маънавият-енгилмас куч .
4. 4. Ватан туйғуси “Узбекистон”

JADID MA'RIFATPARVARLARINING PEDAGOGIKA TARIXIDA TUTGAN O'RNI

O'g'ilov Abdullaeva
TDPU "Umumiy pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi

Rezyume. Maqolada jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik fikrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, pedagogik qarashlari, qoldirgan me'rosi va ularning siymolarini o'rganish haqida mulohaza qilinadi.

Tayanch so'zlar. Jadidchilik, ma'rifatparvarlik, usuli jadid maktabi, ma'naviyat, pedagogika, tushuncha, yangilik, yangi usul, ijtimoiy tarbiya.

Pedagogik merosimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganish va tadqiq etish har bir davrda dolzarb va muhim masala bo'lib kelgan. Mustaqillik davridan to hozirgi

kungacha ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma jabhalarida o'zlikni anglash, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini chuqur idrok etish va xalqqa yetkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xalqimizning ma'naviy-ilmiy merosini o'rganish va unga munosib baho berish muhim vazifalardan biriga aylandi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: "Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh yozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi". Darhaqiqat, ilmiy merosimiz mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitilgan pedagogik g'oyalar tashkil etadi. Chunki, umuminsoniy tafakkur mahsuli bo'lgan bilimlarga insoniyatni yangi taraqqiyot bosqichiga yetaklaydi. Shu o'rinda buyuk akademik G'ofur G'ulomning quyidagi: "Tarixni o'rgansak va o'rgatsak kelajak porloq bo'ladi"- degan fikrlari fikrimizning yaqqol dalilidir.

XIX asrning oxiri XX boshlarida yurtimiz Turkistonda ijtimoiy tarbiyaga oid o'ziga xos jarayon kechdi. Bu jarayon jadid ma'rifatparvar pedagoglari tomonidan tashkil qilinib, u Yevropa va Rossiyada kechayotgan tajribalar asosida izchil va uzviy ravishda rivojlantirila bordi. Bu hol pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Shu sababli: **birinchidan**, olimlarimiz istiqloq davrida shakllangan milliy tarbiyashunosligimizni jadid ma'rifatparvar pedagoglarining qarashlari bilan boyitish fikrini ma'qul topdilar; **ikkinchidan**, davlat siyosatida jadid ma'rifatparvarlarining o'z davrida o'ynagan roli e'tirof etildi. Bu ishlarda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning da'vatlari asosiy yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qildi. Ularning bu da'vatlari va boshlab bergan xayrli ishlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ham qo'llab quvvatlab jadidlar faoliyatiga bo'lgan munosabatlarini o'z nutqlarida har doim ta'kidlab kelmoqda. Birinchi Prezidentimiz jadid ma'rifatparvar pedagoglarimiz faoliyatiga

shunday baho beradi: "XX asr boshidagi ma'rifatchilik haqida ko'p gapirganmiz. O'sha harakatning namoyondalari boylik uchun, shon-shuhrat uchun maydonga chiqishdimi?! Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Tavallolarning maktab ochganiga, xalqni o'z haq-huquqlarini tanishga da'vat etganiga birov maosh to'laganmi?! Birov ularga oylik berganmi?! Albatta, yo'q! Ular o't bilan o'ynashayotganlarini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bilaturib, ongli ravishda mana shu yo'ldan borganlar. Chunki vijdonlari, iymonlari shunga da'vat etgan". Jadid pedagoglari yoshlar tarbiyasi masalasiga hayot yoki mamot masalasi deb qaraganlar. Shu ma'noda, XX asr boshi bilan oxiridagi ma'rifiy-ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy hayotda ham ajib bir o'xshashlik va yaqinlikni tuyish mumkin. Amaldagi yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev Toshkent Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, bu tashrif doirasida o'tgan taqdimotida ma'rifatparvar jadidlar qirg'ini borasida o'z fikrlarini bildirdi. "Agar jadidlarimiz qirg'in qilinmaganda edi, hozir bizda "To'rtinchi renessans" bo'lardi, agar ota-bobolarimiz qirib tashlanmaganda edi, ularning bilimi, ularning ilmi bilan katta kashfiyotlar qilinardi. Lekin ular yo'q qilindi.Xo'sh, birinchi marta O'rta Osiyodan Germaniyaga borib o'qiganlar qayerdan edi? Bizdan edi. Ularni ham o'sha joyning o'zida borib yakson qilib kelishdi. O'z vaqtida bizdagi yangilik, kashfiyot va tarixni ham kitoblarga o'z bilganicha, o'ziga keragicha kiritishdi. Kerakmasini esa yo'q qilishdi", – deganda qanchalik to'g'ri ta'kidlaganligini anglash mumkin.

Jadidchilik harakatining tamal toshi usuli jadid maktablaridir. Bu - jadidshunoslar tomonidan yakdil e'tirof etilgan fikr. Bu harakatning asl maqsadi millatning o'zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish, Millat, Vatan istiqloli edi. Ma'lumki, bunday buyuk o'zgarishlarni yangi avlodgina amalga oshira oladi deb o'ylashgan. Jadid ma'rifatparvarlarini o'rganishning yana muhim jihati shundaki jadidlar olib borgan kurash oxiriga yetmagan bo'lsa ham, milliy hukumat "Turkiston muxtoriyatini" qurishga erishildi. Hali millatning o'zligini anglash, milliy uyg'onish darajasining ilk rivojlanish bosqichida bo'lib, bu davrda mustaqillik, istiqlol haqida ming xil va'dalar bergan bolsheviklar hukumati o'ta qabih munofiqona siyosat olib borildi. Turkiston muxtoriyatini hali oyoqqa turib ulgurmasdanoq qonga botirdilar.

Shunday bo'lsa-da bu jadid mutafakkirlarining mustamlakadan mustaqillik sari qo'ygan birinchi dadil qadami bo'ldi.

Usuli jadid maktablarining vujudga kelishi bilan an'anaviy o'qitish usullarining tubdan isloh qilish, ta'lim olib borishning yangi usullarini ishlab chiqish, darslik va qo'llanmalar yaratish jadid pedagogikasining dolzarb masalasiga aylandi. O'qitishda ko'rgazmalik (Munavvar Qori), ifodali o'qish va uning turlari, ularda texnik vositalaridan foydalanish, nutq o'stirish usullari, (Behbudiy, Fitrat) "Tovush-harf" metodi orqali o'qitish, hijjalab o'rgatish, (Shakuriy) ijtimoiy tarbiya, maktabgacha ta'lim tizimini yangi usulda olib borish, islox qilish(Xoji Muin) kabilar aynan jadid pedagoglari tomonidan ishlab chiqildi.

Mana shunday ta'lim tizimiga, maorifga yangiliklar kiritgan, ta'lim oluvchilarning har tomonlama o'sib ulg'ayishiga o'z hissasini qo'shgan ma'rifatparvar olimlarni uzliksiz ta'lim jarayonida o'rganish ya'ni maktabdagi fanlar kesimida (hozirda "Tarbiya" fani) o'rganilishi kerak deb hisoblayman. Shu bilan birga, o'rta maxsus ta'lim, akademik litseylarda, professional ta'lim tizimi va Oliy ta'lim bosqichlarida qator jadidchi olimlarni, ularning jasoratini, pedagogikaga qo'shgan hissasini, ularning yaratgan maktablari, qoldirgan merosi pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etishini qayta-qayta o'rgatishimiz, ular qalbida mana shunday jasoratli, qo'rqmas ajdodlarimiz xotirasini har doim hurmat bilan eslab yurishlarini, mana shunday zamonlarda yashayotganimizga shukronalar keltirishimiz kerakligini singdirib borishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. -T. -2008.
2. Sh.M. Mirziyoyev. "Toshkent Islom sivilizatsiyasi markazi" da so'zlagan nutqi.
3. U. Dolimov. Milliy uyg'onish pedagogikasi. -T. -2014.
4. K. Hoshimov. S. Nishonova va boshqalar. Pedagogika tarixi. .-T. -2008.

AMIR TEMURNI ANGLASH – O'ZLIGIMIZNI ANGLASH

*Jahongir Abdullayev Azimovich
Termiz Davlat Universiteti
Psixologiya (amaliy psixologiya) yo'nalishi talabasi*

Bizning yurtimizning shonli tarixida buyuk shaxslar nomi o'chmas va barhayotdir. Bu nom albatta Sohibqiron Amir Temur nomi bilan ham bog'liq. Amir Temur — insoniyat tarixidagi eng qat'iyatli shaxslardan biri sifatida tanilib ulgurgan. Turli manbalarga tayangan holda, u haqidagi bilimlarimizda sarkarda, adolatli hukmdor ham jangchi sifatida gavdalanadi. Amir Temur O'rta, Janubiy va G'arbiy Osiyo, shuningdek, Kavkaz, Povolliya va Rus tarixida muhim o'rin tutgan. Poytaxti Samarqand bo'lgan Temuriylar saltanati asoschisi Sohibqiron Amir Temur xalqiga doim mehr-muruvvatli bo'lgan, adolat va haqiqat uchun kurashgan, saltanatni ham ana shu mustahkamlik asosida qurgan. Sohibqiron bobomiz merosi shijoat, mardlik va adolat timsoli sifatida yuksak qadr va e'zozga loyiqdir.

Hurmatli Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov, " Amir Temurni anglash – o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash – tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir, deya ta'kidlagan edi, o'z nutqlarining birida bu so'zlar ham bejizga aytilmagan.

Amir Temur ilm fanga e'tibori juda katta bo'lgan. U hukmronlik qilgan davrda masjid, madrasa, maqbara, karvon-saroy va hammomlarning katta binolarining qadini rosladi. Har qanday g'alaba me'morchilikda abadiylashishi odatiy holatga aylanib qolgan. Quruvchilik faoliyatida Amir Temur ma'lum bir siyosiy maqsadlarga amal qilgan - u qurdirgan inshootlar saltanatining kuch-qudratini ko'rsatib bera olishi kerak bo'lgan, mamlakatning iqtisodiy va madaniy rivoji uchun sharoitlarni tayyorlagan. Yaqin va O'rta sharq bo'ylab Movaraunnahr savdo-sotiq, iqtisod va madaniyat markaziga aylanishi zamirida, Samarqand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent, Marv va boshqa qadimiy shaharlar obodonlashtirgan va o'z islohotlari bilan zamondoshlarini lol qoldirgan. Hurmatli Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov

rahnamoligida Amir Temurning nomi, boy merosi tiklandi. 1996-yil mamlakatimizda Amir Temur yili, deb e'lon qilinishi. Sohibqironning Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda muhtasham haykallari qad rostlashishi va „Temuriylar tarixi muzeyi“ tashkil etilishi. Ulug' bobomiz Amir Temur sharafiga orden ta'sis etilishida Sohibqironga bo'lgan cheksiz hurmatni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Amir Temur hayotlik davridayoq davlatni boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u "Temur tuzuklari" nomi bilan shuhrat topgan. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining yo'nalishi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipoxlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqa bayon etiladi. Shunday qilib, Temur tuzuklarida davlat tuzilishi va qonun-qoidalarini tartibga solish borasida hali hamon qo'llanadi. 2011-yili Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov so'zboshisi bilan "Temur tuzuklari" mukammal holda, yuksak sifat bilan yangidan chop etildi. Sohibqiron Amir Temur "Kuch adolatdadir" degan gapiga, eng avvalo, o'zi amal qilganiga shubha yo'q, chunki "Temur tuzuklari"ni o'qisak, bu fikrga yana bir bor amin bo'lamiz. Sohibqironning birinchi galda maorifni to'g'ri yo'lga qo'yish, ilmiy, ma'rifatli shaxslarning jamiyatdagi mavqei ko'tarib borgan. Ulkan saltanatning barcha shahar va yirik qishloqlarida ko'plab boshlang'ich maktablar barpo etilgan. Sohibqironning buyrug'iga ko'ra: "Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va honaqohlar bino qilingan", "Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlari belgilanganlar", "Sayyidlar, ulomo, fuzalo, mashoyix, ulug'larni aziz tutilganlar", bu aytib o'tilgan buyrug'lar. "Temur tuzuklari"da ham aks etgan. Amir Temur va temuriylar davrida madrasalar ilmiy markaz, ma'rifat o'chog'i vazifasini bajargan.

Amir Temur va Temuriylar davrida saltanat iqtisodiyot rivojlangani, ilm-fan, san'at-madaniyat gullab-yashnaganini bugungi taqdiqodchilar ham tasdiqlaydilar va bu davr yurtimiz tarixida chinakamiga insoniyat tamaddunidagi ikkinchi Renessans deb baholaydiilar. O'sha davrda san'at va adabiyotda, xususan, me'morchilikda yetti yuz yildan keyin ham yetib bo'lmaydigan yutuqlar qo'lga kiritilgandi. Natija shunchalik betimsolki, sirini ochmagan, ya'ni hozirgi taraqqiyot bosqichida kashf qilina

olmayotgan mo'jizalar (hususan buyoqlarning tarkibini olaylik) hamon mavjud. Ko'rinadiki; Sohibqiron o'z davrining eng qudratli davlati asoschisi, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat homiysi, dunyo sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk bunyodkor va benazir inson sifatida tarix sahifalarida va har bir inson qalbidan joy olgan.

Sohibqiron Amir Temur Bobomizning ibratlaridan

- Davlat ishlariniig to`qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvrat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur

- Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azim qat`iy tadbirkor va hushyor bir kishi ming-miiglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

- Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to`g`ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin.

- Shijoatli kishilarni do`st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi.

- Millatning dardlariga darmon bo`l...

- Kuch adolatdadir.

- Boshinga qilich kelsa ham rost so'zla.

- Bir kalima shirin so'z,qilichni qiniga kiritar.

- Bir tayoqni sindirmoq mumkin,

Ko'p tayoqni bukib ham bo'lmas.

BALANI MEKTEPKE TAYARLAWDÍŃ ÁHMIYETI

Arziev Alijan

QR XBXQTHOQAA Orayı aǵa oqıtıwshısı,

Qudaybergenova Nurjamal

Nókis qalası 13-sanlı mektep ámeliyatshı psixologi

Mektepke barıw balalardıń turmısında kútá úlken waqıya bolıp tabıladı. Mektep turmısı balalardıǵa jańa bir dúnyanı ashıp beredi. Mektep dáwirinde balalardıń tiykarǵı xızmetleri ózgeredi. Endi balalardıń tiykarǵı xızmetleri, wazıypası jáne social minneti oqıw bolıp qaladı. 6 -7 jaslı balalar ushın jańa iskerlik bolǵan oqıw olardan jańa

ózgesheliklerge ıyelewlerin talap etedi. Oqıw iskerligi ushın balalarda turaqlı dıqqat, ótkir zeyin, gárezsizlik, ıskerlik hám tártiplik páziyetleri bolıwı kerek. Baqshadan mektepke ótiwleri nátiyjesinde úlkenler menen bolğan munasábetlerinde de anağurlım ózgeris júz beredi. Sonı da názerde tutıw kerek, bala mektepke barıwı menen onıń social jağdayında da ózgeris júz beredi. Sonıń ushın mektep jasına jaqınlasqan balalar baqshada " úlken" dep esaplanar edi.

Mektepke ótkennen, olar tağı «eń kishkeneler» qatarına túsip qaladı. Balardıń mektepke ótiwleri menen júzege keletuǵın áne sonday saldamlı ózgerislerdi názerde tutıp, olardı mekteptegi jańa turmısqa hár tárepleme tayarlaw kerek. Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminiń tiykarǵı wazıypalarınan biri balalarǵa hár tárepleme tárbiya beriw, olardıń rawajlanıw dárejelerin mektepte oqıy alatuǵın etiwden ibarat esaplanadi. Bul bolsa óz gezeginde mekteptegi oqıtıw jumısları menen baqshadagi tálim-tárbiya jumısları ortasında málim izbe-izlik bolıwın talap etedi. Baqshada balardıń fizikalıq tárepten ósiwlerine qanshellilik itibar berilsa, olardıń intellektual hám aqılıy ósiwlerine de sonselli itibar beriledi.

Olardıń mektepke barıwları mudami názerde tutilib, ótkeriletuǵın túrli didaktik shınıǵıwlarda balardıń qabıl etiwleri, oyda sawlelendiriw hám yadları, qıyal hámda oylawları, shıdamlılıqleri sistemasılı tárzde rawajlandırılıp barıladı. Balardı mektep degi oqıw procesine tayarlawda olardıń sóylew tilin ósiriw júdá zárúr shártlerden biri bolıp tabıladı. Sol sebepli úlken gruppada balaların mekteptegi oqıwǵa tayarlawda óz ana tillerin jaqsı úyreniwlerine, yaǵnıy sóz baylıǵın arttırıwǵa, tuwrı aytıw hám tolıq hám de tuwrı gáp dúze alıwlarına áhmiyet beriw kerek.

Balardıń sırtqı álem haqqındaǵı qıyalların keńeytiw, bayıtıw jumısları olar sóylewin ósiriw tiykarında alıp barılıwı kerek. Sol zat dıqqatqa iye, hámme baqshalardaǵı mektep jasına tolğan balalar mekteptegi oqıwǵa birdey tayın bolabermeydi. Ayırım balalar mektepke kelgennen keyin, jańa jağdayǵa tez aralasıp keta almaydı. Olarda oqıw ushın qanday da bir ózgeshelik jetispey atırǵanday kórinedi. Bul o'pindaorında sonday bir soraw tuwıladı.

Balardı qaysi waqıtta psixologiyalıq tárepten mekteptegi oqıwǵa tayın dep esaplaw múmkin. Ayırım psixologlardıń pikrine qaraǵanda, bala mektepte oqıwı ushın

átiraptaǵı zat hám hádiyselerge tiyisli ádewir qıyallargá ıyelewi hám de málim dárejede intellektual tárepten úyrenge bolıwı kerek. Biraq ol turmısa sonday waqıyalar ushraydı, ádewir oyda sawlelendiriw baylıǵına iye bolǵan hám hátte jazıw hám de oqıwdı biletuǵın balalar da mekteptegi oqıwǵa tayın bolmaydı. Olar mektep hám oqıtıwshınıń talapların orınlay almaydı.

Kerisinshe, ayırım balalar jetkilikli oyda sawlelendiriw baylıǵına iye bolmasalar da, mektepte oqıp keta aladı. Lekin, bunnan mekteptegi oqıw procesi ushın málim dárejede intellektual tárepten ósken bolıw mektepte daslep oqıp ketiw ushın eń zárúr shártlerden biri bolıp tabıladı. Lekin bul balanıń oqıwǵa tayın ekenligin anıqlawdaǵı sheshiwshi faktor emes, sebebi bul jerde jas máselesi de bar. Basqa bir ilimpazlar, balanıń oqıwǵa tayın ekenin anıqlawdaǵı tiykarǵı zat shıdamlılıq nátiyjeleriniń jetilgenligi bolıp tabıladı, deydi. Bul pikir bir táreplilikke jol qoyıwdan basqa zat emes.

Jeti jasqa tolıw dáwiri balalıqtıń tamamlanıw dáwirine tuwrı keledi. Tap áne sol dáwirden baslap balalarda óz-ózin ańlaw sezimleri rawajlana baslaydı. Sol sebepli balalardıń jeti jasqa tolǵan dáwirinen baslap sistemalı túrde oqıtıwǵa ótiw maqsetke muwapıq bolıp tabıladı. K. D. Ushinskiyning pikrine qaraganda balanıń mekteptegi oqıw xızmetine tayınlıǵı ayırım psixik proceslerdiń rawajlanıw dárejesi menen emes bálki bala shaxsınıń ulıwma rawajlanıw dárejesi menen anıqlanadı. Tálimge psixologiyalıq tayarlıq degende balanıń ob'ektiv hám sub'ektiv tárepten mektep talabına múnásipligi názerde tutıladı. Ol mektep tálimine aldın psixologiyalıq tárepten tayarlanadı. Sonlıqtan, onıń psixikasi bilim alıwǵa jetkilikli dárejede rawajlanadı. Sol jastaǵı bala aqlınıń ótkirliǵı, ayqınlıǵı, anıqlıǵı óziniń qızıǵıwshılıǵı, isenimshilligi, oylawdıń ayqınlıǵı menen basqa jastaǵı balalardan ajralıp turadı. Mektep tálimine tayarlanıp atırǵan balada dıqqat salıstırǵanda uzaq múddetli hám shártli turaqlı boladı. Bala dıqqatınıń qásiyetleri rolli hám syujetli oyınlarda súwret sızıw hám qurıw soǵıw shınıǵıwlarında ılay hám de plastilindan oynshıqlar tayarlawda ózgeler sóylewin aql tárepten hám túsiniwde matematikalıq ámellerdi sheshiwde gúrriń tıńlaw hám dúziwde kórinedi.

Bala óz dıqqatın arnawlı bir ob'ektke toplawǵa intıladı. Onıń yadı qızıqlı ajayıp tańlanıwǵa salatuǵın maǵlıwmat hám hádiyselerdi puqta este alıp qalıw, este saqlaw,

eske túsiriw múmkinshiligine iye boladı. Sol dáwirshe tikkeley úlkenler bashılıǵında ol yamasa bul informaciyalardı ózlestirip kelgen bolsa endi óz qaleiw-shıdamlılıǵı menen zárúr maǵlıwmatlar toplawǵa óz aldına anıq maqset hám wazıypa qoyıwǵa háreket etedi. Balanıń áne sol aktivligi yadınıń arnawlı bir dárejede rawajlanǵanlıǵın ańlatadı.

ZIYREK BALALARDI TAŃLAW TEXNOLOGIYASI

*Arziev Alijan
QR XBXQTHOQAA Orayı aǵa oqıtıwshısı,
Saparbaeva Genjagul
Nókis qalası 11- mektep ámeliyatshı psixologi*

Ziyrek balalar – bul uliwma yamasa arnawli talantqa (muzikaǵa, súwretshilikke, texnikaǵa hám.t.b.) iye balalar hám mesinen burin kórimlik talantqa iye balalardi aniqlaw ańsat. Ilim tarawında matematikaǵa uqipti tez aniqlawǵa boladi. Júdá erte aqli jaǵınan rawajlanǵan balalardi vunderkind dep ataydi.

Biraq balanıń juda erte aniqlanǵan uqiqlari keleshekтеgi talanttıń birewi bola almaydi. Balanıń ajayip uqiqlarınıń belgileri jasına baylanisli. Uqiptiń bahasi tek testke ǵana tiykarlanbawi tiyis. Uqipti aniqlaw ha`m rawajlandiriwǵa arnawli mektepler (máselen: muzika, matematika mektepleri) fakultet sabaqlari, hár qiyli dógerekler, studiyalar, olimpiadalar, kózden ótkeriwler járdemlesedi.

Bunday balalardi oqitiw formalari olardi múmkinshiliklerine sáykes keliwi kerek. Ziyrek balalardi tańlaw 2 basqishta alip bariliwi kerek.

Birinshi basqishta:

- Topar oqiwshilarin jaqsi bilgen, balalar húrmetine sazawar bolǵan oqitiwshi yaki psixolog oqıtıwshilar menen sáwbetke kirisedi;
- Oqiwshilardıń qábiletleri hám qizigiwshiliqlari boyinsha bir – birine bergen bahalari úyreniledi;
- Ata-analardıń perzentleriniń qizigiwshiligi boyinsha pikirleri alinadi;

Bul maǵliwmatlar arnawli anketa hám sorawnamalar járdeminde alinadi (topar tapkirlarin tańlaw metodikasi).

Soǵan tiykarlanip topar quramındaǵı oqiwshilardıń qizıǵıwshiliq hám umtiliwleri haqqındaǵı maǵliwmatlar korreliyatsion analizlenedi hám uyimlastiriladi. Birinshi basqishta uliwma analiz alinip atırǵan oqiwshilardıń arasinan umtiliwi, qizıǵıwi, aqliy rawajlaniwi boyınsha joqaridaǵı kórsetkishlerge iye bolǵanlari saylap alinadi hám málim bir baǵdarǵa ajiratiladi.

Bular tómendegiler:

1. anıq pánler;
2. Tabiiy pánler;
3. Gumanitar pánler;
4. Kórkem óner tarawı (muzika, súwretshilik t.b)
5. Sotsial taraw;
6. Tillerge (invistikaliq qábiletler);
7. Basqariw tarawı, pedagogika tarawı;

Jeti baǵdardıń hár birinen topardıń aldingi aqliy rawajlaniwi ústin hám qábiletli oqiwshisi aniqlanadi. Bir toparda bunday oqiwshilar sani kópshilikti qurawi múmkin, bazida talapqa juwap beriwshi birde – bir oqiwshi shiqpawida múmkin.

Alınǵan maǵliwmatlar bilimlendiriw mekemesi boyınsha jıynalǵanda, jeti baǵdardıń hár birinde óz qizıǵıwi hám baǵdarlanganlıǵı menen ajiralip turatuǵın aktiv oqiwshilar dizimi júzege keledi. Joqarida kórsetip ótilgen jeti baǵdar boyınsha arnawli tayarlangan hár bir neshe basqish dawam ettiriledi.

Ekinshi basqishta:

Birinshi basqishta toparda saylangan aldagi, aktiv, aqliy rawajlaniwi ústin hám qábiletli oqiwshilar menen baǵdarlari boyınsha tereńlestirilgen psixologiyaliq diagnoz ótkeriledi.

Ziyreklerdi úyreniw psixologiyaliq diagnoz protsessi tómendegilerge tiykarlanadi:

1. Aqliy qábiletli ólshew (uliwma intellektiń joqarılıǵı);
2. Dóretiwshilik qábiletin ólshew (dóretiwshiliktiń ústinligi);
3. Pánlerdi ózlestiriw boyınsha erisken jetiskenlikleri (reyting nátiyjeleri,

bahalardín joqariligi);

4. Aqiliy hám dóretiwshilik qábiletlerinen kelip shigip berilgen tapsirmalarǵa jantas

5. Sotsial maslasqanliǵin aniqlaw (qarim – qatnasqa kirisiwshenligi);

6. Jeke qásiyetlerdi aniqlaw (individual psixologiyaliq qásiyetleri);

7. Oqiwshigá oqitiwshilardín, ata – analardín hám olardín bir – birine qábiletleri, qizigiwshiligi boyinsha boyinsha bergen bahalariniń mas keliwi.

Joqaridaǵilardín hár bir boyinsha aqliy rawajlaniwi ústin hám qábiletli oqiwshi aniqlanadi. Saylap alinǵan oqiwshilar haqqindaǵi maǵliwmat tálim mekemesi boyinsha jiynalip, 7 baǵdardín hár birinde óz qizigiwi hám baǵdarlanganligi menen ajiralip turatuǵin aktiv oqiwshilar dizimi júzege keledi. Ziyrek dep tabilǵan oqiwshilardi hár bir oqiwshigá qiziqli hám aqliy rawajlaniwin táminlew maqsetinde keń imkániyatlar hámde shárt – sháráyatlar jaratıw maqsetke muwariq.

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ МАКТАБГА МОСЛАШУВИНИНГ АЙРИМ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ

*Тухтаева Гулзода Курбоновна
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 2-мактаб психологи*

Мактабга қабул қилинадиган бола ўз ҳаётининг энг муҳим даврига, яъни, мактаб томонидан қўйиладиган турли-туман талабларни бажаришга, таълим олишга ҳам жисмоний, ҳам психологик жиҳатдан тайёр бўлиши лозим. Негаки, жисмонан соғлом бола мактабга тавсия этилар экан, у ақлий савияси билан ҳис-туйғулари ва ижтимоий онглилик даражаси билан маълум талабларга жавоб бериши керак.

Ақлий етуклик соҳасида диққат қилиниши зарур бўлган билиш жараёнлари ва ташқи муҳитни нечоғлик тўлик ва тўғри акс етира олишни аниқлаш муҳимдир. Таркибан бу ҳислатлар боланинг идроки, ихтиёрий

диққати, воқеа ва ҳодисаларни таҳлил қила олиши, сабаб ва оқибат тасаввурларининг шаклланганлиги, мантиқий тафаккур ҳислатлари, мантиқий хотира, мақсадли фаолиятни изчил бажара олиши, янгиликка интилиш, унга қаратилган мурожаатни қабул қила олиш, содда мақоланинг мазмунини тушуна олиш, бармоқларининг нозик ҳаракатлари ва кўз - ҳаракат мутаносиблиги каби кўпгина кўринишларни ўз ичига олади.

Мактабга етукликнинг ҳис-туйғулар соҳаси боланинг ҳулқ-атворида, руҳиятида турғунлик, ҳиссий муҳимлик ва мактабда ўқиш мотивларининг ҳиссий жозибadorлиги ва болани қамраб олган ҳаваслари билан характерланади.

Жисмоний етуклик;

- катта мия ярим шарларининг пешона қисмининг морфологик етилганлиги,

-боланинг оғирлиги бўйига мос келиши,

-умуртқа поғоналарининг ривожланганлиги,

- мускуллари ва майда маторикаси ривожланганлиги,

- сезги аъзолари ривожланганлиги,

- иштаҳа ва уйқунинг маромдалиги,

- ўпкасининг ҳажми мутаносиблиги,

- боланинг суяклари (кўкрак қафаси , тос, қўл суяклари),

- мия пўстининг аналитик–синтетик фаолияти такомиллашгани,

- кўзғалиш ва тормозланиш ўртасидаги мувофиқлик.

Ижтимоий етуклик деб - боланинг мактабда ўз тенгқурлари билан учрашиш, улар билан бирга бўлишга интилиш, ўқувчиларга ўхшаб мактаб тартибига кириш ёки итоат етиш, ўз зиммасига мактаб ўқувчиси бажарадиган вазифаларни олишга интилиш, ўқувчи бўлиб мактабга қатнашни, дарс қилишни, ўз қалам дафтарларига эга бўлишни орзу қилиш каби ҳислатлар тушунилади.

Мактабга психологик тайёрлик боланинг илк ўқув мотивларининг шаклланганлиги, билиш жараёнларининг (сезги, идрок, хотира, тафаккур, хаёл) етарли даражада ривожланганлиги, янги ижтимоий муҳитга мослашув ва жамоавий ҳамкорлик кўникмаларининг мавжудлиги, маънавий-руҳий салоҳият, шунингдек, ақлий имкониятларнинг таълим талабларига мутаносиблиги билан изоҳланади.

Мактабга келгунга қадар, мактабгача ёшдаги болаларнинг индивидуал - психологик ҳусусиятларидан келиб чиқадиган бўлсак, ушбу ёшда асосий фаолият тури ўйин ҳисобланади. Шу сабабли олти ёшли болалар билан ишлашда психологик - педагогик ташхиснинг асосий шарти: «Болани имтиҳон қилиш эмас, у билан ўйнаш керак!»;

Топшириқларни эркин бажариши учун табиий шароит яратиш лозим. Ташхис жараёнида ота-онанинг иштирок этиши, айрим топшириқларни улар ёрдамида болага бажартириш ҳам ана шу табиий муҳитни содир этади.

Боланинг мактабга мослашуви асосан 4 ҳафтадан 7 ҳафтагача давом этади. Болаларда мослашув жараёни икки хил кўринишда намоён бўлиши мумкин.

-баъзилар жуда ҳам шўх, кўп қичқирадилар, дарс жараёнида кўп чалғийдилар, кўпинча ўқитувчиларга бўйсунмайдилар.

-бошқалари эса аксинча, тортинчоқ, ички дунёсига йўналган, кўзга ташланмасликка ҳаракат қилади, ўқитувчи унга мурожат қилганда тортинади.

Арзимаган мувафакқиятсизлик ва танбех учун йиғлайдилар. Баъзи болаларда уйқу, иштаха бузилади, жуда қайсар бўлиб қоладилар. Бирданига жуда кичкина болаларга мўлжалланган ўйинларга, ўйинчоқларга китобчаларга қизиқиш ортади, касалликка кўп чалинади. Ушбу бузилишларнинг барчасини одатда функционал ортда қолиш дейилади.

Буларнинг ҳаммаси бола психикасига ортиқча оғирлик келиб тушганидан келиб чиқади.

Мослашув жараёни айниқса 3 йиллик бошланғич таълим дастури асосида таълим оладиган ўқитувчиларда оғирроқ кечади, чунки улар интенсив равишда кечадиган ўқув жараёнига киришлари зарур. Боланинг мактабга мослашувида умумтаълим мактаби амалиётчи психологнинг фаолиятида икки хил йўналишда иш олиб бориш лозим.

Биринчи йўналишда амалиётчи психолог фаол бўлиши, ўқувчиларга тез ва яхши мактабга мослашувида ёрдам бериши керак, ўқитувчига эса ҳар бир болага алоҳида индивидуал психологик ёндошув методлари орқали уларга ёрдам бериши керак. Бунда психолог алоҳида эътиборни функционал ортда қолиш уйқунинг бузилиши, невротик ҳолатлар белгилари мавжуд болаларга қаратиши мақсадга мувофиқ.

Иккинчи йўналишда психолог шу вақтда синфни кузатиб ҳар бир боланинг психик таррақиёти ҳақидаги маълумотларни йиғишга сарфлаши ва фақатгина қалтис вазиятлардагина аралашуви зарур, албатта ҳар бир кузатилган ҳолат бўйича ўқитувчи ва ота-онани хабардор қилиши зарур.

Шунингдек, бу ёшда бола билан бирга ота-она боланинг кун тартибига эътиборли бўлиши, дарсларни бирга бажариши, “Дарсингни тайёрладингми?”, деб эмас, балки кел бирга тайёрлаймиз мазмунида бола билан дўстона психологик яқинлик муносабатларини шакллантирса, у албатта шахс бўлиб ривожланишига ишонч билдириш мумкин.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Э.Г'.Г'озиев. К.К.Мамедов "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2003
2. F.R.Abduraxmonov. Z.E.Abduraxmonova. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2018.
3. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to'plami. Toshkent. 2020.

4. Стрелкова Л.П. Уроки сказки. – М.: Педагогика, 1989, 53 ст.
5. Соколов Д.Ю. Сказки и сказкотерапия. – М.:Класс,1997, 94 ст.

ANTISOTSIALLIK VA UNING KORREKSIYASI

Qutimova Malohat Tulibayevna
Gurlan tumani 42-AFChO'I maktabi amaliyotchi psixologi

O 'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodni tarbiyalaydigan o'qituvchilarga, ertaga o'rnimizga keladigan kadrlarga bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash masalasiga Respublikamizning Birinchi Prezidenti katta e'tibor berganliklarini, ularning quyidagi fikrlaridan bilib olishimiz mumkin: «Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammolarni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat baribir kadrlarga yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz mamlakatimiz kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacha qilib aytganda qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq». Barcha qonun va qarorlar orasida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» alohida o'rin tutadi va unga milliy g'oyaning bir qismi sifatida qaraladi. Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi. Har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berish ishlarini esa o'qituvchilar amalga oshiradilar.

Hozirgi zamon psixologiyaning fani va amaliyoti shaxs faoliyatini ijtimoiy sohadan ajralgan holda o'rganish murakkab ekanligini takidlamogda. Shaxs psixologiyasi haqida malumotlar berilishini takidlagan holda bularda asosan shaxs

rivojlanishining ijtimoiy jihatdan mavjud qonuniyatlarini o'rganishga ko'proq e'tibor berish talab etiladi.

Har bir insoning shaxsi ta'lim, ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Natijada u ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan vazifalarni bajaradi, ijtimoiy rolni o'zlashtirib oladi, o'zining qiziqishi, qobiliyatini ijodiy mulohaza qilib ko'radi, jamiyatning boshqa a'zolari bilan mustaqil munosabatga kirishadi va shu tariqa shaxsning ijtimoiylashuvi yuz beradi.

Hozirgi kunda ijtimoiy hayotga moslasha ololmayotgan bolalar talayginadir. Bunday bolalar antisotsial bolalar deyiladi.

Antisotsial (odamovilik) – og'ish bo'lib, muloqot doirasining torayishi, atrofdagilar bilan emotsional munosabatda bo'lish imkoniyatining kamayishi, yangi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishda yosh davrlariga xos bo'lgan qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladi.

Bu og'ishning sababi quyidagilar bo'lishi mumkin: Uzoq davom etgan stress (masalan ota-onaning ajrashishi), emotsional muloqotning yetishmasligi (masalan, uzoq vaqt kasalxonada bo'lish, yoki ba'zan bolaning ota-ona uchun kutilmagan yoki istalmaganligi, ota-onaning bolaga mehr ko'rsatmasligi), emotsional sferaning o'ziga xos individual patologik xususiyati (psixik jarayonlarning sustligi va h k).

Antisotsial (odamovilik) bolaning munosabat o'rnatishi va uning davom ettirish imkoniyatini kamaytiradi, tez-tez ota-onasi va tengdoshlariga, odamlarga salbiy munosabat chaqiradi. Bu bolaning axvolini yanada chuqurlashtirib, og'irlashtirib yuboradi. Antisotsial bola yolg'izlikda yashashga o'rganib qoladi va bu uning shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Muloqotga ehtiyojni emotsional kontakt bosadi, odamovilik bolani ijtimoiy ta'sirlardan himoya qiladi. Agar bola juda ta'sirchan bo'lsa odamovilik uning psixikasini zo'riqishdan himoyalaydi.

Antisotsial bola qovog'i solingan, norozi bo'lib ko'rinadi. Shu sababli ota-ona «Biz unga barcha sharoitni yaratib berganmiz, u yana nimadan norozi» deb xafa bo'lishadi. Bu holatda ota-onaning «minnatdorlikka munosiblikni» da'vo qilishlari bolaning ahvolini battar og'irlashtirib yuborishi mumkin. Bola bu narsani o'zining olamiga bostirib kirish deb baholaydi. Bolaning «Nimaga men bilan gaplashmaysiz,

nimaga mening ko`zimga qaramaysiz» kabi savollari ular bilan munosabat o`rnatishga to`sqinlik qiladi. Antisotsiallik uyatchanlikdan sifat darajasi bilan farq qilganidek autizmdan ham farqlanadi. Uyatchanlik ijtimoiy muloqotga kirishishning yaxshi shakllanmaganligi natijasi. Shu sababli uning korreksiyasi bola ta'limiga muloqot malakasini qo`shish, o`zgaralar harakatini tahlil qilish va o`zlashtirishni eplay olish xolos. Antisotsiallik uchun bunga o`xshash harakat korreksion ishning yakuniy bosqichi xolos. Ba`zida ijtimoiy kompetentlikning oshishi parallel holatda korreksiyaning boshqa turini o`tkazishni talab qiladi (tugallovchi bosqichda lekin bu hech qachon asosiy korreksion harakatdan ilgarilab ketmasligi kerak.

Antisotsial bola bilan korreksion ish

Antisotsial bola bilan korreksion ishning mohiyati bolani atrofdagilar bilan emotsional munosabat o`rnatishiga yordam berishdan iborat.

Antisotsial bola bittagina oynasi ochiq qolgan xonaga o`xshaydi (masalan, otalarning bittasi bilan munosabat). Korreksiyada bu imkoniyatdan foydalanishi kerak, ammo unitmaslik kerakki, agar u ijtimoiy samara bermasa ham munosabat o`rnatishning oxirgi yo`li yopilishiga yo`l qo`ymaslik psixologning burchi.

Korreksiyaning bu qoidalari antisotsial (odamovi) bola bilan ishlashning asosiy yo`nalishlarini beradi:

1. Buzilishga olib kelgan sabablarini bartaraf etish.
2. Bolaning muloqotga bo`lgan ehtiyojini, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatini tiklash yoki qayta qurish.
3. Bolaning oila va tengdoshlar guruhi bilan munosabatlarini tartibga solish (nafaqat bolani boshqa odamlarga «o`g`irish», balki bola ular o`ylaganidek, yomon yoki yovuz emasligini ko`rsatish).
4. Bolaning muloqot malakasi ta'limi va aloqa o`rnatish.

Bola ta'sirchanligining yuqoriligi sababli korreksiya juda qiyin kechadi, shu sababli u sekin-asta olib borilishi kerak.

Antisotsial bola bilan diagnostika ishi quyidagilar bo`lishi mumkin:

1. Birinchi uchrashuvda psixolog bolaga to`g`ridan-to`g`ri savol berishdan (Sening oting nima? kabi), bolaga ko`z tashlab qo`yishdan, uning «o`ychanligini» aniqlash

uchun «yopishib» olishdan, kuchli sezgi uyg'otishdan qochish kerak. Bola bilan munosabat o'rnatishning boshlanishida bosim o'tkazmaslik lozim. Munosabatda salbiy tajribaga ega bo'lgan bola uni yana o'zi uchun yoqimsiz bo'lgan vaziyatga tortayotganlarini tushinmasligi lozim.

2. Psixolog qilayotgan harakat bolaning o'zi qilayotgan harakat ramkasidan chiqmasligi lozim. Unga o'zining o'yinini taklif qilish emas, balki bola nima qilayotganligini kuzatib, u bilan birga shug'ullanishi lozim.

Antisotsial bolalar bilan ota-ona, maktab o'qituvchilari va psixolog doimo birgalikda ish olib borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rivojlanish psixologiyasi, Zamira Nishonova – ps.f.,prof. Toshkent -2019
2. Ijtimoiy reabilitatsiya, Haydarov F.I. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Toshkent – 2008
3. Defektologiya asoslari, Rahmanova V.S., Toshkent – 2017

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

*Omonboyeva Yulduz Xajiboy qizi
Xorazm viloyati Xonqa tumani tasarrufidagi
6-son Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti*

“O'yinsiz to'liq aqliy rivojlanish bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. O'yin - bu bolaning ruhiy olamiga hayot beruvchi g'oyalar va tushunchalar oqimi oqib o'tadigan ulkan yorqin oyna. O'yin - bu izlanuvchanlik va qiziquvchanlik alangasini yoqadigan uchqundir”. V.A. Suxomlinskiy.

Didaktik o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim va tarbiya vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Didaktik o'yin ta'lim bilan bevosita bog'liq bo'lib, unga yordam beradi. Didaktik o'yin-bu-maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh va

imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim berish metodidir. Tajribali tarbiyachi bu o'yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo'rqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi. Didaktik o'yinni amalga oshirishda har doim g'oyaviylik prinsipiga asoslanish kerak. Didaktik o'yin tarbiyaning vazifa hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim. Didaktik o'yinlar bolalarni birgalikda o'ynab, o'z manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishi, bir-biriga ko'maklashish va o'rtog'ining muvoffaqiyatidan xursand bo'lishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. O'yinlar shaxsning sofdillik, rostgo'ylik kabi ijobiy hislatlari shakllanishiga imkon beradi. Loto, domino kabi ko'pgina o'yinlardan (bolalarning o'zlashtirishiga qarab) mustaqil ravishda foydalaniladi va bu o'yinlar tashkilotchilik qobiliyatini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Didaktik o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, didaktik o'yin bolalarning aqliy faoliyatini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Bunday o'yinlarga kichik bolalar uchun "Rangiga qarab top", "Shakliga qarab top", "Mazasiga qarab top" kabi o'yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Katta guruh bolalari uchun "Ishchilar nimalar va qanday ishlarni bilishadi", "Dehqonlar nimalarni yetishtirishadi", "Kim ko'proq narsaning nomini ayta oladi" va boshqa o'yinlarni ko'rsatish mumkin. Didaktik o'yinlar bolalarni tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o'zlashtiradilar. Didaktik o'yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha ko'p quvonch bag'ishlaydi. Didaktik o'yinning muhim tomoni—uni o'tkazishdan ko'zda tutiladigan g'oyadir. O'yin g'oyasi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otadi, ko'pincha bu g'oya didaktik o'yinni boshlashga sababchi bo'ladi.

Masalan, “Xaltachada nima bor?” yoki “Kim qanday qichqiradi?” va shunga o‘xshashlarda bir didaktik o‘yinda o‘yin mazmuni, g‘oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo‘ladi. Unda qoidaning mavjudligi harakat yo‘nalishini yoki o‘yinning borishini belgilab beradi, bolalarning hulqini, o‘zaro bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini boshqarib, kerak tomonga yo‘naltirib turadi. Qoida bolalar harakatini baholovchi o‘lchovdir. Didaktik o‘yinda amal qilinadigan qoidalar o‘yin harakatlarning to‘g‘ri noto‘g‘riligini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon hisoblanadi Bolalarning biror bir bolaga nisbatan “U o‘yin qoidasini buzib o‘ynayapti” deyishlarining o‘zi ularning o‘yin qoidalariga qandaydir o‘zgartirib bo‘lmaydigan qonundek munosabatda bo‘lishlarini ko‘rsatadi. Bolalarning o‘yin qoidalarini o‘rganib olishlari va ularga rioya qilishlari, ularda mustaqillikni, o‘yin jarayonida o‘zo‘zini, o‘zaro birbirlarini nazorat qila bilish qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi. O‘yinning natijasini ikki nuqtai nazardan: bolalar va tarbiyachi nuqtai nazaridan baholash lozim.

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xalbayeva Gulnoza Arshidinova
SamDU 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье указывается необходимость обращение внимание на использование инновационных технологий в учебно-воспитательном процессе в учебно-воспитательных учреждениях.

Abstract. This article deals with significant features of using innovative technologies during teaching process of educational institutions.

Kalit so‘zlar: pedagog, shaxs, jamoa, jarayon, usul, sayr, texnologiya, o‘yin.

Ключевые слова: Педагог, личность, коллектив, процесс, метод, прогулка, технология, игра.

Keywords: Educator, person, community, process, method, trip, technology, play

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-son farmoni, 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-sonli qarorida ta’kidlaganidek, maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘in hisoblanib, u har tomonlama sog‘om va barkamol bola shaxsini tayyorlash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu farmonga muvofiq maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash ta’lim tarbiya jarayoniga zamonaviy dastur va texnologiyalarni tatbik etish, bolalarni har tomonlama intellektual axlokiy estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratishdan iborat. Dasturning asosiy vazifalari sifatida ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda bolalarni intellektual axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan. Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta’limiga tayyorlash kabi talablarini belgilaydi. Bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalari, ularning har tomonlama rivojlanishi hamda maktab ta’limiga tayyorgarlik darajalari davlat talablarda nazarda tutilgan mashg‘ulot va faoliyatlarni o‘tkazish jarayonida indikatorlarning bajarilishini kuzatish, o‘rganish, tahlil qilish va baholash orqali aniqlanadi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. O‘yin texnologiyasi ham o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Pedagogik ijrochilik o‘yinlarini bola uch yoshdan boshlab o‘zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o‘zida ichki kechinmalarni seza boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi. Maktabgacha yoshda bolalar o‘yin faoliyatini o‘zlashtira borib ijtimoiy qadrlil va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llaniladigan pedagogik o‘yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko‘taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o‘zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o‘ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo‘qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi.
6. Bolalar shaxsi srukturasiga ijobiy korreksiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag‘rikenglikni shakllantiruvchi.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o‘yinlar.

Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlarni o‘quv tarbiya jarayonida qo‘llash quyidagi o‘ziga xos xarakterga ega bo‘ladi.

Birinchiidan, rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo‘ladi.

Ikkinchiidan, o‘yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g‘ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog‘ozlar, konstruktor-mexanik majmualarida turli rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi.

Uchinchiidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta’minlash maqsadida ularni osondan qiyinga tomon, aniq vaqt oralig‘ida sifatli bajarilishini ta’minlash darkor. Maktabgacha ta’lim muassasalarida interfaol o‘yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o‘yinlar jarayonida bola passiv ob’ektdan faol sub’ektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o‘yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.

Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o'yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zarur bo'lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o'yinlarni samarali o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim:

1. Mashg'ulot oldidan bolalar o'yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.

2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.

3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish.

4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.

5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.

6. Bolalarga rollarni to'g'ri taqsimlash.

7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.

8. O'yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lish va natijalarini tahlil qilish.

Psixologik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak.

Buyuk Britaniyada odatda ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas balki bolaga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta'limi tarixiga asoslanib uning rivojlanishiga Russo, Frebel, Montessori ta'sir ko'rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak deb hisoblaydilar. Maktabgacha tarbiyaning asosiy maqsadlari: har bir bolaning ehtiyoji va uning manfaatlarini qondirish, bolalar o'rtasidagi farqni hurmat qilish. Bunda bola o'qish uchun ichki intilishga ega, qiziquvchan va tabiatan serg'ayrat, deb taxmin qilinadi. O'qitish bolaning o'zi taklif qilgan o'yini davomida olib borilishi kerak. Ustozning asosiy vazifasi bolaga uqtirish yo'li bilan emas, balki o'yinni qo'llab turish, unga tadqiqot o'tkazish uchun turli materiallar taqdim etishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda yozish va o'qishdan tashqari

qo'shiq kuylash, she'r aytish, raqsga tushish o'rgatiladi, eng kichik yoshdagilar esa eng mayda motorika mashqlarini bajaradilar, abstract fikr yuritishga mo'ljallangan o'yinlar o'ynaydilar, bir birlariga yordam berishda ularda o'zaro hamkorlik ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu bilan birga ranglarni ajratish, raqam va harflarni o'rganadilar. MTTlarida tarbiyachilar bolalarning ham rivojlanishi, ham ruhiy shakllanishi darajasi diagnostikasi uchun mazmuniy – rolli o'yinlar, rasm chizish va narsalar yasash juda foydali usul deb hisoblaydilar.

Xulosa tariqasida aytish joizki, xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirib, zamonaviylashtirishga imkon yaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" PF-5198-son farmoni // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PK-3261- sonli qarori. 2017 yil.
3. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. T., 2018 y.
4. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017 yil 11 - son
5. Maktabgacha ta'lim jurnali. 2016 yil 7 – son

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZLASHTIRMOVCHILIKNING OLDINI OLIHGA YO'NALTIRILGAN TADBIRLAR

Urolova Umida
Pastdarg'om tumani 128-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchilikning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlari keng yotirilgan.

Аннотация: Эта статья охватывает широкий спектр мер, направленных на предотвращение плохого поведения в начальных и средних школах сегодня

Abstract. This article covers a wide range of measures aimed at preventing misbehavior in primary and secondary schools today

Kalit soʻzlari. Maktab, taʼlim, oʻqituvchi, boʻsh oʻzlashtiruvchi oʻquvchilar, javobgarlik, tartib, intizom

Ключевые слова. Школа, образование, учитель, досуг учеников, ответственность, дисциплина, дисциплина

Keywords. School, education, teacher, leisure students, responsibility, discipline, discipline

Respublikamizda taʼlim va tarbiya borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati bilimdon, aqlan rivojlangan, ongli, zamonaviy dunyoqarashga ega, jismonan sogʻlom, axloqan pok, erkin, ijodkor, komil insonni shakllantirishdan iborat. Mamlakatimizda sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash, farzandlarimizni ijodiy va intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarish, ularni XXI asr talablariga toʻliq javob beradigan shaxslar qilib voyaga yetkazish barchamizning ezgu vazifamiz. Boshlangʻich sinf oʻquvchilar shaxsining shakllanishi oʻquv faoliyati kichik maktab yoshidagi oʻquvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bogʻliq boʻlgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. ga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zoʻriqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bogʻcha davridan boshlab yuzagakela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek oʻsmirlik davrida ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Kichikmaktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, oʻzlariga oʻzlari baho beradilar.

Ilgʻor oʻqituvchilar ishidagi tajribalarni umumlashtirish va eksperimental tadqiqotlardan maʼlum boʻlishicha oʻzlashtirmaslikning oshirilishi boʻyicha umumlashtirish taʼbirlaridan tashqari dastlabki jamoalardan sinflararo guruh va individual profilaktik tadbirlar ham zarur. Boshlangʻich sinflarda oʻzlashtirilmislikning

oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish, avvalo, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishni taqozo etadi.

Sinfda o'tkaziladigan tarbiyaviy ta'sir o'qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilik va o'quvchilar tashkilotlarining kuchlarini o'quvchilarning o'qish muvafaqqiyatiga tarbiyaning ta'sirini oshirish maqsadida birlashtirish bilan bog'liq. O'qishda qiynalayotgan bolalarga nisbatan qulay ahloqiy iqlim yaratish muhimdir. Bunda birinchi navbatda bolaning ustidan kulish, haqoratlashlariga yo'l qo'ymaslik, ta'sirini antipedagogik usullarga yo'l bermaslik zarur.

Bunday iqlim yakdil tashkil e'tilgan jamoadagina yaratish mumkin. Shuning

O'zlashtirmaslikning oldini olish uchun sinfda o'tkaziladigan tadbirlar.

uchun ham o'zlashtirmaslikning oldini olishning muhim tarbiyaviy ta'sirlaridan biri o'quvchilar jamoasida birdamlikni tarbiyalash, o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda yoshlar

tashkilotining rolini oshirish bo'yicha tadbirlar tashkil e'tish muhim hisoblanadi.

Jamoa barcha tarbiyaviy kuchlarning maqsadga yo'naltirilgan ta'siri va birlashishi natijasida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi o'zini-o'zi tarbiyalashi va o'qishga qiziqishi oshadi.

O'quvchilarni o'zlashtirmaslik sabablari haqidagi psixologik pedagogik konsimum xulosasi bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq, uy vazifalarini bajarishning oqilona yo'llarini ko'rsatish, uy vazifalarini bajarishga ketadigan vaqtni domo tahlil qilish zarur.

Boshlang'ich sinflarda o'quv ishlarini tashkil etish elementlarini egallash bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil e'tilishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarning o'z kun tartibini oqilona tashkil e'tishga o'rgatish, uyda va maktabda mustaqil o'quv ishlarini asosiy bosqichlarini ajratish, kitob bilan to'g'ri ishlash, o'quv va mehnat topshiriqlarini bajarishda domiy o'z o'zini tekshirishni, amalga oshirishga qaratish lozim. Diqqat, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlarini rivojlantirish yo'llari bilan o'quvchilarni tushuntirish muhim.

Tarbiyaviy ishlar vositasida o'zlashtirilmaslikning oldini olish sinf jamoasi hayotini shunday tashkil etish bilan bog'liqki, bunda har bir o'quvchi, ayniqsa, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning rivojlanishiga aloqani his qiladi. Ular bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Bu esa sinfdan tashqari ishlarining har xil shakllarini tashkil etish va har

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan guruh va individual tadbirlar.

xil o'quvchini maktabdagi o'zini o'zi boshqarish organlari tizimiga jalb etishni anglatadi.

Bunday ishlarni tashkil etishda o'g'il va qiz bolalarning qiziqishlari hisobga olinishi, o'quvchilarda mustaqillikni rivojlantirishga olib keladi. Bu ishda o'quvchilarga ota onalari yordam berishi mumkin. O'quv yili boshida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar ota – onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish uchun barcha chora tadbirlarini ishlab chiqish, ularning uylariga borish, farzandlari o'zlashtirilmaligini oldini olish bo'yicha hamkorlikda ishlarini ishlab chiqish lozim. Oilaning tarbiyaviy ta'siri mahsuldorligini oshirish maqsadida ota – onalar majlislarida bolalarning har tomonlama rivojlanishi va tarbiyasidagi ularning rolini oshirish haqidagi masalalarni muhokama qilish zarur.

O'qishda orqada qolishning oldini olish olish bo'yicha sinfdagi tadbirlar individual ishlar bilan olib borish lozim. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'quv ishlarni oqilona rejalashtirish va tashkil etishda ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga, muhimini ajratish ko'nikmasiga o'qishda o'z o'zini nazorat qilish uy vazifalarini bajarishga, oraliq va mustaqil ishni shakllantirishga e'tibor berish lozim.

Maxsus to'garaklardan ma'lum bo'lishicha boshlang'ich sinflarda uy vazifalarini bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni nisbatan ko'proq yordam yo'li bilan yechimda o'quvchilar qiynaladigan savollarni o'zlashtirishini, albatta, nazorat qilinishi zarur. Dars qoldirgan o'quvchining o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganligini nazorat qilish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi tarbiyaviy ta'sirlarni tanlashda, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi ham jamoat topshiriqlaridan chetga qolmasligi, balki bunday topshiriqlarga faol ishtirok etishiga e'tibor qaratmog'i lozim. O'quvchilarda bu topshiriqlarni bajarish jarayonida ongli tartib intizom va javobgarlik hissi shakllanadi.

Ba'zi hollarda topshiriqlarni almashtirib turib, oldindan turlicha yordam ko'rsatib, o'ziga ishonch va hissiy faollikka undash uchun o'qishda va mehnatda muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish ham mumkin. Javobgarlik va tartib – intizom evaziga bazi o'quvchilarning o'zlashtirishi yaxshilanayotganligini doimo ta'kidlash lozim.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi shaxsining irodaviy intellektual va hissiy sohalarida o'zaro muvofiqlik yo'qligini hisobga olib, topshiriqlarini va o'z – o'zini tarbiyalash vositalarini topishda har kuni yordam ko'rsatish lozim. Bu ishlarni xulosa qilganda jamoa oldida qo'llab quvvatlash orqali ularni rag'batlantirishi mumkin. Bunday hollarda o'quvchilar o'zlashtirmasliklarining oldini olish chora tadbirlari bilan bir qatorda uni yo'qotishga qaratilgan tadbirlar ham zarur bo'ladi. Agar o'zlashtirmaslikning oldini olish bo'yicha tadbirlar umum sinfiy va guruhiviy xarakterga ega bo'lsa, o'zlashtirmaslikni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar individual xarakterga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avlayev O., Jurayeva S.N., Mirzayeva S.R. "Ta'lim metodlari" T. "Navro'z". 2017
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish – T.: "Fan va texnika" 2008 y.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA O'QITUVCHINING KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

*Ishonqulova Norbiyi Islamovna
SamDU o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik faoliyatda o'qituvchining kompetentligini shakllantirish muammolari keng yotirilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается широкий круг вопросов, связанных с формированием компетентности учителя в педагогической деятельности в общеобразовательных средних школах.

Abstract. This article covers a wide range of issues related to the formation of teacher competence in pedagogical activities in general secondary schools today.

Kalit soʻzlari. Pedagog, pedagogik mahorat, ijodkor, tashabbuskor, oʻquvchi, taʼlim

Ключевые слова. Педагог, педагогическое мастерство, творческий, предприимчивый, школьник, образование

Keywords. Educator, pedagogical skill, creative, enterprising, pupil, education

Mustaqillikni mustahkamlashda, kadrlar tayyorlashning milliy modelini roʻyobga chiqarishda, har tomonlama kamol topgan, jamiyat oldiga qoʻygan turmush sharoitlariga moslasha oladigan, taʼlim – tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlik hissini seza oladigan yoshlarga taʼlim va tarbiya berishda oʻqituvchilarning maʼnaviy roli muhim hisoblanadi.

Kishining tevarak-atrofdagi munosabat, birgalikdagi faoliyat va ijodiy ish jarayonida namoyon boʻladigan ijtimoiy ahamiyatga molik oʻzgarishlar qilish layoqati shaxsning ijtimoiy faolligi sifatida tushuniladi. Inson faolligi “harakat”, “faoliyat”, “xulq” tushunchalari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib shaxs va uning faolligidir. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, oʻz-oʻzini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos boʻlgan, eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir.

Pedagog kasbi oʻta individualdir. Har bir pedagogning bosh vazifasi – oʻz ishining ustasi boʻlish. Pedagogik mahorat oʻz kasbi sohasida individuallikni yorqin ifoda etish sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat unsurlari kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur boʻlgan koʻnikmalar bilan belgilanadi. Koʻnikmalarining quyidagi guruhlari farqlanadi:

1. Loyihalash koʻnikmalari.
2. Konstruktiv koʻnikmalar.

3. Tashkilotchilik ko‘nikmalari.

4. Kommunikativ ko‘nikmalar.

5. Gnostik ko‘nikmalar.

Pedagogik mahorat zamirida pedagogik kompetentlik yotadi. Pedagogik kompetentlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me‘yorlar, standartlar va talablarga muvofiq pedagogik funksiyalarni bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi professional-shaxsiy xususiyatlar tushuniladi. Professional-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok etish va unga izchil ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Professional kompetentlik o‘z faoliyat sohasida erkin mo‘ljall olishni nazarda tutadi. Insonning kasbiy layoqati – muayyan ish funksiyalarini o‘zlashtirish va muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar, jismoniy, ruhiy va axloqiy fazilatlarining zaruriy majmui. Pedagogik faoliyatga loyqlikni tavsiflovchi shaxsiy fazilatlar qatoriga yoshlar bilan ishlashga moyillik, kirishimlilik (boshqa odamlar bilan til topa olish), sipolik, kuzatuvchanlik, zehni o‘tkirlik, tashkilotchilik qobiliyatlari, o‘ziga o‘ta talabchanlik kiradi. Bu fazilatlarining barchasini aniqlash va sinovdan o‘tkazish mumkin. Pedagog o‘z kasbiy bilimlari va mahoratini oshirishi uchun pedagogik faoliyatning tarkibiy tuzilishini aniq tasavvur qilishi lozim.

Pedagogga zarur bo‘lgan kasbiy bilimlar: pedagogika va psixologiya, bola rivojlanishi fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi. Ushbu bilimlar bolani o‘rganish, uning qilmishlari va xulq-atvorini, o‘zaro munosabatlari xususiyatlarini, boshqa bolalar guruhiga moslashuv yo‘llarini tahlil qilish uchun zarur. Pedagog ta’lim oluvchilar faoliyati va hamkorligini tashkillashtira olishi lozim. Pedagogik texnologiya tushunchasi mavjud bo‘lib, pedagog uni ham yaxshi bilishi zarur. Bu tarbiyalanuvchilarga ta’sir ko‘rsatish usullari va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishni anglatadi. Pedagogik texnika va shakllangan ko‘nikmalar pedagogni kasbiy mahorat cho‘qqilariga olib keladi. Bu tarbiyalanuvchini tushuna bilish, qilmishga, insonga o‘z munosabatini bildira olish, ayni vaqtda o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tahlil qilish qobiliyatini anglatadi. Pedagog har bir bola bilan til topa olishi lozim. U pedagogning har bir so‘zi bola hayotida ulkan o‘yin o‘ynashini yodda tutishi kerak.

Pedagog nutq madaniyati va texnikasiga e'tibor berishi lozim. Nutq madaniyati o'z fikrini aniq, lo'nda va o'rinli bayon etish ko'nikmasi bilan belgilanadi. Nutq texnikasi nafas olish, ovoz va diksiya usullari bilan belgilanadi. Bularning barchasini uzoq mashq qilish yo'li bilan o'zlashtirish mumkin. Pedagog teatr pedagogikasi unsurlarini ham o'zlashtirishi muhimdir. Zero pedagog ishi rejissyor ishi, aktyor ijodiga yaqin turadi. Pedagog tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi, tez qaror qabul qilishi va ishni tez tashkillashtira olishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va boshqalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. O'qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi bir qator sifat va xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

9. O‘qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda va bejirim kiyinish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning diqqatini ko‘p jalb etuvchi turli xil bezaklar (qimmatbaho taqinchoqlar va yorqin rangli pardoz-andoz vositalari)dan ortiqcha va o‘rinsiz foydalanmaslik, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishga odatlanish kabilar) ega bo‘lishi lozim.

10. O‘qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o‘rnak bo‘la olishi lozim. O‘qituvchi shaxsining mazkur talablarni o‘zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasi uning o‘quvchilar va hamkasblari hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

Uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko‘rsatkichi – sifat va samaradorlik aynan o‘qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy aloqadordir. Uning kasbiy talabnomasi (professiogrammasi) kun sayin kuchaymoqda. “Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevoridir”,-degan shior kun tartibiga o‘rnili kiritilgan mustaqillik yillarida bu masalaning echimi o‘qituvchi va tarbiyachi shaxsiga yanada mustahkam aloqador bo‘lib qoldi. Boisi, o‘qituvchi tajriba va malakasining uyg‘unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O‘qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo‘lishi lozimligini mazkur darslik epigrafidagi buyuk nemis pedagogining fikri ham tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015

SUITSID VAZIYATIGA MOYIL BOLALARGA PSIXOLOGIK YORDAM

A'zamova Dilbar

Farg'ona shahridagi Prezident maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarda yuzaga kelayotgan tanglik vaziyati, taglik vaziyatida qolgan bolalarga psixologik yordam ko'rsatish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik, tanglik vaziyati, psixika, bilish jarayonlari, referent guruhlar, o'tish davri, kompensatsiya, giperkompensatsiya, agressivlik.

Bugungi kunda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash eng ustivor vaifalardan biridir. Ruhiiy sog'lom, ma'naviyati yuksak, jismoniy va aqliy yetuk farzandlar yurt kelajagidir. Hozirgi kunda fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi nafaqat jamiyat hayotiga balki o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Buning natijasida o'quvchi yoshlarimizda psixologik tanglik, qiyin vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Albatta bunday tanglik holatlari o'quvchining jismoniy, psixik va aqliy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Tanglik vaziyati-shaxsning psixikasida ro'y beradigan hissiy zo'riqishlarni kuchli darajada namoyon bo'lishidir. Bunday holat shaxsning bilish jarayonlariga, aqliy faoliyatiga, shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o'rniga bog'liqdir. Shuningdek, bu holat shaxsdagi xulq-atvor me'yorlarida ham o'ziga xos o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

O'smirlarni tengdoshlari o'rtasida uni qoniqtiradigan o'ziga xos o'rinni egallashga intilish xulq-atvor me'yorlariga va referent guruhlar qadriyatlariga yuqori darajada qiziqish bilan qo'shilishi kuzatiladi. O'smir psixikasidagi o'tish davri unda bolalik va kattalik xususiyatlarini birgalikda bir vaqtda mavjud bo'lishi bilan izohlanadi. O'smirlik yoshida odatda kichikroq yoshdagilar uchun xarakterli bo'lgan xulq-atvor reaksiyalariga moyillik ko'pincha saqlanib qoladi. Ularga quyidagilar taalluqli:

1.Voz kechish reaksiyasi. U xulq-atvorning oddiy shakllaridan munosabatlar, uydagi majburiyatlar, o'qish va boshqalardan voz kechishida ifodalanadi. Aksariyat

hollarda odatiy hayot sharoitlaridan keskin uzilishlar (oiladan uzilish, maktabni o`zgartirish) sabab bo`ladi.

2.Qarshilik, qat'iy norozilik, e'tiroz reaksiyasi. U o`z xulq-atvorini talab qilinayotganlarga qarama-qarshi qo`yishida namoyon bo`ladi: namoyishkorona mardlik, sababsiz darsga kelmaslik, qochish, o`g`rilik qilish va hatto norozilik sifatida amalga oshiriladigan bir qarashda be'mani bo`lgan xatti-harakatlar.

3.Taqlid qilish reaksiyasi. U odatda bolalik yoshiga xos bo`lib, tug`ilgan va yaqin insonlarga taqlid qilishda namoyon bo`ladi. Taqlid reaksiyasi asotsial muhitdagi shaxs sifatida kamolotga yetgan o`smirlar guruhi uchun xosdir.

4.Kompensatsiya reaksiyasi. U o`zining bir sohadagi muvaffaqiyatsizligini boshqasidagi muvaffaqiyatlari bilan to`ldirishga intilishida ifodalanadi. Masalan, o`zlashtira olmayotgan o`smir sinfdoshlari hurmatiga, qo`pol, nojo`ya xatti-harakatlari orqali erishishga harakat qilishi mumkin.

5.Giperkompensatsiya reaksiyasi. Bola yoki o`smir ko`proq muvaffaqiyatsizlikka duch keladigan sohalardagina aynan muvaffaqiyat qozonishga intilishi bilan asoslanadi.

O`smir uchun xos bo`lgan psixologik reaksiya ijtimoiy muhit bilan o`zaro ta'sir asosida yuzaga keladi. Masalan, o`smirning ozodlikka intilishi. Bu holatda o`smirning mustaqillikka, kattalar vasiyligidan xalos bo`lishga intilishini aks etadi. Buning natijasida o`smirning uy yoki maktabdan qochishi, ota-onalar, o`qituvchilarga qaratilgan salbiy munosabatlari vujudga kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan vaziyatlar davolash ya'ni korreksiyasini talab qiladi. Xulq-atvor buzilishlarining patologik va patologik bo`lmagan shakllarini o`z vaqtida farqlash juda muhim, chunki ular turli shakldagi pedagogik va ijtimoiy yordamga muhtoj ayrim vaziyatlarda doir-darmon bilan davolashni talab qilinadi. O`smirlik davridagi psixik rivojlanishning muhim yo`nalishi muammo va qiyinchliklarni bartaraf qilish usullarini shakllanish bilan bog`liq. Ulardan ayrimlari bolalikdanoq murakkab bo`lmagan vaziyatlarni hal qilish uchun shakllanadi va odatga aylanadi.

Bolalar agressiv xatti-harakat namunalari quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to`playdi:

1.Nosog`lom oila muhiti. Bu kabi oilalarda ota-ona bilan farzand o`rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o`rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikni mavjud emasligi bolalarda agressiv hulq-atvorni shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo`lishi oilaviy muhitning ta`sir darajasiga bog`liq hisoblanadi.

2.Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o`z tengqurlari bilan bo`lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o`zlariga singdiradilar. Ko`pgina hollarda bolalar tengdosh do`stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda, o`zlarini agressiv boshqarishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar o`z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladilar. Bunday bolalar o`zlarini ho`rlangandek his qilib, o`zlari kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammoning ustiga yana muammo tug`dirmasdan qolmaydi.

3.Ommaviy axborot vositasi. Bugungi kunda bolalarga ta`sir etayotgan eng kuchli quroldir. Bu borada internetning ta`siri kuchayib bormoqda. Bolalar internet aloqalari orqali o`zlarining xususiyatlariga to`g`ri kelmaydigan ma`lumotlar bilan ham tanishmoqdalar. Shu o`rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari fil`mlar, ko`rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarni tarkib topishga ta`sir qilmoqda. Psixologik kuzatuvlarga ko`ra, oiladagi iqlim, ota-ona o`rtasidagi o`zaro munosabat, ota-ona bilan bola o`rtasidagi munosabat, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillari, aka-ukalari bilan yaqinlik darajasi, farzandi tomonidan qilingan noto`g`ri, yanglish xatti-harakatlarga nisbatan ota-onaning ta`sirlanishi – oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti-harakatlarini belgilab beruvchi omillar bo`lib hisoblanmoqda.

Yuqoridagilarga asoslangan holda o`smirlar guruhidagi tanglik holatini bartaraf etish uchun quyidagi psixologik trening mashg`ulotlaridan foydalanishni tavsiya qilaman.

O`smir shaxsida tanglik holatini bartaraf etishga qaratilgan trening

mashg`ulotlari

“Niqobni uzat” mashqi

Maqsad: o`smirlarni tetiklashtirish va ularni guruh bo`lib ishlash uchun tayyorlash, ishtirokchilarning o`zlariga ma`qul bo`lmagan kayfiyatdan qutulishlari va to`liq ishga jalb bo`lishlari hamda mashqning guruhda ko`tarinki kayfiyatni uyg`otishiga erishish.

Ko`rsatma: nima qilayotganimni ko`rish uchun menga qaranglar. Men yuzimda biror bir emotsiyani aks ettirishga harakat qilyapman. Mana, masalan, (bunda trener biror qandaydir emotsiyani aks ettirib zudlik bilan guruhning barcha a`zolari ko`rishi uchun aylanadi). Keyin esa men o`zimning chap tomondagi qo`shnimga o`girilaman va u mening yuz ifodamni yaxshilab ko`rib olishi kerak. So`ngra u mening yuz ifodamdagi holatni hech qanday o`zgarishsiz o`zi aks ettirishi lozim. U buning uddasidan chiqishi bilan bir marta aylanib so`ng yangi yuz ifodasi bilan chap tomoniga qarashi zarur. Shunday qilib barcha navbati bilan shu holatni takrorlab boradi.

“Mening kayfiyatim nimaga o`xshaydi?” mashqi

Maqsad: shaxsda emotsional holatlarni anglash, ularni boshqarish va nazorat qilish ko`nikmalarini tarkib toptirishdan iborat.

Ushbu mashq shu turdagi mashg`ulotlar uchun faollashtiruvchi o`yin vazifasini o`tashi mumkin. U ishtirokchilarga o`zlarining emotsional holatlarini anglash va ularni “shu yerda va hozir” tamoyili asosida obrazli tarzda ifodalash imkonini beradi.

Ko`rsatma: o`zingizga quloq soling. Sizning hozirgi kayfiyatingiz qanday rangga o`xshaydi?

“Hissiyotlarni sanaymiz” mashqi

Maqsad: ishtirokchilarning emotsiya borasidagi so`z boyligini oshirish

Ko`rsatma: keling, kim turli hislarni anglatuvchi so`zlarni ko`proq bilishini aniqlab olamiz. Navbat bilan so`zlarni ayting va ularni vatmanga yozib boring.

Trener uchun ma`lumot. Ushbu mashqni guruhning tayyorgarlik darajasiga qarab musobaqa yoki “aqliy hujum” shaklida tashkil etish mumkin.

Ishtirokchilarning vatmanini butun mashg`ulot davomida yordamchi vosita sifatida qo`llash mumkin. Qolaversa, mashg`ulotlar davomida ushbu “lug`at” yangi so`zlar bilan boyitib borilishi mumkin. Shunga alohida e`tibor qaratinglarki, ro`yxatda u yerda asosiy emotsiyalar (g`azab, g`am, quvonch, qo`rquv, xafagarchilik) qolib

ketmasligi kerak. Agar ishtirokchilardan biri yozilganlarning emotsiyalarga tegishlilikiga shubha qilsa, qolganlardan buni izohlab berish soʻraladi.

Mashgʻulot yakunida ishtirokchilarga quyidagi savollarni berish mumkin: “Oxirgi marta nazorat ishi yozganingizda oʻzingizni qanday his qildingiz?”, “Nojoʻya ish qilib qoʻyganingizda oʻzingizni qanday his etasiz?”.

Muhokamada “Sizningcha, eng yoqimsiz his qaysi?”, “Qaysi biri eng yoqimlisi?”, “Quyida sanab oʻtilgan hislardan qay biri sizga yaxshi tanish?” kabi savollarga javob berish taklif qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
2. L.Beknazarova, M.Maxmudova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
3. E.Gʻ.Gʻoziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.
4. R.Y.Toshtemirov, E.Gʻ.Gʻoziyev Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Toshkent 2004.

OILAVIY BAXTNI TEZROQ QABRGA TIQISH USULI

*Oʻrinova Dilfuza Shahobiddin qizi
Buxoro Davlat Universiteti Pedagogika va
Psixologiya yoʻnalishi sirtqi boʻlim*

Soʻzimni sayyoramiz adabiyotosmonida oʻchmas yulduz boʻlib yarqirab turgan “Anna Karenina” va “Urush va Tinchlik” asarlarining muallifi Lev Tolstoyning ayoli oʻlimi oldidan ikki qiziga iqrori bilan boshlasam: “Otangiz oʻlimiga men sababchi boʻldim!”.

Barcha davrlarning buyuk yozuvchisi boʻlgan Tolstoyning shaxsiy hayot fojeasi nimadan iborat edi deb oʻylaysiz? Bu uning nikohi edi. Avvaliga yozuvchining shon-shuhrati bilan birga boyligi, ijtimoiy mavqeyi, farzandlari va goʻzal ayoli bor edi. Ammo Tolstoyning ayoli Sofya Andreyevna pul, mol-mulk va shuhrat ketidan

quvadigan inson edi. Tolstoy uchun esa bularning sariq chaqalik ahamiyati yo`q, u mulkdorlikni gunoh deb biladigan kishi bo`lgan. Ayol erini o`z istaklarini to`la-to`kis bajarishiga undar, mabodo qarshilikka duch kelsa, o`zini o`ldirishini aytib, uni qo`rqitardi. Erini turli arzimas narsalar uchun dilini xufton qilishdan hech tap tortmasdi.

Ular hayotidagi bir voqea menga butun insoniyat hayotidagi ta`sirli bir sahnani eslatadi. Ba`zan salqin oqshomlarda g`am-anduhga limmo-lim to`lgan ayol qalbiga ozgina bo`lsada iliq orom istab keksa choli oldida tiz cho`kardi va bundan ellik yillar muqaddam o`ziga bag`ishlangan mehr-muhabbatga to`la satrlarni o`qib berishini so`rab iltijo qilardi. Tolstoy baxt-u saodatga to`liq, aslo qaytmas kunlari haqidagi satrlarni o`qiganda har ikkisi ham kuyunib yig`lar edi. Ammo hayot haqiqati ularning ko`zyoshlaridan qanchalar farqli, qanchalar o`zgacha tusda edi. Avvaliga juda chiroyli tarzda boshlangan turmush qirq yil o`tib, mana shunday ayanchli bir holga kelgan edi. Bunga sabab sizga ma`lum bo`lgan ayolning fe`lidagi ba`zi xatolar edi. Nihoyat Tolstoy 82 yoshga yetgach oilaviy hayotidagi fojeani ortiq hazm qila olmasligini tushundi va 1910-yilning ayozli oktyabr kechasida o`z ayolidan qochdi- qorong`u zulmatga, qayga ketganini bilmay, anglamay. Oradan 11 kun o`tgach, temiryo`l stansiyasida o`pka shamollashidan jon bergan Tolstoyning so`nggi vasiyati dafn marosimiga ayolini qo`ymasliklarini tayinlash bo`ldi. Grafinyaning adog`i yo`q xarxashalari, arz-u dod va jazavasiga berilgan baho shundan iborat bo`ldi...

Bu kabi holatlar bugungi zamonamizning ham muammolaridan biri bo`lib kelmoqda. Ayolining erta-yu kech oxiri ko`rinmas xarxashasi, o`rinsiz rashk-u, adovatidan jabr ko`rib kelayotgan oilalar ham talaygina. Xullas, oilaviy hayotini baxtli saqlamoqchi bo`lganlar bunday “fazilatlar”dan voz kechganlari ma`qul.

Buzilgan bebaxt oilalarning ajralish sabablari bo`yicha Amerikada o`tqazilgan so`rovnoma natijasi shuni ko`rsatdiki, ko`zyosh to`kish bilan yakun topadigan ajrim sabablaridan biri bu tanqid, bir tiyinga qimmat, yurakni zada qiladigan tanqid edi. Ishxonada o`ta talabchan, muomalaga usta, qattiqqo`l rahbar ham oilaviy muhitda tanqid qilishdan o`zini butunlay tiyishi kerak. Ayniqsa, bolalaringizni tanqid qilishdan saqlaning. Shunday qilishga to`g`ri kelgan taqdirda ham avval o`z kamchiliklaringiz

yoki bolaning yaxshi jihatlarini aytib o`tgach, keyin muloyimlik bilan kamchiligini tushuntiring.

O`zbek millatida ajoyib bir odat bor. Biz ko`chadan uyga qaytgach oyoq kiyimimizni ostonada qoldirib keyin uyga kiramiz. Xuddi shunday, poyafzal bilan birga ishga taalluqli barcha narsani ostonada qoldirib uyga kiring. Ishda boshlig`idan gap eshitgan er uyga qaytgach, ovqatga tuzni ko`proq solib yuborgani uchun xotining sha`niga bir nechta yoqimsiz so`z aytishni kanda qilmaydi. Juda qiziq, lekin haqiqat shundan iboratki, inson uchun eng yoqimsiz, haqoratli va yuragimizni parchalaydigan narsalar asosan oila a`zolarimiz, yaqinlarimiz tomonidan sodir etiladi. Lekin shuni unutmash kerakki, oilaviy hayotda baxtga erishgan kishi yolg`izlikda yashagan dahodan afzal. Agarda yosh kelinlar ham o`z erlariga xuddi boshqalar bilan munosabatda bo`lganlaridek, muomala qilganlarida edi bugun turmush boshqacha kechgan bo`lar edi. Har qanday er urishqoq xotindan bezor bo`lib qochadi. Qo`pol munosabat ham xuddi rak shishi kabi mehr-muhabbatni kemirib tashlaydi. Har birimiz tan olishimiz kerakki, biz yaqinlarimizga nisbatan begonalarga xushmuomalaroqmiz. Biz yot kishining gapini shart kesib, “ E, xudoyim yana o`sha gapmi? Bo`ldi qil” deb baqirishni, ularning telefonlariga kelgan xabarni ruxsatisiz ochib o`qishni, shaxsiy sirlariga burnimizni suqishni xayolimizga ham keltirolmaymiz. Ishda bo`lgan paytimizda qo`ng`iroq qilib qolgan kishiga ayolimizga baqirganchalik “ Ha, nima deysan ishdaman!” deb aytolmaymiz. Biz faqat oila a`zolarimizga arzimas mayda sabablar tufayli haqoratli jumlar aytishga haddimiz sig`adi. Shuni ta`kidlab o`tish lozimki, tinch-totuv oilaviy hayotinson uchun million dollardan afzaldir. Agarda quyida sizga berib o`tadiganim qisqa maslahatlarning har biriga e`tibor qilgan holda o`qisangiz, aniq ayta olamanki, o`sha million dollordan qimmatliroq oilani o`zingizniki deb bilishingiz mumkin.

Erkaklar uchun maslahatlar

1. Siz xotiningizni parvarish qilishda davom eting. Vaqti-vaqti bilan unga gullar keltirib turing. Uning tug`ulgan kuni, to`yingiz bo`lgan kunni yodingizdan chiqarmang. Siz ayolingizga kutilmagan e`tiborli alomatlarini namoyon qilib turing.
2. Uni begona kishilar oldida mudom tanqid qilishdan saqlaning.

3. Har oyda o'z imkoniyatingizdan kelib chiqqan holda unga nafaqa sifatida ma'lum miqdorda pul berib turing.

4. Xotiningizni muayyan vaqtlardagi o'ziga xos odatlarini tushunishga harakat qiling. u asabiylashgan, toliqqan vaachchiqlangan paytlarda unga yordam bering.

5. Xotiningiz bilan bo'sh vaqtingizni hech bo'lmaganda yarmini o'tqazing.

6. Xotiningizni taom tayyorlashi va ro'zg'orni eplashini onangiz yoki qandaydir So'taqo'zining xotini bilan taqqoslashdan tiyiling, bu solishtiruv xotiningiz foydasi hal etilsin.

7. Uning aqliy hayoti, jamoatchilik joylari va ijtimoiy muammolariga nisbatan e'tiborli bo'ling.

8. Xotiningiz ko'ngliga ozor yetkazmagan holda uni boshqalardan rashk qilishingizni aytib turing.

9. Xotiningizni maqtab qo'yish va unga tahsin o'qish uchun har bir imkoniyatdan foydalanishga harakat qiling.

10. Sizga ko'rsatgan kichkina xizmati uchun ham minnatdorchilik bildirib turing. Masalan: ko'ylagingizni tugmasini qadab qo'ygani, paypog'ingizni yamab bergani uchun.

Ayollar uchun maslahatlar

1. Eringiz xizmat vazifalarini ado etishi to'liq shart-sharoit yaratib bering. Uning o'rtoqlari, kotibani tanlashi va kun tartibini tanqid qilishdan o'zingizni tiying.

2. Sizga bog'liq bo'lgan barcha ishlarini bajaring. Uyingizni diltortar va qiziqarli bo'lishiga harakat qiling.

3. Uyda pishiriladigan ovqatning xilma-xilligiga e'tibor bering.

4. Eringizni ishi bo'yicha yetarli ma'lumotga ega bo'lishga harakat qiling. Uning ishini birga muhokama qilib, maslahatlar berib turing.

5. Moliyaviy yetishmovchiliklarni mardlarcha dadil tarzda o'tqazishga harakat qiling. Eringizni xatolari uchun boshqa muvaffaqiyatga erishgan kishilarni pesh qilib, tanqid qilmang.

6. Uning onasi va boshqa qarindoshlari bilan murosa qilib ketishingizga e'tibor qarating.

7. Eringizni didiga mos kiyinishga harakat qiling. Kiyimlaringiz rangi va bichimi unga ma`qul kelsin.

8. Fikrlaringizda ozgina tafovut paydo bo`lsa, kelishuvni saqlab qolish uchun chekinishni afzal biling.

9. Eringiz qiziqadigan narsalarga siz ham o`rganishga harakat qiling

10. Eringizni sizga nisbatan intellektual qiziqishini saqlab qolish uchun tegishli voqealar, yangi kitoblar va yangi g`oyalar bilan tanishib boring.

Oila muqaddas dargoh. Uni asrab-avaylash uchun oilaning har bir a`zosi ma`suldir. Agar siz oilaviy baxtingizni tezroq qabrga kirishini ishtamasangiz, quyidagi 7 qoidani doimo yodingizda tuting.

1. Xarxasha qilmang, ayb topishga urinmang
2. O`z umr yo`ldoshingizni o`zgartirmaslikka harakat qiling. Uni boricha qabul qiling
3. Aslo tanqid qilmang
4. Bir-biringizga chin yurakdan o`zingizning minnatdor ekanligingizni bildirib turing
5. Bir-biringizga iloji boricha mo`jazgina e`tiborga molik belgilarni ko`rsatib turing
6. Sertakalluf, sermulozamat bo`ling
7. Er-xotinlik hayotiga oid nozik munosabatlar to`g`risida yaxshiroq kitob o`qing.

БОЛА РИВОЖЛАНИШИДА ОТА ОНАНИНГ ВА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИНИНГ РОЛИ

*Бахрия Мардонова
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 15-сонли ДМТТ директори*

Ҳар бир ота-она фарзандидаги ички кечинмаларни доимо кўриб, сезиб туради. Кўпинча болалардаги тушуниб бўлмас ўжарлик орқасида бола ота-онасидан беркитаётган кўркув ётади. Айрим оналар фарзандининг “ойи

кўрқаяпман” деган гапига эътиборсизлик қилади ёки “ўғил бола ҳам кўрқадими” дея уни уялтиради. Ваҳолангки, нафақат боғча ёшидаги болалар балки, мактаб ёшидагилар ҳам кўрқиши мумкин. Бу ўринда ота-онанинг вазифаси уни тинчлантириш, зарур ҳолда психолог ва невропатолог кўригига олиб бориш саналади. Акс ҳолда боладаги кўрқув унга бир умрлик хамроҳ бўлиши, охир-оқибатда унинг руҳий ҳолатини мувозанатдан чиқариши мумкин. “Сени бобовга бервораман”, “Яна калтак егинг келдими” каби кўрқитувчи гаплар ҳам афсуски, оналар томонидан кўп айтилади ва бола кўрқуви учун замин тайёрланади. Ваҳолангки, айнан кўрқув тунги энурез, ўжарлик, хаттоки дудуқланишга ҳам сабаб бўлиши мумкинлигини ота-оналарнинг ҳаммаси ҳам билавермайди. Яна бола табиатан қизиқувчан ва у янгиликларни ўрганишда ўзича тажрибалар қилиб кўради. Она боланинг бу ҳаракатларини тарбиясизлик деб белгилаши эса оилада кўпгина тушунмовчиликларга сабабчи бўлади. Аслида эса бола билан келишиш лозим. Агар сиз ота, она, сифатида болангиз билан келиша олсангиз бу фарзанд ҳаётда ҳамма билан келиша оладиган омадли инсонга айланади.

Боланинг ақли савол бериш билан ривожланади. Лекин кўп ҳолларда боланинг саволларига жавоб бериш ота-онага ёқавермайди. Ҳар куни бўлди қил, кейин гаплашамиз каби танбеҳларни эшитган боладан эртага бирорта ғоя айтадиган ташаббускор етишиб чиқармикан? Китобни ўқиш жараёнида психологнинг фақат назария билан эмас, айнан амалиётда пишган ҳақли эътирозларига гувоҳ бўласиз. Айрим жойларда эса психолог гўёки ота-онага кўзгу тутуди

Болани яхши хулқи учун доимо мақтанг. Афсуски, аксарият ота-оналар болани ёмон иши учун жазолашади-ю, яхши ишига келганда шунга мажбур деб ҳисоблашади. Аслида бола ўз хатти-ҳаракатларини энди тўғрилай бошлаган бўлади, «яхши» ва «ёмон» баҳо ҳали у учун бегона. Шунда у яқинларининг баҳосига қараб иш тутишга ҳаракат қилади. Яхши хулқи ва гапга кирганлиги учун мақтанг, рағбатлантиринг, шунда у айнан сиз хоҳлагандек иш тутишга жон-жаҳди билан интилади.

Агар гўдак инжиқлик қилса ва ўзини яхши тутмаса — уни шахс сифатида айбламанг! Фақат муайян вазиятдаги хатти-ҳаракати учун айбланг. Масалан: ўғилчангиз болалар майдончасида ўзини ёмон тутди — бошқаларни турткилади, хафа қилди, уларнинг ўйинчоқларини олиб қўйди дейлик. Катталар кўпинча: «Сен ёмон боласан, сен қизғанчиқсан!» дейишга одатланишган. Мана шу ҳолат болани шахс сифатида айблашга яққол мисол бўла олади. Агар бундай айбловлар тизимли равишда такрорланаверса — болакай чиндан ҳам ёмонга айланади. Унга тўғри танбеҳ беринг: «Сен нега ўзингни ёмон тутяпсан? Нега бошқаларни турткилаб, хафа қияпсан? Фақат ёмон болалар бошқаларни ранжитади, ахир сен яхши боласан-ку! Сен эса бугун ўзингни ёмон болалардек тутяпсан — сени жазолашимга тўғри келади...». Шунда бола аслида ўзи яхши эканлигини, уни яхши кўришларини ва ҳурмат қилишларини, фақат унинг бугунги хулқи — нотўғри эканлигини англаб етади.

1. Фарзандингизнинг ёши ва ривожланишини ҳамиша ҳисобга олинг.

2. Болага қўяётган талаблар оқилона бўлсин.

3. Ёмон хулқи учун вақтида жазолаш лозим (3 ёшли болани эрталаб овқатни тўкиб қўйгани учун кечки мультфильмдан мосуво қилманг — кичкинтой хато билан жазонинг боғлиқлигини тушуниб етмаслиги мумкин).

4. Болани жазолаётганда ўзингиз хотиржам бўлишингиз керак.

Мактабгача ёшдаги болалар: кичик мактабгача давр (3-4 ёш); ўрта мактабгача давр (4-5 ёш); катта мактабгача ёш (5-6 ёшгача); мактабга тайёрлов ёши (6-7 ёшгача). Мактабгача ёшдаги бола ривожланиш жараёнида аждодлари томонидан яратилган нарса ва ходисалар, олам сир-синоатлари билан алоҳида махсус муносабатга киришади. У инсоният томонидан кулга киритилган ютуқларни фаол узлаштириб, эгаллаб боради. Болада нарса-ходисалар олами, улар ёрдамида амалга ошириладиган хатти-ҳаракатлар, она тили ва одамлар орасидаги муносабатларни англаш, айна замонда фаолият мотивларининг ривожланиши, қобилиятларнинг усиб бориши катталарнинг бевосита ёрдами асосида амалга ошади. Бу оилада ота-она, мактабгача таълим муассасаларида эса тарбиячилар кумагида юз беради.

Асосан мана шу даврдан бошлаб боланинг мустакил фаолияти кучая бошлайди. Фаолиятдаги мустакиллик, уз-уздан тафаккурдаги мустакилликка асос булади. Бундан ташқари, мактабгача ёшдаги босқич уларда мураккаб ҳаракатларни такомиллаштириш, элементар гигиена, маданий ва меҳнат малакаларини ҳосил қилиш, нутқини устириш ҳамда ижтимоий ахлоқ ва эстетик диднинг дастлабки куртакла-рини юзага келтириш даври ҳамдир.

Мактабгача ёшдаги болаларнинг кузга ташланиб турувчи хусусияти - серхаракатлилик ва таклидчиликдир. Бу ёшдаги бола табиатига хос булган асосий қонуниятни шундай ифодалаш мумкин: бола узлуксиз тарзда ҳаракатда бўлишни талаб қилади, лекин у фаолият натижасидан эмас, балки ҳаракатнинг бир хиллиги ва бир томонламалигидан чарчайди. Қуринадик, мактабгача ёшдаги болалар табиатининг асосий қонунияти булмиш серхаракатлиликни чекламай, мақсадли ташкил эта билиш бу ёшдаги болалар таълим-тарбиясида қутилган самарани беради.

Биз уз тадқиқотларимиздан ва бир неча йиллик тажрибамиздан келиб чиқиб қуйидаги фикрларни берамиз: жисмоний серхаракатлилик боланинг физиологик ривожланишига ижобий таъсир қурсатади, таянч аъзолари ҳаракати туфайли бола жисмонан яхши ривожланади.

Қатталар ва тенгдошлари билан мулоқот асносида бола ахлокий-меъёрий мезонлар, атрофдагиларни англаш, шунингдек, ижобий ва салбий муносабатлар билан таниша бошлайди.

Мактабгача ёшдаги бола ҳаракатлари унинг жисми билан мувофиқлаштирилган ҳолда амалга ошади.

Бу даврда боланинг нутқи ҳам жадал ривожлана бошлайди. У ўзи билганларига қушимча янгиликларни узлаштириш ва уларни мустаҳкамлашга мойил булади.

Бу жараёнда болада ўйин фаолияти орқали коммуникатив қуникмалари шаклланади, атроф-дагилар билан тез-тез мулоқот қилиш орқали янги суз ва тушунчаларни урганиб олади ва амалда ўзи мустакил узлаштириб олади.

Куринадики, мазкур ёшдаги болани мустакил фикрлашга йуналтириш, ҳар қандай ҳаётий ёки бадий ҳодисага диққатини тортиш, унга ўз муносабатини билдиришни талаб қилиш болада шахслик сифатларининг шаклланиши гаровидир.

Мактабгача ёшдаги болалар эҳтиёжи ва кизикишлари жадал равишда ортиб боради. Бу, аввало, кенг даврага чиқиш, муносабатда бўлиш, уйнаш эҳтиёжларининг мавжудлигидир. Бу ёшдаги болалар нутқни маълум даражада узлаштирганликлари ва ҳаддан ташқари ҳаракатчанликлари туфайли уларда узларига яқин бўлган катталар ва тенгдошлари билан муносабатда бўлиш эҳтиёжи туғилади. Улар кенгрок доирадаги муносабатларга интила бошлайдилар, кун-куниларнинг болалари билан ҳам жамоа бўлиб уйнайдилар. Ҳамма нарсани билишга бўлган эҳтиёж кучаяди.

Мактабгача ёшдаги бола табиатига ҳос бўлган кучли эҳтиёжлардан яна бири - ҳар нарсани янгилик сифатида қуриб, уни ҳар томонлама билиб олишга интилишидир.

Бу ёшдаги болалар ҳаётда ва уларнинг психик жихатидан узишида кизикишнинг роли ҳам жуда катта. Кизикиш худди эҳтиёж каби болани бирор фаолиятга ундовчи омиллардан бири-дир. Шунинг учун ҳам психологлар қизикишни билиш жараёни билан боғлиқ бўлган мураккаб психик ҳодиса дея бахрлайдилар.

Мактабгача таълим муассасалари нутқ устириш ва бадий адабиёт билан таништириш машғулотларида болаларга ҳос бўлган бу табиий хусусиятлар кизикиш ва билишга инти-лиш сифатларидан уларнинг узлари учун оқи-лона фойдаланиш миллий тарбияшуносликнинг бош мақсади - баркамол шахсни шакллантириш масадига мувофиқ бўлади.

Боланинг камол топишида кизикишнинг аҳамияти шундаки, у кизиккан нарсасини имкон қадар чуқуррок билишга интилади ва биноба-рин, узок вақт давомида у билан шугулланишдан зерикмайди. Бу, ўз навбатида, боланинг диққати ҳамда иродаси каби муҳим хислатларни усти-ришга ҳамда мустахкамлашга ёрдам беради. Шу маънода болаларни мустакил фикрлашга

йунал-тиришда аввал уларни эркин тафаккур объекти билан кизиктириб олиш муҳим аҳамият касб этади.

Боғча ёшидаги болаларда ҳар соҳага доир саволларнинг туғилиши улар тафаккурининг фаоллашаётганидан дарак беради. Бола ўз саволига жавоб топа олмаса ёки катталар унинг саволига аҳамият бермасалар, ундаги кизикув-чанлик сусая бошлайди.

Одатда ҳар қандай тафаккур жараёни бирор нарсдан таажжубланиш, ҳайрон қолиш ва натижада турли саволларнинг туғилиши туфайли пайдо булади. Биз узбекларда купчилик ота-оналар ва айрим тарбиячилар болалар савол бераверсалар, «куп махмадона бўлма», «сен бундай гапларни қаердан ўргандинг», деб жеркиб ташлайдилар.

Натижада бола ҳамма нарсани уз билганича тушунишга ҳаракат килади. Пассив ва тортинчок болалар эса ҳеч савол бермайдилар. Бундай болаларга турли машғулотлар ва саёҳатларда катталарнинг узлари савол беришлари, шу билан уларни фаоллаштиришлари лозим.

Икки яшар боланинг сўз захираси тахминан 250 тадан 400 тагача, уч ёшли боланинг суз бойлиги 1000 тадан 1200тагача ва 7 яшар боланинг лексикони 4000 тага етади. Демак, мактабгача ёш даврида боланинг нутки ҳам микдор, ҳам сифат жиҳатидан анча такомиллашади. Бу ёшдаги болалар нуткининг ўсиши оиланинг маънавий савиясига ҳам боғлиқ. Катталар болалар нуткини ўстириш билан шуғулланар экан-лар, боғча ёшидаги болалар баъзи ҳолларда уз нутк сифатларини тўла идрок эта олмасликларини ҳам унутмасликлари керак булади.

Мактабгача даврда ахлокий тушунчалар борган сари катъийлаша боради. Ахлокий тушунчалар манбаи булиб уларнинг таълим-тарбияси билан шуғулланаётган катталар, шунингдек, тенгдошлари, бадий асарларнинг қахрамон-лари ҳам булиши мумкин.

Ахлокий тажрибалар асосан мулокот, куза-тиш, таклид килиш жараёнида, шу билан бирга катталар, айникса, оналарнинг мактови ва танкидлари орқали утади, мустаҳкамланади. Бола доимо баҳо, айникса мактов олишга ҳаракат килади. Бу баҳо ва мактовлар бола шахсининг муваффақиятга эришуви, унинг

маънавий камолоти, хатто жисмоний ривожланишида, шунингдек, шахсий ҳаёти ҳамда касб танлашида ҳам катта аҳамият касб этади.

Мактабгача ёш даврда болаларда мулоқотнинг янги мотивлари юзага келади. Бу шахсий ва ишбилармонлик мотивларидир. Мактабгача ёш даврида болалар учун катталар берадиган баҳо жуда муҳим. Болалар биринчи навбатда маиший ахлоқ норма ва қоидаларини, ўз маж-буриятларига муносабат, кун тартибига риоя этиш, ҳайвон ва нарсалар билан муомала қилиш нормаларини эғалайдилар. Бундай нормаларни эғаллаш бу ёшдаги болалар учун қийин ҳисобланади.

Боғча ёшининг охирига келиб, қўчилик болаларда аниқ бир ахлоқий қарашлар таркиб топади, шунингдек, одамларга муносабат билан боғлиқ бўлган шахсий сифатлар ҳам шаклланади. Бу қишиларга нисбатан диққатли, меҳрибон бўлиш хусусиятидир.

Катта ёшдаги болалар қўп ҳолларда ўз ҳатти-ҳаракатлари сабабини тушунтириб бера олади-лар. 3-3,5 ёш оралиғида ўзларининг муваффақият ва муваффақиятсизликларига ўз муносабатларини билдирадилар ва бу муносабат асосан ўларнинг ўзларига берадиган баҳолари асосида бўлади. 4 ёшли болалар эса ўз имкониятларини реал баҳолай оладилар. Лекин 4-5 ёшли болалар ҳали шахсий хусусиятларини идрок этиш ва баҳолашга қодир эмаслар, шунингдек ўзлари ҳақида маълум бир ҳулосани ҳам бера олмайдилар.

Ўз-ўзини англаш лаёқати катта боғча ёшидан бошлаб ривожланиб, аввал, у қандай бўлгани ва қелажақда қандай бўлишини фикрлаб қўришга ҳаракат қилади. Бу болалар катталарга берадиган «Мен қичкина пайтимда қандай бўлган эдим?», «Мен катта бўлганимда қандай бўламан?» сингари саволларида кўринади. Қелажақ ҳақида фикр юритиб, болалар қелғусида қўчли, жасур, ақлли ва бошқа шу сингари қимматли инсоний фазилатларга эға бўлишга ҳаракат қиладилар.

KASBGA YO'NALTIRISH VA TA'LIM JARAYONI ISHTIROKCHILARINING PSIXOLOGIK, FIZIOLOGIK SALOMATLIGI

*Qurbonova Sohiba Qoplonovna
Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 36-maktab psixologi*

Kasbga yo'naltirish va ta'lim jarayoni ishtirokchilari tushunchasi va uning sharhi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga kasbiy maslahat, kasbiy saralsh, kasb tanlash masalalari bo'yicha yo'nalishlar berish. Ta'lim jarayoni va kasb tanlovchilarning psixologik, fiziologik salomatligi. Yosh davrlar psixologiyasi va kasb tanlash masalalari. Yetuk insonni tayyorlashda meditsina, psixologiya va falsafiy bilimlarning o'rni.

Kasb–inson ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgatlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus ma'lumot hamda amaliy tajriba yo'li bilan erishiladi. Kasbga yo'naltirish borasidagi ilk bilimlar va tavsiyalar maktabdan to'plab boriladi. Kasb tanlashda ta'lim muassasining va pedagog-psixologlarning ahamiyati katta.

O'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan o'quvchilarga ta'lim berib borar ekan, shu bilan birga ularni kasb tanlashlariga ham yordam beradi. Bizga ma'lumki, maktabning kelajakda kasb tanlashga imkoniyati bo'lgan yoshlarga ta'lim berishdan iborat asosiy vazifasi -bu o'quvchilarning fan asoslarini faol, ongli, mustahkam va tizimli ravishda egallashini ta'minlashdir. Bular asosida o'qituvchi o'quvchilarga ma'lum bir kasblarni tanlashlari uchun tavsiyalar berib boradi.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari bu o'qituvchi va o'quvchi hisoblanadi. Bu yerda ta'lim beruvchi pedagogni va ta'lim oluvchi o'quvchi nazarda tutiladi. Bular birgalikda ta'lim jarayoni ishtirokchilari hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki ta'lim olayotgan o'quvchi va ta'lim beruvchi o'qituvchining o'ziga xos bo'lgan psixologik xususiyatlari va jismoniy imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Bular esa o'z navbatida ta'lim olishga o'z ta'sirini ko'rsatib boradi.

O'qituvchi ta'lim berish davomida bolalarning iqtidoridan va qobiliyati va qiziqishidan kelib chiqib, maktabdan keyingi uzluksiz ta'limni qaysi yo'nalishiga ta'lim

olish uchun kirishlariga yordam beradi. Maktabdan kasbiy maslahat berish uchun o'qituvchi o'zi ham kasbiy maslahat to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lishi kerakligi kelib chiqadi. Kasbiy maslahat bu asosan yoshlarga kasblar haqida ilmiy asoslangan maslahat berish bo'lib, u asosan yoshlarni qobiliyati, manfaatlari, qiziqishlari, intilishlari asosida kasb tanlashlariga yordam beruvchi sohadir. Kasbiy maslahat har bir kasb haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi shuningdek kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar, mehnat faoliyati, kasbning ijtimoiy-iqtisoiy va sanitar-gigienik statusi, kasbga o'qitish va insonga kasb qo'yadigan talablar haqida ma'lumotga ega bo'lish kerak. Bunda inson psixik xususiyatlariga, meditsina va jismoniy ko'rsatkichlariga va kasbga mos kelmaslik to'g'risida ham ma'lumotga ega bo'lish kerak.

Kasbiy maslahat yosh davrlariga qarab, ma'lumot darajasiga qarab va unda ishtirok etayotgan o'qituvchilariga, ota-onalarining ishtirokiga qarab muvaffaqiyatli chiqadi.

O'qituvchi o'quvchilarga ta'lim berish davomida ularni kasb tanlashlariga yo'llanmalar berar ekan shuning bilan birga ularni psixologik va jismoniy salomatligi haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Kasb tanlovchi hisob-langani o'quvchilar o'zlarini ruhan va jismonan sog'lom ekanliklarini meditsina ko'rigidan o'tib tasdiqlashlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari maktab psixolog-lari va shifokorlari har doim ularni kuzatib boradilar. Psixik xususiyatlari yoshiga qarab rivojlanib borayotgan o'quvchi o'zidagi psixologik xususiyatlarni kuzatish orqali o'zgarib borishini bilib boradi. Boladagi diqqat, sezgi, fahm-farosat, xarakter, tafakkur qilish, qobiliyat va boshqa psixologik xususiyatlar o'quvchining rivojlanib borishi bilan o'zgarib, takomillashib boradi. Ayniqsa bu o'smirlik davrida juda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'sib borayotgan bolada jismonan o'zgarishlar ham sodir bo'lib boradi. O'quvchining jismonan imkoniyatlari ko'payadi. O'zini va jismoniy kuchini boshqarish, tanasidagi o'zgarishlarni kuzatish orqali, o'zida kattalarga o'xshash tomonlar paydo bo'lishini ko'radi. Bular esa uni psixologik jihatidan kattalardek tutishga, o'zini ma'lum bir kasbda ko'rishga intiltiradi. Umuman olganda o'quvchidagi psixologik va jismoniy tomonlar asosan uning nerv-fiziologik tomonlari bilan bog'liq bo'ladi. Insondagi yuz berayotgan psixologik va jismoniy o'zgarishlar uning miyasi bilan, psixofiziologik

jarayonlar va nerv-fiziologik jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bularni o'rgangan olimlar insonni kasbiga xos tomonlarini ham ko'rsatib berganlar. Insonni jismoniy va ruhiy sog'ligini o'rgangan olimlar qatoriga I.M.Sechenov, I.P.Pavlovni ko'rsatish mumkin. Kasb bilan bog'liq masalalar ko'proq keyinchalik K.M.Gurevich nomi bilan bog'liqdir. K.M.Gurevich kasb masalasi bilan shug'ullanar ekan insondagi individual-psixologik xususiyatlarning asosida psixofiziologik jarayonlar yotishini ko'rsatib, I.P.Pavlov, B.M.Teplov olib brogan ishlarga suyangan holda tushuntirib berishga intiladi.

O'quvchilarni yoshi katta bo'lib brogan sari undagi xarakter, odatlar o'zgarib boradi. Bu uning jismoniy va psixologik taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ladi.

B.M.Teplov ko'rsatib o'tganidek kasb tanlashdagi insonni har xil xatti-harakati, uning o'ziga xosligi, uning ishonchi, qiziqishi, bilimi, layoqati, odati, o'ziga xosligi, uning ishonchi, qiziqishi, bilim, layoqati, odati, o'ziga xosligi shaxs psixologik hayoti bilan bog'liq bo'ladi. Insonda yuz berayotgan jarayonlarning psixologik va fiziologik tomonlarining asosi bu u yoki darajada sodir bo'layotgan shartli bog'lanishlar hisoblanadi. B.M.Teplov bir xil sharoitlarda ham insonlar bir-biridan ajralib turishini, bilim olishida, ish bajarishdagi psixofiziologik imkoniyatlari har xil bo'lishini ko'rsatib o'tdi. Bu jarayon I.P.Pavlov tomonidan nomlangan nerv tizimiga yoki oliy nerv faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

I.P.Pavlov tasavvuricha nerv tizimini uchta xususiyati mavjud. Bu uning kuchi, harakatchanligi va muvozanatligidir. Bular nerv tizimining xususiyatlari o'zaro munosabatda insonga xos bo'lgan 4 temperamentni shakllantiradi. Bular sangvinik, xolerik, flegmatik va melanxolik tiplardir. Bular esa insondagi jismoniy va psixologik jarayonlarda, ularning holatlarini tushuntirib berishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu kabi ko'plab tadqiqotlarda kasb tanlovchining psixologik va jismoniy sog'lomligi masalasi ko'rilgandir. O'qituvchi o'quvchi bilan o'zaro munosabatda bo'lganida uning psixologik va fiziologik holatlari ham o'zgarib boradi. Tanasi sog' va ruhi sog'lom bo'lgan o'quvchi o'zi tanlayotgan kasbni aniq va irodasiga asoslanib tanlab oladi.

Yosh davrlari o'ziga xos bo'lgan psixologik va jismoniy tuzilishni olib keladi. Kasb tanlashda bolalarni yoshiga asosan o'ziga xos bo'lgan psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kasbga bo'lgan munosabati shakllanadi. Inson bilimining har xil yo'nalishlarida: pediatriyada, antropologiyada, psixologiyada yoshiga qarab klassifikatsiya qilishning har xil ko'rinishlari mavjud. Inson hayotini differensiyalashga qarab asosan uning har xil ko'rinishlaridan foydalanamiz. Eramizdan avval VI asr- Pifagor klassifikatsiyasi:

- -Shakllanish davri (0-20 yosh)
- -Yoshlik davri (20-40)
- -Kuchga kirgan davri (40-60)
- -Qarilik davri (60-80)

Xuddi shuningdek, kasb tanlash bilan bog'liq bo'lgan ko'plab klassifikatsiyalar mavjuddir. Deylik D.Syuper klassifikatsiyasi.

- 1) O'sish davri (tug'ilgandan 14 yoshgacha)
- 2) Izlanish davri (15 yoshdan 24 yoshgacha)
- 3) Egallagan martabasini mustahkamlash (25 dan 44 yoshgacha)
- 4)Inqiroz davri (65 dan keyingi davr)

Kasb tanlash bilan bog'liq davrlarga suyangan E.A.Klimov bo'yicha kasb klassifikatsiyasi. Bunda E.A.Klimov 9 ta fazani ko'rsatadi. Bular: *Shakllanmagan kasb tanlash-bunda bolalarda ma'lum bir kasbga nisbatan qiziqish va havas ortadi.*Tanlash fazasi-bunda inson kasb tanlashga tegishli masalalar bilan bevosita shug'ullana boshlaydi yoki bu majburiy tarzda yuz beradi.*Muxlislik fazasi–bunda inson kasb tanlash yo'liga o'tadi va uni egallaydi (bunda kasb-hunar kollejlari, litseylar, maktablarda o'qiyotgan talabalar va oliygohlarda kasbni egallab diplomga ega bo'lgan mutaxassislar kiradi). *Moslashish fazasi-yosh mutaxassis kollektiv me'yorlariga moslashadi va har xil kasbiy vazifalarni bajaradi. *Internal faza-bu endi malakaga ega bo'lgan o'z kasbini sevuvchi, mustaqil ravishda kasb bilan bog'liq masalani yecha oladigan shaxs. *Usta bo'llganlik fazasi-bunda ishchi oddiy va eng murakkab kasbga xos bo'lgan masalalarni yecha oladi. U o'ziga xos individual, qaytarilmas faoliyat turini egallagan bo'ladi. *Avtoritarlik fazasi- Avtoritet-bu o'z kasbini ustasi, nomi chiqqan

mutaxassis hisoblanadi. Kasbiy vazifalarni bajarishda malakaga, bilimga, uddalay olishga, ishni tashkil eta olish bilan bog'liq bo'lgan yordam chilarga ega bo'lgan shaxsdir. *Shogirdlar yaratuvchi faza-o'z kasbiga usta bo'lgan bu inson shogirdlar orttira oladi va hamfikrlarga ega bo'ladi.

Kasb tanlashda yana shuni bilish kerakki bolalarni jismoniy tuzilishi va o'sib borishining evolyutsion davrlari mavjud. Shulardan kelib chiqqan holda bolalar o'zlari yoqtirgan kasblarni tanlab boradilar. Eng muhimi har bir shaxs tanlagan kasblarini o'z imkoniyatlarini, psixologik va fiziologijk salomatligiga e'tibor bergan holda tanlasalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.F.R.Abduraxmonov. Z.E.Abduraxmonova -Kasb psixologiyasi. Toshkent-2018
2. 2.E.A.Klimov. "Kak vibrat professiyu" Moskva, 1990-yil.
- 3.Umumiy psixologiya..G'oziyev.Toshkent-2002

МИЛЛАТНИНГ ЖОНКУЯР ЖАДИДИ

*Ўзгиллой Абдуллаева, ТДПУ ўқитувчиси,
Нозима Курбонова, ТДПУ 2-ОТМ талабаси*

Ўзбекистоннинг ҳозирги тараққиётида ёш авлодни ижтимоий фаол шахслар сифатида вояга етказиш асосий масалалардан бири ҳисобланади. Чунки ҳозирда республикамизнинг 45% дан ошиғини ёшлар ташкил этади. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А.Каримов "Ёшларимизнинг маданий савиясини юксалтириш, маънавий оламини бойитиш ва гўзалликка интилишни кучайтириш" вазифасини алоҳида таъкидлаб ўтган. Бу эса ўзига хос ижтимоий тарбия жараёнини йўлга қўйишни тақозо этади. Ижтимоий тарбияга оид педагогик меросимизда жадид маърифатпарварларидан бири Ҳожи Муиннинг (1883-1942) қарашлари ҳам муҳим ўрин тутади. Ўз даврининг илғор ўқитувчиси, журналисти, ношири, шоири, драматурги ва моҳир таржимони саналган Ҳожи

Муин ўтган аср биринчи чорагида Туркистон аҳли онгига миллий озодлик ва давлатчилик ғоясини сингдиришга катта ҳисса қўшган.

Ҳожи Муин 1900 йили маърифатпарвар Сайидахмад Васлий (1869-1925) билан танишиб, ундан сабоқ олади. Унинг ўзи “Васлий” номли мақоласида илк устозига шундай баҳо беради: “Васлий XX аср бошларида майдонга отилиб чиқиб, усули жаҳид мактабларига ёрдам ва тарафдорлик эта бошлаган ҳаққоний олимларимиздан биридир”. Васлий Ҳожи Муиннинг диний ва дунёвий илмлар эгаси бўлиб етишида катта таъсир кўрсатди.

1901 йилдан бошлаб Ҳожи Муин мактабда ўқитувчилик қила бошлади ва 1903 йили ҳатто Самарқанднинг Хўжа Нисбатдор маҳалласида ўз ҳисобидан янги усулдаги мактаб очди.

1903 йили у Маҳмудхўжа Бехбудий билан танишди ва умрининг охиригача унга муносиб шогирд бўлиб қолди. 1909 йилдан Абдурауф Фитрат билан дўстлашиб, ҳамкорлик қила бошлади. Ҳожи Муиннинг ижтимоий фаол ва етук педагог бўлиб етишида ана шу уч шахс - Васлий, Бехбудий ва Фитратларнинг таъсири катта бўлди.

Ҳожи Муин туркий, форс-тожик, араб ва рус тилларини мукаммал билар эди. Бу ҳол унинг ижтимоий педагог сифатида вояга етишида муҳим роль ўйнаган. У жаҳид маърифатпарварлари орасида ижтимоий тарбия тўғрисида энг кўп фикр юритган педагоглардан ҳисобланади. Унинг фикрича, миллатнинг бахти - ижтимоий муаммоларни ҳал этишдадир. Бу ҳақда шундай ёзади: “Дунёда ўзининг ҳаётини ҳимоя қилмоқчи ва ўз маишатини (турмуш тарзини) таъмин этмоқчи бўлгон кишининг табиат қонунлари ва ҳаёт шароитлари қандай тадбирлар кўрарга ва қандай чоралар изларга тутунмоғи қанча лозим бўлса, сарбастона ва маъсудона бир суратда яшажакчи бўлгон бир миллатнинг ҳайъат мажмуаси ҳам ижтимоий ҳаётиндаги вазифаларни бажаришга боғлиқдир». Демак, бу фикрдан шундай хулосалар келиб чиқади:

- алоҳида шахсни ижтимоий тарбиялаш билан миллатнинг (жамиятнинг) ижтимоий муаммоларини ҳал қилиш мумкин;

- шахсни ижтимоий тарбиялаш табиат қонунлари ва реал ижтимоий шароитларга асосан амалга оширилади;

- ижтимоий тарбия воситаси асосида шахс масъудона (бахтни) ҳаёт кечиришга йўналтирилади.

Бундай қараш XX аср I чорагида жамият учун муҳим аҳамиятга эга эди. Дикқат қилинса, унда тарбиянинг дунёвийлик принципига амал қилиш илк режага қўйилмоқда.

Ҳожи Муин ижтимоий тарбияда дунёвийлик принципига асосланиш масаласига доир фикрида умрининг охиригача қолди. У ноҳақ равишда “халқ душмани” сифатида қамоққа олинганида ҳам ўз фикридан қайтган эмас. Педагогнинг асарларини таҳлил қилиш шундай мулоҳазага олиб келади: ижтимоий тарбия жамият ривожини учун заруратдир ва у кенг кўламда олиб борилиши керак.

Ҳожи Муин эҳтиёж даражасидаги ижтимоий тарбияни йўлга қўйиш учун қуйидагиларга амал қилишни тавсия қилади:

1. **Оилани ислоҳ қилиш.** Бунда никоҳнинг ихтиёрийлиги ва қонунийлигига қатъий риоя қилиш; тўй, никоҳ ва таъзия маросимларидаги исрофгарчиликларга чек қўйиш; оилада бола тарбиясига алоҳида эътибор бериш муҳимдир.

2. **Болалар боғчалари ташкил қилиш.** Бунда тараққийпарварлик мамлакатларда кузатилганидек, турар жойларнинг энг яхши масканларини болалар боғчаларига айлантириш ва уларда юксак даражадаги тарбияни йўлга қўйиш катта аҳамиятга эгадир.

3. **Таълим масканларини кенгайтириш.** Бунинг учун янги усулдаги мактабларни кўпайтириш, халқ дорилфунунлари очиш, қизлар мактаблари ташкил қилиш, турли касб-ҳунар ўргатувчи ўқув курслари ташкил этиш ва ўқитувчилар тайёрлашни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқдир.

4. **Матбуотни кучайтириш.** Бунда кундалик газета жариди (журнал) ва деворий варақаларни нашр этишга ва улар воситасида “халқнинг кўзини очиш”га эътибор бериш муҳимдир.

5. **Даврнинг илғор кишиларидан ибрат олиш.** Бу борада педагогимиз ўз даврининг машҳур кишилари Бехбудий, Васлий, Шокир Мухторий кабиларни намуна сифатида тасвирлаб кўрсатади.

6. **Ижтимоий иллатларни ислоҳ қилиб бориш.** Бунда бойликка ўчлик, порахўрлик, танбаллик, ғофиллик, хиёнаткорлик, бахиллик каби хулқий иллатларни бартараф қилишга эътибор бериш аҳамият касб этади. Маълум бўладики, Ҳожи Муин ўз даврида бугунги кунимизга ҳамоҳанг бўлган қарашларни илгари сурганди. Шу тариқа у ўз даврида кенг кўламли ижтимоий тарбиянинг йўлга қўйилишини орзу қилганди. Шундай қилиб, Ҳожи Муин ижтимоий тарбия масаласида ўзига хос қарашга эга эди. Бу қараш бугун ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаганлиги билан диққатни тортади. Негаки унинг мақсади одамларни “ижтимоий хасталиклардан халос этиш” эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.И.А. Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Т-2008.
- 2.Ҳожи Муин. Танланган асарлар.- Т-2005.
- 3.Қосимов Б, Долимов У. Маърифат дарғалари.-Т-1980

O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARDADA HULQIY OG'ISHLARNING OLDINI OLIISH

*Ziyayeva Barnogul Ro'zimamatovna
Uchko'prik tumani 53-maktab psixologi*

O'smirlik 10—11 yoshlardan 14—15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sisholdinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Ma'lumki, bolalar va

o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish tadbirlari, eng avvalo, xulq og'ishini keltirib chiqaradigan shart-sharoit va sabablarini bartaraf etishni taqazo qiladi. Kuzatishlar va tadqiqotlarimizdan namoyon bo'lishicha voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi jarayoni shaxs xususiyatlari bilan tashqi muhit voqea-xodisalari o'rtasidagi murakkab bog'lanishli jarayon bo'lib xisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchi shaxsi subyekt sifatida tashqi muhit axborotlarini qabul qiladi va ishlaydi. Obyekt sifatida esa tashqi muhit elementlari shaxsga tasir etuvchi element sifatida ifodalaydi. Subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro tasirlar munosibligini taminlash esa voyaga yetmagan o'quvchilarda xulq og'ishini kelib chiqishining oldini olishga xizmat qiladi. O'smir yoshdagi o'quvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o'ziga xos imkoniyatlarga egaki, u ba'zan shaxsning sog'lom munosabatlari va sog'lom turmish tarzini belgilasa, bazan esa nosog'lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu xususiyatlar o'quvchilarda g'ayriqonuniy xulq-atvor kelib chiqishini oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik jixatdan tasirchan tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Bu esa profilaktik tadbirlarni o'quvchining individual psixologik xususiyatlarni xisobga olgan holda olib borishni toqozo qiladi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda, eng avvalo, jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik, individual psixologik, sosiologik, xududiy va kriminologik xususiyatlarni hisobga olish talab e'tiladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan qonunbuzarliklarning oldini olish ishlari umumiy va maxsus-individual tarzda olib borilishi bilan xarakterlanadi. Maxsus –individual xarakterdagi tadbirlar sifatid bolalar va o'smirlarning shaxs xususiyatlari, ularning psixologiyasi, dunyoqarashi, qadriyatlar oriyentasiyasi, xayotiy pozisiyasi, onglilik darajasi va ishtimoiylashuv xususiyatlarini hisobga olgan holda chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash tushuniladi.

Profilaktik chora- tadbirlarni ishlab chiqishda voyaga yetmagan o'quvchilar o'rtasida hulq og'ishining kelib chiqishigacha bo'lgan davrga, bu davrda olib boriladigan umumiy tarbiyaviy tadbirlar, ularni takomillashtirish, shuningdek, ta'sirchanlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shuning uchun ham voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq og'ishining oldini olishda ushbu oraliq

davri muhim ahamiyat kasb etishini unutmasligimiz kerak. Qolaversa, bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining kelib chiqishigacha bo'lgan davrdagi profilaktik tadbirlar oson, yengil va ko'zlangan natijalari yuqoriligi bilan ham xarakterlidir.

Voyaga yetmaganlar o'quvchilar o'rtasida hulq og'ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tabiatini tushunish uchun avvalo, ularning boshlanish davrini, obyektini hamda xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsiga ta'sir ko'rsatish xususiyatini bilib olish talab etiladi. Ushbu masalani yechish uchun tabiiy ravishda shaxsning motivasion soxasiga aloqador bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Chunki shaxsning motivasion, ya'ni yo'naltiruvchi omilini bartaraf etish orqali o'smirning ijtimoiy borliqqa nisbatan munosabatini ijobiy yo'naltirish va shu orqali xulq og'ishining oldini olishga erishish oson kechadi. Jinoyatchilik xulqi motivasiyasi qaysidir ma'noda shaxsning umumiy yo'nalish va vaziyat o'rtasidagi o'zaro aloqasiga bog'liq bo'ladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, jinoyatchilik xulqi motivasiyasi kriminogen vaziyatga nisbatan shaxsning ijobiy yo'nalishi va fazilatlarining beqarorligi, kriminogen vaziyatlar bilan shaxsning salbiy xislatlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorligi hamda shaxsning kriminogen yo'nalishi kabi juda ko'plab boshqa omillar asosida namoyon bo'ladi.

Voytaga yetmagan o'quvchilarda jinoyatchilik umumiy yo'nalishi tahlili jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni nafaqat jinoyatchilik xulqi va salbiy illatlarga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar o'rtasida olib borish, balki ularni sog'lom xulqli bolalar hamda o'smirlar o'rtasida olib borish, zaruriyatini ko'rsatadi. Bu xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smir o'quvchilar xulqini ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilishga, taqqoslashga imkoniyat beradi. Shuningdek, bunday yondashuv nafaqat xulq og'ishiga ega bo'lgan, balki sog'lom xulqli bolalar va o'smirlar o'rtasida xam xulq og'ishining kelib chiqish extimolligining oldini olishga yordam beradi.

Ushbu fikrdan ko'rinadiki o'smir tomonidan amalga oshirilgan jinoiy harakat uning xulqiga emas balki, situasion vaziyatlarga ko'ra sodir etilganda o'smir o'quvchining ijobiy sifatlari va jinoyatchilikka qo'l urishga sabab bo'luvchi omillar to'g'risidagi ma'lumotlarni bermaydi va bunday vaziyatlarda o'quvchida tarbiyaviy profilaktik

tadbirlar olib borilganda ham jinoiy harakatning oldini olishga yordam berib bo'lmaydi. Shuning uchun ham sutiasion vaziyatlarga bog'liq bo'lgan jinoyatlarning oldini olishda o'smir shaxsining xususiyatlarini uning ijobiy yoki salbiy fazilatlariga hamda ularning xarakter xususiyatlarini uning ijobiy yoki salbiy fazilatlari hamda ularning xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutish maqsadga muvofiqligini unitmaslik kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Deyl Karnegi. Muomala sirlari. T.«Navro'z» nashriyoti. 1999.
- 2.M.G.Davletshin . Yosh davrlari va pedogogik psixologiya. T.2004
- 3.V.Karimova. Oila psixologiyasi.T.2007
- 4.www.Expert.psychology.ru
5. Deviant xulqni shakllanishi ma'ruzalar matni

ТАЛАБАЛАР ИЖОДИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ АМАЛИЙ ТАДҚИҚИ

*Махмудова Мадина Зайниддиновна
Навоий Давлат Педагогика Институтини “Таълим муассасалари
бошқаруви” йўналишини 2-босқич магистранти,
Г.А.Нормуродов, ф.н.дотс.*

Жаҳон психологиясида талаба ижодий компетенциясининг психологик жиҳатларини психодиагностик баҳолаш ишлари XIX аср охири XX бошларида анча одимлаша борди. Бунга асосий сабаб, турли психологик тестларнинг яратилиш ҳолати саналади. Бундан ташқари, амалий психология фани ривожининг икки ривожланиш даври мавжуд. Яъни, биринчиси 20-йилларнинг бошидан 30-йилларнинг ўрталарига тўғри келиб, унда халқ таълими, касб танлаш ва касбга йўналтириш ишлари олиб борилган. Ўша пайтларда талабанинг профессионал имкониятларни аниқлаш фақат педагогик-психологик жиҳатдан эътибор берилган бўлса, иккинчидан профессионал сифатлар ривожланганлигини аниқловчи тестлар туркумини яратиш билан ҳам ажралиб турган. Бу эса, кейинчалик талабанинг профессионал имкониятларини баҳолаш, уни ўз вақтида

ривожлантириш, унга таъсир этувчи психологик омилларни, соҳалараро қайта кўриб чиқиш имкониятини янада ошира борди.

Замонавий психология фанида талаба ижодий компетенцияси ҳамда унинг психологик ўзига хосликлари каби масалаларни қатор хориж олимлари изланишларида кўриш мумкин. Тадқиқотчиларидан А.Стуф, Р.Мартенса, У.Клемент, Р.Арнольда, М.Кунцман, Б.Хене, С.Тиманн, С.Адам, Г.Влуменштейн, Г.Шмидт ҳамда Б.Мэнсфилдлар томонидан амалга оширилган тадқиқотлар бунинг яққол ифодасидир. Профессional тайёргарлик масалаларини фаолият ва professional йўналганлик феноменлари орқали ўрганиш ҳолати А.Н.Ленотьев, Л.С.Выгосткий, Э.Э.Сыманюк, А.В.Барабанщиков, С.М.Вишнякова, Н.И.Наумкин, В.В.Карпов, Л.А.Колосова, Р.В.Овчарова, Н.В.Самоукина, В.П.Симонов каби етук олимларнинг илмий асарлари ва тадқиқотларида ўз аксини топган талабаларда ижодий компетенциясини ривожлантириш жараёнларида мотивлаштириш талабаларни ўз ижодий компетенцияларини ривожлантиришнинг самарали механизмларини яратиш, талабаларда ўз устида ишлаш, узлуксиз малака ошириш учун қизиқишлар вужудга келтирувчи ижобий мотивларни шакллантиришдан иборат, деб айтиш мумкин.

Талабаларда касбий маҳоратларни ривожлантириш жараёнларида мотивлар ўзига хос аҳамият касб этади, чунки уларда ижодий компетенциянинг ривожланиши таълим-тарбия жараёни ва тарбиявий муносабатлар жараёнларининг самарадорлигига боғлиқ бўлиб, мазкур жараёнларнинг самарадорлиги ижодий компетенцияни ривожлантириш жараёнлари натижавийлигини ифодалайди. Демак, талабаларда ижодий компетенцияни ривожлантиришга таъсир кўрсатувчи мотивларни ўрганиш ўзига хос аҳамиятга эга бўлиб, бундай мотивларни ижодий компетенциясини ривожлантириш мотивлари, деб айтишимиз мумкин.


Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар ва уларнинг натижалари, фан-техника ютуқлари, педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришнинг инновацион технологияларини ўрганишга ундовчи мотивларни аниқлаш ва улардан ўз моҳиятига кўра тўғри фойдаланиш зарур ҳисобланади, чунки ижодий

компетенцияни ривожлантириш мотивларининг ўзига хос хусусиятлари ижодий компетенциялиликни ривожлантириш жараёнлари ва тарбиявий муносабатлар жараёнларининг самарадорлигига ўз таъсирини кўрсатади, яъни турли хил мотивлар таълим муассасаларида ижодий компетенцияни ривожлантиришга йўналтирилган таълимий муҳитнинг ўзгаришига олиб келиши мумкин.

Фикримизча, талабаларда касбий компетентликни ривожлантириш жараёнларида мотивлаштириш талабаларни умуммиллий қадриятлар, миллий урф-одатлар, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар ва уларнинг натижалари, фан-техника ютуқларини ўрганишга ундашнинг кўп даражали ва мураккаб тизими бўлиб, эҳтиёжлар, қизиқишлар, интилишлар, воситалар, эътиқод, мақсад, орзу-истак, манфаатлар, талаблар, қадриятлар, урф-одатлар ва бошқалар мазкур тизимнинг компонентлари ҳисобланади. Ўқув мотивлари ва ўқув самарадорлигининг ўзаро боғлиқлиги ва алоқадорлиги бўйича маълумотлар келтирилганда, талабанинг интеллектуал даражаси ва қобилиятлари ҳақида фикр юритилишини кўришимиз мумкин. Мотивлаштириш маълум бир эҳтиёжлардан келиб чиқиб, талабалар фаолиятини психологик таъсир этиш йўллари билан мақсадга мувофиқ йўналтиришдир. Мотивлаштириш жараёнида талаба эҳтиёжлари ёки талабаларнинг умумий манфаатларини ифодаловчи эҳтиёжларини инобатга олиш зарур, чунки мотивлаштириш эҳтиёжларнинг қондирилиши асосида амалга оширилади.

Талабаларда касбий компетенцияни ривожлантириш жараёнларида мотивлаштириш жуда муҳим аҳамият касб этади, чунки таълим муассасаларида нафақат малака ошириш курсларида таълим олиш, балки мустақил таълим олиш учун ҳам шарт-шароитлар яратилиши зарур бўлиб, бунда талабаларнинг мустақил таълим олиш жараёнини ҳам назорат қилиш ва мувофиқлаштириш ўзига хос аҳамият касб этади ва унда давлат ва жамият, талаба, фан ва ишлаб чиқариш эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда мотивлаштириш амалга оширилади.

Қуйида тадқиқот натижалари ҳақида маълумотлар келтирилади. Жадвалда талабаларнинг шахслилик хусусиятлари умумий ўртача қиймати келтирилади.



Жадвалдан кўриниб турганидек, талабалар шахслилик хусусиятларининг умумий ўртача кўрсаткичи “Мулоқотга мойиллик” шкаласи бўйича биология йўналиши талабаларида 5,85 ни психология йўналиши талабаларида эса бу кўрсаткич 6,17 ни ташкил этади. Бу эса стандарт кўрсаткич бўйича ўртачани ташкил этади. Бу кўрсаткичга эга бўлган талабалар бошқалар билан ҳамкорлик қилишга тайёр, диққат эътиборли, қаттиқ ғазабланиш ёки хурсанд бўлиш ҳолатларига (ички ҳаяжонланиш, эҳтирос)га берилмайдилар, хулқини бошқара олиш қобилиятига эга, раҳмдил ва самимий, лекин талабчан бўлишади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, таъкидлаш мумкинки, талабаларнинг талабаига хос бўлган индивидуал-психологик хусусиятлари уларнинг талабалараро муносабатлар тизимига, касбий компетенцияси жараёнининг самарадорлигига ўз таъсирини кўрсатади.

AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONIDA QADRIYATLARNING O`RNI VA AHAMIYATI

*Saidazizova Ziyoda Ulug`bek qizi
Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti
“Ijtimoiy fanlar” fakulteti “Psixologiya” yo`nalishi
2-kurs magistranti*

Dunyoda shunday qadriyatlar borki, ular asrlar o`tsada o`z ahamiyatini yo`qotmaydi, avloddan avlodga o`tib kelib barcha davrlar uchun universal va ahamiyatli bo`lib qolaveradi. Bunday qadriyatlarga ko`plab misollar keltirish mumkin, milliy qadriyatlarimiz va avvalo insonning o`zi shunday qadriyatlar sirasiga kiradi. Insonni qadrlash, uning manfaatlarini himoya qilish barcha davrlarda ham muhim sanalgan qadriyat hisoblanadi. Boshqa jihatlar singari qadriyatlar ham ijtimoiy tajriba bilan bir qatorda avvalo oilada paydo bo`ladi, so`ngra esa ijtimoiy muhitda rivojlanib boradi. Oilada paydo bo`lishi avlodlararo vorislik asosida amalga oshadi. Asrlar davomida avloddan avlodga o`tib kelayotgan qadriyatlarni saqlashda avlodlararo muloqotning ham o`rni katta. Muayyan bir shaxs dunyoga kelib o`sib ulg`ayish jarayonida o`zidan katta avlod vakillaridan bir qancha qadriyatlar tizimini ko`rib o`zlashtiradi. Uning oilasi uchun muhim bo`lgan ko`pgina qadriyatlar uning uchun ham o`z ahamiyat darajasini yo`qotmaydi va oilaviy muhim qadriyatlar sifatida umri davomida unga hamroh bo`ladi va o`z navbatida u ham shu qadriyatlarni o`zining davomchilariga yetkazadi. Aynan shu jarayon “Vorislik” deb ataladi.

«Vorislik» tushunchasi falsafiy kategoriya bo`lib, u tabiat, jamiyat va inson tafakkuri bilan bog`liqdir. “Voris” so`zi davom ettiruvchi ma`nosini anglatadi. «Vorislik» orqali tabiat, jamiyat va inson tafakkurining doimiy o`zgarishi, rivojlanishi uzviy aloqadorlikda namoyon bo`ladi. Bu jarayon «eskilik»ning bag`rida sodir bo`ladi. Vorislik «eskilik»ning muayyan jihat va holatlarini inkor qilish bilan birga, «Yangilik»ning davom etishini ham ko`rsatadi. Shu ma`noda, vorislik “... o`tmish, hozir va kelgusida bo`ladigan hodisalarning zaruriy bog`liqligini ifoda etuvchi umumfalsafiy

tushunchadir⁹". Vorislik o'tmish merosiga tayanib, taraqqiyotni yuksak bosqichga ko'tarish, undagi uzluksiz aloqa va bog'lanishni ta'minlashdir. Borliq, harakat shakllarining genezisi shuni ko'rsatadiki, taraqqiyotning har bir yuqori bosqichi quyi bosqich bilan bog'liq bo'lganida mazmunan boyiydi va rivojlanadi.

Vorislik taraqqiyotning turli bosqichlari o'rtasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Progressiv vorislik taraqqiyotdagi sifat o'zgarishi va ilgarilama harakat bilan ifodalanadi, sifat o'zgarishi taraqqiyotni ta'minlaydi. Regressiv vorislik esa taraqqiyotga to'sqinlik qiladi. Darhaqiqat, inson bilimi va ma'naviyatining yuksalishi jamiyat taraqqiyotining dastlabki davridan to hozirgi kungacha uzluksiz davom etmoqda. Bu uzluksizlik natijasida inson mukammallashib, koinotni zabt etdi, axborotlashgan jamiyatda o'z imkoniyatini namoyon etib, uning misli ko'rilmagan moddiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minladi. Bu vorislikning ijobiy xarakterini ifodalaydi. Shu bois, ijtimoiy hayotdagi islohotlar jarayonida vorislikni ta'minlash, saqlash va unga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Vorislikdagi bu mutanosiblikning buzilishi, jamiyatda salbiy, destruktiv hodisaga olib keladi.

Vorislikning salbiy ko'rinishi ham takomillashish xususiyatiga ega. Zero, o'tmishdan meros qolgan, bugungi kunda yangi shaklda namoyon bo'layotgan ma'naviy qashshoqlik insoniyat taqdiriga xavf solayotgan umumbashariy muammoga aylanmoqda. Natijada, "bugungi kunda diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm chuqur ildiz otib, o'zlarining qabih, jirkanch niyatlarini amalga oshirish uchun aynan shunday o'zining qadriyatlar tizimiga ega bo'lmagan ma'naviy qashshoq, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash malakalariga ega bo'lmagan kishilarga umid bag'ishlamoqdalar.

Ma'lumki, avlodlararo vorislik keksa avloddan yosh avlodga o'z-o'zidan o'tib qolmaydi. Buning uchun, birinchidan, vorislikni uzatuvchi keksa avlod o'zidan oldingi ajdodlari merosini to'la, haqqoniy o'zlashtirishi, uni yosh avlodga mohirlik bilan uzatish mahoratiga ega bo'lishi, ikkinchidan, keksa avlodning jamiyatda tutgan o'rni yosh avlod tomonidan e'tirof etilishi, qariyalarning hayotiy faolligi susayib borishini

1 "Xayrullaev M., Shoraimedov D. Madaniyat va meros. -T.", "ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.-B. 16.

hisobga olib, turli imtiyozlar yaratib berilishi zarur. Uchinchidan, yosh avlod uzatilayotgan ma'naviy merosni qabul qilishga moyil bo'lishi lozim. Afsuski, bu moyillik hozirgi globallashuv jarayonida birmuncha susayib bormoqda.

Turli avlod vakillari o'rtasidagi muammolar jamiyat hayotida tahlil etilar ekan, yosh avlodning axborotlashgan jamiyatda yangi innovatsion texnologiyalarga ortib borayotgan ehtiyojlari e'tiborga olina boshlandi. Shunisi muhimki, avval vorisiylik belgilari qadriyatlar asosida kattalardan kichiklarga berilgan bo'lsa, innovatsiyalarning ijtimoiy hayotga kirib kelishi natijasida katta avlod kichik avloddan axborot texnologiyalar bilan ishlashni o'rgana boshladi.

Avlod - bu aniq tarixiy davrda shakllangan va yosh farqi asosida faoliyat yurgizish shart-sharoitlari bilan chegaralangan insonlarning ob'ektiv ravishda shakllanadigan sotsial-demografik va madaniy-tarixiy birligi sanaladi. Avlodga tipik antropogenetik, sotsial-psixologik, g'oyaviy-axloqiy va etnomadaniy xususiyatlar, shuningdek sotsiumdagi o'xshash ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy tajriba va hayot tarzi xosdir.

1991 yilda ikki amerikalik tadqiqotchi turli avlodlar o'rtasidagi xususiyatlar va farqlarni tasvirlashga qaror qildi: Uilyam Shtrauss va Neil Howe. Ular yaratgan "Avlodlar nazariyasi" (1991) turli avlodlarning qadriyat yo'nalishlari sezilarli darajada farqlanishiga asoslangan edi. Shtraus va Xov ushbu farqlarni, shuningdek, ularni yuzaga keltirgan sabablarni (siyosiy va ijtimoiy vaziyat, texnologik rivojlanish darajasi, o'z davrining muhim voqealari) o'rgangan. Olimlar inson umrini o'rtacha 80 yil deb olib, 20 yillik oralig'idagi 4 davrga bo'lib o'rganishni taklif etishgan: bolalik, yoshlik, o'rta yosh davri va qarilik.

Har bir avlod o'z umri davomida 4 xil o'zgarishlarni boshidan o'tkazadi: ko'tarilish, uyg'onish, tushish va inqiroz davrlari. Olimlarning fikricha avlod- har 20 yilda dunyoga keladigan insonlar bo'lib, ularni bebi-bumer, X avlod, Y avlod va Z avlod deb nomlashgan.

1- avlod vakillari bebi-bumers (Baby boomers) deb ataladi, chaqaloq boomer avlodlari 1943-1963 yillarda tug'ilgan insonlar hisoblanadi. Ularning asosiy qadriyatlari shaxsiy o'sishga qiziqish, kollektivizm, jamoaviy ruhdur. Bunday insonlar shaxsiy

o'sishni birgalikda, jamoa sifatida natijalarga erishish qobiliyatining o'sishi deb tushunishadi. Endi deyarli barcha chaqaloq boomers pensiya yoshiga yetdi. Shunga qaramay, ularning ko'pchiligi hali ham ishlamoqda. Ko'pgina chaqaloq boomerlarning o'ziga xos xususiyati - havas qiladigan sog'liq va chidamlilik. Bu avlod o'z talablari bo'yicha eng barqaror va barqarorlikka qat'iy e'tibor qaratgan. Agar siz chaqaloq boomers uchun barqaror sharoitlar yaratsangiz, ularni moddiy bo'lmagan motivatsiya yordamida natijaga erishish uchun ham "zaryad qilishingiz" mumkin.

2- avlod vakillari - "X" avlodi deb nomlanib, ular 1963 yildan 1983 yilgacha dunyoga kelgan avlod vakillari hisoblanishadi. Ular quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: o'zgarishlarga tayyorlik, tanlash qobiliyati, global xabardorlik, norasmiy qarashlar, o'z-o'ziga ishonch. "X" uchun asosiy motiv - korporativ madaniyatning ajralmas qismi bo'lish, kelajakka ishonch va aniq tashkiliy tuzilma. Bu avlod vakillari uchun mehnat motivatorlaridan biri bu ularning hayoti davomida o'rganish imkoniyatidir. Moddiy motivatsiyaga kelsak, X avlod vakillari belgilangan maoshni afzal ko'radi. Ish haqining juda ko'p o'zgaruvchan qismi ularni asabiylashtiradi.

"X" avlodi qadriyatlarini shakllantirgan voqealarga OITS, qayta qurish, giyohvand moddalar, Afg'onistondagi urushni qo'shish mumkin. Insonlarning bu avlodini mashaqqatli mehnat va shaxsiy muvaffaqiyatga bag'ishlangan "yolg'izlar avlodi" deb atash mumkin. X avlod vakilining psixologik portretida o'zini bilish istagi va ijtimoiy muammolarni hal qilishni istamaslik kabi fazilatlarga e'tibor qaratiladi. Nisbatan yuqori moliyaviy ahvol "X" ga o'zlariga yoqadigan biznes bilan shug'ullanish, ko'p o'qish va o'z-o'zini tarbiyalash, sayohat qilish, sevimli mashg'ulotlariga ega bo'lish imkonini beradi. Psixologlarning ta'kidlashicha, X avlod vakillari boshqalarga qaraganda ko'proq ruhiy tushkunlikka tushishadi. Hissiy jihatdan "X" odamlari his-tuyg'ularning samimiyligiga, do'stona va oilaviy munosabatlarda doimiylikka intiladi, ular o'z qo'shnilari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga tayyor, hatto bu yo`lda o'z manfaatlariga ham zarar yetkazadilar.

Bular umri davomida o'z karyerasini bosqichma-bosqich qurishga va bir yo'nalishda harakat qilishga odatlangan odamlardir. "X" avlod vakillari 30-40 yil muayyan zavod, korxonada yoki davlat muassasasida ishlab, yillar davomida tajriba

to'plagan, kasbiy yo'lini eng quyi pog'onadan boshlab yuqorigacha ko'tarilgan insonlar hisoblanishadi.

3- avlod vakillari - "Y" avlodi deb atalib, 1983 yildan 2003 yilgacha dunyoga kelgan shaxslar hisoblanadi. Ular muvaffaqiyat va qat'iyat haqida o'z tushunchasiga ega. Ularni Uilyam Shtrauss va Neil Xaular "Y" avlod vakillarini "O'yinchilar" (Gamers) deb nomlashadi, sababi ular avvalo axborot texnologiyalari rivojlangan davrda dunyoga kelishgan va ularning psixologik xususiyati ham aynan o'yinchilarga xos, ya'ni tavakkal qilishga moyil, sabrsiz va bir joyda uzoq ishlashni xohlashmaydi, mansab pog'onalaridan ham tezroq ko'tarilishni xohlashadi, ko'pincha o'z yo'lini pastdan boshlashga tayyor emaslar va asta-sekin yuqoriga ko'tarilishadi, ko'tarilish va ish haqini oshirishni yillar davomida kutishadi, "o'yinchi" xodimlarning asosiy kamchiligi "e'tiborini tezkor mukofotga qaratish" deb hisoblanadi. "Gamers" ba'zan "tarmoq avlodi" deb ham ataladi. Ajablanarlisi shundaki, ular World Wide Web, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar orqali eng oson ishga olinadi. "Y" uchun asosiy motiv - moliyaviy mukofot, byurokратиyaning yetishmasligi, texnologik samaradorlik (masalan, ofislarni yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlash).

"Y" avlod vakillari aql bovar qilmaydigan ma'lumotlar oqimi va juda beqaror tashqi professional muhitni hisobga oladi, "Y" juda tor sohada mutaxassis bo'lishga va butun umri davomida ishlashga qodir emas. Y avlodi zamonaviy kompaniyalarning asosiy umidi va tayanchidir. Nega? Chunki "Bu avlod misli ko'rilmagan darajada texnik savodxonlik, uyda bajariladigan ishlar hajmining ortishi, yangi bilimlarga intilish bilan ajralib turadi¹⁰".

Bu odamlar hozirda mehnat bozorining asosiy ishchi kuchiga aylandi. Biroq, zamonaviy ish beruvchilar uchun "geymerlar" ning jozibadorligi nafaqat ularning yuqori texnik savodxonligi bilan izohlanadi. Olimlarning kuzatishlariga ko'ra, kasbi bo'yicha ishlaydigan ushbu avlod vakillarini tez-tez uchratish mumkin emas - ular ko'pincha shu yerda va hozir yuqori daromad olish mumkin bo'lgan sohalarda ishlashni afzal ko'rishadi.

¹⁰ <https://gigafox.ru/uz/vedenie-beremennosti/teoriya-pokolenii-x-y-z---kto-oni-trudovye-cennosti-v-pokolencheskom-analize/>

4- avlod vakillari - “Z” avlodi deb nomlanib, ularning kasbiy xususiyatlari haqida biror narsa aytish uchun hali juda erta. 2003 yildan keyin tug'ilganlar “Z” avlodiga mansub. Bu odamlarni yoshini hisobga olgan holda professionallik nuqtai nazaridan baholashga hali erta. Va ularning ongida qanday qadriyatlar hukmron bo'lishini hozircha aytish mumkin emas. "Y" avlodi o'z izdoshlariga qanday qadriyatlarni o'tkazishini hozircha aytish qiyin, chunki vaqt tezlashmoqda va texnologiyalar katta tezlikda o'zgarib bormoqda.

“Z” avlod vakillari vakillari hozirgi kunga o'spirinlik davrini boshidan o'tkazayotgan avlod hisoblanadi. Bu davr vakillari hozirda o'qish faoliyati bilan band bo'lib, aynan bu davr uchun qanday qadriyatlar ustunlik qilishini o'rganish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

OILADA SOG`LOM RUHIY IQLIM BARQARORLIGINI VUJUDGA KELITIRISH USULLARI

Tosheva Dildor Toyirovna
Buxoro viloyati Romitan tuman 30-maktab psixologi

Oilada kattalar obro'si qo'rqitish asosida vujudga kelmasdan, balki samimiylik, iliq hurmat zamiriga qurilishi maqsadga muvofiqdir. Oila a'zolarining inoqligi, xatti-harakati, kiyinishi mehnat faoliyati, o'zga kishilar to'g'risidagi suhbatlari va ularning boshqa sifat hamda fazilatlari bolaning murg'ak tasavvuriga yangi timsollarni olib boradi. Kichik yoshdagi bolalar tarbiyaga beriluvchan hamda kattalarga ishonuvchan bo'ladilar. Ota-onalar umrning bu xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqotda bo'lsalar, oilada totuvlik qaror topadi. Shu fazilatlar bola ongiga singib boradi va u kelajakda axloqdan sog'lom o'smir bo'lib yetishadi. O'smirlik davrida (11-15 yoshlar) bolaning ruhiy dunyosida kata o'zgarishlar yuz beradi. Ota- onalar o'smirlar bilan muloqotga kirishishda ularning izza-nafsiga tegmasligi zarur. Aks holda ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbat o'rnini nafrat, hasad egallashi mumkin. O'smirlarning jinsiy tarbiyasiga rahbarlik qilish ota-onalarni bolalariga yanada yaqinlashtiradi. Ota-onalar

ularning maslahatgo`yi, sirdoshiga aylanadilar. O`smirlarning yurish-turishi, mehr-oqibati, aqliy kamoloti turlicha bo`ladi. Shining uchun ular bilan munosabatlari doimo shaxsiy yakka xususiyatlarini inobatga olgan holda ish tutish, oiladagi o`zaro munosabatlar, totuvlik, hamjihatlik, ruhiy moslik vujudga keladi. Bu o`rinda otaning onaga va aksincha, bir-birlariga bo`lgan munosabatlari ham shu iqlim shart-sharoitlariga tubdan mos tushishi shart. Chunki ota-onaning o`zaro totuv hayot kechirishi oilaning tarkib topishi borasidagi asosiy omildir.

Ilk o`spirinlar kelajak uchun qayg`uradigan, ertani o`ylaydigan, ota-onalarning yaqin yordamchisiga aylanadilar. Shuning uchun ham ota-onalar o`spirin farzandlari bilan maslahatlashib ish tutishlari, ularning dardlariga, mulohazalariga quloq solishlari, ra`ylariga qarashlari, ular bilan xisoblashlari lozim. Ba`zan oiladagi bolalar ichida tarbiyasi qiyinlari ham uchrab turadi. Ota-onalar ularga nisbatan o`zgacharoq yo`l tutishlari, nopok, noto`g`ri ishlarga boshlovchi sabablarni aniqlashlari va bu illatlarga qarshi sabot bilan kurashishlari kerak. Agar bu holat oiladagi ruhiy iqlimga hadeb salbiy ta`sir etaversa, u holda maktab pedagogik jamoasiga, mahallaga murojaat qilinadi. Vaholanki o`zbek xalqida bir bolaga yeti qo`shni otalik qiladi degan gap bor, bu gap bejiz aytilmagan, albatta.

O`spirinlarda inson uchun muqaddas, eng nozik tuyg`u sevgi kurtagi paydo bo`ladi. Shu tuyg`u qalbini qamrab olishi tufayli bolaning ruhiy dunyosida ayrim o`zgarishlar ro`y beradi. Ota-ona bolalarining yuragidagi bu tuyg`usidan xabardor bo`lishi, kerakli nasihatlar, maslahatlar berishi, hayotdan olingan misollarni namuna qilib keltirishi zarur. Odatda o`spirinlarda kiyinish, yurish-turishda ham ba`zi bir bachkanalik holatlarini kuzatish mumkin. Bunday hollarda ota-onalar farzandlarini majbur qilishi, haqoratlashi, izzat-nafsiga tegish yo`li bilan emas, balki samimiylik bilan tushuntirishlari, ta`sir etishga harakat qilishlari lozim.

Oiladagi ruhiy iqlim, totuvlik hamisha barqaror bo`lishi uchun oilaning qariyalari, ota-onalar o`z farzandlarining ruhiy dunyosini bilishlari va ularning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olib ish tutishlari maqsadga muvofiqdir. O`z navbatida farzandlar oiladagi o`zidan kattalarga hurmat bilan qarashlari kerak. Yana shuni ham unutmash lozimki, ota-ona bolaga hunar tanlashda yordam berib, shu hunarda obro`

topgan, barakali mehnat qilgan kishining qo`liga shogirdlikka berishi kerak. “Ustoz otangdek ulig`” deydi dono xalqimiz. Chunki ustoz o`z bilgan ilmlarini sabr-bardosh bilan bolaga o`rgatadi.

Oila tarbiyasi jarayonida bolalar ongiga singdiriladigan axloqiy qoidalar, urf-odatlar, an`analarga rioya etish yo`l-yo`rig`i zerikarli, quruq nasihatgo`ylikdan iborat bo`lib qolmasligi lozim. Eng yaxshi omillardan biri aniq hayotiylikni tahlil qilish orqali to`g`ri tushuncha va tasavvurlarni hosil qilishdir. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun esa mashhur kishilar haqidagi xotiralar, esdaliklar va ularning tarjimai xollaridan, adabiy asarlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Milliy an`analardan, urf-odatlardan, marosimlardan va rasm-rusumlardan kelib chiqqan holda oilada ota-onaga, qarindosh-urug`larga, kattalarga, muallimlarga hurmat hissini shakllantirish, o`tmish boyliklariga va yodgorliklarga, obidalariga mehr-muhabbat ruhini singdirish oilaning bosh vazifasidir. Ayniqsa, oiladagi kattalar kichiklarga atrof-muhit muhofazasi haqida tez-tez ma`lumotlar berib turishlari lozim. Oilada mehnat taqsimoti to`g`ri va adolatli amalga oshirish bolalarda har xil ko`nikma va malakalarni tarkib topdirish mehnatsevarlik xislatini shakllantirishga xizmat qiladi.

ЎЗБЕКИСТОНДА ПСИХОЛОГИЯ ФАНИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ

*Джураева Райхон Озодовна
Қашқадарё вилояти Китоб тумани
2 – мактаб амалиётчи психологи*

Дастлабки педагогик ва психологик марказлар 1918 йили Тошкент ва кейинчалик Чимкент шаҳрида ташкил қилинган. Педагогик музей ва педагогик лаборатория универсал ўқув тарбия муассасаси бўлиб таълим тарбия билан боғлиқ бўлган ҳамма вазифаларни қамраб олади. Бунинг ёрдамида таълим методлари ишлаб чиқарилган, шу ернинг ўзида синалган ва республиканинг бошқа ўқув муассасаларига тарқатилган. Ишнинг бундай ташкил қилинганлиги

тадқиқот қилишга имкон берган. Педагогик лаборатория ҳақида низомда шундай дейилган: бу жой педагогик фикр ва ишнинг маркази бўлиши лозим. Шунинг учун педагогик ишнинг ҳар бир янгилигини ўқитишда лабораторияда тўпланган бой тажрибадан фойдаланиш имконияти берилиши керак, бу имконият бевосита мактабларга берилиши лозим. Бошқа лаборатория ва кабинетлар билан бир қаторда педагогик лаборатория ва педагогик музейда экспериментал психологик лабораторияси ҳам мавжуд бўлиб, бу ерда турли хил психологик тажрибалар амалга оширилган. 1919 йили 1 апрелда Кавман Хорват маориф комиссарига хат йўллаб, давлат кўзи ожиз, гунг, рухий касал ва психик тараққиёти ҳамда психикаси мувозанатсиз болаларни ўз тарбиясига олиши зарурлигини таъкидлаган. Худди шу мақсадда бутун бир махсус муассасалар тизимини ташкил этишни таклиф этган. Хорватнинг таклифи бир неча йўналиш бўйича диққатга сазовордир. Биринчидан, бу комплекс характердаги иш бўлиб, бирон бир психоневрологик касаллик назардан четда қолмаган. Иккинчидан, бу режада қаттиқ кетма-кетликнинг бир неча босқичи назарда тутилган.

1. Касаллик диагностикаси (тадқиқот даражаси);
2. Касалларни даволаш (амалий тиббий даражаси);
3. Касалларни тарбиялаш ва таълим бериш (амалий таълим даражаси).

Биринчи даражани психологик лаборатория, иккинчи даражани махсус даволаш муассасаси, учинчи даражани мактаблар амалга ошириши кўзда тутилган. Туркистондаги муассасалардан бири «Ўзбек давлат илмий тадқиқот институти», ҳозирги Қори Ниёзий номидаги педагогика фанлари илмий тадқиқот институти 1929 йили ташкил қилинган бўлиб, ҳозирги кунга қадар бу институт ўқитишнинг педагогик концепцияларини, мактаб ва мактабгача тарбия муассасаларида таълим-тарбия назариясини яратувчи ягона марказ ҳисобланади. 30-йиллар бошларида институт таркибида қуйидаги кабинетлар мавжуд бўлган:

1. Социал гигиена.
2. Иқтисод.
3. Педалого педагогик.
4. Психологик лаборатория.

Институт ташкил бўлган вақтдан бошлаб ерли халқ хусусиятлари ва ижтимоий муҳитни чуқур тадқиқ қилиш, болаларнинг психологик ижтимоий маданий хусусиятини ҳисобга олган ҳолда дарсларни яратиш билан шуғулланди. Институт фаолиятининг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборат эди:

1. Илмий эскпедициялар уюштириш;
2. Болалар характерини ўрганиш;
3. Педагогик кадрлар тайёрлаш.

Давлетшин Муҳаммад Габдулгалимович 1923 йилда туғилган Тошкент Давлат Университетининг психология кафедра мудир, психология фанлари доктори, 1957 йилда ««5» ва «7» синф ўқувчиларида техник қизиқишларнинг шаклланиши» мавзусида номзодлик, 1971 йил «Ўқувчиларни техник қобилиятлар психологияси» мавзусида докторлик диссертациясини ҳимоя қилган. М.Г.Давлетшин раҳбарлигида, унинг бевосита маслаҳатлари ёрдамида Ўзбекистонда 100 дан ортиқ номзодлик ва докторлик ишлари ҳимоя қилинган. Ўзбекистонда турли хил муаммолар бўйича умумий, ёш психологияси, социал психология бўйича Ф.С. Исмоилова, Д.З. Зайнобиддинов, Мажидов, И.Маҳмудов, Л.К. Саитов, М.И. Мусаева, В.Г. Горобец, Д.Д. Шарипов, Р.К. Шохназаров, Ж.У. Мавлонов, В.Мажитова, М.И.Сагатов, Д. Эгамбердиева, Г. Абдусаматов, К. Собиров, А. Синдаров ва бошқа олимлар илмий изланишлар олиб борганлар. Бундан ташқари турли мавзуларда 25 та иш ҳимоя қилинган. Булардан нутқ психологияси бўйича 7 та иш: (П.П. Замин, Н.Н. Нигматов, А.И. Аржонова, Х. Очилова ва бошқалар), хотира психологияси бўйича 4 та иш: (П.И. Иванов, М.В. Вохидов, Х.М. Гафурова, В.П. Иванова); диққат бўйича М.Х. Раҳмонова; таълим-тарбия бўйича 14 та иш (Ғозиев, Қодиров, Расулов, Усмонова, Краснобоев, Токарева ва бошқалар); Меҳнат психологияси бўйича 4 та иш (Турғунов, Сотиболдиев, Елисеев Холматов); шахс мавзуси бўйича 3 та иш (Ғофуров, Саидуллаев, Шақоволов); дифференциал психодиагностика бўйича 1 та иш (Мадмаров); юридик психология бўйича 2 та иш (Ибрагимова, Запрыгаев); спорт психология бўйича 3 та иш (Гаппаров, А.Гайнутдинов, Р.Гайнутдинов); нейропсихология бўйича 1 та иш

(Бобожонова); психология тарихи бўйича (С.Рахимов) социал психология бўйича 3 та иш (Каримова, Абдумўминов, Турсунов) ва бошқа турли психологияни бўлимлари бўйича кўпгина олимлар иш олиб бориб, Ўзбекистонга психология фанини олиб кириб, тўлалигича очиб бердилар. Ҳозирги кунда Ўзбекистонда психология тармоқлари кучайиб, унга катта эътибор берилмоқда. Ҳозирги етишиб чиққан барча олимларимиз Ўзбекистондаги психологияни чет мамлакатлар психологияси каби юқори чўққига чиқишида катта хисса қўшишга интиломоқдалар. Одамлар онгига эса миллий психология асосида, яъни миллийлик руҳида тарбиялаб, уларни онгига психологияни синдирмоқдалар. Ўзбекистонда психология фанининг ҳозирги аҳволи илгаригидан анча ривожланган. Чунки бу фанни ўқитиш бўйича муассаса тайёрлов курслари ва марказлар очилиб кишилар онгига етиб бормоқда. Ўзбекистонда психология фанини ривожланишида Б.Қодиров, Ғ.Шоумаров, В.Каримова, М.Воҳидов, М.Давлетшин, Э.Ғозиев ва бошқа олимларнинг хиссаси катта. Ҳозирги кунда психология фани ҳам ўз тармоқларини ривожлантирмоқда. Хулоса қилиб айтганда, психология фанини ривожини одамлар ҳаётига яъни яшаш тарзига ўз таъсирини кўрсатмоқдалар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Е. Ғозиев. К.К.Мамадев "Касб психологияси ". Тошкент 2003
2. Давлетшин М.Г. Психологияда шахсни ўрганиш истиқболлари.- “Халқ таълими” журнали, 2001 йил 3-5 сонлар.
3. Ғозиев Э. Психология.(Ёш даври психологияси).–Т.: “Ўқитувчи”, 1994 й.
4. Матмуратова Н.Б. Ўқитувчиларга психологик ёрдам берувчи ўйин ва машқлар. Ўқув-услубий қўлланма.- Т.: ТДПУ, 2006 й.
5. Стрелкова Л.П Уроки сказки. – М.: Педагогика, 1989, 53 ст.
6. Соколов Д.Ю. Сказки и сказкотерапия. – М.:Класс,1997, 94 ст.

БОЛА ТАРБИЯСИДА ОТА-ОНАЛАРГА МАСЛАХАТ

*Эсанова Феруза Турдибоевна
Самарқанд вилояти Пайариқ тумани 53-мактаб психологи,
Бобоярова ШахлоУсмоновна
Самарқанд вилояти Пайариқ тумани 60-мактаб психологи*

Барчамизга маълумки, фарзанд инсон ҳаётининг мазмуни, насл-насабини давом эттирувчиси, оиланинг мустаҳкам занжиридир. Яхши, солиҳ ва баркамол фарзанд ота-онанинг бахт-иқболи, икки дунё саодатига етиштирувчи дилбанди. Фарзандлар «Жаннат райҳонлари» деб тавсифланиши бежиз эмас. Аммо у одобли, яхши фазилатлар соҳиби бўлгандагина ота-онасига раҳмат ва бахт-хурсандчилик келтиради. Оила қуриш ва солиҳ фарзандлар кўришни орзу қилмаган инсон бўлмаса керак. Бола тарбияси билан астойидил шуғулланган оилаларнинг болалари мактабда ўз имкониятларини дарс жараёнида қийналмасдан кўрсата оладилар. Бола тарбиясида ота-онанинг рўли муҳум ҳисобланади. Оилада фарзанд тарбиясида қўйилган ҳар бир хато ва камчилик инсоннинг келажагига ўз таъсирини ўтказмасдан қолмайди, тўғри тарбия келажак пойдеворидир. Бола тарбияси ёмон ният билан эмас балки, сабр тоқат, матонат, меҳрибонлик билан бўлиш керак.

Жамиятнинг таназзули эса оила тарқоқлигининг самарасидир. Негаки, оила жамиятни ташкил қилувчи асосий бирикмадир. Оила тарқоқлигининг сабаблари жуда кўп. Бироқ биз бу сабаблардан энг муҳимига эътибор қаратишимиз зарур. У ҳам бўлса, ақиданинг инқирозга учрагани, қалбларда иймон чўғининг сўнганидир. Қолаверса, ота-оналарда фарзандларга нисбатан масъулият туйғуси заифлашди, улар турли хил тубан йўллар ва услублар билан кўнгилочар тадбирлару дунёвий лаззатларга берилишди, ушбу нарсаларга ортиқча кадр-қиймат ва эътибор қаратган ҳолда ота-онанинг бундай ишларга муккасидан кетиши ҳам оила тарқоқлигининг энг муҳим сабабларидан биридир.

Шундан келиб чиққан ҳолда, оилани ҳимоя қилиш йўлидаги саъй-ҳаракатларимиз жамият ва умматнинг таназзулга юз тутишидан асраш ҳамда ақиданинг инқирозга учрашидан сақлашда катта ҳисса қўшади.

Ёлғиз ота-онанинг ўзи асло барча тарбия машаққатини кўтара олмайди. Оилангизда ёши учинчи ўн йиллик (20-30), иккинчи ўн йиллик (10-20) ва биринчи ўн йиллик (1-10) да бўлган, шунингдек, мактаб ёшига етмаган фарзандларингиз бўлса, у ҳолда бу болалар уйда ўзаро исломий одоб-ахлоқларни ўстириш, хато-камчиликларни бартараф этишда ҳамкорлик қилмоқликлари керак. Биз фарзандлардан содир бўладиган хато-камчиликлар ва муваффақиятсизликлардан оиланинг умумий маданиятини пайдо қилиш йўлида фойдаланмоғимиз лозим. Айтайлик, қизингиз ўқув йили якуний имтиҳонидан ўта олмади ва бундан тушкунликка тушиб йиғлай бошлади. Бу сиз оила аъзолари учун қизингизга нисбатан ҳамдардлик, меҳрибонлик ва ёрдам қўлини чўзиш учун қулай фурсатдир.

Фарзандларингиздан бири ўз иниси билан жанжаллашиб қолди, дейлик. Бу жанжал асносида улар ўртасида ўзаро тушунмовчилик ва одоб доирасидан чиқиш юз берди. Мазкур ҳолат улар иккисидан хато содир қилганининг узр сўраши, бошқа бирининг эса ўз саховати ва кечиримлилигини изҳор қилиши учун айти муддаодир.

Шунингдек, фарзандлардан бири қайсидир шахсни ғийбат қилди, дейлик. Бу ҳолат ғийбат қилинган шахс шаънини ҳимоя қилиш ва боланинг ушбу хатти-ҳаракатининг нотўғри эканини эслатиш учун муносиб фурсатдир. Биз жоҳил ва тарқоқ оилалар аъзолари ўртасига раҳна соладиган ишларнинг ўзаро оилавий ришталарни кучайтирувчи, жамоавий меҳр-оқибат туйғуларини ўстирувчи ҳамда уларнинг бу борадаги онг даражасини оширишга ёрдам берувчи омилларга айланишини истаймиз.

Болани ҳеч қачон бирон нарсани нотўғри бажардинг деб нолимаслик, ўз севимли машғулоти ёки ўйин турини танлашига ўз фикрни баён этишига имкон бериш уни хаддан ташқари мақтамаслик, болада ҳар доим ва ҳамма соҳада биринчи бўлишни мактабда эса аълочи бўлишни талаб қилманг, чунки мактабда аъло баҳоларга ўқиш ҳар доим ҳам иқтидорли бўлишга боғлиқ эмаслиги исботланган. Боланинг ҳар бир саволига имкон қадар рост ва сабр билан жавоб бериш, боланинг фақатгина тенгдошлари билангина эмас, балки катталар билан

ҳам эркин ва бемалол мулоқат қилишга ўргатиш лозим. Шунинг билан ҳам ҳеч қачон одобсиз бола туғилмайди. Болани асосан муҳит тарбиялайди, муҳит таъсирини эса кўп жihatдан ота-она белгилайди.

Жумладан;

1. Агар бола кўрқув билан яшаса, у кўрқоқликни ўрганади.
2. Агар бола афсусда яшаса, у афсусланишни ўрганади.
3. Агар боланинг устидан кўп кулишса, у уятчанг бўлиб қолади.
4. Агар бола танқид билан яшаса, у айбланишни ўрганади.
5. Агар бола қизиқиш билан яшаса, у ҳавас қилишни ўрганади.
6. Агар бола қўллаб-қувватлаш билан яшаса, у ўзига ишончни ўрганади.
7. Агар бола бағрикенгликда яшаса, у сабрли бўлишни ўрганади.
8. Агар бола мақтов билан яшаса, у қадрлашни ўрганади.
9. Агар бола ростгўйлик билан яшаса, у ҳақиқатни ўрганади.
10. Агар ота-она осойишталик билан яшаса, фарзанди ҳам осойишталикда яшайди.

Дарҳақиқат тўғри тарбия оилавий муҳит тўғри танланган дўст, вақтдан унумли фойдаланиш бу инсонни улуғликка чорлайди ва ҳаётида ҳеч ҳам адашмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 12 июлдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус давлат таълим муассасаларида психологик хизмат фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” низом 577-сон қарори
2. Адизова Т.М. Психологическая методика изучения личности учащихся в процессе общения. Методическое пособие.-Т.: ТГПУ, 2000 г.
3. Адизова Т.М. Ўқувчиларнинг шахслараро муносабатларини психологик диагностика ва коррекция ишлари. Услубий қўлланма.- ТДПИ, 1997 й.
4. Давлетшин М.Г. Психологияда шахсни ўрганиш истиқболлари.- “Халқ таълими” журнали, 2001 йил 3-5 сонлар.
5. Ғозиев Э. Психология.(Ёш даври психологияси).-Т.: “Ўқитувчи”, 1994 й.
6. Давлетшин М.Г., Дўстмухаммедова Ш. ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик психология.- Тошкент, 2004 й.

7. Матмуратова Н.Б. Ўқитувчиларга психологик ёрдам берувчи ўйин ва машқлар. Ўқув-услубий қўлланма.- Т.: ТДПУ, 2006 й.

АГРЕССИЯ ВА ТАЖАВВУЗКОРЛИКНИ ЎРГАНИШ УСУЛЛАРИ

Tadjibayeva Shoxista Mamatqulovna
O`zDJTSU Sport psixologiyasi va pedagogika kafedrasida
doktoranti

Аннотация: Яккакураш спортчиларида агрессивликни ўрганиш усуллари орқали уларни ўзига хос хусусиятларини ўрганиш юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Аннотация: состоит в разработке предложений и рекомендаций по изучению специфики агрессивности у спортсменов-одиночек с помощью методов исследования их агрессивности.

Annotation: it is the development of suggestions and recommendations on the study of their specific characteristics through methods of studying aggressiveness in Solo athletes.

Мавзунинг долзарблиги: Замонавий психологияда бирламчи маълумотларни йиғиш учун қуйидаги асосий усуллар қўлланилади, улар кейинчалик аниқланиши ва қайта ишланиши керак: кузатиш, эксперимент, сўров, тест.

Эксперимент - бу мақсадли ва самарали тарзда сунъий вазият яратиладиган, ўрганилаётган хусусиятни енг яхши тарзда ажратиб кўрсатиш, намоён қилиш ва баҳолаш усули. Экспериментал ёндашув тадқиқотчига мустақил ўзгарувчиларни бошқаришга имкон беради ва бунинг натижасида тажовузкор хатти-ҳаракатларнинг бошқа ҳодисалар билан сабабий боғлиқлиги тўғрисида аниқроқ хулосалар чиқариш ва тажовузкор хатти-ҳаракатларнинг келиб чиқиши, шаклланиши ва ривожланишини илмий тушунтиришга имкон беради.

Табиий эксперимент табиий шароитларда тажовузкор хатти-ҳаракатларнинг намоён бўлиш хусусиятларини ўрганишга, уни ўз-ўзидан пайдо бўладиган шаклда аниқлашга имкон беради. Табиий экспериментда олинган маълумотлар шахснинг типик (ҳақиқий) хатти-ҳаракатига мос келади, аммо тажовузкорликнинг намоён бўлишига барча турдаги омилларнинг таъсирини қатъий назорат қилиш қобилияти йўқлиги сабабли ҳар доим ҳам аниқ эмас. Лаборатория тажрибасида махсус (сунъий) вазиятлар яратилади, унда тажовузкор хатти-ҳаракатларни ўрганиш энг яхшидир.

Лаборатория экспериментининг натижалари аниқроқ (тадқиқотчи вазиятни ва қизиқишнинг хатти-ҳаракатларига бегона таъсирларни назорат қилади), лекин камроқ табиийдир. Бироқ, тажовузнинг айрим турларини ўрганиш учун экспериментал усулни қўллаш ҳар доим ҳам мумкин ва ахлоқий эмас. Масалан: болаларга зўравонлик билан муносабатда бўлиш, жиноий тажовуз, гиёҳвандлик ва спиртли ичимликларнинг тажовузкорлик намоён бўлиш кучига таъсири ва бошқалар.

Кузатиш усули. Бу усул тажовузкор хатти-ҳаракатларни ўрганишда кенг қўлланилади. Кузатиш махсус танланган вазиятларда ва махсус ишлаб чиқилган дастур бўйича ўтказилиши керак. Бундай дастурнинг мақсади, қоида тариқасида, бошқалар билан (тенгдошлар, ота-оналар, ўқитувчилар, ўқитувчилар ва бошқалар билан) муносабатлар жараёнида ижобий ва салбий омилларни аниқлашдир. Кузатиш маълумотлари экспериментатор томонидан ҳам, субъектларнинг яқин атрофи томонидан ҳам қайд этилиши мумкин.

Агрессивликни аниқлашнинг муҳим тадқиқот усули бу сўровдир. *Сўров* - бу одам ўзига берилган бир қатор саволларга жавоб берадиган усул. Сўров оғзаки ва ёзма, бепул ва стандартлаштирилган бўлиши мумкин. Сухбат - бу еркин оғзаки сўровнинг бир шакли. Сухбат субъектлар билан ҳам, субъектларнинг яқин атрофи (оила аъзолари, ўқитувчилар, ўқитувчилар ва бошқалар) билан ҳам олиб борилиши мумкин. Субъектларнинг энг яқин муҳити билан сухбатлашиш уларнинг оилаларида ҳукм сураётган ахлоқий муҳитни очиб беришга имкон беради; муносабатларнинг моҳиятини, оила аъзоларининг хатти-ҳаракатларини ва

субъектларнинг ўзларининг оиладаги ва ундан ташқаридаги хатти-ҳаракатларини билиб олинг.

Сухбат сизга яқин атроф-муҳит субъектларнинг хатти-ҳаракатларини қандай изоҳлашини, улардан қайси бири ўзини тажовузкор ҳаракатлари учун кўпроқ жавобгар деб билишини аниқлаш имконини беради; субъектларнинг ўзлари ўзларининг тажовузкор хатти-ҳаракатларининг сабабларини қандай тушунтирадилар, улар бунга қандай ахлоқий баҳо берадилар (агрессив хатти-ҳаракатлар).

Бирок, ҳар доим ҳам сухбат ҳақиқий тасвирни акс еттира олмайди, чунки субъектлар ҳар доим ҳам ўзларининг хатти-ҳаракатларининг сабабларини билишлари мумкин эмас.

Ёзма стандартлаштирилган сўровнома (сўровномалар, анкеталар) унинг қатъий қўлланилиши билан нафақат субъектларнинг ички мотивлари, балки уларнинг фаолияти ва хатти-ҳаракатлари натижалари тўғрисида ҳам ишончли маълумотларни олиш имконини беради. Агрессияни ўрганишда анкеталар кенг қўлланилмади. А. Басс буни саволларга жавоблар қисман респондентларнинг ўзини қулай томондан кўрсатиш истаги билан белгиланиши билан изоҳлади. "Ижтимоий нафлилик" тенденцияси одатда ижтимоий жиҳатдан номақбул деб ҳисобланган хатти-ҳаракатларни текшириш учун мўлжалланган сўровномалардан фойдаланганда намоён бўлади. Енг кенг тарқалган ва тез-тез ишлатиладиган анкета 1957 йилда ишлаб чиқилган А. Басс - А. Дарки ҳисобланади ва тажовузкор ва душманлик реакцияларининг кўрсаткичларини (жисмоний, билвосита, оғзаки тажовуз, тирнаш хусусияти, нэгативизм, шубҳа, норозилик ва айбдорлик) аниқлашга қаратилган. Агрессивлик ва тажовузкорликни ўрганиш учун "Фрайбург тажовузкорлик анкетаси", А.Ассингернинг тажовузкорлик даражасини диагностика қилиш усули, Т.Лирининг шахслараро муносабатларни аниқлаш усули ва бошқалардан фойдаланиш мумкин.

Проектив тестлар. Агрессияни ўрганишда проектив тестлардан ҳам фойдаланиш мумкин. Улар субъектга тадқиқот мақсадини (тадқиқотчини нима қизиқтираётганини) ошкор етмаслиги билан қулайдир, чунки тадқиқотчи

билвосита тажовуз ҳақида сўрайди. Агрессияни ўрганиш учун бундай проектив тестлар кўпинча қўлланилади: Топикал апперсептион тести (ТАТ), Рорсчач сиёҳ тести, "Мавжуд бўлмаган ҳайвон" тести, Ж. Букнинг "Уй. Ёғоч. Инсон ", ярим проектив тест "Манзарали умидсизлик "С. Росензверг томонидан.

Аммо проектив тестларнинг муҳим муаммоларидан бири шундаки, уларни шарҳлаш жуда қийин. Уларнинг талқини кўпроқ вақт талаб этади ва жуда кўп субъективликни ўз ичига олади.

Шундай қилиб, тажовузни турли усуллар ёрдамида ўрганиш мумкин, аммо энг яхшисини ажратиб бўлмайди. Чунки бу усулларнинг ҳар бири ўзининг афзалликлари ва камчиликларига эга ва уларнинг ҳеч бири тадқиқотчини қизиқтирган барча саволларга тўлиқ жавоб бера олмайди. Шунинг учун тажовузни ўрганиш учун танланган усуллар қилинган тахминларни тасдиқлашига асосланиб, бир нечта усул ва стратегияларни танлаш керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Асямов С. В., Пулатов Ю. С. Ички ишлар органлари ходимларининг касбийпсихологик тренинги: Ўқув қўлланма. Т., 2002.
2. Бандура А. Уолтерс Р. "Подростковая агрессия". – М., 1999. - 512с.
3. Белинская Е. П., Тихомандрицкая О. А. Социальная психология личности. – М., 2001. Березин Ф.Б. Психологическая и психофизиологическая адаптация человека. Л., 1988.
4. Ильин Е. П. Психология индивидуальных различий.– СПб., 2004.
5. Ғозиев Э. Ғ. Умумий психология, 1,2 китоб. Т., 2002.

СПОРТДАГИ АГРЕССИВЛИК МУАММОСИ ВА УНИНГ СПОРТЧИЛАР МОСЛАШУВИГА ТАЪСИРИ

Tadjibayeva Shoxista Mamatqulovna
O`zDJTSU Sport psixologiyasi va pedagogika kafedراسи
doktoranti

Аннотация: Яккакураш спортчиларида оптимал агрессивлиги ривожлантириши орқали, ўзини ўзи бошқариши ва коммуникатив фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини шакллантириши юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Аннотация: посредством развития оптимальной агрессивности у спортсменов-одиночек она заключается в разработке предложений и рекомендаций по формированию специфических особенностей самоуправления и коммуникативной деятельности.

Annotation: through the development of optimal aggressiveness in solo athletes, it consists in the development of proposals and recommendations on the formation of specific features of self-management and communicative activity.

Мавзунинг долзарблиги: Республикамизда охириги йилларда жисмоний тарбия ва спортни оммалаштириш, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, имкониятлари чекланган шахсларнинг жисмоний реабилитацияси учун зарур шарт-шароитлар яратиш ҳамда мамлакатнинг халқаро спорт майдонларида муносиб иштирок этишини таъминлаш борасида изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Жумладан, жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора тадбирлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартдаги ПФ-5953-сон Фармони билан тасдиқланган 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастурида белгиланган

вазифаларнинг ижросини таъминлаш, шунингдек спорт соҳасида халқаро стандартларга мувофиқ комплекс билимларга эга малакали кадрлар тайёрлаш сифатини яхшилаш, спортда илм-фанни жадал ривожлантириш, юқори малакали рақобатбардош тренер-ўқитувчилар, мутахассислар ҳамда илмий ходимларни тайёрлаш жараёнларини янада такомиллаштириш мақсадидаги фармонлари алоҳида таҳсинга лойиқ¹. Мамлакатимизда ёшларнинг жисмоний ва рухий уйғунликда камолотини, уларда психик барқарорлик ва иродавий сифатларни таркиб топтиришда спорт ва жисмоний тарбия, спорт мактаблари ва тўғарақлари фаолиятини ошириш орқали таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги 2020 йил 2 мартдаги ПФ-5953-сон Фармони

Агрессия атамаси латин тилидан олинган бўлиб, «aggređi» – «тажовуз қилмоқ» маъносини англатади. Психологияда «агрессия» атамасига нисбатан турли ёндашувлар мавжуд бўлиб, Х.Дельгадо, А.А.Басс, Л.М.Семенюк, Г.Паренс, А.Бандура, Р.Уолтерс, Ю.Можгинскийлар томонидан агрессия салбий баҳоланади[1]. Шу билан бир қаторда агрессияга нисбатан ижобий ёндашувлар ҳам мавжуддир. Жумладан, Л.Бендер агрессияни инсоннинг ўз-ўзини намоён қилишга интилишидир, деб таъкидлайди. Мотивлаштириш нуқтаи назаридан, Л.Бендер агрессияни ихтиёрий ва инструментал турларга ажратади. Ихтиёрий агрессия инсоннинг бошқа бир кишига анланган тарзда зарар етказиши ҳисобланади. Инструментал агрессияда инсон ўз олдига бошқага зарар етказишни мақсад қилиб қўймайди. Бу агрессия юзага келган вазиятни ҳал этишда бошқа усулни қўллашга имкон бўлмаган ҳолда юзага келади. Р.Бэрн ва Д.Ричардсонлар агрессияни қурбонга нисбатан мақсадли равишда зарар етказишдир, дея таърифлаганлар[2].

Шахс – ижтимоий муносабатларнинг маҳсули, яъни спортчи шахси бу муносабатларнинг ташувчиси, ижтимоий ҳаётнинг субъекти, жамиятнинг негизидир. Дарҳақиқат, ҳар бир спортчи шахси бутун ҳаёти давомида ижтимоий

муҳит таъсирида ижтимоийлашиб боради ва ўз фаоллигини намоён қилади. Инсон фаоллигини ўзига хослиги шундаки, у муттасил бошқа одамлар ёки ўзи яратган нарсалар билан ўзаро муносабатда бўлади. Улар ўртасидаги бу муносабатларни мувофиқлаштирувчи табиий қонунлардан ташқари, ижтимоий ҳаётда тез-тез учраб турувчи ахлоқий нормаларнинг қатъий қоидалар шаклидаги қонунлари ҳам мавжуд. Пировардида, шахслараро муносабатларни идора қилувчи, бирбирларининг хатти-ҳаракатини ва хулқини, шунингдек, бошқа инсонларга қаратилган хусусий ҳаракатларни баҳолаш ҳамда уларга нисбатан муайян жавоблар қайтаришнинг ўзига хос тизими ишга тушади.


Инсонлар томонидан белгиланадиган муносабатларни акс эттирувчи мазкур тизимнинг нисбийлиги асосан фалсафий ёки ахлоқий масалагина бўлиб қолмасдан, унинг психологик асослари ҳам бордир. Кимнингдир нуқтаи назарига кўра, заруратдек туюладиган хатти-ҳаракат бошқа бир инсон учун нафақат бефойда, балки, зарарли деб ҳисобланиши, бир маданиятда маъқул саналган хатти-ҳаракат бошқа бир маданиятда номаъқулдек эътироф этилиши ҳам мумкин. Шахсга доир индивидуал тараққиёт самарасини ҳамда шахслараро муносабатларни белгиловчи хулқ-атвор ва хатти-ҳаракатларнинг энг муҳим характеристикаларидан бири агрессивликдир. Агрессия- бу одамлар, одамлар гуруҳига нисбатан жисмоний ва руҳий зарар етказишга қаратилган индивидуал ёки жамоавий хатти-ҳаракатлар мажмуи ҳисобланади. Бугун инсоният тарихи ишончл тарзда шуни исботламоқдаки, агрессия шахс ва жамият ҳаётининг ажралмас қисмига айланиб бормоқда. Бундан ташқари, агрессия улкан тортишиш кучи ва юқумлилиқ жислатига эга – кўпчилиқ одамлар ўзларининг агрессив эканини инкор этадилар, аммо ўзларининг кундалиқ ҳаётларида эса уни кенг намоёиш этадилар. Айнан агрессив хулқ-атвор шахслараро низоларни вужудга келишига ва уларнинг ноконструктив ечим йулларини пайдо бўлишига олиб келади.

Ижтимоийлашув – индивиднинг ижтимоий тажрибани ўзлаштириш жараёни ва фаоллиги бўлиб, бу ўз навбатида мулоқот ва фаолиятда намоён бўлади. Ижтимоийлашув жараёни жамиятдаги турли ўзгаришлар ва мақсадга

Йўналтирилган тарбия натижасида стихияли тарзда кечади. Ижтимоийлашув жараёнини турли психологик илмий мактаблар турлича таҳлил қилганлар: 1) необихевиоризм намоёндалари ижтимоийлашув – бу ижтимоий ўрганишдир; 2) интеракционизм вакиллари ижтимоий ўзаро таъсирлар натижаси; 3) гуманистик психология вакиллари эса Мен концепциясининг намоён бўлиши деб таърифлаганлар. Ижтимоийлашув жараёни серқирра жараён бўлиб, юқорида келтирилган психологиянинг илмий мактаблари намоёндалари унинг фақатгина бир томонигагина асосий урғуни қаратадилар. Ҳозирги кунда жаҳон психологлари ижтимоийлашув муаммосини ижтимоий хулқ-атвори бошқаришнинг диспозицион концепцияси нуқтаи назаридан кўриб чиқишга ҳаракат қилмоқдалар. Бу концепция шахслараро муносабатларга кириша олиш даражасига боғлиқ бўлган ижтимоий хулқ-атвори бошқариш тизимини таҳлил қилувчи диспозициялар иерархиясини ўз ичига қамраб олади. Инсонлардаги шахслараро муносабатларда намоён бўлувчи хулқ-атвор типларидан бири бу агрессиядир. Агрессия тушунчасининг ўзига изоҳ бериш қатор қийинчиликларни туғдиради, чунки, бу термин кўплаб хатти-ҳаракат шаклларини ўзида қамраб олади. Одамлар бирон бир кимсани агрессив шахс сифатида тавсифлаганларида, уни бошқаларни ҳақорат қилувчи, ёки бадфеъл, барча нарсани ўзи истаганидек қилишни истайдиган, ёки ўз ғояларини қатъий химоя қиладиган, ечими йўқ муаммолар гирдобига ўзини гирифтор қиладиган инсон, дейишлари мумкин.

Агрессив хулқ – атворни ҳар томонлама тушунтириб берувчи назариялар мавжуд бўлиб, уларнинг ҳар бири агрессия ва уни келтириб чиқарувчи омилларни батафсил тушунтириб беради. Уларни умулаштирган ҳолда қуйидагича таснифлаш мумкин:

- ☞ Психоаналитик ёндашув.
- ☞ Этологик ёндашув.
- ☞ Социологик ёндашув.
- ☞ Фрустрация назарияси.
- ☞ Социол ўрганиш назарияси.



Агрессияга алоқадор энг биринчи ва балки энг машхур назарий тушунча шуки, унга асосан бундай феъл-атвор ўз табиатига кўра кўп жиҳатдан инстинктивдир. Бу кенг тарқалган ёндашувга кўра, инсон генетик ва конституционал равишда шундай ҳаракатларга «программалаштирилгани» туфайли агрессия содир бўлади.

Хулоса қилганимизда агрессивликнинг меъёрдан ортиши натижасида шахсда асаб тизимининг бузилиши, нерв-психик касалликлар, коммуникатив малакаларнинг пасайиши, ўзўзига адекват баҳо бера олмаслик, ишонч хиссининг йўқолиши, ўз-ўзини бошқара олмаслик, хавотирланиш даражасининг ортиши, фрустрация, депрессия, стресс каби салбий оқибатлар кузатилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Асямов С. В., Пулатов Ю. С. Ички ишлар органлари ходимларининг касбийпсихологик тренинги: Ўқув қўлланма. Т., 2002.
2. Бандура А. Уолтерс Р. “ Подростковая агрессия ”. – М., 1999. - 512с.
3. Белинская Е. П., Тихомандрицкая О. А. Социальная психология личности. – М., 2001. Березин Ф.Б. Психологическая и психофизиологическая адаптация человека. Л., 1988.
4. Ильин Е. П. Психология индивидуальных различий.– СПб., 2004.

5. *Фозиев Э. Ф.* Умумий психология, 1,2 китоб. Т., 2002.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNIKALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA BOLA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

*Raxmonova Dilshoda Nusratovna
TerDU Musiqa ta'limi o'qituvchisi,
Yusupova Munira Jahongir qizi
Termiz davlat universiteti
Musiqa ta'limi kafedrasida 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llanishi ta'lim sifatining samaradorligini oshirilishi, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini oson va qiziq o'rginishi uchun imkoniyat yaratadi.

Kalit so'zlar: Pedagogika, texnologiya, ta'lim.

Аннотация: Использование современных педагогических технологий в образовательном процессе повышает эффективность качества образования, позволяет учащимся легко и интересно усваивать свои знания, навыки и умения.

Ключевые слова: педагогика, технология, образование.

Abstract: The use of modern pedagogical technologies in the educational process increases the effectiveness of the quality of education, allows students to easily and interestingly acquire their knowledge, skills and abilities.

Key words: pedagogy, technology, education.

Ta'limga beriloyatgan katta e'tibor tufayli ta'lim-tarbiya sohalaridaham islohatlar va yangilanish jaroyonlari bo'lmoqda. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakillanip keloyatgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarini ta'lim jaroyanida mohirona tadbiiq etaolishi, ta'limning yangidan yangi yo'l va usullarini izlash ilg'or pedagogik tajribalardanani jobiy foydalana olishi juda muhimdir. Chunki hozirgi texnika asrida bola ongi va tafakkuri kattalarga niabatan tezroq, jadalroq rivojlanmoqda. Maktab yoshiga yetmasdanoq telefon, kompyuter, planshet kabi elektron gadjetlarni o'zlashtirip olmoqdalar. Bu holatni e'tiborga olgan

har bir pedagog zamon bilan hamnafas bo'lib, zamonaviy texnologiyalarni chuqur bilishlari lozim.

Bola birinchi sinfga qadam qoygan ilk chog'ida birinchi ustoziga mexri bo'lakcha bo'ladi, bola uchun dunyoda eng blimdon, aqlli va qadrdon inson bu birinchi uztozi bo'ladi. Birinchi muallimini allomalarni ulug'lagandek ulug'laydi har bir so'zini tinglab, harbir gapini bajarishga oshiqadi. Oila a'zolaridan ham ulug' ko'radilar lekin bu holat vaqt o'tgan sari o'zgarib boradi. Bola mukammal deb bilgan insonining oddiy telefon yoki komputerdan foydalana olmasligi bolada hayrat va uztozga nisbatan ishonchsizlik hisi paydo bo'lishiga olib keladi. Bola tarbiyasida va texnologiyalarni qo'llashda qolipga tushib olihs va o'zgarishlardan qochish o'qitiuvchining obro'si tushishiga sabab bo'ladi. O'zbek xalqi yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalar, shakllari o'ziga xo urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Hozirgi kunda shu meroslardan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Bir metod va usulni harkuni qo'llash bolada zerikish, bezish kabi holatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Maktabga kelayotgan bola har kuni yangidan yangi o'yin, texnologiya va mtodlarni ko'rsa darsni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Yosh avlod erkin fikirlaydigan, o'z mulohazalarini ochiq bayon qilaoladigan, mustaqil qaror qabulqilaoladigan va ularning shu hislatlarini rivojlantiradigan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz kerak. Har kuni bitta parta va bitta partadosh emas tanlash imkoniyati va hohishiga qarab joylashishi bolaning ruhiyatigaham ijobiy ta'sir qiladi.

Dehqon dalaga urug' qadashdan oldin yerga ishlov berip tayyorlab olganidek pedagoglarham bolaga bilim berishdan oldin uning ruhiy holati haqida bilimga ega bo'lishi lozim. Buyuk bobomiz Ibn Sino aytgnidek "bola darsdan darsga o'tganda huddi turli bog'ni kezgandek, turli gullar hidlagandek bo'lsin". Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolaga huddi shunday holatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. O'quvchi bixillikda o'zining turli hislarlarini ochib beraolmaydi. Darsda bir og'izham gapirmaydigan o'quvchi tanafus chog'ida bul-buldek sayrab, burro burro gaplar tuzip she'r va latiflar aytadi.

Xulosa. Ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikirlash jarayonini shakillantiradi. O'quvchining bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakillantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'. Yo'ldashov. S.A. Usmanov "Pedagogik texnologiya asoslari" T.O'qtuvchi 2004.
2. T.G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar" T.:Tafakkur 2011.

O'ZBEKISTONNING YANGICHA TURIZM SALOHIYATI

Valiyeva Hilola

O'zbekiston Milliy Universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ko'hna yurtimiz tarixi, moziyning mingyillik o'tmishini hozirgi zamon nafasi ostida keng ommaga (xorijiy sayyohlar va mahalliy aholiga) namoyish qilishda turizm sohasining ahamiyati beqiyos. Shuningdek, davlat iqtisodiyotiga samarali foyda keltirishda o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan turizm yurtimizda e'tibor qaratishga molik sohalardan biri hisoblanadi. Turizm sohasida zamonaviy tizimni yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Negaki, ilg'or texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda turizm sohasida ham yangi uslub va noan'anaviy usullar tizimini joriy etish va amalda qo'llash ushbu sohaning keyingi taraqqiyotida ijobiy samaraga ega. Zero, ko'hna tarixga boy vatanimizning qadimiy inshootlari, ziyoratgoh-u, nodir eksponatlarini bugungi va kelajak avlodga yetkazish, shonli tariximizni boshqa xalq va millatlarga namoyish qila olish biz avlodlarning buyuk ajdodlarga ko'rsatgan yuksak ehtiromimizning yorqin ifodasi sanaladi.

Kalit so'zlar: eksponat, IT tarmog'i, rekonstruksiya, renessans, gid, ekskursant, turlar, tarixiy obyektlar, ichki turizm, turservis

Jadal rivojlanish sari qadam qo'yayotgan "Yangi O'zbekiston" da turli yo'nalish va tarmoqlar singari Turizm sohasida ham yangi tizim va yondashuvlar joriy etishni bugungi davr siyosati taqozo etmoqda. Keng tarmoqli bo'lgan turizm davlat iqtisodiyotining turli sohalari o'sishini hamda yangi investitsiya va mablag' kirib kelishini ta'minlash kabi ijobiy jihatlari bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunga kelib O'zbekistonda turizm salohiyatini rivojlantirish, tur xizmatlarning yangi tizimini ishlab chiqish kabi masalalar ushbu sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar mazmuni bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu sohaga yo'naltirilayotgan mablag'larni samarali tartibga solish va bu sohada yurtimizda qilinishi kerak bo'lgan masalalar yechimini ijobiy samaraga yetkazish turizmning keyingi istiqbolini belgilab beruvchi omillardan biridir. Xo'sh, turizm qaysi jihatlari bugungi kunda bu qadar katta ahamiyat kasb etmoqda? Nega bugungi globallashtirish zamonida dunyoning rivojlangan davlatlari aynan turizm sohasiga katta e'tibor qaratmoqdalar?

Negaki, turizm sohasi dunyo xo'jaligida dinamik rivojlanyotgan soha sifatida tan olinmoqda. Ayni turizm sohasi orqali dunyo bo'yicha jahon investitsiyalarining 7% jalb qilingani holda, turli sohalar bo'yicha katta miqdordagi yangi ishchi o'rinlari yaratib berilmoqda.¹¹ Ayni paytda, soliq tushumlarining oshishi ham turistik davlatlar iqtisodiyotiga samarali foyda bermoqda.

Shuningdek, turizm faqat davlat iqtisodiyotiga foyda keltiribgina qolmay, jamiyat hayotining barcha bo'g'inlariga ham o'zining samarali ta'sirini o'tkazmoqda. Jumladan, madaniyat, xalqaro aloqalar, tarix va san'atning misli ko'rilmagan sohasini zamonaviylik asosida "jonlantirish" da ham turizm sohasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli bugungi innovatsion texnologiyalar rivojlanayotgan davrda turizm sohasini ham IT tarmog'iga moslashtirishni zamon nafasi talab etmoqda. Davr ruhiga mos ravishda turizmning rivojlanishi dunyoning rivojlangan turistik davlatlari qatori, O'zbekistonda ham jahon andazalariga javob beradigan turistik tizim shakllanishi, iqtisodiy samaradorlik darajasining oshishi va ijtimoiy munosabatlarning yuksalishini ham ta'minlab beradi. Turizmning yuksalishi asnosida, O'zbekistonning ko'hna tarixiy salohiyatini xorijiy sayyoh, turist va ekskursantlarga namoyish qilishning

¹¹ To'xliyev I.S "Turizmni rejalashtirish" Toshkent, 2010

o'ziga xos yangi tizim va tamoyillari shakllanishiga olib keladi. Negaki, yurtimizda turizm salohiyatini oshirish uchun yetarli imkoniyat mavjud bo'lib, ko'hna tarix, betakror va mahobatli binolar, mazali taomlar hamda qulay geografik sharoit tizimi mavjud. Shu sababli ham boy o'tmish tarixga ega O'zbekiston o'zining bebaho madaniy meroslari, boy o'tmish tarixi bilan jahon mamlakatlarining doimiy e'tiborida turuvchi mamlakat hisoblanadi. Zero, madaniy obyektlarimiz hamda tarixiy shaharlarimiz Yunesko ning "Butunjahon madaniy merosi" ro'yxatida turishi ham bejiz emas.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Buyuk Ipak Yo'li tarmog'ini bog'lab turgan qadimiy shaharlarimiz moziyning necha mingyillik tarixiga guvohdir. Aynan mana shu Buyuk Ipak Yo'li tarmog'i orqali qadimdan yurtimizning turistik salohiyati va shaharlarining ahamiyati ham ortib boravergan. Hattoki, buyuk ajdodlarimiz Abu Ali ibn Sino, Farobiy va Beruniy o'z asarlarida ham ko'hna yurtimizning sayyohlik tarixi haqida, o'tmishdoshlarining sayohatga bo'lgan qiziqishlari haqida hamda O'rta Osiyoning tabiati va geologik tuzilishi haqida muhim ma'lumotlarni qoldirganlar.¹²

Bundan ko'rinib turibdiki, turizm yurtimizda tarixan shakllanib kelgan sohadir. Xo'sh, bugungi mustaqil O'zbekistonda bu soha rivoji qay darajada rivojlanmoqda? Ushbu tarmoq rivoji uchun yurtimizda qanday ishlarni amalga oshirishimiz lozim?

Bugungi kunda yurtimizda turizm industriyasi, xususan, ichki turizm iqtisodiyotga foyda keltirayotgan muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham turizm sohasini jadal rivojlantirish orqali uning keyingi istiqbolini oshirish muhim vazifadir. Jumladan, yurtimiz turizm industriyasini oshirish uchun o'lkamizda qulay sharoitlar tizimi mavjud. Geografik hududning mo'tadilligi, mamlakatimiz har bir hududining o'ziga xos jozibaga ega ekanligi turizm uchun ijobiy samara kasb etadi. Faqatgina, bu borada bor ichki imkoniyatlardan to'laqonli foydangan holda, ziyorat, ichki va xalqaro turlarni yanada rivojlantirish, sohadagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish lozim. Zero, mamlakatimiz prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2020- yil 29-dekabrda Murojaatnomasida hamda 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi Farmonida ham turim sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifa va chora-tadbirlar mazmunini

¹² Mirzayev M.A "Turizm asoslari" O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati nashriyoti. Toshkent, 2011

belgilab berganlar. Farmon bo'yicha, yurtimiz turizm salohiyati xususan, ichki turizmni rivojlantirish uchun hududlarni bog'lovchi transport aloqalari tizimini yaxshilash muhimligi yurtboshimiz tomonidan ta'kidlandi. Albatta, transport servisi turizm sohasi uchun juda muhim. Negaki, xoh xalqaro, xoh ichki tur safarlarni istovchi turist yoki ekskursant albatta, transport xizmatidan foydalanadi. Transport, aviaqatnovlarning samarali va bexatar bo'lishi turservis xizmatida juda muhimdir. Buning uchun yurtimizdagi turistik manzilgohlarda doimiy aviareys, temiryo'l qatnovini yo'lga qo'yish, transport xizmatlari sifatini oshirish, transport yo'nalishlari tarmog'ini kengaytirish mexanizmini yaratish sohada hal etilishi lozim bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, barcha aholi punktlaridan poytaxtimizga, eng yirik shaharlar va turistik markazlarga tezda kelib-ketish imkoniyatini beradigan o'zaro bog'langan transport tarmog'ini yaratishimiz lozim.¹³

Shuningdek, ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda ajdodlarimiz tomonidan barpo etilgan tarixiy obidalar va ziyoratgoh maskanlarning ahamiyati ham beqiyos. Zero, buyuk bobokalonlarimiz tomonidan qurdirilgan yuksak me'morchilik inshootlari yurtimizning ko'hna va shonli tarixini ko'rsatib beruvchi zamin sayqallari hisoblanadi. Bu ko'hna obidalarimizning nafosati, tarixiy go'zalligi boshqa yurtda takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Binolarning qurilish uslubidagi o'ziga xoslik, betakror go'zallik tufayli ham tarixiy obidalarimiz hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Lekin vaqt zayli bilan yuksak me'morchilik va puxta rejalashtirilgan arxitektura majmualari ham ta'mirga, qayta rekonstruksiya ishlariga muhtoj bo'ladi. Shu sababi ham bu sohadagi muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish lozim. Bu vazifalarni amalga oshirishda Madaniyat vazirligi, mahalliy hokimliklar, ommaviy axborot vositalari, keng jamoatchilik va qator tashkilotlar sohadagi muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rib chiqmog'i lozim. Tarixiy binolarni restavratsiya va rekonstruksiya qilishning ijobiy samarasi shundaki, qayta tiklash ishlari natijasida, me'moriy obidalarimiz nozik nafosati qayta jonlanadi, yangi uyg'unlashuv, me'morchilikda Sharqona san'at va zamonaviylikning aralash uslub nafasi kirib keladi. Asosiysi, tarixiy binolarimizning umri yanada "uzayadi". Bu esa

¹³ 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisidagi Murojaatnomasidan.

yurtimiz turistik salohiyatini namoyish qilishda juda muhim. Turistik tarmoqni kengaytirishda yaxshi yo'lga qo'yilgan transport xizmati va tarixiy obyektlarning ijobiy holatidan tashqari, turizm obyektlarida faoliyat yurituvchi malakali gid xizmati va turservislarning ahamiyati katta. Negaki, buyuk o'tmishimizni turistlarga namoyish qilishda, tarixga sayohat qilishda faqatgina mahobatli inshootlar, ko'hna qadamjolarning o'zi yetarli emas. Xorijlik turist yoki mahalliy yurtimiz fuqarosi uyushtirgan tur safarida albatta, tashrif buyurgan maskani haqida qiziqarli ma'lumotlar-u, unutilmas taaassurotlarga ega bo'lishni istaydi. Bu vazifa ko'pincha, malakali gid-ekskursatlardan alohida mahorat talab etadi. Tajribali gid turistlarga yurtimizning betakror tarixiy go'zalligini " Keldi- ko'rdi " tizimi bilan emas, turist tasavvurida " Takrorlanmas tarixiy mo'jiza " (An unique historical miracle) ni uyg'ota olishi kerak.

Bugungi zamonaviy texnologiyalar uslubini ham turizm sohasiga targ'ib etish sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalardan hisoblanadi. Bu orqali, turizm sohasida noan'anaviy usullardan foydalangan holda, yurtimizning o'zgacha turistik muhit tizimini yarata olishimiz lozim. Chunonchi, yurtimiz tursalohiyatini oshirish uchun endilikda tarixni an'anaviy gid hamrohligidagi eshitish, so'zlab berish tizimi orqali emas, zamonaviy texnologiyalar yordamida ko'rsatib berish uslubini joriy etish lozim. Bu tizim orqali turistlar tasavvurida turistik obyekt yoki shahar tarixini qayta jonlantirishga erishiladi. Bundan tashqari, bu usuldan foydalanish orqali turizm zamon ruhiga moslashadi va soha rivojida samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Ayniqsa, bu tizimni muzeylarda joriy etish samarali usul hisoblanadi. Muzeylarda har bir eksponatga bog'liq tarixiy voqelik, ma'lumotlarning yangicha bazasini turistlarga ko'rsatib berish orqali noan'anaviy usullardan foydalanish yurtimiz turizm salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu tizim nafaqat, xorijlik va mahalliy sayyohlar tasavvurida tarixni jonlantirish imkoniyati yoki voqelik va eksponatga qiziqish orttiribgina qolmay, eng asosiysi, yosh avlodning bunday obyektlarga tashrifi davomida, ularning ongida " jonlangan tarix " orqali yurtimiz o'tmishdan faxrlanish, vatanparvarlik hissi hamda buyuk ajdodlarga munosib avlod bo'lish ruhiyatini shakllanishiga yordam beradi. Bu bizning oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, ulkan maqsadlar sari odimlayotgan “ Yangi O‘zbekiston ” da turizm sohasini rivojlantirish va uni zamon ruhiga moslashtirish muhim hisoblanadi. Bu soha rivoji uchun esa albatta, yangi uslub va texnologiyalarni ushbu tarmoqqa joriy etish, an’anaviy birxillikdan qochib innovatsion usullarni turizm sohasiga tatbiq etish lozim. Bu ishlarni amalga oshirishda turizm sohasi bo‘yicha ilg‘or fikrlovchi, yangi g‘oyalarga ega kadrlar va malakali mutaxassislar guruhini shakllantirmoq lozim. Tarix va til sohalarida bilimga ega bo‘lgan yosh kadrlar o‘rtasida fikr- almashinuv treninglari, yangi g‘oyalar ustida suhbatlar uyushtirish soha bo‘yicha malaka va tajribaga ega mutaxassislar guruhining shakllanishiga ko‘maklashadi. Bundan tashqari, tashkil etiladigan bu kabi treninglar yosh kadrlar o‘rtasida fikr almashinuvga hamda g‘oya va rejalarning samaralisini yuzaga chiqishiga olib keladi. Puxta reja va aniq dasturga ega loyihalarni amalda tatbiq etish turizm sohasining taraqqiyotida juda muhim samaraga ega. Ilm-fan yo‘lidagi bunday izlanishlar orqali bugungi kun yoshlari ham buyuk ajdodlarimiz yarata olgan 2 renessansni davom ettirgan holda, o‘zlarining kuchli aql-zakovatlari bilan 3-renessans davrini tarix zarvaraqlarida muhrlay oladilar. Buning uchun esa bugungi kun yoshlari azm-shijoat, yuksak iroda va kuchli bilim sari intilmoqlari va o‘z oldilariga qo‘ygan maqsad sari olg‘a qadam bosmoqlari zarur. Buning uchun esa yurtimizda yetarlicha sharoit va imkoniyatlar mavjud. Bu g‘ayrat yo‘lida O‘zbekiston yoshlariga Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyevning so‘zlari kuchli motivatsiya bo‘lmog‘i lozim:

“ Men har gal yoshlarimizning g‘ayrat- shijoatidan kuch- quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingini yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini sifatida qadrlayman ¹⁴ ”.

¹⁴ 2020-yil 25- dekabrda SH.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston yoshlari forumi “ dagi nutqidani.

ОТА-ОНАНИНГ БОЛА ТАРБИЯСИГА ПСИХОЛОГИК ТА’СИРИ

*Yorboboyeva Iroda Baxriddinovna
Termiz Davlat universitetining Pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Maktab ostonasiga oyoq qo‘yish har bir inson uchun nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng beg‘ubor onlariga bir qadar cheklanishlar kirib keladi. Endi bola oilada nafaqat oilaviy ba’zi burchlarni, vaholanki, o‘z shaxsi uchun zarur bo‘lgan xususiy vazifalarni bajarishi shart davrga o‘tadi. Bu bilan uning oiladagi roli bir qarashda kamayganday emas, aksincha ko‘paygan bo‘ladi. Ya’ni u o‘z obro‘cini endi nafaqat oila a’zolari o‘rtasida, aksincha, jamiyat o‘rtasida oila obro‘cini o‘z shaxsiy harakati bilan himoya qilish davri boshlanadi. Ruhiy muhiti sog‘lom oila a’zosi bo‘lgan bolaning birinchi bor maktabga borishi qanchalik hayajonli bo‘lmasin bola uchun jiddiy qiynchiliklar tug‘dirmaydi. Chunki maktabda o‘qituvchi hamma bolalarga bir ko‘z bilan qaraydi. Oilada ham bolaga maktabga borganligi munosabati bilan alohida erkatoyga qarash qilmasdan, maktab uning o‘zi uchun kerak bo‘lgan burch, sifatida qaragan ma’qul. Chunki, mana shunday qaralgandagina bola uy vazifalariga, maktabda berilgan topshiriqlarga shaxsiy burch sifatida qarashga o‘rganib boradi. O‘zini hurmat qilmaydigan shaxs boshqalarni ham hurmat qilmaydi. O‘z burchini sezgan shaxsda esa o‘z shaxsiga hurmat tuyg‘usi tobora ortib yaxshi shakllanadi. Hammamizga ma’lum tushuncha, ya’ni o‘zini hurmat qilmaydigan shaxs boshqalarni hurmat qilishni bilmaydi. Bu o‘rinda tarbiyaning, maktab va oila tarbiyasining bola shaxsiyatiga bir yo‘nalishda mutanosib olib borilishi jiddiy e’tiborga molik. Biz kattalar bu nomutanosiblikni sezmay ham o‘tishimiz mumkin. Ammo bola qalbi hali o‘ta musaffo bo‘lganligidan unga talab, tushuncha, qoida yoki oddiy bir so‘z va hokazo birinchi bor qanday yozilsa yoki aytilsa u o‘zi uchun shunday tushuncha hosil qiladi. “Maktabda chopish mumkin emas”. Oddiy tushunchalar ham har kimda har xil tezlik va quvvatda iz qoldiradi. Bu hodisa birinchi o‘rinda insonning shaxsiy xususiyat, qobiliyat va yoshi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mana shu o‘rinda biz birinchi bor shu paytgacha bola, deb aytib kelgan tushunchani ikkiga ajratishimiz lozim bo‘ladi,

ya'ni qiz bola va o'g'il bolaga. To'g'ri, farzand tug'ilgandan boshlab oilada uning jinsiga qarab muomala qilinadi va bu bilan jinsiy tarbiya oilada boshlab yuboriladi. Ammo boshlang'ich maktab yoshiga kelib ayniqsa, ikkinchi, uchinchi sinflarda bolalarning jinsiy farqi ko'payib boradi. Buni oilada alohida hisobga olinsagina oilaviy ruhiy muhitga putur yetmagan bo'ladi va oila a'zolari oilaviy holatda o'zlarini erkin sezadi. Xalqimiz orasida qadimdan bu narsaga e'tibor berilgan. Shuning uchun ham qiz bola yoshlikdanoq oilada yordamchi sifatida ko'zga tezroq tashlangan, uning sho'xliklariga, akasi yoki ukasini tejab-tergashlariga «qiz bola-da», deb kattalar uni oldinroq sezishgan. Xalq, ko'pchilik sezgan bu oddiy tushunchaning tagi uzoqqa ketadi. Ruhshunoslarning fiziolog, medik, pedagog va boshqa mutaxassis olimlarning kuzatishlardan kelib chiqib aytishlari shuni bildiradiki, qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda maktabning boshlang'ich 1 – 3 sinf davrida faolroq bo'lib, o'g'il bolalarni o'sish va ulg'ayishda ortda qoldiradi. Qiz bolalarning bunday tabiiy faolligini oila a'zolari albatta bilishlari kerak. Bu hol alohida e'tiborga olinsa, oilada shaxslarning o'rni va xususiyatlari to'liq hisobga olingan bo'lib ruhiy muhiti ijobiylashib boradi. Aks holda qiz bolaning sho'xliklariga noto'g'ri baho berilgan bo'ladi. Qiz bola sho'xlikda ayblanib, o'g'il bola nafaollikda salbiy baholanishi mumkin. Boshlang'ich sinf, ya'ni olti – to'qqiz yoshli bolalar maktabgacha yoshdagi qiliqlarini endi takrorlashmaydi. Yosh bola o'jarlik qilib piyolani otib yuborishi mumkin, bu holda u piyolaning sinishini o'ylab ham o'tirmaydi. Ammo bunday ishni boshlang'ich sinf bolasi qilmaydi. U endi bunday qiliqni o'ziga ep ko'rmaydi, chunki atrof, boshqalar uning bunday harakatiga qanday baho berishini u biladi va shundan uyaladi. Bu o'rinda insonni jamiyat orasida shaxs sifatida shakllantiruvchi eng katta tuyg'ulardan biri, mana shu keng ma'nodagi ijtimoiy tushuncha bo'lmish, boshqa jonzotlar orasida uchramaydigan uyat ekanligini bilishimiz va unutmasligimiz kerak. Oilada bolani izza qilmang! Oilada bolani hech vaqt uyaltirmaslik va izza qilmaslik lozim. Har qanday inson boshqalar oldida uyalishni, uyalganlikni og'ir esdan chiqaradi. Ko'pchilik orasida izza bo'lganligini bir umr esdan chiqarmasligi mumkin. Shunday ekan, oilangizda ruhiy muhit sog'lom bo'lsin desangiz bolangizning hozirgina qilgan noo'rin, xato, adashilgan, anglashilmovchilik yuzasidan, uning tajribasizligidan kelib chiqqan hatti-harakatini qoralab uni jazolab o'tirmang,

ayniqsa voqeani yuziga solib izza qilmang. Shu borada agar bu voqeadan uning biror tanishi voqif bo'lishi xavfi bo'lsa, kechinma yanada kuchliroq tus olishi mumkin. Bolani xato bo'lishi mumkin bo'lgan ishlardan ogohlantirib tarbiyalab borsangiz uning oiladagi o'rnini kamsitmagan bo'lasiz. Piyola bolangizning qo'lidan tushib ketib singanda emas, bu piyola sinib bo'ldi, undan ko'p vaqt ilgari ish buyurganingizda «ehtiyot bo'l, sinib qolmasin», degan tarbiyaviy so'zlardan boshlang. Bola o'z irodasi bilan kunduz maktabda buyurilgan ishlarni bajarishga o'rgansa, kechqurun ishdan qaytganingizdan keyin siz uni dars tayyorlashga o'tirishga majbur qilishingizga o'rin qolmaydi. O'z burchini bajarishga majbur qilingan oila a'zosining oilada ruhiy o'рни boshqalar bilan barobar bo'lishi mumkin emas. O'z burchini majburan qilib o'rgangan bola mustaqillikka o'rganmaydi. Vaholanki, shunday ekan biz hammamiz o'z bolamizning mustaqil bo'lishini juda-juda kutamiz va mustaqillikka o'rgatib boramiz. Mustaqil, o'zini o'zi tejab-tergashga o'rganib borgan bolagina o'z hayotini to'liq ta'min qilib boradi. Agarda bolaga doim uning ruhiy va amaliy ishlarini ko'rsatib, ularni bajarishga majbur qilib borsangiz bu holda oilada notenglik yuzaga keladi va oila a'zolari o'rtasida notenglik bo'lgan holda ruhiy muhit sog'lom bo'lmaydi. Shunday ekan bolangizning biror holda o'z vazifalarini bajarmaganligini ko'rsangiz albatta majbur qilishga shoshilmang. U o'z vazifasini bajarmaganligidan oila a'zolari, o'rtoqlari, sinfdoshlari oldida biror marta xijolat cheksa, uyalsa, ayniqsa o'ziga kerak bo'lgan narsani bilmasdan, o'sha narsaga zarurat sezib uni topolmay qolsa boshqa bunday qilmaslikka o'rganadi. Chunki uyat, insonning o'z oldida o'zining uyalishi yaxshi ma'noda insonni o'zlikka olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oila psixologiyasi. Qo'llanma. Toshkent:2019. 302-b.
2. Avitsenna.uz
3. Ziyonet.uz

PSIXOANALITIKLARNING ISHLARIDA MEHR VA AJRALISH MUAMMOLARI

Pulatova Gulnoza
Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi,
Abdusalomov Ro'zimatjon
FDU 1- bosqich talabasi

Jon Boulbi - taniqli ingliz psixoligi va psixoanalisti , rivojlantirish psixologiyasi, oila psixologiyasi, psixoanaliz va psixoterapiya bo'icha mutaxassis, bog'lanish nazariyasi asoschisi. U iqtidorli bolalar maktabida tahsil olgan. Oliy ma'lumotni Kembirij universitetida olgan. Yil davomida u qiyin bolalar maktabida ishladi. Ikkinchi jahon urishi yillarida u harbiy psixiatr bo'lib ishlagan. Bir necha yillar davomida u amaliy psixiatriya va psixoanaliz bilan shug'ullangan. Biritaniya psixoanalitik jamiyati kotibi. Ilmiy jamiyat psezidenti vazifasini bajaradi. Xalqaro bolalar psixologiyasi va psixoterapiya assotsiatsiyasi prezidenti.

Insonga bog'lanishning tabiati qanday ? Uning kelib chiqishi qayerda ? Kichkina bolaning kattalarga bog'lanishi qanday tug'uladi va shakllanadi Psixologiyada ruhiy hayotning bundan ko'ra qiziqroq va samimiy tomonlariga to'g'ri keladigan savollarni topish qiyin. Uning izlanishlari taniqli ingliz psixoligi Jon Boulbining butun ilmiy ishlarning asosiy mavzusiga aylanadi, jumladan uning o'quvchilarga taqdim etilgan "Birikish va yo'qotish" fundamental trilogiyasining birinchi jildi. Bolaning normal aqliy rivojlanishining asosiy sharti , Boulbining fikricha , bolaning onaga va onaning bolaga bo'lgan muhabbatidir. Agar bu holat kuzatilmasa , unda xatti-harakatlarning patologik shakllari paydo bo'ladi. Bundan tashqari , erta yoshda onadan ajralish kelajakda yaqin munosabatlarni o'rnatmaslik , boshqa odamlarga haddan tashqari talabchanlik kabi xatti-harakatlarining buzilishiga olib keladi. Bu xulosalar endi psixologiya fanining doirasi bilan cheklanib qolmaydi , balki umuminsoniy ahamiyatga ega.

Qo'shilish nazariyasi : umumiy so'rov Boulbining ta'kidlashicha , biz inson xatti-harakatlarini faqat uning moslashish muhitiga , u shakllanadigan asosiy muhitga qarab tushunishimiz mumkin. Insoniyat tarixning oq qismida odamlar oziq-ovqat izlash

uchun kichik guruhlarga bo‘lingan va ko‘pincha yirik yirtqichlar tomonidan hujumga uchragan. Tahdid paytida , odamlar , boshqa piramatlar xurujlari singari , yirtqichlarni haydab chiqarish , kasallar va bolalarni himoya qilish uchun hamkorlik qilishdan. Ushbu himoyani olish uchun bolalar kattalar yonida bo‘lishlari kerak edi. Agar bola ular bilan aloqani yo‘qotsa , u o‘lishi mumkin , shunday qilib bolalarda bog‘lanish xulq-atvori rivojlangan bo‘lishi kerak , ularning g‘amxorlari bilan yaqinligini ta‘minlovchi va saqlaydigan imo-ishoralar va signallar. Aniq signallardan biri chaqaloqning yeg‘lashidir. Yeg‘lash, qayg‘u signallaridir; Agar chaqaloq og‘riyotgan yoki qo‘rqib ketgan bo‘lsa u yeg‘laydi va ota-ona nima bo‘lganini bilish uchun yordamga shoshilish kerak. Yana bir majburiy harakat chaqaloqning tabassumi; chaqaloq ota-onasiga qarab jilmayganidan , ota-ona unga bo‘lgan muhabbatini his qiladi va u yonida bo‘lishidan mamnun bo‘ladi. Bog‘lanishning boshqa harakatiga g‘o‘ng‘irlash, yopishish , so‘rish va ergashish kiradi. Boulbi bolaning biriktirilish quyidagi tarzda rivojlanishini taklif qildi. Dastlab , chaqaloqlarning ijtimoiy reaksiyalari tushunarligi bilan ajralib turmaydi. Misol uchun, ular har qanday odamga tabbasum qiladilar yoki har qanday odamning ketishidan yetmaydilar. Biroq , 3 oydan 6 oygacha bo‘lgan davrida chaqaloqlar bir nechta tanish odamlarga javoblarini toraytiradilar , bir kishi uchun aniq afzalliklarni shakllantiradilar va keyin begonalardan ehtiyot bo‘ishni boshlaydilar. Ko‘p o‘tmay , ular ko‘proq harakatchan bo‘lib , emaklay boshlaydilar va yaqinroqda asosiy mehr ob’ektini saqlashda faolroq rol o‘ynaydilar. Ular ota-onaning qayerdaligini kuzatib boradilar va ota-onaning to‘satdan tark etishi mumkin bo‘lgan har qanday belgi ular tomonidan quyidagi reaksiyalarga sabab bo‘ladi , boshqa turlardagi bolalarga mos keladi. Ko‘pgina boshqa turlarining yoshlari singari , yosh ham ma'lum bir biriktiruvchi ob'ektga ta'sir qiladi va ota-onadan uzoqlashayotganda agressiv ravishda ergashadi. Boulbi o‘z asarlarida "instinkt" va "imprinting" etologik atamalarni keng ma'noda ataylab ishlatgan. U bu tushunchalar faqat aniq , batafsil ta'riflar sifatida emas , balki umumiy shaklida inson xatti-harakatlarlariga talluqli ekanligini ko‘rsatmoqchi edi. Shunga qaramay , Boulbi bu etologik tushunchalarni u izlaydigan ishonchli tushuntirishlarni taqdim etganini his qildi. Uning so‘zlariga ko‘ra 1950- yillarda ular haqida birinchi marta bilganida , u :

Evrika xususan u chaqaloqlar va yosh bolalar nima uchun ular hayratda qolishlarini tushundi. Evolyutsiya mahsuli sifatida bolada o'zi mo'ralab qo'ygan ota-onasiga yaqin bo'lishiga inistiktiv ehtiyoji bor. Bu ehtiyoj bola borlig'ining har bir qismida mavjud ; busiz insoniyat jamiyati yashay olmaydi. Ba'zi darajada , bolaning o'zi ba'zida ota-onasi bilan aloqani yo'qotish unung halok bo'lishini anglatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.E.G'oziyev : "Umumiy psixologiya"
- 2.E.G'oziyev : "Tafakkur psixologiyasi"
- 3.G'oziyev : "Xotira psixologiyasi"
- 4.Bernshteyn N.A. Fiziologiya dvijeniya aktivnost.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MUSTAQIL FIKRLASHNING RIVOJLANISHIDA IJTIMOY OMILLARNING O'RNI

*Otaqo'ziyeva Madina
O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) 2 kurs magistranti*

Ijtimoiy omillarning ta'siri oila, atrof-muhit, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanishi yangilik emas. Shuni alohida ta'kidlash joizki, 3-7 yoshga to'liq mustaqil fikrlashning xamda nutqining ilk rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi ko'rinishlarini tashkil etadi. 3 yoshli bola o'yinchoqlari, predmetlar, shaxsiy buyumlari va boshqa sistemali ravishda ko'rib chiqa oladi. U asosan predmetni idrok eta oladi. Bolalar avval shakliga, so'ngra kattaligiga va undan keyingina rangiga qarab ajrata oladilar.

Bu jarayonda bola bir xil xususiyatga ega bo'lgan juda ko'p predmetlar mavjudligini tushuna boshlaydi. Lekin, bola rasm chizishni boshlaganida predmetlarning rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'g'riburchak, ko'pburchak) va 8 xil rangni (kizil, qovoq sariq, sariq,

yashil, ko'k, siyoxrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning maqsadga muvofiq ishlatilishi jihatidan turli xil narsalarda turlicha namoyon bo'lishi sababli, bu yoshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilan ularning nomlarini aniq bilishlari va o'z nutqlarida ishlata olishlari bir muncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan ana shu rang va shakllarni eslab qolishini talab etishlari birmuncha noto'g'ridir, buning uchun mos davr 4-5 yoshlar hisoblanadi. Bola 3 yoshigacha o'zlashtirgan so'zlar asosan predmet va harakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning vazifasini anglatadi, bunda predmet yoki harakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. Shuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini funktsiyalariga bog'lagan xolda tez o'zlashtiradi. Bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni bola biror predmetni olishga harakat kila olganidan so'ng, uni sinchiklab o'rganishida ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, ko'rgazmali - harakatli bo'lib, u atrof olamdagi turli bog'liqliklarni o'rganishga xizmat qiladi. O'zidan uzoqroq turgan koptokni biron-bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni tayoqcha yordamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o'rin tutadi.

Umumlashtirishda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, soat deyilishi bilan bola qo'l soatini yoki devordagi osma soatni ham tushunishi mumkin. Lekin, ular turlicha bo'lganligi bois, ularda 36 umumiylikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq hisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashkil etadi. 4-5 yoshli bolalar ma'lum bir vaziyatlarni tushunish va o'z kundalik xarakatlarida foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola cho'pni qoshiq yoki termometr o'rnida, yog'ochdan yasalgan krovat yoki mashina o'rnida foydalanishi mumkin. Bir predmetni boshqasi o'rnida qo'llash mumkinligini anglash, bola uchun atrof-olamni bilish, o'rganishidagi ahamiyatli burilish hisoblanadi va u dastlabki tasavvurlarini yuzaga keltiradi. Bu yoshdagi bolalar endi, asta-sekinlik bilan kattalar aytib berayotgan ertak, voqea yoki xikoyalarni, shuningdek rasmda chizilgan narsalarni tasavvur eta oladilar. Ertaklarni eshitish jarayonida bola ertak qahramonlarini kimgadir o'xshatishga harakat qiladi, ba'zida esa u o'zi mustaqil ertak yoki hikoyalarni to'qiy olishi ham mumkin.

Ilk bolalik davrida xotira bilishdagi asosiy funktsiya hisoblanib, u bilishning barcha ko'rinishlarini rivojlanishida ishtirok etadi. Bu davrda bolaning xotirasi jadal rivojlanadi. Bu davrdagi bolalarga ko'p kitob o'qib berish natijasida ular ertak va she'r va xikoyalarni eslab qoladilar, lekin bunday eslab qolish bolaning umumiy aqliy rivojlanishidan ham, xotirasining individual xususiyatidan ham dalolat bermaydi. Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga xos bo'lgan nerv sistemasining umumiy egiluvchanligi natijasidir. O'zi va atrof hayoti haqidagi voqea va hodisalarda ketma-ketlik borligi uchun ham ularni xali to'liq ravishda xotirasida saqlab qola olmaydi. 6-7 yoshli bolalarda esa ular mustaqil fikrlashlari bilan birga amaliyotda xam bemalol ko'rsata oladilar. Masalan: ularni taajubga solayotgan vaziyatlar, xodisalar xammasiga reaksiyalari bilan javob qaytaradilar . ularga bu vaziyat qanchalik ta'sir etganligini ochiqchasiga aytadilar. Talab va istaklari o'sib boraveradi.

Har qanday mamlakatning taqdirini unda yashaydigan fuqarolar belgilashi ma'lum. Uni yorqin kelajak sari yetaklash, tom ma'noda, odamning qo'lida. Mamlakat fuqarolarining, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy kamoloti, dunyoqarashi, saviyasi, shu ma'noda, o'ta dolzarb masaladir. Ya'ni bunda inson omili, ta'limning insonparvarlashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Goneev A.D., Lifintseva N.I., Yalpaeva N.V. Korreksion pedagogika asoslari / Ed. V.A.Slastenina . - M., 1999 yil.
2. Zaporozhets AB, Lisina M.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotni rivojlantirish. - M., 1974 yil.
3. Karpova S.N. Ontogenezda psixik rivojlanishning o'ziga xosligi (rivojlanish psixologiyasining dolzarb muammolari). - M., 1978 yil.

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV - MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI KOMPLEKS TASHXISLASH VA KORREKSIYALASHNING ASOSI

*Otaqo 'ziyeva Madina
O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) 2 kurs magistranti*

Hozirgi kunda Rossiyada shaxsiy yo'naltirilgan ta'lim modeli ishlab chiqilgan bo'lib, uning mohiyati bolaning shaxsiga e'tibor qaratish, uning rivojlanishiga individual yondashuvni ta'minlash, bilim tizimidan shaxsga yo'naltirilgan tizimga urg'u berish. Bu, ayniqsa, muammoli bolalar uchun to'g'ri. Agar ilgari mutaxassislar e'tiborini asosan bolaning nuqsoniga qaratgan bo'lsa va hamma joyda "defektiv" bola, "Defektologiya" fakulteti va boshqalar ishlatilgan bo'lsa, XX-XXI asrlarda olimlar va amaliyotchilar e'tiborini nuqsonga emas, balki bolaning shaxsiyatiga, uning muammolariga, zaxirasiga (kompensatsion va potentsial imkoniyatlarga) qaratdilar. Xavfli bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlashning samarali vositalarini topish istagi olimlarni izchil integratsiya qilish, differentsiatsiya qilish va ta'limni individuallashtirish zarurligini oqlashga olib keldi.

So'nggi yuz yil ichida shaxsiyat psixologiyasining genezisini tahlil qilish I. B. Kotova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, har bir tarixiy segmentda shaxsni o'rganishning eng muhim yo'nalishlari, favqulodda vazifalar ierarxiyasi (I. B. Kotova, 1995, 260) haqida o'z g'oyalari ishlab chiqilgan. "Inson qanday tushunilganligi haqida - Ag Asmolovning aytishicha, - madaniyatda shaxsning qanday qiyofasi shakllanmoqda, shaxsni tarbiyalashga qaratilgan harakatlar bog'liq" (Ag Asmolov, 1990, 12). Shaxsiyat tushunchasini tahlil qilish uning talqinining noaniqligini ko'rsatdi. O'tish: saytda harakatlanish, qidiruv insonning mohiyatining ko'plab ta'riflari, barcha ta'riflar bir-birini to'ldiradi, ammo shaxsning yaxlit qiyofasini tashkil etmaydi degan xulosaga keladi. Shaxsni o'rganishda individual shaxslarni tahlil qilish ham rasmni aniqlamaydi, chunki har bir shaxs o'ziga xos va noyobdir. Shaxsni aniqlashning murakkabligi, uning tizimini ochib berish-bu ma'naviy xususiyatlar va ob'ektiv munosabatlarning mexanik birlashuviga yoki antropologik, psixologik, madaniy,

ijtimoiy xususiyatlarning (EA Shoroxov) butun majmui ro'yxatiga yordam bermaydi. Shaxsiyat hodisasiga yondashuvlar o'rtasidagi ziddiyat uning ta'rifida, mohiyatini tushunishda, uning rivojlanish qonunlarini shakllantirishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Umumiy qabul qilingan shaxsiy nazariyaning yo'qligi, u turli nuqtai nazardan qaralganiga olib keladi. A. V. Petrovskiy, shaxsni tavsiflash va uning tavsifiga mavjud yondashuvlarni umumlashtirish uchun ijtimoiy munosabatlar tizimini o'rganib, quyidagi yo'nalishlarni ta'kidlaydi:

1. shaxsni "shaxsiy dunyo" ning mazmunini tashkil etuvchi motivlar va intilishlar, ya'ni shaxsiy ma'nolarning noyob tizimi, tashqi taassurotlar va ichki tajribalarni tartibga solishning individual, o'ziga xos usullari bilan ta'riflash mumkin;

2. shaxsiyat boshqa odamlarning hukmlarida aks ettirilgan shaxsning tashqi ko'rinishida namoyon bo'ladigan xususiyatlariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlar tizimi sifatida qaraladi;

3. shaxsning faol" men " deb nomlanishi: rejalar, munosabatlar, yo'nalish, semantik tuzilmalar tizimi sifatida uning xulq-atvorini dastlabki rejalardan tashqariga chiqarishni tartibga soladi;

4. shaxsiyat ham shaxsiylashtirish predmeti sifatida qaraladi (uning ehtiyojlari va boshqa odamlarda o'zgarishlarni keltirib chiqarish qobiliyati jihatidan).

Hozirgi bosqichda ilm-fan tomonidan shaxsni o'rganish muammosi to'liq hal qilinmagan va ko'p yillar davomida bu det cheny uchun nuqtai nazarga ega. Yondashuvlarning xilma-xilligi shaxsiyat ta'riflarining xilma-xilligini keltirib chiqaradi. "Keng ma'noda shaxs - uning tabiiy va ijtimoiy fazilatlarining birligida o'ziga xos, yaxlit insoniy individuallik; tor, haqiqiy falsafiy ma'noda, shaxs - ijtimoiy faoliyatning predmeti sifatida shaxs bo'lib, uning xususiyatlari jamiyat hayotining o'ziga xos tarixiy shartlari bilan belgilanadi" (IV Blauberq, I. K. Pantin. 1979, 151). Shaxsiyat" ijtimoiy xulq-atvor va aloqa mavzusi "(bg Ananiev, 1980)," tabiiy, ijtimoiy va tarixiy munosabatlar " (Af Losev, 1988, 314) individual pıhtı (tugun, aloqa, tuzilish, tizim, identifikator yoki alohida naqsh). Shaxsiyat " ustozlik

belgisi bilan ajralib turadigan xatti-harakatlarning birligini qamrab oladi "(L. Vygotskiy, 1990, 315).

"Shaxsiyat genotipik jihatdan kelib chiqadigan yaxlitlik emas: shaxs tug'ilmaydi, shaxs paydo bo'ladi" (A. N. Leontiev, 1981, 175). Bi Dodonovning tadqiqotlarida shaxsiyat "maqsadli", "o'zini o'zi tashkil etuvchi" tizim sifatida qaraladi. "Uning diqqat-e'tibori va faoliyati ob'ekti nafaqat tashqi dunyo, balki o'zini o'zi his qilish, o'zini o'zi hurmat qilish, o'z-o'zini takomillashtirish dasturi, odatlar, ba'zi fazilatlarini namoyon etishga munosabat, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini boshqarish" (B. I. Dodonov, 1985). Barcha aqliy holatlarning va inson jarayonlarining integratsion boshlanishini topishning yagona istagi S. L. Rubinshteynda eng aniq ko'rinadi: "har qanday ruhiy hodisalarni tushuntirganda, shaxs barcha tashqi ta'sirlar buzilgan ichki sharoitlarning yagona to'plami bo'lib xizmat qiladi..." (S. L. Rubinshteyn, 1986, 241).

Yuqoridagi ta'riflarga asoslanib, shaxsni shakllantirish jarayonining umumiy tavsifini ochib berishga urinish, inson "muloqot" (bg Ananiev) orqali faqat jamiyatda, jamoada, muloqot jarayonida (K. K. Platonov) "shaxs" sifatida shakllanganligini ko'rsatadi., "ob'ektiv faoliyat" (Av Petrovskiy), "Holistik mavzu "(A. N. Leontiev)" mehnat, aloqa va bilim " (I. S. kon). Inson doimo rivojlanishi mumkin va uning oldida har doim ma'naviy rivojlanishning cheksiz istiqboli, bolaning o'zgaruvchanligi dalolat beradi, unda ijodiy kuch muzlatilmaydi (Vv Zenkovskiy). Bilim paradigmasidan shaxsiy yo'naltirilgan paradigmaga ta'lim urg'u beriladi. Bg Ananiev shaxsiyat rivojlanishi ostida A. V. Petrovskiy, V. V. Davydov va boshqalarga ko'ra, aqliy jarayonlar va shaxsiy tuzilmalarni miqdoriy va sifat jihatidan o'zgartirish va qayta tashkil etishga olib keladigan evolyutsiyaning shakllanish momentlarining izchil o'zgarishining spiral jarayonini tushunadi. Natijada, A. V. Zaporozhetsning fikriga ko'ra, neoplazmalar paydo bo'lib, ular shaxsiy tizim yangi faoliyat darajasiga. Yoshni rivojlantirish omillarning ierarxiyasi bilan belgilanadi: tabiiy sharoitlar va shart-sharoitlar sifatida (A. V. Zaporozhets, 1988); ijtimoiy muhit rivojlanishning potentsial manbai sifatida (D. B. Elkonin, 1966); odamlar bilan hamkorlik (L. S. Vygotskiy, 1990); bolaning turmush tarzi va imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyat, ya'ni: u egallagan

joy inson munosabatlari dunyosida va bu joyni etakchi kuch sifatida o'zgartirish istagi (Sn)Karpov, 1978); bolaning o'z-o'zini rivojlantirish manbai sifatida qarama-qarshiliklarni bartaraf etish faoliyati. Rivojlanishning spontanligi insonning kamolotga erishish va ortib borayotgan ichki faoliyati, yangi faoliyatni tanlash, insonning uyg'unligini insonning yanada to'liq qonli rivojlanishining muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biri (Li Antsiferova, 1978) bilan bog'liq.

Psixologik va psixologik fanlarda shaxsiy rivojlanish manbalariga qarash noaniq: bolaning atrofdagi haqiqat bilan munosabati (L. S. Vygotskiy); hayotni tashkil qilish (A. V. Zaporozhets); faoliyat va muloqot (A. V. Petrovskiy). Shaxsning sezgir davrlari L. S. Vygotskiy, AA Bodalev va boshqalarning ishiga bag'ishlangan. Vygotskiyning ta'kidlashicha, shaxsning sezgir davrlari "optimal ta'lim muddatlari" bilan mos keladi va ta'lim "yaqin rivojlanish zonasi" ga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, hayotga olib keladi, bolaning bir qator ichki rivojlanish jarayonlarini boshlaydi va boshqaradi, bu esa tuzatuvchi va rivojlanayotgan ishlarda ayniqsa muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azarov Yu.P. Bola rivojlanishining 100 siri. - M., 1996 yil.
2. Aminov NA Ta'limni boshqarish modellari va o'qitish uslublari // Voprosy psixologii. - 1994. - No 2. - S.88-99.
3. Vygotskiy L.S. Bolalar nogironligi psixologiyasi va pedagogikasi bo'yicha: - defektologiya muammolari. - M., 1995. - S.37-38.

TARBIYASI SHO'X O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA TRENING MASHG'ULOTLARINING ROLI

*Jamilova Zebiniso Umurovna
Buxoro viloyati Romitan tumani
6-umumta'lim maktab psixologi*

“Tarbiyasi sho’x” bolalar... “Tarbiyasi sho’x” bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S Vigotskiy fikricha, “og’ir”, “sho’x” o’smir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat

turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning ma'lum bir qismi intizomsiz, qo'pol bolalardir. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi huquqlarini berish yo'li bilan ularga ta'sir o'tkazish mumkin. Shuni aytish lozimki, "tarbiyasi og'ir" so'zini o'rniga "tarbiyasi sho'x" iborasini qo'llashni ma'qul ko'rdim. Bunday bolalar uchun ular yashayotgan muhit, oila, ular o'qiyotgan jamoa, sinfning roli juda kattadir. Tarbiya jarayoning samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar tarbiyali bo'lim – bu xulq – atvorini nazorat qilishdan iboratdir: Bunday nazorat inson yomon xatti-harakatlarini bajarmaslik imkoniyatini beradi. Nima uchun kattalar bola bilan bo'ladigan munosabatlarida har qanday qiyinchilikka duch kelganlarida boladan achiqlanadilar va undan shikoyat qiladilaru o'zlarining imkoniyatlarini izlab ko'rmaydilar? Ular qarindosh urug'lardan, tanishlardan, pedagoglardan, xatto psixolog va psixoterapevtlardan maslahat so'raydilar. Ulardan uni, buni qilish, ma'lum vaqtdan keyin esa mana buni qilish kerak, shunda shikoyatlariga o'rin qolmaydi, hammasi o'z o'rniga tushib ketadi, qabuldagi aniq bir tavsifiya, yo'l-yo'riqlar kutadilar. Vaholanki bu maslahatlar ko'p narsa bermaydi. Faqat ota-onalarning o'zlari vujudga kelgan vaziyatni tahlil qilishlari va aynan shu oilada, aynan shu bolaga nisbatan qanday yo'l tutish zarurligini va mumkinligini belgilashlari mumkin. Mumkin bo'lgan ko'pgina variantlar orasidan to'g'risini tanlashda ota-onalarga psixologning ham, tajribali pedagogning ham maslahatlari yordam berishi mumkin.

Bolalarning ma'lum qismi sho'xligi, intizomsizligi, qo'rsligi bilan ajralib turadi. Bunday o'quvchilarga individual yondashish va ularning intizomsizlik sabablarini aniqlash lozim. Bunday bolalar bilan olib boriladigan ishlar ularning faolligini maqsadga muvofiq tashkil etish, qadr-qimmatini, ma'lum darjada mustaqillikka bo'lgan huquqlarni hurmat qilishni nazarda tutadi. Qiyin bolalar bilan olib boriladigan ishlar nazokat, individual yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv birinchidan bolaga e'tibor bilan, hayrixox munosabatini, ikkinchidan uning ijobiy fazilatlariga tayanishni va uchinchidan uning axloqiy kuchlari, potensial imkoniyatlariga ishonishni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda bolalar tomonidan yo'l qo'yiladigan qonunbuzarliklarning oldini olishda maktabning roli katta. Eng yangi pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan o'qituvchi tarbiyaviy jarayonning bosh tashkilotchisi, o'quvchiga, o'quvchilar jamoasiga, oilaga

ko'rsatiladigan pedagogik ta'sirlarning muvofiqlashtiruvchisi sifatida namoyon bo'lmoqda. "Tarbiyasi sho'x" bolalar bilan ishlashda o'qituvchi yo'l qo'yadigan:

Birinchi xato - o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini bilmaslik yoki e'tiborga olmaslikdir. Bola o'zining individualligi bilan boshqalarga o'xshamaydi, u betakror. Uning o'ziga xos individual xususiyatlarini bilmay turib o'quv-tarbiya ishlarini maqsadga muvofiq tashkil etish va o'quvchilarga puxta bilim berish mumkin emas. Ko'pchilik o'qituvchilar o'quvchining xarakterli xususiyatlarni aniqlashda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Ayrim o'qituvchilar o'quvchidagi chetga chiqish xollarini ko'rmaydilar. Vaholanki bu chetga chiqish bolaning xul-atvoridagi noxushliklarning asosiy manbai bo'lishi mumkin. Bu esa o'qituvchining puxta o'ylagan pedagogik qaror qabul qilishiga imkon bermaydi. Agar yosh pedagoglar o'quvchilarning xatti-harakatlaridagi salbiy tomonlarni o'z vaqtida ularga ko'rsata bilmasalar, hozirgi holatda bolalar uchun ancha ahamiyatli bo'lgan faoliyat turlariga jalb qilish yo'li bilan ulardagi o'tkazib yuborilgan nuqsonlarni tuzatish qiyin bo'ladi.

Ikkinchi xato - bolalarda ro'y berayotgan fikrlash jarayonlarining o'ziga xos xususiyatini yetarlicha hisobga olmaslik, ularning bilimlarini o'zlashtirish sur'atidagi ortiqcha baho berish o'quv jarayonida o'rtacha o'quvchiga qarab ish yuritish, bolalardan har birining nerv sistemasi xususiyatini e'tiborga olib bilmaslikdir. Ayrim bolalar muayyan sharoitda darhol to'g'ri yo'l topa oladilar, vazifalarni tez bajaradilar, boshqalari esa sustkash, harakatlari ham erkin bemalol emas. Uchinchilarda – bilimlarni o'zlashtirish sur'ati juda sekin va hakoza.

Agar o'qituvchiga o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa uning o'qishda orqada qolishi kuchayadi u jamoada psixologik muvozanatsizlik, yolg'izlik, ishonchsizlik ranj-alam hissini boshdan kechiradi. Pedagogik jihatdan qarovsiz bolaning uzoq vaqt yomon holatda bo'lishi uning shaxsini o'zgarishiga olib kelmaygina emas, balki yana tashkil etilgan va ijobiy yo'nalishda bo'lgan jamoaning unga ko'rsatadigan ta'sirini kamaytirib yuboradi.

Ta'lim muassasalarida "tarbiyasi sho'x" bolalar maktab psixologi tamonidan ro'yhatga olinib har xil mashg'ulotlarga va korreksion treninglarga individual va guruhiy tarzda jalb qilinadi, xulqidagi og'ishishlar bartaraf qilishda va ijtimoiy hayotga

qo'shishda bunday psixologik treninglarning o'рни ahamiyatlidir. Jumladan "Ahil jamoa", "Motivatsiya", "Mehr ulashamiz", "Qadamlar" "Ijobiy va salbiy tomonlarim", "Pozitiv fikrlaymiz" trening mashg'ulotlari maxsus tuzilgan reja asosida, izchillikda guruhiy tarzda tashkil qilinsa samarali natijaga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. V.Karimova Yosh davrlari psixologiyasi T.2003
- 2.M.G.Davletshin . Yosh davrlari va pedogogik psixologiya. T.2004
- 3.V.Karimova. Oila psixologiyasi.T.2007
- 4.www.Expert.psychology.ru
- 5.O.Musurmonova .Oila ma'naviyati -milliy g'urur.
6. Deyl Karnegi. Muomala sirlari. T.«Navro'z» nashriyoti. 1999.

МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИ ЎРТАСИДА ЮЗАГА КЕЛАДИГАН НИЗОЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ - ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИНГ ОМИЛИ СИФАТИДА

*Акбарова Динара Жавохир қизи
Фаргона вилояти Бешариқ тумани 2-мактаб психологи*

Сўнги йилларда шахслараро низолар муаммосига илмий қизиқиш сезиларли даражада ортди. Бу асосан жамиятда замонавий низолар умумий даражасининг ошиши билан боғлиқ ҳолда юзага келишини психологлар томонидан низоларнинг туб моҳияти ва уларни бартараф этиш билан боғлиқлиги ўрганилган. Замонавий психологларнинг изланишларига таяниб, таълим муассасаларида низоли вазиятларнинг психопрофилактикаси ва уни тартибга солиш технологиялари ишлаб чиқилмоқда. Айнан таълим муассасаларидаги низоларни конструктив тарзда ҳал этишнинг асл сабаби шундаки, низоли вазиятларда ҳар бир ўсмир учун характерли бўлган хатти-ҳаракат усуллари шахс шаклланишининг дастлабки босқичларидан бири бўлган, ўқувчилик даврига тўғри келиб, уни ижтимоий муносабатларнинг кенг тизимиغا кириш, ўзини ва

атрофдагиларнинг хатти-ҳаракатини англаши жараёнида шакллана бошлайди. Ўқувчиларнинг бошқалар билан ўзаро алоқаси, низоларнинг психопрофилактикаси ва уларнинг самарали ечимини ўзлаштиришлари, яъни низоли вазиятларда ўзини тутиш маданияти бутун умри давомида юзага чиқиб, босқичма-босқич кечиш характериға эғалигини англашиб, ўқувчиларнинг ижтимоийлашуви жараёнининг асосий бир қисмиға айланади.

Кўпинча, ўсмирлар билан юзаға келган низолар уларнинг ички зиддиятлари, ёш хусусиятлари ҳамда болалиқдан катталиққа ўтиш даврида учраб турувчи инфантилизм (болаларча хатти-ҳаракатлар) каби хусусиятларининг намоён бўлиши билан кечади. Аксарият, бу низолар таълим тизимида ўқитувчи- ўқувчи муносабатларини қамраб олиб, кўзға ташлансада, оилавий шахслараро муносабатларда бу ота-она ва яқинлар билан юзаға келган муайян зиддиятларни ҳам назардан қочирмаслик мақсадға мувофиқдир.

Умуман олганда, ўсмирлар ўртасидаги низолар мураккаб психологик структураға эға бўлган жараён эканлигини ҳисобға олиб, уларни ҳар томонлама, психологик, социологик, физиологик, тиббий ҳамда ҳуқуқий жиҳатдан тадқиқ қилиш долзарб ҳисобланади. Айниқса, таълим тизимида педагогик-психологик таъсирлар орқали низоли вазиятларни ҳал қилишнинг конструктив моделини ишлаб чиқиш ва амалиётға тадбиқ этиш соҳа мутахассисларини олдида турган муаммолардан бири десак муболаға бўлмайди.

Ўсмир шахснинг ички зиддияти асосан ташқи дунё билан ўзаро шахслараро муносабатлар асносида юзаға чиқиб, шахснинг ўз эҳтиёжлари, мотивлари, манфаатлари, мақсадлари ҳамда қадриятлари кураши билан тавсифланади. Натижада, шахслараро низолар моҳиятидан келиб чиқиб, айримлари конструктив тарзда ҳал қилинса, баъзилари уни шахсға таъсири ҳамда оқибатлари ҳисобига деструктив кўринишни касб этади.

Конструктив низоларнинг юзаға чиқиши асосан шахснинг ўзига хос муҳим ҳаётий хулосалари, тушунчалари, теран фикрлаши ва ўзида салбий вазиятларға нисбатан алтернатив (муқобил) қарашларнинг пайдо бўлиши билан ҳрактерланади. Шахслараро низони бундай ҳал этилиши шахснинг тараққиётини

янги босқичга кўтаради, яъни ўзаро томонлар ўртасида компромисс, ҳамкорлик ва бир бирини тушуниш, ҳис қилиш ҳамда қўллаб-қувватлаш хусусиятларининг янги қирралари шаклланиши билан аҳамиятли ҳисобланади.

Шуни айтиш ўринлики, зиддиятлар инсон ўзи хоҳламасада объектив ва субъектив сабабларга кўра ҳаёти давомида юзага келади, жумладан, ота-она ва фарзандлар, тенгдошлар, ўқитувчилар ва бошқалар иштирокида юз бериб, натижада зиддиятлар барча иштирокчилар томонидан оғриқли тарзда бошдан кечирилади. Оқибатда, улар кўпинча, шахслараро муносабатларнинг бузилиши, стресс ва депрессия ҳолатлари, психосоматик касалликлар каби комплекс бузилишлар кўринишида кечади. Шу боис жамиятда устунлик қилаётган низоларга нисбатан салбий қарашлар узоқ вақт давомида сақланиб қолишлиги билан тадқиқотчиларни қизиқтириб келган.

Шахслараро низоларга оид мабаалар таҳлил қилинган адабиётларга назар ташлаганимизда, психологияда кўпроқ низоларнинг турли жиҳатлари ўрганилганки, бу тушунчалар ҳар бир педагогнинг ўқувчиси, ота-онанинг фарзандлари, тенгдошларни ўзаро жамоасида юзага келадиган низоларни ўз вақтида олдини олиш ва конструктив тарзда ҳал этиш заруриятининг кенглиги билан аҳамиятли ҳисобланади.

Шахслараро муносабатлар тизимидаги низоларнинг ўзига хослик жиҳатларини рус тадқиқотчиларидан бири А.Г. Здравомислов таҳлил қилиб, “конфликт - бу жамиятдаги одамларнинг ўзаро таъсирининг энг муҳим томони, ижтимоий ҳаётнинг ўзига хос хужайрасидир. Бу ижтимоий ҳаракатнинг потенциал ёки субъектлари ўртасидаги муносабатларнинг бир шакли бўлиб, унинг мотивацияси эса қарама-қарши қадрият ва меъёрлар, манфаат ва эҳтиёжлар билан шартланган”, дея таъкидлайди.

Шу ўринда алоҳида таъкидлаш жоизки, мактаб ўқувчиларининг фаолиятларини конструктив тарзда йўналтириш, аниқроқ қилиб айтганда шахслараро муносабат доирасида юзага келадиган низолар ечимини энг мақбул, яъни бошқалар ҳамда шахснинг ўзи ҳам зарар кўрмайдиган ҳолда ҳамжиҳатлик билан енгиш, нафақат ўзининг, балки қарама-қарши томоннинг ҳам эмоционал

барқарорлигини таъминлаб беради. Акс ҳолда М.С Мириманова келтирганидек, шахнинг салбий ҳис туйғуларини вужудга келишига, шунингдек, тадқиқотимиз объекти бўлган мактаб ўқувчиларининг ўқув фаолиятини тўғри ва мазмунли ташкиллашига ҳалақит берувчи асосий детерминантга айланишлиги ҳеч кимга сир эмас. Шунга кўра биз, асосан тадқиқотимизда зиддиятни омилкор ҳал қилиш услубига қаратилган позицияга эътибор қаратамиз, чунки у ўқув фаолиятини тўғри ташкил этувчи асосий омил ролини ўйнайди. Ачинарли томони шундаки, мактаб ўқувчилари ўртасидаги шахслараро низоларни кечилишни кўриб чиқиш алоҳида эътиборга моликдир, чунки бу даврда онгли хулқ атвор услуби ва бошқалар билан ўзаро муносабатлар ривожланади. Шахслараро низолар муаммосининг ривожланиши оқибатида, ўқувчиларнинг индивидуал ва жамоавий тарздаги салбий хатти-ҳаракати авж олиши кутиладики, оқибатда, ўқитувчилар талабларига бўйсунмаслик, ўқитувчиларнинг айрим ҳаракатларига тақлид қилиш, турли лақаблар қўйиш, уларнинг айрим камчиликларини масҳара қилиш, уй вазифаларини бажаришдан бош тортиш каби ҳаракатларнинг намоён бўлишида кўринади. Ёхуд гуруҳ аъзолари билан турли тортишувлар, тўқнашувларнинг юзага чиқиши билан тавсифланади. Айниқса, шахслараро низоларнинг яққол намоён бўлиш босқичи асосан ўсмир ёшдаги ўқувчилар шахсида ва синф жамоаси хатти-ҳаракатларида кўпроқ кўзга ташланади. Натижада, ўқувчи таълим жараёнига зарар етказувчи таъсирнинг объекти бўлиб, вақти-вақти билан низоларни бошлаб юборади ва ўқув жараёнини амалга оширишга ҳалақит беради.

Тадқиқотимизда Д. Б. Элькониннинг ўсмирни етакчи фаолияти сифатида тенгдошлари билан мулоқоти асосий фаолият тури эканлиги тўғрисидаги қарашлари алоҳида таҳсинга эга бўлиб, бунда муаллиф тенгдошлар гуруҳига қўшилиш ўсмир ижтимоийлашувининг асосий усулига айланмоқда, деб ҳисоблайди. Мулоқот жараёнида шахслар ўртасидаги муносабатларнинг асосий вазифалари шундан иборатки, бунда мотивлар, меъёрлар устунлик қилиб, мотивацион-эҳтиёж соҳасининг ривожланишига асос бўлиб хизмат қилишлигини келтириб ўтади.

Аксарият, ўсмирлар ўртасида юзага келадиган шахслараро низоларнинг келиб чиқиши ота-оналар билан бирга, тенқурлари орасида бўлган муносабатларда тўлиқ қондирилмаган эҳтиёжлар натижасидир десак муболаға бўлмайди. Шунга асосланиб, биз мактаб ўқувчилари томонидан юз берадиган зиддиятли вазиятларни ҳал қилишда улар ёрдамга мухтож деган хулосага келишимизга, ўқувчилар ўртасида мавжуд низоларни психологик тадқиқ қилишимизга, шунингдек, профилактик ва психокоррекцион ишлар тизимини ташкиллашимизга асос бўлиб хизмат қилади.

Юқорида келтирилган шахслараро низоларни келиб чиқишига сабаб бўлувчи мулоқотнинг салбий жиҳати, ўсмир шахсининг фазилатлари, ақлий функцияларини шаклланишига таъсир ўтказиб, ижтимоий меъёрлар ҳамда кадриятларни ўзлаштириш ва умуман барча ижтимоийлашув жараёнида бузилишларни келтириб чиқаради. Бизнинг фикримизча, бундай ҳодисаларнинг олдини олиш учун ўсмирларнинг коммуникатив ва ижтимоий-психологик мавқеини ошириш, бошқалар билан шахслараро ўзаро муносабатларнинг конструктив моделлари ва усуллари шакллантириш, айниқса, зиддиятли вазиятларда муҳим ўринни эгаллайди.

NOTO'LIQ OILALARDAGI O'SMIRLARNING IJTIMOYILASHUVI JARAYONINING TASHQI VA ICHKI DETERMINATLARI

Botirova Maxliyo Botir qizi
Buxoro Davlat Universiteti 10-1- PSI-21 guruh magistranti

Ajrimlar tufayli paydo bo'lgan noto'liq oila – XX asrning oxirlarida ko'payib ketgan noto'liq oila turi. *Golodning* ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyadagi oilalar ajrimi shu qadar ko'paydiki, har 100 ta nikohga 51 ta oila ajrimi to'g'ri keldi. Bunga sabablardan biri ota-onalik rollarining bajarilmasligi, otaning bola tarbiyasidan sovuqqonlik bilan chetlashishidir, chunki ko'pgina otalar ajralishgandan so'ng ma'lum muddat o'tgach, farzandlari bilan umuman yuz ko'rmas bo'lib ketishadi. Afsuski,

O'zbekistonda oila va nikoh nechog'li qadrlanmasin, oilaviy ajrimlar ham qayd etiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi yillarda yiliga o'rtacha 14,5 mingdan 15 mingacha oila ajrimlari qayd etiladi, ajrimlarning sudlar orqali rasmiylashtiriladigan turlari FXDyo orqali rasmiylashtiriladiganidan ko'proqdir. Ajrim bo'lgan oilalarning 70 foizi yosh oilalar bo'lib, ularda o'rtacha 2,5 ta bola chala etim bo'lib qoladi. Bu kabi noto'liq oilalarda o'ziga yarasha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar paydo bo'ldaiki, shu bois ham davlatimizning oila siyosatining mazmuni noto'liq oilalar sonini kamaytirishga qaratilgandir. Bunda masalaning moddiy tomonidan ham uning ma'naviy-ahloqiy tomonlari bizni ko'proq tashvishga soladi.

Inson tug'ilgan kunidanoq jamiyatga kiradi. Unda o'sadi, rivojlanadi va o'ladi. Inson rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy omil bu oiladir. Oilalar butunlay boshqacha. Oila tarkibiga, oiladagi oila a'zolariga va umuman, o'zini tevarak-atrofdagi odamlarga bo'lgan munosabatiga qarab, inson olamga ijobiy yoki salbiy nazar bilan qaraydi, o'z qarashlarini shakllantiradi, atrofdagilar bilan munosabatlarini quradi. Axir, to'liq bo'lmagan oilalar va ota-onasi yoki nogiron bolalari bor oilalar bor. O'z-o'zidan ma'lumki, bu oilalardagi munosabatlar va tarbiya oddiy to'liq oiladagi tarbiyadan tubdan farq qiladi. Ko'p bolali oilalarda tarbiya ham boshqacha; ota-onalar o'rtasidagi nizolar tez-tez sodir bo'ladigan oilalarda; turli xil tarbiya uslublari bo'lgan oilalarda, ya'ni. qancha oila, shaxsni tarbiyalash uchun juda ko'p imkoniyatlar. Qolaversa, inson o'z fikriga, o'z e'tiqodiga ega bo'lmasa, undan so'ralgan hamma narsaga bo'ysunsa, shaxsga aylanmasligi mumkin. Va bu holatda ham ko'p narsa oilaga bog'liq. Aynan oilada shaxs birinchi hayotiy tajribani oladi, birinchi kuzatishlarni qiladi va turli vaziyatlarda o'zini tutishni o'rganadi. Ota-onalarning bolaga o'rgatganlari aniq misollar bilan tasdiqlanishi juda muhim, shuning uchun u kattalarda nazariya amaliyotdan ajralmasligini ko'rishi mumkin; aks holda, u ota-onasining salbiy misollariga taqlid qila boshlaydi. Oilaning buzilishi ota-onalar va bolalar, ayniqsa, onalar va o'g'illar o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir qiladi. Ota-onalarning o'zlari nomutanosiblikni boshdan kechirganligi sababli, ular odatda bolalarga hayotning o'sha paytda, ayniqsa, ularning sevgisi va yordamiga muhtoj bo'lgan paytda paydo bo'lgan muammolarni yengishga yordam

berish uchun kuchga ega emaslar. Ota-onalar o'smirga kichik boladek munosabatda bo'lganda va talablar bir-biriga mos kelmasa, u bolalarcha itoatkorlik yoki kattalarning mustaqilligi kutilganda nizolar paydo bo'ladi. Ko'pincha janjalning manbai o'smirning tashqi ko'rinishidir. O'smir esa o'zini betakror shaxs deb bilgan holda, ayni paytda tengdoshlaridan farq qilmaslikka intiladi. O'smir kattalardan uning fikrini hisobga olishini, uning qarashlarini hurmat qilishni xohlaydi. O'zingizga kichkina odamdek munosabatda bo'lish o'smirni xafa qiladi. Shuning uchun ota-onalar tomonidan kichik vasiylik va ortiqcha nazorat qabul qilinishi mumkin emas. Ota-onalar o'z o'smirlari bilan teng ravishda foydalanadigan ishontirish, maslahat yoki iltimos so'zlari samaraliroq bo'ladi. Noto'liq oilada o'ziga xos ruhiy muhitning mavjudligi va uning vaqti vaqti bilan o'zgarib turishi bu oilada tarbiyalanayotgan bolaning aqliy, axloqiy va ruhiy kamolotiga alohida ta'sir etadi. Masalan bolaning ota-onasi bilan bo'lgan osoyishta va erkin munosabatining ijtimoiy ongiga, xulq-atvoriga, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchining ortib borishiga ijobiy ta'sir etadi. To'liq oilada tarbiyalangan bola odatda oila va oila a'zolari to'g'risida kamroq tashvishlanadi, o'z oilasi to'g'risida kamroq tashvishlanadi. Izalanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, noto'liq oilaning tarbiyaviy ta'siri ijobiy natija berishiga nisbatan ko'proq salbiy ta'sir qiladi. Oila an'anaviy ravishda asosiy ta'lim muassasasidir. Bola bolaligida oilada nimani qo'lga kiritsa, u keyingi hayoti davomida saqlab qoladi. Oilaning tarbiya instituti sifatidagi ahamiyati shundan iboratki, bola hayotining muhim qismi unda bo'ladi va uning shaxsga ta'sir qilish muddati bo'yicha hech bir tarbiya institutini tenglashtira olmaydi. Farzandlari yuqori, ammo ortiqcha baholanmagan o'z-o'zini hurmat qilish bilan o'sadigan oilalarda bolaning shaxsiyatiga (uning qiziqishlari, do'stlari bilan munosabatlari) e'tibor etarli darajada talabchanlik bilan birlashtiriladi. Bu erda ular kamsituvchi jazolarga murojaat qilmaydilar va bola bunga loyiq bo'lsa, bajonidil maqtashadi. O'zini past baholaydigan bolalar (juda ham past bo'lishi shart emas) uyda ko'proq erkinlikdan foydalanadilar, lekin bu erkinlik, aslida, nazoratning yetishmasligi, ota-onalarning bolalarga va bir-biriga befarqligining natijasidir. O'smirning mustaqilligi, asosan, kattalardan ozod bo'lish, ularning vasiyligidan, nazoratidan ozod qilish istagida ifodalanadi. Ota-onalarga, ularning mehr va g'amxo'rlikiga, ularning fikriga muhtoj bo'lib, ular mustaqil, huquqlarda ular bilan

teng bo'lish istagini kuchli his qiladilar. Ikkala tomon uchun ham ushbu qiyindavrda munosabatlar qanday rivojlanishi, asosan, oilada shakllangan tarbiya-uslubiga va ota-onalarning qayta qurish qobiliyatiga – farzandining voyaga yetganlik tuyg'usini qabul qilishga bog'liq. Nisbatan xotirjam boshlang'ich maktab yoshidan keyin o'smirlik notinch va qiyin ko'rinadi. Va, ehtimol, o'smirning asosiy xususiyati shaxsiy beqarorlikdir. Muloqotdagi asosiy qiyinchiliklar, nizolar ota-onalarning xatti-harakatlarini nazorat qilish, o'smirning o'qishi, do'st tanlashi va boshqalar tufayli yuzaga keladi. Bolaning rivojlanishi uchun eng noqulay bo'lgan ekstremal holatlar avtoritar tarbiya ostida qat'iy, to'liq nazorat va nazoratning deyarli yo'qligi, o'smirni o'z ixtiyoriga qo'yib, e'tiborsiz qoldirishdir.

ADABIYOTLAR

1. Rays F. O'smirlik va yoshlik psixologiyasi, Sankt-Peterburg, ed. Piter, 1999 yil,
2. Oila va shaxs shakllanishi / ed. Bodalev A.A., ed. "Ma'rifat", 1989 yil,
3. Titarenko V. Ya. Oila va shaxsning shakllanishi, ed. Fikr, 1987 yil,
4. Feldshteyn D. I. O'smirlik davrida bola shaxsining shakllanishi,

ЗДОРОВЬЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ЛИЧНОСТИ В ГЛОБАЛЬНОМ МИРЕ

*Махамаджоновна Муслима Бобирхан қизи
Школа №183 Чилонзарского района, психолог школы*

Аннотация: «В статье показано влияние на психическое здоровье человека. В настоящее время экологические требования создают условия для развития и поддержания индивидуального здоровья. Психологическое благополучие связано с опытом отношений индивида с самим собой, с жизнью и с другими. Психологическое благополучие человека является показателем личной готовности к работе.»

Ключевые слова: «здоровье, личность, благополучие, эмоциональный, развитие, жизнедеятельность»

Введение

В настоящее время все более актуальной становится вопрос психологической обеспеченности индивида для анализа психологов. Это ассоциируется с насущной психологической подготовки и опыта. Вовремя идентифицировать, на чем основывается органичное состояние человека, на каких эмоционально-оценочных позициях оно основывается, как фигурирует в упорядочении поступка. По мере усиления психогенного фактора важно найти пути достижения психического и физиологического самочувствия, благополучия и общего совершенствования качества жизни. Необходимо разработать методы и предложения, которые помогут личности осведомиться с любыми проблемами психического здоровья гораздо более благосостоятельной жизнедеятельности.

Обстоятельная эмоциональная позиция – одно из главных требований гармоничного формирования индивида. Эмоциональная гармония – это цель, к которой каждый стремится на простирании всего существования, и эта гармония проникается особым наполнением в каждом возрасте. Также растет число исследований эмоционального преуспевания человека, в которых подчеркивается компетентность и незаменимость эмоционального благополучия индивидуума на фазах его совершенствования.

В возвышенном функционировании личности организовываются патетичные потребности и увлечения, расстанавливаются проекционные намерения, раскрываются его духовные ценности и складываются способы осуществлению идей на практике. Это имеет отличительную черту человеческих действий как духовно-ценную и сознательно-деятельный акт. Глубокий, всесторонний и последовательный прогресс в создании и потреблении сегодняшних духовных ценностей является свидетельством психического здоровья и зрелости общества, людей и личности. Одной из целей социальной реформы является интеллектуальное развитие. Обязанность страны и народа в целом заботиться о духовном и культурном богатстве личности и общества в целом. Наконец, количество психически наполненных людей зависит от их психологического здоровья и их общего здоровья.

Термин «психическое здоровье» является противоречивым. Это не просто болезнь или травма, а физическое, психическое и социальное здоровье. Можно определить «психическое здоровье» как минимальный ресурс организма и его способность адаптироваться к новым ситуациям с течением времени. [1]

Психическое здоровье — это состояние покоя, чувствительности к внешнему миру, отсутствие выражения эмоциональной боли (фобии, тревоги).

Согласно отчету Специального комитета Всемирной организации здравоохранения «психическое здоровье и психосоциальное развитие детей», это «недоступность физических и психологических расстройств, вызванных различными деструктивными факторами и стрессами, воздействующими на психику и аффилирована совокупно». [2]

Состояние жизни — единое понятие, устанавливаемое совокупностью духовного и биологического, их важной ролью и условиями, необходимыми для ее выполнения. Это система ресурсов, отражающая физическое, социальное и психическое благополучие. Качество жизни является социально-психологическим и содержится в оценке степени благотворности личности всевозможным углом зрения общества, которая зависит от уровня его нужд и требований.

Эмоциональное благополучие, представляясь компонентом психологического состояния личности, рассчитывает полное удовлетворение потребности в социуме, формирование благожелательных семейных взаимоотношений, доброжелательных связей в учебном, трудовом коллективах между учащимися и учителями, составление подходящего чувственного обстоятельства жизненных условий. Отрицательное патетическое самоощущение индуцирует происхождение темпераментной безучастности, разрыв интерпсихических взаимоотношений, вызывает одиночество и ослабляет активную жизнедеятельность человека.

Упоенное благополучие, входящее в состав психического здоровья личности, включает в себя целостную сатисфакцию во внутриличностной коммуникации, создание заботливых семейных связей, плодотворных взаимоотношений в учебных и рабочих группах между участниками, создание

выгодного экспансивного окружения для средств совместной деятельности. Нежелательное патетичное расположение духа индуцирует рьяную сепарацию, распад человеческих отношений, приводит к одиночеству и ослабляет жизненную активность субъекта.

Ажитация, в которой сосредотачивается ощущения субъекта, можно назвать главным атрибутом благополучной жизнедеятельности. Психологическое здоровье является частью эмоционального состояния. Позитивное отношение отражает уровень уверенности в себе, самовыражении и принятия себя в событиях жизни. Позитивный настрой также рассматривается как условие самоудовлетворенности, социализации, стабильной работы и жизненными факторами. Эти группы формируют психологический вид здорового образа жизни. Эмоциональное настроение является признаком удовлетворенности жизненным опытом, отвечающим индивидуальным потребностям.

Есть пути к психическому здоровью, которые следят за психологическим благополучием личности. К ним относят гедонистический (субъективный) и эвдемонистический (объективный).

При рассмотрении субъективного подхода психическое благополучие и здоровье учитываются в наслаждении (не только физического, но и достигая высших целей) и избегания состояние нехватки ресурсов. Правильное понимание природы психологического благополучия отличается от гедонистической точки зрения базовыми условиями и показателями, наиболее распространенными из которых являются «переживание счастья» или «субъективное ощущение грамотности». Несмотря на свою популярность, она подверглась критике. Наиболее важным из них является игнорирование теории. Только ясность теории ставит под сомнение, является ли переживание счастья точным показателем психологического состояния и состояния здоровья человека.

Объективный подход исследует психическое здоровье и благосостояние в целом как самореализацию в определенных жизненных ситуациях и требованиях. Примирительно этому устремлению, в некоторых случаях жизненные препятствия, негативные и даже причиняющие страдания переживания могут

стать основой для улучшения своего психического благополучия, путем более глубокого понимания жизни, осознания собственных жизненных целей или создания более слаженного взаимопонимания. Являясь показателями психологического здоровья, эти атрибуты рассматриваются как мера личностной реализации своего исходного потенциала и реализации смысла жизни как основы раскрытия себя и окружающего мира, источника развития и творческой деятельности. [3]

Научные исследования к дилемме психологического здоровья складываются, с одной стороны, по характеристикам участников, с другой стороны, по характеристикам взаимодействий между участниками. Когда мы описываем образовательную среду, мы должны показать, что это факт, включает в себя результаты, предназначенные для сохранения здоровья человека и возможности для развития.

Стрессу способствуют современные условия жизни, в которых происходит формирование и развитие личности молодежи, в том числе ситуации, связанные с высоким интеллектуальным напряжением и нервно-эмоциональным напряжением. В этом возрасте формируются различный жизненный опыт, установки на положительный или отрицательный взгляд на жизнь, уверенность личности в своей способности решать проблемы, ответственность за свое благо или проблемы.

Это сложно для тех, кто участвует в процессе обучения, чтобы развивать утвердительное отношение, творческие стратегии, позитивное мышление у молодых людей. В большинстве случаев психическое здоровье является показателем социального и психологического единства, хорошей упорядоченной работы и здоровья индивидуума, что играет важную роль в формировании личности психолога и является важнейшим условием эффективного общения.

В ряде исследований установлены важные качества личности, такие как: самосознание и самопринятие, способность к критике и самокритике, стремление к профессиональному и личностному воспитанию, умение ладить с людьми, энтузиазм применительно к работе и ее задачам, наличие жизненных перспектив.

Эти личностные особенности, по сути, близки к структурным составляющим феномена духовной обеспеченности. Успешность личности можно рассматривать как степень личностной готовности к инициативности.

Несколько исследований выявили важные черты личности, такие как взгляды на жизнь, мировоззрение и внутренняя гармония, умение анализировать. Эти черты личности приближаются к структурным компонентам психического благополучия. Личностное благополучие может быть использовано как психологический индикатор желания человека действовать.

Психическое благополучие открывает отблеск в различных интерпсихических взаимодействиях. Сатисфакция межличностными отношениями и взаимодействиями можно считать мерой личного счастливого человека и его давления на совершенствование личности в целом. Уровень психического здоровья обязан быть не ниже среднего для гармоничной личности. Этот уровень психического здоровья характеризуется такими характеристиками как потребность быть в малой группе и быть частью большой группы, давать пространство другим, стараться поддерживать здоровые и доверительные социальные отношения, оценка социальной ответственности.

Стороны знают и принимают процесс обучения, формирования личности, положительная самооценка и развитие социально-психологического мышления развивает способность строить долгосрочные отношения, основанные на доверии, через эмпатию. Отношения с другими людьми важны как части духовного благополучия человека.

Оптимальное функционирование всех психических организаций, надлежащих для жизнедеятельности человека. Психическое здоровье можно соотнести как неотъемлемую часть психологического здоровья человека. Это состояние, когда биологическое здоровье сочетается с личным здоровьем, развитие личности и подготовка к такому подъему также направлены на всестороннюю реализацию целей.

Психологически здоровый субъект имеет к себе доброе отношение, открыт к совместной деятельности, устойчив к стрессу и защищен от несчастий, так как

он оснащён незаменимыми средствами, чтобы противостоять жизненным трудностям (использует эффективные стратегии преодоления барьеров.)

Список литературы:

1. Борис Гурьевич Мещеряков, Владимир Петрович Зинченко. Большой психологический словарь.
2. Глоссарий терминов по вопросам укрепления здоровья. – Женева: Всемирная организация здравоохранения, 1998. – 35 с
3. Маркевич, О.В. Психологическое здоровье и субъективное благополучие студентов-психологов / О.В. Маркевич // Психологическое здоровье в контексте развития личности: Материалы III Международной научно-практической конференции, Брест, 7 апреля 2010 г. / Брест. гос. ун-т им. А.С. Пушкина. – Брест: БрГУ, 2010.
4. Идобаева, О. А. Исследование эмоционального благополучия современных подростков как предпосылка коррекционной работы школьного психолога: дис... канд. психол. наук / Идобаева Ольга Афанасьевна

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOG XODIMLARIDA STRESS MUAMMOSI

*Tuychiyeva Shaxlo Shavkatovna
Nizomiy nomidagi TDPU magistranti*

Annotatsiya: Maqolada MTT hodimlarida ruhiy taranglikni vaqtinchalik bo'lsa ham yengishga, sog'lomlashtirish o'z-o'zini relaksatsiya qilishga, mustaqil fikrlash va harakatlanishga o'rgatish qaratilgan bir qator fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: MTT, tarbiyachi, kasbiy charchoq, relaksatsiya, ruhiyatni sog'lomlashtirish, stressga barqarorlik

Stressni o'rganish psixologik va pedagogik fan va amaliyotda eng mashhur mavzulardan biriga aylangan. Bu masalaning dolzarbligi aniq. Hech shubha yo'qki,

zamonaviy hayotning tobora kuchayib borayotgan **intensivligi va keskinligi** psixologik darajada **salbiy** hissiy tajribalar, reaksiyalar paydo bo'lish chastotasining ortishida namoyon bo'ladi hamda aniq va uzoq muddatli stressli **holatlarning shakllanishiga olib keladi**. O'z navbatida, bu stress bilan bog'liq bir qator kasalliklar "Asab kasalliklari" ni rivojlanish xavfini oshiradi.

Bugungi kunda ish bilan bog'liq stressga qiziqish ortib bormoqda. Buning sababi shundaki, professional stress ish samaradorligini, qobiliyatni buzishi, inson resurslarini yo'qotishiga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda stress omillari ko'pincha murakkab sharoitlarni keltirib chiqaradi, ularning oqibatlari kasbiy faoliyatda, shu jumladan pedagog faoliyatida to'siqlarni keltirib chiqaradi.

Psixologiya va pedagogikada stress muammosi haqida so'z ochganimizda nogahon Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari ko'z o'ngimda gavdalandi. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan aksariyat videolar MTT pedagog hodimlarining ishidan, hatti-xarakatiga e'tirozlardan iborat. Ho'sh nima uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog hodimlari orasida stressli holatlar ko'payib boryapti? Tarbiyachilar shunchalik ish faoliyatidan charchadimi? yoki bolalar bilan ishlash shunchalik og'irmi? Balki **oylik maoshining kamligi** ulardagi stressli holatlarni keltirib chiqarayotgandir?

Bu kabi savollar bisyor. Uning yechimi psixologik va pedagogik muhitning sog'lom bo'lishi va har qanday xolatda ham pedagoglar jamoasidagi ruhiy hotirjamlikni ta'minlash hamda psixologik muhitni yaxshilashda psixologlarning hizmati kerak bo'ladi.

Atrof-muhitning ifloslanishi, jismoniy stress, oilaviy muammolar yoki o'lim haqidagi xabarlar, ba'zi ota-onalarning noo'rin e'tirozlari stressli holatlarni keltirib chiqarishi aniq.

Stress so'zi "bosim" degan ma'noni anglatadi. Stress nafaqat ish va oiladagi ortiqcha yuk, balki bu ruhiy holat, dunyoni idrok etish va unda harakat qilish usuli. Stress har doim ta'sir qilish natijasida yuzaga keladigan holat bo'lib, uni ma'lum vaqt ichida nazorat qilib bo'lmaydi.

Stress – tananing qarshiligini oshiradi, himoya mexanizmlarini o‘rgatadi. Stress nafaqat og‘ir azob-uqubatlarning paydo bo‘lishiga, balki katta quvonchga ham hissa qo‘shishi mumkin. Bu holat insonni ijod cho‘qqilariga olib chiqishi mumkin.

Shunday ekan, stressli vaziyatlardan chiqib ketishda pedagogda mavjud bo‘lgan **optimizm** va **pessimizm** hususiyatlarining ahamiyati psixologik jihatdan juda muhimdir.

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish sharoitida inson hayoti va faoliyati unga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan uzviy bog'liqdir paydo bo'lishi, rivojlanishi bilan birga keladigan ekologik, ijtimoiy, kasbiy va boshqa omillar salbiy his-tuyg'ular, kuchli his-tuyg'ular, shuningdek, jismoniy va aqliy funktsiyalarning haddan tashqari kuchlanishi - ong ostida rivojlanadigan xarakterli ruhiy holat ekstremal hayot sharoitlarining ta'siri stressdir.

Yuqoridagilarni hisobga olib, MTT hodimlarida stressga barqarorlik, sog‘lom ruhiyatni shakllantirish, ruhiy taranglikni vaqtinchalik bo‘lsa ham yengish, o‘z-o‘zini relaksatsiya qilishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish mavzuimizni dolzarbligini ko‘rsatib beradi. Quidagi mashqlar mazkur vazifalarni bajarishdagi kichik bir metodika sifatida keltirib o‘tamiz.

Emotsional taranglik va mushaklar tonusini kamaytirish uchun mashqlar yig‘indisi.

Oyoqlarning pastki qismi uchun.

Oyoqlarda pol ustida turamiz. Oyoq uchida turib, tovonlar iloji boricha poldan uziladi. Shunday holatda bir necha soniya turib, keyin asl holatga qaytamiz. 5-10 soniyadan keyin mashqni takrorlaymiz.

Bo‘ksa va qorin uchun.

O‘tirgan holatda oyoqlarni biroz ko‘tarib, uchlarini oldinga torting. Xuddi qarama-qarshi tomondagi devorga oyoq uchlarini tekkizmoqchi bo‘lganday mushaklarni taranglashtiring, so‘ngra esa bo‘shashtiring. Oyoqlar asta polga tegadi va tizzadan yuqoriga qarab yoqimli iliqlik tarqaladi. Hayolan shuni his qilishni davom eting.

Ko‘krak qafasi uchun.

Xuddi atrofingizdagi hamma havoni yuta oladigandek, chuqur nafas oling. Birozdan so‘ng nafasni chiqaring. Nafas olishdan oldingi taranglikka va nafas chiqargandagi bo‘shashishni (yengillikni) his qilayotganingizga ahamiyat bering. Nafas chiqarganingizdan keyin tanangiz bo‘ylab iliqlik tarqalayotganini his qilasiz.

Qo‘llar uchun.

Kaftlaringizni iloji boricha qattiq musht qiling. Shu holatda bir necha soniya ushlab so‘ng kaftlaringizni oching. Barmoqlar orasini katta oching va taranglikni tashlab yuboring. Mashqni bajarish jarayonida qo‘llaringizda yoqimli og‘irlik va iliqlik paydo bo‘layotganini his etasiz.

Yelka va bo‘yin uchun.

Yelkalarni yuqoriga ko‘tarib hayolan quloq suprasiga tekkizganday bo‘ling. Kuchli taranglikdan keyin mushaklarni bo‘shashtiring. Diqqatingizni paydo bo‘layotgan yengillik va iliqlikda jamlang.

Yuz uchun.

Ko‘zga sovun tushganday qattiq yuming. So‘ng mushaklarni bo‘shashtirib ko‘zda yoqimli iliqlik paydo bo‘layotgani va unda charchoq, dard cho‘kayotganini his qilasiz.

Endi shunday vaziyatni tasavvur qiling.

Dunyoda juda ziyoli odam yashagan ekan. Hayotida hamma narsa yaxshi bo‘lgan ekan, ammo kunlarning birida “musibat” sodir bo‘libdi. Kiyim shkafida juda ko‘p kuya kapalaklar paydo bo‘libdi. Kelinglar, unga ulardan qutilishga yordam beramiz. Kaftimizni-kaftimizga urib kuya kapalaklarni hamma joydan yo‘qotamiz. Diqqat, men shkaf eshigini ochaman. Capak chalinglar! Kuya kapalaklarni tutishga harakat qilinglar.

- *Mashqni bajarishdan oldin nimani his qildingiz?*
- *Mashqlarni bajarish jarayonida nimani his qildingiz?*
- *Hozir nimani his qilayapsiz?*

Yaxshi kayfiyat va energiya bilan quvvatlanamiz.

Ko‘pchilik odamlar hayoti davomida bo‘layotgan nojuy xatti-harakatlardan ruhiy siqilish (depressiya)ni yoki “psixologik yonish” “stress”ni o‘zidan o‘tkazadi. Bunday qiyin vaziyatda qolgan odam o‘zini har xil narsalar bilan chalg‘itishadi. Ko‘pchilik ruhiy taranglikdan chiqib ketish yo‘llarini bilmaydi. Surunkali ruhiy

taranglik esa sog'lik uchun juda xavfli va psixosomatik kasalliklarning sababchisi hisoblanadi. Ruhiy taranglikni vaqtinchalik bo'lsa ham yengishga, sog'lomlashtirish o'z-o'zini relaksatsiya qilish usullari yordam beradi.

O'zingiz va sizni o'rab turgan olam bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash o'z qo'lingizda ekanini unutmang!

ҒАРБ ОЛИМЛАРИНИНГ ДИНИЙ ЭЪТИҚОДГА ПСИХОЛОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДАГИ ЁНДАШУВЛАРИ

*Сайдалиева Меҳринисо
ТерДУ Психология йўналиши 2-курс магистранти*

Диний эътиқод ва инсон психикаси ўртасидаги алоқадорлик масаласи Дин психологияси фанининг марказий муаммоларидан бири ҳисобланади. Бу йўналишда бир қанча концепциялар ишлаб чиқилиб, илмий тадқиқотлар ўтказилган. Бугунги кунга келиб, диний эътиқоднинг нафақат инсон психикаси шунинг билан бирга унинг психологик саломатлиги, иродавий ва билиш жараёнлари ривожда нечоғлик ахамиятли эканлиги, олимлар томонидан олиб борилаётган илмий изланиш ҳамда эмперик тадқиқот ишларида ўз исботини топмоқда.

Психология, фалсафа доирасида ўтказилган таҳлиллар асосида диний эътиқод ва унинг мазмунини белгилашнинг асосий мезонлари аниқланган. Биз қуйида уларнинг асосийларига қисқача тўхталиб ўтамиз.

1) Эътиқоднинг мезони дин, эътиқод рамзлари, динийлик, диний тажриба ва диний туйғулар билан боғланган ҳолда тушунтирилади. Бунда турли хил тушунчалар аралашиб кетган. Эътиқод шахснинг феномени сифатида диний таълимнинг маълум йўналиши билан боғлиқдир. Масалан, ислом эътиқоди, христиан эътиқоди, иудаизм эътиқоди ва ҳ.к. Бу ўринда гап диний феноменнинг ўзи ҳақида эмас, балки диннинг юқори қобиғи тўғрисида гап кетаяпти.

Эътиқоднинг бундай тушунтирилиши диний эътиқод тушунчасини садда тушунтирилишига олиб келади.

2) Эътиқод тушунчаси психика (эмоция, невроз, аффект) ёрдамида тушунтирилади. Бунда ҳам эътиқоднинг мезони торайтирилиб тушунтирилади (Ф. Аквинский, Р. Декарт, И.Г. Фихте, Ф. Шлейермахер, Г. Геффдинг, Г. Олпорт, У. Жеймс). Эътиқодни инсон онгидаги архитиплар билан тушунтириш ҳам ўзининг рационал ечимини топмади (К.Г. Юнг, З. Фрейд, С. Эртербурн ва Ж. Фелтон). Эътиқод диндор субъектлар психикасининг алоҳида ҳолати ҳисобланиб, бу ҳолат эътиқод предметига нисбатан эмоционал ва қадриятли муносабати билан характерланади. Эътиқод шунингдек инсоннинг иродавий соҳаси билан ҳам чамбарчас боғланиб кетади. Бундай таъриф психологияда ва фалсафада мавжуд.

3) Эътиқоднинг мезони рационаллик сифатида талқин қилинади. Бунда эътиқоднинг чегараси масаласи кўтарилади, яъни эътиқод билан ақлнинг, эътиқод билан билимнинг, эътиқод билан шубҳанинг ўзаро муносабати чегараларини аниқлаш билан боғлиқ. Ақл билан эътиқоднинг ўзаро муносабати куйидагича тушунтирилади:

Шунингдек, мазкур гуруҳга эътиқоднинг ҳақиқийлиги ёки ботиллиги нуқтаи назаридан туриб баҳо бериш ҳам киради. Эътиқодларнинг турларига қараб тақсимлаш ҳам алоҳида шу гуруҳ мезонларига киради. Масалан, илмий (рационал) эътиқод, диний эътиқод (бу ерда эътиқод эмоционал, руҳий соҳага тааллуқлидир), фалсафий эътиқод, англаган ва англамаган эътиқодлар, кўр эътиқод, ажратилмаган эътиқод ва ҳ.к.¹⁵

4). Эътиқод мезонининг рационаллик, эмоционаллик, англамаганлик, иррационалликларнинг тўплами сифатида талқин қилинишлиги. Бу ўринда эътиқод эмоционал-рационал феномен сифатида тушунилади. Бундай ёндашувни теология, фалсафа ва психологияда кўриш мумкин. Масалан, бундай талқинга П.Тиллихнинг концепциясини киритса бўлади. Мазкур концепцияга кўра, эътиқодда ҳам рационал (ақлий), ҳам англамаган элементлар бирлашади,

¹⁵ Феномен религиозной веры в сфере психологии. // Позиция. Философские проблемы науки и техники. / Сб. статей под ред. С.И. Некрасова и Н.А. Некрасовой. Вып. 4.- Москва-Орёл,

этикод нафақат ишонч ва садоқат, балки “олий мақсад”, “сўзсиз ғамхўрлик”, шахснинг марказий ақидир. К.Ясперс томонидан таклиф этилган “фалсафий этикод” ҳам юқорида таъкидлаганимиз мезонга тўғри келади. Унинг фикрига кўра, этикод иррационал ва рационал (“билим билан иттифоқ”) ажойиб кўшилишидан дунёга келади.

5) Этикоднинг экзистенциал мезони (Ф.Шлейермахер). Бу концепцияга кўра, Худо ҳақидаги ва унинг илоҳий мўжизалари ҳақидаги анъанавий мезонлар бир-бирига қарама-қарши қўйилади.

б) Этикоднинг мезони сифатида маданият ҳам кўрилган. Бунда этикод шахс билан маданиятни инсонийлаштириш сифатида талқин этилади (О.В. Ивановская). Ёки этикод парадигмал ва ментал феномен, ҳаётнинг маъносини берадиган, ақл ва тажрибага таянадиган “ишчи гипотеза” сифатида талқин этилади (Д.У. Ферм).

В.М. Бехтерев номидаги Санкт-Петербург нейропсихофи-зиология илмий текشريш институти раҳбари профессор Валерий Слезин инсонга оилавий муносабатларга таъсир қилувчи диннинг психологик хусусиятини текشريш давомида қуйидаги хулосага келади: ёшлиқдан олган диний тарбия жараёнида диний этикод ва ибодат инсон организмда бўладиган ҳамма билиш жараёнларини тартибга солиб қолмай, балки онгнинг зарарланган қисмларини ҳам қайта тиклайди дейди.

Бундан ташқари яна бир қатор Санкт-Петербурглик олимлар эмпирик тадқиқотлар ўтказиб, диний амалларни бажариш жараёнидаги рухий ўзгаришлар билан боғлиқ механизмни топишга ҳаракат қилдилар ва бунинг натижасида муайян натижаларни ҳам қўлга киритганлар. Улар илоҳий ҳодисалардан бўлган – ибодат билан даволашнинг ва психотерапевтик хусусиятларини кашф этишди, ибодат кучли даволаш воситаси деган хулосага келишди. АҚШда нафақат тиббиёт йўналишида, шунингдек, анъанавий динлардаги оилалар тизимида медитациянинг психотерапевтик хусусиятларидан фойдаланишга ҳаракат қилиняпти. Катарсис, медитация, тавба-тазарру каби

психологик ҳолатлар диний амалларнинг ажралмас қисмига айланиб борапти. Шу сабабдан Ғарб ва Шарқ оилаларида диндан психотерапевтик мақсадларда фойдаланиш масаласи кун тартибиде турибди. АҚШлик протестант руҳонийси ва психологи А.Бойзен фикрича, инсон ҳаётидаги инқирозли вазиятлардан чиқишда дин ижобий таъсир этиш кучига эга.

Хулоса қилиб айтганда, диний эътиқоднинг психологик асослари ва унинг юзага келиш хусусиятларига оид концепциялар турли хил ёндашувларга асосланиб, уларнинг илмий асосларини ишлаб чиқишга оид кенг кўламли эмперик тадқиқотлар ўтказилишини тақозо этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдурахманов Ф., Абдурахманова З. “Дин психологияси” - Тошкент-2011. – Б. 67.
2. Феномен религиозной веры в сфере психологии. // Позиция. Философские проблемы науки и техники. / Сб. статей под ред. С.И. Некрасова и Н.А. Некрасовой. Вып. 4.- Москва-Орёл, Изд-во ОГУ, 2010. - 236с. - С. 104-110
3. <https://www.dissercat.com>
4. <https://www.diss.rsl.ru>
5. <https://сборник-молитв.рф/valerij-slezin-i-molitva/>.

OILAVIY MUNOSABATLARNING BOLA SHAXSIDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

*Kelebayeva Aynura Tlektesovna
Ho'jayli tumani XTBga qarashli 18-maktab psixologi*

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida

yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'yimoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmokda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda xam o'z ifodasini topadi. Oilaviy munosabatlar o'zining ko'p qirraliligi bilan alohida xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma'nan barkamol, ruhan sog'lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga egadir. Agar har bir oilani tashkil etuvchilar o'z muammolarini bahamjihatlik bilan, o'zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik kafolatlanib, uning ma'naviy asoslari mustahkam bo'ladi. Alohida ta'kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o'zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo'lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma'naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to'g'risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu bois ham mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari qadriyat sifatida yuksaklarga ko'tariladi.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A. Karimov, oilada hukmron bo'lishi lozim bo'lgan ma'naviy muhit va noyob udumlarimizning hosiyatlari haqida fikr bildirib: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amho'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir"¹⁶ - deb ta'kidlaganlar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilaviy munosabatlar har doim ham bir tekisda silliq, risoladagidey kechavermaydi. Uy-ro'zg'or yumushlarini ado etish, er-xotinlik burchlari, ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyatlari, farzandlarning kattalar oldidagi huquq va burchlarini ado etish jarayonida murakkab rollararo muomala va muloqot jarayonlari kechadiki, ularning deyarli barchasida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to'qnashadi, ayrim xolatlarda fikr va qarashlardagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar shaxslararo nizolar tarzida

¹⁶ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq vataraqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992. -72

namoyon bo'ladi. Bu xolatlar albatta farzandlar tarbiyasiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Bu esa tarbiya jarayonida ijtimoiy normalarni amal qilishi yoki buzilishida nomoyon bo'ladi. Ayni shu masalalar mavzuumizning dolzarbligini belgilaydi.

Agressiya va agressiya muammosi uzoq vaqt davomida ijtimoiy psixologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lgan.

O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab o'smirlardagi tajovuzkor xatti-harakatlarning faol tadqiqotlari o'tkazildi. Ayniqsa, bu muammo hozir juda muhim. O'smirlar o'rtasida tajovuzkor tendensiyalarni o'sishi so'nggi yillarda keskin tarzda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik oshdi. Ayniqsa, o'smirlar o'rtasidagi jinoyat ishlari sezilarli darajada oshdi. Bu esa jamiyatimizning bugungi kundagi eng o'tkir ijtimoiy muammolaridan birini ifodalaydi. Jiddiy jarohatlash, bir kishiga qarshi jinoyatlarning ortib soni kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda shafqatsiz yosh guruhlardagi janglarning hollari tez-tez uchraydi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, bu kabi holatlarning ortib borishi esa yoshlarning ruhiyatida oilaviy muhitning keskin buzulishi va oilaviy munosabatlarning keskinlashuvi sabab bo'lmoqda. Oila a'zolarining o'zaro muomalalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, maktab o'quvchilarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhitidagi holatlar va omillar alohida o'rin tutadi:

Birinchi: ota-onalarning jamoatchilik faoliyati ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari bola tarbiyasiga ta'siri kuchli bolar ekan.

Ikkinchi: oila ichidagi munosabatlari ota va ona munosabati, ota-onalarning buva va buvisiga munosabatlari, aka-ukalar va opa-singillarning o'zaro munosabatlari.

Uchinchi: ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati.

To'rtinchi: oilada bolalarning ta'limga munosabatlari va ijtimoiy normalarni bajarishlari va boshqalar.

Demak oila muhitini uch toifaga: ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy toifalarga ajratish imkoniyati tug'ildi. Bu esa, oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganishda "baxtli bolalik - bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rlikning samarasidir", degan xulosaga kelindi. Shu asosda oilada farzand tarbiyasiga yondashishning oilalarni yo'nalishiga qarab, uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib berish mumkin.

1. Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilaga xos bo'lgan oilalar bizdagi oilalarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlar axloq

prinsiplari va qoidalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, shuningdek har tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali nazarda tutiladi. Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilalarning voyaga yetgan a'zolari ishlab chiqarishda, korxonada, jamoat ishlarida faol qatnashadilar, ilg'or madaniyatga nisbatan, qiziqishlarini namoyish qiladilar, shuning bilan birga bu narsaga o'z farzandlarida ham havas uyg'otadilar. Oilada goho namoyon bo'ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda hamjihatlik bilan bartaraf qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo'jalik ashyolari, asboblari, qimmatbaho materiallarni har xil ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqboli bilan mutlaqo bog'lanmaydi.

2. Ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oilada barqaror yo'nalish bo'lmaydi. Oilaviy turmush munosabatlari uzluksiz ravishda biron-bir g'oyaning boshqa g'oya bilan o'zaro niqoblangan kurashi bosqichida bo'ladi, u yoki bu qarashlarning ustunligi, istiqboli hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Bunday holatning ko'zga tashlanishi eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashni anglatmaydi. Er-xotinning yoki boshqa voyaga yetgan oila a'zolarining murosasiz pozitsiyalari ko'pincha ularning fe'l-atvor xususiyatlaridagi tafovut negizi bilan bog'liq bo'lib, mutlaqo eskilik sarqiti mohiyatidan kelib chiqmaydi. Oilada so'z bilan ish birligi masalasi bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi. Faqat burch hissigina, muayyan majburiyatni bajarishgina oila a'zolarini o'zaro birlashtirib turadi. Mana bunday oilalarda er-xotinning bolalarga ta'sir o'tkazish uchun kurashi, raqobati yaqqol namoyon bo'ladi.

3. Past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalarda ko'pincha ishchanlik udumi va ideallari hokimlik qiladi. Mazkur oilalarda barcha narsa yagona narsaga bo'ysundirilgan, ya'ni mol-dunyo to'plashga, moddiy-maishiy jihatdan ustunlikka erishishiga qaratilgan boladi. Voyaga yetgan oila a'zolarining, ota-onalarining korxonada, muassasada, tashkilotda mehnat qilishi ana shu ko'zlangan maqsadga yetish vositasi sifatida, har qanday mehnat esa, ish haqi miqdori bilan o'lchanadi. Oila boshlig'ining zo'ravonligi, zolimligi, unga ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishlik, sajda qilishlik, zaif va nimjon oila a'zolari farovonligini poymol qilishga intilishi va hokazolar ustun bo'ladi. Meshchanlik ideali va diniy e'tiqod doirasidan tashqari chiqish hollari (kitob o'qish ijtimoiy turmush faoliyatida ishtirok etish) kamsitilib, bekorga vaqt sarflash deb baholanadi.

Shu boisdan past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalardan xudbin, qo'rqqoq, jamiyat uchun kam nafi tegadigan o'g'il-qizlar yetishib chiqishi mumkin. Jumladan, har bir oila a'zolarining yashayotgan mikromuhitda tutgan o'rni va erishgan obro'li, oilalarda er-xotin munosabatlari, ota-onalarning farzandlarga nisbatan muomalalari, turli yoshdagi farzandlarning o'zaro muloqoti, ularning ota-onalarga munosabatlari, oila a'zolarining begona kishilar bilan muloqotga kirishishi xususiyatlari, ular o'rtasida o'zaro yordam va birdamlilik xususiyatlari, uy-ro'zg'or yumushlari taqsimoti, xordiq chiqarish, oila a'zolarida muloqot ko'lamining

kengayishi kabi shaxslararo munosabatlarning rang-barang jihatlarini oilada bola ongiga singdirish maqsadga muvofiqdir.

Oilaviy hayot, mehnat, kattalar va kichiklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, axloqiy-ma'naviy qiyofalari, ota-onalarning siyosiy va ma'naviy saviyalari, ularning iqtisodiy ta'minlanganligi, turli ko'rinishdagi faoliyatlari, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, yashash sharoitlari va boshqalar oilada farzand tarbiyasini samaradorligini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Biz mavzu yuzasidan quyidagi ilmiy-nazariy, tahliliy natijalarni qo'lga kiritdik:

- Farzandlar tarbiyasini barqarorligini ta'minlashda ota-ona ibrati katta ahamiyatga ega boladi;

- Oiladagi axloqiy tarbiya bilan ta'lim muassalari tarbiyasi mushtarakligini ta'minlash farzandlarning tarbiyalanganlik darajalarini oshiradi;

- Farzandlar tarbiyasida oilaviy an'analarni, milliy urf odatlar mohiyatini ular ongiga singdirib borish tarbiyaning milliy xarakterini oshirish imkoniyatini beradi.

- oilaviy hayotda urf - odat, an'ana, milliy ong va milliy til kabi ijtimoiy tushunchalar va o'rta Osiyo mutafakkirlarining axloq, odob va oilaviy hayot xususidagi didaktik qarashlaridan foydalanish yaxshi samara beradi;

- oilaviy tarbiyaning o'ziga xos qoidalaridan xabardor bo'lish va kamchiliklarini psixologik - pedagogik bilimlarga tayanib bartaraf etish darkor;

- oilada shaxslararo munosabatlarning ko'rinishini va rollar taqsimoti bola faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega;

- oilada ma'naviy, axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirish bolaning har tomonlama ma'nan pok, iymonli, vatani va xalqiga sodiq farzand bo'lib yetishishida yetakchi rol o'ynaydi.

Sog'lom bola oilada shakllanadi va kamol topadi. Bu o'rinda ota-onaning psixologik-pedagogik bilimi, dunyoqarashi hamda madaniyati yetakchi omil hisoblanadi.

Har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasi bilan asosli ravishda shug'ullanishi, buning uchun esa ta'lim-tarbiya ishining o'ziga xos tomonlarini, qonuniyatlarini, bolaning pedagogik-psixologik va yosh xususiyatlarini, jismoniy va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishlari, yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi muvoffaqiyatlariga erishishning asosiy omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Adizova T.M. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari. - Toshkent, TDPU, 1997.

2. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. - Toshkent, O'qituvchi, 1995.

3. Nishonova Z.T. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. Toshkent. Nizomiy nomli TDPU, 2004 y.

TOLIQ BOLMAGAN SHAÑARAQLARDAGI ÓSPIRIMLERDE DEVIANT MINEZ XULIQTIÑ ALDIN ALIW BOYINSHA PEDAGOGLAR USHIN METODIKALIQ USINISLAR

Nazira Primbetova

NMPI Pedagogika ham psixologiya qaniygeligi magistranti

Резюме. Bul maqalada toliq bolmagan shañaraqlardagi óspirimlerde deviant minez xulqtiñ aldın alıw boyınsha sociallıq pedagoglar ushın metodikalıq usınıslar kórsetilgen.

Резюме. В этой статье приведены методические рекомендации социальному педагогу по профилактике девиантного поведения у подростков из неполных семей.

Summary. This article provides guidelines for a social teacher on the prevention of deviant behavior in adolescents from single-parent families.

Tayanish sózler: deviant minez-qulıq, korrekciyalaw, profilaktika, diagnostika, reabilitatsiya, shañaraq, tárbiya, munasábet, individual

Ключевые слова: девиантное поведение, коррекция, профилактика, диагностика, реабилитация, семья, воспитание, отношения, индивидуальный

Key words: deviant behavior, correction, prophylaxis, diagnostics, rehabilitation, family, upbringing, relationship, education

Ózgeriwshen dúnya sharayatında mashqala tek gana payda bolıp atırǵan máseleler hám qıyınshılıqlarǵa sheshim tabiw bolıp qalmastan, al olardıń aldın alıw ilajların izlew ha'm oǵan adamlardı tayarlaw bolıp tabıladı. Óspirimler arasında deviant minez qulıqtın qaliplesiwide jámiyetimizde aktual máselelerden biri bolıp tabıladı. Usı máseleńiñ aldın alıw boyınsha pedagoglar ushın metodikalıq usınıslardı qarap otemiz. Metodikalıq usınıslar ush tiykarǵı jónelisti óz ishine aladı:

1. Pedagogtıñ shañaraq penen jumısı.

Ata-analar menen islewdiñ maqseti shañaraqqa tiyisli munasábetlerdegi kelispewshiliklerdiñ aldın alıw hám korrekciyalaw, balalar hám óspirimler minez-

qulıqlarında iyiwlerdi keltirip shıǵaratuǵın eń zárúrli faktor retinde shańaraqqa tiyisli tárbiyadaǵı kemshiliklerdi saplastırıw bolıp tabıladı.

Ata-analar menen islew wazıypaları :

- shańaraqqa tiyisli munasábetlerde kelispewshilik hám shańaraqqa tiyisli tárbiya salasındaǵı huqıq buzıwlardıń aldın alıw maqsetinde ruwhıy-aǵartıshıwshılıq islerdi ámelge asırıw ;
- shańaraqtaǵı tárbiya túri, ata-analardıń balalarǵa munasábeti hám ulıwma, shańaraqqa tiyisli munasábetler muwapıqlıǵın anıqlaw maqsetinde profilaktika jumısların ámelge asırıw ;
- shańaraq aǵzaları ortasında jaqsi munasábetlerdi qayta tiklew hám shańaraqqa tiyisli tárbiya daǵı ámeldegi iyiwlerdi korrekciyalaw maqsetinde shańaraq penen kompleks korrekciyalaw jumısların ámelge asırıw.

Ata-analar menen alıp barılıp atırǵan ruwhıy-aǵartıshıwshılıq jumıslar shańaraqqa tiyisli munasábetler hám shańaraqqa tiyisli tárbiyada júzege keliwi múmkin bolǵan huqıq buzıwlardıń aldın alıw hám eskertiwge qaratılǵan. Sol maqsette ata-analardı balalar hám óspirimlerdeń minez-qulıqlarında unamsız iyiwlerge alıp keletuǵın shańaraqqa tiyisli munasábetler hám shańaraqqa tiyisli tárbiya formaları menen tanıstırıw gerek.

Ata-analar menen alıp barılatuǵın ruwhıy-aǵartıshıwshılıq jumıslar balalar hám óspirimlerde unamsız minez-qulıqlardıń rawajlanıwına neke munasábetleri hám shańaraqqa tiyisli tálim turining tásirin anıqlawǵa qaratılǵan bolıwı gerek. Bunday islerdiń formaları lekciyalar, seminarlar, sáwbetler, qániygelerdi (psixologlar, shıpakerler, advokatlar hám basqalar) tartqan halda tematikalıq ata-analar jıynalısları bolıwı múmkin. Mısalı, ata-analar ushın " Óspirimlerdeń nadurıs minez-qulıqları menen qanday gúresiw gerek" temasındaǵı máslahát shınıǵıwı.

Ata-analar menen diagnostikalıq jumısları. Bul jerdegi maqset shańaraqtaǵı tárbiya túri, ata-analardıń perzentlerine hám óz shańaraǵına bolǵan munasábetin anıqlawdan ibarat.

Ata-analar menen diagnostika jumısları tómendegi principiardi esapqa alǵan halda ámelge asırılıwı gerek:

- diagnostika nátiyjesinde alinǵan maǵlıwmatlar maman qániygeler tárepinen ayılıwı kerek;
- alinǵan maǵlıwmatlar diagnostika processinde qatnaspaǵan shaxslardan sır saqlanıwı kerek;
- diagnostika nátiyjelerin jetkeriw psixodiagnostikalıq tekseriwdiń etikalıq normaların esapqa alǵan halda individual túrde ámelge asırılıwı kerek.

Diagnostika jumısları gruppada da, individual usılda da ámelge asırılıwı múmkin, diagnostika nátiyjeleri tuwrısında esabat individual túrde ámelge asırıladı. Siz ata-analardıń munasábeti boyınsha test sorawnamasın, " Ata-analardıń munasábeti hám reaksiyaların ólshew" sorawnamasın, shańaraqqa tiyisli tárbiyanıń qásiyetleri hám kemshiliklerin analiz qılıw sxemasın usınıs etiwıńiz múmkin.

Deviant qulqli balası bar bolǵan, tolıq bolmaǵan shańaraq penen korrekciyalaw jumısları. Korrekciyalaw jumıslarınıń formaları júdá har-qıylı bolıp tabıladı: bul gruppalı shańaraqqa tiyisli psixoterapiya (ata-analar toparı menen islew) hám bólek shańaraq yamasa onıń aǵzaları menen individual psixoterapevtlik jumıs, balalar hám ata-analardıń birgeliktegi gruppa psixoterapiyasi.

2. Pedagogtıń bala menen jumısı

Mektep oqıwshılarınıń deviant qulıqınıń sebepleri jáne onıń kórinislerin analiz qılıw tómendegi juwmaqlardı shıǵarıwǵa múmkinshilik beredi:

- balalar hám óspirimlerde deviant minez-qulıqtıń aldın alıw hám korrekciyalaw boyınsha ulıwma bilim beriw mektebiniń nátiyjeli iskerligi ushın túrli gruppalardaǵı qánigelardıń máselelerin sheshiwde kompleks jantasıw talap etiledi. Mektep dárejesinde bul, birinshi náwbette, pedagogtıń klass basshı, psixolog, shıpaker menen óz-ara munasábeti;
- balalar hám óspirimler menen islewde jumıstıń profilaktika baǵdarı ústin turatuǵın bolıwı kerek;
- profilaktika hám korrekciyalaw jumısları tómendegi sırtqı kórinislerde ámelge asırılıwı múmkin: shańaraq penen islesiw, toparlıq deviaciya kórsetetuǵın balalar hám óspirimler gruppası menen islesiw, individual jumıs;

- gender ayirmashılıqların esapqa alǵan halda deviant minez-qulıqtıń aldın alıw hám korrekciyalaw jumısların shólkemlestiriw maqsetke muwapıq;
- deviant qulqı bolǵan balalar hám óspirimler menen islesiwdiń profilaktikalıq baǵdarına ústinlikke áhmiyet beriw ushın oqıwshılardıń deviant qulqın aldınan boljawın biliw gerek.

Mektep oqıwshılarınıń deviant qulqın boljawda hár tárepleme maǵlıwmat toplaw gerek: birinshiden, mektepte hár qıylı iyiwlerdiń kórinetuǵın bolıw qásiyetleri haqqında; ekinshiden, bir tárepten, oqıwshılardıń minez-qulıqlarında deviant iyiwlerdi keltirip shıǵaratuǵın ob'ektiv hám sub'ektiv faktorlar haqqında, ekinshi tárepten, olar bul kórinislerdi azaytadı hám zıyansızlandıradı. Mektep sharayatında boljaw tómendegi túrdegi bolıwı múmkin: ulıwma prognozlawda oqıwshılardıń iyiw minez-qulıqların boljaw; málim bir oqıwshıǵa salıstırǵanda individual prognozlaw; gruppanıń iyiwleri menen shuǵıllanǵanımda gruppa boljawı. Bunnan tisqari, ayırım túrdegi iyiwlerdi shamalaw múmkin.

Ulıwma, gruppalı yamasa individual prognozlawda mektep oqıwshılarınıń deviant minez-qulqların boljaw imkaniyatın beretuǵın faktorlardı tolıq analiz qılıw gerek.

Arnawlı bir oqıwshı yamasa klass jámaátin úyreniw nátiyjeleri prognozlaw kartasına kiritiledi.

3. Mektep oqıtıwshıları menen deviant minez-qulıqlardıń aldın alıw boyınsha óz-ara sheriklikti shólkemlestiriw.

Pedagog, klass basshi, mektep shıpakeri hám psixologtıń óz-ara sherikligi balanıń yamasa bir gruppa adamlardıń minez-qulıqlarında júzege keletuǵın mashqalalardı birgelikte anıqlawǵa, balanıń ózliginiń rawajlanıwın jáne onıń qulqınıń kórinislerin boljawǵa qaratılǵan. mektep oqıwshıları toparı hám mektep oqıwshılarınıń deviant minez-qulqlarınıń aldın alıw hám korrekciyalaw boyınsha islerdi shólkemlestiriw. Kompleks gruppa qániygeleri mektep dárejesinde sheshetuǵın tiykarǵı wazıypalardı tómendegishe qalıplestiriw múmkin.

Klass basshısı :

- balalar hám óspirimler menen profilaktika hám korrekciyalaw jumısların shólkemlestiriw boyınsha kompleks qániygeler toparınıń baylaw buwını bolıp esaplanadı ;
- qániygelerge dáslepki soraw jiberedi hám bala haqqında baslanğısh maǵlıwmatlardı usınıs etedi;
- mektep oqıwshılarınıń deviant qulqınıń aldın alıw hám korrekciyalaw boyınsha kompleks islerdi quraydı hám muwapıqlastıradı.

Pedagog:

- balanıń mektepten tısqarı turmıslıq iskerligin úyrenedi;
- mikrorayon aymaǵında profilaktika hám korrekciyalaw jumısların quraydı ;
- ekstremal jaǵdaylarda balalardı qollap -quwatlaydı ;
- deviant qulqı bolǵan balalar hám óspirimlerdi psixologiyalıq qollap-quwatlaw hám reabilitatsiya qılıw orayları menen sheriklik etedi.

Psixolog :

- oqıwshınıń shaxsın hám klass kollektivin úyrenedi;
- balanıń ortalıqqa kónligiwin analiz etedi;
- kónlikpegen oqıwshılardı anıqlaydı ;
- balalardıń úlkenler hám teńlesleri menen munasábetlerin úyrenedi;
- profilaktika hám korrekciyalaw jumısların shólkemlestiriw ushın diagnostika usılları kompleksin tańlaydı ;
- mútáj balalardı psixologiyalıq járdem kórsetedi.

Mektep shıpakeri:

- oqıwshılardıń fizikalıq hám psixik salamatlıǵın úyrenedi;
- túrli keselliklerge shalıǵan balalar menen islewdi shólkemlestiriw boyınsha oqıtıwshılar ushın usınıslar islep shıǵadı ;
- medicina mákemeleri menen sheriklik etedi.

Profilaktikalıq islerdi shólkemlestiriwde siz tómendegi formalardan paydalanıwıńız múmkin:

- mektep oqıwshıları hám olardıń ata-anaları ushın social -psixologiyalıq, psixologiyalıq, pedagogikalıq hám medicinalıq diagnostika maǵlıwmatları tiykarında

individual oqıwshılar ushın da, ulıwma klass basshi ushın da ótkeriletuǵın kompleks konsultatsiyalar;

- bala rawajlanıwınıń psixologiyalıq -socialliq ortalıǵın jaqsılaw ;
- oqıw processinde balanıń ruwxıylıǵına unamsız tásir kórsetetuǵın psixologiyalıq artıqsha júkleniwdiń aldın alıw ;
- balalar hám óspirimlerdi stressli jaǵdaylarǵa tayarlaw, olardı mashqalalı jaǵdaylarda psixo-emotsional stressten qutılıwdıń aqılǵa say usılların úyretiw maqsetinde olardı socialliq tárepten shınıqtırıw ;
- mektep oqıwshılarınıń minez qulqın hám rawajlanıwın, olardıń múmkinshiliklerin tolıqlaw ashıp beriw shártlerin analiz qılıw maqsetinde psixologiyalıq -pedagogikalıq máslahátlar shólkemlestiriw;
- deviant minez-qulıq máseleleri boyınsha oqıwshılar hám olardıń ata-anaları ushın qospa seminarlar.

Birgelikte korrekciyalaw jumısları formaları :

- oqıwshılar hám olardıń ata-anaların mektepte hám mektepten tısqarı hár túrli túrdegi járdem kórsetetuǵın mákemelerde oqıwshılar hám olardıń ata-anaları alıwları múmkin bolǵan járdem túrleri haqqında xabardar qılıw ;
- balalar hám olardıń ata-anaları menen psixologiyalıq -pedagogikalıq seminarlar ótkeriw, ol jaǵdayda minez-qulıqlardaǵı iyiwler, olardıń sebepleri, saplastırıw jolları hám korrekciyalaw usılları talqılanadi;
- belgili bir oqıwshı yamasa oqıwshılar toparınıń deviant qulqınıń sebeplerin anıqlaw ;
- individual hám gruppada dárejesinde korrekciyalaw jumısları programmaların islep shıǵıw ;
- islep shıǵılǵan programmalaradı mektep dárejesinde ámelge asırıw.

Oqıwshı shaxsın úyreniw oqıwshınıń jeke kartası járdeminde ámelge asiriladı.

“Oqıwshı jeke kartası” klass basshısı, pedagog, psixolog, mektep shıpakeri tárepinen toltırıladı. Usınıs etilgen jeke ayırıqshalıqlar hám jaqın átirap -ortalıq sharaytların bahalaw oqıwshınıń gúzetiwlerine, onıń teńlesleri, dosları, oqıtıwshıları, ata-anaları menen munasábetlerin úyreniw, sonıń menen birge sáwbetler nátiyjesinde

hám studentlarga beriletuđın ġárezsiz ayırıqshalıqlardı toplaw tiykarında ámelge asiriladı.

Toltırılğan kartalar tiykarında profilaktika jumısların aparıw zárúr bolğan balalar hám olardıń ata-anaları gruppaları shólkemlestiriledi hám korrekciyalaw jumısların talap etetuđın gruppalar, sonıń menen birge, individual profilaktika hám korrekciyalaw jumıslarına mútáj bolğan balalar ajratıladı.

Ádebiyatlar:

1. Психосоциальная коррекция и реабилитация несовершеннолетних с Девиантным поведением / Под ред. С.А. Беличевой. - М., 1999.
2. Е.В. Змановская “Девиантология. Психология отклоняющегося поведения” - М. 2008г. 145стр.
3. И.М Хакимова “Девиант хулк атвор психологияси” – Тошкент 2014

МУНДАРИЖА

Лола Қучқорова	Оила –жамият ва давлат химоясида тарғиб этиш ва жамиятга синдириш ишларини олиб бориш	4
Ibrohimjon Ubaydullayev	Conditions that cause the formation of aggressive behavior in children of adolescent age	7
Азимова Замира	Болаларда учрайдиган нутқ нуқсонлари касаллигини бутунлай даволаб бўладими?	11
Jalilova Nilufar	Agar bola injiq bo'lsa nimalar qilish kerak?	15
Jalilova Zebo	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga tratuardan xavfsiz harakatlanishni o'rgatish	19
Hoshimova Zilola	Bola o'yin faoliyatining psixologik xarakteristikasi- o'yin MTT yoshidagi bolalarda yetakchi faoliyatidir	23
Muxammadiyeva Munira	Xalq og`zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalash	27
Gadoyeva Maqsuda	MTT yoshidagi bolalarni tarbiyalashda didaktik o'yinlardan foydalanishning nazariy asoslari	31
Ro`ziyeva Nafisa	Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik o'sishida o'yinning ahamiyati. O'yin turlari va ularni psixologik xususiyatlari	36
Тошова Насиба	MTT болаларда элементар математик тушунчаларни ривожлантиришда интерфаол методлар ва ўйинлардан фойдаланиш	42
Рамазонова Моҳинур	Психогимнастика машғулоти ёрдамида бошланғич синф ўқувчиларидаги рухий зўриқишларини олдини олиш	46
Ruzmatova Nigina	Qadriyatlar va ularning shaxs shakllanishiga ta'siri	52
Abdufattayeva Shaxnoza	Maktabgacha ta'lim tashkilotida rahbar boshqaruvida yangicha yondashuv	56
Inomova Zulfiya	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlik	59
Ro'zmetova Farangiz, Sabirova Raya	Bolalarga ekologik ta'lim va madaniyatni shakllantirishda maktabgacha ta'lim tiziminig o'rni	62
Xolmirzayev Sardor	Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashning ijtimoiy pedagogik texnologiyalari	66
Мансурова Чарос	Таълим жараёнида ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишнинг педагогик ва психологик асосларини яратиш	77
Jurayeva Xayrinso	Yoshlarda stressogen vaziyatlarda psixologik chidamlilikni oshirish imkoniyatlari	81
Ахророва Розагул	Методические рекомендации «использование дидактических игр, как средство экологического воспитания»	85
Nozimxon Inamov	Ijtimoiy xulq – atvor va odatlarni shakllanishining psixologik tavsifi	91
Рахимова Хуршида	Ота-оналарнинг ўз болаларига эътиборини кучайтиришнинг психологик аҳамияти	95
Nishonova Shahnoza	Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda psixolog faoliyatining ahamiyati	99
Jumamurodova Umida	Shaxsning o'z-o'ziga munosabati "men" kansepsiyasining tarkibiy qismi sifatida	102
Бобоева Камола	Мактабгача кичик ёшдаги болаларнинг оғзаки нутқини ўстириш	105
Эгамқулова Кунсулу	Мактабгача таълим ташкилотларида ота-оналар билан ҳамкорликдаги ишларни ташкил этиш	110
Mirsidiqova Aziza	Bugungi ta'lim va tarbiya jarayoniga psixologik muhitning ta'siri	114
Hayitboyeva Shohista, Nishanova Shahnoza	Giperaktiv o'quvchilar bilan olib boriladigan diagnostik ishlar va psixologik tavsiyalar	118

Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази


Нуралиева Ширингул	Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларининг касбий компетенциясини такомиллаштириш	122
Konratbayeva Ayjamal	Kishi mektep jasındađı balalarda agressivliktiń payda bolıw ózgeshelikleri	127
Ismailova Shaxlo	O`qituvchining dars o`tish mahorati va vizual intellekti xususiyatlari	131
Артиков Жуманиёз	Психологик урушлар (ахборот хуружлари)ни амалга оширишда оммавий ахборот воситаларининг роли	135
Saburova Ma'rufa	O`spirinlik davrida stress holati va uni bartaraf etishning psixologik jihatlari	140
Норқобил Қулматов	Янги Ўзбекистон ёшларини ватанпарварлик руҳида тарбиялашда Заҳриддин Муҳаммад Бобур илмий ижодий меросининг ўрни ва аҳамияти	144
Бобур Авлақулов	Талабанинг ўз-ўзига берган баҳосининг ўқув фаолиятига таъсири	149
Абидова Зарнигор	Ўқувчиларнинг лойиҳалаш фаолияти даврида таянч компетентлигини шакллантириш	159
Mahmudova Sevara	Umumta`lim maktablarida o`quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning dolzarb muammolari va oila psixologiyasi fanining o`qitilishi	163
Polvonova Sadoqat	Kichik maktab yoshi inqirozi va uni oldini olish hamda bartaraf etishda psixologik treninglarning ahamiyati	167
Islomova Sayyora	Tanglik vaziyatida qolgan bolalarga psixologik yordam	171
Каримбекова Азиза	Тарбияси қийин гуруҳга мансуб агрессив хулқли болалар ва уларнинг ота-онаси билан ишлаш муаммолари	175
Jo`rayeva Lola	Kasb tanlashda nimalarga ahamiyat berish kerak?	179
Мамажонова Мадина	Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda oilaning salohiyati	182
Imomqulova Dilrabo	MTTlarda barkamol avlodni sog`lomlashtirishda jismoniy tarbiya va sport mashg`ulotlarining o`rni	186
Sanayeva Munira	Psixologik korreksiya	189
Kamila Naurizbayeva	Problematic teenagers and psychological interaction	193
Отабек Зарипов	Ахборотнинг хавф туғдириш хусусияти ва ундан ҳимояланишнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари	202
Саттарова Машҳура	Ёшларни “оммавий маданият” таъсирдан асрайлик	207
Sharipova Umidaxon	Talabalarda tolerantlik xususiyatini shakllantirishning psixologik omillari	211
Sulaymonova Sevara	Boshlang`ich sinf o`qish darslarida masal ustida ishlashda muammoli vaziyat va nostandart testlardan foydalanish	215
Азамова Гулҳаё	Ўсмирларда оила тўғрисидаги тасаввурлар шаклланишининг психологик хусусиятлари	221
Jumaboyeva Gulhayo	Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari sabab va yechimlari	224
Turg'unov Baxromjon	Shaxs muvaffaqiyatida intellektning o'ziga xosligi	228
Sultanova Svetlana	O`smirlik davrida shaxsning shakllanishi	232
Malikova Zuhaxon	O`smirlarda tanglik vaziyatdan chiqarishning maktab targ`ibotchisi hamkorligida musiqa terapiya usulida tuzatish	234
Абдулҳасанова Хилола	Ўсмирларда оила тўғрисидаги тасаввурлар шаклланишининг психологик хусусиятлари	237
Muradova Visola	Oilaviy munosabatlarning bola shaxsida ijtimoiy-psixologik munosabatlarning shakllanishiga ta`siri	241
Urolova Madina	Yosh davrlarida 3 yosh krizisi	246
Каримова Фазолат	Носоғлом оилаларда вояга етмаганлар ўртасида ижтимоий маънавий муҳитни соғломлаштириш	250

Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази

Турсунова Латофат	Мактабгача ёшдаги болалар нутқини грамматик жиҳатдан шакллантириш	253
Каримова Дилноза	Психологик консультацияга мурожаат қилувчи шахслар типологияси	259
Qasimbayeva Husnora	Pedagogika fanlarini o'qitishda pedagog xodimlarning ma'suliyati va mahorati	263
Танишева Розалия	Образовательные квесты как креативная педагогическая технология для развития лидерских качеств учащихся	266
Утегенова Севара	Оила- муътабар ва мукаддас макон	273
O'g' ilov Abdullaeva	Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogika tarixida tutgan o'rni	280
Jahongir Abdullayev	Amir temurni anglash – o'zligimizni anglash	284
Arziev Alijan, Qudaybergenova Nurjamal	Balani mektepke tayarlawdın áhmiyeti	286
Arziev Alijan, Saparbaeva Genjagul	Ziyrek balalardi ta'nlaw texnologiyasi	289
Тухтаева Гулзода	Бошланғич таълим ёшидаги болаларни мактабга мослашувининг айрим психологик жиҳатлари	291
Qutimova Malohat	Antisotsiallik va uning korreksiyasi	295
Omonboyeva Yulduz	Maktabgacha ta'lim tashkilotida didaktik o'yinlarning ahamiyati	298
Xalbayeva Gulnoza	Bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar	300
Urolova Umida	Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchilikning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar	304
Ishonqulova Norbiyi	Pedagogik faoliyatda o'qituvchining kompetentligini shakllantirish	308
A'zamova Dilbar	Tanglik vaziyatida qolgan bolalarga psixologik yordam	313
O'rinova Dilfuza	Oilaviy baxtni tezroq qabrga tiqish usuli	317
Бахрия Мардонова	Бола ривожланишида ота онанинг ва мактабгача таълим ташкилотининг роли	321
Qurbonova Sohiba	Kasbga yo'naltirish va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining psixologik, fiziologik salomatligi	328
Ўғилой Абдуллаева, Нозима Курбонова	Миллатнинг жонкуяр жадиди	332
Ziyayeva Barnogul	O'smir yoshidagi o'quvchilardada hulqiy og'ishlarning oldini olish	335
Махмудова Мадина, Ғулом Нормуродов	Талабалар ижодий компетенциясининг ижтимоий-психологик хусусиятларини амалий тадқиқи	338
Saidazizova Ziyoda	Avlodlar almashinuvi jarayonida qadriyatlarining o'rni va ahamiyati	342
Tosheva Dildor	Oilada sog'lom ruhiy iqlim barqarorligini vujudga keltirish usullari	347
Джураева Райхон	Ўзбекистонда психология фанининг ривожланиши ва ҳозирги ҳолати	349
Эсанова Феруза, Бобаярова Шахло	Бола тарбиясида ота-оналарга маслаҳат	352
Tadjibayeva Shoxista	Агрессия ва тажаввузкорликни ўрганиш усуллари	356
Tadjibayeva Shoxista	Спортдаги агрессивлик муаммоси ва унинг спортчилар мослашувига таъсири	360
Rahmonova Dilshoda, Yusupova Munira	Boshlang'ich sinflarda zamonaviy texnikalardan foydalanishning ahamiyati va bola psixologiyasiga ta'siri	365
Valiyeva Hilola	O'zbekistonning yangicha turizm salohiyati	367
Yorboboyeva Iroda	Ota-onaning bola tarbiyasiga psixologik ta'siri	373
Pulatova Gulnoza, Abdusalomov Ro'zimatjon	Psixoanalitiklarning ishlarida mehr va ajralish muammolari	376
Otaqo'ziyeva Madina	Maktabgacha yoshdagi bolalar mustaqil fikrlashining rivojlanishida	378

Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази

	ijtimoiy omillarning o'рни	
Отақо'зиёва Madina	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv - maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini kompleks tashxislash va korreksiyalashning asosi	381
Jamilova Zebiniso	Tarbiyasi sho'x o'quvchilar bilan ishlashda trening mashg'ulotlarining roli	384
Акбарова Динара	Мактаб ўқувчилари ўртасида юзага келадиган низоларни олдини олиш - таълим самарадорлигининг омили сифатида	387
Botirova Maxliyo	Noto'liq oilalardagi o'smirlarning ijtimoiylashuvi jarayonining tashqi va ichki determinatlari	391
Махамаджонова Муслима	Здоровье и психологическое благополучие личности в глобальном мире	394
Tuychiyeva Shaxlo	Мактабгача та'лим ташкилоти педагог ходимларида stress muammosi	400
Сайдалиева Меҳринисо	Ғарб олимларининг диний эътиқодга психологик феномен сифатидаги ёндашувлари	404
Kelebayeva Aynura	Oilaviy munosabatlarning bola shaxsida ijtimoiy-psixologik munosabatlarning shakllanishiga ta'siri	407
Nazira Primbetova	Toliq bolmaган shańaraqlardaғи óspirimlerde deviant minez xuliqtiń aldin aliw boyinsha pedagoglar ushin metodikalıq usinislar	412
МУНДАРИЖА		419



Тошкент 2022